TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

# TARJIMASHUNOSLAR FORUMI - 2022

# ФОРУМ ПЕРЕВОДОВЕДОВ - 2022

# TRANSLATION FORUM - 2022

## XALQARO FORUM TO‘PLAMI

2022

XALQARO FORUM TO‘PLAMI

1-KITOB

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

# TARJIMASHUNOSLAR FORUMI – 2022

***(Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari)***

**2022-yil 10-12- dekabr, Toshkent**

# ФОРУМ ПЕРЕВОДОВЕДОВ – 2022

***(Материалы международной научно-практической конференции)***

**Ташкент, 10-12 декабря 2022 г.**

# TRANSLATION FORUM – 2022

**Proceedings of the international scientific conference**

**December 10-12, 2022. Tashkent**

# 1-KITOB

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**“TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2022” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). 1-KITOB. –Toshkent: TDSHU, 2022. − 447 b.**

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-sonli Farmoyishining 1-ilovasiga muvofiq 2022-yilning 10-12 dekabr kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Tarjimashunoslar Forumi – 2022” **Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman** ishtirokchilari, ushbu ilmiy yo‘-nalishda tadqiqotlar olib borayotgan respublika OTMlarining professor-o‘qi-tuvchilari, mutaxassilar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, ama-liyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid mavzular yoritilgan maqolalari o‘rin olgan.

Tuzuvchi va mas’ul muharrir: filol.f.d., dotsent **Xayrulla Hamidov**
**Konferensiya tashkilotchilari**:
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

**Tashkiliy qo‘mita:**
**Prof. G.Rixsiyeva - rais**
dots. X.Hamidov
dots. N.Xodjayeva
dots. R.Sharipov
dots. M.Saliyeva
dots. v.b. N.Ismatullayeva

**Taqrizchilar:**
dots. Ergash Ochilov
dots. Nilufar Xodjayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022-yil 03-noyabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

*Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.*
*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.*

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
© TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori**
**Gulchehra Shavkatovna RIXSIYEVAning**
**KIRISH SO‘ZI**

Hurmatli O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi vakillari!

Muhtaram O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vakillari!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Avvalambor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi nomidan “Tarjimashunoslar forumi-2022” xalqaro ilmiy anjumanining barcha mehmonlariga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalar qatorida ilm-fan taraqqiyoti sohasida ham qator islohatlar olib borilmoqda.

“2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta’lim, madaniyat, fan, adabiyot, san’at va sportni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-son qaroriga muvofiq o‘tkazilayotgan “Tarjimashunoslar forumi-2022” xalqaro ilmiy anjumani, O‘zbekistonda tarjimashunoslik sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda mahalliy va xorijlik olimlar, Turkiya, Hindistion, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlardan kelgan xorijiy olimlarning ilmiy g‘oyalari va tajribasini birlashtiradi.

2012 yildan buyon respublika miqyosida o‘tkazib kelingan va bugunga kelib xalqaro ilmiy-amaliy anjuman darajaiga ko‘tarilgan ushbi forum o‘zbek tarjimashunoslida o‘ziga xos brend bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘tgan 11 yil mobaynida forum tarjimashunoslik masalalari, tarixi va nazariyasi, tarjima amaliyoti va tanqidi muammolari, tarjimashunoslik fanlarini o‘qitish va boshqa masalalarni qamrab olgan xalqaro maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston tarjimashunos olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy maqolalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilib, tarjimashunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shmoqda.

Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning muhim bir bo‘lagini tashkil etayotgan bugungi kunda ana shu ma’naviy boylikni asrash, uni e’zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyotimiz orqali xalqaro

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

aloqalarimizni yanada kuchaytirish universitetimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Jahon adabiyoti namunalarining tarjima orqali madaniy hayotimizga kirib kelishi tarjimashunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yuz yillar davomida dunyo xalqlarning milliy madaniyati, an’analari, urf-odatlari, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, badiiy tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda tarjima muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Millatimizning badiiy tafakkuri oynasi bo‘lmish adabiyotimiz durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ishini keng miqyosda amalga oshirish esa bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylanganligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, tarixiy hujjatlar tasdiqlab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680 sonli qaroriga ko‘ra ta’lim muassasamizga universitet maqomi berildi. Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida bir qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular orasida yangi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura ma faoliyati bilan bog‘liq yangi gid hamrohlik va tarjimmutaxassisliklarini ochish masalasi ham bo‘lib, bu o‘quv yilidan aynan tarjionlik, xalqaro jurnalistika, sinxron tarjima bo‘yicha mutaxasssislar tayyorlash ishlari boshlandi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi ham yo‘nalishlari kengayib, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika deb nomlandi, talabalar kontingenti keskin ko‘paydi. Bularning barchasi xalqaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sharq tillari bo‘yicha tarjimon mutaxassislarga bo‘lgan katta ehtiyojdan tashqari, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ularning soni va sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bilan bog‘liq, albatta.

Ushbu forum universitet oldiga qo‘yilgan vazifalar doirasida faoliyatimizni tanishtirish, ayniqsa, tarjimashunoslikning barcha yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashning muhim jihatlarini muhokama qilish, o‘zbek dabiyoti namunalarini sharq tillariga va jahon adabiyotining yetuk

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalalari yuzasidan mutaxassislar va olimlar bilan fikr almashish uchun katta bir ilmiy maydon bo‘lishi shubhasiz.

“Tarjimashunoslar Forumi – 2022” to‘plamining ushbu soni taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor, ijodkor, mudarris va murabbiy, O‘zbekistonda tarjimashunoslik faniga asos solib, o‘ziga xos maktab ham yaratgan ustoz **G‘aybulla Salomov tavalludinin**g 90 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, undan bugungi anuman ishtirokchilari hisoblangan taniqli tarjimonlar va sohaning eng ko‘zga ko‘ringan olimlari hamda TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid dolzarb mavzular yoritilgan ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Respublikamiz va undan tashqarida tanilgan adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunos olimlarning ushbu Forumga ishtirok etish uchun ma’ruza mavzulari va maqolalarini tashkiliy qo‘mitaga yuborganliklari anjumanning nufuzi va saviyasini ko‘rsatmoqda. TDShU professorlari, dotsentlarining forum tashkiliy qo‘mitasiga yuborgan ilmiy maqolalari ham shular jumlasidandir.

Bugungi anjumanga ishtirok etayotgan muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar va o‘zbek tarjimashunosligining jonkuyarlari bo‘lgan taniqli olimlar va tadqiqotchilarga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati va jamoasi nomidan minnatdochilik bildirgan holda, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Fursatdan foydalanib, barcha ishtirokchilarga va hamkor tashkilotlarimizga samarali va konstruktiv hamkorlik uchun, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi jamoasiga ushbu anjumanni tashkil etish va o‘tkazishdagi mehnatlari uchun o‘zimning samimiy minnatdorligimni bildirmoqchiman.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATGAN FAN ARBOBI, XALQARO BOBUR MUKOFOTI SOVRINDORI, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR G‘AYBULLA SALOMOV TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN MAQOLALAR

## QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK TIZIMIDA TARJIMASHUNOSLIK
## (professor G‘aybulla Salomov ilmiy faoliyati misolida)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-7-17

**Akmal SAIDOV**,
akademik, yuridik fanlar doktori,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori.
Tel: +998 71 239 13 58.
zpom@parliament.gov.uz. 100035. info@nhrc.uz 100029.

**Annotatsiya:** *Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi rivojida tarjimachilikning tutgan o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Birinchi navbatda, “qiyosiy adabiyotshunoslik” tushunchasining kelib chiqishi va mazmun-mohiyati talqin etilgan. Qiyosiy adabiyotshunoslikning tarjima sohasi bilan uzviy aloqadorligi o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi professor G‘aybulla Salomovning ilmiy-amaliy faoliyati misolida ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *komparativistika, xalqaro adabiy aloqalar, adabiy g‘oya va talqinlar migratsiyasi, qiyosiy-tarixiy uslub, badiiy tarjima, o‘zbek tarjimashunoslik maktabi.*

**Аннотация**: *Обсуждается роль и значение перевода в развитии области сравнительного литературоведения. В первую очередь, разъясняется происхождение, сущность и содержание понятия «сопоставительное литературоведение». Неразрывная связь сравнительного литературоведения со сферой перевода раскрывается на примере научно-практической деятельности профессора Гайбуллы Саломова, основоположника узбекской школы перевода.*

**Ключевые слова**: *компаративистика, международные литературные связи, миграция литературных идей и интерпретаций, сравнительно-*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*исторический метод, художественный перевод, узбекская переводоведческая школа.*

**Abstract:** *The role and significance of translation in the development of the field of comparative literature is discussed. First of all, the origin, essence and content of the concept of "comparative literary criticism" is explained. The inseparable connection of comparative literature with the field of translation is revealed on the example of the scientific and practical activities of Professor Gaibulla Salomov, the founder of the Uzbek school of translation.*

**Key words**: *comparative studies, international literary relations, migration of literary ideas and interpretations, comparative historical method, literary translation, Uzbek school of translation studies.*

Qiyosiy adabiyotshunoslik – adabiyot tarixining xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, turli mamlakatlardagi adabiy-badiiy voqea-hodisalarning o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganuvchi mustaqil yo‘nalishidir [1]. Bu maktab namoyandalari, bir tomondan, asosiy e’tiborni adabiy oqimlar, milliy va xorijiy adabiyotlar, obraz va syujetlar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlashga qaratadi. Boshqa tomondan esa, adabiy g‘oya va talqinlar migratsiyasini, ya’ni bir xalq adabiyotining boshqa xalq adabiyotiga ta’siri va o‘zaro o‘zlashtirilishini jahon adabiy taraqqiyotning muhim omili deb qaraydi.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik sohasi ilm-fanda «komparativistika» deb ham nomlanadi. Bu lotincha atama «qiyoslamoq» degan ma’noni anglatadi. Ushbu maktab XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada paydo bo‘lgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasiga germaniyalik filologlar, xususan, Iogann Gotfrid Gerder (1744-1803) asos solgani e’tirof etiladi. U o‘zining adabiyotni tarixiy-qiyosiy o‘rganish uslubini «Eng yangi nemis adabiyoti xususida. Parchalar» (“*Fragmente zur deutschen Literatur”*, Riga, 1766-1768) va «Tanqid o‘rmonzori» (“*Kritische Wälder”*, 1769) asarlarida bayon etgan.

Ma’lumki, I.G.Gerder adabiy jarayonni har bir xalqning tarixiy va ma’naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rgangan. Olim adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy uslubning ahamiyatiga e’tibor qaratar ekan, bunda dunyodagi turli xalqlarga mansub adabiy yodgorliklarning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida urg‘u beradi. Uning qayd etishicha, qiyosiy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

adabiyotshunoslik sohasining shakllanishida birinchi navbatda xalqaro tarixiy-iqtisodiy aloqalar muhim omil bo‘lgan.

Keyingi davrda bir qator taniqli adabiyotshunos olimlar qiyosiy adabiyotshunoslik sohasini izchil rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan. Rossiyalik adabiyotshunos olimlar A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy va N.I.Konrad; Fransiyadan – F.Baldansperje va P.van Tigem; AQShdan – V.Friderix va R.Uellek, Germaniyadan – K.Vays shunday olimlar sirasiga kiradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy vazifasi jahon adabiyoti xaritasining rang-barang milliy manzaralarini ilmiy-ijodiy talqin etishdan iborat. Milliy adabiyotlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish asosidagina jahon adabiyoti rivojining asosiy mezonlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, qiyosiy adabiyotshunoslik bizga ham o‘zbek adabiyotini, ham jahon adabiyotini o‘rganish uchun nihoyatda zarur [2, 772].

“Jahon adabiyoti” degan ibora ilk bor ulug‘ nemis shoiri va mutafakkiri Iogann Volfgang Gyote tomonidan 1827 yili istifodaga kiritilgan. Gyote qo‘llagan “*Weltliteratur*” tushunchasi keyinchalik “jahon adabiyoti”, “umum adabiyoti”, “umumjahon adabiyoti” kabi turli shakllarda ishlatila boshlandi.

Ma’no jihatidan, “jahon adabiyoti” tushunchasi – sayyoramizning barcha qit’alarida insoniyatning butun tarixi davomida yaratilgan milliy adabiyotlarga mansub jamiki badiiy matnlarni to‘laligicha o‘zida qamraydi. Hayotiy qamroviga ko‘ra, “jahon adabiyoti” – adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan va adabiyotshunoslar e’tirofiga sazovor bo‘lgan adabiy-badiiy yodgorliklarning jamlanmasidir.

Jahon adabiyoti ba’zi o‘rinlarda “umumjahon adabiyoti” deya atalishi bejiz emas. Chunki har qanday yetuk adabiy asar o‘zi yaratilgan mamlakat va mintaqa sarhadlarini oshib o‘tib, albatta, umumjahon adabiyoti mulkiga, umumbashariy qadriyatlarga aylanadi. Buning natijasida G‘arb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarida adabiy jarayonning tom ma’nodagi birligi va birdamligi yuzaga keladi.

Gyote “jahon adabiyoti” tushunchasi haqida so‘z yuritganda, xuddi shu fikrni nazarda tutgan va bu umumjahoniy adabiyot endi shakllana boshlaganini qayd etgan. XIX–XX asrlar oralig‘ida ushbu tendensiya ye-

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

takchi o‘ringa ko‘tarildi. Ma’naviy hayotning baynalmilallashuvi global ahamiyatga ega omilga aylandi. XX asr boshida “jahon adabiyoti” tushunchasining uchta asosiy talqini qaror topdi.

Birinchi talqin: ibtidoiy urug‘-qabilalarning sodda-jo‘n qo‘shiqlaridan tortib, hozirgi davrning yuksak darajada rivojlangan xalqlari adabiy-badiiy ijodining rang-barang janrlarigacha bo‘lgan barcha asarlar jamlanmasi – bu jahon adabiyotidir.

Ushbu talqinning muammoli jihati ham bor. Tadqiqot mavzusining bu qadar chek-chegarasiz ekani, o‘z navbatida, uni o‘rganish uchun muayyan tadqiqotchining intellektual salohiyati va imkoniyati (vakolati) yetishmasligiga olib kelishi tayin[3].

Shu bilan birga, nemis adabiyotining ulug‘ namoyandalaridan biri, Nobel mukofoti sohibi Hermann Hesse ta’kidlaganidek, “Jahon adabiyotining muhtasham galereyasi har bir odamning nigohi qarshisida ochiq va hech kim uning boyligidan cho‘chimasligi kerak, chunki bu o‘rinda miqdorning ahamiyati yo‘q”[4,5].

Ikkinchi talqin: jahon adabiyoti – barcha millatlarning adabiy-badiiy boyliklaridan tanlab-saralab olingan va jahon adabiyoti durdonalari sifatida e’tirof etilgan kam sonli, ayni chog‘da, yuksak badiiy saviyali asarlar turkumidan iborat. Misol uchun, 1967-1977 yillarda, ya’ni sobiq ittifoq zamonida Moskvadagi «Художественная литература» nashriyoti 200 jilddan iborat «Jahon adabiyoti kutubxonasi» («Библиотека всемирной литературы») turkumini chop etgan. Keyingi yillarda O‘zbekistonda “Yangi asr avlodi” nashriyoti milliy adabiyot nodir namunalaridan 50 ta va jahon adabiyoti durdonalaridan 50 ta kitobni nashrdan chiqardi. Shuningdek, 2015 yildan boshlab O‘zbekistonda “Jahon adabiyoti durdonalari” turkumidagi kitoblarni nashr ettirishga kirishildi [5, 612].

Ayni chog‘da, jahon adabiyoti tushunchasining bu talqini ko‘proq romantiklar ruhiyatiga yaqin bo‘lib, bir tomondan, ushbu turkumga kiritish mumkin bo‘lgan asarlarni saralash jarayoni o‘ta mushkul, ikkinchi tomondan, ularni tanlash mezonlari juda o‘zgaruvchandir. Ushbu masalani alohida o‘rgangan Diter Lamping va Frank Sipfel ta’biri bilan aytganda, bunday yondashuv anchayin noxolis va bahsli baholar uchun ham yo‘l ochishi mumkin[6, 9].

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Uchinchi talqin: jahon adabiyoti tushunchasi sivilizatsiyalar taraqqiyotining muayyan bosqichidagina yuzaga keladigan jarayondir. Bu jarayon, Gyote ta'kidlaganidek, adabiyotlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va o'zaro boyishi uchun xizmat qiladi[7, 787].

Germaniyalik olim Xorst Shteynmets esa "jahon adabiyoti" tushunchasining mutlaqo boshqacha talqinini ilgari surgan. Uning fikricha, jahon adabiyoti – avvalboshdanoq millat va til bilan bog'liq tafovutlarga barham berishga yo'naltirilgan iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy taraqqiyot mahsulidir[8, 103-126].

Bu talqin zamirida olimning rivojlangan kapitalizm davriga xos olamshumul jarayonlarni baynalmilallashtirish nazariyasi yotadi. Bunda jahon adabiyoti mazkur voqelikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Yana bir nemis olimi Erix Auerbax ham baynalmilallashuv sharoitida adabiyotni gomogenlashtirish, ya'ni birxillashtirish tendensiyasiga e'tibor qaratgan[9, 83-96].

Ushbu talqinni jahon adabiyoti taraqqiyoti tarixining cheklangan davri, ya'ni faqat XIX asrning birinchi yarmidan to XX asr oxirigacha bo'lgan 150 yildan ko'proq davriga nisbatan tatbiq etsa bo'ladi, xolos. Jahon adabiyotining bunga qadar kechgan uzoq asrlik tarixini qamray olmasligi ushbu talqinning eng katta kamchiligidir.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, ilmiy jihatdan yondashganda, jahon adabiyotining keng sohalari, ayniqsa, qiyosiy adabiyot tarixi va qiyosiy adabiyot nazariyasining dolzarb muammolarini o'zida aks ettiradi. Yanada ahamiyatlisi, qiyosiy adabiyotshunoslik faqat badiiy adabiyotni o'rganish bilangina cheklanib qolmaydi, balki san'atning boshqa turlariga ham murojaat qiladi. Shu tariqa, qiyosiy adabiyotshunoslik boshqa sohalardagi tadqiqotlarga bemalol tayanadi. Bu esa mazkur sohaning fanlararo fan ekanidan dalolat beradi. Qolaversa, qiyosiy adabiyotshunoslik bizga ham o'zbek adabiyotini, ham jahon adabiyotini o'rganish uchun nihoyatda zarur. Albatta, ushbu sohada tadqiqot olib borgan va olib borayotgan olimlar dunyo miqyosida, shu jumladan, O'zbekistonda ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo, biz bu o'rinda ayni mavzuga batafsil to'xtalmoqchi emasmiz.

Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi tadqiqot predmeti nuqtai nazaridan, odatda, tarjimashunoslik sohasiga yaqin turadi. Ayrim xorijiy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

mutaxassislarning fikricha, badiiy tarjima sohasi ham, aslida, qiyosiy adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Buning zamirida "tarjima nazariyasi dastlab qiyosiy adabiyotshunoslik negizida qiyosiy-tajribaviy uslub sifatida shakllangan", degan g'oya yotadi[10].

Bugungi kunda badiiy tarjima mustaqil fan sifatida o'zining alohida nazariya va amaliyotiga ega ekaniga qaramay, badiiy tarjima sohasiga taalluqli muammolar ayni paytda qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham keng tadqiqot maydoni sifatida namoyon bo'ladi.

Binobarin, adabiyotlararo va madaniyatlararo o'zaro hamjihatlik munosabatlarini o'rnatish hamda mustahkamlash – badiiy tarjima va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalari oldidagi eng asosiy vazifadir. Ularning o'zaro yaqinligi ham aynan shu vazifaning amalga oshirilishi jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu ma'noda, yurtimizdagi ko'pchilik jurnalist va tarjimonlar, olim va adiblarning ustozi – atoqli olim hamda hassos publitsist G'aybulla Salomovning bu sohadagi ilmiy-amaliy faoliyati ulkan ahamiyatga egaligi xususida so'z yuritish ayni muddaodir. Kamina ilmiy-ijodiy tadqiqotlarni keyinchalik G'aybulloh as-Salom taxallusi bilan e'lon qilgan ushbu atoqli olim bilan XX asrning 80-yillari oxirida, til muammolarini o'rganish va xalq bayramlari hamda marosimlarini tiklash yuzasidan tuzilgan komissiya tarkibida birga faoliyat yuritgan davrimizda bevosita tanishish imkoniga ega bo'lganman.

G'aybulla Salomov o'sha vaqtlarda, yanada aniq qilib aytganda, 1982 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga, 1984 yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan. Domla 1993 yili yuksak davlat mukofoti – "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan taqdirlangan.

"Yaxshidan bog' qoladi", deydi xalqimiz. Yaxshi olimdan-chi? Albatta, avvalambor, ko'z nuri va qalb qo'rini, aqlu zakovatini, ta'bir joiz bo'lsa, butun umrini sarflab yaratgan o'ziga xos ilmiy maktabi qoladi. Ustoz G'aybulla Salomov o'zidan ayni shunday maktab qoldirgan mavlono zotlardandir[11].

O'tgan davrda fidoyi shogirdlar professor G'aybulla Salomov ilmiy maktabiga xos asosiy prinsiplarni chuqur o'rgandilar. Bular quyidagilardan iborat:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**birinchi prinsip** – tarjima va xalqaro adabiy aloqa, qiyosiy adabiyotshunoslik birga o‘rganilishi lozim;

**ikkinchi prinsip** – bu jaryonda qiyosiy tilshunoslik yutuqlariga tayanilishi, til va adabiyot hodisalari birgalikda olib qaralishi shart;

**uchinchi prinsip** – tarjimashunoslikda uslublar chog‘ishtiriladi, muallif uslubi va tarjimon uslubi to‘qnash keladi, yozuvchi uslubi tarjimon uslubi orqali reallashadi;

**to‘rtinchi prinsip** – tarjima keng ma’nodagi ijodkorlikdir, ammo u asarni o‘zgartiradigan ijodkorlik emas. Bu “o‘zgalar orqali o‘zini va o‘zi orqali o‘zgalarni namoyon etish” san’atidir;

**beshinchi prinsip** – badiiy tarjimada ichki sharh — interpretatsiya bo‘lib turadi, biroq bunda me’yorni saqlash darkor;

**oltinchi prinsip** – tarjimashunoslik umumfilologik ilm bo‘lib, uni bir soha bilan chegaralab qo‘yish noo‘rindir.

Shu bilan birga, sohaning piri bo‘lmish G‘aybulloh as-Salom fikricha, tarjimashunoslik – qomusiy fan. U o‘z tarkibiga tarix, nazariya va tanqid, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik va tipologiya, til, grammatika, uslubiyot, lug‘at, xalq og‘zaki ijodi, atamashunoslik, iborasozlik (frazeologiya), maqolshunoslik va matalshunoslik (paremiologiya), falsafa, mantiq, etnografiya, ruhshunoslik (psixologiya), bayon va insho, matnshunoslik, mamlakatshunoslik kabi fanlarni qamraydi.

O‘zbek olimi sobiq tuzum davridayoq asos solgan tarjimashunoslik maktabining dovrug‘i nafaqat yurtimiz, balki dunyo miqyosida, xususan, Fransiya, Bolgariya, Slovakiya, Turkiya, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Armaniston, Ozarboyjon, Qozog‘iston, Tojikiston mamlakatlari ilmiy doiralarida e’tirof etilgan.

Yana bir ahamiyatli jihat – G‘aybulla Salomov rus, tojik, ozarboyjon tillarida yoza olgan va shu tillarda maqolalar chop ettirgan. Domlaning xorijiy davlatlarda doimiy aloqada bo‘lgan hamkasblari, do‘stlari ham ko‘p bo‘lgan.

Chindan ham, “G‘aybulla Salomovning o‘zbek tarjimashunosligi maktabi” deya nom olgan ilmiy maktab mamlakatimiz, hattoki jahon ilm-fani ravnaqida beqiyos o‘ringa ega. Bu maktab istiqlol yillarida adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va tarjimachilik sohalari taraqqiyotiga ayniqsa munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Taniqli olimlar Abduzuhur Abduazizov va Najmiddin Komilov o‘z davrida haqli ravishda e’tirof etganidek, G‘aybulla Salomovning ilm-fan rivoji yo‘lidagi samarali xizmatlari tufayli tarjimashunoslik – ikki tildagi matnni chog‘ishtirish yoki bir tildagi ma’noning ikkinchi tilda aks etishini aniqlashgina emas, balki o‘zbek tilining salohiyati, boyligi va imkoniyatlarini ko‘rsatish, jahon adabiyotini milliy zaminda qayta yaratish ekani tan olinib, tarjimashunoslik shu jarayonni umumfilologik aspektda tadqiq qiladigan fan ekanligi aniqlandi. Tarjima Vatan adabiyotini boyitish, o‘zaro ma’naviy qadriyatlar, fikr-g‘oyalar almashish vositasi, tarjimon esa chinakam ijodkor adib deb qaraladigan bo‘ldi[12].

Domlaning bevosita sa’y-harakatlari bilan o‘sha paytdagi ToshDU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) negizida sobiq ittifoqda birinchi bo‘lib “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi tashkil etilgandi.

G‘aybulla Salomov mamlakatimizda eng ko‘p shogirdlar tarbiyalagan zahmatkash olimlardan biridir. Bizdagi ma’lumotlarga qaraganda, domlaning ilmiy rahbarligida 67 kishi fan nomzodi, 8 kishi fan doktori bo‘lgan. Ular orasida mamlakatimizning ko‘zga ko‘ringan fan va madaniyat xodimlari, jamoat arboblari bor[13].

Ustozning badiiy tarjimachilik va tarjimashunoslikka doir ilmiy-nazariy asarlari kutubxonalarda, Internet sahifalarida faol izlab-topib o‘qilayotgan nashrlar sirasiga kiradi.

Jumladan, «Maqol va idiomalar tarjimasi» (1961), «Til va tarjima» (1966), «Tarjima nazariyasiga kirish» (1978), «Do‘stlik ko‘priklari» (1970, N.Komilov bilan hamkorlikda), «Adabiy an’ana va badiiy tarjima» (1980), «Tarjima nazariyasi asoslari» (1983) kabi kitoblari tadqiqotchilar, o‘qituvchi va talabalar uchun muhim hamda qiziqarli manbalar hisoblanadi.

Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin. Ya’ni, olim bo‘laman degan kishiga naqadar katta talablar qo‘yilishini, xususan, undan tom ma’noda ilmli va izlanuvchan, mehnatsevar va kamtar, halol va xolis, jonkuyar va fidoyi, sodiq va vatanparvar bo‘lish talab etilishini bilamiz. Ammo, odam bo‘lish uchun bu fazilatlarning o‘zigina hali yetarli emas.

Aytmoqchimanki, G‘aybulla aka avvalo o‘zlari ulug‘ alloma va pokiza qalbli zot sifatida umr bo‘yi talaba-yu shogirdlariga tarjima nazariyasi va amaliyoti darsi bilan bir qatorda, insoniylik, odamiylik va odamoxunlikdan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

saboq berdilar. Bundan ming yillar ilgari Abu Ali ibn Sino “Yaxshi inson – yerdagi farishta”, degan ekan. Bu aynan G‘aybulloh as-Salomga mos va xos ta’rifdir.

Domla mohir tarjimon va munaqqid, publitsist va shoir ham edi. Buni u kishining G‘aybulloh as-Salom taxallusi bilan bitilgan “Ey, umri aziz”, “Armon”, “Vahiydan kelur bir sado”, “Tolibnoma” (S.Umirov bilan hammualliflikda), “Ezgulikka chog‘lan, odamzod”, “Halollik bozorda sotilmaydi”, shuningdek, “Jahongashta “Boburnoma” (N.Otajonov bilan hammualliflikda) kabi ma’naviyat va ma’rifat, tarix va madaniyat masalalariga oid bir qator asarlari yaqqol tasdiqlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ustoz G‘aybulla domla bilan yana ko‘rishib, bir muddat muloqotda bo‘lish imkoni tug‘ilgan edi. O‘shanda domla Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tinglovchilariga islom huquqidan dars berayotganimni so‘rab bilgach, “Juda to‘g‘ri, adolat posbonlari bugun qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini ham, olis moziydagi fiqh va shariat arkonlarini ham o‘zlashtirgani maqbul”, degan edilar.

So‘ngra ustoz portfellaridan yangi chiqqan uchta kitobini olib, har biriga alohida qunt, mahorat va mehr bilan dastxat bitib berganlar. Bugun kitobxon, kitob va kutubxona mavzusida so‘z ochilsa, shaxsiy kutubxonamda taniqli olim va adiblarning dastxati yozilgan yuzdan ortiq nodir kitob borligini faxr bilan aytaman. Shu kitoblar orasida ustoz G‘aybulloh as-Salomning shaxsan tuhfa etgan kitoblari men uchun nihoyatda mo‘tabardir.

Professor G‘aybulloh as-Salom umrining Mustaqillik yillariga daxldor qismini navqiron avlod istiqboliga, bo‘lg‘usi rahbar kadrlarga ma’ruzalar o‘qish va ma’naviy-ma’rifiy asarlar yozishga bag‘ishladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Yurtimizning barcha hududlari kabi Navoiy viloyatida ham butun hayotini xalqimiz uchun kitoblar, badiiy asarlar yozishga bag‘ishlagan fidoyi insonlar ko‘p. Masalan, Toshpo‘lat Hamid, G‘aybulla Salomov, Oydin Hojieva, Odil Hotamov, Ashurali Jo‘raev, Qodir Jo‘raqulov kabi taniqli shoir va yozuvchilar, ilm-fan va madaniyat namoyandalarini yurtimizda ko‘pchilik yaxshi biladi” [14].

Xulosa qilib aytganda, **“G‘aybulloh as-Salom Istiqlol uchun nima berdi?”** degan savol o‘rtaga tashlanadigan bo‘lsa, avvalo, G‘aybulla

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

akaning o‘zbek tarjimashunosligi maktabini asoslab, bu ilm sohasini ham nazariy jihatdan puxta ishlab chiqqani, ham uni tahsil-ta’lim jarayoniga amaliy tatbiq etgani – milliy madaniyat va ilm-fan taraqqiyotiga, demakki milliy mustaqilligimizga qo‘shgan katta ulushi bo‘lganini mamnuniyat bilan e’tirof etaman.

Shuningdek, G‘aybulla Salomov avvalboshda lug‘atchilik va qomuschilik masalalariga doir yetuk ilmiy ishlar yozgan bo‘lib, keyin shu asosda Ibrohim Mo‘minovdek zabardast alloma bilan yelkama-yelka turib, dastlabki milliy qomusimiz tamal toshini qo‘yganlardan biri bo‘lgani ham har qancha tahsinga loyiqdir.

Bundan tashqari, sobiq tuzum davrida qirg‘in-qatag‘on qilingan Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq, Abdulhamid Cho‘lpon, Mirzakalon Ismoiliy, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom kabi ziyolilarimizning tarjima merosi G‘aybulla Salomovning ko‘p yillik mehnati tufayli o‘rganildi va bu adiblarning tarixiy xizmati munosib taqdirlandi.

Alqissa, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor G‘aybulla Salomovni 90 yilligi bilan muborakbod etish imkoniyati tug‘ilgani menga cheksiz mamnuniyat va faxr-iftixor bag‘ishlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Жирмунский В. М., Сравнительное литературоведение и проблема литературных влияний, «Изв. АН СССР. Отд. обществ, наук», 1936, № 3; Жирмунский В. М., Взаимосвязи и взаимодействия hatsionaльных литератур. Материалы дискуссии, М., 1961.
2. А.Х. Саидов. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020.
3. Rüdiger H. Literatur und Weltliteratur in der modernen Komparatistik // Weltliteratur und Volksliteratur, hrgb. von Albert Schäfer. München: C.H. Beck Verlag, 1972. S. 36-54; Birus H. Art. Weltliteratur // Reallexikon der deutschen Literaturwissenschaft. Nuebearbeitung des Reallexikons der deutschen Literaturgeschichte. Gemeinsam mit Georg Braungart, Harald Fricke, Klaus Grubmüller, Friedrich Vollhardt und Klaus Weimar, hrgb. von Jan-Dirk Müller. Band III: P-Z. Berlin: Walter de Gruyter Verlag, 2003. S. 625-827.
4. Ҳерман Ҳессе. Жаҳон адабиёти кутубхонаси // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Т.: “Маънавият”, 2010.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

5. Жаҳон адабиёти дурдоналари: I жилд / Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015.
6. Lamping D., Zipfel F. Was sollen Komparatisten lessen? Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2005.
7. Goethe J.W. Gesamtausgabe der Werke und Schriften in 22 Bänden. 2. Abteilung: Schriften. 15. Band: Schriften zu Literatur und Theater, hrgb. von Walther Rehm. Stuttgart: Gotta Verlag, 1958.
8. Steinmetz H. Weltliteratur. Umriss eines literaturgeschichtliches Konzepts // Literatur und Geschichte. Vier Versuche. München: Iudicium, 1988.
9. Auerbach E. Philologie der Weltliteratur. Sechs Versuche über Still und Wirklichkeitswahrnehmung. Frankfurt a.M.: Fischer Verlag, 1992.
10. Ochilov, E. (2014). Glossary of translation terms. Tashkent: Institute of Oriental Studies.
11. Shoira, U. (2018). The use of modern educational technologies in teaching foreign languages (on the example of English). Образовательный процесс, (1 (3)), 29-32.
12. Попович А. Проблемы художественного перевода. – М.: «Высшая школа», 1980. – С.33; Маданова М.Х. Теоретические аспекты изучения художественного перевода в русле сравнительного литературоведения // http://www.rusnauka.com.
13. Саидов Акмал. Ватанингни рози қил // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2016 йил 16 декабрь.
14. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетасининг 2007 йил 41-сони.
15. Саидов Акмал. Ватанингни рози қил // “Ҳуррият” газетаси, 2016 йил 16 декабрь.
16. Мирзиёев Шавкат. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# SALOMOV SABOQLARI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-18-23

filol. f.n. **Zuhriddin İSOMIDDINOV**,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 93 520 72 53;
E-mail: isamiddinovz@gmail.com

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi professor G‘aybulla Salomovning ilmiy-amaliy faoliyati misolida ochib berilgan. Olimning o‘zbek tarjimashunosligi sohasiga qo‘shgan ulkan hissasiga alohida urg‘u beriladi.*

**Kalit so‘zlar**: *badiiy tarjima, o‘zbek tarjimashunoslik maktabi, “Til va tarjima” monografiyasi.*

**Аннотация:** *Обсуждается на примере научно-практической деятельности профессора Гайбуллы Саломова, основоположника узбекской школы перевода. Особый акцент делается на большом вкладе ученого в область узбекского переводоведения.*

**Ключевые слова:** *художественный перевод, переводоведческая школа, монография “Тил ва таржима” («Язык и перевод»).*

**Abstract:** *The role and practical activities of Professor Gaibulla Salomov, the founder of the Uzbek school of translation. Particular emphasis is placed on the great contribution of the scientist to the field of Uzbek translation studies.*

**Key words:** *literary translation, Uzbek school of translation, monograph “Til va tarjima” (“Language and translation”).*

G‘aybulla Salomov domla haqida so‘zlasang, bir muddat gapni nimadan boshlashni bila olmay qolasan kishi. Ko‘z oldingga bu unutilmas ustozning nurli siymosi keladi, uning dilkusho suhbatlari, har bir shogirdiga ota kabi mehribonligi yodingga tushadi-da... o‘sha damlarni eslab, domlani qo‘msab qolasan, kishi.

Kaftdekkina hovlisida joy torligidan darvozaxona ustidagi yozda dim va issiq, qishda esa ko‘chadagidan ham sovuq “ijodxona”da – yupqagina devorli, isitilmaydigan, baayni qush uyasi kabi bu maskanda saratonda terlab-pishib, qahratonda esa oyog‘ida piyma, egnida qalin paxtalik chopon, boshidagi telpakdan ham sovuq o‘tib, titrab-junjikib bo‘lsa ham betinim yozuv mashinkasini chiqillatib o‘tirib mehnat qilishlari, bu zahmat– yil-o‘n ikki oy har kuni davom etishi, boshqalar shinam

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

“kabinet”larda o‘tirib ham yoza olmaydigan yuzlab maqolayu esselar, o‘nlab kitoblar shu yerda dunyoga kelib, hayotga uchirma bo‘lganlari esa hamon yodimizda.

G‘aybulla Salomov domla oramizdan ketgan chog‘ida uncha bilinmagan ekan. Ammo oradan yillar o‘ta bergach... ayon bo‘lyaptiki, u kishi bilan birga butun bir davr ham tarix mulkiga aylangan ekan, domlaning o‘zi millatimiz ma’rifati tarixida “O‘zbek tarjimashunosligi” degan yangi bir ilm-fan sohasiga asos solgan, uni rivojlantirgan, haddi a’losiga chiqargan va... afsuski, davr taloto‘pi epkinlarida o‘zi bino qilib, tarhini tuzgan va tiklagan shu go‘zal imoratning nuray boshlaganiga, yiqilayozganiga ham guvoh bo‘lib, buning iztiroblarini-da – boshqa dardu alamlari kamday – jindekkina jussasiga sig‘dirgan ko‘yi yashab o‘tgan ekan.

Darhaqiqat, ma’rifat rivoj topgan chog‘da millat yuksaladi, madaniyat, ilm-fan, san’at barq uradi. Yigirmanchi asr (ayniqsa, uning dastlabki uch choragi)ni o‘zbek turmushining ma’rifat asri bo‘lgan edi, desak yanglishmasmiz. Aynan ana shu davrda ona tilimizga o‘nlab tillardan shu qadar ko‘p asarlar o‘girildiki, undan avvalgi qariyb o‘n asr davomida tarjima qilingan barcha asarlarni to‘plasangiz, bu tog‘ning oldidagi bir tepacha ham kelmaydi. Shuning uchun ham tarjima ilmining yuzaga kelishi uchun barcha negizlar bor edi va G‘aybulla Salomov domla filologiya fanida tarjimashunoslik tarmog‘ini yuzaga keltirishga umrini bag‘ishladi.

G‘aybulla Salomovga qadar ham Eleonora Aznaurova, Jumaniyoz Sharipov singari tarjima sohasida dissertatsiya yoqlab fan doktori bo‘lgan olimlar bor edi. Bir qarashda, tarjimashunoslik ilmining muzyorar ke-malari deb ularni aytish lozimday ko‘rinadi. Biroq ularning asosiy ilmiy faoliyati tarjima sohasida dissertatsiya yoqlab, fan doktori darajasini olish bilan o‘z poyoniga yetgan, bu ulkan jarayon (har bir mamlakatda bosilib chiqayotgan badiiy nashrlarning qariyb yarmi – tarjima asarlari)ning boshqa muammolarini atroflicha tadqiq etish maqsadi bo‘lmagan.

G‘aybulla Salomov domla tarjimani ilmiy o‘rganishni kengaytirish maqsadida ToshDU (hozirgi Milliy universitet)da birinchi bo‘lib “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini ochdi, unga Najmiddin Komilov, Tilak Jo‘ra, Hamidulla Karomatov, Mahfirat opa Shoinoyatova, Lola

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Karimova singari fidoyi tadqiqotchilarni jalb etdi. Bu mo‘jaz kafedra tevaragida esa bugungi o‘zbek tarjima ilmining deyarli barcha vakillari uyushgan edilar. Yo‘q, shugina emas, ta’bir joiz bo‘lsa, talabaligi o‘tgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillariga to‘g‘ri kelgan, hozirgi atoqli o‘zbek shoir-yozuvchilari va mutarjimlarini ustoz G‘aybulla as-Salomning huv o‘sha, muzdek boloxonasida maqola yozish chog‘ida kiyib o‘tiradigan qalin paxtalik choponi ostidan chiqqan, deb aytsak bo‘ladi. Hatto Abdulla Oripov ham bir davrada, biz tarjima qilar chog‘imiz, bunga G‘aybulla akaning nazari tushadi-ku, deya istihola qilib, shuni hisobga olib qalam tebratamiz, deb aytgani yodimda bor.

Munday olib qaraganda, har bir odam – sirdon. O‘zgalarning sirlariga oshno bo‘ladi, kuchli va ojiz tomonlarini ko‘radi, ammo ichida saqlaydi, oshkor qilavermaydi. O‘z hayotida domla ham talay odamlar bilan ro‘para kelgan, ular bilan munosabatga kirishgan, har biri haqida shaxsiy fikri bo‘lgan albatta, ammo bularning ko‘pini hech kimga oshkor qilmay o‘zi bilan olib ham ketish uchun ham... zo‘r iroda kerak ekan shekilli.

Toshkentga kelib yangi ish boshlaganida juda yosh edi. Kuch-g‘ayrati ichiga sig‘masdi. Tarjima ilmining lingvistik yo‘nalishida sohasida ishlagan, bu sohada kitoblar chiqargan bo‘lsa-da (“Maqol, matal va idiomalar tarjimasi”, “Til va tarjima” monografiyalarini eslang), o‘zbek ilm-fanida mutlaqo yangi soha bo‘lgan milliy ensiklopediya yaratishga jalb etildi va bunga boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi. Tabiatan ilm-fanning turli sohalariga qobiliyatli bunday olimning jamoaga qo‘shilishi uzukka ko‘z qo‘yganday bo‘ldi. G‘aybulla Salomov tezda nazarga tushib, bosh muharrir, akademik Ibrohim Mo‘minovning o‘ng qo‘l vaziri – birinchi muovinga aylandi, akademiya vitse-prezidenti bo‘lgan allomani ko‘p tashvishlardan ozod etib, birinchi o‘zbek qomusining ilmiy prinsiplarini ishlab chiqishdan tortib, kadrlar topib ishga olishga qadar barcha yumushlar bilan shug‘ullandi. Albatta, ko‘p vaqt o‘tmasdan, ichiqora kimsalar Ibrohim Mo‘minov bilan uning orasini sovutishga urinib... bunga muvaffaq ham bo‘lishgan. Mavqei juda baland I.Mo‘minovning yaqinlari bu “o‘zboshimcha” yigitni nafaqat ensiklopediya, balki akademiyadan ham ixroj etilishiga erishadilar. Oqibat, birinchi o‘zbek ensiklopediyasi ishida boshboshdoqlik yuzaga keladi, ilmiy prinsiplar buziladi, o‘n to‘rt jildlik kitob tahririy va poligrafik jihatdan qusurlarga serob bo‘lib chop etiladi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Yosh olim Samarqandga qaytadi, ammo bu qaytish esa uning hayotida baayni bir hijrat kabi rol o‘ynaydi – u Samarqandgagina emas, tarjima ilmiga ham qaytgan edi. Darhaqiqat, ko‘p fursat o‘tmay, Toshkent davlat universitetining dotsenti sifatida ish boshladi, jurnalistika fakulteti tarkibida zikr etilgan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini ochdi.

Domla keyinchalik qancha esdalik va xotiralar yozib chiqqan bo‘lmasin, boyagi voqealarning tafsilotlarini bitarkan, kimlarnidir aybdor qilib noligani, qoralaganini ko‘rmadik. Chunki ustozimiz... sirdon odam edi. Jumladan, Ibrohim Mo‘minovni doim ehtirom bilan tilga olar, e’zozlardi.

Bu o‘rinda domlaning “Maqol, matal va idiomalar tarjimasi”, “Til va tarjima”, “Ey, umri aziz”, “Tarjima nazariyasiga kirish”, “Tarjima tarixi”, “Tarjima nazariyasi asoslari”, “Tarjima tashvishlari”, “Ezgulikka chog‘lan, odamzod!”, «Armon», «Vahiydan kelar bir sado», «Tolibnoma», «Halollik bozorda sotilmaydi» kabi o‘nlab kitoblarini tavsiflash shart emas; bular ahli ilm va ahli ta’b orasida juda mashhur.

Domla juda katta ilmiy va ijodiy potensialga ega edi. Ammo taqdir u kishining boshiga ko‘p va xo‘p sinovlar soldi. Tuya qancha katta bo‘lsa, yag‘iri ham shuncha, deganlariday, iste’dodi qancha katta bo‘lsa, sodda-do‘lvorligi ham shundan kam emasdi. Halollik va prinsipiallik u kishining hayotiy a’moli edi. Birov eshitsa, bovar qilmaydigan bir misol aytay: G‘aybulla Salomov dorilfununda qancha yillar ishlagan bo‘lsa, biron yil ham qabul imtihonlariga qatnashgan emas – bundan or qilar, har yili bosh tortar edi. Turgan gapki, shuning o‘ziyoq bu “non yemas” olimga qarshi kimsalarni ko‘paytirdi.

Domlaning ko‘zlagani esa bo‘lak edi. “*Kaminaning avval boshdan maqsadi,* – deb yozadi olim, – *Qomus yo‘rig‘ida, shovqin-suronsiz, «indamasdan» o‘lkamiz tarixini chuqur o‘rganish, milliy madaniyatimiz manbalarining ko‘zini ochish, o‘tmish bilan hozirgi avlod o‘rtasida hosil qilingan o‘pqonni bartaraf etish, ona tilimiz atrofida qad ko‘targan «xitoy devorlarini» olib tashlash, katta lug‘at madaniyati barpo qilishga erishishdan iborat edi...”*

*Buning uchun bizga katta allomalar, ulug‘ zotlardan kamida ellik-oltmish nafarining boshlarini qovushtirish lozim edi. Afsuski, oqim butunlay boshqa yoqqa qarab ketdi... Bu men uchun buyuk armon bo‘lib qoldi”.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Buyuk armon... Qarang, armonning ham buyugi bo‘larkan! Orzu-umidlar, hayotdan ko‘zlangan maqsadlar ham shunga yarasha buyuk edida. Biroq bu niyatlar to‘la ijobat topmadi.

*“Shunday bo‘lib chiqdiki, men umr bo‘yi, o‘zimni o‘zimning hayotdagi munosib o‘rnimdan mahrum etib kelgan ayrim noinsof, olchoq odamlarga, xohlabmi-xohlamaymi... ko‘maklashdim. Odamlar esa judayam xilma-xil. Yovuzlar, tovlamachilar, firibgarlar, yaltoqlar, laqmalar, birovlarning hisobiga to‘ra bo‘lib yurganlar, nonko‘rlar, ko‘ra-bila xaloyiqni aldab, uning qarg‘ishiga duchor bo‘layotgan amalparastlar, ma’naviy va axloqiy buzuq kimsalar har qadamda uchraydi. Biroq halol, pokiza, insof-diyonatli, olijanob insonlar har qalay ko‘proq deb o‘ylayman. Ular hammavaqt el-yurtning nazarida va hisob-kitobida turadi...”*

Bu gaplarni domla “Men suv ichgan daryolar” kitobida bitgan. E’tibor qilsak, yaxshilarning bisyorligiga ishonch, shunga ilinj sezilib turadi. Domlamiz ana shunaqa nekbin mardum, hazrati inson edi.

O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari boshida bir rahbar u kishidan, hamma kitoblaringizni chop etaylik, necha jild chiqarkin? – deb so‘raganida, domla bir lahza ham ikkilanmay, o‘ttiz jild, deb javob bergan, ammo avval yozganlarini qayta nashr ettirmay, yangi o‘ttiz jildlikning dastlabkilarini yozishga tushgan edi. Bunga u kishida yetarli baza – ilm va imkoniyat bor edi, ammo ne choraki, vaqt kamlik qildi, bu oila boshiga tushgan mudhish fojialar esa ustozni bir necha yil ichida nuratdi-qo‘ydi.

Yaqinda ustoz G‘aybulla Salomovning 90 yilligi nishonlanadi. Bu qutlug‘ sanaga atab olimning “Tanlangan asarlar”i nashrdan chiqishi kutilyapti. Bu kitobga, tabiiyki, domlaning barcha yozganlarini joylashtirishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham ayrim asarlaridan u yoki bu parchalarni tavakkaliga “kesib” kiritishga jazm etdik. Bilasiz, tasviriy san’atda “mozaika” usuli bor, aytaylik, shisha yoki koshin siniqlari shunday teriladiki, kishi undan tugal rasmga qaraganda ham ko‘proq maroq oladi. Zora, bu nashr ana shunday mozaika vazifasini o‘tasa. Alohida kitob va monografiyalarga kelsak, tarjima ishi yana jonlanayotgan hozirgi kunlarda domla bitgan ilmiy asarlarga yana ehtiyoj paydo bo‘ldi, shuning uchun endilikda ularning har birini alohida kitob qilib chop etish niyatimiz bor, ayrimlari esa nashrdan chiqyapti ham.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Kitob so‘nggida domlaning she’rlaridan ba’zi namunalarni ham kiritdik; ular muallifning dil tubidan favvora kabi toshib chiqqan faryodlari ekani domlani tanigan-bilgan, hayot yo‘lidan xabardor odamlarga yaxshi ma’lum.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# O‘ZGALAR BAXTINI O‘Z BAXTIDAN USTUN BILGAN INSON

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-24-27

DSc. **Zohidjon SADIQOV**,
Namangan davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri.
Namangan, O‘zbekiston
Tel: +998 90 554 82 94;
E-mail: e-mail: sadikov.zohid@mail.ru

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi professor G‘aybulla Salomovning ilmiy-amaliy faoliyati misolida ochib berilgan. Olimning o‘zbek tarjimashunosligi sohasiga qo‘shgan ulkan hissasiga alohida urg‘u beriladi.*

**Kalit so‘zlar**: *badiiy tarjima, o‘zbek tarjimashunoslik maktabi, tarjima nazariyasi va amaliyoti.*

**Аннотация:** *Обсуждается на примере научно-практической деятельности профессора Гайбуллы Саломова, основоположника узбекской школы перевода. Особый акцент делается на большом вкладе ученого в область узбекского переводоведения.*

**Ключевые слова:** *художественный перевод, переводоведческая школа, теория и практика перевода.*

**Abstract:** *The role and practical activities of Professor Gaibulla Salomov, the founder of the Uzbek school of translation. Particular emphasis is placed on the great contribution of the scientist to the field of Uzbek translation studies.*

**Key words:** *literary translation, Uzbek school of translation,* theory and practice of translation

“O‘z baxtini boshqalarni baxtli holda ko‘rishda deb bilgan, shunga intilgan, buni o‘z hayotining maqsad-muddaosiga aylantirgan odamning yo‘llariga hamma vaqt ham chechaklardan poyondoz solinavermaydi...” Ushbu hikmatomuz iqtibos ustoz G‘aybulla as-Salomning 1990 yilda nashr etilgan “Men suv ichgan daryolar” kitobidan olindi[1]. Mazkur hikmat ostida juda katta hayot tajribasi yotibdi. Muallif butun umri davomida odamlarga ezgulik urug‘ini sochib kelgan bo‘lsada, har doim ham haqiqat yo‘lidagi sa’y-harakatlariga u yashab turgan mavjud tuzum, atrofidagi

[1] **Qarang**: Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1990 йил, 5-бет.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

odamlar quchoq ochib boqavermaganliklari, muallifga mashaqqatli hayot yo‘lida uchragan notekis yo‘llar va tikonli so‘qmoqlar har qadamda uchraganligini aytadi.

Olamda shunday odamlar ham bo‘ladiki, ular o‘zlarining butun umrlarini el tashvishini yengillatishga, ularning og‘ir toshdek ummon tubiga cho‘kkan ko‘ngillariga taskin berishga, har bir insondan illat emas, hikmat qidirishga bag‘ishlaydilar. Agar es-hushimiz joyida bo‘lsa, hammamiz ham muayyan muammoning shakl-shamoyili, mohiyatini bila olamiz. Ammo tan olishimiz kerakki, uning kelib chiqishi, sabablari va o‘q ildizini aniqlashga har doim ham jazm etavermaymiz. Biz Siz aziz zamondoshlarimiz e’tiboriga havola qilayotgan bu hazrati inson, ulug‘ olim, zabardast publitsist, qomusshunos, o‘zbek tarjima maktabining asoschisi, mutafakkir, bir so‘z bilan aytganda allomai zamon G‘aybulla as-Salom bo‘ladilar.

Kamina nomzodlik dissertatsiyasi tayyorlash ilinjida Toshkandu azimda bu inson bilan besh yil, 1989 yildan 1995 yilgacha bo‘lgan vaqt davomida hamnafas bo‘lishga muyassar bo‘lganman. Nafsilamrni aytganda, biz o‘zaro shunchaki rasmiy ilmiy rahbar – aspirantgina emas, balki o‘zbekning qadimiy urflariga amal qilgan ustoz-shogird ham bo‘lganmiz bir-birimizga. Aniqrog‘i, 1989 yilning jazirama yoz kunlarining birida padari buzrukvorim usta Yoqubjon Siddiq o‘g‘li hamda pochchamiz Sayfillo hoji Abdulla o‘g‘illari meni domlaning Bodomzordagi hovlilariga olib borishdi. Qo‘limda Namangan davlat pedagogika institutining kaminani Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) Tarjima nazariyasi kafedrasiga stajer-tadqiqotchi sifatida yuborilayotganligim haqidagi rasmiy yo‘llanmasi ham bor. Muxtasar qilib aytganda, bu tashrifning maqsadi meni ustoz G‘aybulla Salomovga rasman shogird qilib berish edi. Aslida, bungacha ham domla G‘.Salomov bizning oilaga notanish emasdilar. Birinchidan, u kishining namanganlik shogirdlari N.Otajonov, O‘.Nurmatov hamda akam Yunusxon Sodiqovlar sabab tez-tez shahrimizga kelib turganliklari bo‘lsa, ikkinchidan ustoz bizning institutga tashrif buyurib, guruhimizga 1982 yili Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan maxsus kurs o‘tib bergandilar. Bundan tashqari, to‘g‘risi, domla Namanganni boshqacha yaxshi ko‘rardilar. Kamina ustoz rahbarliklarida o‘z nomzodlik dissertatsiyamni 1989 yilda boshlagan bo‘lsam, 1994

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yilning oktyabr oyida muvaffaqiyatli himoya qildim. Bungacha ham o‘sha davrdagi ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida birinchilardan bo‘lib tarjima nazariyasi kafedrasi ochib, mazkur mutaxassislikning o‘quv dasturini yarata olgan G‘.Salomov rahbarligida o‘ttizdan ortiq fan nomzodlari, o‘nga yaqin fan doktorlari o‘z ishlarini yakunlagandilar. Bundan tashqari bu qomusiy olimning bevosita tashabbuslari bilan o‘zbek tarjimachiligida ilk bor “Tarjima san’ati” ilmiy-tanqidiy maqolalar to‘plamining 6ta soni eng nufuzli nashriyotlarda chop qilingandi. Xususan, o‘tgan asrning 80-90 yillarida Ogahiy (Najmiddin Komilov), Lev Penkovskiy (Komiljon Jo‘raev), Mirtemir (Zuhriddin Isomiddinov), Abdulla Qahhor (Absalom Umarov), Zulfiya (Xurshida Mamatova) kabilar uning bevosita ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qil-dilar. Uning 1982 yilda shogirdi Najmiddin Komilov bilan hamkorlikda yozgan “Do‘stlik ko‘priklari” kitobida she’riy tarjima o‘ziga xosliklari tadqiq qilinib, qayta yaratish san’atidagi tarjimaviy metodlari, aniqlik va erkinlik masalalari tadqiq qilindi. Xususan, ustozning 1996 yilda Namangan tashrifi davomida “Jahongashta Boburnoma” monografiyasi bu boradagi ishlarni umulashtirishda muhim rol o‘ynadi. Natijada G‘aybulla Salomovning bevosita ilmiy rahbarligida bu borada ham bir qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi. Jumladan, “Bo-burnoma”ning ingliz tiliga tarjimalari borasida N.Otajonov, R.Karimov, M.Sobirov, D.Xoshimova, fransuzcha tarjimalari bo‘yicha S.Shukrullaeva, nemischa tarjimalari bo‘yicha G‘.Xo‘jaevlar disser-tatsiya yoqladilar. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari borasida Z.Sodiqov, Q.Sidiqovlar dissertatsiya himoya qilgan bo‘lsalar, Alisher Navoiy asarlarining ruscha tarjimalari bo‘yicha S.Olimov, K.Jo‘raevlar monografik tadqiqotlar yaratdilar. Ayni paytda jahon adabiyotining buyuk siymolaridan Gyotening o‘zbekcha tarjimalari bo‘yicha S.Jabborov, S.Salim, P.Usmon tadqiqotlar olib borgan bo‘lsalar, Shiller ijodi bo‘yicha O‘.Nurmatov o‘zining nomzodlik ishini himoya qildi. Bundan tashqari ingliz Jorj Bayron she’riyatining o‘zbekcha talqinlari borasida M.Baqoeva muvaffaqiyatli ish olib borib, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishga erishdi. Shuningdek, G‘aybulla Salomov ilmiy rahbarligida Hamidulla Karomatovning buyuk sarkarda, sohibqiron Temur siymosini tarjima vositasida jahon adabiyoti

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

sahnasida e'tiroq etilishiga oid "Xristofor Marloning "Buyuk Temur" asarining sarchashmalari, asliyati va o'zbekcha tarjimasi" nomli nomzodlik hamda "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari" doktorlik ishlarini ham alohida ta'kidlash kerak.

Agar o'tgan besh yillik ustoz-shogirdlik faoliyatimizni yaxlit bir davr deb oladigan bo'lsak, dissertatsiya bu davrning bir qismigina xolos edi. Asosiysi, bu onlar kamina uchun hayot maktabi, chinakam odamiylik saboqlarini olish payti, ilm o'rganish, ulug' allomalar bilan uchrashishdek betakror baxtli onlar bo'lib qoldi. Bu fursat ichida imkon qadar ustozning ulkan hayot va ijodiy faoliyatlari qasri eshigidan ichkariga kirib borishga muyassar bo'ldim. Kaminaga Toshkent davlat universitetining aspirantlar uyidan alohida xona ajratilganligiga qaramay, u kishi bilan quvvai hofizamiz, avrimiz o'zaro mos kelganligidanmi, domla meni o'z uylarida turishga ko'ndirdilar. Ustoz bilan birgalikda ko'rgan kechirganlarimdan xulosa qilib aytamanki, bu hazrati inson hayotining har bir onini ilmi urfonga, odamlar mushkulini yengil qilishga, o'z xalqini o'zgalardan kam bo'lmagan holda baxtli ko'rishdek ezgu ishlarga bag'ishladi.

Yuqorida ustoz ta'kidlagan hikmat zaminida uning ezgu maqsad uchun intilgan mashaqqatli hayot yo'liga doim ham chechaklardan poyondoz solinavermaganligi yotganligini ta'kidlanadi. Kaminaning u kishi bilan besh yil davomida chinakam ustoz-shogirdlik maqomida hayot qozonida qaynaganligimizni hech qachon unutmayman. Zero ustozning o'zgalar baxti uchun qilgan sa'y-harakatlari va bu borada qilgan ham nazariy, ham amaliy ishlarini bir ummonga tenglashtirish mumkin. Bizning ushbu munosabatimiz, dil izhorimiz bu tabarruk insonga bo'lgan cheksiz minnatdorchiligimiz ramzi, to'g'rirog'i, u kishi sha'niga aytilishi kerak bo'lgan iliq so'zlarning bir tomchisi deb bilgaysiz.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ZAMONA LUQMONI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-28-36

Filol.f.n. **Ergash OCHILOV,**
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
Toshkent, O‘zbekiston
Тел: +998946204764;
E-mail: e-ochilov@mail.ru.

**Annotatsiya:** *Maqolada tarjimashunoslik sohasiga katta hissa qo‘shgan olim, professor G‘aybulla Salomov haqida so‘z borgan. Olimning hayot yo‘li, tarjimashunoslik sohasidagi ulkan, mashaqqatli faoliyati, shogirdlariga bo‘lgan otalarcha muhabbati. Umuman olganda fidoiy insonning ilm uchun bahshida hayoti yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjimon mahorati, simpozium, hayot yo‘li, tarjimon.*

**Аннотация:** *В статье рассказывается об ученом, профессоре Гайбулле Саломове, внесшем большой вклад в область переводоведения. Жизненный путь ученого, огромный, кропотливо-кропотливый труд в области переводоведения. Отцовская любовь к своим ученикам. В общем, жизнь самоотверженного человека освещается в борьбе за знания.*

**Ключевые слова:** *переводческое мастерство, симпозиум, образ жизни, переводчик.*

**Abstract:** *The article talks about the scientist, professor Gaybulla Salomov, who made a great contribution to the field of translation studies. The life path of a scientist, a huge, painstakingly hard work in the field of translation studies. Fatherly love for his students. In general, the life of a self-sacrificing person is illuminated in the fight for knowledge.*

**Key words:** *translation skills, Translation Symposium, life, translator.*

O‘zbekistonda tarjimashunoslik haqida so‘z borganda barchaning ko‘z oldiga atoqli olim G‘aybulla Salomov keladi. Bu bejiz emas. Mamlakatimizda tarjimashunoslik fanini nazariy asoslagan ham, oliy o‘quv yurtlari dasturiga kiritilishi uchun jonbozlik qilgan ham, fanning barcha sohalari bo‘yicha o‘quv dasturlari tuzib, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yozgan, uni fan sifatida tan olmaganlar bilan uzoq yillar murosasiz kurash olib borib, tarjimashunoslikning shiddat bilan rivojlanib, boshqa fanlar orasida tezda o‘z o‘rnini topishini ta’minlagan ham, yangi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

fan sohasiga yetuk ilmiy mutaxassislar yetkazib berish ishiga katta hissa qo‘shgan ham aynan mana shu zahmatkash va serqirra inson hisoblanadi. U o‘zining tarjimashunoslikning turli masalalariga bag‘ishlangan 200 dan ortiq maqolalari, “Maqol va idiomalar tarjimasi” (1966), “Adabiy an’ana va badiiy tarjima” (1980), “Tarjima tashvishlari” (1983) kabi monografiyalari, “Tarjima nazariyasiga kirish” (1978), “Tarjima nazariyasi asoslari” (1983) singari darsliklari, “Do‘stlik ko‘priklari” (1979), “Tarjimon mahorati” (1980) kabi hamkasblari va shogirdlari bilan hammualliflikda chiqargan kitoblari bilan haqli ravishda o‘zbek tarjimashunoslik fanining tamal toshini qo‘ydi.

Ko‘pchilik yozuvchilar o‘zlarining Fyodor Dostoevskiyning “Shinel”idan chiqqanliklari bilan maqtanib yurishadi.

O‘zbek tarjimashunoslarining aksariyati esa G‘aybulla Salomov maktabidan chiqishgan.

Ustoz shunchalik shogirdparvar edilarki, o‘z farzandlariga ham berolmagan mehrlari, ajratolmagan vaqtlarini shogirdlaridan sira ayamasdilar. Shuning uchun ham barcha yosh qalamkashlar Mirtemirning atrofida yig‘ilganlariday, tarjimashunos bo‘laman deganlar ham G‘aybulla akaning davrasiga intilishardi. O‘z navbatida, u kishi ham o‘ziga talpinganlarning hech birini umidsiz qo‘ymas, ularni ona tovuqday o‘z bag‘irlariga bosib, Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda, har birining og‘ziga bir luqma solardilar.

Kamina G‘aybulla Salomov bilan bevosita emas, balki ustozlarim Sultonmurod Olim va Najmiddin Komilovlar orqali bilvosita bog‘langanman: meni Sultonmurod aka ilmga olib kirgan va u kishi orqali Najmiddin aka bilan, bu ikki ustoz vositasida esa G‘aybulla Salomov bilan tanishganman. Shuning uchun meni evara shogirdim deb erkalardilar. Buning ma’nosi: birinchi shogirdlari Najmiddin Komilov – o‘g‘il shogird, u kishining ilk shogirdlari Sultonmurod Olim – nevara shogird, o‘z navbatida, Sultonmurod Olimning to‘ng‘ich shogirdi kamina – evara shogird maqomida edik. Domlaning kenja shogirdlari Zohidjon Sodiqov shuni ko‘zda tutib, nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatiga: “G‘aybulla Salomovning evara shogirdi, do‘stim Ergashjonga”, – deb dastxat yozib bergan edi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Albatta, kamina G‘aybulla Salomov bilan yelkama-yelka xizmat qilmagan bo‘lsam-da, u kishi bilan ko‘p bor uchrashganmiz, suhbatlashganmiz.

Men “Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimasida shakl va mazmun birligi” mavzuida diplom ishi yozganimda Najmiddin Komilov ilmiy rahbar, Sultonmurod Olim rasmiy taqrizchi bo‘lganlar. Himoyadan keyin Eski shahardagi endi-endi urfga kirayotgan xususiy xonadonlardan birida G‘aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Tilak Jo‘ra, Sultonmurod Olim, Nazar Eshonqul va kamina tushlik bahona uzundan-uzoq ilmiy gurung qilganmiz. Hali tarjimashunoslik ostonasida turgan kamina uchun bu suhbatlar bir umrga yorqin xotira bo‘lib qoldi.

Nomzodlik ishimga esa Sultonmurod Olim ilmiy rahbar, Najmiddin Komilov ilmiy maslahatchi, G‘aybulla Salomov va Ibrohim Haqqullar rasmiy taqrizchi bo‘lganlar. Himoyamda G‘aybulla akaning ilhomi jo‘shib, qog‘ozga qaramay naq qirq besh daqiqa gapirgan. Ishimga baho berish barobarida rosa ruboiyxonlik ham qilgan, o‘qigan ruboiylarining mag‘zini chaqib bergan. Ustoz juda ochilgan, butun zal esa sel bo‘lib eshitgan. O‘shanda men u kishining quvvai hofizasiga, Umar Xayyom ruboiylarini forsiyda qoyilmaqom qilib o‘qiganiga qoyil qolganman.

U mahallar hali kompyuter urfga kirmagan edi. Dissertatsiya mashinkada uch nusxa bosilib, birinchi va ikkinchi nusxalari OAKka topshirilardi. Himoya yaxshi o‘tdi. Chiroyli banket bo‘ldi. Banketda G‘aybulla aka, Najmiddin aka, Jumaniyoz Sharipov, Abdusalom Umarov, Zuhriddin Isomiddinov, Sultonmurod Olim kabi tarjimashunoslar ishtirok etib. mening sha’nimga ancha-muncha iliq gaplar aytishdi. Tashvishlar tugab, endi hujjatlarni tayyorlab, OAKka topshiraman desam, dissertatsiya jonivorning birinchi nusxasi yo‘q. Agar u topilmasa, qaytadan terishga to‘g‘ri kelardi. Nima qilishimni bilmay jig‘ibiyron bo‘lib o‘tirsam, G‘aybulla aka qo‘ng‘iroq qilib qoldilar. Hol-ahvol so‘ragach:

– Charchoqlar chiqqan bo‘lsa, endi hujjatlarni OAKka topshirish uchun tayyorlayotgandirsiz? – deb so‘radilar o‘smoqchilab.

– Himoya kuni dissertatsiyaning OAKka topshiriladigan birinchi nusxasini yo‘qotib qo‘yibman, – dedim xijolat bo‘lib.

– Ana shunaqa-da! Yaxshi himoyadan boshingiz ko‘kka yetib, tashkiliy ishlar bilan bo‘lib dissertatsiya ham xayolingizdan ko‘tarilib

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ketgan. Men bunaqa paytda dissertantlarning o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qolishini bilib, stolning ustida qolib ketgan dissertatsiyangiz o‘zim bilan olib ketgan edim, – desalar bo‘ladimi.

Shunaqangi quvonim ketdimki! Bamisoli tilla topgan gadoyday!

Shundan keyin bir soha mutaxassislari, hamkasblar sifatida turli tadbirlar, dissertatsiya muhokamalari va himoyalarida ko‘rishib, suhbatlashib turardik. Aytaylik, kenja shogirdlaridan Zohidjon Sodiqovning nomzodlik dissertatsiyasi muhokamasida tanqidiy mulohazalarim biroz ko‘payib ketganida ustozning zehnlari bir qadar koyigani esimda.

Ustozning fayzli xonadonida bir necha marta bo‘lganman va purma’no suhbatlaridan bahramand bo‘lganman. U yerga Sultonmurod aka hamrohligida borardim. Hajdan kelganlarida ziyorat qilgani o‘tganimizda Makkadan olib kelgan tasbehlaridan hadya qilganlar va men uni tabarruk sovg‘a sifatida namozxon bobomga ustozning nomida tuhfa qilganman. Toblari qochganda bir necha marta ko‘rgani borganmiz.

Domlaning sodda va ishonuvchanligi ham bor edi. Bir gal ko‘rgani borganimizda Kaspirovskiy degan ekstrasens mashhur bo‘lib. televizor orqali tinimsiz seanslar berayotgan payt edi. Domla uning muxlisi edilar. O‘shanda sochlarini ko‘rsatib bir necha seansdan keyin sochlari qorayib qolganini ishonch bilan hikoya qilganlari esimda.

G‘aybulla Salomov mehnat odami, faoliyati kishisi edi. U kishini hamisha ish ustida ko‘rish mumkin edi. Bunday odamlar ish ustida jon beradilar. Ustoz ham minbarda gapira turib jon taslim qilgan edilar. Guvohlarning aytishicha, Toshkent davlat universitetiga Milliy universitet maqomi berilganiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda minbarda nutq so‘zlab turib, o‘z fikrlarini tasdiqlash uchun:

– Rahmatli padari buzrukvorim aytgan edilarki... – degancha jon taslim qilganlar.

G‘aybulla Salomovning yakkayu yagona o‘g‘li dom-daraksiz yo‘qolgan edi. Domla bir umr uni izladilar, kutdilar, so‘roqladilar. Ziyoli odam bo‘lishlariga qaramay, chiqmagan jondan umid qabilida ish tutib, qaerda o‘tkir folbin chiqibdi deb eshitsalar, umid bilan izlab borib, o‘g‘illaridan fol ochtirardilar.

U kishi shunday vasiyat qilgan ekanlar:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

– To tirik ekanman, umidimni uzmay o‘g‘limni kutaman. Agar o‘lgunimcha ham topilmasa, keyin uning janozasini ham mening janozamga qo‘shib o‘qiysizlar.

Ustozning janozasiga qo‘shib o‘g‘illarining ham janozasini o‘qiganlarda hamma dod deb yuborgani esimda.

Biz tarjima yo‘nalishida ta’lim olayotgan talaba va magistrlarga o‘zbek tarjima maktabining asoschisi G‘aybulla Salomov haqida ko‘p gapiramiz. Lekin bunda asosan ustoz tarjimashunosning ilmiy faoliyati xususida so‘z yuritamiz. U kishining hayoti va faoliyati, inson va olim sifatidagi o‘ziga xos shaxsiyati haqida esa deyarli lom-mim demaymiz.

Xo‘sh, ustozning bizga o‘rnak bo‘ladigan asosiy fazilatlari nima?

U kishidan nimalarni o‘rganish mumkin?

– mehnatkashlikni, temir intizomni va tizimlilikni;
– o‘z kasbiga sadoqatni va fidoyilikni;
– burchga mas’uliyatni va ishga talabchanlikni;
– o‘z ustida muttasil ishlashni va erishganlaridan sira qoniqmaslikni;
– tahrirni va yozganlariga sayqal berishni;
– halollikni va to‘g‘rilikni;
– bag‘rikenglikni, mardlik va tantilikni;
– shijoatni, qat’iyatni va qaysarlikni (ijobiy ma’noda);
– qanot va sabru toqatni;
– vazminlik va mulohazakorlikni;
– shogirdlariga mehribonlik va jonkuyarlikni...

Birma-bir sanayversa, ustozdan o‘rganish va ibrat olish mumkin bo‘lgan xislat-fazilatlar ham ko‘p ekan.

Ustozda yo‘q fazilatning o‘zi yo‘q edi-da.

“Odam borki, odamlarning naqshidir”, – deb shunday najib zotlarga aytishsa kerak-da.

Bunday kishilar dunyoga bir kelib ketadi-da

Men ustoz haqida nimadir yozishni ko‘pdan o‘ylab yurardim. Chunki yelkamda shogirdlik qarzim bor.

Avvalo, u kishining mening taqdirimda qanday rol o‘ynaganlariyu mening u kishidan nimalarni o‘rganganim haqida.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Domla haqida o‘ylaganimda yuragimni cheksiz armon va hasrat kemiradi: u ham bo‘lsa, u kishi bilan ko‘proq uchrashib. suhbatlaridan yetarlicha bahramand bo‘lmaganim.

Ustoz umrlarining oxirida iste’dodlarining hozirjavob publitsist, donishmand shoir va mutafakkir olim sifatidagi yangidan-yangi qirralarini namoyon eta boshlagan edilar. “Milliy tiklanish” gazetasida chiqqan u kishining hayotiy mulohazalari. falsafiy quyuq fikrlarini o‘qib, u kishiga zamona Luqmoni sifatini bergan, shu haqda bir maqola yozmoqchi bo‘lgan, lekin bu niyatim armonga aylanib qolgan edi. Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda:

*Vodarig‘, mana shu satrlarni ham*
*Yozsam bo‘lmasmidi siz tirik chog‘da.*

Gap shundaki, ustozning bir kuni keladiki, insonning bir tomchi qoniga qarab uning tabiatini bilish mumkin bo‘ladi degan hikmatli so‘zlari menga nihoyatda kuchli ta’sir qilgan edi.

Bu bejiz emas. U kishi shogirdlari va hamkasblari Komiljon Jo‘raev bilan birga taniqli polyak adibi va mutafakkiri, qayroqi so‘zlar ustasi Stanislav Yeje Lesning teran va o‘tkir hikmatli so‘zlarini qiyomiga yetkazib tarjima qilgan va vaqtli matbuotda undan namunalar e’lon qilgan edilar. Bu qo‘lyozma hozirda shogirdlari Zuhriddin Isomiddinovning qo‘lida saqlanadi va u kishi ayni tarjimani nashr qilish harakatida yuribdi.

Ustoz yozganlariga erinmay sayqal berardilar. Shuning uchun u kishining maqolalari san’at asariga aylanib, biror jumlasini o‘zgartirib yoki biror so‘zini o‘rnidan siljitib bo‘lmasdi.

Tom ma’nodagi so‘z san’atkori Abdulla Qahhorning: “So‘zni mix qilib qoqib, qalpog‘ini sug‘urib tashlang – hech kim sug‘urib ololmasin”, – degan obrazli iborasi bor edi. G‘aybulla Salomov yozgan va tahrir qilgan matnlar xususida ham shunday deyish mumkin.

Ustoz ko‘plab maqolalarga hammuallif ham bo‘lganlar. Bunda u kishi maqolani deyarli qayta yozib chiqar va o‘zlarining fikrlari, kuzatishlari, tahlillari bilan boyitardilar. Natijada u kishi maqola yozganga hammuallif emas, balki maqola yozgan u kishiga hammuallif bo‘lib qolardi go‘yo.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ha, G‘aybulla Salomovning tahrir san’atining o‘zi alohida tadqiqot mavzui bo‘la oladi.

G‘aybulla Salomov usta notiq ham edi. Salmoqlab gapirardilar. Vazmin, dona-dona qilib gapirardilar. Asoslab, qat’iyat bilan gapirardilar. Tinglovchini o‘zlariga tortib, go‘yo mixlab qo‘yardilar.

Ustoz haqida xotiralarim, aytadigan gaplarim hali ko‘p. Yozganlarim xamir uchidan patir, xolos. Umr vafo qilsa, hali kattaroq bir narsa qoralash niyatim bor. So‘zimning nihoyasida esa domla bilan bog‘liq ba’zi bir hangomalarni u kishining muxlislari e’tiboriga havola qilmoqchiman.

**Yarim umr...**

– Yarim umrim ilm bilan o‘tdi, – debdi G‘aybulla Salomov.

– Butun umrim deyvering, domla! – deyishsa:

– Yo‘q, yarim umrim, – debdi u kishi qat’iy qilib. – Yarim umrim esa xotinimga ilmning ahamiyatini tushuntirish bilan o‘tdi.

**O‘rinli tanbeh**

Muhammad Yusuf xotini bilan arazlashib qolibdi. Shunda qaynotasi G‘aybulla as-Salom unga hazil aralash shunday tanbeh beribdi:

– Yigirma besh million xalqni “aldab yurgan” shoir bitta xotinni aldayolmaysizmi?

**Doktorlik va nomzodlik**

G‘aybulla Salom birda hazillashib aytgan ekan:

– Doktor bo‘lish nomzod bo‘lishdan oson.

– Nega? – so‘rashibdi hayron bo‘lib.

– Chunki minimum topshirmaysan.

**Imlo qoidalari**

Sultonmurod aka bilan ba’zi bir so‘zlarning imlosi haqida tez-tez tortishib turamiz. Yaqinda ham “ko‘ptilli”, “qo‘shxotinlilik” kabi so‘zlarni qo‘shib yozish kerakmi yo ajratib degan mavzuda bahslashdik. U kishi bu so‘zlarni ajratib yozar ekan. Men qo‘shib yozishga mayl bildirdim. Shunda u kishi aytdi:

– Biz G‘aybulla Salomovning shogirdlarimiz. Ustoz aytganlariday, bizga imlo lug‘atining hojati yo‘q. Qaysi so‘zni qanday yozishni o‘zimiz hal qilamiz. Men ajratib yozishni ma’qul ko‘rdim. Lekin kimdir qo‘shib yozsa ham xato hisoblamayman.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

(G‘aybulla Salomovning “Ey umri aziz” kitobini o‘qisam, domla bu so‘zlarni ko‘pincha qo‘shib yozar ekanlar).

**Qarashlarning o‘zgarishi**

– Monografiyalarning davri o‘tdi, – degan ekan G‘aybulla Salomov Sultonmurod Olimga mustaqillikning ibtidosida. – Endi ularni birov o‘qimaydi ham, bosib chiqarmaydi ham.

– O‘zlarining umrlari intihosida publitsistika va she’riyatga o‘tib ketganlari bejiz emas ekan-da, – dedim buni eshitib.

**Ustozlar**

– Sendan roziman, o‘g‘lim. Chunki G‘aybulla Salomov va Najmiddin Komilov degan bir-biridan yaxshi ikki ustozga uchrading. Bu – katta omad va baxt, – degan ekan otalari Sultonmurod Olimga.

**To‘n**

Nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilganda bor-yo‘g‘i ilmiy rahbarim Sultonmurod Olimga odmigina to‘n yopganman. Ilmiy maslahatchim Najmiddin Komilovu opponentlarim G‘aybulla Salomov va Ibrohim Haqqulovlar bir chekkada qolib ketishgan. Shunga ishora qilib, banketda raislik qilayotgan Abdusalom Umarov hazil yo‘sinida tanbeh bergan:

– Keyingi gal bu xatoni tuzating – to‘n to‘rtta bo‘lsin!

**Sodiq shogird**

G‘aybulla Salomov bir kuni sumkasi bilan maqtanib qoldi.

– Bu – tabarruk sumka. Tilak Jo‘ra uni yigirma besh yil ko‘targan....

Ha, Tilak Jo‘ra G‘aybulla Salomovning eng sodiq shogirdi edi.

**Mehridaryo**

Tilak Jo‘rani G‘aybulla as-Salom Toshkentda olib qolgan, unga nomzodlik dissertatsiyasi mavzusini bergan, o‘zi ilmiy rahbar bo‘lgan edi. Lekin uning shoirligi ustunlik qilib, ilmiy ishi cho‘zilgandan-cho‘ziladi. Buning uchun universitetning Ilmiy kengashida qattiq tanbeh eshitadi. Shunda musofir shahardagi ko‘p yillik qiyinchiliklar, uy-joysiz tentirab yurishlar joniga tegib ketgan shoir portlab ketadi:

– He-ye, onangni... Salomov! Agar sen bo‘lmaganingda men bu musofir shaharda shunchalik xor bo‘lib yurmasmidim!..

ertasi kuni G‘aybulla akani Tilak Jo‘ra bilan apoq-chapoq o‘tirganini ko‘rganlar hayron bo‘lib so‘rashibdi:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

– Axir, u kecha sizning yetti pushtingizni obod qildi, siz bo‘lsa...

– Ha, endi, shoirdan ham xafa bo‘ladimi kishi. Kecha jahli chiqqanda bir so‘kinib, hovuridan tushdi-da. Ammo-lekin o‘zi yaxshi yigit.

**Navoiyga muhabbat**

Bugungi kunda o‘zlari ham ustoz olimlarga aylangan Sultonmurod Olim va Zuhriddin Isomiddinovlarning maroq bilan xotirlashlaricha, G‘aybulla Salomov “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanidan maxsus kurs o‘tganida “har bir talabadan “Navoiy asarlari lug‘ati”ni olib kelishni talab qilgan va ustoz ular bilan birgalikda Navoiy asarlaridan namunalarni, xususan, “Farhod va Shirin”ni uning hozirgi o‘zbekcha tabdili, ruscha, ozarbayjoncha, tojikcha tarjimalari bilan satrma-satr solishtirib chiqishgan”. Shu tariqa u kishi o‘z shogirdlarida buyuk Navoiyga muhabbat va ixlos uyg‘otganlar. Bu xayrli ish o‘z samarasini berib, aytaylik, Sultonmurod Olim “Farhod va Shirin”ning birvarakayiga rus, tojik va ozarbayjon tillariga tarjimasini qiyosiy o‘rganib nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo‘lsa, u kishining shogirdi Akmal Abdullajonov dostonning nemischa tarjimasini tadqiq etdi. Kamina esa navoiyshunos bo‘lib yetishdi.

**Ham tarjimashunos, ham navoiyshunos**

Bir umr Alisher Navoiy asarlarining turli tillarga tarjimalari va hozirgi o‘zbek tiliga tabdillarini kuzatib, ularni tahlil qilib, zarur tavsiya va ko‘rsatmalar berib borgan, bularning barchasiga bitta o‘zining ulgurmasligini bilib, ulug‘ shoir asarlari tarjimalarini shogirdlariga alohida-alohida mavzu qilib bergan G‘aybulla Salomov tarjimashunosgina emas, ayni paytda navoiyshunos hamdir. Birgina farqi: ustoz Navoiy asarlari tarjima va tabdillari ustida olib borgan tadqiqotlari orqali o‘zbek navoiyshunosligiga katta hissa qo‘shganlar. Navoiyshunoslar bu bahoni qabul qilmay qitmirlik qilishsa, tarjimashunos-navoiyshunos deyish mumkin.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# О ПРОФЕССОРЕ ГАЙБУЛЛЕ САЛЯМОВЕ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-37-49

К.ф.н. **Хуршида МАМАТОВА**,
Ташкент, Узбекистан.
Tel: +998 93 520 72 53;
E-mail: mamatovax@gmail.com

**Annotatsiya:** *Maqolada tarjimashunoslik sohasiga katta hissa qo'shgan olim, professor G'aybulla Salomov haqida so'z borgan. Olimning hayot yo'li, tarjimashunoslik sohasidagi ulkan, mashaqqatli faoliyati, shogirdlariga bo'lgan otalarcha muhabbati. Umuman olganda fidoiy insonning ilm uchun baxshida hayoti yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarjimonlik mahorati, tarjima simpoziumi, olimning hayot yo'li, tarjimon.*

**Аннотация:** *В статье рассказывается об ученом, профессоре Гайбулле Саломове, внесшем большой вклад в область переводоведения. Жизненный путь ученого, огромный, кропотливо-кропотливый труд в области переводоведения. Отцовская любовь к своим ученикам. В общем, жизнь самоотверженного человека освещается в борьбе за знания.*

**Ключевые слова:** *переводческое мастерство, переводческий симпозиум, жизненный путь ученого, перевочик.*

**Abstract:** *The article talks about the scientist, professor Gaybulla Salomov, who made a great contribution to the field of translation studies. The life path of a scientist, a huge, painstakingly hard work in the field of translation studies. Fatherly love for his students. In general, the life of a self-sacrificing person is illuminated in the fight for knowledge.*

**Key words:** *translation skills, Translation Symposium, life, translator.*

Говорить о Человеке с большой буквы, кем был профессор Гайбулла Салямов, для меня не легко, так как, хотя я хорошо знала его 20 лет, знала его семью и детей, любила и дружила с женой Шахрихон опа, но всегда была настолько погруженная в собственные переживания, вызванными неурядицами в личной жизни, работой и болезнями, что не смогла ему вернуть и стотысячной доли всего того, что он сделал для меня. Хотя по мере сил старалась отвечать на его добро и ценила его не только как большого ученого, труды которого, книги, учебники и учебные пособия оказали неоценимую помощь в

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

моей преподавательской работе, расширили мои знания в истории, теории и практике узбекского и всемирного перевода, а его публицистика, представления о мире, жизни и истории узбекского народа, но и, прежде всего, как человека, педагога и отца большого семейства, отношение к себе и к моим родным и близким, заботу и внимание, от которых жить становилось легче. В нем я видела своего отца, тоже большого ученого и Человека с большой буквы.

Тридцать лет назад, проработав после окончания РПИРЯиЛ (сейчас УЗГУМЯ) два в сельской школе в Самаркандской области и вернувшись в Ташкент и поработав некоторое время в Министерстве культуры, в отделе кадров и учебных заведений, а также, почасовиком на кафедре русского языка в ТашМИ, а потом, на полной ставке в ТОГПИ (Ангрен) на кафедре русской и зарубежной литературы, я защитила в ИЯЛ АН Узб.ССР кандидатскую диссертatsiю по переводческому мастерству поэтессы Зульфии. До моей защиты мой научный руководитель, заслуженный деятель науки Узбекистана Джуманияз Шарипов мне сказал, чтоб я отнесла свою работу профессору Гайбулле Салямову, сказал, что, если он ее одобрит, то меня поставят на защиту. Тогда Гайбулла Салямов за одну неделю просмотрел мою диссертatsiю, написал и сам отпечатал на нее отзыв (25 страниц машинописи), а потом из Москвы, куда он ездил в то время на Переводческий симпозиум, позвонил в ИЯЛ во время ее обсуждения и по телефону сказал профессору Хафизу Абдусаматову, который вел мое обсуждение, что, он за то, чтобы поставить мою диссертatsiю на защиту, чем привел тогда не только меня, но, и всех присутствующих в изумление, и я до сих пор не знаю, как он узнал о точном дне и часе обсуждения моей работы. А потом из Москвы по его просьбе на мою разовую защиту приехали крупные специалисты по творчеству А.С.Пушкина и А.Н.Некрасова Станислав Шаталов и Юрий Манн, так как, моя диссертatsiю была о переводах Зульфии русской классической поэзии. С тех пор я любила профессора Гайбуллу Салямова и сохранила на всю свою жизнь привязанность к нему и к его семье, тем более, что еще до защиты узнала, что оказывается, мои родители давно его знали, еще с начала 50-х годов, когда Гайбулла Салямов приехав с семьей в Ташкент из

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Самарканда, работал в издательстве Большой Узбекской Энциклопедии, а мой отец, который после войны тоже переехал из Коканда с семьей в Ташкент, защитился и работал в ИЯЛ, по просьбе редакции Узбекской Энциклопедии, составил Словник по хлопководческой терминологии. С тех пор профессор Гайбулла Салямов и мой отец питали друг к другу глубокую симпатию и поддерживали отношения. Хочу заметить, что Отдел Словарей в издательстве Энциклопедии, созданием которой и работой руководил академик Ибрагим Муминов, был создан благодаря Проекту и стараниям еще тогда молодого Гайбуллы Салямова, которому он поручил его составить и который был первым и единственный в то время в издательствах Энциклопедий стран бывшего Союза. После защиты, по просьбе Гайбуллы Салямова, я сделала перевод на русский язык его докторской диссертatsiи об истории узбекских переводов произведений Уильяма Шекспира, где он проводил сравнительно-сопоставительные анализы переводов Чулпана, Максуда Шейхзаде, Гафура Гуляма и других узбекских поэтов-переводчиков творчества Шекспира и говорил об их достоинствах и недостатках, особенностях русских переводов, которые служили для них подстрочниками, о несправедливости узбекской критики перевода Чулпана трагедии «Гамлет», сделанного им с прозаического перевода Каншина, недостатки которого, то есть, прозаичность, были поставлены ему в упрек; так же, ученый говорил о первых постановках на сцене узбекского драматического театра Хамзы трагедий великого английского драматурга, о режиссере и постановщике Манноне Уйгуре и великих узбекских актерах, как Аброр Хидоятов и Сара Эшантураева, первыми в истории узбекского театра сыгравших главные роли в трагедии « Отелло». И еще многое об истории перевода и его проблемах и истории узбекского театра в то время я узнала из докторской диссертatsiи профессора Гайбуллы Салямова. Он мне заплатил за мой перевод, а когда я отказывалась брать у него деньги, то заставил их взять, а спустя много лет, когда он был болен и попросил меня помочь одному из его аспирантов сократить объем диссертatsiи, которую он писал за границей, и срочно привести ее в соответствующий вид, так, как, сроки защиты

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

поджимали, а объем работы был слишком большой, и нельзя было ее в таком виде ставить на защиту, и когда я месяц работала с этим аспирантом над сокращением его работы и благополучно он защитился, профессор Гайбулла Салямов опять мне дал деньги и сказал, что это благодарность того аспиранта за мой труд, и, когда я снова не хотела их брать и говорила ему, что сделала это только ради него, что он его аспирант, и, что сама его работа мне понравилась, и я с удовольствием работала над ней, он сказал, что всякий труд человека должен быть вознагражден, что « только ишак работает бесплатно и не требует вознаграждения за свою работу». Может потому, что профессор Гайбулла Салямов мне верил, когда один из его последних аспирантов не успел при его жизни, жизни своего научного руководителя написать свою кандидатскую диссертatsiю, жил у меня и писал ее, я заставила его довести дело до конца и защититься, так, как, он отчаялся и злился, не хотел защищаться, поскольку свою диссертatsiю он писал на узбекском языке, а ему автореферат попросили представить на русском языке, но потом его автореферат на узбекском языке все же приняли, и он очень хорошо защитился. А пока он шел к защите, у меня на душе был тяжелый камень, образ профессора Гайбуллы Салямова все время стоял перед моими глазами, и, поэтому, я очень хотела, чтобы его аспирант защитился. И действительно, после его защиты, я почувствовала на душе огромное облегчение, и, поскольку, дух профессора Гайбуллы Салямова незримо присутствовал во всех делах и творческих замыслах его учеников и всех тех, кто знал и любил его, то этого аспиранта, сразу же, после его защиты, поставили заведовать кафедрой по его профилю, как, собственно говоря, и того, другого его аспиранта, которого профессор поручил мне во время своей болезни, когда был жив. Думаю, что здесь будет уместным сказать, что в 1994 – 1998 годах моей работы в УЗГУМЯ, я по совместительству работала в Национальном университете на факультетах журналистики и зарубежной филологии и читала лекции по теории перевода и сопоставительной грамматике узбекского и русского языков по кафедре теории перевода и сопоставительной типологии профессора Гайбуллы Салямова. Преподавала в славянских группах.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Тогда он мне говорил, что полностью уйдет работать в Академию Государственного Строительства, где в то время он тоже работал и оставит мне кафедру, чтобы я закрыла рот, глаза и уши и знала только аудиторию и студентов. Но этому его желанию не суждено было сбыться, так, как, я работала на его кафедре на почасовой оплате, а в его отсутствии, когда он находился в Академии Государственного Строительства, мне давали так мало часов, что их оплаты не хватало даже на проезд, поэтому вынуждена была уйти с работы. В середине 2000 года, после смерти профессора Гайбуллы Салямова, я пришла к ним домой навестить его жену Шахрихон опа и в это время, ее так же приехал навестить первый аспирант Гайбуллы Салямова, профессор Нажмеддин Камилов, с кем до последних дней, он вместе работал. Тогда профессор Нажмеддин Камилов мне сказал, что теперь вместо Гайбуллы Салямова кафедрой перевода и сопоставительной типологии в Hatsionaльном университете заведует он и пригласил меня работать с ним на полную ставку, но лишь с одним условием, что я уйду из УзГУМЯ, где я в то время работала. Но до выхода на пенсию мне оставалось всего два года, и, поскольку, УзГУМЯ был организован на базе Института иностранных языков и РПИРЯИЛ, где я училась и работала 20 лет, я не могла оттуда совсем уйти. А через год профессора Нажмеддина Камилова снова отозвали в Академию Государственного Строительства, а кафедру перевода и сопоставительной типологии, которую в 1969 году открыл в Hatsionaльном университете профессор Гайбулла Салямов и 30 лет был ее бессменным заведующим, не раз воевал с чиновниками, чтобы ее не закрыли, присоединили к кафедре сопоставительной грамматики английского и узбекского языков, а потом, на его месте сделали музей профессора Гайбуллы Салямова. А по достижению пенсионного возраста, я все равно была вынуждена уйти на пенсию, так , как, мой приказ о том, чтобы оставить меня на работе, невзирая на мой пенсионный возраст, подписанный ректором УЗГУМЯ, был утерян, а я не могла заниматься его восстановлением, так, как, это произошло в то время, когда я потеряла своего отца. Большой ученый и педагог, основоположник школы перевода в Узбекистане, профессор Гайбулла Салямов мне всегда помогал и поддерживал в

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

работе, так, как, уехав из Ангрена, где восемь лет я работала в ТОГПИ, на кафедре русской и зарубежной литературы, и, где после защиты, по просьбе ИЯЛ, делала перевод на русский язык третьего и четвертого тома «Истории узбекской литературы», а потом, меня пригласили на работу на кафедру русского языка в САМПИ, где проработав полтора года, тоже по приглашению, перевелась в РПИРЯИЛ, где на новом, переводческом отделении по специальности в первое время работала одна, а в личной жизни мне не везло, я подорвала свое здоровье. Профессор Гайбулла Салямов, как никто другой очень хорошо понимал мою ситуatsiю, поскольку хорошо знал, что перевод -это комплексная наука, требующая в преподавании ее дисциплин разносторонних знаний. А я, кандидат наук, с блестящей защитой, в то время, кроме проблем поэтического перевода и соответствия тем, идей и образов, соответствующую подготовку для преподавания переводческих дисциплин в ВУЗе не имела, так, как, изучала перевод только во время написания своей диссертatsiи, поэтому, не имела достаточного представления о языковых основах перевода, не знала историю русского, узбекского и мирового перевода, синхронный перевод, методику преподавания перевода и еще многое другое, связанное с преподаванием этих дисциплин. Хотя в первое время работы на переводческом отделение на кафедре теории, истории и критики литературы и перевода, я прошла 3-х месячную стажировку в Hatsiональном университете на кафедре у профессора Гайбуллы Салямова, ездила в командировку в Москву в Литературный институт и посещала лекции и семинары по переводу известных московских специалистов: профессора Л.Озерова, доцента Г. Хантемировой и прекрасного лектора с грузинской фамилией, которую, к сожалению, не помню, ознакомилась с постановкой учебной работы в Институте иностранных языков Мориса Тореза и привезла оттуда учебные программы по переводу, но знаний у меня все равно не хватало. (Эти программы я потом отдала декану переводческого факультета в УзГУМЯ Муминову ). В этот трудный для меня период я часто бессознательно приходила к профессору Гайбулле Салямову домой, но не могла говорить, было больно и стыдно за свое невежество, слезы сами катились из моих глаз. Он

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

тоже молчал, понимал мое состояние, но не знал, что говорить. А потом, несмотря на свою большую загруженность, так же молча приходил в РПИРЯИЛ и читал лекции по переводу нашим студентам переводческого отделения, а я молча сидела у него на лекциях и слушала, как он читает. В это очень трудное для меня и нашей кафедры время, профессор Гайбулла Салямов привлек к работе с нашими студентами и своих бывших аспирантов Зухриддина Исамеддинова, Султанмурада Олимова и Рахматуллу Баракаева, которые работали в ИЯЛ АН, в Отделе перевода и взаимосвязей литератур, куда наши студенты ходили к ним на практические занятия. Приходил и читал лекции по переводу творчества Ф.Достоевского и его бывший аспирант Хамдамжон Исмаилов. Я почувствовала поддержку Гайбуллы Салямова и во время конфликта с деканом факультета русской и узбекской филологии, профессором Ш. А. Файзуллаевой, которая, не понятно почему, не хотела, чтобы я читала лекции на ее факультете, так, как, в то время я уже хорошо знала свои предметы. Гайбулла Салямов был в хороших отношениях с нашим ректором, профессором Дж. Бурановым, и как председатель экзаменatsionной комиссии, присутствовал на защите дипломных работ. Он, думаю, понимал причину конфликта и хотел помочь нашим студентам. И в то же время он посылал ко мне своих дипломников из Hatsionального университета, чтобы я посмотрела их работы и оппонировала им. Так, я выступала оппонентом у Б. Абдуллаева, который на отлично защитил свою дипломную работу по переводу на русский язык творчества Бабамурада Машраба. Характерную черту профессора Гайбуллы Салямова без всяких слов оказывать помощь, я испытывала на протяжении всего периода своей работы. Он прекрасно знал, что я любила свой предмет и студентов и мне, как воздух, была необходима аудитория, работать со студентами, поэтому на протяжение многих лет он просто меня просил заходить вместо него в аудиторию и проводить со студентами занятия. Так было в УЗГУМЯ, куда его приглашали читать лекции в переводческих группах и, где последние шесть лет я работала на кафедре узбекского языка, так было и в Hatsionaльном университете, где я работала у него на кафедре по совместительству. Большим

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

подспорьем для меня служили учебники и учебные пособия Гайбуллы Салямова «Язык и перевод», «Фразеологические вопросы перевода» (Перевод пословиц и идиом), «Введение в переводоведение», «Основы теории перевода» и другие его труды, а также сборники «Искусство перевода» (Таржима санъати ), инициатором издания и редактором которого он был и издавал их вместе с известным поэтом и переводчиком Тилаком Джурой, Благодаря профессору Гайбулле Салямову я лучше осознала, что развитие науки о переводе происходит благодаря комплексному изучению его проблем. До его выступления на моей защите, я только интуитивно понимала об этом и писала свою диссертatsiю. А он сразу отметил это у меня в работе как положительный факт. Именно после этого его выступления, мне стало легче разбираться в теоретических трудах по переводу, и все свои лекции я начинала с того, что предмет перевода находится на стыке языкознания и литературоведения. Поэтому по мере сил изучила узбекский язык и преподавала сопоставительную грамматику русского и узбекского языков. Недавно в одной из рукописей Гайбуллы Салямова, где он говорил о важности подготовки переводческих кадров, я прочла о том, что «этим делом занимается кафедра теории перевода и сопоставительной типологии языков в Hatsiональном университете, а хорошо начатое дело в РПИРЯИЛ почему-то было закрыто его ректором Г.Щегловой». С рукописью своего отца мне дала ознакомиться дочь Гайбуллы Салямова Назира Салямова, жена народного поэта Мухаммада Юсуфа. А потом, уже после создания УЗГУМЯ, когда профессора Гайбуллу Салямова, как крупного специалиста, пригласили читать лекции на новом переводческом факультете, открывать факультет, он доверил свои лекции мне, так, как, был на статsiонарном лечении, и когда я пришла навестить его в Правительственную больницу, то попросил меня об этом. В больнице за ним ухаживала Шахрихон опа. А потом на переводческом факультете на выпускных курсах у меня появились свои лекции, но спустя два-три года, декан факультета Муминов сказал, что их будут читать на английском языке (я изучала немецкий), хотя общая теория перевода для всех языков одна и все равно на каком языке его читать,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

просто у каждой пары языков своя специфика перевода и на ней можно было делать акцент на практических занятиях. Я не знаю, чем вызывала доверие у профессора Гайбуллы Салямова, так как, была не ахти каким лектором, но я переводила на русский язык стихи узбекских поэтов, и поэтому, в очередной раз доверяя мне свои лекции, говорил, чтобы я больше говорила студентам о своих переводах. Но докторскую диссертatsiю я не написала, хотя начала и материала у меня было предостаточно. Профессор Гайбулла Салямов мне говорил, чтобы на материале узбекско-русских и русско-узбекских переводов я написала книгу, похожую на книгу Е.Эткина «Поэзия и перевод». И только в 2008 году, спустя восемь лет после его смерти, мне удалось совершенно случайно написать книгу об узбекских переводах 42 (сорока двух) стихотворений известного поэта Узбекистана А. Файнберга, которую посвятила светлой памяти профессора Гайбуллы Салямова, хотя, до сих пор я ее не издала. Также, не издала и свою поэму о переводе «Учитель», куда поместила свои переводы из А. Чулпана, Миртемира, Абдуллы Арипова, Рауфа Парфи и других узбекских поэтов. А почему, трудно сказать. В связи с этим хочу сказать, что поэзия больше, чем другие жанры литературы, несет в себе дух народа, на языке которого она создана, то есть, она hatsionaльна по форме и духу. Поэтому узбекская поэзия очень хорошо звучит в переводах таких больших русских поэтов-переводчиков, как: Вл. Державин, Л. Пеньковский, С.Иванов, С.Липкин, Н.Гребнев и других, которые с большим мастерством переводили ее на русский язык, в частности, поэмы и газели великого Навои, стихи Абдуллы Арипова, Эркина Вахидова, Зульфии, Миртемира и других, поскольку, их переводы не только сохраняют дух узбекских подлинников, но и отвечают hatsionaльной психологии, сознанию и мышлению русских читателей и проникнуты hatsionaльным духом русского народа. А это сложно, сохранить hatsionaльное лицо переводимых иноязычных авторов и не изменить своей творческой индивидуальности, как поэта-переводчика. Поэтому подготовка переводчиков художественной литературы, и в особенности поэзии, требует специального рассмотрения, так, как, поэты не делаются, а рождаются, и переводчиков поэзии следует

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

воспитывать из среды поэтически одаренной молодежи и об этом должен думать Союз писателей. Что же касается моих переводов, о которых я говорила в связи со своей поэмой «Учитель», то их надо воспринимать, как стремление преподавателя, которая воспитывалась на традициях русской литературы, больше узнать о творческом процессе поэтического перевода не только из книг о переводе, но и своего опыта, чтобы можно было легко и доступно говорить об этом студентам. О важности избегать низкопробных переводов, серости в переводческом деле и важности обогащать родную литературу шедеврами мировой литературы, разнообразием тем, идей, жанров и образов, и на таком же высоком уровне ее импортировать, говорил профессор Гайбулла Салямов в диалоге с доктором филологических наук Зухритдином Исаметдиновом, который был напечатан в одном из номеров газеты «Ўзбекистон адабиёти ва санъати” под названием «Переводческие и антипереводческие тенденции на современном этапе». В завершении своего воспоминания о выдающемся узбекском ученом, теоретике перевода, основоположнике школы перевода в Узбекистане профессоре Гайбулле Салямове хочу сказать о главном, ради чего было написано мое воспоминание. В марте 2002 года в Наманганском университете проводилась научная конференция посвященная профессору Гайбулле Салямову, о которой я была оповещена, но не смогла поехать из-за кончины моего отца, известного узбекского лексикографа Насима Маматова, боялась, что буду сидеть на конференции, думать об отце и плакать. Поэтому я говорила тогда о профессоре Гайбулле Салямове по радио в передаче, подготовленной журналистом Умидой Умарходжаевой. На основе выступлений на конференции вышла книга воспоминаний о профессоре Гайбулле Салямове (2002), которую подарила мне его дочка Назира Салямова. Она попросила меня тоже написать о ее отце, поскольку хочет книгу переиздать в расширенном виде, поскольку воспоминания многих знавших и любивших ее отца, в нее не вошли. Однако и тех воспоминаний, которые вошли в эту книгу, для меня было достаточно для того, чтобы узнать, как многим людям, друзьям и ученикам помогал в своей жизни профессор Гайбулла Салямов, с каким восторгом о нем писали десятки его близко знавших людей,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

как многим он помог и поддержал в своей жизни. Об этом я узнала также и из книги писателя и переводчика А.Рашидова (2001). И исходя из того, что я написала сама о нем, у меня совершенно в голове не укладывается мысль, когда он успевал все это делать, учитывая, что он очень много и плодотворно работал, писал научные труды, создавал учебники, учебные пособия, программы, открыл и заведовал четвертой в бывшем Союзе кафедрой перевода, проводил занятия в 4-х университетах, САМГУ, ТАШГУ, РПИРЯИЛ и потом в УЗГУМЯ, Академии Государственного Строительства, постоянно выступал в печати, по радио и телевидению не только как ученый, но и как большой публицист и педагог, писал очерки, рассказы, стихи, поэмы, переводил Достоевского, Чехова и Л. Толстого и других русских писателей, участвовал в создании Большой Узбекской Энциклопедии и в составление словарей, выпускал сборники по «Искусству перевода», работал с деятелями науки и литературы, писателями и переводчиками, редактировал статьи и переводы, был членом многих Советов по защитам кандидатских и докторских диссертatsiй, писал многочисленные отзывы, имел десятки аспирантов, был членом многих редакционных советов, в частности в журнале «Жахон адабиёти» (Всемирная литература), участвовал в организatsiи Отдела перевода и взаимосвязей литератур» в ИЯЛ АН, был председателям Совета по переводу в Союзе писателей, выступал везде, где он присутствовал и т.д. и т. п., и, самое главное, был отцом большого семейства, кормил и содержал большую семью, жену, детей и внуков. Я думаю, чтобы так жить, надо быть необыкновенным человеком. Его всегда сопровождали его ученики, которые любят его и теперь, когда его нет. Сегодня в нашей стране перевод получил необыкновенный расцвет, мечта ученого - основоположника школы узбекского перевода осуществляется, молодежь знает многие языки, появились полиглоты, которые знают по четыре и более языков, переводят и дублируют фильмы со многих языков мира, молодые специалисты по иностранным языкам и студенты учатся и стажируются во многих странах мира: в России, на Украине, США, Англии, Франции Германии, Голландии, Японии, Корее, Китае, Индии и других странах, появились синхронные

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Маҳмуд Кошғарий алифбосидаги *w* билан *b* нинг иккиси ушбу алифбода арабча ب орқали изоҳланган; *x* ва *q* бу ерда ق; *z* билан *s* бу ерда س; *δ* билан *t* эса бу ерда د орқали изоҳланган. Шунга кўра ҳарфлар сони 14 тадир.

Юқоридаги маълумотларга асосланадиган бўлсак, Ибн Арабшоҳ уйғур алифбосида қуйидаги товушлар бир хил ифода этилганини таъкидлаган бўлади: [*q*] – [*γ*] – [*x*], [*b*] – [*v*] – [*f*], [*z*] – [*s*], [*t*] – [*d*]. Шуларга кўра, муаллиф таъкидлаган уйғур алифбосидаги 14 та ҳарф қуйидагилар бўлиб чиқади: *a, b, q, v, s, y, k, d, m, n, č, r, š, l*.

Ибн Арабшоҳ уйғур хатининг тарихи тўғрисида ҳам яхши маълумот берган. Тарихчи ёзади: «Улар [чиғатойликлар – *Қ.С.*] ўзларининг тилхат, мактуб, фармон, хат, китоб, битим, солнома, шеър, қисса, ҳикоят, ҳисоб, хотира ва девонга тегишли ҳамма ишларини, чингизона тузукларини шу ёзувда ёзадилар. Бу ёзувни яхши билган уларнинг орасида хор бўлмайди, чунки бу (ёзув) уларда ризқ очқичидир» (Рустамов 1976,42).

Демак, тарихчи Ибн Арабшоҳ ҳам, Ибн Оқил Абдулвафо Абдуллоҳ ҳам уйғур хатини жуда яхши билганлар. Улар келтирган алифболарда ҳам ҳарфлар сони Маҳмуд Кошғарий алифбосидаги сингари 18 та. Бироқ бирови уйғур хатидаги ҳарфлар сонини 16 та, бошқа бири 14 та деб кўрсатганининг сабаби, ҳарфларнинг полифоник хусусияти ва бир қанча товушлар ёзувда бир хил ифодаланганини назарда тутганлар.

**Уйғурча ҳарфларнинг фонетик вазифалари.** Энди Маҳмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбосидаги айрим ҳарфларнинг вазифалари тўғрисида сўз юритамиз. Уйғур ёзуви оромий алифбоси негизида яратилган. Шундай бўлса ҳам, турклар бу ёзувни ўзлаштириш чоғида уни ўз тилларига мослаштириб юбордилар. Унинг имло принциплари тугал бир шаклда ўйлаб чиқилган эди. Уйғур алифбосидаги ҳарфлардан учтаси, ўрни билан, унлиларни ифодалашга хизмат қилган: ـا <*a*> ҳарфи [*a*]–[*ä~e*] унлиларини, [*y*] ундошини ифодаловчи ـيا <*ya*> ҳарфи [*ï*] – [*i~e*] ни, ـو <*va*> ҳарфи эса [*u*] – [*ü*] – [*o*] – [*ö*] унлиларини англатади.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Муҳими шундаки, уйғур ёзувида ингичка унлилар ҳам фарқланган: сўз бошида ингичка [*ä*] унлиси битта *alif* билан, йўғон [*a*] унлисини ифодалаш учун эса *alif* қўшалоқ шаклда ёзилган. Шунингдек, сўз боши ва биринчи бўғинда келувчи [*ü*] ва [*ö*] унлилари *alif yā* билан берилган. Ёзувнинг бу хусусияти оромий алифбосини (ҳарқалай, суғдча алифбони) туркчалаштириш жараёнида вужудга келган эди. Чунончи, суғдча ёзувда чўзиқ [*a:*] товуши қисқа [*a*] дан қўшалоқ *alif* орқали ёзилиши билан фарқланган. Турклар суғд хатини ўзлаштириш чоғида унинг баъзи принципларини ўз тилларига мослаштириб олганлар. Суғд хатида чўзиқликни англатувчи график белгилар уйғур ёзувида чўзиқ-қисқаликни эмас, туркий тил учун муҳимроқ бўлган ингичка ва йўғон унлилар, яъни олд ва орқа қатор унлиларини фарқлашга хизмат қила бошлади. Хусусан, Турфондан топилган қадимги будда, моний матнларида сўз бошида қўшалоқ ـاـ <*aa*-> ҳарфи орқа қатор [*a*] ни, оддий ـا <*a*-> эса олд қатор [*ä(~e)*] унлисини ифодалаган. Кейинчалик орқа қатор [*a*] товуши учун ҳам оддий ـا <*a*-> ҳарфидан фойдаланиладиган бўлди (*қаранг:* Содиқов 2020,261–262).

Энди ундошларни англатувчи ҳарфларга ўтамиз: сирада иккинчи турувчи ـو *wa* ҳарфининг вазифаси тўғрисида. Бу ҳарф лаб-тиш [*w*] ҳамда лаб-лаб [*v*] товушларини ифода этган. Маҳмуд Кошғарий унинг вазифасига ишора қилиб, остига араб алифбосидаги ف ҳарфини қўйган (МК.3а). Бунинг билан у [*w*] товушини кўзда тутади. Бу товуш асарда келтирилган туркий мисолларда ڤ ва ف ҳарфлари билан ифодаланган. Муҳими шундаки, Ибн Оқил Абдулвафо Абдуллоҳ ҳам ўзи келтирган алифбода ушбу ҳарфнинг остига ف ҳарфини қўйиб кетган. Олимларнинг ушбу изоҳларидан туркий сўзларда [*w*] товушининг [*v*] га қараганда устун эканлигини англаса бўлади.

XI–XIV юзйилларнинг араб ёзувли туркий матнларида [*v*] билан [*w*] бошқа-бошқа ҳарфлар билан берилган: фонеманинг [*v*] варианти *vāv*, [*w*] товуши эса ڤ ёки ف ҳарфлари билан ифода этилган. Масалан, [*w*] товуши «Девону луғати-т-турк»даги туркий матнларда, «Қутадғу билиг»нинг араб ёзувли қўлёзмаларида ف // ڤ, туркий «Тафсир»да ف, «Муқаддамату-л-адаб»нинг XIII–XIV юзйилларга мансуб дея

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

чамаланаётган нусхасида ڤ//ف ҳарфлари билан ифода этилган (Содиқов 2020,272).

Мисоллар: سڤ *sew-* «сев-» (QBQ.13a,16), جاڤ *čaw* – «хабар, довруғ» (QBQ.13a,7). Кейинги давр матнларида бу товушлар учун ягона ҳарф хизмат қилган: иккови *vāv* ҳарфи билан ифодаланадиган бўлди. Маҳмуд Кошғарий [*w*] ни «*bā* (яъни, [*b*] билан *fā* (яъни, [*f*]) махражлари орасидаги» товуш деб таъкидлайди (ДЛТ,26). Унинг ёзишига қараганда, [*v*] ёки [*w*] билан сўзлаш диалектал хусусият бўлган. Масалан, «унинг суви билан тутмочга ранг бериладиган бир хил тиканли ўсимлик»ни баъзи шеваларда жарангсиз [*v*] билан *yava* десалар, бошқалар жарангли [*w*] билан *yawa* деганлар (ДЛТ,331).

Шунингдек, у, айрим ҳолларда, [*v*] билан [*w*] нинг параллел қўлланиши мумкинлигини ҳам таъкидлайди: *yalawač* – «пайғамбар». Бу сўзнинг *yalavač* шакли ҳам бор (ДЛТ,340).

Келтирилган далиллар [*w*] ҳамда [*v*] диалектал хусусиятларни фарқлаш билан бирга, ҳар иккаласи ўзаро вариант сифатида (*w*~*v*) қўлланганидан ҳам далолат беради.

Энди уйғур алифбосидаги тўққизинчи – ڈ <*da*> ҳарфининг вазифаси тўғрисида. Алифбодаги ушбу ҳарф [*d*] ҳамда [*t*] ундошларини ифода этган. Шунингдек, XI–XIV юзйилликларнинг араб ёзувли туркий матнларида тишора ذ [*δ*] ундоши билан қўлланган сўзлар ҳам уйғур ёзувли матнларда ана шу ҳарф билан ёзилади. Кошғарий ўз алифбосида тўққизинчи ҳарфнинг остига арабча ذ ҳарфини қўйиб, унинг тишора [*δ*] товушини ифода этганлигига ишора қилади. Қизиғи шундаки, алифбода د [*d*] ни билдирувчи ҳарф кўрсатилмаган. Бироқ, таъкидлаш керак, «Девону луғати-т-турк»да د[*d*] билан келувчи сўзлар ҳам анчагина. Ҳар қайси ҳолда ҳам алифбода ذ [*δ*] ни англатишига ишора этилган тўққизинчи ҳарф ўша даврнинг уйғур ёзувли матнларида [*d*~*δ*] вазифасини бажарганлиги аниқ. Маҳмуд Кошғарийнинг ушбу ҳарф ذ [*δ*] товушини англатган деб изоҳлагани бежиз эмас. У алифбода د [*d*] ни эмас, фақат ذ [*δ*] ни кўрсатганлигининг сабаби ҳар икки товушни ўзаро вариант сифатида қараганлигидан бўлса керак.

Уйғур алифбосидаги <*da*> ҳарфининг вазифасини аниқлашда «Ҳибату-л-ҳақойиқ» уйғур ёзувли *А* нусхасининг ёзув хусусиятлари

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

қўл келади. Эътиборлиси, уйғур ёзувли ушбу қўлёзмада «шундай ўқилсин» деган ишора остида араб алифбосидаги ҳарфлардан фойдаланилган. Масалан: матнда *kedim* сўзидаги <*d*> ҳарфининг остига ذ белгисини қўйиб, ушбу сўзни тишора [*δ*] ундоши билан *keδim* шаклида ўқишга ишора этилган (YugA.43,6). Бошқа мисоллар ҳам шундай: *qudï* (*quδï*) – «қуйи» (66.1), *edgü* (*eδgü*) – «яхши» (91.2), *adïn* (*aδïn*) – «бегона» (113.1).

Баъзи ўринда уйғур ёзувли матндаги <*z*> ҳарфининг остига ҳам ذ белгисини қўйиб кетилган. Шундай ишора бўлган экан, энди бу ҳарфни ҳам [*δ*] деб ўқиш лозим бўлади: *bozun* (*boδun*) – «халқ» (YugA.102,2), *qazγu* (*qaδγu*) – «қайғу, алам» (YugA.103,2) сингари.

«Ҳибату-л-ҳақойиқ»нинг *B* нусхасида [*δ*] товуши ҳатто <*t*> ҳарфи билан ҳам берилган; бу сўздаги <*t*> ни ҳам [*δ*] деб ўқиса бўлади: *ket (keδ)* – «жуда» (YugB.39,5).

«Ҳибату-л-ҳақойиқ»нинг араб ёзувли *B* ва *C* қўлёзмаларида ذ ҳарфи йўқ, ўрнида *dāl* ёки *yā* ҳарфлари ишлатилган. Муҳими шундаки, *B* ва *C* қўлёзмаларида [*d*] ёки [*y*] билан ишлатилган сўзлар асарнинг араб ёзувли *H* қўлёзмасида [*δ*] билан келади; бу товуш матнда ذ ҳарфи билан ифодаланган: اذكو *eδgü* – «эзгу» (YugH.24b,6); ايذي*eδi* – «эга; худо» (YugH.15a,8); ايذ *ïδ*- «юбор-» (YugH.11a,3); قوذي*quδï* – «қуйи» (YugH.14a,5) ва б.

Муҳим бир далилга эътибор қаратайлик. «Қутадғу билиг»нинг араб ёзувли Наманган (*B*) нусхасида [*δ*] товуши махсус ҳарф билан берилган: اذكو *eδgü* – «эзгу, яхши» (15b,2), بوذون *boδun* – «халқ» (14a,14), اوذ *öδ* – «вақт» (20b,5), اوذ *uδ* – «ҳўкиз» (42a,4). Асарнинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхасида бу сўзлар <*d*> ҳарфи билан ёзилган. Шу ўринда Наманган нусхасининг ёзув хусусиятларини эътиборда тутадиган бўлсак, уйғур ёзувли матндаги <*d*> ҳарфи тишора [*δ*] товушини ифода этгани аён бўлади: *edgu (eδgü)* – «эзгу» (9b,21), *kedin* (*keδin*) – «кейин» (29a,19), *qudï* (*quδï*) – «қуйи» (8a,32), *adaγ* (*aδaγ*) – «оёқ» (12a,5), *Ud* (*Uδ*) – юлдузнинг оти (8b,9).

Шунинг сингари, «Ҳибату-л-ҳақойиқ»нинг уйғур ёзувли *A* нусхасида *kedgülük* (яъни, «кийгулик») сўзининг остига ҳам ذ ҳарфи қўйиб кетилган: *kedgülük* (ўқилиши: *keδgülük*) (YugA.44.4).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Мисоллардан англашиладики, уйғур алифбосидаги <*d*> ҳарфи [*d*] ва [*t*] товушларидан ташқари, тишора [*δ*] товушини ҳам ифода этган. Туркий ёзма ёдгорликларда сирғалувчи ژ [*ž*] товуши ҳам қўлланган. Маҳмуд Кошғарий буни мураккаб артикуляцияга эга бўлган («икки махраж орасида талаффуз қилинадиган») товуш деб таърифлайди (ДЛТ,160).

Уйғур ёзувли қадимги Турфон матнларида сирғалувчи [*ž*] товуши <z> ҳарфининг остига икки нуқта қўйиб ифода этилган (ۥ). Масалан, «Сюань-цзан кечмиши» асарида: *ažun* – «дунё» (СЦ.V.71,4), *üžik* – «ҳарф, ёзув» (СЦ.V.17,23).

Сирғалувчи [*ž*] товуши араб хатида ژ ҳарфи билан ифода этилган. Масалан, QBQ да: آژون *ažun* – «дунё» (16.7), اراژ *eräž* – «роҳат, фароғат» (285.2).

Маҳмуд Кошғарий ўз асарида қуйидаги сўзларни сирғалувчи ژ [*ž*] билан келтирган (ДЛТ бўйича): اژن *ažun* – «дунё» (43), اغژ *aγuž* – «оғиз, оғиз сути» (36), ارژو *aržu* – «шоқол, чиябўри дейилган йиртқич бир ҳайвон» (64), اوژما *užma* – «тут дарахти» (65), تژک *täžik* – «тожик; форс» (156); بژن *bužïn* – бир хил ўт, ўсимлик (160). «Қутадғу билиг»нинг араб ёзувли қўлёзмаларида ژ ҳарфи билан ифода этилган [*ž*] товуши асарнинг уйғур ёзувли Ҳирот қўлёзмасида <*č*> ҳарфи билан ифода этилган. Асарнинг араб ёзувидаги нусхаларини назарда тутилса, бу сўздаги <*č*> ҳарфи сирғалувчи [*ž*] ни англатганлиги аён бўлади: *ačun (ažun)* (QBH.7a,17) [асарнинг араб ёзувли қўлёзмаларида: آژون (QBN.9b,10)]. Қадимги турфон битигларида икки нуқтали <z> билан ёзилган *ažun* сўзи «Ҳибату-л-ҳақойиқ»нинг уйғур ёзувли нусхаларида <*č*> ҳарфи билан *ačun* шаклида ёзилган (YugA.14,6; 15,4).

«Ҳибату-л-ҳақойиқ»нинг уйғур хатида ёзилиб, остида араб ҳарфлари билан изоҳлаб чиқилган *B* нусхасида муҳим бир ёзув хусусиятини кузатамиз. Унда уйғур ёзувли матндаги *ačun* сўзи остма-ост берилган араб ёзувли матнда бир ўринда آژون *ažun* (19,2; 22,4), бошқа бир ерда эса اجون *ačun* деб изоҳланган (23,4; 47,7). Асарнинг араб ёзувли *C* нусхасида ҳам мазкур сўз бир ерда ژ билан *ažun* ёзилса (18,2; 21,4), бошқа бир ерда ج билан *ačun* ёзилган (8,1). Демак, бу сўз асарда *ažun~ačun* шаклларида қўлланган. Шунга биноан, асарнинг

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

уйғур ёзувли нусхаларида <č> ҳарфи сирғалувчи [ž], ўрни билан жарангсиз [č] товушини ифода этганлиги аён бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда Маҳмуд Кошғарий келтирган ўн саккиз ҳарфли алифбо (MK.3b) асосида тизимлаштирилса, ҳарфларнинг вазифалари қуйидагича эканлиги аён бўлади: <a> ҳарфи – [a], [ä~e]; арабчадан ўзлашган сўзлардаги [h], [ḥ] ларни;

<w> ҳарфи – [v~w], арабчадан ва форсчадан ўзлашган сўзлардаги [f] ни;

<x> ҳарфи – [x], [γ], ўзлашган сўзлардаги [h], [ḥ] ларни;

<v> ҳарфи – [o], [ö], [u], [ü] ларни;

<z> ҳарфи – [z], [s], [ž] ларни;

<q> ҳарфи – [q], [γ], арабчадан ўзлашган сўзлардаги [h], [ḥ] ларни;

<y> ҳарфи – [y]; [ï], [i], [~e] ларни;

<k> ҳарфи – [k], [g] ларни;

<d> ҳарфи – [d~δ], [t] ларни;

<m> ҳарфи – [m] ни;

<n> ҳарфи – [n] ни;

<s> ҳарфи – [s], [z], Турфон матнларида баъзан [ž] ни;

<b> ҳарфи – [b], [p] ларни;

<č> ҳарфи – [č], [j], [ž] ларни;

<r> ҳарфи – [r] ни;

<š> ҳарфи – [š] ни;

<t> ҳарфи – [t], [d~δ] ларни;

<l> ҳарфи – [l] фонемасини ифода этади.

**Хулоса.** Маҳмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбоси ва ёзув ҳақидаги маълумотлари ёзув тарихи, унинг ўзига хос хусусиятлари, эски туркий тилнинг, хусусан, қорахонийлар даври ёзма адабий тилининг фонетик тизими, ҳарф ва товуш муносабатларини ўрганишда ўта аҳамиятлидир. Кошғарий алифбоси ўтмишдан қолган грамматикалар ва тарих китобларидаги уйғур алифболарининг энг мукаммали бўлиб, олим унга қарахонийлар даври тилининг билимдани, кучли фонетисти сифатида ёндашган.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Уйғур алифбоси ихчам бир шаклда тузилган бўлиб, ундаги ҳарфларнинг айтарли бари полифоник хусусиятга эга эди. Туркий халқлар ўтмишда фойдаланган алифболарнинг энг ихчами ҳам айни алифбодир. Унинг имло принциплари жуда ўйлаб ишлаб чиқилган. Ўтмиш ёзув амалиётининг тажрибаси шуни кўрсатадики, ёзувнинг қулай ё ўнғайсизлиги, тилнинг фонетик-фонологик тизимига қай даража жавоб берганлиги алифбодаги ҳарфларнинг оз-кўплигида эмас, балки имло қоидаларининг қандай тузилганлигига боғлиқ экан.

Уйғур хати ўзининг ихчам алифбо тизими, имло принципларининг мукаммал ишлангани, палеографик имкониятлари билан юзйилликлар оша туркий тилнинг фонетик хусусияти, китобат санъати талабларига тўла жавоб бериб, юзйилликлар оша ишлатилиб келди.

**Фойдаланилган манбалар ва илмий асарлар:**

*Arat 1991* – Kutadgu Bilig. I. Metin. R.R. Arat. – Ankara, 1991.

*Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki.* Atebetü'l-Hakayık. R.R. Arat. – Ankara, 1992.

*ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий.* Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.

*MK – Kaşgarlı Mahmud.* Dīvānü Lūgati't-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.

*Mun.* – «Муншаот»: Франция Миллий кутубхонасида сақланаётган Suppl. Turc. 317 / 1513 кўрсаткичли Навоий куллиётида (387b–406a).

*Рустамов 1976 – Рустамов А.* Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида. // «Адабий мерос» (5). 1976. 39–42- б.

*Содиқов 2020 – Содиқов Қ.* Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент, 2020.

*СЦ* – «Сюань-цзан кечмиши» асари: *Тугушева Л.Ю.* Уйгурская версия биографии Сюань-цзана. – Москва, 1991.

*Yug* – Адиб Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибату-л-ҳақойиқ» асари: *A* – асарнинг 1444 йили Самарқандда кўчирилган уйғур ёзувли нусхаси: Arat 1992: S. I–LXII; *B* – асарнинг 1480 йили Истанбулда уйғур ёзувида ёзилиб, тагма-таг араб хатида изоҳлаб чиқилган нусхаси: Arat 1992: S. LXIII–CXVII; *C* – асарнинг XVI юзйилликда араб хатида кўчирилган нусхаси: Arat 1992: S. CXVIII–CLXVI; *H* – асарнинг Голландияда сақланаётган араб ёзувли нусхаси: *Edib Ahmed Yüknekî.* Atebetü'l-Hakâyık. İnceleme - Tenkitli Metin - Tıpkıbasım. Hazırlayan: S. Çakmak. – İstanbul, 2019. S. 420–468.

*QB* – Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асари: *H* – Вена (Ҳирот) нусхаси: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Радлов В.В.* Кутадку-Билик. Факсимиле

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

уйгурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *N* – Наманган (Фарғона) нусхаси: ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 1809 кўрсаткичли қўлёзма. *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). –Ankara, 2015; *Q* – Қоҳира нусхаси: Миср Миллий кутубхонаси, 168- кўрсаткичли қўлёзма: *Yusuf Has* Hacib. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Usmanova, S. R., & Ismatullayeva, N. R. (2020). Expression Of Lacunas In Comparative Study Of Kinship Terms In Chinese And Uzbek Languages. Solid State Technology, 63(6), 4974-4985.

Ismatullayeva, N. R. Translation of phraseological units in Chinese and Uzbek languages. In *Scientific research of the SCO countries: synergy and integration (International conference). Beijing, PRC, June* (Vol. 24, pp. 45-50).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# DARIY TILIDAGI MODAL TUZILMALARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA
## (خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* tipi misolida)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-101-107

Filol.f.d. **Xolida ALIMOVA**
TDSHU professori, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 977659860; xolidaxon66@mail.ru

**Annotatsiya.** *Maqolada dariy tilida* خوانده میتوانم *xânda mêtawânam tipidagi modal tuzilmalar, bularning morfologik va struktur tavsifi, bunday tip tuzilmalar tarkibida* توانستن *tawânestan modal fe’lining semantikasi va o‘rni o‘rganilgan. Dariy tilidagi modal tuzilmalarning o‘zbek tilida ifodalanishi misollar orqali asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** *modal tuzilma,* توانستن *tawânestan fe’li, infinitiv III, modal fe’l, ko‘makchi fe’l.*

**Аннотация.** *В статье изучены модальные конструкции типа* خوانده میتوانم *xânda mêtawânam, их морфологическая и структурная характеристика, семантика модального глагола* توانستن *tawânestan и его статус в составе конструкций данного типа. Путем изучения примеров обосновано обозначение модальных конструкций дари в узбекском языке.*

**Ключевые слова:** *модальная конструкция, глагол* توانستن *tawânestan, инфинитив III, модалный глагол, вспомогательный глагол.*

**Abstract.** *The article studies modal constructions of the type* خوانده میتوانم *xânda mêtawânam, their morphological and structural characteristics, the semantics of the modal verb* توانستن *tawânestan and its status in constructions of this type. By studying examples, the designation of Dari modal constructions in the Uzbek language is substantiated.*

**Keywords:** *modal construction, verb* توانستن *tawânestan, infinitive III, modal verb, auxiliary verb.*

Dariy tilida خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* tipidagi modal tuzilmalar ko‘proq so‘zlashuv uslubiga xos, biroq adabiy tilda ham uchraydi:

آخ پایم! خیسته نمیتانم (og‘z.) *Âx pây-em! Xêsta namêtânam* [AA] ‘Voy, oyog‘im! Turolmayapman’;

دیوارهای باغچه بلند است، مارا دیده نمیتوانند *Dêwârhâ-ye bâğča boland ast, mâ râ dida namêtawânand* [RM] ‘Bog‘chaning devorlari baland, bizni ko‘ra olmaydilar’.

Bunday tuzilmalar, buyruq maylidan tashqari, barcha fe’l shakllarida va shaxs-sonda qo‘llaniladi:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

هیچ چیزا به صورت مشخص دیده نتوانستم *Hêč čiz râ ba surat-e mošaxxas dida natawânestam* [SZ] ‘Hech narsani aniq ko‘ra olmasdim’;

خوش بود که یک روزی به کمک نعیم کتاب خوانده خواهد توانست *Xoš bud ke yak rôz-ê ba komak-e Na‘im ketâb xânda xâhad tawânest* [AH] ‘U bir kun kelib Naimning yordamida kitob o‘qiy olishidan xursand edi’;

آیا تک تنها راه را پیدا کرده میتوانی؟ *Âyâ tak-tanhâ râh râ paydâ karda mêtawâni?* [AO] ‘Bir o‘zing yo‘lni topa olasanmi?’

سبا خانی مه آمده میتانین؟ (og‘z.) *Sabâ xânê ma âmada mêtânên?* ‘Ertaga biznikiga kela olasizmi?’

Modal tuzilma tarkibidagi yetakchi fe’l faqat bo‘lishli shaklda (chunki yetakchi fe’l – infinitiv III bo‘lishsiz shaklga ega emas [17] ), توانستن*tawânestan* fe’li esa bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarda ishlatiladi:

قدم کوتاه بود و به سختی اشیای روی میزرا دیده میتوانستم *Qadd-am kutâh bud-o ba-saxti ašyâ-ye rô-ye mêz râ dida mêtawânestam* [SZ] ‘Bo‘yim past edi va stol ustidagi narsalarni zo‘rg‘a ko‘ra olardim’;

اگر کل تان مثل امروز اتفاق کنید و از چیزی نترسید، آدم هایی مثل ما سر شما قوماندانی کرده نمیتوانیم! *Agar koll-etân mesl-e emrôz ettefâq konêd-o az čiz-ê natarsêd, âdamhâ-yê mesl-e mâ sar-e šomâ qomândâni karda namêtawânêm!* [RM] ‘Agar barchangiz bugungidek birlashsangiz va hech narsadan qo‘rqmasangiz, bizga o‘xshagan odamlar sizlarga buyruq bera olmaydi (olmaymiz)!’

Bu tip tuzilmalarda yetakchi qism bir nechta bo‘lishi mumkin:

همینقدر سواد داشت که خط های عربی و دری را به مشکل خوانده و نوشته میتوانست *Haminqadr sawâd dâšt ke xatthâ-ye ‘arabi-wo dari râ ba-moškel xânda wa nawešta mêtawânest* [JN] ‘Savodi haminqadar edi, arabcha va dariychani amallab o‘qiy va yoza olardi’.

Misollar tarjimasidan ko‘rinadiki, توانستن *tawânestan* fe’li o‘zbek tilida *ol* ko‘makchi fe’li orqali ifodalanadi. Bu ko‘makchi fe’l ravishdoshniig *-a*, *-y* affikslari orqali yasalgan turiga birikib, 1) harakatni bajarish qobiliyatiga egalik (yoki ega emaslik) (*o‘qiy olmoq*) va 2) harakatni

[17] Дарий тилида, форс тилидан фарқли, инфинитив III шакли мавжуд. Инфинитив III шакл жиҳатидан ўтган замон сифатдоши (ЎЗС) билан бир хил, бироқ ЎЗС бўлишсиз, мажҳул ва бўлишсиз-мажҳул шаклларда (масалан, نخوانده *naxânda* «ўқилмаган», نخواندن *naxândan* «ўқимаслик», خوانده نشدن *naxânda šodan* «ўқилмаслик») қўлланса, инфинитив III, биринчидан, мустақил ишлатилмайди, иккинчидан, фақат мажҳул шаклга (خوانده شده *xânda šoda*) эга.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bajarish imkoniyatiga egalik, qodirlik (*kela olmoq, ko'tara olmoq*) ma'nolarini bildiradi[3: 109].

Yetakchi qism qo'shma fe'l bo'lsa, uning tarkibidagi کردن *kardan* 'qilmoq' fe'lining infinitiv III shakli (ya'ni کرده *karda*) ayrim hollarda tushib qoladi, biroq o'zbek tiliga tarjimada saqlanadi:

موافق نبودم، اما مخالفت نتوانستم *Mowâfeq nabudam, ammâ moxâlefat natawânestam* [PP] 'Rozi emasdim, biroq qarshilik qila olmadim';

باور نمیتوانم با اینهمه، صدای خنده های شاد ما را میشنوم *Bâwar namêtawânam bâ inhama, sadâ-ye xandahâ-ye šâd-e mâ râ mêšenawam* [PP] 'Ishongim kelmaydi (ishona olmayman), hech narsaga qaramasdan shodon kulgu ovozimizni eshitmoqdaman'.

Shuni aytish kerakki, ellipsisga uchragan کردن *kardan* fe'lining infinitiv III shakli qayta tiklanishi mumkin. Infinitiv III shakli qo'llangan-qo'llanmaganidan qat'i nazar ikkala variant ham o'zaro teng va o'xshash vaziyatlarda ishlatila oladi:

برو، بابه جان، برو، ای بچه کار کده نمیتانه... گفتم، بابه، که ای بچیت کار نمیتانه *Borô, bâbajân, borô, i bača kâr kada namêtâna… Goftom, bâba, ke i bačê-t kâr namêtâna* [KM] 'Qo'ysang-chi, ota, bu bola ishlay olmaydi... . Aytdim-ku, ota, bu bolang ishlay olmaydi'.

خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* tipidagi tuzilmalar irreal-modal ma'noga ega. Bu tuzilmalar tarkibidagi توانستن *tawânestan* fe'li yetakchi fe'ldan anglashilgan vaziyatning imkoniyatini (ichki – qodirlik, layoqat va tashqi – mumkinlik) ifodalaydi. Bo'lishli shaklda aksariyat hollarda sub'ektning ish-harakatni bajarishga qodirligi va aksincha, bo'lishsiz shaklda qodir emasligi ifodalanadi:

چنانچه میبینید، یک پایم قطع است و کار کرده نمیتوانم *Čonânče mêbinêd, yak pâ-yam qat' ast wa kâr karda namêtawânam* [RM] 'Ko'rib turganingizdek, bir oyog'im kesib tashlangan va ishlay olmayman';

بچیم، نامت که شادی است، ای دلیل شده نمیتانه که به عوض کار خانه گی شادی بازی کنی (og'z.) *Bačê-m, nâm-et ke Šâdi ast, i dalil šoda namêtâna ke ba êwaz-e kâr-e xânagi šâdibâzi koni* [AA] 'Bolam, isming Shodi ekanligi uy vazifasi o'rniga shodlik qilishga asos bo'lolmaydi'.

Ayrim hollarda توانستن *tawânestan* fe'li bo'lishli shaklda sub'ektga yetakchi fe'ldan anglashilgan vaziyat bilan bog'liq ish-harakatni amalga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

oshirishga ijozat, bo‘lishsiz shaklda ruxsat etmaslik va taqiqni ifodalaydi. O‘zbek tiliga tarjimada *mumkin – mumkin emas* orqali ifodalanadi:

سوال کده میتانم؟ (og‘z.) *Sawâl kada mêtânom?* ‘Savol bersam bo‘ladimi?’ (‘Savol berish mumkinmi?’);

حالا از جای خود شور خورده نمیتوانیم! *Hâlâ az jâ-ye xod šôr xôrda namêtawânêm!* [RM] ‘Hozir o‘rnimizdan qo‘zg‘ala (siljiy) olmaymiz (qo‘zg‘alish mumkin emas)!’;

اینجه ملک مردم است، مه تجارت خانه واز کده نمیتانم *Inja molk-e mardom ast, ma tojâratxâna wâz kada namêtânom* [AA] ‘Bu yer o‘zga yurt, men savdo uyi ocha olmayman (menga ochish mumkin emas)’.

توانستن *tawânestan* fe’li modal yoki mustaqil fe’lmi? degan savolga javob berish uchun quyidagi ikki holat tahlilini keltirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, yuqorida bunday tip tuzilmalarda کردن *kardan* ‘qilmoq’ fe’lining infinitiv III shakli (ya’ni کرده *karda*) ellipsisga uchrashi qayd qilindi. Bu o‘rinda, L.N. Kiselevaning ko‘rsatishicha, modal tuzilmaning yetakchi qismi harakat nomi bilan almashinadi[1: 52]:

اینهمه سوداها را خریداری میتوانید؟ *Inhama sawdâhâ râ xaridâri mêtawânêd*? ‘Bu mollarning hammasini xarid qila olasizmi?’

B.Ya. Ostrovskiyning fikricha, agar yetakchi qism harakat nomi bilan almashinsa, bunday tuzilma modal hisoblanmaydi, natijada modal fe’l mustaqil fe’lga aylanadi[2:22-24].

Ikkinchidan, توانستن *tawânestan* fe’lining چی؟ *či* ‘nima?’, چیزی *čiz-ê* ‘nimadir’ kabi olmoshlar bilan qo‘llanishi bu fe’lni mustaqil fe’l sifatida izohlashga imkon beradi. Masalan:

زنان فقیر و بینوا در برابر حکم ملک چی میتوانستند؟ *Zanân-e faqir-o bênawâ dar barâbar-e hokm-e malek či mêtawânestand?* [XX] ‘Bechora baxti qaro ayollar oqsoqolning hukmi qarshisida nima qila olardilar?’;

تنها اصغر میگوید که چیزی میتواند *Tanhâ Asğar mêgôyad ke čiz-ê mêtawânad* [XN] ‘Faqat Asqar nimadir qila olishini aytmoqda’.

Shuningdek, توانستن *tawânestan* fe’li را *râ* ko‘makchisi orqali ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikishi mumkin:

دغلی را هر کس میتواند *Dağali râ har kas mêtawânad* [XN] ‘G‘irromlikni hamma biladi (har kim qila oladi)’;

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

آنکه کوک کردن ساعت را نداند، ادارۀ مملکت را چگونه تواند؟ *Ân ke kôk kardan-e sâ‘at râ nadânad, edâra-ye mamlakat râ čeguna tawânad?* [Phillott 1919: 252] ‘Soatni burashni bilmagan mamlakatni boshqarishni qanday eplasin?’

Yuqorida keltirilgan misollardagi infinitiv III shakli (ya’ni کرده *karda*)ning ellipsisga uchrashi natijasida qolgan qismni har doim ham harakat nomi deyish mumkin bo‘lmaydi:

کور شوی، دختر، گپ را در دلت نگاه نمیتوانی! *Kôr šawi, doxtar, gap-râ dar del-at negâh namêtawâni!* [RM] ‘Ko‘r bo‘lgur, qizgina, gapni ichingda saqlay olmaysan!’

Keltirilgan modal tuzilmaning yetakchi qismi vazifasidagi نگاه کردن *negâh kardan* ‘saqlamoq’, ‘qo‘riqlamoq’ fe’lida infinitiv III shakli – کرده *karda* ellipsisga uchragan, bunda نگاه *negâh* ‘nigoh’, ‘qarash’ so‘zi saqlash ma’nosidagi harakat nomi hisoblanmaydi (نگاه کردن *negâh kardan* ‘qaramoq’, ‘nazar solmoq’ ma’nosi tarkibiy qismlari ma’nosidan kelib chiqadi. Biroq ‘saqlamoq’, ‘asramoq’ ma’nosi tarkibiy qismlari ma’nosiga bog‘liq emas). Shuningdek, bunday tuzilmalarda infinitiv III o‘rnida nafaqat otlar (harakat nomi deb talqin qilish ham mumkin), sifat va sifatdoshlar ham ishlatilishi mumkin:

اشک هایم را پت نمیتوانستم *Aškhâ-yam râ pot namêtawânestam* [PP] ‘Ko‘z yoshlarimni yashira olmasdim’ (پت *pot* ‘yashirin’ – sifat);

آیا (آنها را) مطیع میتوانید؟ *Âyâ (ânhâ râ) moti‘ mêtawânêd?* [Bogdanov 1930:34] ‘Ularni bo‘ysundira olasizmi?’ (مطیع *moti‘* ‘mute’’, ‘itoatgo‘y’ – sifatdosh);

از روی آن، ممیزات مکتب نقاشی عصر غزنوی را معین میتوانیم *Az rô-ye ân, momayyezât-e maktab-e naqqâši-ye ‘asr-e ğaznawi râ mo‘ayyan mêtawânêm* [1:78] ‘Shunga ko‘ra G‘aznaviylar davri naqqoshlik maktabining farqli xususiyatlarini oydinlashtira olamiz’ (معین *mo‘ayyan* ‘aniq’, ‘oydin’ – sifatdosh).

Yuqorida توانستن *tawânestan* fe’lining ba’zi olmoshlar va را *râ* ko‘makchisi orqali ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikishiga keltirilgan misollarda infinitiv III – کرده *karda* qo‘llanishi ham mumkin. Qiyoslang:

جان تنهای من چه کرده میتواند، خدایا؟ *Jân-e tanhâ-ye man či karda mêtawânad, xodâyâ?* [RM] ‘Ey xudo, yolg‘iz jonim nima (ham) qila oladi?’;

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

چرا این خواهش را کرده نتوانستی؟ *Čerâ in xâheš râ karda natawânesti?* ‘Nega bu iltimosni qila olmading?’

Demak, tahlil qilingan holatlarni کرده *karda* shaklining ellipsisga uchrashi natijasi deb izohlash mumkin. Boshqa fe’llardan farqli, کردن *kardan* ‘qilmoq’ fe’lining infinitiv III shakli (ya’ni کرده *karda*) bu tip modal tuzilmalar tarkibida ixtiyoriy ravishda (fakultativ) qo‘llanadi[2: 110].

B.Ya. Ostrovskiyning fikricha, توانستن *tawânestan* fe’lining mustaqil fe’l sifatida ishlatilish ehtimoli asosga ega emas. Biroq u توانستن *tawânestan* fe’li o‘timli fe’l vazifasida mustaqil fe’l bo‘lishi mumkinligini ham inkor etmaydi[2: 110].

Bu tip modal tuzilmalar *sifatdosh + ko‘makchi fe’l* qolipidagi fe’lning analitik shaklini eslatadi: خوانده توانستم *xândá tawânestam* ‘o‘qiy oldim’ (1) va خوانده بودم *xândá budam* ‘o‘qigan edim’ (2). Shunga ko‘ra, خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* tipidagi tuzilmalarni ham *infinitiv III + modal fe’l* emas, *sifatdosh + ko‘makchi fe’l* hisoblash mumkinmi? degan savol tug‘iladi. (2) holat – o‘zbek tilida *-gan + edi* yordamida yasaluvchi o‘tgan zamon fe’l formasi; bu formaning ma’no va vazifalari dariy tilidagi uzoq o‘tgan zamon fe’liga to‘g‘ri keladi va tarjimada saqlanadi: a) harakat-holatning hozirga emas, o‘tgan vaqtga oidligi; b) *edi* to‘liqsiz fe’lining “hozir emas, avval, ilgari” degan ma’noga egaligi nutq so‘zlanayotgan vaqtda *-gan + edi* yordamida yasalgan formadagi fe’l bildirgan harakat-holatdan boshqacha yoki mazmun jihatdan unga aloqador bo‘lgan biror harakat-hodisa yuz berganligi; v) payt ma’nolarini ifodalaydi. (1) holat yuzasidan *ol* ko‘makchi fe’lining modal ma’nosi yuqorida aytildi.

Materiallar tahlili خوانده میتوانم *xânda mêtawânam* tipidagi tuzilmalarda توانستن *tawânestan* fe’li ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llana olmasligini ko‘rsatdi. Xususan, توانستن *tawânestan* fe’li bo‘lishli shaklda mantiqiy urg‘u oladi, yakka holda qo‘llanib, to‘liqsiz modal tuzilmani hosil qilishi mumkin:

خطشه خوانده تانستی؟ – نتانستم (og‘z.) *Xat-eš-a xânda tânesti? – Natânestom* ‘Uning yozuvini o‘qiy oldingmi? – (O‘qiy) olmadim’.

Ko‘makchi fe’l esa bunday vazifada ishlatilmaydi:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

وطن رفته بودی؟ – نرفته بودم (og‘z.) *Watan rafta budi? – Narafta budom* ‘Yurtingga borganmiding? – Bormagandim’. (*Watan rafta budi? – Nabudom.* – misol grammatik jihatdan noto‘g‘ri tuzilgan)

Demak, توانستن *tawânestan* – modal fe’l, uning ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llanishi mumkin emas. Biroq ayni vaziyatda o‘zbek tilida *ol* ko‘makchi fe’li modal ma’noni ifodalovchi ko‘makchi fe’l sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Дорофеева Л.Н. Язык фарси-кабули. − М., 1960.
2. Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари. − М.: Ключ-С, 2008.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. − Тошкент: Фан, 1966.
4. Azimdjanova, D., Alimova, Kh., Akhmedova, D., & Nuriddinov, N. (2022). On some issues of verbal synonymy in the Persian language. *Theoretical & Applied Science*, 03, (107). (pp. 852-858).
5. АЛИМОВА, Х. З. (2020). SUBSTANTIVIZATION OF PARTICIPLES IN THE DARI LANGUAGE. *Иностранные языки в Узбекистане*, (5), 1-10.
6. Alimova, X. Z. (2021). DARIY TILIDA FE’L NEGIZLARINING OTLASHUVI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 2), 35-47.
7. Alimova K. Z. Adjective Forming by Affixation in the Dari Language.
8. Akhmedova, D., Alimova, K., Azimdjanova, D., Nuriddinov, N., & Xasanova, N. (2022). THE STYLISTIC FEATURES OF NOUNS AND ADJECTIVES IN IRANIAN NEWSPAPER TEXTS. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 95-102).
9. Abdupattaxov, J. (2021, May). PILGRIMAGE TOURISM: PROMISING DIRECTIONS, PROBLEMS AND SOLUTIONS. In *Конференции*

**Illyustrativ material mualliflari**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| AA | – | عزیزآلله علیزاده | *‘Azizollâh ‘Alizâda* | Azizullo Alizoda |
| AN | – | عزیزآلله نهفته | *‘Azizollâh Nohofta* | Azizullo No‘ho‘fta |
| AO | – | اکرم عثمان | *Akram ‘Osmân* | Akram Usmon |
| JN | – | جلال نورانی | *Jalâl Nurâni* | Jalol Nuroniy |
| KM | – | کریم میثاق | *Karim Misâq* | Karim Misoq |
| PP | – | پروین پژواک | *Parwin Pažwâk* | Parvin Pajvok |
| RM | – | رزاق مأمون | *Razzâq Ma’mun* | Razzoq Ma’mun |
| SZ | – | سپوژمی زریاب | *Sopožmay Zaryâb* | Spujmay Zaryob |
| XN | – | خالد نویسا | *Xâled Nawisâ* | Xolid Naviso |
| XX | – | خلیلالله خلیلی | *Xalilollâh Xalili* | Xalilullo Xaliliy |

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# XITOY TILIDAGI BADIIY ASARLARDA O‘ZIGA XOS MUALLIF USLUBI
## (Lyao Jayning g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalari” misolida)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-108-116

Filol.f.d. **Jasur ZIYAMUXAMEDOV**
TDSHU professori,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998909020858;
E-mail: jas76@mail.ru

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada xitoy tilidagi badiiy asarlarda muallif uslubining tahlili masalasi xitoylik mashhur yozuvchi Pu Sunglingning “Lyao Jayning g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalari” asari misolida ko‘rib chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Lyao Jay, “G‘aroyib muarrih”, uslub, so‘nggi Ming va ilk Ching sulolalari.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается вопрос анализа авторского стиля в художественных произведениях на китайском языке на примере произведения известного китайского писателя Пу Сунлина «Рассказы Ляо Чжая о Необычайном».*

**Ключевые слова:** *Ляо Чжай, странный историк, стиль, поздние династии Минь и ранние династии Цин.*

**Abstract.** *This article deals with the analysis of the author's style in works of art in Chinese on the example of the work of the famous Chinese writer Pu Songling " Strange Tales from a Chinese Studio ".*

**Keywords:** *Liao Zhai, strange historian, style, late Ming and early Qing dynasties.*

Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o‘zlashtirishida orttirgan tajribasi, olamni o‘ziga xos ko‘rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo‘li bo‘ladi. Yozuvchi mahorati, tasvirlash san’ati, roviylik darajasi haqida gap ketganda ham, asosan, shu belgilar badiiylik mezoni sifatida qaraladi[18]. Mazkur maqolamizda biz badiiy asarda muallif uslubining tahlili masalasini xitoylik mashhur yozuvchi Pu Sunglingning “Lyao Jayning g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalari” asari misolida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

[18]Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. (Ҳамидулла Болтабоев талқинларида. Биринчи китоб.) –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.323.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Pu Sungling asarlarini adabiyotshunoslar ko‘p tahlil va talqin qildilar. Buning sabablaridan biri Lyao Jay taxallusli adibning poetik mahorati va badiiy uslubining o‘ziga xosligi hamdir. Adib o‘z asarlarida xilma-xil taxalluslarni qo‘llagan bo‘lsa ham, uning barcha asarlarini uslubiy butunlik birlashtirib turadi. Pu Sungling “*Lyao Jay*” (“聊斋 Liáozhāi”), “*G‘aroyib muarrih*” (“异史氏 Yì shǐ shì”), “*Janob Lyao Jay*” (“聊斋先生 Liáozhāi xiānshēng”), “*O‘lmas (abadiy) so‘z*” (“字留仙 Zì liú xiān”), “*Bahoriy kulba*” (“泉居士 Liǔ quán jūshì”), “*Qilich so‘z*” (“一 字剑臣 Yī zì jiàn chén”) kabi taxalluslaridan foydalangan.

Yozuvchi “G‘aroyib muarrih” adabiy taxallusi bilan ko‘plab hikoyalariga xotimalar bitadi. Olimlar ushbu epitetni adibning “Miloddan avvalgi II asrda yashagan buyuk muarrix Sima Chyan” nomidan o‘zlashtirilganini va ikki unvon o‘rtasidagi bog‘liqlikni nafaqat ular orasidagi o‘xshash ta’riflarda, balki ularning parallel qo‘llanishida ham uzatilishini ta’kidlaydi: Sima Chyan o‘zining tarixiy rivoyatlarini sharhlar ekan “Buyuk muarrix” taxallusini qo‘llagan; Pu Sungling esa o‘z hikoyalariga bergan izohlovchi va baholovchi sharhlarda o‘zini “G‘aroyib muarrix” deb atagan.

“G‘aroyib muarrix” va “Buyuk muarrix” taxalluslari orasidagi ataylab qilingan o‘xshashlik o‘quvchilarda doim qiziqish uyg‘otgan, chunki Pu Sungling sharhlarining asosiy ob’ektlari davlat ishlari yoki taniqli siyosat arboblari emas, balki arvohlar, tulki ruhlari va g‘ayritabiiy inson kechinmalari – u “g‘ayrioddiy” deb hisoblagan narsalar” bo‘lgan. Bu esa Pu Sungling individual uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan. Shunday qilib, uning “muarrix” unvonini olishi, birinchi navbatda, ritorik edi: bu nom tarixiy asarlar bilan an’anaviy ravishda bog‘liq bo‘lgan mukammallik tuyg‘usini ifodalaydi va u tadqiq etgan sohada uning obro‘-e’tiborini yana bir bor tasdiqlaydi.

Pu Sunglingning “Lyao Jayning g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalari” asarida muallif uslubining yuqoridagi antologiyalarga kiritilgan hikoya va latifalardan badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Antalogiyalarda tarix g‘oyasi markaziy mavzu atrofida uyushgan o‘tmish va hozirgi zamonni tavsiflovchi qomusiy to‘plamga yaqin turadi. Bunday misollar tarixning konsepsiya yoki kategoriya sifatida qay yo‘sinda erkin va elastik bo‘lib qolganini ko‘rsatadi. Bu Lyao Jay muhim rol o‘ynagan so‘nggi Ming va

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ilk Ching davrlari badiiy adabiyoti tajribalariga ko‘mak bera oluvchi erkinlikka olib kelgan. Shu o‘rinda H.Boltaboevning “...davr uslubi istilohi, badiiy asar uslubi va adib uslubini, ularning qatida yotgan betakror o‘ziga xoslik ma’nolarini inkor qilishi, shu bilan birga adabiyotshunoslikda bu istiloh ma’no jihatidan kengaytirilib, keyingi yillar adabiyotiga nisbatan (tadqiq etilayotgan davrdan kelib chiqib) zamonaviy uslub shaklida ham qo‘llanilagani ma’qul” degan fikrlari o‘z tasdig‘ini topadi[19].

Shunday qilib, “Lyao Jayning g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalari” asarini tarixiy nuqtai nazardan yaxlit bir uslubga ega adabiy manba sifatida ko‘rib chiqish mumkin. O‘ttiz yil davomida yozilgan mazkur asar o‘z hajmi va ko‘lami bo‘yicha ensiklopedik xarakterli. Pu Sunglingning g‘aroyib qarashlari mavzusi to‘plamning tasodifiy asarlar to‘plami bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aslida esa g‘ayrioddiylikni – Pu Sungling o‘z o‘quvchilari uchun adabiyotiga kirishni osonlashtiradigan taqdim va takliflar kaliti, deyish mumkin. Bunga muvofiq ravishda, ushbu konsepsiya Pu Sungling asarlarini talqin qilishning markazi hisoblanadi.

G‘ayrioddiy narsalarga e’tibor qaratish ham zarur, chunki Lyao Jaydan avvalgi tanqidchilarning aksariyati xitoy mutolaa an’analarida qiziqarli va chuqur ildiz otgan impuls hisoblangan inkorni qo‘llagan holda uning ahamiyatini pisand qilmagan va hatto inkor etgan. XX asrning 50-yillaridan boshlab Xitoy Xalq Respublikasida hukmronlik qilgan muhitda g‘ayrioddiy adabiyot adabiy-siyosiy jihatdan qarshiliklarga uchradi.

Lyao Jay ijodiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda g‘ayrioddiylik muammosi yozuvchilarda ham, o‘quvchilarda ham azaldan qiziqish uyg‘otib kelgan, ayni paytda, g‘ayritabiiy voqealarni yozish istagi xitoy fantastikasi rivojida muhim rol o‘ynagan. Darhaqiqat, g‘aroyibotlar haqidagi yozuvlar Xitoy tarixida nafaqat yozuvchilar g‘ayrioddiy narsalarni djiguay madaniy kategoriyasi sifatida bayon qila boshlagan Olti buyuk sulola hukmronligi davrida, balki mualliflar uzundan-uzoq va mohirona hikoya qilgan chuanchi (g‘aroyibotlar haqidagi hikoyalar)da ham ko‘p sonda yaratilgan. Ilgarigi djiguay va chuanchi to‘plamlari, ayniqsa, Pu Sungling davrida qayta tahrir qilingan va qayta nashr etilgan,

[19] Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. (Ҳамидулла Болтабоев талқинларида. Биринчи китоб.) “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. – Тошкент: 2008. – Б.324.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yangi “g‘ayrioddiy voqealar” to‘plamlari jamlangan va chop etilgan. Bu davrda g‘ayritabiiy narsalarga qiziqish shu qadar keng tarqalganki, u Ming va Ching sulolalarini o‘rganish bilan bog‘liq ko‘plab sohalar tadqiqida, jumladan, tarixshunoslik, astronomiya va tibbiyotda ham kuzatiladi.

Pu Sungling hikoyalaridagi g‘ayrioddiy narsa yaratilishiga asoslangan ushbu individual uslubni tadqiq etish asosida yotgan reallik va illyuziya orasidagi chegaralarning ataylab buzilishini yoritishga yordam beradi. “Olim Chu” (褚生)[20] hikoyasida Chenning kambag‘al sinfdoshi olim Chu bilan do‘stligi hikoya qilinadi. Chen boy savdogar oilasidan, ammo otasi o‘g‘lining do‘stining o‘qishiga yordam berish uchun pul o‘g‘irlaganini bilib qolgandan keyin uni maktabni tark etishga majbur qiladi. Chen, nihoyat, otasining o‘limidan keyin o‘qishga qaytishga muvaffaq bo‘ladi, Chu o‘qituvchi bo‘ladi. Chenga o‘z minnatdorchiligini bildirish uchun Chu Chenning o‘rniga davlat xizmati imtihonlarini ixtiyoriy ravishda topshiradi. Imtihon oldidan u Chenni amakivachchasi Lyu deb tanishtirgan odam bilan bir kunni birga o‘tkazishini so‘raydi. Chen Lyuga ergashmoqchi bo‘lganida, to‘satdan Chu uni orqasidan tortayotganini sezadi va qoqilib yiqilay deydi, lekin Lyu uning qo‘lidan ushlab qoladi.

Chen “O‘rta kuz” bayrami yaqinlashayotganini sezib, bir muddat Lyuning uyida yashaydi. Lyu uni qirol bog‘iga bayram sayliga taklif qiladi. Bog‘da ularni bezatilgan barja kutmoqda edi. Kema sahniga chiqqach, Lyu bu yerga yaqinda ko‘ngilxushlik qilgani kelgan yengiltak ayolga xabar yuboradi. Ayoldan bir ziyofatda qo‘shiq aytib berishini so‘raganda, ayol g‘amgin, qadimiy dafn marosimi qo‘shig‘ini kuylaydi. Chen bundan norozi bo‘lib undan so‘raydi: “Sen hayotingning boshida o‘lim qo‘shig‘ini kuylayotganingda nimani nazarda tutgansan?” Ayol uzr so‘raydi va o‘zini yanada quvnoqroq ko‘rsatishga harakat qiladi. Biroz tinchlangach, Chen undan o‘zi yozgan hissiyotlarga boy lirik qo‘shiq kuylab berishini so‘raydi. Ayol rozi bo‘ladi. Shundan keyin ular qayiqqa o‘tirib, bog‘ yaqinida qayiqdan tushadilar. So‘ngra Chen uzun usti yopiq yo‘lak bo‘ylab yuradi, yo‘lak devorlari bu yerga kelgan boshqa ziyoratchi, mehmonlarning she’rlari bilan qoplangan edi. Ushbu kunni nishonlash uchun u mo‘yqalamni qo‘liga olib, devorga ayolning yoqimli so‘zlarini yozadi.

[20]孙通海。聊斋志异故事集。–北京：学苑出版社， 2001，737 页。

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Qorong‘i tushgan edi. Chen do‘stining imtihondan qaytishini kutish uchun Lyuning ko‘rsatmasiga binoan uyga ketadi.

Chen qorong‘i xonada hech kim yo‘qligini payqaydi. Biroz vaqt o‘tgach, Chu eshikdan ichkariga kiradi, lekin ichkarisini diqqat bilan ko‘zdan kechirgach, u yerdagi odamning Chu emasligini sezadi. Chen xizmatkorlarning: “Bizning yosh xo‘jayinimiz charchagan bo‘lsa kerak!” deb baqirganlarini eshitadi. Uni oyoqqa turg‘izishganda, to‘satdan hushidan ketgan odam boshqa birov emas, aslida uning o‘zi ekanligini anglaydi. Tushida bo‘lgani kabi Chen yonginasida turgan olim Chuni ko‘radi. Xizmatkorlarga bu yerdan uzoqlashishlarini buyurib, u do‘stidan vaziyatga izoh berishini so‘radi. “Men senga bir narsa aytaman, lekin sen qo‘rqma, – deydi Chu. – Bilasanmi, men aslida arvohman”.

Ertasi ertalab Chen yengiltak ayol bilan ko‘rishmoqchi bo‘ladi, ammo bir necha kun oldin uning vafot etganini eshitadi. Hikoyada aytilishicha, u yana qirollik bog‘idagi usti yopiq yo‘lakchaga keladi va chiziqlar hali ham o‘zgarmanligini ko‘radi, ammo siyoh ancha xiralashgan va deyarli o‘qib bo‘lmas ahvolga kelgan, go‘yo bu so‘zlar hozir butunlay o‘chib ketadiganday edi. Faqat o‘sha lahzada u satrlar muallifi aslida gavdasiz ruh, satrlar muallifi esa arvoh ekanligini anglab yetadi.”[21]

Hikoya syujetidagi ushbu yakuniy e’tirof, shubhasiz, Chenning o‘z tajribasi haqida jiddiy tafakkur qilishi natijasidir, ammo bu bizni voqeani boshqacha talqinda qayta o‘qishga majbur qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Chu tarix mobaynida arvoh bo‘lib kelgan, Chenning xabari bo‘lmasdan u o‘zining g‘ayrioddiy o‘tmish yaxshiliklari uchun sehrli ravishda o‘z do‘sti bilan shaxsini almashtirgan, Lyu va Chenning ko‘nglini xushlagan xushmuomala qiz ham arvoh bo‘lgan, janob Chen Kuzgi bayram vaqtida uning tanasiz ruhi bo‘lgan. Chen singari o‘quvchilar hikoyaning borishini chalg‘ituvchi, adashtiruvchi narsalar tufayli yo‘ldan ozadilar: chalkash vaqt ko‘rsatkichlari, jumlalarda aniq narsalarning tez-tez tashlab yuborilishi va makon bilan bog‘liq tafovutlar mavjud. Hatto Chen o‘z-o‘zi bilan yuzma-yuz kelib, do‘stining arvoh ekanligini bilsa ham, unga nima bo‘lganini tushuna olmaydi. U hayratga tushib, ishonmasdan tashqaridan buning tasdig‘ini izlaydi. Biroq bu tasdiq Chenning o‘zidan keladi. Uning izlanishlari kutilmaganda o‘z hayotida g‘ayrioddiy narsalarga guvoh

[21]孙通海。聊斋志异故事集。–北京：学苑出版社， 2001， 737–740 页。

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bo‘lgach nihoyasiga yetadi. Uning o‘z qo‘li bilan devorga yozgan xati nafaqat hayot va o‘lim o‘rtasidagi, balki o‘zi va boshqalar orasidagi chegaralarni kesib o‘tishini aniq aks ettiradi. Shunisi e’tiborga loyiqki, bu oddiy bino yoki xonaning devori emas, go‘yo ikki joyni bir-biriga bog‘lab turadigan, ammo hech qaerga olib bormaydigan yo‘lak edi. Ko‘lda suzib yurgani chizilgan barja singari devor uning kechinmalarini aks ettirib turadi. Devordagi siyohning izlari g‘ayritabiiy tarzda uni yozgan yozuvchi maqomini oldi – tanasi yo‘q, qo‘lga tushmas, erib tarqalib ketish jarayonida. Bu, haqiqatan, uning o‘zi va qiyofadoshi tomonidan yozilgan bir xayolparast maktubi bo‘lib, uning arvohlarga xos izlari, mavjudlik va yo‘qlik o‘rtasidagi muvaqqat to‘xtatib turilgan izlar edi.

Garchi hikoya Chenning ichki kechinmalarini uning sub’ektiv tuyg‘ulari bilan chambarchas bog‘lab turgan bo‘lsa ham, o‘quvchidan bu uning tasavvuri mevasi ekanligi haqida so‘ralmaydi. Bu yerda gap shu haqda boradiki, Chenning qarashlaridagi sub’ektivlik undagi tajribaning g‘aroyibligini inkor etmaydi, aksincha, bir vosita hisoblanadi. Ayni vosita yordamida u muayyan shakl qozonadi, ammo bu shakl mohiyatan beqaror va transformatsiya jarayonida bo‘ladi.

Adibning hikoyalarini so‘nggi Ming va ilk Ching sulolalari davri adabiy madaniyati kontekstida joylashtirish kerak. Bundan maqsad ham hikoyalarning to‘la mazmunini tiklash, ham buni keltirib chiqargan madaniyatni yaxshiroq anglashdir. Qolaversa, Lyao Jayning alohida diskursni shakllantiruvchi va ushbu yirik asarni tushunishni taqozo etuvchi an’anaviy tanqidni qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Lyao Jay matnlarining talqinini ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qismida Lyao Jayning XVII asrdan XIX asrga qadar qilingan talqinlar tarixi bo‘lsa, keyingi qismda Pu Sungling o‘zini qanday tavsiflagani va Lyao Jayga kirish so‘zidagi g‘aroyiblikka bo‘lgan munosabati o‘rganiladi. Keyin esa metodologik jihatdan tadqiqot muallifi bevosita ertaklarga murojaat qiladi. Lyao Jayning alomatlariga aylangan arvohlar va tulkilarning ruhlariga diqqat qaratish o‘rniga, XVI – XVII asrlarda katta qiziqish uyg‘otadigan uch muhim mavzuga e’tibor berish lozim bo‘ladi.

XVI asr adabiy jarayonida odatda na ommabop, na ilmiy tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular muhokama etiladi. Ushbu uchta mavzudan har biri inson tajribasining asosiy chegaralarini kesib o‘tish bilan bog‘liq, -

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bu bahstalab mavzu (sub'ekt / ob'ekt), jins dislokatsiyasi (erkak / ayol) va (illyuziya / haqiqat). Ayni mavzularga diqqat-e'tiborni jamlagan holda, g'ayritabiiy muammoni chetlab o'tib, Pu Sunglingning g'ayrioddiy narsalarini adabiy kategoriya sifatida qayta tiklashini tadqiq etish mumkin.

G'ayrioddiy alati va kesishgan chegaralarni ixtiro qilish orasidagi o'zaro bog'liqlik Lyao Jayning "Rasm solingan devor" ("画壁")[22] hikoyasida bo'lib, u olim Chuning hikoyasini aks ettiradi. Safarining oxirida qahramon devor o'zgarganligini sezadi – bo'yalgan devorda tasvirlangan go'zal qiz soch turmagini yosh qiznikidan turmush qurgan ayolnikiga o'zgartirgan edi. Ammo bu safar qahramon o'zgarishlarni shunchaki qayd etuvchisigina emas, balki uning sababchisi ham bo'ladi: ya'ni devorga singib, qizga uylanadi. Qahramon odatiy hayotga qaytgach, bu dunyo bilan u dunyoni ajratib turadigan chegara ham o'zgarishsiz qolmaydi. Yozuvchi mazkur hikoyada syujetlar ketma-ketligini o'ziga xos tarzda joylashtiradi. Adib asar nomiga mos g'aroyibotlarga o'quvchini ham ishontirishda tasvir, tafsil va badiiy talqinning badiiy qudratini ko'rsatadi.

Yozuvchi 1715 yilda vafot etgandan so'ng uning asariga qo'shimcha so'z boshi va sharhlar yoziladi, chunki to'plam ellik yil davomida qo'lyozma shaklida saqlangan edi. Asarning birinchi nashri 1766 yilda bosiladi. To'plamga so'zboshi yozilganligi ajablanarli emas, chunki XIX asrning birinchi yarmida yozilgan to'laqonli uzundan-uzoq sharhlar asarni tushunishda, o'rganishda muhim. Asarni o'rganishning uch asosiy yo'nalishini belgilab olish lozim:1) g'ayrioddiy narsalarni e'tirof etish; 2) asarni o'z-o'zini ifoda etishning majoziy vositasi sifatida tushunish; 3) vaziyatni tahlil qilishda sub'ektivlikni tan olish.

Lyao Jay haqidagi ilk diskurs, birinchi navbatda, anomaliyalarni yozib olish an'analarini himoya qiladi: Lyao Jayning o'zi chiguay janrining eng a'lo, ammo tipik namunasi sifatida tavsiflanadi. Shu maqsadda g'ayrioddiy tushunchasini oldindan aniqlash va asosiy adabiyot chegaralarini kengaytirishga harakat qilinadi. Ammo keyingi yozuvchilar guruhi, ayniqsa, Pu Sungling vafot etganidan keyin ellik yil ichida qo'lyozmani nashr etmoqchi bo'lganlar, umuman boshqacha yondashuvni taklif qilishgan. Lyao Jayning bunga o'xshash yangi himoyachilari, ushbu

[22]孙通海。聊斋志异故事集。–北京：学苑出版社， 2001，10 页。

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

kitobning aslida g‘aroyibotlar haqida emasligini ta’kidlagan holda undan uzoqlashish yoki hatto uni anomallik an’analaridan butunlay istisno qilishga intilganlar.

Aslida, ijodkor-san’atkorning uslubi betakror bo‘lsa, asarda berilgan voqea-hodisaning rost yoki yolg‘onligi, hayotda yuz bergan yoki bermagani ahamiyatini yo‘qotadi, chunki individual uslub jozibasi, so‘z san’atining tabiati g‘aroyibotlarni haqiqatga aylantiradi. A.Rasulov aynan ijodkor uslubi va iste’dodiga diqqat qaratib yozadi: “Uslub – ijodkor siyratining aks etishi. Siyrat – o‘zlik, individuallik, hech kimnikiga o‘xshamaydigan asos. Iste’dod – individuallikning tiniq ko‘rinishi, shaxs betakrorligining yorqin ifodasi”[23]. Pu Sunling ijodining o‘ziga xosligi individual uslubi, iste’dodi va o‘zlik siyratiga borib taqaladi.

Bir asrdan ko‘proq vaqt o‘tgach, Shandun viloyatidan tashqarida kitobxonlar doirasining kengayishi bilan hikoyalardagi ko‘plab voqea-hodisa va personajlarning tarixiy tabiati badiiylik kasb etishi muqarrar; bunga mos ravishda hikoyalardan olingan xayoliy taassurotlar ham kuchayishi mumkin. Darhaqiqat, XIX asr tadqiqotchilarining asosiy vazifasi qaysi personaj hamda voqea-hodisalarning tarixiy asosga ega ekanligini ko‘rsatish va oddiy o‘quvchiga personaj hamda voqea-hodisalar haqidagi zaruriy faktlarni taqdim etishdan iborat edi. Zamonaviy o‘quvchini Pu Sungling dunyosidan ajratib turuvchi masofa sezilarli darajada oshgani sayin Lyao Jay bilan sodir bo‘lgan g‘aroyibotlar haqiqati ham kuchayib boradi.

Xulosa qilib aytganda, Pu Sunglingning to‘qima tafsilotlar va dialoglarni mohirona qo‘llashi Lyao Jayning mashhurligining asosini tashkil etadi. Hikoyalarning hammasi ham haqqoniy bo‘lishi shart emas, lekin o‘quvchini voqelik haqqoniyatiga ishontira olishi kerak. Sungling asarlari Xitoy adabiyotining mumtoz namunasi, ularda g‘ayrioddiy, g‘aroyib, metamorfoz hodisalar tasvirlangan. Yozuvchi o‘z zamondoshlaridan yuksak iste’dodi va individual uslubi bilan ajralib turgan. O‘rta asrlarda yashab ijod etgan, o‘zidan Lyao Jay bilan bog‘liq turkum hikoyalarni meros qoldirgan Pu Sungling jahon adabiyotining mumtoz namoyandalari qatoridan o‘rin olishi shubhasizdir.

[23] Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.186.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 孙通海。聊斋志异故事集。–北京：学苑出版社， 2001 年。
2. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. (Ҳамидулла Болтабоев талқинларида. Биринчи китоб.) –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008.
3. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006.
4. Исматуллаева, Н. (2022). ХИТОЙ ЛИНГВОМАДАНИЯТИДА “ОИЛА” КОНЦЕПТИ БИЛАН БОҒЛИҚ СТЕРЕОТИП ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Sharq ma'shali/Восточный факел*, *14*(1), 82-86.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# FORS TILI PUBLITSISTIK USLUBIDA OT VA SIFAT SO‘Z TURKUMLARINING USLUBIY - FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-117-124

Filol.f.d. **Dilfuza AHMEDOVA**
TDSHU dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +99890 357 60 30;
dilakhmedova@mail.ru

**Annotatsiya.** *Maqola fors tili gazeta matnlari tahlili asosida ularda qo‘llangan ot va sifat ssho‘ turkumlarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tahlil davomida avvalo gazeta matnlarida qo‘llangan otva sifat so‘z turkamlarining grammatik kategoriyalari tadqiq etilib, eng faol va nofaol grammtik kategoriyalar aniqlangan, ularning faollik sabablari ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *stilistika, funksional uslub, publitsistik uslub, gazeta matnlari, so‘z turkumlari stilistikasi, tarjima*

**Аннотация.** *Язык - одно из сложнейших явлений человеческого общества. Определенные языковые средства и стили, которые мы постоянно используем в общении, образуют систему. В связи с непрерывным развитием языка, изменение целей и задач различных функциональных стилей, стилистическое невообразимое разделение речи как инвариантной догмы.*

**Ключевые слова:** *стилистика, газетно-публицистический стиль, части речи, текст, тематическая группа, информативность, превод*

**Abstract.** *Currently, one of the actively developing directions in linguistics is language learning in a functional-stylistic aspect. Special attention is paid to the study of the use of language units in different functional styles.*

**Key words:** *stylistics, newspaper style, qualitative adjectives, relative adjectives, translation*

Publitsistik uslub siyosat va ba’zi ijtimoiy sohalarda qo‘llanuvchi uslub bo‘lib, ikki asosiy vazifa, ya’ni informativ va ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini bajaradi[24]. Fors tilida publitsistik uslubni rasmiy, ilmiy, badiiy va og‘zaki uslub elementlarini o‘z ichiga qamrab olishidan kelib chiqib, uni funksional uslublar sistemasida eng ochiq uslublar qatoriga kiritish mumkin. Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o‘rin egallaydi.

[24] Gorshkov A.I. Russkaya stilistika. Stilistika teksta i funksionalnaya stilistika: uchebnik dlya pedagogicheskix universitetov i gumanitarnix vuzov. – M.: Astrel, 2006. – S.265.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Zero, gazeta va publitsistika bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Gazetadagi har bir publitsistik maqola o‘ziga xos ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqishi yoki jamiyatdagi turli yangiliklarni badiiy ifoda etishi mumkin[25]. Hozirgi kunda Eronda gazeta tiliga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini bu sohada amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda ko‘rish mumkin[26]. Izlanishlarni o‘rganish jarayonida ularda qisqalik, terminlarni kamroq qo‘llash, to‘g‘ri bayon uslubini tanlash hamda hozirgi kunda fors tilining sofligini saqlab qolishga intilish kuzatiladi. Shu bilan birga, olimlar gazetaning yoshlar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishiga to‘xtalib o‘tadilar. Tahlillar natijasida eron gazetalarida aniq axborot yetkazish, til sofligi, tarbiyaviy vazifalar asosiy o‘rinni egallashi aniqlandi.

Gazeta janrlari informatsion, analitik va badiiy-publitsistik janrlarga bo‘linadi[27]. Eron tilshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda gazeta janrlari tasnifi mavjud emasligi ayon bo‘ladi. Unda faqat gazeta matnlarining turlari ajratiladi. Masalan, Ahmad Giloni Eron gazeta matnlari turlari sifatida سرمقاله «*bosh maqola*», خبر «*xabar*», گزارش خبری یا رپارتاژ «*reportaj*», مصاحبه «*intervyu*», بخشهای فرعی «*qo‘shimcha bo‘limlar*» (*sog‘liqni saqlash, ekologiya, oila, fan, kitob, ko‘rgazma, film va h.k. mavzusiga bag‘ishlangan maqola*)larni keltiradi[28]. Hasan Zulfiqoriy Eron matbuoti 4 qolip – خبر *xabar*, گزارش *reportaj*, مصاحبه *intervyu* va مقاله *maqoladan* tashkil topganini ta’kidlaydi[29].

Gazeta matnlarida o‘zining asosiy ma’nolari bilan bir qatorda ifodalagan qo‘shimcha ma’nolaridagi turli tumanlik ot va sifat so‘z turkumlarining funksional chegaralanishga olib keladi. Eron gazeta matnlari doirasida otlarning konnotativ ma’noda qo‘llanish holatlari kuzatiladi va bu holat turli kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Masalan «جبهه» *front*ning asl ma’nosi «*jang maydoni*» bo‘lib, *bir vaqtning o‘zida bir*

[25]Qo‘ngurov R., Karimov S., Qurbonov T. Nutq madanyati asoslari. II qism. – Samarqand, 1986. – B.20.

[26]دانوتا ریح به کوشش فریده حق‌بین .زبان روزنامه. تهران، ۱۳۸۸.طیبه منصوری شاد. ویژگی های زبان مطلوب مطبوعات.- روابط عمومی. – شماره ۸۳. – تیر ۱۳۹۱. ص. ۱۲-۱۹.دکتر حسن ذوالفقاری.آسیب‌شناسي زبان مطبوعات -رسانه. – شماره ٤. ۱۹۸۰. - ص. ۹-٤۲.دکتر حسن ذوالفقاری. الگوهای غیرمعیار در زبان مطبوعات. تهران، ۱۳۸۵. دکتر حسن ذوالفقاری. الگوهای غیرمعیار در زبان مطبوعات. تهران، ۱۳۸۵.

[27] Gorshkov A.I. Russkaya stilistika. Stilistika teksta i funksionalnaya stilistika: uchebnik dlya pedagogicheskix universitetov i gumanitarnix vuzov. – M.: Astrel, 2006. – S.265.

[28]احمد سمیعی (گیلانی). زبان صدا و سیما و انحرافات آن -.زبان و رسانه. - ۱۳۸۸. – ص. ۱۱۷-۱۳۲.

[29]دکتر حسن ذوالفقاری. الگوهای غیرمعیار در زبان مطبوعات. تهران، ۱۳۸۵. ص. ۲۹.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*necha faoliyat olib borilayotgan xudud, ma'lum maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy kuchlar ittifoqi* kabi ma'nolarga ham ega. Mazkur leksik birlik gazeta matnlarida harbiy ma'no bilan bir qatorda, siyosiy ma'noda ham qo'llanadi. So'zning qaysi ma'noda qo'llanishini kontekst orqali aniqlash mumkin.

طب یکی از جبهه ها، که مهمات دائما فاقد آن هستند، و سربازان به مرگ می ایستند و این تهاجم را محدود می کنند[30]

*Meditsina – doimo qurol-aslaha yetishmovchiligi mavjud bo'lgan, askarlar esa o'lim bilan kurashib, xujumni qaytarib turadigan frontlardan biridir.* Misolda جبهه *front* so'zi o'zining asl ma'nosida qo'llangan bo'lsa-da, unda vrachlar askarlar, dori-darmon esa qurol-aslaha bilan ifodalangan holda ko'chma ma'nosi anglashiladi.

Gazeta matnlarida جبهه so'zi semantikasining kengayishi kontekstual to'ldirish natijasi sifatida namoyon bo'ladi: siyosat va tijorat sohasidagi o'zaro munosabat implitsit ravishda harbiy harakatlar bilan bog'liq dushmanona munosabat sifatida negativ baholanadi. Xuddi shunday implitsit salbiy ekspressiyaارتش*armiya* neytral so'zi orqali quyidagi kontekstlarda namoyon bo'ladi.

ارتش مقامات، مانند یک ارگانیسم انگلی، هر ساله رشد می کند[31]

*Amaldorlar armiyasi xuddi parazit organizm kabi yiliga ko'paymoqda*

ارتش *armiya* – 1. *Davlatning qurolli kuchlari majmuasi*; 2.*Frontdagi qurolli kuchlarning bir qismi* ma'nolarini anglatsa, ko'chma ma'noda *umumiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ko'p sonli odamlar* ma'nosini ifodalaydi. Yuqoridagi keltirilgan misolda qo'llangan ارتش *armiya* so'zi در ارتش، مانورهای مالی در حال آمدن است[32] *Armiyada moliyaviy manyovrlar kutilmoqda* jumlasida qo'llangan holat bilan taqqoslansa, ularda kontekst orqali kuchaytirilgan «*ko'psonlilik*» va «*boshqalar hisobiga yashovchilar*» ma'nosi anglashiladi. Tahlil qilingan otlarning semantik-uslubiy ma'nolari boshqa uslublarda ham namoyon bo'lsa-da, ana shu ma'nolarning birmuncha kengaygan holda ifodalanishida gazeta matnlari tilining imkoniyatlarini alohida ta'kidlash lozim.

[30] Ruzname-ye etela'at. Bahman 1394. Šomare-ye 24382. (Xabarlar gazetasi)
[31] Ruzname-ye siyasat-e ruz. Ordibehešt 1394. Šomare-ye 3894. (Kun siyosati gazetasi)
[32] Ruzname-ye etela'at. Bahman 1394. Šomare-ye 24362. (Xabarlar gazetasi)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Geografik onimlar yuz berayotgan hodisalarni nomlash orqali informatsion xarakterga ega bo‘ladi. O‘zining semantik faolligidan toponim gazeta publitsistik uslubining ma’lum matnlarida o‘quvchiga emotsional ta’sir etuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi [33]. Mamlakat nomi ma’lum davlatlarning tarixiy taqdiri haqida eslatma berish uchun xizmat qiladi. Natijada ma’lum mamlakat nomi ramziy xususiyat kasb etadi. Masalan, Afrika mamlakatlari asosan qashshoqlik ramzini anglatsa, arab davlatlari boylik, hashamat ma’nosida qo‘llanishini kuzatish mumkin.

هر گونه محاسبات مربوط به نسخه چیلی، اگر چه هیچ کس در مورد آن با صدای بلند صحبت نمی کند ، به نظر می رسد ساده لوح و بی سواد است.تلاش برای تبدیل شدن به چیلی، آنها نیجریه شدند: همان فساد و همان نفت[34]

*Bu haqda hech kim baland ovozda gapirmasa ham, Chili versiyasi, sodda va savodsiz bo‘lib chiqti. Chili bo‘lishgaintilib, ular Nigeriyaga aylandilar: o‘sha korrupsiya, o‘sha neft.* Ushbu misolda *Chili* qattiqqo‘l tuzum sharoitida ham xo‘jalik faoliyatini tashkil eta olgan va shu yo‘l bilan iqtisodiy o‘sishga erishgan davlat timsolida gavdalangan. *Nigeriya* orqali esa obrazli tarzda yer osti boyliklariga ega bo‘lishiga qaramay, amaldorlarning ochko‘zligi tufayli mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlay olmagan davlat tasvirlangan.

Ta’kidlash lozimki, gazeta matnlarida «*poytaxt nomi – mamlakat nomi*» modeli asosidagi an’anaviy metanimik ko‘chish ko‘p uchraydi. Siyosiy matnlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularda poytaxt nomlarini anglatuvchi atoqli otlar ko‘p hollarda o‘sha mamlakatni ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan,

الصباغ با اشاره به اینکه تهران بغدادرا از دست اشغال داعش نجات داد، گفت...[35]

*Alsabog‘ Tehron Bog‘dodni IShIDdan qutqarganiga ishora qilib dedi* jumlasida qo‘llangan تهران ***Tehron*** va بغداد ***Bag‘dod*** shahar nomi sifatida emas, balki ***Eron*** va ***Iroq*** davlati timsolini aks ettirgan.

Gazeta matnlarida sifatlar uslubiy jihatdan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, davriy matbuotda jurnalistlar maqola tayyorlash jarayonida o‘zining uslubini yaratishga urinadilar va bu jarayonda o‘z

[33] Нахимова Е.А. Метафорические и метонимические значения топонимов в современных СМИ // Журналистика и массовые коммуникации. – 2009, № 3. –С.80.
[34] Ruzname-ye etela’at. Bahman 1394. Šomare-ye 24381. (Xabarlar gazetasi)
[35] Ruzname-ye jomhuri-ye eslami. Farvardin 1394. Šomare-ye 10288. (Islom respublikasi gazetasi)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

uslubiga xos sifatlardanfoydalanish holatlari ko‘zga tashlanadi. Ma’lum bir voqea-hodisalar emotsional bo‘yoqdor vositalar bilan boyitilgan bo‘lsa yanada qiziqarli bo‘ladi. Biror ma’lumotni obrazli yetkazishda muallif albatta sifatlardan foydalanadi.

Tub va yasama sifatlarning uslubiy imkoniyatlari gazeta matnlarida har doim ham bir xil emas. Gazeta matnlarida tub sifatlardan ko‘ra yasama sifatlarning qo‘llanishi faol. Buni hozirgi kundagi turmush tarzining jadal rivojlanishi, yangi so‘z va tushunchalar paydo bo‘lib borayotgani, bularni ifodalash va aniqlashga yangi vositalar zarurati mavjudligi bilan asoslash mumkin. Gazeta matnlarida sifatlarning voqelanishi borasidagi yana bir jihat ularda badiiy yoki og‘zaki uslubda keng ishlatiluvchi sifatlarning kam yoki umuman qo‘llanmasligidir. Misol uchun, biror shaxsning belgi-xususiyatini ifodalovchi شوخ *sho‘x*, مهربان *mehribon*, خوشگل *go‘zal*, قشنگ *chiroyli*, زیبا *chiroyli*, maza bildiruvchi شور *sho‘r*, خوشمزه *mazali*, شیرین *shirin*, kishilarning jismoniy belgilarini anglatuvchi پیر *qari*, لاغر *ozg‘in* kabi sifatlar gazeta matnlarida deyarli qo‘llanmaydi.

Sifatlar denotativ va konnotativ ma’nosida baholash komponentining mavjudligi sababli ular belgi va baholashni ifodalash aspektlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Baholash, emotsiya, ekspressiya konnotatsiyaning teng huquqli komponentlari sifatida asosan ko‘p ma’noli so‘zlar semantik strukturasida keng tarqalgan, chunki ular asosan ko‘chma ma’noda namoyon bo‘ladi. Sifatlar leksik ma’no strukturasidagi murakkablik va o‘ziga xoslik ularning ko‘pma’noliligida namoyon bo‘ladi. Ko‘p ma’noli sifatlar ma’nosining anglashinuvida otlarning ta’siri muhim.

**سالم** - *tani sog‘*, *sog‘lom*, *foydali*, *toza*, *normal*, *to‘g‘ri*. Gazeta matnlari mazkur sifatning *sog‘lom* fiziologik belgi ma’nosida qo‘llanishi nofaol bo‘lib, asosan, ko‘chma ma’noda qo‘llanishi kuzatildi. Gazeta matnlarida uning رقابت سالم *sog‘lom raqobat*, انتخابات سالم *odil saylov*, آب سالم *toza suv*, هوای سالم *toza havo*, غذای سالم *foydali ovqat* kabi birikmalar tarkibida qo‘llanishi faol. Shu bilan birga, gazeta matnlarida سالم sifatining antonimi ناسالم *nosog‘lom* ham uchraydi.

بانک مرکزی همیشه این انتقادرا به بانکها وارد کرده که روال بانکها در رقابت ناسالم با یکدیگر باعث شده است هم در حوزه کارمزد وضعیت نابسامانی بوجود آید و هم شرایط مالی خود بانکها رو به نابسامانی برود[36]

[36] Ruzname-ye siyasat-e ruz. Ordibehešt 1394. Šomare-ye 3909. (Kun siyosati gazetasi)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Markaziy bank hamisha banklarning nosog‘lom raqobatga intilishi to‘lov sohasida tartibsizlikning kelib chiqishi va banklar moliyaviy holatining tartibdan chiqib ketishigasabab bo‘lishini tanqid qilib kelgan.*

**گرم** – *iliq, issiq, qizg‘in, jo‘shqin, do‘stona* kabi ma’nolarni anglatib keladi. Mazkur sifatning gazeta matnlarida qo‘llanishidagi o‘ziga xoslik shundaki, u ikki mamlakat o‘rtasidagi iliq munosabatlarni ifodalashda keng qo‘llanadi. Bu sifat ishlatilgan birikmalar, asosan, Eron va ba’zi xorijiy mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar, xorijiy davlat rahbarlari tashrifi yoritilgan maqolalarda voqelanishi ma’lum bir shakldagi birikmalar tarkibida qo‘llanishi jarayonida klishega aylangan holatlar mavjud.

قدرتهای سلطه گر، مخالف روابط گرم ایران با افریقا هستند[37]

*Hukmron kuchlar Eronning Afrika davlatlari bilan iliq aloqlariga qarshi.*

Oxirgi vaqtlarda gazeta leksikasida siyosiy-timsol ma’no kasb etgan sifatlarning keng qo‘llanishini kuzatish mumkin. Gazeta tili yuz berayotgan voqea-hodisalarga operativ munosabat bildirish xususiyatiga egaligini inobatga olsak, unda ba’zi ranglar semantikasi transformatsiyasini kuzatish mumkin. Ular siyosat, iqtisod, biznes, ommaviy axborot vositalari sohalari bilan bog‘liq. Rang ma’lum emotsional kayfiyatni vujudga keltiruvchi simvolik fon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, siyosiy partiyalar ranglardan ta’sir etuvchi timsol hamda ularni ajratib turuvchi belgi sifatida foydalanadilar. Rang simvolikasi hozirgi kundagi siyosiy tendensiyalarni ifodalaydi. Masalan, Ukraina, Gruziya, Qirg‘izistonda yuz bergan siyosiy inqirozlar natijasida *to‘q sariq*, *pushti*, *baxmal* ranglar siyosiy ma’no kasb etti. Bu ranglarning oxirgi vaqtda yangi konnotatsiyalarga ega bo‘lgan holda qo‘llanishi ko‘p kuzatiladi. Rangli inqiloblarning ommaviy norozilik namoyishlari tushunchasida qo‘llanishi ommalashdi. Gazeta matnlarida sport terminologiyasiga oid birliklarning ishlatilish holatlari ham mavjud. Ma’lumki, sariq rangli kartochka ayrim sport turlarida ogohlantirish sifatida qo‘llanadi. Quyidagi misolda esa sariq karta olish orqali deputatga ogohlantirish berish ma’nosi anglashiladi.

پاسخهای فانی در آن جلسه کارساز نبود و در نهایت با ۱۱۴ رای مخالف، کارت زردی گرفت[38]

[37] Ruzname-ye jomhuri-ye eslami. Farvardin 1394. Šomare-ye 10273. (Islom respublikasi gazetasi)
[38] Ruzname-ye etela’at. Bahman 1394. Šomare-ye 24382. (Xabarlar gazetasi)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Foniyning javoblari majlisda yordam bermadi va u 114ta qarshi ovoz bilan sariq karta oldi.*

Qizil rang asosan siyosiy va tashviqot maqsadida qo‘llanib, odamni qat’iylik, biror ishni qilishga undovchi rang bo‘lishi bilan birga, havf-xatardan ogohlantirish ma’nosini ham anglatadi. Yashil rangning tabiat va ekologiya bilan bog‘liq kontekstlarda faol qo‘llanishi aniqlandi. Rang bildiruvchi sifatlar borasida bir jihatga ahamiyat qaratish lozim. Havoning tozalik darajasi ma’lum ranglar bilan belgilangan. Fors tilida ham ana shu darajani ifodalashda belgilangan ranglar mavjud. Bu ko‘rsatkich, ayniqsa, Tehron shahri havosi sofligi ko‘rsatkichini belgilashda qo‘llaniladi va bu ko‘rsatkichlar gazeta matnlarida ham o‘z aksini topadi.

Xulosa o‘rnida gazeta matnlarida ot so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlarga nisbatan keng funksional-uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlash lozimki. Lekin ot so‘z turkumiga kiradigan ba’zi grammatik shakllarda funksional chegaralanish sezilmaydi. Buni ko‘plik kategoriyasi misolida ko‘rish mumkin. Gazeta matnlarida qo‘llangan ot va sifatlarning aksariyati boshqa uslublarda ham ishlatiladi. Biroq maqolada tahlil qilingan ot va sifatlarning aynan gazeta matnlari tarkibida semantik-uslubiy ma’nolari kengayish holati aniqlandi. Shu bilan birga, ko‘p ma’noli ot va siftalar gazeta matnida aynan bir ma’noda qo‘llanib, publitsistik uslubga xoslanganlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Eron gazeta matnlarida qo‘llangan ot va sifat so‘z turkumlariga oid aksariyat leksik birliklar milliy spesifika - Eronning davlat tuzilishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlari va h.k. ta’sirida shakllangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Горшков А.И. Русская стилистика. Стилистика текста и функциональная стилистика: учебник для педагогических университетов и гуманитарных вузов. – М.: Астрель, 2006. – С.265.
2. Куранбеков А. Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке // Вопросы филологии. – М., 2003. – №2 (14). – С.17.
3. Нахимова Е.А. Метафорические и метонимические значения топонимов в современных СМИ // Журналистика и массовые коммуникатsiи. – 2009, № 3. – С.80.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

4. Сухоруков А.Н. Западные инициальные аббревиатуры в персидском языке в контексте борьбы за очищение языка. – М., 2015. – С.77.
5. Қўнгуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданяти асослари. II қисм. – Самарқанд, 1986. – Б.20.
6. چشم‌انداز سبک‌پژوهی در زبان فارسی.http//farsi.blogfa.com. محمد تقی بهار ملک الشعرا. سبک شناسیتهران۱۳۴۹.دکتر سیروس شمیسا. بیان و معانی. تهران ۱۹۹۵. کیومرس کیوان. سبکشناسی زبان و شعر فارسی. تهران ۱۳۷۷.دکتر فتوحی. سبکشناسی. تهران ۱۳۹۴. مهدی باقری. پیشینة سبک و سبک‌شناسی علمی در اروپا و ایران. تهران ۱۳۹۰. مهدی باقری. پیشینة سبک و سبک‌شناسی علمی در اروپا و ایران. تهران ۱۳۹۰.
7. احمد سمیعی (گیلانی). زبان صدا و سیما و انحرافات آن -.زبان و رسانه. - ۱۳۸۸. – ص. ۱۱۷-۱۳۲.
8. دکتر حسن ذوالفقاری. الگوهای غیرمعیار در زبان مطبوعات. تهران، ۱۳۸۵. ص. ۲۹.
9. روزنامه سیاست روز. ۱۳۹۴ اردیبهشت . ۱۷. شماره. ۳۹۰۴. ص.۴
10. روزنامه اطلاعات. ۱۳۹۴بهمن.۲۰. شماره .۲۴۳۸۰ . ص.۶.
11. روزنامه جمهوری اسلامی. ۱۳۹۴فروردین۱. شماره. ۱۰۲۷۴. ص.۱۶

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# НЕКОТОРЫЕ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ГЛАГОЛЬНЫХ СИНОНИМОВ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-125-131

К.ф.н. **Динара АЗИМДЖАНОВА**
доцент ТГУВ,
Ташкент, Узбекистан.
Тел: (90) 9899406;
suhratrustamov711@gmail.com

**Аннотация**: *В статье рассматриваются способы употребления глагольных синонимов персидского языка. Так как глагол в персидском языке отличается структурным разнообразием это, в свою очередь отражается на развитии синонимических отношений. Кроме этого, глаголы играют немаловажную роль в разграничении функциональных стилей, чему способствуют также различные способы употребления глагольных синонимов.*

**Ключевые слова**. *Функциональный стиль, рамочная конструкция, стилистическое средство, стилистически нейтральный синоним, иноязычное заимствование, эвфемистическая функция*

**Abstract**: *The article deals with the ways of using verbal synonyms in the Persian language. Since a verb in Persian is characterized by structural diversity, this in turn is reflected in the development of synonymic relations. In addition, verbs play an important role in distinguishing functional styles, which is also facilitated by different ways of using verb synonyms.*

**Key words.** *Functional style, frame construction, stylistic device, stylistically neutral synonym, foreign language borrowing, euphemistic function.*

**Annotatsiya**: *Maqolada fors tilining fe'l sinonimlari foydalanish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi. Fors tilidagi fe’l tuzilish xilma-xilligi bilan ajralib turganligi sababli, bu o‘z navbatida sinonimik munosabatlarning rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, fe'llar funktsional uslublarni chegaralashda muhim rol o'ynaydi, bu fe'l sinonimlari foydalanishning turli usullari ham yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Funksional uslub, fe’lning distant holati, stilistik vositalar, stilistik neytral sinonim, xorijiy o’zlashma, evfemistik funktsiya*

**Введение.** Проблема синонима – одна из древнейших в языкознании. Несмотря на то, что она была выдвинута еще древними греками, эта проблема привлекает внимание многих исследователей и в настоящее время. Синонимика по праву считается одним из самых богатых лексико-фразеологических ресурсов стилистики. Одним из

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

основных критериев выделения лексических синонимов являются их семантические и стилистические функции. И персидский глагол не является исключением. Глагол в персидском языке представляет собой одну из наиболее интересных и сложных грамматических категорий как в лексико-семантическом плане, так и в плане исследования развития синонимических отношений. На появление новых синонимических слов и значений влияют различные факторы, лежащие как за пределами языка, так и внутри его. Но значимость синонимов, их роль в обогащении выразительных возможностей языка проявляются в речевом общении, средством которого является язык. Пополняясь новыми словами, развивая у старых слов новые значения, он, на различных этапах своего развития, функционируя в разных условиях человеческой деятельности, приобретает стилистическую дифференциацию.

**Основная часть.** В формировании и разграничении функциональных стилей на первом месте стоит лексика. Синонимы, относясь к лексической системе языка, активно используются как его стилистическое средство. Наличие в языке развитой синонимии является показателем богатства языка. Функциональная же ценность синонимов реализуется в речи. Поэтому использование синонимов помогает придать высказыванию стилистическую и эмоциональную окраску, образность, ассоциативность, подчеркнуть характерные особенности того или иного стиля.

Рассмотрим некоторые приемы употребления глагольных синонимов в персидском языке.

Хотя при одиночном использовании глаголов - синонимов не затрагиваются специфические отношения с синонимами своего ряда, но и в данном случае для подчеркивания каких-либо стилистических оттенков, для эмоционального настроя, социальной градации возможно употребление определенных глаголов, выступающих синонимами нейтральных по окраске глаголов. Например, для того, чтобы подчеркнуть особенности определенного стиля речи используются стилистически окрашенные как простые, так и сложные глаголы, выступающие синонимами нейтральных по стилю глаголов, например для книжно-письменного стиля : فرمودن *farmudan*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

- گفتن *goftan* “говорить”; سپردن *sepordan*-دادن *dādan* “давать”, “вручать”; для разговорного стиля – نشستن *nešastan* -تمرگیدن *tamargidan* “сидеть” и.т.п. Это же касается и сложных глаголов, где синонимия затрагивает как именную, так и глагольную часть. Для придания определенной стилистической окраски нейтральный синоним заменяется на его стилистически окрашенный эквивалент: صحبت کردن *sohbat kardan* (стилистически нейтральный) – محادصه کردن *mohādese kardan* “беседовать” (стилистически окрашенный); محاجه کردن *mohājje kardan* (стилистически окрашенный) – دلیل آوردن *dalil āvardan* “приводить доводы, доказательства” (стилистически нейтральный); خوردن xordan “есть” (стилистически нейтральный) - کوفت کردن *kuft kardan* “жрать” (стилистически окрашенный). Хотя основная смысловая нагрузка в сложных глаголах падает на именную часть, но и компонирующий глагол может передавать стилистическую окраску. Глаголы کردن *kardan* “делать” и نمودن *nemudan* “казаться, выглядеть” являются синонимами в составе сложных глаголов, причем второй глагол, будучи употребленным в составе сложного глагола придает последнему характер книжности, официальности.

**Употребление рамочных констр**укций также является одним из стилистических приемов, используемых для выделения того или иного стиля. Выбор той или иной конструкции используется как “стилистическое средство, позволяющее дифференцированно выражать отдельные оттенки высказывания” [2,190] . Например, употребление глагола دارای چیزی بودن *dārā-ye čiz-i budan* вместо стилистически нейтрального داشتن *dāštan* “иметь” подчеркивает книжный характер высказывания. Кроме этого, употребление рамочной конструкции тех глагольных фразеологизмов, для которых дистантное положение является нетипичной формой построения, также является одним из приемов выделения того или иного стиля. Например: глаголفاتحه خواندن *fātehe xāndan* “читать первую суру Корана” в дистантном положении компонентов فاتحه چیزی راخواندن *fātehe –ye čiz-i rā xāndan* “распрощаться, расстаться с чем-либо” относится к разговорному стилю и несет в себе оттенок иронии.

Другим не менее распространенным случаем использования синонимов как стилистического средства является **употребление**

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**двух или более синонимов**. Прием парного употребления синонимов позволяет наиболее полно характеризовать степень выражаемого действия, его особенности, выразить субъективно-оценочное отношение самого автора или персонажей к характеру описываемого действия. Но в то же время такое употребление “не есть повторение одной и той же мысли – второй синоним не только покрывает значение первого, он перекрывает его, и, в целом, оба синоним поставленные рядом достигают большей полноты и выразительности, чем каждый в отдельности” [1, 220]. Анализ употребления глагольных синонимов позволил сделать некоторые выводы об их стилистическом использовании.

В целях обобщения действия, придания высказыванию характера завершенности, законченности употребляется сочетание двух стилистически нейтральных синонимов:

چه مصیبت بزرگی! اگر این عشق دامنه بگیرد و در دل و روح او ریشه پیدا کند و عمیق شود...

*če mosibat-e bozorg-i.agar in ešq dāmane begirad va dar del-o-ruh-e u riše peydā konad va amiq šavad*[5,22]

“Какое несчастье! Если эта любовь захватит его, укорениться и углубиться в его сердце и душе…”

بایست این سنگ را شکافت و تکه تکه کرد! *bāyest in sang rā šekāft vat eke teke kard* [6,49]

“Следует расколоть и *разбить вдребезги* этот камень!”

Большой выразительностью обладает прием расположения синонимов по принципу нарастающей последовательности. В этом случае происходит своеобразное нанизывание синонимов, объединенных между собой бессоюзной связью:

میخواهم بروم دور، خیلی دور یك جایی که خود را فراموش بکنم، فراموش بشوم،گم بشوم، نابود بشوم.

*mixāham baravam dur xeyli dur yek jāyi ke xod rā farāmuš bokonam, gom bešavam,nābud bešavam* [7,171]

“Хочу уйти далеко, очень далеко, в такое место, где я забуду себя, забудусь, потеряюсь, исчезну.”

Еще большей выразительности обладает прием употребления двух или нескольких синонимов, один из которых синонимичен в

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

переносном смысле: می غرید و می خروشید و می گفت: من این دنیا را بهم خواهم زد. *miqorrid va mixorošva migoft man in donyā rā beham xāham zad* [8,170]

“Он рычал, вопил и говорил: «Я уничтожу этот мир»” ولی سر او درد می کرد. تنش خسته و خرد شده بود *vali sar-e u dard mikard. tan-aš xaste va xord šode bud* “…Но у нее болела голова. Тело ее было уставшим и разбитым.”

В целях разнообразить текст и во избежания повтора используется прием употребления синонимичных глаголов, относящихся к одному стилистическому пласту. Эмоциональная насыщенность достигается благодаря обоюдному воздействию синонимов и контекста, в котором они использованы:

می رفتم و چنان می لرزیدم که جان از تنم فرو می ریخت، از دنیا فرار می کردم، از نفرت وجود خودم می‌گریختم و نمی دانستم به کجا بروم[39] *miraftam va čenān milarzidam ;e jān az tan-am foru mirixt,az donyā farār mikardam, az nefrat-e vojud –e xod-am namidānestam be kojā baravam*[9,45]

“Я шел и так дрожал, что душа моя отделилась от тела, я бежал от мира, убегал от отвращения к собственному существованию и не знал куда мне пойти.”

В следующем примере используются не только синонимичные глаголы گشتن и شدن в качестве компонирующих, но и вторая форма глагола گشتن - گردیدن , что позволило автору избежать, казалось бы, неминуемого повторения компонирующего глагола:

دو روز دیگر... تشکیل دولت جمهوری انقلابی اعلام گردید. میرزا صدر کمیته انقلاب مورد کار شد. کمیسرها هم برای اداره کار ها نامزد گشتند. *do ruz-e digar taškil dowlat-e jomhuri-ye enqelābi ‘elān gardid. Mirzā sadr komite-ye enqelāb mowred-e kār šod. komisar-hā ham barāye edāre-ye kār hā nāmzad gaštand.* [6,137]

“Через два дня было объявлено об образовании революционного республиканского государства. Был представлен председатель революционного комитета. Также были выбраны комиссары для управления работой.”

Такое же парное употребление наблюдается при использовании глагола کردن, выступающего в качестве компонирующего и являющегося синонимом его книжному эквиваленту نمودن. Часто, во

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

избежания повторения вместо глагола کردن, используется глагол نمودن:

و رلان موفق شد به مدرسه عالی... که روشنفکران آتی فرانسه در آن تحصیل می کردند و برخی از اندیشمندان معاصر فرانسه در آن تدریس می نمودند وارد شود[40]

*va rolān movaffaq šod be medrese-ye ‘āli ke rowšanfekrān-e āti-ye ferānse dar ān tahsil mikardand va barxi andišmandān-e mo’āser-e ferānse dar ān tadris minemudand vāred šavad.* [10,25]

“И Ролану удалось поступить в высшее учебное заведение, где училась будущая французская интеллигенция и некоторые современные мыслители Франции.”

Другим стилистическим приемом употребления синонимов является употребление в составе сложного глагола иноязычного заимствованного слова, которое, как бы поясняет, раскрывает смысл другого слова. Таким способом повествованию придается характер иронии, насмешки: ... آقا متلك گفت. ای جوك و باصطلاح انکدوت گفت و ما خندیدیم...

*āqā matalak goft. Ey jowk va beestelāh anekdut goft va mā xandidim* [11,202]

“…Господин острил, рассказывал смешные рассказы и т.н. анекдоты, и мы смялись.”

Кроме этого, синонимы в языке, употребляясь совместно, могут выполнять и эвфемистическую функцию. Не останавливаясь подробно на способах эвфемизации, хотелось бы подчеркнуть, что практическое использование языка вызывает к жизни как различные мотивы появления эвфемизмов, так и новые пути и способы эвфемизации понятий.

**Заключение.** Таким образом, синонимы, будучи особым явлением языка, проявляют свои отличительные признаки в самом характере функционирования. Эти признаки разнообразны по своей природе и характеру проявления. Наблюдения показывают, что синонимы в языке выполняют разнообразные стилистические функции, такие как выделение стилей, характеристика персонажей, выражение отношения автора к описываемому событию, характеристика того или иного действия или состояния и т.п. Однако индивидуальное значение синонимов и их стилистические функции,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

различные семантические и стилистические нюансы образуются благодаря спаенности своеобразия синонимов и контекста.

**Список использованной литературы**

1. Кузнец М.Д. Стилистические функции синонимов// Ученые записки I ЛГПИИЯ.- Ленинград, 1949., стр.220
2. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка.- М.: Наука, 1981.,стр190
3. Akhmedova, D., Alimova, Kh., Azimdjanova, D., Nuriddinov, N., & Xasanova, N. (2022). The stylistic features of nouns and adjectives in Iranian newspaper texts. Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. № 1 (50). (pp. 95-102).
4. Azimdjanova, D., Alimova, Kh., Akhmedova, D., & Nuriddinov, N. (2022). On some issues of verbal synonymy in the Persian language. Theoretical & Applied Science, 03, (107). (pp. 852-858).
5. ۱۳۶۱،معرفت: تهران.- منوچهر مطعي. مومیائی فروشان.- ص. ۲۲ -.
6. داستانهای کوتاه از نویسندگان امروز ایران و جهان. – تهران: خیدری، . ۱۳۷۰ص. ۴۹
7. صادق هدایت. زنده بگور.- تهران: امیر کبیر، ۱۳۴۲.، ص. ۱۷۱
8. شاهکارهای نثر فارسی معاصر. جلد دوم.- تهران: معرفت، ۱۳۳۰،ص. ۱۷۰
9. محمد حجازی، پروانه.- تهران: مشعل آزادی، ۱۳۴۵.، ۴۵
10. دفتر های هنر و ادابیات، ۱۹۸۷№۱۲
نمونه ادابیات ایران.- تاشکند: ازبکستان، ۱۹۹۲.، ص.۲۰۲

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# KOPULYATIV QO‘SHMA SO‘ZLAR VA ERKIN KOPULYATIV SO‘Z BIRIKMALARINING SEMANTIK JIHATDAN FARQLARI VA TARJIMADA BERILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-132-138

PhD. **Nodir NURIDDINOV**
TDShU dotsenti v.b.,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998946123957;
nur_nn@mail.ru

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola fors tilidagi kopulyativ birliklarga oid nazariy fikrlar tadqiqi, tilshunos-eronshunos olimlarning mavzu yuzasidan bildirgan fikrlari tahliliga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada kopulyativ qo‘shma so‘zlar (KQS) va erkin kopulyativ so‘z birikmalari (EKSB) ni o‘zaro farqlashning semantik mezoni hamda kopulyativ birliklarning tarjimada berilishi haqida fikr yuritiladi.*

**Tayanch so‘z:** *kopulyativ qo‘shma so‘z, erkin kopulyativ so‘z birikmasi, semantik mezon, tarjima.*

**Аннотация**: *Данная статья посвящается изучению теоретических представлений о персидских копулятивных единицах, и анализу взглядов лингвистов-иранистов по данному вопросу. Также в статье рассматриваются семантические критерии различения копулятивных сложных слов (КСС) и свободных копулятивных словосочетаний (СКС) и представление копулятивных единиц в переводе.*

**Опорные слова и выражения**: *копулятивные сложные слова, свободное копулятивное словосочетание, семантический критерий, перевод.*

**Summary:** *This article is dedicated to study theoretical ideas (concepts) about copulative combinations and the analysis of the opinions of linguists-iranists on this theme. This article also discusses the semantic criteria for distinguishing between copulative compound words (CCW) and free copulative phrases (FCPH) and the representation of copulative units in translation.*

**Keywords and expressions**: *copulative compound words, free copulative phrases, semantic criterion, translation.*

**Asosiy qism.** Tilshunoslikda va, ayniqsa, fors tilshunosligida so‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlarni farqlash, qat’iy chegaralash ancha murakkab va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri deyish mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari bir-biriga aralashtiriladi, ayrim hollarda bir murakkab birikmaning o‘zini ba’zan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qo‘shma so‘zga, ba’zan so‘z birikmasiga kiritish hollari uchrab turadi. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalarining chegarasi masalasi har bir tilning fonomorfologik va sintaktik normalariga asoslangan holda qat’iy, aniq mezonni belgilashni talab etadi.

Kopulyativ birliklar tahlili va ularning struktur-semantik tasnifidan tilshunoslikda mazkur lingvistik hodisa deyarli bir xil baholanishi ma’lum bo‘ldi. Ammo tadqiqotlarning hech birida KQS, KFB va EKSBni o‘zaro farqlashning aniq mezonlari kuzatilmadi. Mazkur maqolada mavzuga oid nazariy qarashlar tahlili va to‘plangan faktik materiallar tasnifi asosida kopulyativ birliklar (KQS va EKSB) ni farqlashning semantik mezoni haqida mulohaza yuritiladi.

Fors tilida so‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi ilk bor L.S.Peysikovning tadqiqotida *[1, 158-168.]* batafsil ifoda etilgan. Mazkur muammoni hal etishning murakkabligi muallifning quyidagi fikrlarida o‘z aksini topadi: “Kopulyativlarni katta miqdordagi turli teng bog‘lovchili, reduplikativ, bog‘lovchisiz birliklardan, ayniqsa teng bog‘lovchili frazeologik birliklardan farqlash masalasida muammolar yuzaga keladi: bog‘lovchili sintaktik so‘z birikmalari va kopulyativ qo‘shma so‘zlar o‘rtasidagi oraliq birliklar masalasi nihoyatda murakkabdir. Ammo mazkur masala uni to‘liq hal etishning imkoni yo‘qligiga qaramasdan, bizga u qadar imkonsizdek tuyulmaydi” *[1, 159.]*.

G.V. Melikyan o‘z tadqiqotida “juft birliklar leksikalizatsiyasi natijasida qo‘shma so‘zlar hosil bo‘lishini” ta’kidlaydi. Unga ko‘ra “bu holatda juft birliklarni qo‘shma so‘zlarga o‘xshatish to‘g‘riroq bo‘lardi, chunki ularning yasalish asosi sintaksis sathiga taalluqli, kompozitsiyaga emas” *[2, 55.]*.

Mavzuga oid manbalar tahlili mazkur masalaning dariy tilshunosligida ham dolzarbligini ko‘rsatdi. M.N. Neghat Saidiy dariy tilida qo‘shma so‘zni so‘z birikmasidan farqlovchi 7 ta belgini taklif qilgan bo‘lsa *[3, 165.]*, X.Z. Alimova dariy tilida qo‘shma so‘zlarning fonetik, grammatik va semantik belgiga egaligini ta’kidlab, ular orasida grammatik belgining ustunligini qayd etadi *[4, 32, 35.]*.

Tilning turli sathlariga tegishli lingvistik birliklar tahlili o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, leksik-morfologik va sintaktik sathlarga tegishli bo‘lgan so‘z yasalishi (qo‘shma so‘z) va so‘z birikmalari o‘ziga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

xos derivatsion va funksional xususiyatlarga ega. Bunday holatda lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirini hisobga olish zarur *[5, 1-2.]*.

Eronlik tilshunoslar asarlarining tahlili ham fors tilida kopulyativ birliklar o'zaro ajratilmasligi, ularning barchasi murakkab birliklar sifatida izohlanishi hamda kopulyativ birliklarni o'zaro farqlashning aniq mezonlari ishlab chiqilmaganini ko'rsatdi.

Kopulyativ qo'shma so'z va so'z birikmalarini o'zaro farqlash faqat ilmiy ahamiyatgagina ega bo'lmay, juda katta amaliy ahamiyatga ham egadir. Qo'shma so'z va so'z birikmalarining o'zaro distinktiv belgilarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash leksikografik izlanishlar va tarjimalar jarayoniga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra qo'shma so'zlarni so'z birikmalaridan *fonetik-fonologik, morfologik-sintaktik* va *funksional-semantik* belgilar asosida farqlash maqsadga muvofiq.

So'z birikmasi yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan va mustaqil so'zlik xususiyatini to'liq saqlaydigan grammatik butunlikdir. Qo'shma so'z komponentlarida esa semantik mustaqillik yo'qolib, tarkibiy qismlar birikuvidan yangi leksik-semantik ma'noga ega birlik yuzaga keladi.

V.M. Jirmunskiy ko'shma so'z va so'z birikmalarini farqlovchi asosiy mezon ularning morfologik belgisi emas, semantik belgisidir, degan fikrni ilgari suradi *[6, 31-33.]*.

M. Bahor o'z asarida tarkibiy qismlari semantik jihatdan teng bo'lgan so'z birikmalari (EKSB) predmetga nisbatan o'ziga xos va aniq munosabatni ifodalashi, matnning bezagi hamda fikrning yorqin tasdig'i ekanini ta'kidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi: قدرت و نیرو *γodrat-o niru [7, 101.]* "kuch", "quvvat", "qudrat", ثروت و برومندی *sarvat-o barumandi [7, 252.]* "boylik", عقل و خرد *aγl-o xerad [7, 265.]* "donolik", "donishmandlik", مولف و مصنف *moallef-o mosannef [7, 287.]* "muallif(lar)", مقاصد مختلف و اغراض گوناگون *maγāsed-e moxtalef-o aγrāz-e gunāgun [7, 252.]* "turli maqsadlar".

KQS tarkibidagi komponentlar o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotsa, EKSBning tarkibiy qismlari esa o'z ma'nosida qo'llanib, bir-birini o'zaro to'ldiradi va so'z birikmasining semantik bo'yoqdorligi oshadi:

چند بار ترمز ماشینی و **بدوبیراه** راننده ای را بیخ گوش خود شنید *Čand bār tormoz-e māšini va **badobirāh**-e rānandei-rā bix-e guš-e xod šenid* "Bir necha

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

marta mashina tormozi va haydovchining **haqoratli so‘z**ini o‘z qulog‘i bilan eshitdi” (درازنای شب، ۴۴)

هر کس یک **نصیب و قسمتی** دارد، آقا. شاید **نصیب و قسمت** ما همین بوده *Har kas yek **nasib-o yesmati** dārad, āyā. Šāyad **nasib-o yesmat**-e mā hamin bude* “Har bir kishining bir **taqdiri** bo‘ladi, janob. Balki bizning **taqdir**imiz mana shu bo‘lgandir” (نه آدمی، ٦٧)

Yuqoridagi jumlalarda بدوبیراه *badobirāh* “haqoratli so‘z” KQS (بد *bad* “yomon”, بیراه *birāh* “axloqsiz”) tarkibidagi so‘zlar ma’nosi saqlanmagani kuzatilsa, نصیب و قسمت *nasib-o yesmat* “taqdir”, “qismat” (نصیب *nasib* “taqdir”, “ulush”, قسمت *yesmat* “taqdir”, “bo‘lak”) EKSB komponentlarining ma’nosi to‘liq saqlangan holda namoyon bo‘lmoqda.

KQS va EKSBning semantik tahlili mazkur birliklar komponentlari orasida sinonimik va antonimik munosabat mavjudligini ko‘rsatdi.

KQS tarkibiy qismlari orasidagi sinonimik munosabat: هرج و مرج *harj-o marj* “tartibsizlik”, “anarxiya” (هرج *harj* “tartibsizlik”, “shovqin-suron”, مرج *marj* “tartibsizlik”, “parokandalik”), سن و سال *sennosāl* “yosh” (سن *sen* “yosh”, سال *sāl* “yil”, “yosh”), مرز و بوم *marz-o bum* “mamlakat”, “o‘lka”, “er maydoni” (مرز *marz* og‘z.“er maydoni”, “mamlakat”, بوم *bum* og‘z.“mamlakat”, “er”), زر و زیور *zar-o zivar* “zeb-ziynat”, “qimmatbaho ziynat buyumi” (زر *zar* “oltin”, زیور *zivar* “bezak”).

EKSB tarkibiy qismlari orasidagi sinonimik munosabat: آبرو و شرافت *āb(e)ru-vo šarāfat* “obro‘-e’tibor”, “or-nomus” (آبرو *āb(e)ru* “obro‘”, شرافت *šarāfat* “obro‘”), صداقت و صمیمیت *sadāγat-o samimiyyat* “sadoqat”, “samimiyat” (صداقت *sadāγat* “sadoqat”, صمیمیت *samimiyyat* “samimiyat”), پند و نصایح *pand-o nasāyeh* “pand-nasihat” (پند *pand* “maslahat”, “nasihat”, نصایح *nasāyeh* “nasihatlar”, “o‘gitlar”), زوزه و ناله *zuze-vo nāle* “chinqirish”, “dod-voy”, “faryod”, “nola” (زوزه *zuze* “guvillash”, “chiyillash”, ناله *nāle* “nola”, “faryod”).

To‘plangan misollar komponentlari o‘zaro sinonim bo‘lgan KQS juda kam miqdorda uchrashini ko‘rsatdi. Tarkibiy qismlar sinonimiyasi EKSBga xos bo‘lib, o‘zaro sinonim bo‘lgan komponentlar bir-birini to‘ldirib, ma’no intensivligiga xizmat qilishi aniqlandi:

آیا محدودیت **سن و سال** در خرید بلیط هواپیما وجود دارد؟ *Āyā mahdudiyyat-e **sennosāl** dar xarid-e belit-e havāpeymā vojud dārad* “Samolyot biletini xarid qilishda **yosh** cheklovi mavjudmi?” (www.samseir.com/1459/Blog/)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

به **پند و نصایح** دیگران گوش بده، اما هرگز از آنان پیروی نکن *Be **pand-o nasāyeh**-e digarān guš bedeh, ammā hargez az ānān peyravi nakon* "O'zgalarning **pand-nasihat**iga quloq sol, lekin hech qachon ularga amal qilma" (www.in.pinterest.com)

KQS tarkibiy qismlari orasidagi antonimik munosabat: رفت و آمد *raftoāmad* "bordi-keldi", "harakat", "aloqa" (رفت *raft* – رفتن *raftan* "bormoq" fe'lining O'ZN, آمد *āmad* – آمدن *āmadan* "kelmoq" fe'lining O'ZN), کم و بیش *kamobiš* "bir muncha", "ozmi-ko'pmi", "ma'lum darajada" (کم *kam* "kam", "ozgina", بیش *biš* "ko'proq", "tez-tez"), پس و پیش *pasopiš* "dastlabki shart-sharoit va natija", "ikki tomoni"; "orqaga va oldinga", "u yoqqa bu yoqqa" (پس *pas* "orqasi", "orqa tomoni", پیش *piš* "oldi", "old tomoni").

این کاررا باید در نظر داشت **پس و پیش** ***Pasopiš**-e in kār-rā bāyad dar nazar dāšt* "Bu ishning **ikki tomoni**ni nazarda tutish kerak" (Rubinchik-1:301)

EKSB tarkibiy qismlari orasidagi antonimik munosabat: کوتاه (و) بلند *kutāh(o)boland* "past-baland", "turli uzunlikdagi" (کوتاه *kutāh* "qisqa", "past", بلند *boland* "baland", "uzun"), عاقل و دیوانه *āγel-o divāne* "oqil va devona" (عاقل *āγel* "aqlli", دیوانه *divāne* "devona"), دانا و نادان *dānā-vo nādān* "donishmand-u nodon" (دانا *dānā* "dono", "donishmand", نادان *nādān* "nodon").

روزنامه جام جم: گفت و گوی **عاقل و دیوانه** در قبرستان مرکزی *Ruznāme-ye Jām-e jam: Goftogu-ye **āγel-o divāne** dar γabrestān-e markazi* "Jom-ye jam gazetasi: "Markaziy qabristondagi **oqil va devona**ning suhbati" (www.magiran.com/article/3894579)

Yuqoridagi jumlalarda o'zaro antonimik munosabatdagi پس و پیش *pasopiš* "ikki tomoni" KQS va عاقل و دیوانه *āγel-o divāne* "oqil va devona" EKSB ifodalangan. Tahlillar natijasida fors tilida o'zaro antonim bo'lgan kopulyativ birliklarning kammahsulligi aniqlandi.

So'zlar odatda bir va ko'p ma'noli bo'lishlari mumkin. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosi so'z birikmasida konkretlashadi, so'z birikmasi tarkibiga kirgan so'z bir konkret ma'noni bildiradi, uning ma'nosi chegaralanadi. Qo'shma so'z komponentlarida bu xususiyat yo'q. Chunki qo'shma so'z komponentlari so'z birikmasi komponentlari kabi butun shakllangan emas, ular birikkan holdagina butunligicha bir leksik ma'noni bildiradi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Tarkibiy qismlardan birining sinonim so‘zga o‘zgarishi KQSga xos emas. Aynan mana shu semantik xususiyat KQS va EKSBni o‘zaro farqlash mezoni sifatida xizmat qiladi. EKSB tarkibiy qismlaridan birining sinonim so‘zga o‘zgarishi quyidagi kopulyativ birliklarning ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmaydi: خسته و مانده *xaste-vo mānde* = خسته و فرسوده *xaste-vo farsude* “charchagan”, “holdan toygan”, عشق و محبت *ešγ-o mohabbat* = مهر و محبت *mehr-o mohabbat* “sevgi”.

Ammo kopulyativ birliklar tahlili jarayonida komponentlaridan biri sinonim so‘zga o‘zgargan EKSBning ma’nosi o‘zgarishi ham aniqlandi. Quyidagi misollarda kopulyativ birliklar ma’nosi ikkinchi komponent anglatgan ma’no asosida aniqlanadi: شور و اضطراب *šur-o ezterāb* “bezovtalik”, “sarosima” (شور *šur* “hayajon”, “iztirob”, اضطراب *ezterāb* “bezovtalik”), شور و هیجان *šur-o hayajān* “zavq-shavq” (شور *šur* “hayajon”, “iztirob”, هیجان *hayajān* “hayajon”).

Quyidagi EKSBda esa birinchi komponent ma’nosi asosida kopulyativ birlikning ma’nosi belgilanadi:

صداقت و صمیمیت *sadāγat-o samimiyyat* “samimiylik” (صداقت *sadāγat* “samimiylik”, “sodiqlik”, صمیمیت *samimiyyat* “samimiylik”), دوستی و صمیمیت *dusti-yo samimiyyat* “do‘stlik”, “xayrixohlik” (دوستی *dusti* “do‘stlik”, “do‘stona munosabat”, صمیمیت *samimiyyat* “samimiylik”).

**Xulosa.** KQS va EKSBlarining o‘zaro distinktiv belgilari semantik mezon asosida aniqlandi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. KQS va EKSBning semantik tahlilidan so‘z birikmasi tarkibidagi komponentlar o‘z leksik ma’nosi va mustaqil so‘zlik xususiyatini to‘liq saqlashi, qo‘shma so‘z komponentlarida esa semantik mustaqillik yo‘qolib, tarkibiy qismlar birikuvidan yangi leksik-semantik ma’noga ega birlik yuzaga kelishi aniqlandi.

2. KQS va EKSB tarkibiy qismlari o‘rtasida sinonimik va antonimik munosabat mavjudligi mavzuga oid misollar orqali tahlilga tortildi.

3. EKSB komponentlaridan birining boshqa bir sinonim so‘zga o‘zgara olish imkoniyati KQS va EKSBni o‘zaro farqlash mezoni sifatida e’tirof etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М., 1973. – С. 158-168.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

2. Меликян Г.В. Парные словосочетания в современном персидском языке. – Ереван, 1984. – С. 55.
3. محمد نسیم نگهت سعیدی. دستور معاصر زبان دری. – کابل، ۲۰۱۳. ص. ۱۶۵.
4. Алимова Х.З. Дарий тилида сўз ясалиши // Монография. – Т., 2019. – Б. 32, 35.
5. Сафаров С.Ш, Бушуй Т.А. О цельнооформленности сложного слова и словосочетания. – М., 2007. –С.1 (www.cyberleninka.ru/ article/n/17610 694)
6. Жирмунский В.М. О границах слова. Сб. Морфологическая структура слова в языках различных типов. –М. – Л., 1963. – С. 31-33.
7. محمد تقی بهار ملک الشعراء. سبک شناسی یا تاریخ تطور نثر فارسی. جلد اول. تهران، ۱۳۳۷، ص. ۱۰۱
8. Nuriddinov, N. (2019). Reduplication of adverbs, past and present participles in persian language. *Theoretical & Applied Science*, (12), 634-639.
9. Nuriddinov, N., Mirzakhmedova, K., Nishanbaeva, A., & Djafarov, B. (2021). Copulative compounds made by interfix الف وصل. *Инноватsionные подходы в современной науке* (pp. 65-69).
10. Nodir Mr, N. (2020). Structural-semantic analysis of polynomial verbal copulative phraseologies in persian language. *The Light of Islam*, *2020*(1), 170-177.
11. Nodir Mr, N. (2020). Copulative compounds formed by prepositional interfixes in persian language. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(10), 71.
12. Akhmedova, D., Alimova, Kh., Azimdjanova, D., Nuriddinov, N., & Xasanova, N. (2022). The stylistic features of nouns and adjectives in Iranian newspaper texts. *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования*. № 1 (50). (pp. 95-102).
13. Azimdjanova, D., Alimova, Kh., Akhmedova, D., & Nuriddinov, N. (2022). On some issues of verbal synonymy in the Persian language. *Theoretical & Applied Science*, 03, (107). (pp. 852-858).
14. Xayrulla, X., & Shaxzoda, X. (2020). Translations of Liao Zhai stories. *Academicia an international multidisciplinary research journal, 10(12).*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# IBROHIM G‘AFUROVNING SO‘Z YARATISH MAHORATIGA DOIR

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-139-145

Filol.f.n. **Sevara MAHMUDOVA**
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Тел: +998935880026;
makhmudovmurod55@gmail.com

**Annotatsiya**. *Mazkur maqolada mohir tarjimon Ibrohim G‘afurovning Jeyms Joysning “Uliss” asari tarjimasi va unda qo‘llangan okkazionalizmlar haqida mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so‘zlar**: *“Uliss”, Jeyms Joys, okkazionalizm, tarjimon mahorati.*

**Аннотация**. *В данной статье исследуется перевод романа Джеймса Джойса «Улисс» на узбекский язык искусным переводчиком Ибрагимом Гафуровым и использованные в нем окказионализмы.*

**Ключевые слова**: *«Улисс», Джеймс Джойс, окказионализм, переводческое мастерство.*

**Abstract**. *This article examines the translation of James Joyce's novel "Ulysses" into Uzbek by a skilled translator Ibragim Gafurov and the occasionalisms used in it.*

**Keywords**: *"Ulysses", James Joyce, occasionalism, translator’s skills.*

Turli millat va elatlar o‘rtasidagi madaniy va ma’naviy aloqalarni yanada mustahkamlashda badiiy tarjimaning o‘rni va ahamiyati juda katta. Bu sohada Toshkent davlat sharqshunoslik institutida “Tarjima nazariyasi” kafedrasining ochilganligi, “Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi” mavzusida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilishi, tarjima tanqidi, fors, xitoy, nemis, rus tillaridan tarjima qilishning so‘z, til va qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog‘liq ko‘plab muammolari tahlil qilingan ilmiy maqolalar to‘plamining nashr etilishi quvonarli.

Shuningdek, A.Alimbekov va X.Hamidovlarning “Sharq xalqlari adabiyotidan tarjimalar” qo‘llanmasi nafaqat tarjimashunoslik sohasi xodimlari, talabalar, balki jahon adabiyoti namunalarini sevib o‘qiydigan kitobxonlar uchun ham manzur va foydali nashr bo‘ldi. Ushbu o‘quv qo‘llanma-xrestomatiyada R.Muhammadjonov, Amir Fayzullo, Temur Muxtorov singari tarjimonlar tomonidan urdu, pushtu, dariy, hind, arab,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

fors, xitoy, turk hamda Markaziy Osiyo xalqlari tillaridan amalga oshirilgan tarjimalar o‘rin olganligi bilan ahamiyatli.

Bulardan tashqari, O‘zMU olimlari qalamiga mansub “Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari”, “Oltin qalam” nomli maxsus nashr, xilma-xil nomdagi gazeta va jurnallarda chop etilayotgan materiallar barcha-barchasida tarjimashunoslik muammolarining dolzarb masala tarzida kun tartibiga qo‘yilishi iftixorli. Bu, so‘zsiz, O‘zbekiston mustaqilligi tufayli erishilgan yutuqlarning yana biri desak mubolag‘a bo‘lmas.

Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan iste’dodli o‘g‘il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi”- degan istak, umid ilgari surilgan edi.[1,83] Hozirga kelib, bu e’tirofning respublikamizdagi qator oliy o‘quv yurtlarida malakali tarjimon kadrlarni tayyorlashda dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotganligi ayon.

Istiqlol davri tilshunosligida tarjima matni tahlili va tahriri muammolari dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bu borada so‘zma-so‘z tarjima va erkin tarjima xususida bildirilgan ilmiy mulohazalar, tarjimadagi adekvatlik, aynanlik, asliyatga muvofiqlik talabi, tarjima tahliliga qiyosiy yondashishning ustuvorligi, “asliyat tili-tarjima tili” vositalarini qiyoslash, ular o‘rtasidagi muqobil imkoniyatlarni aniqlash va baholash mezonlariga oid jiddiy qarashlarning ilgari surilganligi diqqatni tortadi. [2, 14]

Ilmiy qaydlarda to‘g‘ri e’tirof etilganidek, tarjima muammosi ikki tillikgina emas, ikki madaniyatlilik muammosi hamdir. Tarjima ikki xil koddan foydalanuvchi muloqot turi. Shu bois tarjimaga sof lisoniy yondashish yetarli emas, u bir vaqtning o‘zida ham sotsiolingvistik, ham psixolingvistik yondashuvni taqozo etuvchi ijodiy jarayon.[3, 6] Shu o‘rinda “Imon” risolasiga yozilgan taqrizdan olingan qaydni aynan keltirish o‘rinli: “Mazmuniga ko‘ra tarjima qilib yetkazish asl matnga teng shoirona badal yaratish qiyin bo‘lgandagina o‘zini oqlashi va bu sohadagi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ilk ishlar uchungina tushunarli bo‘lishi mumkin. Lekin tarjimadan bosh maqsad asliyatning mislsiz ilohiyligini, go‘zalligini va ohanglarining tovlanishlarini saqlash!” [4]

Darhaqiqat, til, avvalo, ruhiy hodisa. Ruh esa ilohiydir. Inson vujudi tugal shakllanib yetganda ma’naviyatga ehtiyoj uyg‘ongan. Shu ehtiyoj bois bitiklar berilgan, ma’naviy inson zoti yaratilgan. Shunday ekan, tilning ruhi va ilohiy sir-asrorini bilmagan odam uning go‘zalligini ham, tengi yo‘q jozibasini ham his qila olmasligi ayon. Badiiy tarjima sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkorlar esa aynan shunday ilohiy in’omga, tug‘ma iste’dodga ega bo‘lgan, bir emas ikki tilning ruhi, go‘zalligi va nafosatini birday his eta olish xislatiga musharraf bo‘lgan insonlardir.

Tarjimashunoslik ancha rivojlangan, tarjimonlar safi kengaygan, aksariyat yozuvchilar, jurnalistlar, filologlaru munaqqidlar tarjimonlik bilan shug‘ullanib, shu yo‘nalishda barakali ijod qilishayotgan bugungi kunda zamonaviy jahon adabiyoti namunalarining o‘zbek tiliga o‘girilayotgani va o‘zbek kitobxoniga taqdim etilayotgani juda quvonarli hol.

Quyida biz jahon adabiyoti namunalarining hususan, ular matniga xos so‘z va grammatik shakllarning qo‘llanishiga doir ba’zi mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. Kitobxonlarga ma’lumki, dastlab 2008-yilda “Jahon adabiyoti” jurnali sahifalarida, keyinroq kitob shaklida taniqli tarjimon, adabiyotshunos olim Ibrohim G‘ofurov tarjimasida Jeyms Joysning “Uliss” asari ilk bor o‘zbek tilida o‘zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Irland yozuvchisi, modern adabiyotining tafakkur oqimi yo‘nalishida ijod qilgan bu yozuvchining ushbu asari o‘zining anchayin murakkabligi, o‘quvchini fikrlashga undashi, asarni ongli tushunib o‘qish uchun kitobxondan ma’lum bir tayyorgarlikni talab etishi bilan diqqatni tortadi. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, shunday bir murakkab asar taniqli munaqqid va tarjimon tomonidan o‘ta mohirona tarjima qilingan.

Asar matnida uchraydigan, ilmiy til bilan aytganda, okkazional-g‘ayriodatiy [5,10] yaratiqlarning o‘ziyoq badiiy tarjimaga ijodiy yondashilganining, qolaversa, har ikki til qonuniyatlarini buzmagan holda, odatiy, grammatik jihatdan me’yoriy andozada yangicha so‘zlar yaratilgani bois asar muallifi ilgari surgan g‘oya mantiqiga mos so‘z-leksemalar hosil qilingan. Bu bilan tarjima asarlariga xos ayniyat qonuniga amal qilingan,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

badiiy ijod namunasining estetik tamoyillari talablariga ham putur yetkazilmagan. Zero, har qanday badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda imkon qadar asliyatga ijobiy ma’noda muvofiqlashish, yaqinlashish yo‘lidan borish, nafaqat bilingvistik ma’lumotga ega bo‘lish, balki sof estetik va ekstralingvistik (g‘ayrilisoniy) holatlarni ham e’tiborda tutishni taqozo etadi.

Mazkur tarjimada tarjimon mahoratini yaqqol ko‘rsatib turuvchi “oyjinni”, “modarxudo”, “darsxalta”, “xabdori”, “ishbuzarmon”, “chalaqursoq yurtsevarlar”, “asaldon”, “tashnakom” singari o‘nlab oxorli yaratiqlarning asar g‘oyasiga, qahramonlar ruhiyatiga, Abdulla Qahhor ta’biricha, matnga “mixlab” yuborilganki, buni aynan so‘zlar qurshovida-matn tarkibida o‘qish kishiga nafaqat huzur bag‘ishlaydi, balki o‘zbek tilining so‘z qo‘shib so‘z yasash, andoza orqali so‘z yasash, qo‘shimchalar vositasida so‘z yasash qonuniyatlarining, tilshunoslar tili bilan aytganda, ichki so‘z yasash imkoniyatlarining badiiy nutqdagi jilosiga tan berasiz. Quyidagi matniy parchalar buning yaqqol misolidir:

1. – Sho‘rlik oyjinni, - dedi Malligan, - sen nima, darrov dumingni qisib qoldingmi? (“Jahon adabiyoti” jurnali, 2008-yil 7-son, 6-bet) [5]

2. Men esam har kuni Modarxudo (Bogomater) yoki Richmondda odamlarning asfalasofilinga jo‘nayotganini ko‘raman (10-b)

3. Talbot kitobni yozib, darsxaltasiga soldi. (26-b)

4. Qariqizlar Dublin fsqarolariga tez ta’sir qiluvchi xabdorilar hamda uchar yulduzlar hadya etishayotganday... (96-b)

5. Ular meni ishbuzarmon deyishgan (108-b)

6. Nega ular men yeb ko‘rgan anov narsani bobshteks deyishgan? Bobriylarmi? Mevagiylarmi? Sen xuddi romshteks yeyayotgandek bo‘lishing kerak. (112-b)

7. “Tashnakom” jismi yashirin junbushga kelib, u lolu hayron sevmoqni istardi. (114-b)

Yana qiyoslang: chalaqursoq yurtsevarlar (110-b) qaymoqli popuklar, ananas obakilar, shamolparraklar, zulmatxona, manqaldon va sh.k. Tarjimon mahorati nafaqat yasama substantiv, atributiv, kompozitiv so‘z-leksemalar, balki fe’l shakllarining noodatiy badiiy-ijodiy qo‘llanishida ham o‘z ifodasini topgan. Bu qahramonga xos holatlar talqinida yaqqol

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

namoyon bo‘ladi. Quyidagi matnlar tarkibidagi fe’llarning shakli, ma’nosi, uslubiy qo‘llanishiga e’tibor bering:

1. ...Shunda Ratlej kabinetining eshigi g‘ingshidi. (70-b)

2. Shu tariqa Mister Blum ahvolni cho‘tlab, botinmaygina jilmayib turarkan, muharrir odatdagiday qiytonglagan yurishini qilib nari jo‘nadi. (95-b).

Anglashilib turganidek, tarjimon milliy so‘z-leksema hisoblangan o‘zbekcha mimemaning matniy qo‘llanishiga, xoslanishiga ijodiy yondashib, hayvonlar harakatiga xos fe’l shaklini aniq-narsa predmet harakatiga o‘xshatib, ma’noni ko‘chirgan va bu lingvo-uslubiy qo‘llanish juda o‘rinli chiqqan yoki fe’lning vid-tarz shakli ko‘rinishidagi “qiytonglagan” sifatdoshi ham “qiyshanglagan” formasiga andoza usulida hosil qilinib, qahramon harakatini yaqqol tasvirlash vositasiga aylantirilganki, bu intellektual yetuk kitobxonning saviyasiga mos, tahsiniga loyiq. Shu bilan birga, mukammal g‘oya, original shakl, anchayin murakkab uslubi bilan yuksak saviyadagi kitobxonlarning diqqatini tortgan asarning o‘zbekona hissiy ta’sir kuchini ham oshirgan. Tarjimaning muvaffaqiyati yana shundaki, unda o‘zbek o‘quvchi-kitobxonini o‘z sehriga, so‘z sehriga torta oladigan bunday individual yaratiqlar, ijobiy, ijodiy-uslubiy qo‘llanishlar bisyor. Ularning o‘rinli, xilma-xil stilistik maqsadlarda qo‘llanilishini monografik tarzda maxsus o‘rganish kelgusining ishidir.

Xulosa o‘rnida O‘zbekistonda tarjima sohasini yanada rivojlantirish uchun ba’zi takliflarimizni ham bayon qilmoqchimiz. Kuzatishimizcha, xorijda tarjima asarlarini nashr etuvchi kamsonli nashriyotlarda mualliflar va tarjimonlarga to‘lanadigan qalam haqi yuqoriligiga qaramay, noshirlarni himoya qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Shunday munosabat tufaylimi, buyurtmalarning kamligi sababmi, badiiy tarjima bo‘yicha mutaxassislarning soni ham kamday. Noshirlik bilan bog‘liq bu hol yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan hisoblanib, uning ijobiy yechimi O‘zbekistonning kelajakda sifatli adabiy mahsulot chiqaruvchi mamlakatlardan biriga aylantirilishi, ya’ni davlat dasturlari talablariga muvofiq munosib kadrlar yetishishi bilan bog‘liq, albatta.

Xorijiy asarlarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi borasida bugungi O‘zbekistonda I.G‘afurov, J.Kamol, N.Otaboyev, A.Fayzulla, M.Ahmad

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

singari yuksak salohiyatli tarjimonlar borligi behad quvontiradi. Lekin badiiy tarjima sohasida yosh mualliflar – tarjimonlarning kamligi, buning esa kechiktirib bo‘lmaydigan masalalardan ekanligi sir emas.

Badiiy tarjimani rivojlantirish uchun DTSga binoan yoppasiga o‘rganilishi zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy vazifalarni amaliyotga joriy qilish, bilingv tarjimonlarni (o‘zbek-rus, rus-o‘zbek, o‘zbek-ingliz, ingliz-o‘zbek kabi...) tayyorlash, shu yo‘nalishga ixtisoslashgan nashriyotlarni ko‘paytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, tarjima qilinayotgan badiiy asarlarning monitoringini olib borish kabi ishlar yanada yaxshi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti namunalarini tarjima qiluvchi xorijlik tarjimonlarning yurtimiz bilan tanishishiga, malaka oshirishiga imkoniyat yaratilsa, tarjimonlar mehnatini kengroq miqyosda ma’naviy va moddiy jihatdan mukofot va grantlar vositasida rag‘batlantirishga yanada e’tibor qaratilsa, bu faoliyatning haqiqiy ijodiy faoliyat bilan teng qiymatli murakkab jarayon ekanligining tan olinishiga erishilsa ayni muddao bo‘lardi.

Shu maqsadda uzoq va yaqin xorijlik tarjimonlarning malakasini, kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli ijodiy rejalarni ishlab chiqish, ularning ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz. Mazkur faoliyatga daxldor nazariy va amaliy ishlanmalar sirasini ko‘paytirish, nashrini tezlashtirish va bu yo‘nalishda elektron va bosma OAVlaridan unumli foydalanish zarur.Bu o‘z-o‘zidan O‘zbekiston kitob palatasi va O‘zbekiston davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda ishlashni, xorijiy tillarga o‘girilishi zarur bo‘lgan o‘zbekcha badiiy asarlar va aksincha, o‘zbek tiliga o‘girish lozim bo‘lgan xorijiy badiiy asarlar ro‘yxatining elektron bazasini yaratishni taqozo etadi.

Ba’zi qo‘shni davlatlardagi kabi badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan “tarjima instituti”ga o‘xshash tashkilot ta’sis etilsa, O‘zbekistonda tarjimonlik sohasining tarixi, buguni va ertasi haqida turli tildagi ma’lumotlarni muntazam berib boruvchi veb-saytlar ochilsa, yuksak mahoratli tarjimonlarning ijodiy faoliyatiga har tomonlama yordam ko‘rsatilsa, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o‘qitilayotgan tarjima va tarjimashunoslikka oid fanlarni madaniyatshunoslik fanlari bilan muvofiqlashtirilib ta’lim berilsa

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

millatlararo nurko‘prik sanalgan tarjimaning, ijodkor tarjimonning intellektual madaniyat targ‘ibotchisiga aylanishi shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov.I.A. “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch”. -Toshkent, 2008, 83-bet.
2. Toshaliyev I. Ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi. Ma’ruzalar matni. -T.: O‘zMU, 2001, 14-15-betlar; Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Zarqalam” nashriyoti, 2006.
3. Toshaliyev I., Holiqova M. Tarjimaning asliyatga aynanligi muammosi. Qarang: “Istiqlol va til”-O‘z DJTU ilmiy-amaliy anjumani materiallari, -T.: 2004, 6-9-betlar
4. Ibrohim G‘afur. Tugamaydigan o‘qish.-“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 1991, 15-noyabr
5. Mahmudova S.I. So‘z yaratish san’ati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.: TDSI nashriyoti, 2003, 10-bet
6. Barcha matniy misollar “Jahon adabiyoti” jurnalining mazkur sonidan olingan.
7. Ochilov, E. (2014). Translation theory. Tashkent: Institute of Oriental Studies.
8. Usmanova, S. R., & Ismatullayeva, N. R. (2020). Expression Of Lacunas In Comparative Study Of Kinship Terms In Chinese And Uzbek Languages. Solid State Technology, 63(6), 4974-4985.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# EKVIVALENTLIK ADEKVATLIKNING BOSH MEZONI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-146-152

Filol.f.n. **Dilfuza XATAMOVA**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998974119640;
xatamova@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ekvivalentlik va adekvatlik tarjimashunoslikning tayanch tushunchalari ekan, ushbu tushunchalar avvalo, tarjima nazariyasi, qolaversa lingvistika va adabiyotshunoslikning ham eng dolzarb, ma’no qamrovi jihatidan chegaralariga aniqlik kiritish zarur bo‘lgan tushunchalaridandir. Birinchidan, tarjimashunoslikka oid nazariy tushunchalar ma’no qamrovi tarjima nazariyasining predmeti bo‘lsa, ikkinchidan, uning izohi lingvistikaga, sharhi estetik mohiyat nuqtai nazardan adabiyotshunoslikka borib taqaladi.*

**Kalit so‘zlar**: *ekvivalentlik, adekvatlik, sinonimlik, muvofiqlik, invariantlik*

**Аннотация.** *Поскольку эквивалентность и адекватность являются базовыми понятиями переводоведения, то эти понятия являются прежде всего понятиями теории перевода, а также языкознания и литературоведения, которые нуждаются в уточнении своих границ в смысловом отношении. Во-первых, теоретические понятия переводоведения составляют предмет теории перевода, во-вторых, его объяснение восходит к языкознанию, а его рассмотрение восходит к литературоведению с точки зрения эстетической сущности.*

**Ключевые слова**: *эквивалентность, адекватность, синонимия, совместимость, инвариантность.*

**Abstract.** *Since equivalence and adequacy are the basic concepts of translation studies, these concepts are first of all the concepts of translation theory, and also of linguistics and literary studies, which need to clarify their boundaries in terms of meaning. Firstly, the theoretical concepts of translation studies are the subject of translation theory, and secondly, its explanation goes back to linguistics, and its review goes back to literary studies from the point of view of aesthetic essence.*

**Key words**: *equivalence, adequacy, synonymy, compatibility, invariance*

Ekvivalentlik va adekvatlik terminlari olimlar tarafidan ba’zan sinonim, ba’zan ma’no jihatidan tarjimashunoslikning ikki omilini anglatadigan tayanch tushunchalar sifatida ishlatiladi. Masalan, R. Leviskiyning [2, 75] “Funksional adekvat tarjimaning prinsiplari haqida”

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

degan maqolasida ekvivalentlik va adekvatlik terminlarini sinonim sifatida, Dj.Ketford ekvivalent tarjima – adekvat tarjima deb ishlatadilar. Komissarov, aksincha, bu ikki tushunchani bir biriga qarama qarshi qo‘yib, adekvat tarjimaning ma’no qamrovi kengroqligini ta’kidlaydi. Ekvivalentlik, olimning fikriga ko‘ra, nutq yoki til birligining umumiy ma’noligida namoyon bo‘ladi. K.Rays va G. Vermer adekvatlikka ta’rif berar ekan, uning pragmatik omilidan kelib chiqib, maqsad sari yo‘naltiriladi degan fikrni beradi. Ekvivalentlik ularning fikricha matnlararo to‘liq muvofiqlikni nazarda tutadi. Adekvatlik va adekvat terminlari tarjimada jarayon sifatida namoyon bo‘lsa, ekvivalentlik va ekvivalent madaniyatlararo ikki matn orasidagi munosabatni bildirib, o‘xshash kommunikativ funksiyalarni amalga oshiradi. Yuqoridagi olimlarning fikricha ekvivalentlik nafaqat nutq birliklari, balki matnlararo munosabatni ham o‘z ichiga oladi va matn ekvivalentligi uning har bir segmentining ekvivalentligini nazarda tutmasligi mumkin. Bu nuqtai nazar, albatta, yuqorida keltirib o‘tgan Komissarov fikriga qarama qarshi qo‘yilayapdi. Til birliklari orasidagi munosabat til tizimi konteksti nuqtai nazaridan uning paradigmatik aloqalari inobatga olingan holda kontrastiv lingvistika o‘rganish predmetiga aylanib ketadi. L.S. Barxudarov “So‘zning kontekstual ma’nosi va tarjima” nomli maqolasida tarjimada so‘zning ekvivalenti kontekst bilan bog‘liqligini ta’kidlab, bu holda so‘zning ma’nosi lo‘g‘aviy ma’no bilan farq qilishi mumkin degan xulosaga keladi.

Ekvivalentlik invariantlik tushunchasi bilan ham bog‘liq. Tarjima qilinayotgan matnning kommunikativ effekti tarjima matnining har bir bosqich nuqtai nazaridan muvofiq bo‘lishi kerak. Semitik bosqichlarni qamrab olgan funksional turlari ekvivalentlikni ta’minlab beradi. Agar semiotik bosqichlarni ma’lum bir qismini qamragan bo‘lsa qisman ekvivalentlik haqida gap boradi. Garchi hamma semiotik bosqichlarni qamrab olgan bo‘lsa u holda to‘liq ekvivalentlik haqida gap yuritishimiz mumkin. Demak, ekvivalentlik ikki matn orasidagi munosabat. Bu borada adekvatlik bilan ekvivalentlik orasidagi farq mafhumdir.

Bu borada Komissarovni fikriga qo‘shilgan holda, matn ichra ekvivalentlik til yoki nutq birligiga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘lsa, adekvatlik matnlararo tenglilikni nazarda tutadi degan xulosaga kelamiz.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Mana shu vaziyatdagina tarjimashunoslikning ikki tayanch tushunchasi orasidagi mavhumlikka qisman bo‘lsa xam barxam beriladi. Quyida keltiradigan qarashlar shu xulosamizni tasdiqlashga qaratilgan.

Terminlar talqini nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak bu erda bizni termin va uning izohi ichidagi til birliklarining qanchalik muvofiq ya’ni ekvivalent bo‘la olishi keyingi bobimizning diqqat markazida bo‘ladi. Tarjima jarayonida tarjima qilinayotgan tilda aynan termin ma’no qamrovini ifoda qila oladigan so‘zni topish, uni leksik jihatdan mansubligini inobatga olish kerak bo‘ladi.

Yakobsoning fikricha: «Там, где отсутствует понятие или слово, можно разнообразить и обогащать терминологию путем слов-заимствований, калек, неологизмов, семантических сдвигов и, наконец, с помощью парафраз» [6, 364]. Ya’ni, aynan so‘z yoki tushuncha mavjud bo‘lmasa, terminologiyani o‘zlashmalar, kalkalar, neologizmlar, semantik siljishlar va parafrazlar orqali boytish va kengaytirish mumkin degan xulosaga keladi. Muallif shuningdek, biron bir hodisani tarjimasida leksika orqali ham ifodalash mumkin deydi: “Отсутствие в языке перевода какого-либо грамматического явления отнюд не означает невозможности точной передачи всей понятийной информатsiи, содержащейся в оригинале”. Shveytser o‘z nazariy qarashlarida ekvivalentlik tushunchasini tarjimaning nazariy aspektlari va uning mohiyatini ochib berishda qo‘lladi. Bunga isbot qilib birinchi faslda ko‘rib chiqqan nazariy qarashlarni olishimiz mumkin. Tarjimashunoslik fanining rivojlanish davrlarining har bir bosqichi o‘zgacha fikr, mulohaza va qarashlar bilan ajralib turadi. Har bir davr tarjimaning mohiyatini belgilashda o‘z nazariy va amaliy bilimlaridan kelib chiqadi.

Masalan, Ya.I.Retskerning “Muvofiqlik nazariyasi”da ekvivalentlik tushunchasini matnlararo emas, matn ichidagi mikro birliklar munosabatiga nisbatan ishlatadi. Bunda Resker ekvivalent deganda matnga bog‘lanmagan doimiy bir tushunchani belgilagan [4, 10-11]. Agar matn bilan bog‘liq bo‘lsa demak u “variativ muvofiqlik”dir deb ta’kidlaydi. Bu erda Komissarov bilan Resker fikrlarining kesishma nuqtalari borligini kuzatib, biri ekvivalentni matn bilan bog‘lasa, ikkinchisi matn bilan bog‘lanmagan barqaror bir tushuncha deb belgilaydi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ekvivalentlik variativ muvofiqlik bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu tushunchalarni ajratish zaruriyati leksikografik omillardan kelib chiqqan deyish mumkin. Chunki, tarjimon uchun “qisman ekvivalent” va “variativ muvofiqlik” orasidagi farq prinsipial emas. Masalan, ingliz tilidagi novella terminiga rus tilida rasskaz, turk tilida oyku, o‘zbek tilida esa hikoya deb olishimiz mumkin. Bu terminlar bir tarafdan bir biriga to‘liq mos emas, balki qisman ekvivalentdir.

Dj. Ketford tarjima talablariga aniqlik kiritayotib “Для того, чтобы существовала переводческая эквивалентность, необходимо, чтобы как исходный, так и конечный тексты были бы соотносимы с функционально релевантными признаками данной ситуатsiи” [1, 94] deydi. Olim tomonidan funksional relevantlik belgilari matnning kommunikativ funksiyasi nuqtai nazaridan muhim. Funksional relevantlik keng ekstralingvistik kontekstda shaklanib, intuitsiyaga asoslangan bo‘ladi.

Ketfordning tarjima ta’rifida asosiy mezon – vaziyat. Huddi shu somativ yo‘nalishni olim tomonidan ekvivalentga bergan talqinida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu borada biz R. Leviskiyni "поскольку свойства ситуатsiи не подлежат научному описанию, теории перевода остается заняться только межъязыковыми закономерностями, которые прослеживаются на пути от оригинала к переводу. Такая позиция приводит, в частности, к введению понятия – перевода на одном, избранном уровне языка" [2, 75] degan fikriga tuliq qo‘shilamiz.

Yu.Naydaning konsepsiyasi "dinamik ekvivalentlik" bo‘lib, ekvivalentlikda semantik yondashuvga asoslangan. Olim ikki matn orasidagi semantik uxshashlikni ekvivalentlikni etarli mezoni deb hisoblaydi: "Динамическая эквивалентност – качество перевода, при котором смысловое содержание оригинала передается на языке-рецепторе и таким образом, что реакция (респонсе) рецептора перевода в основном подобна реаксии исходных рецепторов" [3,202]. Demak, olim qarashining zaminida retsepient original matn va tarjima matnidan oladigan ta’siri bir xil bo‘lsa, aynan shu ekvivalentlikning asosiy mezonidir deb xisoblaydi. Nayda bunda nafaqat mazmuniy mufoqlik, balki emotiv xolatni xam inobatga oladi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Shunday qilib, ekvivalentlikda pragmatik ulcham, ya'ni tarjimani retsepient tomonidan qabul qilish reaksiyasi asosiy omiligini nazarda tutadi. "Dinamik ekvivalentlik" "formal muvofiqlikga" qarshi quyilib, dinamik ekvivalentlikda Yu.Nayda yana bir mezon kommunikativ vaziyatni inobatga oladi. Dj. Ketford uchun ekvivalentlikning yagona va asosiy mezoni semantik mazmun bo'lsa, Nayda uchun kommunikativ vaziyatdir. Kommunikativ ekvivalentlik G. Yeger tomonidan ikki matn orasidagi munosabat bo'lib, kommunikativ mohiyati tengligidadir deb sharxlaydi. Boshqacha qilib aytganda retsepientda bir xil kommunikativ effekt ug'otish kerak. Kommunikativ effekt degada adresatga ma'lum bir mazmuni etkazish nazarda tutiladi. G.Yeger talqini shunisi bilan ahamiyatliki, u matni tarjimaning eng asosiy kategoriyasi sifatida oladi. Olim "ekvivalent" va "invariant" tushunchalarini bog'liqligiga xam ahamiyat beradi.

V.Koller ekvivalentlik tushunchasini ma'no qamrovi ikki matn orasidagi ekvivalent munosabatlar turi aniqlangandagina belgilanadi deb ta'kidlaydi. Ekvivalentlik turi esa tarjimani maqsadi bilan aniqlanadi.

V. Koller [5, 186] ekvivalentlikni beshta turga bo'ladi:

1) denotativ – mazmuni saqlab qolish ya'ni invariant mazmun;

2) konnotativ – stilistik ekvivalentlik, o'z ichiga semantik xamda stilistik funksiyalarni qamrab oladi;

3) tekstual-normativ, matning janr xususiyatlari, nutqiy va til qonuniyatlariga yunaltirilgan;

4) Pragmatik-maqsadli

5) formal, matning badiiy-estetik, individual xususiyatlarini ochib berishga yunaltirilgan tarjima.

Koller bu tasnifi bilan tarjima jarayoni naqadar keng va serqiraligi, yuklangan vazifalar turliligini ochib beradi. V. Koller ekvivalentlik deskreptiv tushuncha emas normativligini isbotlab beradi.

Otto Kade ilk ishlarida tarjimada ekvivalentlik ikki matn orasidagi invariant mazmunga nisbatan aytiladi deb ta'kidlaydi. Keyinchalik kommunikativ funksiya Kade uchun xam birlamchi mezonga aylandi.

O. Kade ekvivalentlik mezonlarini aniqlar ekan:

- birlamchi konkret kommunikativ vaziyatda tarjima matnini keng qamrovli ta'sir ko'chiga e'tibor berilishi;

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

- matnda kommunikativ birliklar – makrobelgilarni ajratib, ularning o‘zaro semantik munosabati matn mazmunini tashkil qilishini;

- kommunikant mazmuni bu ma’no, uning shakliy makrobelgilarni, ya’ni til birliklarini mazmuniy ketma ketligiga nisbatan aytilishi;

- matn kommunikat sifatida o‘z ichiga ko‘proq axborot qamrab olish xususiyatiga egaligi;

- ma’no va mazmun orasida regulyar munosabat borligini ta’kidlab, teng ma’no turli vaziyatda turli ma’no bildirishi, birxil vaziyatda teng mazmunligni ifoda qilishini ko‘rsatishi;

- tarjimani mohiyati kommunikantlarni almashuvida bilib, axborot etkazishda aynan kommunikatlar xisoblanishi;

- tarjimada bir til belgilari boshqa til belgilari bilan almashinishi ekvivalent kommunikatlar paydo bo‘lishiga olib kelishini sharhi;

- tarjimada ekvivalent kommunikat yaratishda original matn o‘zgaradi va tarjimada ekvivalentlik ma’no qamrovini kengayishiga olib kelishini ochib berilishlarni va yuqorida ko‘rsatib utilgan omilarni ketma ket ko‘rsatib utadi.

K.Rays va Gans Vermeer skopos nazariyasida ekvivalentlik tarjima uslubiga emas, balki uning natijasiga nisbatan aytiladi deb ta’kidlaydi.

Xaqiqatdan xam tarjimada ekvivalent uslub bilan tarjima qilinmaydi, balki natija sifatida namoyon bo‘ladi va adekvat tarjima matniga aylanadi. Ekvivalent tarjimani ta’riflar ekan olimlar adekvat tarjima talqini aniqlashtirib berdilar. Demak, ekvivalentlik tarjima maxsuli bo‘lib, original va tarjima matning bir biriga nisbatan funksional muvofiqligidadir.

Xulosa qilib aytganda, ekvivalent tarjima asliyat mazmu-nini o‘zga tilga vazifaviy-uslubiy jihatdan to‘la-to‘kis talqin etishdan iborat jarayondir. Buning ma’nosi shuki, til belgilari yigindieidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Дж.Кэтфорд С. Лингвистическая теория перевода (A Linguistic Theory of Translation). – Москва. 2004.
2. Левицкий Р. “О принципе функционалной адекватности перевода”. – Москва. 1984.
3. Nida, Taber. The teory and practice of translation. – London. 1969
4. Рецкер. Теория перевода и переводческая практика. – Москва. 1974.
5. Werner Koller. “The concept of equilanes and the object of translation” 1936.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

6. Якобсон Р.О. Работы по поэтике. – Москва. 1987.
7. Fatxutdinova, I. A. (2021). TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING MULOQOT MAQSADINI IFODALASH VOSITALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 2), 140-149.
8. Насирова, С. А. (2022). НЕОЛОГИЗМЫ–ИДЕОЛОГЕМЫ В КАЧЕСТВЕ ПРОВОДНИКОВ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ (на примере общественно-политической терминологии современного китайского языка. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 27), 6-15.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ANALYSIS ON THE TRANSLATION METHODS OF CHINESE PROPER NOUNS IN UZBEK

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-153-157

**Ma XUEMEI**,
Associate Professor, Urumchi, Xitoy /
Toshkent, O'zbekiston
Tel:+998933209669,
maxuemei718@sina.cn

**Аннотация.** *Ushbu maqolada Xitoy tilidagi atoqli otlarni misol qilib olib, xitoy tilidagi atoqli otlarni o'zbek tiliga tarjima qilish usuli tahlil qilingan. Xitoy tilidagi atoqli otlarni o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlariga asosan quyidagilar kiradi:1.Transliteratsiya;2.So'zma-so'z tarjima; 3. Erkin tarjima; 4. Transliteratsiya + so'zma-so'z tarjima yoki erkin tarjima.*

**Калит сўзлар:** *xitoycha, o'zbekcha; shaxs ismlari; joy nomlari; kino nomlari.*

**Аннотация.** *На примере китайских имён собственных в данной статье исследуется метод перевода китайских имён собственных на узбекский язык. К особенностям перевода китайских имен собственных на узбекский язык в основном относятся следующие: 1. Транслитерация, 2. Дословный перевод, 3. Свободный перевод, 4. Транслитерация + дословный перевод или вольный перевод.*

**Ключевые слова:** *китайский язык, узбекский язык, личные имена, топонимы, названия фильмов.*

**Abstract.** *The article takes Chinese proper nouns as examples to explore the method of translating Chinesepr oper nouns into Uzbek. The characteristics of the translation of Chinese proper nouns into Uzbek mainly include the following: 1. Transliteration; 2. Literal translation; 3. Free translation; 4. Transliteration + literal translation or free translation.*

**Keywords:** *Chinese; Uzbek; personal names; place names; film titles.*

Proper nouns in Chinese refer to the proper names of specific people, things, places or organizations. Almost all classification systems of different genres have categories of proper nouns. In the early classification of Chinese nouns, names such as "real name", "proper noun" and "proper name" appeared. Mr. Zhao Yuanren analyzed "proper names" as a category independent of nouns. In later classifications, they are called proper nouns.

Proper nouns are generally divided into names of person, places,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

mechanism, rivers, lakes and seas, book titles, movies or specific names of a certain thing, etc. Different classes of proper nouns are translated in slightly different ways in Uzbek.

**1. Translation of person's name**

Name, as one of the lineages of Chinese name culture, is a social and humanistic symbol based on blood inheritance. In 2020, names such as "Wang", "Li", "Zhang", "Liu" and "Chen" are listed in the top five41 . Chinese names are divided into two parts, the surname and the given name. The surname comes first and the first name comes after. Most of the surnames are one Chinese character, a few are two Chinese characters, and surnames with more than one Chinese character are called compound surnames. Such as Ouyang, Sima, Shangguan and so on. Compound surname refers to a surname composed of two or more Chinese characters, which is a special branch of Chinese surnames. Currently, "Ouyang" is the most common compound surname .There are two Chinese characters in the name, and there is also a Chinese character.

When translating Chinese names, Uzbek adopts the transliteration method. The surname and first name are written separately, separated by one character, the first letter of the surname should be capitalized, and the first letter of the first name should be capitalized. E.g:

| | |
|---|---|
| 李白 | Li Bay |
| 张衡 | Chjan Xen |
| 莫言 | Mo Yan |
| 吴京 | Vu Jing |
| 鲁迅 | Lu Shun |
| 张文宏 | Chjan Venxon |
| 邓稼先 | Deng Jiaxian |
| 诸葛亮 | Juge Liang |
| 东方朔 | Dongfang Shuo |
| 上官婉儿 | Shangguan Van'er |

There are also some Chinese names whose translations in Uzbek do not conform to the above-mentioned rules. Instead of simply translating them according to the Chinese pinyin, they have already been established and become proper nouns. For example, "Ma Yun" is generally translated as Jek Ma in Uzbek, Jek is his English name, Ma is his surname; "Jackie

[1] 《二〇二〇年全国姓名报告》发布，http://www.gov.cn/xinwen/2021-02/08/content_5585906.htm.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Chan" is generally translated as Jek Chan, Jek is his English name, Chen is his surname; "Li Xiaolong" is translated as Bryus Li, Bryus is his English name, and Li is his surname;

**2. Translation of place names**

From the perspective of toponymy, place names have proper names and common names. Proper names refer to a specific place, such as "Beijing, Shanghai, Chongqing", and generic names refer to a class of places in general, such as "city, river, mountain" and so on. When translating place names without common names, transliteration is generally adopted. E.g:

| | |
|---|---|
| 北京(市) | **Pekin（shahar（** |
| 上海(市) | **Shangxai（shahar（** |
| 西安(市) | **Si'an（shahar（** |

When translating a place name with a common name, if the proper name is a monosyllabic word, the general name will become a proper name, such as: mountains, rivers, rivers, lakes, islands, etc. When translating, first transliterate the whole word, and then directly translate the common name to form a special name. name as a whole. E.g:

| | |
|---|---|
| 长江 | **Yanszi daryosi** |
| 黄河 | **Xuanxe daryosi** |
| 华山 | **Huashan togi** |
| 太行山 | **Tayxanshan tog'i** |

If the proper name is not a monosyllabic word and the general name is a component of the proper name, the proper name is transliterated and the general name is literally translated. E.g:

| | |
|---|---|
| 天津市 | Tyantszin (Tianjin) shahri |
| 山东省 | Shandong provinsiyasi |
| 若羌县 | Ruochiang uyezd |
| 南湖乡 | Nanxu volost |
| 海南岛 | Xaynan oroli |
| 武当山 | **Udan tog'i** |
| 卢沟桥 | **Lugou ko'prigi** |

**3. Translation of names of institutions, groups, countries, and political parties**

The names of institutions, groups, countries, and political parties generally require literal translation. E.g:

| | |
|---|---|
| 共青团 | Kommunistik yoshlar ittifoqi |

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

| | |
|---|---|
| 中国共产党 | Xitoy Kommunistik partiyasi |
| 外交部 | T **ashqiI shlarVazirligi** |
| 派出所 | Militsiya idorasi |
| 中华人民共和国 | Xitoy Xalq Respublikasi |

Some require a combination of transliteration and literal translation. The translation features are transliteration of proper names and literal translation of common names. like:

| | |
|---|---|
| 雷神山医院 | Leishenshan Shifoxonasi(kasalxonasi) |
| 北京大学 | **PekinUniversiteti** |
| 复旦大学 | Fudan **Universiteti** |
| 华为技术有限公司 | Huawei Technologies Co., Ltd |
| 中山银行 | **Jongshan banki** |

**4. Translation of book titles, TV series and movie titles**

Titles of books, TV dramas and movies generally use literal translation, for example:

| | |
|---|---|
| 茶馆 | **Choyxona** |
| 急先锋 | Avangard |
| 都挺好 | Hammasi juda yaxshi |
| 亲爱的翻译官 | Qadrli tarjimon |

Some can also be transliterated + free translation or transliterated + literal translation. E.g:

| | |
|---|---|
| 哪吒之魔童降世 | **NEJA: Iblisning yaralishi** |
| 中南海保镖 | **P**ekinlik tansoqchi |
| 少林寺 | **Shaolin ibodatxonasi** |
| 功夫熊猫 | **Kungfu Panda** |

Some use transliteration, for example:

| | |
|---|---|
| 黄飞鸿 | **Huang Feyxon** |

Some use free translation, for example:

| | |
|---|---|
| 倚天屠龙记 | Yangi kung-fu ustozi |
| 叶问 | **Ip Man** |
| 怒火・重案 | **Chorraxadagi to‘qnashuv \| Alanga og‘ushida** |

To sum up, when translating Chinese proper nouns into Uzbek, based on the consideration of different factors, flexible and diverse translation

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

methods are adopted, which can better convey the connotation of the source language and achieve the purpose of communication. However, there are also some problems. For example, the surnames such as "Zhang（张）" "Jin（金）" are usually translated as "Chjan" and "Tszin" according to the Russian translation method. This translation method does not conform to the pronunciation characteristics of Uzbek, it will be better if it is translated as "jang"“Jin”.In addition, there is another problem: there are multiple translation methods for some names of person and places. for example:

| Chinese | Existing translation methods1 | Existing translation methods 2 | Existing translation methods 3 |
|---|---|---|---|
| wǔ dāng shān ,武 ,当 ,山 | Udan Tog’i | Vudan Tog’i | |
| wǔ hàn ,武 ,汉 | Wuhan | Vuxan | |
| 育才中学 | Yusai o'rta maktabi | Yusayo'rta maktabi | |
| xí jìn píng ,习 ,近 ,平 | Si Jinping | Shi Jinping | Si Szinpin |
| zhōng shān ,中 ,山(银行,市) | Jong shan | Zhongshan | Chjunshan |
| guǎng dōng ,广 ,东 | Guang Tong | Guangdong | Guandun |
| shàng hǎi ,上 ,海 | Shanxay | Shanghai | |
| qīng hǎi ,青 ,海 | sinxay | Chinxay | |

**References:**

1. 《二〇二〇年全国姓名报告》发布, http://www.gov.cn/xinwen/2021-02/08/content_5585906.htm.
2. https://t.me/+CwYI-ZT6eo1jZDUy.
3. 沈渭菊，段慧敏.《阿甘正传》专有名词典故的字幕翻译[J].兰州交通大学学报. 2018,37(01).[4] –张敬仪.汉维-维汉翻译理论与技巧［M］.北京：民族出版社2004.
4. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 196-202.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# SHARQ TILLARI TIPOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-158-162

PhD. **Kamola RAXMATJONOVA**,
TDShU o‘qituvchisi.
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998909926859;
mohisuji7590@gmail.com

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada lingvistik tipologiyaning tilshunoslikdagi o‘rni, zamonaviy tillar tipologiyasining ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, lingvistik tipologiyada tillarning o‘zaro umumiy va xususiy belgilari o‘rganilishi, lingvistik tipologiyadagi asosiy uslublar haqidagi nazariyalar keltiriladi. Sharq tillarini tipologik tahlil qilganda uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimi keltiriladi.*

**Tayanch so‘zlar**: *Lingvistik tipologiya, diaxron, sinxron, qiyosiy-tarixiy metod, morfologik, genetik.*

**Аннотация**: *В данной статье говорится о месте лингвистической типологии в языкознании, значении типологии современных языков. Также приводятся теории об изучении общих и специфических черт языков в лингвистической типологии, основные методы в лингвистической типологии. Представлены основные проблемы, возникшие при типологическом анализе восточных языков, и пути их решения.*

**Ключевые слова**: *Лингвистическая типология, диахронический, синхронический, сравнительно-исторический метод, генетический.*

**Abstract.** *The article considers of the role of linguistic typology in linguistics, its interrelationship with other disciplines, and the importance of typology of modern languages. Also, theories about the study of common and specific features of languages in linguistic typology, the main methods in linguistic typology are presented. The main problems encountered in the typological analysis of Eastern languages and their solutions are presented.*

**Key words**: *Linguistic typology, diachronic, synchronic, comparative-historical method, primary language, morphological, genetic.*

Inson turli tillarni eshitganda yoki o‘rganganda ularda asosan ikki jihatdan, ya’ni tashqi o‘xshashlik va so‘zlarning grammatik tuzilishi, negiz yasalishi, gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usulida o‘xshashlik borligini sezadi. Tillarni turlarga ajratish jarayonida genetik, morfologik va struktural tasniflashga ahamiyat beriladi. Tillarning genetik munosabatidan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qat'iy nazar ular orasidagi o'zaro yaqinlashtiruvchi hamda uzoqlashtiruvchi til faktlarini lingvistik tipologiya o'rganadi. O'z navbatida lingvistik tipologiya chog'ishtirma hamda qiyosiy tipologiyaga ajratiladi. Bu hodisa tillarning qardosh yoki qardosh bo'lmaganligi bilan bog'liq.

Zamonaviy lingvistik adabiyotlar ko'rsatadiki, lingvistik tipologiya dastavval g'arbda F.Shlegel asarlaridan boshlangan. Keyinchalik tillar tipologiyasi bo'yicha A.V.Shlegel, V.Gumbolt, X.Shteyntal, A.Shleyxer, E.Sepir, V.Skalichka, A.Martine, F.F.Fortunatov, I.I.Meshchaninov, B.Uspenskiy, Yu.V.Rojdestvenskiy, V.N.Yarseva va boshqalar tadqiqot olib borganlar [42]. Biroq Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka oid qarashlari o'rganilganda, ularning aksariyat asarlarida lingvistik tipologiya bilan bog'liq ko'plab ilmiy-lingvistik ma'lumotlar kuzatildi. Jumladan, IX –XV asrlarda Markaziy Osiyo hududida yashab ijod etgan allomalar Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning dastlabki shakllari ko'zga tashlanadi [43]. Bunday chalkash ta'limotning sababi bu allomalarning asarlari bilan yevropa olimlari XIX asrlarga kelib yaqindan tanishishga muvaffaq bo'lgan bo'lishi mumkin.

Tillarning tipologik nazariyasini o'rganish murakkab jarayondir. Buning uchun tilshunosdan kuchli mahorat va bir necha tillarni nazariy jihatdan yaxshi o'zlashtirish talab etiladi. Lingvistik tipologiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ikki tizimga mansub bo'lgan tillar barcha sathlarda o'zaro chog'ishtiriladi. Tillarning o'ziga xos xususiyatlari va tillarni yaqinlashtiruvchi belgilari aniqlanadi.

Lingvistik tipologiya tillar o'rtasidagi genetik munosabatlardan qat'iy nazar, ularning struktur va funksional xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasidir. Ilmiy jihatdan lingvistik tipologiya tillardagi yaqinlashtiruvchi va uzoqlashtiruvchi til faktlarini guruhlarga, andozalarga, tiplarga ajratish yo'li bilan tadqiq etish metodi hisoblanadi. Ko'ridaniki, tipologiya bir tomondan, tillarni tasnif qilishning umumiy nazariyalari, qonun-qoidalari va usullarini o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, u til

[42] Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б.283, Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков.В.кн.: Типология грамматический категорий. – Москва, Мещаниновские чтения.1975.
[43]

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

sistemasi birliklarini umumiy belgisi, xususiyati asosida tasnif qilish bilan shug‘ullanadi.

Qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish va tushunishga bo‘lgan intilish tilshunoslikda alohida soha, yo‘nalish sifatida tan olingan mazkur lingvistik tipologiyaning maydonga kelishiga sabab bo‘ldi. Tilshunoslikda tipologiyaning rivojlanishi o‘zaro qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarni yaxshi o‘zlashtirishda samaralidir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda A. Abduazizov, J. Bo‘ronov, Q. Toymetov, M.Irisqulov kabi olimlar tipologiya masalalari bilan shug‘ullanganlar[44]. Tillarni chog‘ishtirma o‘rganish tarjima, lingvofalsafiy, lingvodidaktik va nazariy masalalarni o‘rganishni maqsad qilib oladi.

Chet tilini shu jumladan sharq tillarini o‘rganish murakkab lingvopsixologik hodisadir. Chet tilini o‘rganish chog‘ida o‘rganuvchi ongida ona tili va o‘rganilayotgan til sistemalari to‘qnashadi. O‘rganuvchining ona tili yangi til sistemasini o‘zlashtirishni osonlashtiradi yoki aksincha, uning yo‘liga to‘siq bo‘ladi. Tilshunoslikda birinchi hodisa, ya’ni muayyan tilni o‘rganayotganda o‘z ona tili bilan solishtirish jarayonida osonlik vujudga kelishi fasilitatsiya[45] (inglizcha facilitate “yordam berish, osonlashtirish, hissa qo‘shish” ma’nolarini bildiradi) deyiladi. Aksincha, ona tilining o‘rganilayotgan tilni o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilishi interferensiya[46], ya’ni lotincha interferens, inter – o‘rtasida + -ferens – olib o‘tish, ko‘chirish) – tilshunoslikda bir tilning boshqa tilga ta’siri oqibatini bildiradi, boshqacha aytganda, yozma yoki og‘zaki nutqda bir til normalarini boshqa tilda qo‘llash terminlari bilan ifodalangan.

Zamonaviy sharq tillarini ona tili bilan tipologik jihatdan tadqiq etish tilshunoslikda nisbatan yangi sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohada o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammolar talaygina. Tillar nazariy maqsadlarda ham chog‘ishtirma o‘rganilishi mumkin. Bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik sathlari sistema tarzda

[44] Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б.283
[45] https://ru.wikipedia.org/
[46] Ўша сайт

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqlari jihatlari va ularning sabablari aniqlanadi[47].

Lingvistik tipologik tadqiqotda asosiy e’tibor til universaliyalariga qaratiladi va bu sohadagi eng muhim qismdir. Til universaliyalari barcha tillar tizimiga xos lingvistik kategoriyadir. Til universaliyalari, boshqacha aytganda, universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o‘rganadi. Demak, universalizm til qonuniyatlarining umumlashmasidir.

Genetik va tipologik jihatdan bir turga mansub tillar tipologiyasini qiyosiy tipologiya o‘rganadi. Bu holatda tadqiqot ob’ekti qardosh tillar bo‘lib, ularnig umumiyligi, xususiyligi hamda o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Tillarni chog‘ishtirma-tipologik o‘rganish – tanlangan tillarning kelib chiqish va rivojlanishi, struktur, semantik va funksiyaviy holatiga ko‘ra bir turga mansub yoki mansub emasligidan qat’iy nazar ulardagi o‘zaro o‘xshashlik va farqli jihatlarini aniqlashdir. Chog‘ishtirma-tipologik lingvistikada tillardagi o‘xshashlik va farqli jihatlar ularning bir tipga mansub yoki mansub emasliklariga bog‘liq bo‘lmaydi.

Demak, sharq tillarini tipologik jihatdan o‘rganish biroz murakkabroq chog‘ishtirma jarayondir. Bunday holatda sharq tilini o‘rganuvchi dastavval ona tilining lisoniy xususiyatlarini, uning o‘zigagina xos jihatlarini aniqlab olishi bilan bir qatorda umumiy tilshunoslik nuqtai nazardan til universaliyalarini mukammal bilishi kerak. Bunday jarayondagi chog‘ishtiruv natijasida tillarning xususiy va umumiy xolatari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu hol esa o‘rganuvchining ongli ravishda o‘zlashtirish ko‘rsatgichini ortib borishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б.283,
2. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Т., 1979. – Б.37.
3. Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 178.
4. Общее языкознание. Методы лингвистических исследовании. – М.: Наука, 1973
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 том. – Т., 2000. – Б.496.
6. Юсупов О‘.Q. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Т., 1986.

[47] Юсупов Ў.Қ. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Т., 1986

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

7. Ярцева В.Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков. в.кн.: Типология грамматических категорий. – Москва, Мещаниновские чтения.1975.
8. Usmanova, S. (2022). The importance of nonverbal means in intercultural communication. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *12*(5), 1244-1252.
9. Shoira, U. (2018). The use of modern educational technologies in teaching foreign languages (on the example of English). *Образовательный процесс*, (1 (3)), 29-32.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). Issues on translation of character speech (on the example of korean-uzbek literature). *Международный журнал искусство слова,* 3(4).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ZAMONAVIY NASR VA SHE'RIY TARJIMA MUAMMOLARI

## UYG'ONAYOTGAN ADABIYOT
## (Afg'oniston o'zbeklari adabiyotiga doir)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-163-170

Filol.f.d. **Abdurahim MANNONOV**,
TDSHU professori,
Toshkent, O'zbekiston.
Tel: +998 98 1252265;
mannonova@gmail.com

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Afg'oniston hududida azaldan o'nlab iste'dodli shoir va adib o'zbek adabiyoti rivojiga hissa qo'shib kelganligi, ammo bu adabiyot umumo'zbek adabiyoti jarayonlaridan ajralib qolganligi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy omillar sabab pashtu va dariy adabiyotlari kabi yozma adabiyot sifatida keng rivoj topa olmagani, faqat XX asrning ikkinchi yarmiga kelib birmuncha jonlangani, o'zbek millatiga mansub ziyolilar orasidan yetishib chiqqan o'nlab shoir va adiblar, san'at va madaniyat arboblari yaratgan asarlar mahalliy o'zbek adabiyoti muhitini shakllantirib, asta-sekin taraqqiy etgani haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar**: *Afg'onistondagi o'zbek adabiyoti, umumo'zbek adabiyoti, pashtu va dariy adabiyotlari, g'azal, devon.*

**Аннотация**: *В данной статье речь идет о том, что десятки талантливых поэтов и писателей внесли свой вклад в развитие узбекской литературы на территории Афганистана. Однако данная литература была оторвана от процессов общеузбекской литературы, в силу социальных, политических и экономических факторов она не получила широкого развития как письменная литература пушту и дари. Она стала оживляться лишь во второй половине XX века. В это время произведения, созданные узбекскими поэтами и писателями, деятелями культуры, выросших в среде интеллигенции, принадлежащей к узбекской hatsiu.*

**Ключевые слова**: *Узбекская литература в Афганистане, общеузбекская литература, литература пушту и дари, газель, диван.*

**Abstract:** *The This article is about the fact that dozens of talented poets and writers have contributed to the development of Uzbek literature in Afghanistan. However, this literature was cut off from the processes of general Uzbek literature, due to social, political and economic factors, it did not receive wide development as written Pashto and Dari literature. It began to revive only in the second half of the*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*twentieth century. At this time, works created by Uzbek poets and writers, cultural figures who grew up among the intelligentsia belonging to the Uzbek nation.*

**Key words***: Uzbek literature in Afghanistan, all-Uzbek literature, Pashto and Dari literature, gazelle, divan.*

Afg‘oniston ko‘p millatli mamlakat. Unda yashovchi o‘zbek (turkiy)larning o‘z milliy tili va adabiyoti qadimdan mavjud bo‘lib, taraqqiy etgan. XIX asrgacha bu hududda mavjud bo‘lgan adabiyot umumo‘zbek adabiyotining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan. Lutfiy, Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Majlisiy, Xoja kabi adabiyot namoyandalarining ijodiy faoliyati umumo‘zbek adabiyoti tarkibida nafaqat O‘zbekistonda, balki Afg‘onistonda ham birdek sevilib o‘qiladi va qadrlanadi.

Siyosiy jarayonlar sabab chorizm bosqinidan keyin XIX asrdan boshlab Afg‘onistondagi o‘zbek adabiyoti asta-sekin umumo‘zbek adabiyotining katta o‘zanidan ajralib, mahalliy ya’ni afg‘on o‘zaniga o‘tishga majbur bo‘ldi va keyinchalik Afg‘onistondagi o‘zbek adabiyotini tashkil etgan holda, hududda alohida o‘z faoliyatini davom ettirishiga to‘g‘ri keldi. Shuning uchun ham "Afg‘onistondagi o‘zbek adabiyoti” yoki “Afg‘onistondagi o‘zbek she’riyati” iborasini aynan XX asrning boshlari, ya’ni Mustaqil Afg‘oniston davlati tashkil topgandan keyin paydo bo‘lgan hududdagi o‘zbek adabiyoti yoki she’riyatiga munosabatda qo‘llash joizdir.

Manbalarning guvohlik berishicha, bu mamlakat hududida azaldan o‘nlab iste’dodli shoir va adiblar o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shib kelganlar. Ammo bu adabiyot umumo‘zbek adabiyoti jarayonlaridan ajratib qolganligidan keyin, Afg‘onistondagi pashtu va dariy adabiyotlari kabi yozma adabiyot sifatida keng rivoj topa olmadi. Buning juda ko‘p ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillari bor. Lekin shunisi ham aniqki, Afg‘onistonda shakllangan mahalliy o‘zbek adabiyoti XX asrning ikkinchi yarmida birmuncha jonlandi va taraqqiyotga qarab yo‘l oldi. Shuningdek, o‘zbek millatiga mansub ziyolilar orasidan o‘nlab shoir va adiblar, san’at va madaniyat arboblari yetishib chiqa boshladilar. Ularning yaratgan asarlari, she’riy to‘plamlari mahalliy o‘zbek adabiyoti muhitini shakllantirib, asta-sekin rivojlantirishga olib kela boshladi.

Afg‘onistonda 1919 yildan keyingi mustaqillik sharoiti adabiyot va san’atning taraqqiyotiga muayyan ta’sir etdi, xatto turli xil ijtimoiy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ta’ziqlar tufayli bu o‘lkaga O‘zbekiston va boshqa qo‘shni mamlakatlardan kelib yashagan o‘zbek ziyolilarning zamonaviy afg‘on-o‘zbek adabiyotini shakllantirishi va rivoji muhim ahamiyat kasb etganligi ham kuzatiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin, xususan, 1964 yili mamlakatda o‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohatlar Afg‘oniston xalq (millat)larining madaniy-ma’naviy hayotiga muayyan ijobiy o‘zgarishlar kiritdi. Ziyolilarning, xususan, talaba-yoshlarning siyosiy tafakkuriga, ijtimoiy faolligiga, mahalliy millatlarning milliy shuurida jiddiy ijobiy o‘zgarishlar yasadi. Lekin XX asrning 50-yillarigacha bo‘lgan davrda Afg‘onistondagi ijodkor o‘zbeklar ko‘proq mumtoz adabiyot an’analariga sodiq ravishda, Alisher Navoiy, Bobur va Mashrab ijodida yuksaklikka ko‘tarilgan, g‘azallar, ruboiy, muxammas (taxmis), masnaviy singari janrlar doirasidan tashqariga chiqmay ijod qilib kelganlari ham ma’lum. Ularning she’riyatiga xos xususiyatlarni o‘rganishda hisobga olinishi zarur bo‘lgan omillar talaygina.

Aynan uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan mumtoz o‘zbek adabiyotiga, she’riyatiga qattiq bog‘lanib qolingan an’anaviy yo‘nalishdagi ijod namunalarining aksariyat qismi zamonaviy o‘zbek adabiyotining keksa avlod vakillari Mahjur Michanxil, Qodiriy Falangpo‘sh, Cho‘x Xalfa, Marviy, Tarxoniy, Abdurashid Mahdum Chustiy, Qori Sharafiddin Sharaf, Ustod Kurbat, Komil Faryobiy, Nafir Totor, Avlobiy, Xayriy va boshqalarning ijodiga xos bo‘lib, ularning badiiy va ilmiy asarlari xalq oarsida keng tarqalgan va mashhur bo‘lgan.

Bu avlod haqida so‘z yuritilganda, ta’kidlash joizki, ularning bir qismi O‘zbekistondan muhojir bo‘lgan va mahalliy o‘zbeklar qatori XX asrning birinchi yarmidagi Afg‘oniston o‘zbek va dariy adabiyoti rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan shoir va adiblardandir.

Shu o‘rinda O‘zbekistondan Afg‘onistonga borib qolgan va zamonaviy afg‘on-o‘zbek adabiyotining vujudga kelishida katta rol o‘ynagan bir necha yirik shoir vatandoshlarni eslab o‘tmaslikning iloji yo‘q. Bular orasida eng avvalo vatandoshlarimizdan, yirik shoir Sharofiddin Sharafni (1894-1973) eslash o‘rinlidir. Bu shoir Afg‘oniston o‘zbeklari orasida "domla Bedili Toshkandiy" nomi bilan mashhur bo‘lib, Toshkentda tug‘ilib, so‘ng Buxoro madrasasida tahsil oladi va o‘z vaqtida mashhur O‘zbekiston ma’rifatparvar adib va jamoat arboblari Behbudiy va

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Munavvar qorilar bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. Sharofiddin Sharafning barcha g‘azal, muxammas, ruboiy va boshqa she’rlari o‘zbek mumtoz she’riyati an’analari bilan hamohangdir.

Shoir Muqimiy Andxuyi (1876-1951) ham garchi Afg‘onistonning Andxuy viloyatida tavallud topgan bo‘lsa-da, asosiy tahsilini Buxoroda, madrasada olgan. Bu shoir ham o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettirgan holda dariy tilida xam she’rlar yozgan zullisonayn shoirdir.

Toshkentda tug‘ilib, Buxoroda tahsil olib, so‘ng 22 yoshida Afg‘onistonning Andxuy shahriga kelib kolgan boshqa bir taniqli o‘zbek shoiri Mir Muhammad Amin Kurbatdir. Bu shoirning ham ikki – fors va o‘zbek tilda birdek ajoyib g‘azallar yozganligi va devon sohibi ekanligi ma’lum. Bu shoir Vatanidan ketishga majbur bo‘lib, o‘z qismatidan nolib yozgan o‘nlab misralaridan birida:

*Buxoro ma’rifatning koni erdi ondin ayrildim,*
*Jahon tor o‘lg‘usi zarra dilim baxti siyohimdan,*
*Murodim O‘zbekiston, gar Buxoro yodini istasam,*
*Uzoq qildi falak ustodi donishi dastgohimdin,* deb yozgan edi.

Afg‘oniston o‘zbek adabiyotining yirik vakili Qo‘qonda tug‘ilgan, asli chustlik bo‘lgan Abdurashid Mahdum Chustiy (1908-1983) ham XX asrning 20-yillarida Kobulga ko‘chib kelgan va bu yerda tibbiyot fakultetida tahsil olib, shifokor-xirurg mutaxassisligini egallagan bo‘lsa-da, yuksak badiiy saviyada ishqiy g‘azallar ham bitgan to‘plam sohibi edi. Uning ko‘plab misralarida "Vatan dog‘i" hasrati, g‘urbati tinchlik bermaganligini ko‘ramiz:

*Chustiy ko‘z yoshi birlan g‘urbat yerin bog‘ aylagan,*
*Qon yurak rozin bilurg‘a g‘uncha yafrog‘ini ko‘r.*

Yuqorida nomlari zikr etilgan Afg‘onistonning keksa o‘zbekzabon shoir va adiblari kabi keyingi avlodlarga mansub boshqa o‘nlab mahoratli shoirlar ham bor. Garchi ular bevosita O‘zbekistonda tug‘ilib, so‘ng Afg‘onistonga muhojir bo‘lmagan bo‘lsalar-da, ulardan aksariyatining kelib chiqishi O‘zbekistonga bog‘liq bo‘lib, ular ham o‘z ijodlarida asosan o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarida ijod qilganlar va qilib kelmoqdalar. Ular Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarimizning mashhur she’rlaridan ilhomlanib, muxammaslar, tatabbu’lar yozganlar, ularning yuksak badiiy pardalardagi san’atlaridan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ta'sirlanib, o'z she'rlariga sayqal berganlar. Quyida buyuk adiblarimiz g'azallariga yozilgan ba'zi muxammaslardan misollar keltiramiz:

**Shoir Shoh G'ulom Ahmadning Alisher Novoiyning mashhur g'azaliga muxammasidan:**

*Va'daga qilmay vafo gulchehra hushro' kelmadi,*
*Tiyra bo'ldi subhu shomim yonima ro' kelmadi,*
*Shum raqibdin yoki qo'rqib sho'x tarsu kelmadi,*
*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,*
*Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.*

**Furqat g'azaliga shoir Erkinning muxammasidan:**

*Judo qildi falak oxir, xazonsiz gulzorimdin,*
*Ketibdur aql boshimdan, adashdim kori borimdin,*
*Bayon kilsam bu Furqatdan kuyar barcha sharofimdin,*
*Fazokim gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,*
*G'amim ko'p, ey ko'ngil, sen bexabarsan ohi zorimdin.*

**Kozim Aminiyning Muqimiy g'azaliga muxammasidan:**

*Kelib koshimga lablaringni xandon aylading, ketding,*
*Muhabbat shevasi birlan chu purson aylading, ketding,*
*Oquzub ko'z yoshim, ko'ksimni buryon aylading, ketding,*
*Ko'ngilni g'unchadek chin tahbotah aylading, ketding,*
*Xaloyiq ichra mahzuni parishon aylading, ketding...*

Buning singari misollarni ko'plab keltirish mumkin. Afg'oniston o'zbek adabiyotining ushbu keksa avlodiga xos bo'lgan an'anaviylik badiiy yo'nalishi bu adabiyotga ikkinchi Jahon urushidan keyin kirib kelgan qator shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Jumladan, Aminiy, Andxuy Ergash Uchqun, Majnun Qaysariy, Muhammad Amin Uchqun, Qori Sayfulloh, Sangin, Abdulhamid Ogoh, Shayx G'ulom, Ahmadiy, Ashraf Azimiy, Gul Muhammad Tanish kabilarning she'riyatining aksar qismi aynan mumtoz adabiyotimizning g'azal, muxammas, ruboiy lari kabi janrlarida va aruz vaznida ijod qilganligining va asarlarning aksariyatida an'anaviy mavzular doirasidadir. Ammo 50-60-yillarga kelib, xususan, 1964 yilda qabul qiligan Konstitutsiyadan keyingi davrlarda ularning ijodida, garchi an'anaviy shakllarda bo'lsa ham, ijtimoiy mavzular,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

mahalliy millatlarning milliy o‘zligini tanishi bilan bog‘liq orzu-umidlari, intilishlari, Ona Vatan madhi hamda ozodlik, tinchlik, ijtimoiy adolat, va taraqqiyot kabi masalalarga ham e’tibor berilganligini, umuman adabiyotga, she’riyatga yangi zamon nafasi kirib kelayotganligini ko‘ramiz.

Afg‘oniston o‘zbek adabiyoti XX asrning 80-yillaridan e’tiboran mazmun va yo‘nalish jihatdan yangi davrga qadam qo‘ydi. 1978 yildagi Afg‘onistonda ro‘y bergan Savr voqealari va undan keyingi vaziyat mamlakatning dariy va pashtu adabiyotlari qatori asosan an’anaviy tarzda kun kechirayotgan o‘zbek adabiyotida ham ulkan burilishlar yasaydi, rivojlanishning yangi bosqichi boshlanishiga katta turki beradi. O‘zbek adabiyoti, she’riyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiylashish, hatto siyosiylashish o‘zaniga o‘tadi. She’riyatda an’anaviy janrlar qatori, yangi she’r, sarbast, marsh, publitsistik, satirik she’r turlari paydo bo‘ladi. Kichik-kichik hikoyalar, ijtimoiy-badiiy ocherklar, kichik qissa va hatto pesalar ham yozila boshlaydi. Ammo Afg‘onistondagi o‘zbek adabiyotida an’anaviy she’riy turlarning o‘rni va salmog‘i hamon yetakchi bo‘lib qoladi.

Savr voqealari munosabati bilan mamlakatni boshqargan siyosiy partiyalar tomonidan milliy ozodlik, matbuot erkinligi, har bir millat va xalqlarning tengligiga oid islohotlar borasidagi e’lonlari, darhaqiqat, mamlakat ziyolilari, xususan, adiblar ijodiga qanot bag‘ishlagandek bo‘ldi.

Adabiyotda ijtimoiy mavzular yetakchi o‘ringa olib chiqildi. Mana shu yangilanayotgan o‘zbek adabiyotining yangi avlodi vakillari ham vujudga keldi va endilikda Afg‘oniston o‘zbek adabiyotining XX asrning 80-yillaridan keyingi qiyofasini: Sha’riy Juzjoniy, Said Muhammad Olim Habib, Matin Andixo‘yi, Ashraf Azimiy, Hafiziy Jo‘zjoniy, Kozim Aminiy, Toshqin Bahoiy, Azizullo Ulfatiy, Salim Osim, Is’hoq Sano va adiba ayollar Shafiqa Yorqin, Zulayho Sarpuliy, Osifa Shadob, Rayhona Rahmoniy kabi ijodkorlarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

70-80-yillardan keyingi o‘zbek she’riyatida chuqur ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she’riy asarlar yozgan adib, siyosat va davlat arbobi Sha’riy Juzjoniydir. Uning Afg‘onistonga ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar shamolining yetib kelayotganiga ishora qilib yozgan “Amudaryo” nomli she’ri va boshqa nazmiy asarlari zamonaviy afg‘on o‘zbek she’riyatida alohida iz qoldirdi. Shoirning bu she’rlarida na an’anaviy shakl, na mazmun ko‘rinadi. 11 bo‘g‘inli barmoq vaznidagi tom ma’nodagi yangi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

shakldagi bu ramziy she’r boshidan juda to‘fonli, qonli tarixiy voqealarni boshdan kechirgan, o‘zgarishlar, inqilob ramzi bo‘lgan “Amudaryo” shoirning unga murojaatiga jumladan quyidagicha javobni izhor qiladi:

*Lekin bu vatan xalqi qahramon xalq,*
*Yovlarga yov, do‘stlarga mehribon xalq.*
*Kurashdan to‘xtagan emas hech qachon,*
*Kurashdan to‘xtamas bordir to jahon.*
*Har kun zafar tomon kadam tashlaydi,*
*Yangi haët uchun kurash boshlaydi.*
*Men dengiz farzandi, to‘fon uyasi,*
*To‘lqinlar onasi, bo‘ron uyasi.*

80-yillardan keyin vujudga kelgan va aynan barmoq vaznida, sarbast she’r shaklida yozilgan, ichki ramziy timsollar, zamonaviy talqindagi obrazlarni ifodalagan qator she’riy asarlarning yaxshi namunalari Zikrilla Ishonch, Shafiqa Yorqin va boshqa o‘nlarcha shoirlarning ijodida yangi davrning yangicha, zamonaviy asarlari sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Bu toifa asarlarning paydo bo‘lishi asrlar davomida shakllangan va hamon davom etayotgan an’anaviy she’riyatga jiddiy raqobat edi. Aynan shunga o‘hshash vaziyat o‘tgan asrning 20-30-yillarida O‘zbekiston adabiyotiga ham xos bo‘lib, keyin barmoq she’riy sistemasi, hamda keyinchalik paydo bo‘lgan sarbast she’r turi an’anaviy she’riyat shakllarini va aruz vaznini siqib chiqargan edi. Ammo Afg‘onistondagi o‘zbek adabiyotida an’anaviy she’riyat shakllari hamon yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Faqat ularning mazmun doirasi zamonaviy mavzularning shiddat bilan kirib kelishi hisobiga jiddiy o‘zgarib bormoqda. Ulardagi badiiy tasvir vositalari ham real voqelikni ifodalashga yo‘nalmoqda. Birgina g‘azal mumtoz janrning o‘zida mazmun va obrazlar tizimida ancha o‘zgarishlar kuzatiladi. Shoirlar g‘azalga xos bo‘lgan an’anaviy ishq-muhabbat mavzusida yozganlarida ham, bu muhabbat endilikda ko‘proq Vatan, xalqqa nisbatan aytila boshladi. Bunga misollar juda ko‘p. Shoira Oysulton Xayrining bir g‘azalida Vatan haqida quyidagi misralarni uchratamiz:

*Vatan ey gulshanim, zebo diyorim,*
*Yo‘lingda jon vatan bermak shiorim.*
*Sevarman men seni ey bog‘i rizvon,*
*Tayanchim ham g‘ururim, ham viqorim.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Gulistoningdagi turli chechaklar*
*Tiriklik mujdasi bergay nigorim.*
*Seni har tog‘u toshing oshiqiman,*
*Muzaffarlikda yashnatmoq qarorim.*
*Seni bir zarra tuprog‘ing ko‘zimga,*
*Ko‘rinur oltin-kumush, ey guluzorim.*
*Badaxshon la’liyu ham marjoni birla,*
*Mislsizdur jahonda lolazorim.*
*Sevinchi berkim ushbu xush zamonda,*
*Ochilgan gullaringdan navbahorim.*

Hurmatli hamkasblar, umuman Afg‘onistondagi zamonaviy o‘zbek adabiyoti, she’riyati, uning taniqli namoyandalari, ayniqsa, ushbu adabiyotning o‘z taraqqiyotida o‘tgan bosqichlari, bu yo‘lda erishilgan yutuqlar va duch kelingan muammolar haqida juda ko‘p mulohazalar bildirish mumkin. Ammo vaqt cheklanganligi sababli, ma’ruzamiz yakunida quyidagi fikrlarni aytishni joiz topdik. Kuzatishlarimiz natijasida shu narsaga amin bo‘ldikki, hozirda Afg‘onistonda o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishini shartli ravishda uch yirik davr, ya’ni XX asrning boshlaridan 50-yillariga qadar, 50-yillardan 80-yillarga qadar va 80-yillardan hozirga qadar bo‘lgan davrlarga ajratib, o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi va ikkinchi davrda yashab ijod etgan keksa va o‘rta avlod vakillarining ijodida biz asosan mumtoz o‘zbek adabiyotining kuchli ta’sirini, juda kam miqyosdagi yangi zamon ta’sirini ko‘rdik. XX asrning 80-yillaridan e’tiboran ushbu adabiyotda tom ma’nodagi zamonaviy tamoyillar, badiiy shakl va uslublarning shakllanishi jarayoni kuzatiladi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, bu mamlakatda yashayotgan o‘zbekzabon adiblar hozirga qadar ikki yuzdan ziyod turli hajm va shakldagi she’riy to‘plamlar va nasriy asarlari majmualarini chop ettirganlari bizga ma’lum. Shu bilan bir qatorda, bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Afg‘oniston o‘zbek adabiyotining rivojlanish tarixi va bosqichlari, taniqli namoyandalari, she’riyati sistemasi, badiiy-uslubiy masalalari bo‘yicha zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan jiddiy monografik ilmiy tadqiqotlar na Afg‘onistonda, na O‘zbekistonda olib borilmaganligi ma’lum bo‘ladi va bu sohada hanuz juda katta ilmiy bo‘shliq, ulkan izlanishlar maydoni olimlarning e’tiboriga mushtoq bo‘lib turibdi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# БҲАКТИ ШЕЪРИЯТИ ТАРЖИМАСИДАГИ МУАММОЛАР

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-171-178

Филол.ф.д. **Улфатхон МУҲИБОВА**
TDSHU профессори,
Тошкент, Ўзбекистон
Тел.: +998 94 644 30 37;
Email: ulfatmuhib8@mail.ru

**Аннотация**. *Ушбу мақолада Ҳиндистонда ўрта асрларда браж тилида яратилган бҳакти шеърияти ва уни ўзбек тилига таржима қилиш жараёнида учрайдиган айрим муаммоларни шу давр шеърияти мисолида очиб беришга ҳаракат қилинган.*

**Калит сўзлар:** *браж, нанддас, бхакти, шеърият, кришна, чхитсвами.*

**Аннотация**. *В данной статье предпринята попытка выявить некоторые проблемы перевода поэзии бхакти на узбекский язык с языка брадж на примере поэзии этого периода.*

**Ключевые слова**: *браж, нанддас, бхакти, шеърият, кришна, чхитсвами.*

**Annotation.** *This article attempts to identify some of the problems of translating bhakti poetry into Uzbek from the language of braj using the poetry of this period as an example.*

**Key words**: *braj, nanddas, bhakti, poetry, krishna, chitswami.*

Бҳакти адабиёти ўрта аср ҳинд адабий мероси бўлиб, Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи ҳукмронлиги даврига тўғри келади. Бу даврда Ҳиндистон шимолий қисмларида бҳакти диний-ислохотчилик ҳаракати ва бу асосда бҳакти таълимоти шаклланган бўлиб, ушбу таълимотнинг тарғиботи адабиёт орқали амалга оширилган.

Ўша даврда ижод қилган барча шоирларнинг асосий ижод мавзуси бҳакти ғояларини тарғиб қилишдан иборат бўлган ва улар бугунги кунда *бҳакт шоирлар* номи билан тарихда қолган. Бҳакти таълимоти ғояларига асосланган ушбу шеъриятда, асосан, Рам ва Кришна маъбудларига бўлган меҳр ва садоқат куйланган. Бу эса ўз ўзидан шоирларнинг қадимий ҳинд эпослари Рамаяна ва Маҳабҳаратага мурожаат этишларига сабаб бўлган. Шу боис бу давр адабий мероси рамбҳакти ва кришнабҳакти адабий мероси номи

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

билан юритилиб, ўзига хос образлар, мотивлар ва сюжетлар тизимига эга бўлган жуда катта адабий мерос ҳисобланади.

Бҳакти адабиёти ўша давр халқ тили бўлган браж тилида шакллана бошлаган ва шоирлар ижоди орқали сайқалланиб бориб, ўз даврининг бадиий жиҳатдан ривожланган тилига айланган. Бугунги кунда ҳинди тили шеваларидан бирига айланган браж тилида яратилган ушбу адабий меросни таржима қилишда, албатта, бир қатор муаммоларга дуч келинади. Биринчидан, браж тилида санскрит сўзлари кўп қўлланилган, иккинчидан халқ тили бўлгани боис халқ мақола ва маталларидан кенг фойдаланилган. Шу билан бир қаторда бҳакти шеърияти ўз мазмунига кўра қадимий ҳинд эпослари билан боғлиқ бўлгани боис уларда эпослар орқали ҳинд жамиятига кириб келган миллий қадриятлар, урф-одатлар ва миллий расм-русумлар, анъаналарни англатувчи сўз, атама ва ибораларга бой шеърият бўлиб, уларни таржима қилишда ўзига хос мушкилликларга дуч келинади.

Бҳакти адабий меросида кришнабҳакти шеърияти ривожига энг катта ҳисса қўшган бу “Аштачхап” (Саккиз шоир иттифоқи) номли шоирлар иттифоқини тилга олиш мумкин. Ўз ижодини маъбуд Кришнани куйлашга бағишлаган ҳар қандай шоир Маҳабҳарата эпосига мурожаат қилмасдан қолмайди. Қуйида кришнабхакти шеъриятини яратган “Аштачхап” шоирлари шеъриятини таржима қилиш жараёнида учраган айрим муаммолар ҳақида мулоҳазалар билдирилади. Жумладан, браж тилида *гўпи* сўзи - қиз бола деган маънони англатади, бироқ бу сўз бҳакти шеърияти орқали Яратганга меҳр қўйган ҳар қандай шахсни англатувчи сўзга, иборага айланган, демак, Кришнага меҳр қўйган эркак кишини ҳам гўпи деб аташ мумкин. Айни мана шу атама барча бҳакт шоирлар ижодида учрайди. Хусусан, гўпиларнинг Кришнага бўлган бутун меҳрини ўзида мужассам этган қўшиқлар жуда кўп яратилган. Шундай мисралардан бирини келтириб ўтамиз: कमल मुख देखत कौन अघाई।

सुनहि सखि! मेरे लोचन अलि मुदित रहे अरूझाई।[48]

мазмуни: *Нилуфар чеҳрани кўриб толиқар кимнинг кўзи,*
*Тингла эй дугона! Кўзларим хиралашса ҳам кўргим келадир Уни.*

[48]हरगुलाल । कृष्णदास । – दिल्ली, 2001. -Б.10.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ёки бўлмаса: री! इहि मोहन की मोहनता मोह्यौ मेरौ मानस हंसु।

कहा करौं सिर परी ठगौरी सुनत मोहन बंसु।[49]

Мазмуни: *Эй, бу ёқимтой истараси билан ром этди кўнгилларни, Нима қилай, лол қолдим тинглаб унинг най навосин.*

Кришнадаснинг гўпилари най навосидан маст бўлиб, ўз қилар ишларини унутиб, Кришнани тезроқ кўриш, у билан дийдор кўришиш иштиёқига тушиб қолдилар, мазмунидаги шеърий мисра:

काम नगारी बांसुरी तैं दीन्हे अचल चलाइ।

काम हीन सब तैं किए इस दीन्हे काम जगाई।[50]

*(Кришнадас пад санграх. Канкрўли.пад 237)*

Мазмуни: *Бу най навоси гўпиларнинг эс-ҳушини олиб, уй юмушларидан ҳам чалғитди ва уларда эҳтирос туйғусини кучайтирди*, деб ёзади шоир. Бу мисрада “каам” сўзи омоним сўз бўлиб, унинг биринчи маъноси “иш, юмуш” бўлса, иккинчи маъноси “эҳтирос”дир.

Браж тили ва бугунги ҳинди тили ўртасидаги энг катта фарқлардан бири, бу узун унлиларнинг қисқа ёки қисқа унлиларнинг узун берилиши, ёки бир унли ўрнига бошқа унли товушнинг берилиш ҳолатларини кузатиш мумкин, жумладан, Кришнадас шеъриятида айрилиқ ва ҳижрон онлари ҳақидаги мисралар мисолида кузатиш мумкин,

“कृष्णदास” स्वामी जब *मिलि* हैं, तबहि तोहि

देहूं *मोतिनि कौ* हार।[51]

Мазмуни: *Жаноб Кришна қачон келсалар,*
*Маржон тақардурмен бўйнингизга мен.*

Браж тилидаги ушбу мисраларда ажратиб кўрсатилган сўзларда унлилар қисқа берилган, яъни *mili, hi, motini* – ушбу сўзларда “и” унлиси қисқа берилган, бугунги ҳиндида улар узун “и” ҳолида қўлланилади.

Аксинча, шеърда қўлланилган *“кў”* келишик қўшимчасида қисқа *“о”* ўрнида икки товушдан иборат *“ао”* дифтонги берилган.

[49] Ўша манба, -Б.44.
[50] Ўша манба,- Б.47.
[51] Ўша манба,- Б.44.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Бошқа бир мисра: ***अबहौं*** कहा करों री माई।

मदन गोपाल लाल बिन देखे, पल भरि ***रहयौ*** न जाई।[52]

Мазмуни: *Кўзимиз Кришнани кўришга муштоқ,*
*Уни кўрмагунча юмилмасдир кўз, куйламасдир тил.*

Ушбу мисраларда ҳам *abx**ao(n)**, rehy**ao*** сўзларида унлилар ўрнига икки товушлик дифонглар берилган.

Браж ва ҳинди тили ўртасида феъл замонларини қўллашда ҳам бироз фарқ кўзга ташланади. Мазкур фарқни қуйидаги шеър мисолида кузатамиз. Кришнанинг Говардхан тоғини жинжилоғида кўтарганида она Яшодадан кечган туйғуларни жуда таъсирчан ифодалаган,

कहौ धौं मेरे बारे हो लाल गोवर्द्हन कैसें उठाय कर लीनों।
एक ही हाथ अकेले ही ठाड़े नेंक बलदाऊ न दीनों।
चुंवत भुज चांपत उर लावत अंचरा प्रेम जल भीजो।
गोविंद प्रभु सपूत लरिकाई ते सब बृज जन सुख ***दीनों***। [53]

Мазмуни: *Айтчи, эркатойим, Говардхан тоғин кўтардинг қандай,*
*Бир қўлда, ёлғиз ўзинг, аканг Балдау ёрдамисиз.*
*Дея эркаларди ўпиб қўлларидан, кўзларида ёш,*
*Лекин, Говинд, олам эгаси,* ***бердинг*** *қувонч Браж элига.*

Масалан, ҳиндидаги *"дена"* ("бермоқ") феъли браж тилида *"дин"* шаклда қўлланилади ва шеърдаги *"бермади"* феъли ҳиндида "дийаа" (қисқа *и* ва узун *а* товуши билан берилса), браж тилида бу "*динон*" узун *и* ва *о* товушлари билан берилган.

Говиндсвами ижодида ҳам Кришна ва гўпилар мавзуси жуда сермазмун ифодаланган. Унинг ёзишича, "*Кришна, бир қарасанг, гўпилар билан жанжаллашади, бир уларнинг кийимини ўғирлайди, баъзан эса, уларнинг елкасига қўлини қўйиб рақс тушади. ....Бражда бирон-бир гўпи қолмаганки, Кришнани кўриб ўзини йўқотмаган бўлсин*".

*सीत तन* ***लागत है*** अति भारी।
दे हों बसन सांवरे प्रीतम देह कंपत है सारी।
नेक दया नहीं आवत नंद नंदन अति दुखित ब्रज नारी।

[52] Ўша манба,- Б.44.
[53] हरगुलाल । गोवीनदस्वामी । – दिल्ली, 2003.,- Б.13.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

गोविंद प्रभु करो मनोरथ पूरन हम तो दास ***तिहारी***।[54].

Мазмуни: *Совуқдан **қотди танамиз** бизнинг,*
*Кийимни қайтар бизга, жону жаҳонимиз.*
*Раҳминг келмас Нанда ўғли браж аёллари ҳолига,*
*Шафқат қил, ишон, биз буткул **сенинг** қулингмиз.*

Ушбу шеърда браж тилидаги *सीत तन **लागत है*** - sit tan laagat he (қотди танамиз) ҳиндида *tan ko thand lagta he* шаклида, браж тилидаги *तिहारी – tihaarii* (сенинг) ҳинди тилида *tumharii* шаклида қўлланилади.

Говиндсвами Кришнанинг туғилиши ҳақида у шундай деб ёзади:

जे वसुदेव किए पूरन पत तेई फल फलित श्री वल्लभ देव।
जो गोपाल हुते गोकुल में तेई आनि बसे करि गेह।
जे वे गोप वधू हीं ब्रज में तेई अब वेदरिचा भई येह
छीतस्वामी गिरिधरन श्री विट्ठल तेई ऐई ऐई तेई कुछ न संदेह।[55]

Мазмуни: *Васудев бўлди ижобат барча ибодатларинг,*
*Туғилди Гокулда Валлабха (Кришна) бугун.*
*Канса қамоғидан бўлиб у озод,*
*Чхитсвами, Гиридхар сен билан қўрқма ҳеч қачон.*

Сўз мазмуни ўзгармаган ҳолда имловий жиҳатдан бошқа шаклда, яъни унли ва ундош харфлар ўрин алмашган ҳолда ёзилиш холатлари ҳам кўп учрайди. Жумладан, ушбу мисраларда шундай ҳодиса кузатилади.

जब ***लिग*** जमुना गांइ गोवर्धन गोकुल गांउ गुसांई।
तब लगि श्री भागवत कभा-रस तब लगि ***कलिजुग*** नाँई।
जब ***लगि*** सेवक, सेवाभाव-रस, नंद नंदन सों प्रीति लखाई।
छीतस्वामी गिरिधरन श्री विट्ठल प्रगटे ***भक्तनि*** कों सुखदाई।[56]

Мазмуни: *Жамнага бориб, Говардхан, Гокулни кўриб, Госаинимадҳ этиб,*
*Шунда тушундим Яратган билимларин, янги калюг маъносин.*
*Шунда англадим Олий Ҳақ йўлин, Нанд Нандан кимлигин.*
*Чхитсвами дейди, Витхал яралгандир бҳактлар бахти учун.*

[54] Ўша манба, -Б.14.
[55] वसंत यमदामिल। छीतस्वामी। बीबा प्रेस. – दिल्ली, 2003. -Б.2.
[56] Ўша манба, -Б.11.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Бу ерда хиндидаги *“log”* (одамлар) сўзи бражда ***“lig”*** шаклда, *“lagii”* (туюлди) сўзи ***“lagi”*** шаклда ёки *“bhakton ko”* (бҳактларга) сўзи ***“bhaktini”*** шаклида берилганининг гувохи бўламиз.

Браж юртида, одатда, фарзанд туғилган хонадонда барча хурсандчилик қилади, барчага совғалар улашилади, табрик учун келганлар ҳам совғалар билан келади, шу анъаналарни Нанддас ўз шеъриятида куйлайди:

*बिज की नारी सेब मिली अई आजु* बधाई री माइ,
सूदर नन्द महरी के मंदिर प्रगतयो पुत्र सकल सुखदई
जो जाके मन हती कामना सो दीनी नंदराय
“नंददास” कुं दई *कृपा करि* अपने *लला की बलाय*।[57]

Мазмуни: ***Бражнинг барча аёллари йиғилиб келди бугун*** *табрик учун,*

*Гўзал Нанд туғилди бағишлаб барчага бахт.*
*Берар кўнгил истагин ўша Нандрай,*
*“Нанддас” дуо қил* ***боланинг бахти учун***

Нанддаснинг ушбу шеърида ҳам браж ва ҳинди тилларидаги ўзига хос фарқланишлар, маъно ўзгармаган ҳолда сўздаги шакл ўзгаришларини кузатиш мумкин. Масалан, браж тилидаги *बिज की नारी सेब मिली अई आजु – naarii seb milii aii aaju* (аёллар йиғилиб келди бугун) ҳинди тилида *braj kii sab naarii milii aayii aaj* шаклида ва *कृपा करि लला की बलाय – kripaa* ***kari*** *lallaa kii* ***balaay*** (дуо қил боланинг бахти учун) ҳинди тилида *kripaa* ***karo*** *lallaa kii* ***bhalaaii*** шаклида қўлланилади.

Малукдас шеъриятида ҳам худди шундай хинди ва браж тилларида сўзлар ёзилишида имловий фарқланишлар кўзга ташланади:

*भुखहिं टूक, प्यासेहिं* पानी।
***ऐहि भगति*** हरि के मन माहीं।[58]

Мазмуни: Оч***га*** нон, чанқаган***га*** сув бериш
***Шундай бҳакт*** худонинг суюклигидир.

[57] सारला चौधरी । नंददास । शकुण प्रींटर्स । – दिल्ली, 2006. –Б.30.
[58] बलदेव वंशी। मलूकदास। – दिल्ली, -Б.14.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Бу ерда шеърнинг биринчи мисрасидаги браж тилидаги *“hin”* ҳиндидаги “*ko*” - *“га”* қўшимчаси маъносини берган.

Иккинчи қатордаги ҳиндидаги *“эйси”* (шундай) сўзи *“eyhi”* шаклда берилган, ҳиндидаги *“**bhakt**”* (сўфий) атамаси *“**bhagati**”* шаклида берилган.

सही जहन सुतपुत्र ओरंज़ेब, चलेय सुपंथ ***कुरन कितेबा***,

वेद, पुराण मने करवावे, वामन पूजा कर न पावे।

काजी मौलाना करे बरई, हिन्दु को *जजिया लगवई।*[59].

Мазмуни: Шаҳаншоҳ Аврангзеб ***Қуръон китоби*** йўлини танлаб,
Веда, пуранларни четга сурди, браҳман ибодатин ман қилди.
Қози муллаларни қўллаб, ҳиндуларга ***жузия солди***.

Мазкур шеърда берилган “***Kuran kiteba***” (*Қуръон китоби*) ҳиндида “***Kuran ki kitab***” деб айтилади, иккинчи мисрадаги “***jajiyaa lagvai***” (жузия солди) ҳиндида *“**jajiyaa lagvaaii**”* шаклида ёзилади. Шу тарзда браж шеъриятидан бу каби мисоллардан кўплаб келтириш мумкин. Қуйида турли шеърларда учраган шу тарздаги мисоллар келтириб ўтилади:

Браж тилида “बिज” – “bij” (Браж юрти) ҳинди тилида “braj”, “विस्वास” - “visvaas” (ишонч) сўзи ҳиндида “vishvaas” шаклида, бражда कष्ट निवारक – “kasht nivarak” (азоб берувчи) сўз бирикмаси ҳиндида “kasht denevala” шаклида, бражда келтирилган भक्तनि कों सुखदाई – “bhaktani ko(n) sukhdaaii” (бҳактларига берди бахту саодат) ҳиндида “bhakton ko sukh diyaa” шаклида қўлланилади, браждаги पहिरत - “pahirat” (кийдирди) ҳиндида “pehnaya”, бражда берилган नाहीं गाहें, नाहीं पाहीं – “naahii(n) gaahe(n), naahii(n) paahii(n)” (йиғмас бойлик яланг оёқ), “nahiin jamate, nahiin pehente”, браж тилидаги अगें गांइ पाछे गांइ, इत गांइ, उत गांइ – “age(n) gaai, paache gaai, it gaai, ut gaai” (олдинда сигир, орқада сигир, бу ерда сигир, у ерда сигир) ҳиндида “aage gay, peeche gay, idhar gay, udhar gay” шаклида берилади.

Шу тарзда ушбу кичик бир мақола орқали ўрта асрларда ривожланган ва бутун шимолий Ҳиндистон худудида адабий тил бўлган браж тилида яратилган жуда катта адабий мерос бугунги

[59] Ўша манба, -Б.11.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ҳинди тилидан асосан қайси жиҳатлари билан фақланиши масаласига бҳакт шоирлар шеърияти мисолида ойдинлик киритишга ҳаракат қилдик ва ушбу шеъриятни ўзбек тилига таржима қилишда дуч келиш мумкин бўлган ҳолатларга мисоллар келтириб ўтдик. Шу орқали ўрта аср браж тили ва бугунги ҳинди тили ўртасидаги фарқланиш масаласига қисман бўлсада ўз мулоҳазаларимизни билдириб ўтдик. Албатта, бу масалада лингвистик йўналишда, бадиий тил масалалари ва лексикология йўналишларида жуда яхши илмий тадқиқот ишларини олиб бориш мумкин ва бу муаммонинг тўликроқ ечимини келажак авлод ўз изланишларида яна ҳам чуқуррок ўрганишига умид қилиб қоламиз.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ходжаева Т.А., Муҳибова У.У. Ҳиндистон адабиёти. Тошкент, 2020.
2. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *Asian journal of multidimensional research*, 10(4), 534-543.
3. हरगुलाल । कृष्णदास । – दिल्ली, 2001.
4. हरगुलाल । गोवीनदस्वामी । – दिल्ली, 2003.
5. सारला चौधरी । नंददास । शकुण प्रींटर्स । – दिल्ली, 2006.
6. बलदेव वंशी। मलूकदास। – दिल्ली, 2006.
7. वसंत यमदामिल। छीतस्वामी। बीबा प्रेस. – दिल्ली, 2003

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# CHALLENGES IN TRANSLATING HINDI FOLKLORE INTO ENGLISH – A CASE STUDY OF PREMCHAND'S EIDGAH

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-179-181

**Shiv SINGH**,
Lecturer of Indian Studies,
Center for Indian Studies,
Faculty of Arts and Humanities,
University of Lisbon, Portugal.
shivsingh@edu.ulisboa.pt

**Abstract.** *India is a country where oral literature and folklore is abundant and an ancient practice which started from the era of Sanskrit is still present in modern Hindi literature. Defining the meaning and scope of folklore literature becomes a cumbersome process in translation. Premchand is considered the father of realism in Hindi literature and his contribution to Hindi literature is so immense that he is considered as a time frame in Hindi literature, such as pre-Premchand/post-Premchand.*

**Keywords**: *Translation, Indian Studies, Hindi, Premchand, pragmatics*

**Annotatsiya.** *Hindiston og'zaki adabiyoti va xalq og'zaki ijodi ko'p bo'lgan mamlakat bo'lib, sanskrit davridan boshlangan qadimiy amaliyot hozirgi hind adabiyotida hamon mavjud. Tarjimada folklor adabiyotining mazmuni va ko'lamini aniqlash mashaqqatli jarayonga aylanadi. Premchand hind adabiyotida realizmning otasi hisoblanadi va uning hind adabiyotiga qo'shgan hissasi shunchalik kattaki, u hind adabiyotida, Premchand/post-Premchand kabi vaqt doirasi sifatida qaraladi.*

***Kalit so'zlar:*** *tarjima, hind tadqiqotlari, hindiy tili, Premchand, pragmatika.*

**Аннотация.** *Индия – страна, где богата устная литература и фольклор, а древняя практика, зародившаяся в эпоху санскрита, до сих пор присутствует в современной литературе на хинди. Определение смысла и объема фольклорной литературы становится трудоемким процессом при переводе. Премчанд считается отцом реализма в литературе, и его вклад в литературу на хинди настолько огромен, что он считается временным отрезком в литературе на хинди, такой как до-Премчанд/пост-Премчанд.*

**Ключевые слова:** *перевод, индийские исследования, хинди, премчанд, прагматика.*

Eidgah is one of the iconic short stories of Premchand which is part of the fiction literature, which was published in 1933. A fiction which is so real that still Indians identify with it. It was translated in English as

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

´Festival of Eid´ by Khushwant Singh and the story has some resemblance to ´Christmas Carol ‘of Charles Dickens. The main characters are Hamid (A four-year-old boy) and Amina (his grandmother, a widow). The story shows an experience of the festival of Eid of XIX/XX century.

The summary of ‘Eidgah’ revolves around a very poor boy, who lives with his grandmother. On the festival day of Eid, when other kids were busy with candles and toys and showing him his place of belonging, that little boy buys a pair of tongs so that her grandmother could make *rotis*[60] without getting her fingers burnt. The sensitivity of the story simply touches the heart.

The tradition of Eidgah-type story telling comes from the ancient Indian practice in which, through folklore, the knowledge is transmitted from one generation to another, and this tradition is still present particularly amongst wandering or migrating tribes from Rajasthan to Bihar. E.g., Ramayana and Mahabharat are narrated by many performing artists differently from one zone to another. It also has similarity to non-canonical Indian literatures, such as, Panchatantra, Hitopadesha, Jataka stories (moralistic teachings).

The biggest challenge while translating a folklore is the transmission of the contextual, pragmatic, and culture-specific nuances and knowledge from source language to target language. Some of the difficulties, which were encountered during the translation of ‘Eidgah’ from Hindi to Portuguese, are as follows:

• Variation of Emotions across cultures and languages.

• Variation of syntax across Language families (Hindi – Portuguese, SVO-SOV)

• Regionalism: *saanaa-paanee (chaaraa), pauRá (Bhoossa)*

• Lexical – Saudade (*Dor* / pain in Romanian), gardner (She-gardner)….

• Culture / context specific: E.g. An[t]chal (apron), dekhná, laukná?

• Tradition and beliefs (transfer of culture specific knowledge and professions): telee, bhshti, ..

• Gastronomy (sevaiyan – vermicelli), rewaDiyáN रेवड़ियाँ,

• Clothes: achkan, sari, …

[60] homemade Indian bread

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

• Symbols / images / expressions: ullú (owl) (wisdom and dumbness): माली को कैसे उल्लू बनाया है! कहाँ पचास, कहाँ एक सौ। इक्के-ताँगे

• Sayings, e.g. अब पछताए होत का जब चिड़िया चुग गई खेत Ab pachhtaaye hot kaa jab chiDiyaa chug gayee khet. Now regretting happens what when bird peckwent field. EN - There is no point crying over spilt milk.

PT - Não vale a pena **chorar** pelo **leite derramado**.

In such cases, the translator must pay attention not only to syntactic, but also on semantic, pragmatic and cultural nuances that can demand different adaptions with respect to process and place of different languages and cultures.

**References:**

1. Basham, A.L. *The Wonder That Was India*. New York: Grove Press Inc. 1959.
2. Bhagvat, Durga. *An Outline of Indian Folklore.* Bombay: BookDepot. 1958.
3. Rai, Amrit. *Kalam Ka Sipahi*. Allahabad: Hans Prakashan. 1959-62.
4. Premchand (Pseud.). *Idgah* in Mansarovar Part 1. Genral Press. 2017.
5. http://hindisamay.com/premchand%20samagra/Mansarovar1/Idgah.htm (04-05-2018, 16H).
6. Khodjaeva, n. B. (2021). *Premchand's vardaan in uzbekistan: translation issues of some cultural specific words. Theoretical & applied science* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ГЁТЕНИНГ “ФАУСТ” ФОЖИАНОМАСИ ЎЗБЕК ТИЛИДА

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-182-189

**Хуррам РАХИМОВ**,
ЎДЖТУ профессори,
Тошкент, Ўзбекистон
Тел: +998 90 961 40 92;
E-mail: raximovx@gmail.com

**Annotasiya.** *Ushbu maqolamizda olmon tilida yaratilgan shoh asarlardan biri – Yohann Volfgang Gyote «Faust» fojianomasining o‘zbekcha tarjimalariga munosabat bildirish orqali tarjima ilmi va san’atiga yana bir bor e’tibor qaratishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *shoh asar, «Faust», fojianoma, tarjima ilmi, “Oyna” jurnali, asliyat tili.*

**Аннотация**: *В данной статье мы еще раз обратим внимание на науку и искусство перевода, отреагировав на узбекские переводы трагедии «Фауст» Иоганна Вольфганга Гёте, одного из шедевров, созданных на немецком языке.*

**Ключевые слова**: *шедевр, «Фауст», трагедия, переводоведение, журнал «Ойна», язык оригинала.*

**Abstract**: *In this article, we once again pay attention to the science and art of translation, reacting to the Uzbek translations of the tragedy "Faust" by Johann Wolfgang Goethe, one of the masterpieces created in German.*

**Key words.** *masterpiece, Faust, tragedy, translation studies, Oina magazine, original language.*

Таржима тарихи бир асарнинг турли талқин ва таржималарига бениҳоя бой манба сифатида адабиётшунос ва таржимашуносларнинг эътиборини азалдан-абад ўзига жалб қилиб келмоқда. Бадиий асарнинг у ёки бу адабиётдаги ўрнига қараб ҳар хил талқин ва таржималарнинг сони ва сифати, савияси ва салоҳияти қамрови ҳам ривожланиб бормоқда. Бир асарнинг турли таржималари пайдо бўлишининг ўзи шу асар ва унинг муаллифининг миллий ва ёки жаҳон адабиётидаги ўрнини белгилайди.

Ушбу мақоламизда олмон тилида яратилган шоҳ асарлардан бири – Йоҳанн Волфганг Гёте «Фауст» фожианомасининг ўзбекча таржималарига муносабат билдириш орқали таржима илми ва санъатига яна бир бор эътибор қаратишдан иборат.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Маълумки мазкур асарнинг биринчи қисми дастлаб 1789 йили олмон тилида чоп этилди ва шундан буён 1832 унинг 2-қисми яратилиб, у дунёнинг 80 дан ортиқ тилларига таржима қилиниб келмоқда. Гёте асарлари Ўзбекистонда ўқиб-ўрганилиб ва таржима қилиниб келинаётганига юз йил бўлсада ( 1913 йил Иброҳим Даврон Гётедан “Май қўшиғи”, “Ўрмон шоҳи” каби шеърларини ўгириб, Маҳмудхўжа Беҳбудий таҳриридаги “Ойна” журналида чоп эттирган), “Фауст”нинг ўзбекча таржимасига ватанимизда илк бор 1972 йилда Эркин Воҳидов қўл урган. Аслият тилини билмаган таржимон таржима учун фожианоманинг русча таржималарини асос қилиб олган. Русча таржималар сони 15 дан ортиқ (Ф.Галченков, А. Мамонтов, А. Фет, А. Гончаров, А. Соколовский, Н. Морозов, Аничков, В.П. Вронченко, Э. И. Губер , Г. Плисецкий, В. Брюсов, А.Струговщиков, К. Иванов, Н.Греков, П.И. Калашников ва б.) бўлсада, Э.Воҳидов дастлаб Б. Пастернак таржимасини ўрганган ва унданда қониқмай, асарнинг энг аниқ Н. Холодковский таржимасига ҳам мурожаат қилган. Бу асар украин тилига 4 марта (И. Франко, Д. Загул, Н. Улезко, Н. Лукаш), француз тилига 28 марта,инглиз тилига эса 51 маротаба (!) ўгирилган. Туркий тилларда эса асар озарбойжон, қозоқ, чуваш, татар, турк ва ўзбек тилларига ағдарилган. Қизиғи шуки, турк тилига асарнинг 4 та назмий ва 3 та насрий ағдармалари амалга оширилган.

Фаустнинг ўзбек тилида пайдо бўлиши ўзбек маданий ҳаётида катта воқеа бўлди. Комил инсон образини Шарқ сўфиёна ғазалларидан таъсирланиб дилига жо қилган Й.В.Гёте Оврупо адабиётида машҳур бўлган доктор Фауст сиймосида кўрмоқчи бўлган ва шу образ орқали ўзи янги Фауст образини яратишга ҳаракат қилган. Раҳмон ва Шайтон ўртасидаги курашни Ҳайнрих Фауст ва Мефистофел образларида янгича талқин қилиш учун умрининг қарийб ОЛТМИШ йилини сарфлаган. Комил инсон образини яратишга уринишлар барча адабиётларда кўринади. Алишер Навоий ўз Хамсасидаги Фарҳод образида ўз идеалини кўрсатмоқчи бзлганидай олмон аадабиётида Гёте ана шундай мураккаб Фауст образини яратган. Шу сабадан Гётенинг фаусти нодон, аҳмоқ, гўл, жоҳил,тентак шахс эмас, у ақлдан озган ҳам эмас, у телбасимон,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ўзини том маънода онглаёлмай қийналиб жинни бўлаёзиб комилликка интилаётган ИНСОН образидир.

Ўзбек адабиётшунослигида бу асар таржимасига бағишлаб кўплаб тақриз ва танқидлар эълон қилинган бўлсада, уларнинг ичида асар ва унинг таржимасини бевосита қиёсий ўрганилганлиги ҳолати қониқарли эмас. С.Назаровнинг докторлдик диссертацияси ана шу образни ўрганишга ҳаракат қилган лингвофилологик тадқиқотлардан бири албатта. Аммо бу ишда ҳам бош қаҳрамон Фауст образи ҳали тўлалигича очиб берилмаган. Кўпчилик чиқишларда асарнинг бадиий қиммати ва таржимоннинг шижоати ва ғайрати тилга олиниб, таржима таҳлилига деярли ўрин берилмаган. Аммо бу асар ва унинг икки ўзбекча таржимаси катта-катта илмий тадқиқотлар учун ҳам тадқиқот предмети, ҳам тадқиқот материали бўлиши лозимки, бу энди келгуси изланишларнинг вазифасига айланиши лозим.

Табиийки, таржима пайдо бўлгач, унга аслият тилини билгувчи чет тил мутахассислари ҳам эътибор қила бошлайди. Шундай ҳолда Фаустнинг ўзбекча таржимасини биз олмоншунослар ҳам ўргана ва унга муносабат билдира бошладик. Бу йўналишда таржимашуносларнинг сардори Ғайбулла Салом ва унинг ўзбек олмоншунос шогирдлари Сано Саидов, Пошали Усмон, Салим Жабборов, Шавкат Каримов ва бошқаларнинг мақолалари пайдо бўлиши, қолаверса бу асар таржимасини диссертацион тадқиқот материали сифатида ўрганилиб бориши табиий ҳол бўлди, албатта. Бироқ бу борада ажойиб журъат – асарни қайта таржима қилиш кераклиги ҳақида ҳам жиддий фикр-мулоҳазалар пайдо бўлди. Бу масалада устоз Ғ.Саломов даъвати билан Самарқанд Чет тиллар институтининг тажрибали олмоншуноси Пошали Усмон дадил ҳаракат бошлади ва асарнинг 1-қисми таржимасини 2000- йиллардан олдин бошлаган бўлсада, ўз таржимасини 2007 йилда А.Навоий кутубхонаси нашриётида чоп эттирди. Энди бизга олмонча аслиятнинг русча таржималардан Ўрта Осиё туркий тилларига ўгирилган вариантлари билан унинг ИККИ ўзбекча таржимавий талқининигина эмас, асарнинг бошқа туркий тилларга (жумладан Усмонли туркчага, қозоқ, қорақалпоқ, татар, озарбойжон тилларига таржималарини ҳам кузатиш, қиёслаш ва уларга танқидий муносабат

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

билдириш имкони пайдо бўлди. Асарнинг бадиий ва таржимавий талқинига эътибор кўплигидан у турк тилида 7 марта ўгирилган экан, шу таржималарнинг 3 таси насрий услубда бажарилганлиги билан аҳамиятлидир. Бу маънода олмон-ўзбек таржималари бобида яна бир ўхшаш ҳолат пайдо бўлдики, биз ҳам турклардан қолишмайдиганга ўхшаймиз. Фридрих Ницшенинг «Зардушт таваллоси»(аслиятда “Also sagte Zarathustra“) асарини забардаст таржимон устозимиз Иброҳим Ғофуров русча орқали прозаик шаклда ўзбек тилига ўгирган эди. Яқинда шу аслиятнинг «Зардушт нидоси» номли шеърий таржимасини шоир Абдуҳамид Пардаев яратдики, насрий асарни назмий шаклга туширган ўзбюек шоирнинг журъатига қойил қолмай иложиимиз йўқ. (Одатда назмий асарни чуқурроқ англаш учун унинг насрий таржимаси ёки ҳатто унинг насрий баёни яратилади. бажарилар эди-да, худди “Фауст” туркча насрий таржимларидай).

Қуйида айрим фикр-мулоҳазаларимизни сиз зукко фаустхонлар билан маслаҳатлашишни ният қилдик. Бир мақола доирасида бир асар таржимасининг барча масалалрига тўхталишнинг иложи йўқ албатта. Бунда биз асарнинг биринчи қисми бошида учраган бир-икки эътиборталаб жиҳатга мурожаат қилмоқчимиз.

Таржима асарига баҳо беришнинг жиддий талаб ва тамойиллари мавжудки, уларга амал қилмасликнинг иложи йўқ, албатта. Бунда асар аслиятда қайси жанр ва услубда яратилганлигини инобатга олиш муҳимдир. Бадиий асар таржимасида етакчи талаб ана шу бадиийликни қайта яратилиши асосий мезондир. Бадиийликнинг ўзагини образлилик ташкил этади. Образлиликнинг турлари кўп: асар қаҳрамонлари образи, асар асар яратилган бадиий давр, яъни замон ва макон образлари ва ҳ.к. Шеърий асар таржимасида эса асарнинг метрикаси ва образлари сақланиши кузатилса, насрий таржимада асосан бадиий образ ва албатта муаллиф индивидуал бадиий услуби қайта яратилганлигига эътибор қаратилиши лозим.

Фаустнинг икки ўзбекчаси таржимасига келсак, унда кўзга ярқ этиб ташландиган ҳолат Экрин Воҳидовнинг гўзал шеърий таржимаси албатта. Таржима худди аслиятда яратилгандай силлиқ, гўзал ва равон. Пошали Усмон таржимасини эса маълум маънода

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

академик, илмий таржима дегим келади. Барча сўз ва иборалар, сатрма-сатр бир-бирига муқобил. Бироқ ...

Энди бевосита таҳлилга ўтсак.

Асарнинг 1-қисмидаги *Тун (Nacht)* эпизоди аслиятда шундай бошланади.

*"Habe nun ach, Philosophie*
*Juristerei und Medizin,*
*Leider auch Theologie*
*Durchaus studiert*
*mit heißem Bemühen.*
*Da steh ich nun*
*Ich armer* ***Tor****,*
*bin so klug als wie zuvor"*

Шуни назарда тутмоқ керакки, Эркин Воҳидов немис асарини русча Б.Пастернак таржимасидан ўгирган. Русчада бу парча қуйидагича жаранглаган:

*"Я богословием овладел,*
*Над философией корпел,*
*Юриспруденцию долбил,*
*И медицину изучил.*
*Однако я при этом всем*
*Был и остался* ***дурак****ом".*

Мана шу матннинг Э.Воҳидов қайта яратган ўзбекчаси:

*„Илоҳиёт ила банд бўлдим,*
*Файласуфи хирадманд бўлдим,*
*Илми ҳуқуқ, илми табобат –*
*Барчасини ўргандим, фақат,*
*Фақат менга бир нарса аён:*
***Нодон*** *эдим,* ***нодонман*** *ҳамон".*

Биринчидан, аслиятда муаллиф энг аввал фалсафани тилга олган, чунки Ғарбда ҳам, Шарқда ҳам илму аввал фалсафа бўлган ва бугун ҳам барча гуманитар фанлар бўйича бериладиган илмий даража "фалсафа доктори"лигидир. Эркин Воҳидовда эса бу парча таржимаси *Илоҳиёт* билан бошланган. Илоҳиётни эса автор ҳатто "афсус" - *(leider)* сўзи билан матнга киритган. Сатрларнинг бу хил

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ўрин алмашинуви қандай содир бўлган экан деб Эркин Воҳидов учун асосий аслият вазифасини ўтаган Борис Пастернакнинг русча таржимасига қарасак, масала ойдинлашади-қолади. Рус таржимони шундай сатр алмашувини мувофик деб топган экан, унинг бу хатосини ўзбек ҳам оғишмай такрорлаган. Лекин шу эпизод бошида муаллифнинг ўзи ҳам *илоҳиётни* биринчи ўринга қўйиши мумкин эдику, 60 йил ёзган асарининг сўнги таҳрир вариантида! Нега биз Гётега сўз ва тушунча қўллашни ўргатамиз?! Бунга ҳаддимиз ҳам, ҳаққимиз ҳам йўқ. Айниқса таржимонга бундай эркинлик қилиш ножоиз.

Мазкур олмонча парчани аслиятга анча муқобилроқ ёндошган бошқа рус таржимони Холодкоский қуйидагича ўгириб. Пастернакнинг “*дурак*”ини унинг синоними “*глупец*” билан алмаштириб, шу парчани қуйидагича русчалаштирган:

“*Я философию постиг.*
*Я стал юристом.стал врачом...*
*Увы! с усердинм и трудом*
*И в богословие проник,...*
*И не умней я стал в конце концов,*
*Чем прежде был**...Глупец** я из **глупцов**!*

Бироқ шунча фанларни ***қайноқ иштиёқ билан*** ўрганган Фаустнинг хулосаси ўзини ўз тилида «da stehe ich, ich armer **Tor**, und bin so klug als wie zuvor», деб ифода этилган. Бу таржима Б.Пастернакнинг “*был и остался дураком*» каби ўгирмасига айланган. Эркин Воҳидовда эса бу русча хулоса ***“нодон** эдим, **нодон**ман ҳамон*” тарзида ўзбекчалаштирилган. Энди мантиқий савол пайдо бўлади: ўша даврнинг энг асосий фанларини қайноқ эҳтирос ва иштиёқ билан ўрганган, шу фанлар тадқиқотига ўз онгли ҳаётини бахшида қилган олим қандай қилиб “дурак”- ***нодон*** бўлади? Бу русча *дурак*ни қозоқ ва қорақалпоқ таржимонлари *аҳмаққа* айлатирган. Ушбу ҳолатни Пошали Усмон аслиятдаги “**Ich armer Tor, bin so klug als wie zuvor“ни** ***“Мен ўша ғўр, телба бечора“*** тарзида ўзбекчалаштириб мантиқан тўғри муқобил топган. Бу таржима аслият руҳи ва маъносига тўла яқин талқин. Олмончадаги ***der Tor*** нинг таржима вариантларида русчада *дурак, глупец. сумаседший, идиот* каби

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

маънолар,ўзбекчада эса гўл.аҳмоқ.тентак.жинни. телба каби маънолари мавжуд. (Достоевскийнинг **Телба**сини эсланг...). Аслият сўзининг охирги маъноларини ўрганиб.бошқаҳрамон шахси ва унинг ҳақиқатга комилликка интилишини англаган ҳамкасбимиз раҳматли Пошо Али Усмон мазкур парчани қуйидагича таржима қилган:

*“Дилга жо бўлмиш фалсафадек ҳикмат,*
*Ҳуқуқшунослик ва илми табобат.*
*Кўрастиб сабот, ўзни аямайин,*
*Ўргандим ҳатто илоҳиёт илмин.*
*Ақлим эскича, бўлмади дубора,*
*Мен ҳамон ўша ғўр, **телба** бечора!”*

Бу матндаги олмонча der ***Tor*** сўзи русчада ***дурак*** (Пастернак)**,** ***глупец*** (Холодковский), ***нодон*** (Воҳидов), ***ғўр телба***(П.Усмон), ***ахмақ***(озарча ,қорақалпоқча ва қозоқчада) каби таржима ва талқинлари мавжудлиги таржимонлар олдида таржима тилининг бой имкониятларидан хабардорлик талабива муаммосини қўйган ва таржимонлар ўз талқиналрида аслият ва таржима тилидаги салоҳиятларини намоён қилган.

Юқоридаги дастлабки аслият матнидаги асар қахрамонининг ўз илму-ижодиддан қониқмаслиги руҳий ҳолатини акс эттирувчи бошқа бир кичик олмонча ***ach*** сўзи – юклама ва ундан сўнг қўйилган ундов( ! ) аломати ва бунинг турлича таржимавий ҳолатларига ҳам эътиборингизни қаратмоқчимизккки. Бунда бизни ҳарфхўрликда айбламассиз деб умид қиламиз. Русча Б. Пастернак таржимасида бу фонетик бирлик таржимаси йўқ, демакки Эркин Воҳидовда ҳам, Пошали Усмонда ҳам йўқ, Николай Холодковскийнинг таржимасида эса бу сўз учинчи қаторда ***увы*** деб ишлатилган. Аммо туркча вариантларда эса бу сўз *Iste, ah*, .аклида. озарчада *heyhat!*, қозоқчада эса *Уа,дуние-ай!* каби муқобилларда сақлаб қолингани эътиборга лойиқ ҳолат эмас-ми? Шу *ҳафсаласи пирликни* ва *норозилик ,афсус-надомат* ифодасини ўзбекча ***Э воҳ , эссиз*** деб берсак бўлмайдими?!

Юқоридаги дастлабки қиёсий кузатувлар бу фожианома таржимаалридаги яна бир қанча муғим ҳолатлар,Гретхен образини қайта гавдалантириш борасида учрайдиган образли ввоситаларнинг қайта яратишини ўрганиш орқали Гёте наздидаги комил инсон

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

образини яратилиши тарихи,тажрибаси ва бу образнинг бошқа тилларда рецепциясини ўрганиш таржимашуносларнинг навбатдаги долзарб вазифаларидан биридир.

**Фойдаланилган адабиёт ва манбалар:**

1. Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. –Тошкент, Ғ.Ғулом нашриёти, 2020.
2. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т, Ўқитувчи,1978
3. Гёте Й.В. Фауст.1972.Э.Воҳидов тарж.
4. Гёте Й.В. Фауст. 2007. П.Усмон тарж.
5. Гёте И.В. Фауст. М., 1980. Б.Пастернак тарж.
6. Гёте И.В. Фауст. М., 1980. Н.Холодковский тарж.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# O‘ZBEK SHOIRALARI IJODIDA ZEBUNNISOBEGIM SHE’RIYATI AN’ANALARI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-190-196

Filol.f.n. **Safiya KARIMOVA**
SamDChTI dotsenti,
Samarqand, O‘zbekiston.
Tel: 90 250-40-48;
karimovas@gmail.com

**Annotasiya.** *XIX asrning birinchi yarmida yashab qalam tebratgan Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira singari iste’dodli shoiralar Zebunnisobegim she’riyatidan nimanidir o‘rgangan, unumli foydalangan. Har qaysi shoira ishq, firoq, hijron va ayriliq mavzularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, ezgulikni sevishga olishga o‘rgatganlar.*

**Kalit so'zlar:** *adabiy muhit, radifli g‘azal, bayt, lirika, ruboiy, vazn.*

**Аннотация**: *Узбекские поэтессы коканской литературной среды, жившие в первой половине XIX века: такие талантливые поэтессы, как Увайси, Надира, кое-что почерпнули из поэзии Зебуннисобегим. Когда каждый поэтесса писала на тему любви, разлуки, эмиграции и разлуки, воспевали чистую любовь и учили любить добро.*

**Ключевые слова**: *литературная среда, радиф газель, стих, лирика, рубаи, стихотворный размер.*

**Abstract**: *Uzbek poets of the Kokan literary environment who lived in the first half of the 19th century: such talented poetesses as Uvaisi, Nadira, learned something from the poetry of Zebunnisobegim. When every poetess wrote on the theme of love, separation, emigration and separation, they sang pure love and taught to love goodness.*

**Key words.** *literary environment, radif ghazal, verse, lyrics, rubaiyat, meter*

Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, yetuk vatanparvarlar, mashhur olimalar bilan bir qatorda so‘z san’atining g‘ururu iftixori sanalgan shoiralar ham bor. O‘z davr an’anasiga ko‘ra Hindistonda fors-tojik tilida ijod qilgan sharqning mashhur shoirasi Zebunnisobegim va XIX asr birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar shular jumlasidandir.

Zebunnisobegimning g‘azal va ruboiylari sevgi lirikasining yorqin namunasidir. Uning har bir misrasida abadiy hijron, hajr va firoqning

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

shiddatli to‘lqinlari, jafokor yorning sitamlari aks etadi. “Mashohir nisvon” (“Mashhur ayollar) kitobida aytilishicha, Zebunnisobegim bir yigitga yashirin muhabbat qo‘ygan ekan. Ming afsuski, u yigit yoshligida o‘ldirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Zebunnisobegim afsus va nadomatlar bilan quyidagi satrlarni bitadi:

*Yuz bahor oxir bo‘lib, har chakkadan joy oldi gul,*
*Hayfdir – bizning gulimiz zebi dastor o‘lmasa.*
*Har matoga bor xaridor, husnning bozorida,*
*Ne uchun Zebunniso qarib, xaridor o‘lmasa?*

Boshqa ijodkorlardan farqli o‘laroq, Zebunnisobegim an’analarini davom ettirgan, uning bevosita izdoshi-hammaslagi Uvaysiy lirikasida ham hijron motivi, hijron dardi yor-mahbubdan tashqari, Yaratganga muhabbat yoki o‘g‘lidan judolik bilan bog‘liq. “Uvaysiyman” radifli g‘azalida Yaratganga intiqlik bilan intilayotgan solih banda, Payg‘ambar alayhissalomga oshiq ummat, haq yo‘lidagi piru ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg‘ularini izhor etadi:

*To ko‘rib xarobotin ta’na etma ey Zohid,*
*Bir nafas emas xoli iqtido Uvaysiyman…*
*Faqir borgohiga qo‘ysa gar qadam har kim,*
*Bosh agar kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiyman.*

Shoiraning “Ko‘ndalang” radifli she’ri sevgi bobidagi bir haqiqat ifodasi sanaladi. Har bir misrasining tashbehlari samimiy, tili sodda, ifodasi xalqonadir:

*Ma’shuq ermas bo‘lmasa vasl ichra nozi ko‘ndalang,*
*Oshiq ermas bo‘lmasa so‘z-u gudozi ko‘ndalang.*
*Necha kun bedor o‘lub hech topmadim andin asar,*
*Tush aro bo‘ldum muyassar e’tirozi ko‘ndalang.*

Bugina emas, Uvaysiyning yorga bo‘lgan sevgisi, muhabbat lirikasiga oid quyidagi baytlar ham sodda, ravon, ohangdor. So‘zlar bag‘riga singgan hijron yorqin aks etadi:

*Ko‘zlaring firog‘ida tanda lolagun qonlar,*
*Qilg‘ali tomoshosin saf chekibdi mujgonlar.*

Yoki:

*Jafosin chekmayin bo‘lmas muyassar senga jononing,*
*Yurakka dardi tegmay, ta’sir etmas oh-u afg‘oning.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

“Sog‘indim” radifli hasbi hol g‘azalda o‘g‘li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari, nolayu fig‘onlari, sog‘inchlari ifodalanadi:

*Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,*
*Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim…*
*Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin*
*Ko‘z-u ko‘nglim ziyosi mohitobonimni sog‘indim.*

Zebunnisobegim an’analarining davomchisi, uning izdoshi-maslakdoshi Mohlaroyim Nodira ham har on vafoni kuylagan shoiradir. Jafokash taqdir yosh shoirani sevikli yori, ustozi – Umarxondan ayirdi.

Umr yo‘ldoshini beqiyos qadrlab, uning bilan o‘tgan har lahzani ulug‘ davlat bilgan va shodligu baxtni kuylagan shoira g‘azaliyotini Umarxon vafotidan so‘ng motam, hajr, firoq, hijron alamlari egalladi. “Oqibat” radifli g‘azalida yor vaslidan ayro ko‘ngil, visoldan mosuvo qalbning ohu fig‘onlari aks etadi:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat*
*Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.*

Faqat bu emas, ushbu davrda yaratilgan har bir g‘azali, muxammas, tarje’bandlari, “Firoqnoma”sidagi ruhiy ezilish, abadiy hijrondan shikoyat, zamona zaylidan nolish, yorga intizorlik, uni qo‘msash, tanholik va judolikdan nola sadolari har bir ko‘ngilga qandaydir mungli, vazmin ta’sir etadi:

*Menki qoldim hajr vayronida besomon bo‘lib,*
*Yor kelmas kulbayi ehzonima mehmon bo‘lib.*
*Dashtu sahrodin so‘rog‘ingni topolmay dard ila,*
*Aylanib keldim yana g‘am uyiga hayron bo‘lib.*
*Sharbati la’ling xumori birla chandon yig‘ladim*
*Qatra-qatra ko‘zlarimdin oqdi bag‘rim qon bo‘lib.*

Bunday mungli, alamli she’rlarni o‘qiganda qalbimizdan, ich-ichimizdan Nodira dardini his etamiz, uni tushunamiz, yuragimizda shoiraga nisbatan cheksiz hurmat-ehtirom, iliq tuyg‘ular jo‘sh uradi.

Bu firoq, bu hajr, tabiiy ravishda shoira Nodirabegim ijodida hijron motivini asosiy yo‘nalishga aylantirdi, munis va mahzun satrlar bitishga majbur etdi. Nodirabegim umr yo‘ldoshi faqatgina sevikli yor bo‘lib qolmasdan, balki uning “g‘amxo‘r ustozi” – xatolarini tuzatadigan,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

kamchiliklarini to‘ldirgan, ijodiyotida yangiliklar yaratishga undagan “ilhom parilar”i edi. Buni shoira o‘z tarjimai holida qayd etgan. Nodira: “…Sayyid Umar Bahodirxon aksari avqot mavzun xayollar birla g‘azal va muxammas va tarji’i murassa’ qilur erdi va andin oshiqlarg‘a surur va husn ahlig‘a g‘urur paydo bo‘lur erdi… Meni ham alar mutobaatida biror bayt taqlid bilan aytur erdim. Hazrat ba’zi nuqsonlariga isloh berib mavzun va murassa’ qilur erdilar”.

Zebunnisobegim ijodida lirik she’rlar bilan bir qatorda tasavvufiy mazmunga ega misralar ham uchrab turadi.Tasavvuf g‘oyalarining ifodasida Yassaviy, Boqirg‘oniy, Bedil, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabilarning ta’sirini kuzatish mumkin.

“Deydurman” radifli g‘azal ham shoiraning olam va odam haqidagi falsafiy qarashlarining davomidir. Lirik “men” har qanday ovoz va har bir husnda Haqning jamolini ko‘radi :

*Na un kelsa qulog‘ima , sadoyi yor deydurman ,*
*Na tarzi husn ko‘rsam , ul ruhi dildor deydurman* [2 , 58].

Insonning yashashdan murodi komillik ekan , bu darajaga u avvalo pokiza axloq orqali erishadi. Haq yo‘liga kirgan inson esa , bedoru xushyor – ko‘ngil ko‘zi ochiq , g‘aflatdan yiroq bo‘ladi. Zebunnisobegim qator asarlarida odamlarni g‘ofil bo‘lmay , atrofidagi voqealardan ogoh bo‘lishga chaqiradi. G‘azallarida axloqiy mavzuning aks etishi ham Zebunnisobegim ijodi uchun xarakterli. Inson o‘z-o‘zini anglashi kerakligini quyidagi baytda targ‘ib qiladi:

*Qilo, ogoh bo‘lgil , chashmi tarlarni tamosho qil ,*
*Hama sarmast o‘zdin – bexabarlarni tamosho qil* [2,55].

Zebunnisobegimning ayrim g‘azallarida Yassaviy hikmatlari ta’sirini sezish mumkin. Bu mushtaraklik shundaki , har ikki shoir ijodida ham insonning ichki ma’naviy olami kamoloti asosiy o‘rinda turadi. Inson kamolotida kamtarlik , kamsuqumlik , faqirlik muhimdir:

*Qachon dunyoga kelding , xalq aro rasvoi olam bo‘l,*
*G‘ariblar ostonida itidin doimo kam bo‘l* [2,50].

Inson yashar ekan , hayotini ibratli va mazmunli o‘tkazishi kerak, nafsu havoga berilmay yashamog‘i lozim, degan xulosa ilgari suriladi. Nafsparvarlik, buzuq maishat odamni g‘ofil qiladi. Shu bois shoir ogohlikka chaqiradi:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*O‘tarlar barqdek bilsang agar hoyu xavaslarkim,*
*Egil uqbo g‘aminkim o‘lguningcha diydasi ham bo‘l* [Nodira.2001: 51.]

Shoira Mohlaroyim Nodira dunyoqarashining takomilida o‘zi mansub bo‘lgan islom dunyosining ma’naviy ta’siri katta. Shoira devonida Alloh taolo, payg‘ambar alayhissalom betakror badiiyat bilan vasf etiladi. Tarixiy obrazlar teran mazmun mutanosibligida talqin qilinadi. Bu shoiraning kalom ilmini, islom dini va millatimiz tarixini chuqur bilganidan dalolat beradi. Devon tartib berar ekan, u mavjud an’anaga muvofiq debochani hamd va na’tlar bilan boshlaydi. Ma’lumki, na’t g‘azal deb Muhammad payg‘ambar maqtoviga bag‘ishlangan g‘azallarga aytiladi. [Vohidov,1994:208]. Nodira ijodiyotidagi na’t she’rlar ham asosan, vasf, me’rojnoma va shafoat-faxriya mazmunida. Ularda Muhammad payg‘ambarning so‘nggi payg‘ambar ekanligi, olam u tufayli yaratilganligi, qiyomat kunida payg‘ambar shafoati bois ummatlarining barcha gunohlari kechirilishi ohorli mazmun va betakror tashbehlar vositasida ifodalanadi.

*Ahmad ( Muhammad) Haq taoloning do‘stidir,*
*Ikki olam uning nuridan namoyondir.*
*Gunohlar zulmatidan ne qo‘rqinch bo‘lsin,*
*Axir ( Muhammad payg‘ambar) jamolining quyoshi porlagan-ku!*

Mana bu misralar ham koinot sarvari na’tida Nodiraning o‘ziga xos nazm namunalarini yaratgani isbotidir:

*Muhammadkim, nabilar xotamidur,*
*Bisoti lam’i Alloh mahramidur.*
*Agar har kimsakim tab’iyat aylar,*
*Saodatning savobi a’zamidur* [Nodira, 2001:18].

Ikkala she’r mohiyatan bir-birini to‘ldiradi. Birinchisida Nodira Muhammad alayhissalom Haq taoloning habibi, ikki olam uning nuridan paydo bo‘lgan, uning jamoli quyoshdek hamma yerni yoritib turganda, ma’siyat qorong‘iligidan qo‘rqinchga o‘rin qolmaydi, deb rasuli akramni ulug‘laydi. Shoira bu o‘rinda dastlab islom dini aqidasiga ko‘ra, olam Muhammad payg‘ambar tufayli yaratilgani, unga ummat bo‘lish nechog‘lik sharafli ekani, Rasuli akramning qiyomat kunida o‘z ummatlariga shafe’ligi, jumladan, Nodira ham o‘sha ummatlar qatorida shafoatdan umidvorligi ifodalanadi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Munojot g‘azaldan olingan mana bu baytda Muhammad payg‘ambarning qiyomat kunida o‘z ummatlarining gunohini Tangridan so‘rovchi shafe’ligi bilan bog‘liq qarashlar o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, Nodira o‘zining gunog‘kor ekanligini aytib, Yaratgandan Muhammad payg‘ambarning haqqi hurmati bandalari, jumladan, o‘z gunohlarini kechirishni so‘raydi:

*Ey Xudo, Ahmadi Muxtorning urug‘-aymog‘lari haqqi,*
*Kibriyolik lutfing bilan bandalaring gunohini kechir.*

Mohlaroyim ijodida xulafoi roshidin vasfiga bag‘ishlangan she’rlar ko‘p bo‘lmasa-da, ularning fazilati, islom dini rivojidagi xizmatlari vasf etilgan misralarni uchratish mumkin. Masalan, mana bu ruboiyda dastlabki to‘rt xalifa-islomning ilk davrlarida Abu Bakirning Muhammad alayhissalomga hamrohlik qilib, mushriklardan qochib g‘orga yashirinish voqeasi, hazrati Umarning odilligi,Usmon va Alilarning dinni mustahkamlash yo‘lidagi xizmatlari tasvirlangan:

*Erdi Bubakr yori g‘or anga,*
*Umar adl etti ustuvor anga,*
*Qildi Usmon charog‘idin ravshan,*
*Murtazo erdi do‘stvor anga.*

Umuman, Nodiraning na’t va manqabat she’rlarida Muhammad payg‘ambarning fazilatlari, yaqinlarining islom tamadduni yuksalishi-dagi xizmatlari o‘ziga xos pafos hamda ohorli tashbehlar vositasida ifodalangan.

Darhaqiqat, Zebunnisobegim an’analarining hayotbaxsh ruhi va ta’siri XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek shoi-ralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barno-larning bir qancha g‘azal, ruboiy, qit’a va boshqa janrdagi asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu shoiralarning she’rda tilning sodda va ranginligi uchun zahmat chekishlarini Zebunnisobegimga bir iz-doshlik harakati, desa aslo xato bo‘lmaydi. Ular g‘azallarida Zebunni-sobegim qo‘llagan vaznlar, ko‘p iboralar, u g‘azallar asosiga olingan ishq, may, do‘stlik, hajr, firoq, hijron mavzulari, avtobiografik mavzu va boshqalar keyingi o‘zbek shoiralari, xususan, she’riy devon yarat-gan Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar tomonidan rivojlantirildi, chuqurlashtirildi, nihoyasiga yetkazildi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keyingi davrlarda yashab qalam tebratgan iste'dodli o'zbek shoiralarining ko'pchiligi Zebunnisobegim she'riyatidan nimanidir o'rgangan, boshqa bir madaniyat yutuqlaridan unumli foydalangan.

Har qaysi shoira ishq, may, do'stlik, hajr, firoq, hijron va ayriliq mavzularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, hayotni, ezgulikni sevishga, qiyinchiliklarga qarshi tura olishga o'rgatganlar. Ular kuylagan muhabbat, ularning hayoti barchaga ibratlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aziz Qayumov. Nodira. O'zbek tili va adabiyoti masalalari. №1. -37 bet.
2. Zebunniso. Majmuai she'rho. -56 s.
3. Uch shoira. –Toshkent: 1958. 5- bet.
4. O. Sharafiddinov. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Tom II. –Toshkent: 1945. - 191
5. Majmuat ush-shuaro. Sharqshunoslik universiteti qo'lyozmasi. № 3371, varaq 8.
6. Mubarakova, D. (2022). Media matn tarjimasida lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspektlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 26)*, 411-414.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# “NAVOIY” ROMANINING ARABCHA TARJIMASIDA PERSONAJLAR NUTQINING BERILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-197-203

Filol.f.n. **Shavkat ARIPOV**
TDSHU dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 95-077-07-03;
e-mail: aripovsh@gmail.com

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada Oybekning “Navoiy” romanidagi personaj nutqining arabcha tarjimada berilishi masalasi, bunda mutarjim erishgan yutuqlar va duch kelingan ba’zi muammoli vaziyatlar xususida so‘z yuritiladi. Maqolada badiiy asarda personaj nutqi obrazning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qilishi alohida ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar**: *badiiy tarjima, personaj nutqi, obrazning ichki dunyosi, monologik nutq, dialog.*

**Аннотация**: *В данной статье рассматривается вопрос арабского перевода речи персонажа романа «Навои» Ойбека, достижения переводчика и некоторые возникшие проблемные ситуации. В статье подчеркивается, что речь персонажа в художественном произведении служит раскрытию внутреннего мира персонажа.*

**Ключевые слова**: *художественный перевод, речь персонажа, внутренний мир персонажа, монологическая речь, диалог.*

**Abstract**: *This article discusses the issue of the Arabic translation of the speech of the character of the novel "Navoi" Oybek, the achievements of the translator and some of the problematic situations that have arisen. The article emphasizes that the speech of the character in a work of art serves to reveal the inner world of the character.*

**Key words**: *literary translation, character's speech, character's inner world, monologue speech, dialogue.*

Taniqli o‘zbek adibi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek qalamiga mansub, xalqimiz og‘ir urushni o‘z boshidan kechirayotgan yillarda yozilgan “Navoiy” romanida XV asrning ikkinchi yarmida yashagan xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari, milliy o‘ziga xosliklari o‘z aksini topgan[61]. Mazkur asar nashr etilgandan keyin dunyoning bir necha

[61] Ойбек. Навоий . – Т.: “Ўздавнашр”, 1944.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tillariga, jumladan arab tiliga ham tarjima qilinib nashr etilgan (1979 y)[62]. Ushbu maqolada "Navoiy" romanidagi personaj nutqining arabcha tarjimada berilishi va tarjima jarayonida mutarjim erishgan yutuqlar va duch kelgan ba'zi muammoli vaziyatlar xususida muxtasar so'z yuritiladi.

Personaj nutqi obrazning ichki dunyosini ochib berish, xarakterini individuallashtirishga, uning o'ziga xos jihatlarini ajratib turuvchi xususiyatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Yozuvchining ijod qilish, yaratish uslubi va mahorati muayyan g'oyaviy funksiyalar bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Personaj nutqi obraz xarakterini yoritish, personajning ruhiyati, hissiyotlari, o'y-fikrlari, munosabatini namoyon qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asardagi har bir personaj o'z nutqiga ega. Bunday nutq adabiy tildan farqlanadi, ular qiyin so'zlarni ba'zan buzib talaffuz qiladilar – asl nusxada o'z aksini topgan bunday so'zlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar asliga xos berilishi kerak.

Personajlar nutqining barcha o'ziga xos belgilari, psixologiyasi, dunyoqarashi, milliy o'ziga xosligi uning nutqida, hatti-harakatida, ichki kechinmalarida, asardagi boshqa personajlar bilan munosabatida o'z aksini topadi. Agar tarjimon personaj nutqi va portretini tarjimada asliyatga muvofiq bera olsa, muvafaqqiyat qozonadi. Tarjimon asarni tarjima qilishda ba'zi muammolarni yechadi. Shunga qaramay ayrim o'rinlarda personajlar nutqida noaniqliklar uchrashi ham tabiiy.

Badiiy asarda personaj nutqi vujudga kelish, shakllanish va rivojlanish sirasida turli vazifalarni bajaradi. Personaj nutqining birinchi vazifasi – hayotning haqqoniy badiiy in'ikosini yaratishdir. Personaj nutqi yaratilayotganda mamlakat, jamiyat, xalq, uning ijtimoiy kelib chiqishi nazarda tutiladi. Personaj nutqining uchinchi muhim vazifasi – ijtimoiy hayot, inson va uning ruhiy olamini aks ettiribgina qolmay, tabiat va kishilar ruhiyatidagi go'zllikni tasvirlash, o'tmish va hozirgi davrdagi ibratli voqealarni aks ettirish orqali kitobxonga emotsional ta'sir o'tkazish, zavq-shavq bag'ishlash, ularni tarbiyalash ishiga o'z hisasini qo'shishdan iborat.

Tarjimon personaj nutqini barcha xususiyatlari, hatto gap ohanglarini ham hisobga olishi kerak. Shundagina kitobxon obraz haqida kengroq

[62] آيبيك، نوائي رواية، دار التقدم، فرع طشقند1979

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tasavvurga ega bo‘ladi. Monologlar asarda o‘zgacha bir ruhiyat uyg‘otibgina qolmay, kitobxon asarni o‘qigan sayin yangi-yangi va teran mazmunli fikrlarga duch kelaveradi. Hattoki undagi oddiy bir personaj monologida ham olam-olam ma’no borligi ko‘rinib turadi.

Personaj nutqi deganda dastlab monologik nutq ustida to‘xtalish lozim. Bunday nutq asarda jozibadorlikni oshirib, personajning his-tuyg‘ularini ifoda etish, ularning qalbida kechayotgan quvonch yoki iztirobni ifodalashga xizmat qiladi. Oybekning “Navoiy” romani personajlar nutqi bobida boshqa asarlardan ajralib turadi: *“Kampir charxini yig‘ishtirib, bukchaygan holda keldi.*

*– Qaysi bekning odamisen, qaerga borasen? – so‘radi qiziqib.*

*–Men o‘z boshimga o‘zim hokim! – To‘nglik bilan javob berdi To‘g‘onbek. – Erkaklaring bormi? Qaerda?*

*–Bundaylarni o‘z umrida ko‘p uchratgan kampir beparvo javob berdi…”*[63]

Parcha arab tiliga quyidagicha o‘girilgan: رفعت العجوز مغزلها، و تقدمت بهدوء، وكانت قد التقت في حياتها بالكثيرين من الجفاة. وسألت باهتمام. في خدمة أي بيك أنت؟ والي اين ذاهب؟ من طوغان بيك مهنية الجذع كثيرًا. أجاب طوغان بيك بفظاظة: انا سيد نفسي. هل في عائلتكم رجل؟ وأين هو؟ أجابت العجوز[64]. Dialog t arjimasida asosiy mazmun bera olingan. Dialogning bayon shakli va mazmuni tarjimani o‘quvchi kitobxonga tushunarli, ohangdor, obrazli nutq vositalari bera olingan, biroq asliyatdagi ajratib ko‘rsatilgan, o‘sha davrga xos, muallif uslubini aks ettiruvchi unsurlar tarjimasiga unchalik e’tibor berilmagan ko‘rinadi.

Personaj nutqi deganda asosiy e’tibor dialogik nutqqa qaratilmog‘i lozim. Endi Quyidagi dialogni tahlil etishga harakat qilamiz (personajlar nutqi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgani bois parchani kengroq berishga to‘g‘ri keldi):

*– “Zakotchimisen? – so‘radi u.*

*To‘g‘onbek boshi blan tasdiqladi. Kampirning oyoq-qo‘llari bo‘shashganday, sholchaning bir chekkasiga o‘tirib oldi.*

*–Bolam, - dedi u yalingan tovush blan, - tangri martabangni ulug‘ qilsin, bizga rahmu-shafqat et. Zakotga bergulik hech nimamiz yo‘q.*

[63] Ойбек. Навоий. – Т.: “Ўздавнашр”, 1944. – Б. 61.
[64] آيبيك، نوائي رواية، دار التقدم، فرع طشقند1979

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Bor-yo‘g‘imizni berib bo‘lganmiz. O‘laqolay, soliqlardan boshimiz chiqmay qoldi, hali “qo‘sh puli”, hali “Sohib jam”, hali “mirob”, hali “sarona”*[65] *– sanay bersang odog‘i yo‘q…*

*To‘g‘onbek indamadi, dastro‘moli blan keng, ser tuk ko‘kragini yelpib, atrofga “chirt-chirt” tupuk otib o‘tiradi-da, nihoyat, ho‘mrayib kampirga qaradi.*

*–Sannama ko‘p! Xudoy ayollarni so‘zga yaratgan-da.*

*–Arzi-dodimni kimga aytayin, quloq sol, bolam! – muloyimlanib dedi kampir.*

*–**Ko‘p so‘z eshakka yuk**… Qozonni os. Mo‘l qilib etni sol. “*

Yuqoridagi parchada *bek, ubra, umoch* singari xos so‘zlardan tashqari, *zakotchi, sarona* kabi eskirgan so‘zlar, hatto hozirda qo‘llanilmay qo‘ygan *boqimsiz, qaramsiz* sifatlari, *sannamoq* fe’li ishlatilgan. Bundan tashqari, asar yozilgan XX asarning 40-yillariga xos bo‘lgan *-men, -sen (odami**sen**, bora**sen**)* kabi egalik qo‘shimchalariga duch kelinadi *(harxil, allanechik, blan* kabi so‘zlar esa XX asrnig 40-50-yillarida xuddi shunday shaklda yozilgan). Ammo arab tarjimoni asarning bunday o‘ziga xosliklariga qanchalik e’tibor qaratgan, bunday uslub xususiyatlarini o‘z tarjimasida hisobga olganmi, buni nimada ko‘rsa bo‘ladi degan bir qator savollar tug‘ilishi tabiiy. Bu savollarga javob berish uchun parchaning arabcha tarjimasiga e’tibor qaratamiz:

هل أنت جابي الاتاوات؟
أيد طوغان بيك قولها بهزة من رأسه.
فجلست العجوز علي حافة البساط و كأنما قد خارت قواها. و قالت بصزت واهن ضارع:
يا بني، أعلي الله من شأنك! اعمل لنا معروفًا و لطفًا وقل لنا بأي شئ ندفع الاتاوات. لقد أعطينا كل ما كان لدينا. و لم نتخلص قط من الضرائب. اليوم ضريبة علي الدواجن، و بعد ذلك علي الزرع، و غدًا لقائد العسكر، و بدها للميراب، ثم الضريبة علي النفوس..
ضرائب بلا نهاية...
صمت طوغان بيك مهويًا بالمنديل صدره العريد المشعر، باضقًا بصخب في جميع الجهات. وأخيرًا، صرخ بالعجوز بصوت جهم:
لا تثرثري عبثًا. الله خلق النساء للثرثرة.
قالت العجوز بصوت ضارع:
من نرجو، و لمن نشكو؟ أسمعني، يابني.
الكلام الكثير ثقيل حتي علي الحمار. علقي القدر علي النار، وضعي فيه مزيدًا من اللحم.

[65] XV asrdagi soliqlar.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Arabcha tarjimada biz yuqorida sanab o‘tgan eskirgan so‘zlar, muallif uslubining o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi shakllar, so‘zlarning imlosi tarjimada o‘z aksini topmagan. Shunga qaramay, tarjimon parchadagi, o‘zbek tilida mashhur, muallif tomonidan “*Ko‘p so‘z eshakka yuk*” shaklida qo‘llangan maqolni (aslida “Ko‘p gap eshakka yuk”) “Ko‘p so‘zlar hatto eshakka ham og‘ir” ma’nosida o‘girgan. Chunki, arab tilida maqolning aynan muqobili uchramasligi bois tarjimon uni so‘zma-so‘z o‘girgan va ma’no to‘la aks etgan. Bundan tashqari, maqol o‘quvchiga tushunarli.

G’.Salomov o‘zining “Tarjima nazariyasiga kirish” kitobida imo-ishoralar tarjimasi masalasiga to‘xtalar ekan Oybekning “Navoiy” romani ruscha tarjimasi xususida алоҳида so‘z yuritadi. Tarjimon imo-ishoralar “tili”ni, xususan, har bir xalqning o‘ziga xos ishoralari, turqi, yuz-ko‘z ifodalarini yaxshi bilishi lozimligi, yozma adabiyotda ma’nodor kulgi, yo‘tal, yuz-ko‘z ifodasi, qo‘l harakatlari keng yoritilishi va tavsiflanishi, bularni tarjimada durust anglab, to‘g‘ri talqin etish juda muhimligini uqtirib o‘tadi[66]. Masalan, “Navoiy” romanida yosh olimlar – Sultonmurod bilan Zayniddin shoirning Hirotga kelishini eshitarkanlar, bunga javoban: *“Istiqbollariga chiqmoq kerak,– o‘rnidan qo‘zg‘aldi Sultonmurod”*[67]. degan gaplari ruscha tarjimada *“Надо пойти его встречать, – проговорил Султанмурад, тут же вскочив с места”*[68] shaklida berilganligini aytib, “Ehtimol, bu tarjimada, daf’atan qaraganda, ko‘zga yalt etib tashlanadigan qusur yo‘qdir, ammo unda obrazning xarakteri, ichki dunyosini qo‘pol ravishda siyqalashtiradigan nuqsonga yo‘l qo‘yilganki, tadqiqotchi Gulnora G‘afurova o‘z kitobida buni o‘rinli qayd etgan[69] – deb yozadi G‘.Salomov, – Badiiy tasvir vositasi sifatida *tashrif buyurmoq* bilan *kelmoq, istiqbolga chiqmoq* bilan *kutmoq* va hokazo garchi mohiyat e’tibori bilan ayni bir harakatni ifodalasa-da, ammo ular anglatgan ma’no nozikligi tarafidan bir-biridan farqlanadi. Shunday ekan, hazrat Navoiyni qarshilash marosimi haqida, ruscha tarjimada ko‘rilganiday, “Uni kutib olishga chiqish kerak, – dedi Sultonmurod, apil-tapil o‘rnidan turib” deyilsa, bu, bir tomondan, hurmatsizlik, ikkinchi

[66] Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1978. – Б. 63-65.
[67] Ойбек. Танланган асарлар. III том. – Т.: “Ўздавнашр”, 1957.
[68] Айбек. Сочинения, т. III. – Т., 1962.
[69] Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Т.: “Фан”, 1973. – С. 84-85.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tomondan esa, Oybek tasviri ham talqiniga zid, uchinchidan, tarixiy koloritni buzish bo‘ladi. Chunki, garchi Sultonmurod yosh bo‘lsa-da vazmin, salobatli, muloyim va odobli yigit. Uning tomonidan, yuqoridagi ruscha tarjimada qayd etilganiday soxta xatti-harakatlar sodir bo‘lishi aql bovar qilmaydigan narsa.

Oybekning “Navoiy” romani dialoglarga boy. Ularda nafaqat ikki kishi orasidagi suhbat, kunlik oddiy so‘zlashuv (nutq) o‘z ifodasini topgan, balki dialoglar muallif izohlari, maqol, matal va iboralar bilan yo‘g‘rilgan. Buni quyidagi parchada ko‘rish mumkin:

*“To‘g‘onbek olmani olib tamosha qildi. Keyin yassigina, beo‘xshov burniga yaqin tutib, iskadi va kulib Dildorga murojaat etdi: “Kel, hay suluv qiz! Sening nasibang, qo‘limdan ol. Ug‘onim*[70] *seni ham qo‘limga shu olmaday uzib tushirsin!”*

*Dildor, qiyo boqmasdan, o‘g‘urni tashlab, qayoqqadir qochib yo‘qoldi. ...Kampir unga qo‘rqa-pisa qaradi: “Achchig‘lanma, bek yigit, o‘zi uyatchang qiz, yana* ***boshi bog‘liq****... Men hozir qozon osib, shiringina taom qilib beramen. Qo‘shnilarda bo‘lsa, bir-ikki oyoq*[71] *bo‘za ham keltiramen” dedi-da kalavlanib o‘rnidan turdi.”*

Yuqoridagi parcha izchil o‘zaro izchil bog‘liq jumlalardan iborat bo‘lgani bois uni parchalashning iloji yo‘q. Parcha mashhur o‘zbekcha “*Tuya ko‘rdingmi – yo‘q”* iborasi bilan boshlanadi. Kampirga berilgan sifatlar *(suyak yelkalar, g‘am, tashvish cho‘kkan chuqur, xira ko‘zlar)* va To‘g‘onbekka berilgan sifatlar *(yassigina, beo‘xshov burni)* nafaqat personajlarning jismoniy, balki ularning ijtimoiy holatlarini ham ko‘rsatib turibdi. Bundan tashqari, parchada *“iskadi”, ug‘on, o‘g‘ur, blan, dakkam-dukkam miyiq, beramen, oyoq, kalavlanib* singari eskirgan shakllar, *jo‘ji-bo‘ji tuxumidan tarqalgan,* ***boshi bog‘liq*** (“unashtirilgan” ma’nosida) iboralariga ham duch kelamiz. Parchaning arabcha tarjimasi quyidagicha amalga oshirilgan:

“فالتقطها طوغان بيك وقربها من أنفه المفلطح الدميم، وشمها، وقدمها لديلدار ضاحكًا.
اقتربي مني، يا جميلة! وخذي سعادتك من يدي. عسي الله أن يعطيك لي، كهذه التفاحة.
أوقفت ديلدار الدق دون أن ترفع بصرها، وهربت. نظرت العجوز اليه مذعورة.

[70] Ug‘on - tangri.
[71] Oyoq – kosa.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

لا تغضب، يا بيك. فهي فتاة خجول، كما أنها مخطوبة. سأعلق القدر فوق النار الآن، وأطبخ طبخة لذيذة. واذا وجدت لدي الجيران «بوزه» جلبت قدحًا أو قدسين منها.

قالت العجوز ذلك، وا بتعدت تعرح.”

Parcha tarjimasida umumiy mazmun bera olingan deyish mumkin. Biroq, sinchiklab qaralsa tarjima nuqsonlardan xoli emas. Jumladan, parchaning boshida keltirilgan *Tuya ko‘rdingmi – yo‘q!* iborasi tarjimada tushirib qoldirilgan. To‘g‘onbekning *“zaharxanda”*si ham oddiygina qilib *“kuldi”* deya berilgan. Shuningdek, tarjimon muhim sifatlarni ham tushirib qoldirgan.

Umuman olganda, personajlar nutqidagi jonli nutq elementlarini muvaffaqiyatli o‘girish uchun rasmiy lug‘atlarga emas, xalq tiliga tayanish kerak. Negaki, “...jonli tilga oid so‘zlar ko‘pincha lug‘atlarda qayd qilinmaydi, bo‘lganlari ham aksari hollarda muayyan kontekst ruhiga mos kelavermasligi mumkin. Shu sababli tarjimaning asl nusxaga nechog‘lik yaqin bo‘lishi tarjimon mahoratiga, xalq tilini qay darajada egallaganiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi”[72].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Айбек. Сочинения, т. III. – Т., 1962.
2. Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Т.: “Фан”, 1973. – С. 84-85.
3. Ойбек. Танланган асарлар. III том. – Т.: “Ўздавнашр”, 1957.
4. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1978.
5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: “ToshDSHI”, 2016.
6. Ойбек. Навоий. Таҳрир ҳайъати: Б.Алимов ва б. – Т.: “Шарқ”, 2004.
7. Ойбек. Навоий . – Т.: “Ўздавнашр”, 1944.
8. آيبيك، نوائي رواية، دار التقدم، فرع طشقند1979
9. Эгамова Я. Таржимада персонажлар нутқидаги жонли тил элементларини акс эттириш масаласи. – Т., 1997. – Б. 34.
10. Akhmedova, D. R. (2021). Functional and stylistic features of nouns in persian newspaper texts. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 231-240.

[72] Эгамова Я. Таржимада персонажлар нутқидаги жонли тил элементларини акс эттириш масаласи. – Т., 1997. – Б. 34.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

## MADANIYATLARARO MULOQOT VA BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

# НЕОЛОГИЗМЫ КАК «ЯЗЫКОВАЯ РЕАКЦИЯ» НА ДИНАМИЧНОЕ РАЗВИТИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ КНР

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-204-211

Д.ф.н. **Саодат НАСИРОВА**,
доцент ТГУВ,
Ташкент, Узбекистан
Тел: +998 97 333 58 25;
Email: saodat888@mail.ru

**Аннотация:** *В современном китайском языкознании общественно-политическая терминология претерпевает глубокие изменения, демонстрируя связь с базисной платформой – философского отношения личности и общества, личности и власти, общества и власти, государства и международного сообщества. Вместе с тем, она функционирует в качестве многопрофильного языкового инструмента выражения общественно-политических явлений. В данной статье рассмотрен анализ некоторых базовых неологизмов в рамках политической концепции КНР XXI века, выявлены их основные значения и варианты трансформации.*

**Ключевые слова:** *общественно-политическая терминология, дипломатия, термин, трансформация.*

**Abstract:** *In modern Chinese linguistics, socio-political terminology is undergoing profound changes, demonstrating a connection with the basic platform - the philosophical relationship of the individual and society, personality and power, society and power, the state and the international community. At the same time, it functions as a multidisciplinary language tool for expressing socio-political phenomena. This article discusses the analysis of some new basic socio-political terms from the sphere of Chinese diplomacy, based on the sources, their main meanings and transformation options are identified.*

**Key words**: *socio-political terminology, diplomacy, term, transformation.*

## Введение

На современном этапе развития неологии единого определения термина «неологизм» нет. По-разному решаются и вопросы

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

тождества понятий «неологизм» и «новое слово», интерпретации окказиональных и потенциальных слов. Неологизмы рассматриваются в лексикологическом, лингвокультурологическом, семантическом аспектах. Поскольку основные стимулы к появлению новых лексических единиц в языке являются изменения, происходящие в обществе. Закономерно рассмотрение нами неологизмов в лексикологическом аспекте. Не менее важен семантический аспект, так как слово часто становится новым в результате семантической деривации (на основе метафорического употребления названия, на основе сужения, специализации или расширения объема номинации и так далее).

**Методология.**

Теоретико-методологическая база неологии была заложена в XIX - начале XX вв. Ф.И. Буслаевым, Е.Д. Поливановым, А.А.Потебней, А.М.Селищевым, И.И.Срезневским, Л.П.Якубинским и другими[73]. Как лингвистическое направление неология оформилась во второй половине XX в. и связана с именами С.И. Алаторцевой, А.А. Брагиной, Р.А. Будагова, В.К.Гака, В.И.Заботкиной, Е.А.Земской, В.Г.Костомарова, Н.З.Котеловой, В.В.Лопатина, А.Г.Лыкова, Р.Ю.Намитоковой, Е.В.Сенько, Г.Н.Скляревской, Н.И. Фельдман, Э.Н. Ханпиры и другими[74]. Среди

[73] Буслаев Ф.И. Преподавание отечественного языка: учеб. пособие для пед. ин-тов по спец. «Рус яз. и лит.». – М.: Просвещение, 1992. – 511 с.; Поливанов Е.Д. Избранные работы. Труды по восточному и общему языкознанию. – М.: Наука, 1991. – 622 с.; Потебня А.А. Мысль и язык. – М.: Правда, 1989. – С. 17-20; Селищев А.М. Избранные труды. – М. : Просвещение, 1968. – 640 с.; Срезневский И.И. Русское слово: учеб. пособие для пед. ин-тов по спец. №2101 «Рус. Яз. и лит.» – М.: Просвещение, 1986. – 173 с.; Якубинский Л.П. Язык и его функционирование: избранные работы .– М.: Наука, 1986. – 205 с.

[74]Алаторцева С.И. Проблемы неологии и неографии: Автореф. дис. ... докт. филол. Нау к.– СПб., 1999. – 40 с.; Брагина А.А. Неологизмы в русском языке: пособие для студентов и учителей. – М.: Просвещение, 1973. – 224 с.; Будагов Р.А. Очерки по языкознанию. – М.: Изд-во Акад. Наук СССР, 1953. – 279 с.; Гак В.Г. Новые слова и словари новых слов. – Л.: Наука, 1983. – С. 15–29; Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1989. – 126 с.; Земская Е.А. Словообразование как деятельность. – М.: Наука, 1992. – 220 с.; Костомаров И.Г. Языковой вкус эпохи: из наблюдений над речевой практикой масс-медиа // Язык и время. Вып. 1. – Изд. 3-е, испр. и доп. – СПб : Златоуст, 1999. – 320 с.; Котелова Н.З. Первый опыт описания русских неологизмов // Новые слова и словари новых слов. – Л., 1978. – С. 20-31.; Лопатин В.В. Рождение слова. Неологизмы и

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

китайских лингвистов, разработкой теории неологии, занимаются Cheng Mingan, HaoWenhua, Gao Mingkai, Pei Yajun, Li Yun, Li Jianguo, Liang Ailin, Chen Jiaxuan, Sun Shuai, Wang Yongyan, Zhang Rong и др[75].

**Основная часть.**

В понятие «новое слово» в нашей статье мы включаем ***авторские неологизмы***, то есть названия новых реалий, придуманные конкретными людьми, а именно лидерами китайского правительства начала XXI в (Цзян Цземин, Ху Цзиньтао и Си Цзиньпин). Ниже приводится семантический анализ авторских **неологизмов-идеологем**, слов, содержащих идеологический компонент значения. Влияние идеологии на язык проявляется в том,что одно и тоже явление вызывает различные ассоциации и оценки коммуникантов, обусловленные их различной идеологической позицией. Ортодоксальная политика принуждает следовать жёстко определённым дискурсивным законам, определённым канонам высказываний. Демократическая власть предполагает проявление многообразных социальных позиций, так как идеологический и социальный контингент

окказиональные образования. – М.,1973. – 152 с.; Лыков А.Г. Можно ли окказиональное слово называть неологизмом? // Русский язык в школе. – 1972. – №2. – С. 85–89.; Намитокова Р.Ю. Авторские неологизмы: словообразовательный аспект. – Ростов-на- Дону : Изд-во Рост, ун-та, 1986. – 154 с.; Сенько Е.В. Инновации в современном русском языке. – Владикавказ : Ир, 1994. – 183 с.; Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. – Спб.: Наука, 1993. – 150 с.; Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания, 1957. – №4. – С. 64-73; Ханпира Э.Н. Окказиональные элементы в современной речи // Стилистические исследования (на материале современного русского языка). – М., 1972. – С. 303-308.

[75] 程明安。应用汉语。湖北：湖北人民出版社，2008；高名凯。普通语言学。下册，上海：1955；裴亚军。国学术语规范问题 // 中国科技术语。2009 #3；李芸。信息科学和信息技术术语概念体系研究：博士论文。–北京：北京语言文化大学，2003；李建国。语言规范史略。–北京：语文出版社，2000；梁爱林。从中文“术语学”的英译看术语学的研究应用领域// 术语标准化与信息技术. – 北京，2004；茂家煊。现代语言学词典。– 北京，2002；孙衰。术语的功能与术语在使用中的变异性：博士论文。– 中国，黑龙江大学，2009；王永炎。五年来中医药学名词审定工作。科技树与研究，2005；张榕。术语定义抽取，聚类与术语识别研究；博士论文。– 北京：北京语言文化大学，2006。

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

говорящих стремится проявить свою индивидуальность, свой политический взгляд[76].

Целесообразно остановиться на факте влияния конфуцианских ценностей в формировании идеологем общественно-политической сферы китайского языка. Эти ценности красной линией проходят во всех концепциях современных политиков КНР.

Так, например, идея заботы партии об интересах широких народных масс все активнее связывается ныне с понятием 以人为本 / 人本 yǐrénwéiběn/ rénběn *народ в качестве основного*, употребляемым наиболее часто как мыслителями более ранних периодов развития общества и государства в Китае, так и современными исследователями и политическими деятелями. Конфуцианское понятие 人本 rénběn, как приоритетное направление в новом курсе *трёх представительств* 三个代表 sāngè dàibiǎo, нашло своё воплощение и на страницах партийной печати. Так, Цзянь Цзэмин отмечал, что “выражать коренные интересы китайского народа – главная линия при претворении в жизнь идей “трёх представительств”” [77]. Это прежде всего согласуется со старыми установками конфуцианской культуры о том, что правитель должен любить народ, быть близким к народу и всё делать для народа[78].

В процессе включения конфуцианских ценностей в контекст современных политических реалий КНР высшее звено руководства КНР обратилось к старой конфуцианской формуле 依德治国 yī dé zhìguó *управление государством на основе добродетели* (*добродетельное правление*), которая ныне непосредственно связывается с продолжением курса *строительства социалистической духовной цивилизации* и является наиболее общим выражением курса *трёх представительств*[79]. Следует отметить, что

[76] Воробьёва О.И. Политичексая лексика. Политичексий языка как сфера социальной коммуникации. – М.: ИКАР, 2008. – С.25.
[77] 加强 "民本" 意识。- 纪念建党 80 周年准提网站。htpp://www.njdj.longhoo.net. – 北京 09.10.2001
[78] Аллаберт А.В. Место конфуцианства в модернизации Китая (конец XX – начало XXI века). – М., 2008. – С.137.
[79] Там же. – С.141.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

у Конфуция термин 德 dé *добродетель* приобрёл значение морально-нравственного правления, правления на основе добродетели [80]. Нынешние лидеры КНР обратились к данному постулату Конфуция, который сегодня провозглашён в качестве одного из приоритетных направлений в политической практике. Курс 依德治国 yīdé zhìguó *добродетельного правления* сегодня связывается с идейным строительством, а именно с построением 精神文明 jīngshén wénmíng *духовной цивилизации.*

Концепция *социальной гармонии* 社会和谐 shèhuì héxié, объявленная сущностным атрибутом социализма с китайской спецификой (общество 小康 xiǎokāng), базируется на ценностных ориентирах раннего конфуцианства. В частности, в докладе Ху Цзиньтао впервые появился раздел, посвящённый проблемам народного благоденствия: «Словом, делать так, чтобы у всего народа было где получить образование, зарабатывать себе на жизнь, лечиться и жить, чтобы в старости он был обеспечен, а значит стимулировать строительство гармоничного общества» [81]. Большинство формулировок заимствовано из второй социальной утопии Конфуция – общество «Великого единения» 大同 dàtóng. Фактически Ху Цзиньтао и нынешнее руководство КПК, приняв эстафету от Дэн Сяопина, творчески развивают конфуцианскую оставляющую в идеологии КПК, постепенно продвигаясь от 小康 xiǎokāng к 大同 dàtóng [82].

Рассмотрим внедрение нового получившего широкое распространение в Китае за последние восемь лет термина **和谐社会** héxié shèhuì ***гармоничное общество.*** Матрицей этого термина является китайская концепция 构建社会主义和谐社会 gòujiàn shèhuì zhǔyì héxié shèhuì *построения гармоничного социалистического общества*. Матрица берет начало с октября 2002 года, когда на XVI съезде КПК Председатель КНР Ху Цзиньтао выдвинул идею 全面

[80] Переломов Л.С. Конфуций: «Лунь юй».-м., 1998. – С. 306.
[81] Духовная культура Китая. Энциклопедия. – М.: Восточная литература РАН, 2009. – С. 216.
[82] Там же. – С.216.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

建设小康社会 quánmiàn jiànshè xiǎokāng shèhuì *всестороннего строительства общества средней зажиточности*. Это входит в понятие «гармоничного социалистического общества» (小康 xiǎokāng *сяокан*). Политика *сяокан*— это социально-экономическая политика с «китайской спецификой». Она ставит своей целью достижение уровня средней зажиточности населения. Политика *сяокан* базировалась на древних и традиционных представлениях китайского народа.

Данная политика стала применяться в целях достижения стабилизации общества путём повышения уровня зажиточности населения в новых общественно-политических условиях. Связь этого 小康 xiǎokāng с новой парадигмой общественно-политического и экономического развития очевидна. В сущности, политика *сяокан* — это курс, взятый на гармоничное развитие во всех сферах жизнедеятельности китайского общества. Теоретической аппарелью построения *гармоничного общества* стала концепция 3-цивилизаций 三个文明: 社会主义政治文明，社会主义精神文明和社会主义物质文明的发展 sān gè wénmíng: Shèhuì zhǔyì zhèngzhì wénmíng, shèhuì zhǔyì jīngshén wénmíng hé shèhuì zhǔyì wùzhí wénmíng de fǎ zhǎn «развития социалистической политической цивилизации, социалистической духовной цивилизации и социалистической материальной цивилизации». То есть в планы входило повышение материального уровня населения, изменения в политической сфере и стимулирование интеллектуальной жизни. Была установлена трёхступенчатая задача: 1. Всестороннее развитие китайского общества. 2. Продолжение развития общества. 3. Повышение уровня жизни населения.

Анализируя успехи и уроки реформ, Пекин приходит к выводу о необходимости решения помимо трёх проблем – экономической, политической и культурной, ещё и социальной проблемы, что должно помочь поднять жизненный уровень китайцев. Появление этих новых ОПТ – есть отражение политического курса страны на определенном этапе. Во-вторых, новые ОПТ имеют богатые китайские элементы. Китайская культура обширна и глубока.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Например, более двух тысяч лет назад Конфуций предложил политический идеал 大同世界 dàtóng shìjiè, что является одним из видов стремления к гармоничному обществу. Таким образом, 和谐社会 héxié shèhuì *гармоничное общество* не только отражает цели развития, но и содержит суть китайской культуры.

Проведённый анализ авторских неологизмов, представленных в основном в качестве Т-ССч, позволяет судить о догматической функции философских традиций и канонов конфуцианства, оказывающих непосредственное влияние на формирование новых терминов ОПТ в современном китайском языке. Семантический характер данных терминов-неологизмов в рамках рассмотренных концепций нового политического курса КНР подтвержает влияние древней философии центризма КНР на современное ОПТ китайского политического эстеблишмента.

**Заключение:**

– поступательное развитие китайского общества, рост благосостояния народа, существенное расширение международных связей КНР, поэтапный переход китайской промышленности на 4-стадию технологического развития и многие другие факторы обусловили появление в составе современного китайского языка новых ОПТ. С одной стороны, это представляет собой позитивную тенденцию, указывает на интеграцию Китая и китайского общества в мировое сообщество. С другой стороны, особенности китайского языка, формы и методы абсорбции им новых терминов, затрудняют осуществление адекватного перевода в любой ее форме. Между тем качество перевода ОПТ и лексики, особенно новых, связанных с текущей политикой и экономикой, влияет на внешнеполитические, экономические и культурные коммуникации Китая;

– контекстуальная связанность терминов проявляется как раскрытие смыслового содержания последних через их непосредственное и дистантное текстовое окружение, а также как расширение семантики терминов за счет эмоционально-оценочных компонентов, возникающих благодаря контексту. В тексте обнаруживается идеологическая, политическая интенция и

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

прагматическая направленность, действующие при формировании и функционировании ОПТ. Термины оказывают решающее воздействие на структурно-семантическое построение всего политического текста. Основным признаком ОПТ СКЯ является её связь с господствующей идеологией и политическим курсом государства, его социальными императивами.

**Список использованной литературы:**

1. Насирова, С. А. (2021). ПОЛИТИЧЕСКАЯ МЕТАФОРА (НА ПРИМЕРЕ МАТЕРИАЛА ПО КАДРОВОЙ ПОЛИТИКЕ СОВРЕМЕННОЙ КНР). In *Recent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
2. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
3. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(04), 1-10.
4. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, *2*(2), 22-33.
5. Хашимова, С. А. (2022). О некоторых особенностях лингвокультурологического аспекта коммуникации (на примере китайского языка). *So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, *1*(1), 85-91.
6. S.A.Nasirova, S.A.Hashimova. Lexico-semantic analysis of socio-political terms of the ancient Chinese language: the system of human resources// Neuroquantology Volume: 20 Issue: 12 October 2022. Page No.-2294-3004
7. **DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ 77297 S.A.Nasirova/** Lexico-semantic analysis of socio-political terms of the ancient Chinese language: the system of human resources
8. S.A. Hashimova, S.A. Nasirova. Reduplication of verbs in Modern Chinese // Neuroquantology Volume: 20 Issue: 12 October 2022. Page No.-2288-2993 **DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ 77296**

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# HINDIY TILIDAN FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIDA VARIANTLILIK

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-212-216

PhD. **Nilufar XODJAYEVA,**
TDSHU dotsenti, kafedra mudiri

Hozirgi kunda Hindiston tilshunosligida ham ibora, maqol, matal va idiomalarni tarjima qilinishga doir aniq bir tizim mavjud emasligi mazkur mavzuda tadqiqot olib borishga turtki bo‘ldi. Hindistonda frazeologizmlar mavzusida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Hind tadqiqotchilaridan Bolanatx Tivari, Pratibxa Agarval, Omprakash Gupta, Ramchandra Varmalar nomlarini zikr etib o‘tish o‘rinli. Hindiy tili frazeologiyasining o‘rganilganlik darajasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Ramdaxin Mishra *हिंदी मुहावरे*” (1924), Baxadur Chand *लोकतियाँ और मुहावरे* (1932), Jambunatxan *हिंदी मुहावरकोश* (1935), Ar.Ji Shiraxindi *हिंदी मुहावरकोश* (1936), Brahmasvarup Dindar Sharma *हिंदी मुहावरे* (1938), Ambikaprasad Vajpay *हिंदुसतानी मुहावरे* (1940), Balmukand Arsh Malsiyani *मुहावरे और कहावतें* (1957), Pratibxa Agarval *हिंदी मुहावरे* (1969), Bolanatx Tivari *हिंदी मुहावरकोश* (1984)” [1,12-13], kabilarning asarlari juda muhim manba hisoblanadi. Frazeologizmlar tarjimasiga doir ma’lumotlar bir qancha ikki tillik lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan.

O‘zbek tilshunosligi frazeologizm deganda faqatgina iboralarni nazarda tutsa, o‘zbek tarjimashunosligi frazeologizmlar tarjimasini tadqiqi [2, 89 ] ibora bilan bir qatorda maqol, matal va ideomalarni ham qamrab oladi. Sababi tarjimashunoslikda ibora barobarida maqol, matal va ideomalarni tarjimasi hamda ekspressivlik darajasini yetkazib berish birdek murakkab hisoblanadi. Shu qatorda, yuqoridagilarni tarjima qilish usullari ham birdir.

“Frazeologik birikmalarni oddiy so‘z birikmalaridan ajratishning to‘rt asosiy belgisi:

- frazeologik birikmalarning ma’lum bir model asosida yasalmasligi;
- ko‘chma ma’noda ishlatilishi;
- turg‘unligi;

ikki yoki ko‘p mustaqil so‘zlardan yasalishi”[3,62].

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Iboralar tarjimasining eng maqbul usuli ekvivalentini topib tarjima qilish hisoblanadi.

क्रोध तो तुम्हारी नाक पर रहता है। [4,24] Ushbu jumlaning *tarjimasi:* Jahling doim burning uchida turadi [5, 50].

Hindiy tilidagi क्रोध नाक पर रहना o‘zbek tilidagi “jahl burun uchida turmoq” iborasini ekvivalenti hisoblanadi. Ikki tilda ham “jahlning tezligi”ni ifodalovchi bir xil ibora borligi xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik, bog‘liqlik mavjudligini belgilaydi. Ha ikki tilda ham “jahl” bilan bog‘liq turli vaziyat va holatlarni ifoda etuvchi iboralar mavjudki, ular variant yohud sinonimlik xususiyatini o‘zida aks ettiradi.

Bu o‘rinda bir qancha iborlarni kuzatish mumkin, masalan: अपने जामे से बाहर होना – o‘zidan chiqib ketmoq, तलवों से लगना सिर में बुझना –burnidan tutun chiqmoq, दांत तले ओंठ दबाना – tishini ko‘rsatmoq, दीदे निकालना – jahli chiqmoq, भभक उठना – yonib ketmoq, भभूका बनना– qizarib ketmoq, भभूके उठना– g‘azabi qaynamoq, भरा बैठना – g‘azabi qaynamoq, भवें तानना – ko‘zi kosasidan chiqmoq, बाल बिगड़ना – tepa sochi tikka bo‘lmoq, बौखला जाना– tutab ketmoq, भभूके उठना – qizarib ketmoq, चेहरा भभूका होना, चेहरा लाल होना, चेहरा तमतमा उठना " –yuzi qizarib ketmoq”, “bo‘zarmoq”. Yuqorida berilgan “jahl”ni ifodalovchi hindiy tilidagi iboralar o‘zaro sinonim hisoblanadi lekin bularni orasida भभूके उठना, चेहरा भभूका होना, चेहरा लाल होना, चेहरा तमतमा उठना [6] iboralari o‘zaro variant sifatida qo‘llanilishi “lovullab ketmoq”, “yuzi qizarib ketmoq” ma’nolarini anglatadi.

तीसरे दिन प्रतपचंद्र की पुस्तक, कपड़े और अन्य सामग्रियाँ आ पहुँचीं, यह घाव पर नमक का छिड़काव था। [4,93] jumlasining *tarjimasi:* Uchinchi kuni Pratapchandrning kitoblari, kiyim-kechaklari va boshqa lash-lushlari ham yetib keldi, bu o‘lganining ustiga tepgan bilan baravar edi [7, 21]. O‘zbek tilida घाव पर नमक का छिड़काव iborasining “yaraga tuz sepmoq” ekvivalenti mavjud biroq, tarjimon qahramonning ruhiy holatini hisobga olgan va ushbu jumla tarjimasida “o‘lganining ustiga tepgan” muqobil ibora qo‘llagan. Hindiy tilida नमक छिड़काना [8, 210] -“tuz sepmoq”, घाव पर नमक का छिड़काव, ज़खम पर नमक छिड़कना, -“yaraga tuz sepmoq”, ज़खम में नमक भरना- “yarani tuzga to‘ldirmoq” iborasining variant sifatida qo‘llash mumkin. Shuningdek, ushbu ma’noni

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ifoda etuvchi कटे पर नोन-मिर्च लगाना – “yaraga qalampir surtmoq” iborasi ham mavjud bo‘lib sinonim sifatida qo‘llash mumkin.

राह देखते-देखते आँखें पथरा गयीं।[4,65] *Tarjimasi:* Yo‘lingizga qarayverib ko‘zlarim teshildi-ku [5, 85]. आँखें पथराना [8,25] iborasi “ko‘zning qotib qolishi”ni anglatadi, aslida पथराना so‘zi “toshdek qotib qolish” ma’nosini beradi. Hindiy tilida “kutish”ni anglatadigan yana bir आँखें तरस जाना -“kozlar jovdiramoq” iborasi mavjud. Asliyatdagi ta’sirchanlikni saqlab qolish maqsadida tarjimon ekvivalent qilib “ko‘zlarim teshildi-ku” iborasini qo‘llagan. O‘zbek tilida “ko‘zlari to‘rt bo‘lmoq” muqobil iborasi ham mavjud bo‘lib, unga variant sifatida “ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”ni qo‘llash mumkin. Hindiy tilidagi आँखें पथराना , आँखें तरस जाना, आँखें पथरा गयी – “ko‘zi qotib qolmoq” iborasi o‘zaro variant sifatida qo‘llaniladi.

Asliyatda qo‘llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, ko‘p hollarda muqobili yordamida tarjima qilinadi. Ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda o‘zaro farq qiladilar va bunday frazeologik birliklar o‘zaro muqobillik munosabatida bo‘ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo‘lishi har bir xalq vakilining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta’sirchan tarzda ifoda etishda o‘z turmush tushunchalari, urf-odatlari, milliy-falsafiy qarashlari va o‘ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishi bilan izohlanadi.

Muqobil variantlar tarjimada bir-birlarini bemalol almashtiraveradi. Chunki mazkur birliklar tarkiblarida ularning o‘zaro almashinuvlariga xalal beradigan milliy xususiyatli so‘zlar uchramaydi. Ammo tarjimonlar goho o‘z tillarida mavjud imkoniyatdan unumli foydalana olmasdan, ifodaning noadekvat talqiniga yo‘l qo‘yadilar.

इतना सुन्ना था कि कमला की नानी मर गयी [4,64] *Tarjimasi:* Buni eshitib, Kamlacharanning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi [5,84].

*Asliyatda berilgan* नानी मर गयी iborasini so‘zma so‘z “buvisi o‘lib qoldi” tarzida tarjima qilinsa ma’no anglashilmaydi. “Juda ko‘p frazeologizmlar borki, ular hijjalab tarjima qilinsa, bema’ni so‘z uyumlari hosil bo‘ladi, holos” [9, 262]. Aslida yuqorida keltirilgan नानी मर गयी - “tarvuzi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qo‘ltig‘idan tushmoq” iborasi barobarida “xafsala pir bulmoq” muqobilini ham qo‘llash mumkin edi.

Hindiy tilida नानी मर गयी *(*buvisi o‘lib qoldi*)* iborasinga variant sifatida नानी याद आ जाना (buvisini sog‘inmoq) iborasini ham qo‘llash mumkin. Ushbu ma’noni ifodalovchi हिम्मत हारना, हाथ धोना ,हाथ दो बैठना, हाथ धो लेना kabi iboralar ham mavjud bo‘lib havsala pir bo‘lishini ifodalaydi. हाथ धोना (qo‘l yuvmoq), हाथ दो बैठना (qo‘lini yuvib o‘tirmoq), हाथ धो लेना (qo‘lini yuvib olmoq) iboralari o‘zaro variantlilikni tashkil etib, o‘zbek tiliga “qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq” shaklida tarjima qilish mumkin.

हाथों से तोते उड़ गये [4,63]. *Tarjimasi:* Kapalagi uchib ketdi.[5,78] Ushbu misoldagi हाथ के तोते उड़ जाना so‘zma-so‘z tarjimasi “qo‘lidan to‘tilari uchib ketmoq” bo‘lib, o‘zbek tilidagi muqobili bilan tarjima qilingan. Faqatgina hindiy tilida assotsiatsiya “to‘ti”, o‘zbek tilida esa “kapalak”. “Bir-biriga ma’no va uslubiy jihatlaridan mos qator frazeologik ekvivalentlar leksik tarkib jihatdan bir, goho ikki komponentga farq qiladi. Bu, asosan, turli xalqlar vakillarining hayot voqea-hodisalariga o‘ziga xos tarzda yondashishlari, o‘z tasavvurlari doirasida fikr yuritishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pgina narsa va hodisalar ular lafzida turlicha mazmun va ramziy ma’no kasb etadi” [10, 190].

Hindiy tilida ushbu iboraga sinonim sifatida होश उड़ जाना ,होश उड़ना, हड़बड़ाना, हिरन की तरह चौकड़ी भूलना, उछाला देना, [8] qo‘llanilishi mumkin,

Ona tili bilan qurollangan tarjimon, odatda, lug‘aviy ekvivalentlikdan ko‘ra uyg‘unlikka ko‘proq e’tibor bergani holda, badiiy matning estetik xususiyatini qayta yaratadi.

Asliyatda mantiqiy-erkin ma’nodagi so‘zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug‘aviy ma’noga ega til vositalari – asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi.

Tarjima jarayonida iboralarning sinonimi yohud variantini qo‘llanilishi ko‘p uchraydi. Kontekstual ma’noga tayangan tarjimon, mazmunga ko‘ra asliyatdagi ma’noni to‘liq ifodalaydigan ibora variantini qo‘llaydi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Tarjimashunoslikda iboralar tarjimasi uch usulga asoslanadi, iboralarning ekvivalent va muqobillarini topib tarjima qilish sermahsul hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sharqshunoslar anjumani. Ilmiy to‘plam – Toshkent: ToshDShI, 2011.
2. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari – Toshkent: ToshDShI, 2014.
3. Badiiy tarjimaning aktual masalalari – Toshkent: Fan, 1977.
4. प्रेमचंद, वरदान, रजत प्रकाशन, दिल्ली गेट, मेरठ
5. Premchand. Sevgi in’omi //Jahon adabiyoti, 2009, 2-son.
6. Xodjayeva N. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati (हिन्दी उज़्बेकी, उज़्बेकी-हिन्दी मुहावराकोश) – Toshkent, 2015.
7. Premchand. Sevgi in’omi //Jahon adabiyoti, 2009, 3-son.
8. बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७/
9. Salomov G‘. Til va tarjima – Toshkent: Fan, 1966.
10. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari – Toshkent: Fan, 2005.
11. Usmanova, S. R., & Ismatullayeva, N. R. (2020). Expression Of Lacunas In Comparative Study Of Kinship Terms In Chinese And Uzbek Languages. Solid State Technology, 63(6), 4974-4985.
12. Shoira, U. (2018). The use of modern educational technologies in teaching foreign languages (on the example of English). *Образовательный процесс, (1 (3)), 29-32*.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ZAMONAVIY XITOY ADABIYOTINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHIDA TARJIMANING O‘RNI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-217-223

PhD. **Ozodjon OCHILOV**,
TDShU dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel:+998903492268,
e-manzil: ozodochilov85@gmail.com

**Annotatsiya:** *Xitoyda asosan 19-asrning oxirlarida boshlangan g‘arb adabiyoti, madaniyati va ilm-faniga oid asarlarning keng ko‘lamda tarjima qilinishi xitoy adabiyotining ham shaklan ham mazmunan evrilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Maqolada tarjima adabiyoti ta’sirida yuzaga kelgan shunday o‘zgarish va yangilanishlarning zamonaviy xitoy adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjima; xorij adabiyoti; islohot; evolyusiya, madaniyatlararo muloqot; adabiy ta’sir*

**Аннотация:** *Крупномасштабный перевод западной литературы, культуры и науки, начавшийся в Китае в конце 19 в., сыграл важную роль в эволюции китайской литературы как по форме, так и по содержанию. В статье рассматривается роль таких изменений и обновлений в возникновении и развитии современной китайской литературы под влиянием переводной литературы.*

**Ключевые слова: перевод;** *иностранная литература; реформатsiя; эволюция, межкультурная коммуникатsiя; литературное влияние*

**Abstract:** *The large-scale translation of Western literature, culture, and science works, which began in China at the end of the 19th century, played an imperative role in the evolution of Chinese literature, both in form and content. The article examines the role of such changes and updates in the emergence and development of modern Chinese literature under the influence of translated literature.*

**Key words:** *translation; foreign literature; reformation; evolution, intercultural communication; literary influence*

Ma’lum bir xalq katta mafkuraviy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirganda, doimiy ravishda madaniyatlarning shiddatli to‘qnashuvi ro‘y beradi va bu odatda tarjimalar orqali boshlanadi. 19-asr oxirlaridan boshlab xitoy madaniyati, xususan adabiyotida yuqoridagi kabi jarayon yuzaga keldi. Xitoyda tarjima tarixiga e’tibor qaratsak, G‘arbiy Xan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

sulolasining (m.avv.202 y. – mil.8 y.) so‘nggi yillarida buddizm muqaddas kitoblarining tarjimalari Xitoyga kirib kelishi va undagi badiiy unsurlar Suy-Tang adabiyotining badiiy-g‘oyaviy, mazmuniy, shakliy xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik 16-asrning oxirlaridan boshlab xristian missionerlari Xitoyda keng tarzda diniy targ‘ibot harakatlarining amalga oshirishi natijasida 19-asrning 40-yillarida “Isoning o‘gitlari” (《伊索寓言》) tarzida tarjima qilingan “Injil” xitoyliklarni ilk marta G‘arb bilan tanishishiga zamin yaratdi. Shu tariqa 19-asrning oxirlariga kelib xitoy madaniyati tarixida tarjimaning uchinchi katta to‘lqini boshlandi, va bu to‘lqin xitoy adabiyotida keng miqiyosdagi evolyusion jarayonlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1851 yilda boshlangan “Taypin tyanguo” qo‘zg‘oloni 1866 yilda mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, Ching imperiyasi hukumatining yanada zaiflashishishiga, shuningdek g‘arb intervensiyasining kuchayishiga olib keldi. Tobora vaziyati og‘irlashayotgan hukumat ayrim islohotlarni amalga oshirishga urinib ko‘rdi. Ular harbiy qudrat va fan texnologiyalari borasida yuzaga kelgan katta farqni Xitoyning qoloq davlatga aylanib qolishining eng asosiy sabablari sifatida ko‘rsatishdi va islohotlar tor doirada bir tomonlama amalga oshirila boshlandi. Shunga qaramay, 1894 yilda sodir bo‘lgan Xitoy-Yapon urushida Xitoy yana bir o‘ta og‘ir mag‘lubiyatni qabul qilib oldi. Xitoy ziyolilari inqirozining asosiy sababi fan-texnologiyalar yoki harbiy salohiyat bilan aloqador emas, balki bu milliy ong va milliy g‘oya bilan bog‘liq ekanligini tushunib yetishdi.

Shundan so‘ng Yan Fu, Lin Shu kabi adiblar xitoy ziyolilari va xalqini zamonaviy bilimlar bilan tanishtirish, ulardagi madaniy stereotiplarni sindirish, milliy yangilanish sari rag‘batlantirish hamda Xitoyni inqirozdan qutqarishning yagona yo‘li harbiy islohotlarda deb biluvchi guruhni mahf etish maqsadida g‘arb madaniy tafakkuri bilan tanishtiruvchi bir qator mashhur adabiyotlarni tarjima qilishga faol kirishdi. Yan Fu asosan ilmiy adabiyotlar tarjimasi bilan shug‘ullandi. U 1898 yilda tarjima qilgan T.G.Gekslining “Evolyusiya nazariyasi” asari xitoy ziyolilari orasida haqiqiy rezonans keltirib chiqardi. Yirik islohotchilardan biri bo‘lgan Kang Yovey, bu kitob G‘arbni anglashimizda birinchisi bo‘ladi, degan edi [1,353]. Lu Syun, bo‘sh vaqt topguncha “Evolyusiya nazariyasi”ni o‘qishi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

haqidagi qaydlar mavjud [2,296]. Asarda keltirilgan “hayot uchun raqobat”, “kuchlilar yashab qoladi” kabi evolyusion g‘oyalar o‘sha davrdagi avangard ziyolilarning mutaassib feodallar bilan olib borgan kurashida muhim g‘oyaviy qurolga aylandi [3,238-239]. Yan Fu shu bilan birga 1898-1912 yillar davomida dunyo ilm-fan taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator asarlarni tarjima qildi. Jumladan, G.Spenserning “Sotsiologiya asoslari” (The Principles of Sociology, 1874-1896), A.Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o‘rganish” (An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations,1776), Dj.S.Millning “Ozodlik haqida” (On Liberty, 1859) va “Mantiq tizimi” (A System of Logic, 1882), E.Djenknsning “Siyosat tarixi” (A History of Politics, 1900), Sharl-Lui Monteskyoning “Qonunlar ruhi haqida” (The Spirit of Law, 1748), U.Djevonsning “Mantiq asosi” (Primer of Logic, 1878) kabi asarlarni tarjima qilish orqali Yan Fu tizimli ravishda evolyusiya nazariyasi, materialistik empirizm, burjua klassik siyosiy iqtisodiyoti, siyosiy nazariyalar, shuningdek tabiatshunoslikning va G‘arb falsafiy ideologiyasining yangi yutuqlarini xitoy xalqiga tanishtirib, yangicha burjua dunyoqarashni keng targ‘ib qildi. Bu zamonaviy xitoy tafakkur tarixida yangi davrni boshlab berdi va xitoy jamiyatining g‘oyaviy jihatdan o‘sishiga misli ko‘rilmagan darajada ta’sir ko‘rsatdi, deyish mumkin. Yan Fu tomonidan sinchkovlik bilan tanlanib tarjima qilingan asarlar Xitoyda nafaqat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ongning yuksalishiga, balki yangi badiiy g‘oyalarning paydo bo‘lishiga ham olib keldi va bu zamonaviy xitoy adabiyotining yuzaga kelishida muhim asoslardan biriga aylandi.

Lin Shu chet el badiiy adabiyotlari tarjimasi bilan mashg‘ul bo‘ldi. U xitoy yoshlarini “xorij adabiyotiga yaqinlashtirdi, dunyoning peshqadam adiblari bilan tanishtirdi, ularni chet el adabiyotidan o‘rganib, o‘z yurti adabiyotini rivojlantirishga ko‘maklashdi va ruhlantirdi [4,182].” Lin Shu asosan A.Dyuma, L.Tolstoy, A.Konan Doyl, Ch.Dikkens, U.Shekspir, V.Skott, V.Irving, G.Ebsen, Servantes, D.Defo, G.Filding, J.Svift, Stivenson, J.Rid, E.Xoup, G.Bicher-stou, V.Gyugo, Onore de Balzak kabi ilg‘or yozuvchilarning asarlarini xitoy tiliga tarjima qildi. Xu Shi, Vang Guovey, Guo Moruo kabi ko‘plab adiblar uning ishini davom ettirib, adabiyotning turli janrlariga oid sara asarlarni adabiyot ixlosmandlariga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yetkazib berishdi. Bu davrda qilingan tarjimalar xitoy yozuvchilari tomonidan yozilgan asarlar miqdoridan oshib ketgani kuzatiladi. Masalan, 1911 yilda "Xanfinlou yangi kitoblarining turkumiy katologi"dan o'rin olgan xitoy yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar 120 tani tashkil qilgan bo'lsa, tarjimalar soni 400 taga yetgan[5,11]. "Xitoy zamonaviy adabiyotiga 30 yil" risolasida keltirilgan statistikaga ko'ra, 1896 yildan to 1919 gacha "Zamon" gazetasi (《时务报》)da e'lon qilingan tarjimalar 800 ta atrofida [6,30]. Chen Pingyuan hisobiga ko'ra, 1899 yildan 1916 yilgacha bo'lgan tarjimalar soni 796 ta, birgina 1906 yilda 110 ta, 1907 yilda 126 ta tarjimalar amalga oshirilgan [7,43]. Shuningdek 1935 yil davomida nashr qilingan 12 tomdan iborat "Dunyo adabiyoti xazinalari" almanaxiga yuqorida ko'rsatilgan davrda tarjima faoliyati bilan shug'ullangan 100 dan ortiq tarjimonlar kiritilgan bo'lib ular asosan Sovet Rossiyasi, Fransiya, Amerika, Angliya, Ispaniya, Gresiya, Norvegiya, Germaniya, Polsha, Belgiya, Italiya kabi davlatlarda ijod qiluvchi adiblarning katta miqdordagi she'rlari tarjima qilinganligini kuzatish mumkin[8,12tom]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Gyote, G.Geyne, Bayron, Shelli, Lotman, Uayld, Pushkin, Gorkiy kabi shoirlardan qilingan tarjimalar ayniqsa xitoy she'riyatining yangi bosqichga ko'tarilishidagi o'rni yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xitoy va G'arb o'rtasidagi madaniy muloqot jarayonida g'arb adabiyotining xitoy adabiyotiga ta'sirini qaysidir ma'noda tarjima adabiyotining xitoy adabiyotiga ta'siri deyish ham mumkin, vaholanki, tarjima adabiyoti Xitoy va G'arb madaniy muloqotini harakatga keltiruvchi eng muhim vositalardan biriga aylangandi. 19-asrning oxirlaridan boshlab 20-asrning boshlarigacha xitoylik tarjimon va adiblarning chet el adabiyoti bilan tanishuvi asardan tortib yozuvchigacha, yozish texnikasidan tortib nazariyasigacha, adabiyot oqimlardan tortib adabiy harakatlargacha bo'lgan qiziqishini kun sayin orttirdi va ularning dunyoqarashini tubdan o'zgartiruvchi vositaga aylandi. Yangi xitoy adabiyotining boshlanishi to'lig'icha adabiy tushunchalarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, u yangi ratsional bilishning individ va butun jamiyat ongining evrilishida namoyon bo'lishi bilan yuzaga keladi. Biz aytayotgan yangi ratsional bilish asosan g'arb madaniyatining ta'sirida paydo bo'lib, bunda uning asoschilari va targ'ibotchilarini nazaryotchilar, mutafakkirlar, inqilobchilar, san'at ahli va albatta tarjimonlar tashkil qildi. Ular yangicha

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qarashlarni adabiyot maydoniga shiddatli tarzda olib kira boshlashdi va xitoy adabiyotida yangi asrning boshlanishiga katta turtki berishdi. Shunday nazariya va qarashlar ta'siridan so'nggina yangi badiiy ijod paydo bo'ldi. Shu tariqa yuzaga kelgan adabiy tushunchalarning o'zgarishi va yangilanishi asosan quyidagi uchta jihatdan iboratligini ko'rish mumkin:

Birinchisi, islohotlarga "yangi" tushunchasining olib kirilishi bilan bog'liq. Qadimgi xitoy adabiyoti mohiyatan feodal tuzum adabiyoti bo'lib, adabiy tushunchalar nuqtai nazaridan uning yagona missiyasi imperatorga sadoqatni ifodalashdan iborat, deb qarab kelingan. Qadimgi xitoy adabiyoti Tang davrida o'tkazilgan ayrim adabiy islohotlarni hisobga olmaganda turg'unlikda, ma'lum bir qat'iy belgilangan chegaralarda taraqqiy etdi. O'tkazilgan ayrim kichik islohtlar ham "*复古 fugu*" ya'ni, *qadimga murojaat* bayrog'i ostida bo'lib, bu xitoyliklar qat'iy ishonuvchi qadriyat mezoniga ko'ra "Avval bugundan yaxshi bo'lgan" ("今不如昔") degan qarash asosida ro'y berar edi. Qisqa qilib aytganda, yangilik qadimda bo'lib, qanday o'zgarishlar yuzaga kelmasin, barchasi o'zidan oldin belgilab ketilgan mezonlarga ko'ra amalga oshirildi, bu esa xitoy adabiyotida haqiqiy islohotlar uchun to'siq bo'lib keldi. 19-asr oxirlariga kelib xitoylik ayrim ilg'or ziyolilar va mutaffakirlar xitoy jamiyatni uyg'otish uchun avvalombor qadriyat mezonlarini o'zgartirish shart ekanligini anglab yetishdi va yangilanishning asosi faqat va faqat "yangi" g'oyalar, tushunchalar va jarayonlarda ekanligini keng targ'ib qila boshlashdi. Bu bevosita xitoy adabiyotida ham aks etib rostmana islohotlar o'tkazishga katta turtki berdi.

Ikkinchisi, mustaqil adabiy ongning uyg'onishidir. Qadimgi xitoy adabiyoti asosan feodal jamiyatning siyosiy va axloqiy vassali hamda amaliylik va utilitarizm doimo uning oliy qadriyati, yagona nishoni bo'lib kelgan. Dastlab Lyang Chichao va Vang Guovey kabi ziyolilar an'anaviy qarashlarga barham berish, mustaqil adabiy ongni chinakamiga uyg'otish uchun yirik g'oyaviy va amaliy harakatlarni amalga oshirishga kirishdi. Vang Guovey o'ta qat'iy tarzda shunday ta'kidlagan edi: "San'at uzoq zamonlardan beri mustaqil qadriyatlariga ega emas. Barcha sulola shoirlari imperatorga sadoqati va vatanparvarligini namoyon qilib undan rag'bat

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

olishdi, sof san'at kuychilari esa doimiy ta'qib ostida bo'lishdi..." [9,111-120]. Ko'rinadiki, Vang Guovey haqiqiy san'at, jumladan adabiyot mustaqil bo'lib, ta'qib va rag'batlardan holi bo'ladi. Bu ikki mutafakkir ilgari surgan g'oyalar ta'sirida eski qoliplardan chiqib yangicha fikrlovchi erkin ijodkorlar guruhi paydo bo'la boshladi.

Uchinchisi, yangi adabiy qarashlarda "inson" markazga qo'yildi. Insonparvarlik adabiyotning yadrosi va tayanchi ekanligi jihatdan xitoy adabiyotida "inson" birinchi o'ringa ko'tarila boshlandi. Lu Syun 1907 yilda birinchilardan bo'lib bu taklifni o'rtaga tashlagan bo'lib, bir qator maqolalarida individuallikni hurmat qilish g'oyasini ilgari surdi. Jou Zuoren esa "Inson adabiyoti" kabi qator maqolalarida 19-asrda Yevropada gumanitarizmga asoslangan realistik tafakkurni tizimli ravishda tahlil qildi, adabiyot uyg'onishi bilan inson uyg'onishini uyg'unlashtirdi va adabiyot qandaydir tuzumlarning quroli emas, balki jamiyatga yuzlangan holda odamlar haqida, ayniqsa, oddiy odamlarning quvonch va qayg'ulari haqida yozish kerak degan xulosalar berdi. Bunday g'oyalar ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi va zamonaviy xitoy adabiyotining katta bir oqimiga aylandi.

Yuqorida sanab o'tilgan uch jihat eski jamoaviy qoidalarga batamom barham bergan holda, individ adabiyotini yuzaga keltirib, yangi xitoy adabiyotiga ko'p qirrali va ko'p yo'nalishli rivojlanish tendensiyasini taqdim etdi. O'sha davrda amalga oshirilgan tarjima faoliyati va undagi g'arb madaniyatining talqini xitoy jamiyati va ana'anaviy xitoy adabiyotini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynadi. Ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan biror bir xalq zamonaviy sivilizatsiyaga kirib kelar ekan, uni madaniy-psixologik jihatdan o'zgartirish eng muhimidir. Bu qadriyatlarni, tafakkur tarzini, estetik didni, axloqiy mezonlarni, milliy mentalitet kabilarni o'z ichiga oladi va madaniy tipning o'zagi va mohiyatini belgilaydi. Shu sabdan ham bu jarayondan o'tish nihoyatda murakkabdir. Asosan 19-asr oxirlaridan boshlab turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan g'arb madaniyati va xitoy an'anaviy madaniyati o'rtasida yuzaga kelib turgan ziddiyatlar g'arblashuv va o'zlik o'rtasidagi kurash edi. Bu to'qnashuvda xitoy ziyolilaridan tortib oddiy odamlargacha rad etishdan qabul qilish va tan olishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tishdi. G'arb madaniyati ta'siri ostida an'anaviy qadriyatlarda o'zgarishlar yuz

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bera boshladi. Zamonaviy badiiy, falsafiy, ilmiy adabiyotlarning tarjima qilish faoliyati G‘arbning zamonaviy madaniyati va svilizatsiyasini tanishtiruvchi eng qulay vositaga aylandi. Umuman olganda, bu davrda tarjima sohasi o‘ta keng ko‘lamda rivojlandi, tarjima asarlarning miqdori va sifati tubdan o‘zgarib bordi, ilg‘or ziyolilarning faol targ‘iboti va mashaqqatli mehnati orqali yuzaga kelgan tarjimalar o‘sha davrdagi antiimperialistik va antifeodal kurashlar bilan chambarchas bog‘lanib, uning ta’sir doirasini toboro kengaytirib bordi.

Adabiy taraqqiyot nuqtai nazaridan tarjima adabiyoti ta’sirida zamonaviy xitoy adabiyoti adabiy qarashlar, janrlar, bayon uslubi va mahorati jihatidan turli darajada rivojlanib, takomillashdi. Demokratiya, erkinlik, shaxs mustaqilligi va ozodligiga intilish, ma’naviy erkinlik kabi xorij adabiyotining asosiy g‘oyalari xitoy adabiyotini ruhlantirdi, ma’nan kuchaytirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 钟贤培:《康有为思想研究》, 广东高等教育出版社,□ 1 9 88 年版
2. 《朝花夕拾 . 琐记》,《鲁迅全集》第 2 卷, 19 8 1 年版
3. 郭延礼:《中国近代翻译文学概论》,□湖北教育出版社,□1998 年版
4. 阿英:《晚清小说史》, 人民文学出版社,□ 1980 年版
5. 朱云生：清末民初翻译文学与中国文学现代性的发生. 山东大学出版社, 2006 年
6. 钱理群、温儒敏、吴福辉:《中国现代文学三十年》, 北京大学 出版社,□ 1998 年
7. 陈平原:《中国现代小说的起点) , 北京大学出版社,□2005 年
8. 主编郑振铎, 蔡元培:《世界文库》, 上海生活书店出版社，1935 年，12 册
9. 钱中文：世纪之争及其更新之途：二十世纪中外文化交流中我国文艺观念之流变，《文学评论》，1993(3)
10. Зиямуҳамедов, Ж. (2022). Пу Сунглингнинг “Ляо Жайнинг ғаройиботлар ҳақидаги ҳикоялари” асарида буддавийлик ва даосийлик мотивлари. Builders of the future, 2(2), 181-188.
11. Mustafayeva, S.T. (2020). The Influence of Ming CHinese Novels on Edo-Japanese Literature. *Solid State Technology*, *63*(6), 4967-4973.
12. Очилов, О. М. (2022). ХИТОЙДА “ЯНГИ ШЕЪРИЯТ” ИНҚИЛОБИНИНГ ҒОЯВИЙ АСОСЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(9), 219-226.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# CHET TILIGA O‘RGATISHDA TARJIMANI O‘QUV JARAYONIDA QO’LLASH MASALASI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-224-229

PhD. **Nargiza ISMATULLAYEVA**
TDSHU dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 99 867 10 88;
Email: ismatullayeva.nargiza@gmail.com

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola chet tili mutaxassislarini tayyorlashda xorijiy tilni va tarjima faoliyatini o‘rgatish o‘zaro uzviy aloqada bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi. Maqolada, shuningdek, chet tili darslarida tarjima ishini o‘rgatish metodikasi va baholash mezonlarini ishlab chiqishning dolzarligidan kelib chiqib, soha tadqiqotlari natijalari asosida amaliy takliflar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *chet tilini o‘qitish metodikasi, grammatik tarjima, bixeviorizm, ko‘nikma va mahorat, baholash mezonlari.*

**Аннотация.** *В данной статье предполагается, что преподавание иностранного языка и переводческая деятельность должны быть взаимосвязаны в подготовке специалистов иностранных языков. В статье также даются практические предложения по результатам исследований, основанные на методике обучения переводу на занятиях по иностранному языку и важности разработки критериев оценки.*

**Ключевые слова:** *методика обучения иностранному языку, грамматический перевод, бихевиоризм, умения и навыки, критерии оценки.*

**Abstract.** *This article assumes that foreign language teaching and translation activities should be interrelated in the training of foreign language specialists. The article also gives practical suggestions based on the results of field studies based on the methodology of teaching translation in foreign language classes and the importance of developing evaluation criteria.*

**Key words:** *foreign language teaching methodology, grammatical translation, behaviorism, skills and abilities, evaluation criteria.*

Hozirgi davrda xorijiy tillarni o‘rganish borasida tillarni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, eski usullarni yangilash kabi jarayonlar jadal tus olmoqda. Chet tillarini o‘rgatish metodikasini yaxshilash tilni o‘zlashtirishda ega bo‘lish kerak bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘stirishga xizmat qiladi. Xorijiy tillarni o‘rgatishga qo‘yilgan talablar aksariyat hollarda to‘rtta ko‘nikmani: tinglash, gapirish,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Lekin shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xorijiy tillarni o‘rganishdagi eng katta vazifalardan bo‘lmish tarjima qilish ko‘nikmasi bir oz nazardan chetda qolgan. Tarjimashunoslik alohida ajralib chiqqan lingvistik fan sifatida qaralib, chet tillari o‘quv jarayoniga sust tadbiq qilinmoqda. Aytish mumkinki, bunday holat butun dunyoda kuzatilib, ushbu muammoga olimlar o‘z tadqiqotlari natijasi o‘laroq yechim topishga intilganlar.

G.Kuk tarjimaning "beshinchi mahorat" (gapirish, tinglash, yozish va o‘qish bilan bir qatorda) g‘oyasini ta’kidlab o‘tadi va uni Fridrixga (1967) bog‘laydi [1, 207].

L.Venuti tarjimani shunchaki lingvistik transkodlash shakli emas, balki ijodiy faoliyat ekanligini ta’kidlaydi [2, 1].

Bir necha yillik pedagogik faoliyatimiz davomida filologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining aksariyati badiiy tarjimadagi mahoratlari bir oz oqsashini kuzatdik. Buning asosiy sababi, talabalarga tarjima nazariyasining yetarlicha berilmasligi, berilsa ham amaliyotda keng qo‘llanilmasligi, qo‘llanilgan taqdirda ham, tarjima mezonlariga ko‘ra baholanmasligi deb bilamiz.

A.Pim boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi o‘nta mamlakatdan 878 nafar til o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovi natijasida til o‘qituvchilari tarjimani unchalik xushlamasligi, eng ommabop ta’lim berish metodikasi “kommunikativ yondashuv” bo‘lib, eng kam qo‘llaniladigani esa "grammatik tarjima" ekanligini aniqlaydi [1, 210]. Bu demak, til o‘qituvchisinining metodikasi va afzal bilgan yondashuvidan kelib chiqib, o‘quv jarayonida tarjima amaliyotidan keng foydalanilmaydi.

Aslida zamonaviy tilshunos pedagoglarning tadqiqotlarida grammatik tarjimaga nisbatan salbiy munosabatlari kuzatiladi. Grammatik tarjima 1940-yillargacha til darslarida hukmronlik qilgan o‘qitish usuli bo‘lgan. Bunda o‘qish va yozish asosiy yo‘nalish bo‘lib, tarjima mashqlari talabaning ona tiliga murojaat qilishi orqali leksika va grammatikani o‘rganish uchun qo‘llanilgan. Grammatik tarjima faoliyatida ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish, gapirish va tinglash ko‘nikmalarini egallash til o‘rgatishning maqsadi sifatida ko‘rilmaydi [3, 2].

Til o‘qitishdagi yana bir an’anaviy usullardan biri bixevioristik yondashuv bo‘lib, 50-60-yillarda til o‘rganish nazariyalari bixeviorizmga,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ya’ni til o‘zlashtirishni odatning shakllanishi sifatida ko‘radigan o‘rganish nazariyasiga asoslangan [3, 2].

Tabiiyki, tilga o‘rgatishda chet tilidagi diskurs yoki matnni tushunish, lug‘at boyligini oshirishga ko‘proq urg‘u beriladi. Yod olingan so‘zlarning ona tilidagi ekvivalent va muqobillari ustida ishlash ancha sust bo‘ladi. Shuningdek, o‘quv jarayonida har bir yangi so‘zni mustahkamlash maqsadida matnni so‘zma-so‘z tarjima qilish tajribasi keng kuzatiladi. Buning oqibatida esa talabalarda so‘zma-so‘z tarjima qilish odati shakllanadi.

S.Kolina bixevioristik/kontrastiv metodologiyaga jalb qilingan talabalar tilni qanday ishlatishni emas, balki til haqidagi bilimni o‘rganishi, mazmunli ma’lumot yaratish yoki almashish bo‘lmasligi [3, 3]ni ta’kidlaydi.

J.Xolms tarjima faoliyatini til o‘rganish bilan yonma-yon, u bilan birga potentsial muloqotda ishlashi mumkin bo‘lgan soha sifatida tilga olgan [1, 204]. Shunday ekan, chet tilini o‘rganishni tarjimadan ayro tarzda olib borib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz. Darvoqe, bu iddao bilan aynan chet tili mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha kurs, yo‘nalish, mutaxassisliklarni nazarda tutyapmiz.

Ma’lumki, ona tili va o‘rganilayotgan xorijiy til o‘rtasida katta tafovutlar mavjud bo‘lib, ushbu farqlar madaniy o‘zgachalik, dunyoqarash, yashash tarzi, konseptlar manzarasi tufayli yuzaga keladi. Ana shu tafovutlarni ilg‘ash hamda uni tarjimada to‘g‘ri va adekvat tarzda berish esa tarjimondan lisoniy va g‘ayrilisoniy bilimlarni talab etadi.

A.Pimning ta’kidlashicha, 1980-yillar va 1990-yillarning boshlarida tarjima qilish uchun ikki tilni bilishdan ko‘proq narsani o‘zlashtirish kerakligi aytilardi, ya’ni tarjima qilish kompetensiyasi tilni bilishdan ko‘ra ahamiyatliroq edi. Tarjimonlarni tayyorlash uchun til o‘rgatishning o‘zi yetarli emasligiga katta urg‘u qilinardi [1, 205].

M.Shenga ko‘ra xilma-xillik tarjima haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi, adabiyot, antropologiya, madaniyat, falsafa va siyosiy sotsiologiyani tushunishda tarjimaning markaziy rolini o‘rganadi hamda talabalarning nafaqat tarjimon, balki yozuvchi, muharrir, noshir va loyiha menejerlari sifatidagi kelajak istiqbollarini kengaytiradi [2, 2]. Bundan ko‘rinadiki, tarjima faoliyati talabadan chet tili va ona tilidan tashqari katta

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ensiklopedik bilimlarni o‘zlashtirishni talab etadi va natijada yetishib chiqqan mutaxassisning kasbiy istiqboli keng bo‘ladi.

Tillarni o‘qitishning hozirgi tendentsiyalari (SLA tadqiqotlari natijalari asosida) va tarjimonlarni tayyorlash umumiy kommunikativ muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Kommunikativ tilni o‘qitishning maqsadi kommunikativ kompetentsiyani egallash, ya’ni mazmunni ifodalash, izohlash va muhokama qilish qobiliyatiga ega bo‘lish yordam berishdir [3, 5].

A.Pim va boshqalar 2013-yilda o‘tkazgan tadqiqotlarida o‘nta namuna mamlakatlarni o‘rganishi natijasida Finlyandiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlardagi o‘qituvchilar tarjima haqida juda ko‘p fikr bildirgani, Fransiya, Ispaniya va Germaniyada esa oz gapirilganini kuzatadilar. Bu taqsimotning qiziq tomoni shundaki, 2012-yilgi EF English Proficiyency Index (EF ingliz tili malakasi indeksi) ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz tilini o‘rganishda eng yaxshi natijalarga erishgan ba’zi mamlakatlar tarjimadan foydalanish bo‘yicha ham yuqori bahoga ega bo‘lganlar. Masalan, Finlyandiya ikkala ro‘yxatda ham birinchi o‘rinda turadi [1, 210].

Yuqoridagi ma’lumotlardan chet tilii darslarida tarjima faoliyatini qo‘llashning naqadar katta ahamiyat kasb etishini ko‘rib turibmiz. Hozirgi global madaniyatlararo almashinuvlar sharoitida faqat til o‘rgatish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Tilni tushunish boshqa, unda ifodalangan farqli, o‘ziga hos madaniy bo‘yoqni ilg‘ash boshqa. Ana shu o‘ziga xosliklarni anglash uchun esa talabalarda tarjima qilish mahoratini shakllantirish va n‘stirish lozim deb o‘ylaymiz. Shuningdek, nafaqat xorijiy tilda, balki o‘z ona tilida ham so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. O’quv jarayonini tashkil etishda bakalavr bosqichi 1-kurs chet tili mashg‘ulotlarida so‘zlarni asosan ona tili lug‘atidagi tarjima varianti bilan berilsa, 2-kursda talabalarni to‘liq xorijiy til muhitiga tushirish, bunda so‘zlarni ona tilida emas, balki xorijiy tildagi izohini berish maqsadga muvofiq. 3 va 4-kurslardan boshlab o‘quv rejasiga ko‘ra belgilangan asosiy xorijiy til mashg‘ulotlarining aksariyat qismini tarjima nazariyasi va amaliyotiga berish lozim.

Fikrimiz tasdig‘ini chet tili pedagodi A.Pim takliflarida ham ko‘rsak bo‘ladi. U ilg‘or (yuqori darajadagi bakalavriat/boshlang‘ich magistratura)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

kurslarda chet tili darslarida tarjima faoliyatining to‘liq integratsiyalashuvi bo‘lishi kerakligi, unda talabalar o‘zlarining til ko‘nikmalarini haqiqiy kommunikativ kontekstlarda qo‘llashlari mumkin [1, 219]ligini ta’kidlaydi.

Tarjimani chet tili mashg‘ulotlariga qay yo‘sin va usullarda kiritish kerakligi borasida bir qator olimlarning fikrlari tarjima metodikasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xususan, A.Pim: “Talabalarni spontan tarzda, real hayotda yoki rol o‘ynash vositasida tarjima qilishga undashimiz kerak. Talabalarga turli xil tarjimalar berishimiz, keyin o‘zaro farqlarni muhokama qilishimiz kerak. Shu tariqa chet tilidagi har bir ibora, ifoda uchun faqat bitta tarjima variant bor, degan fikrdan voz kechamiz. Shu tufayli talabalarga tarjima jarayonida kontent qo‘shish va o‘chirishga ruxsat berishimiz kerak.” [1, 215] deydi. Ushbu taklifga binoan, biz talabalarga tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘plab tafovutlarni aniqlash va o‘rganishga imkon yaratamiz.

Chet tillarni o‘qitishda tarjimadan foydalanish talabalarni berilgan topshiriqni o‘z ona tilida tushunib, tarjima mahorati bilan bir qatorda analitik yoki og‘zaki-lingvistik o‘rganish strategiyalarini o‘zlashtiradi. Tarjima o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaydigan uslubga moslashtirilishi va talabalarga erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratishi mumkin. Tarjimadan chet tili o‘qitishda foydalanishda bugungi kunda chet tili o‘qitishga qo‘yilgan talab va ehtiyojlarni qondirish uchun moslashtirilishi lozim [4, 10].

L.Venuti chet tili va tarjimani birga o‘rganishni rag‘batlantirish uchun sinfdagi mashg‘ulotlar davomida ijtimoiy konstruktivistik nazariyasidan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda talabalar loyiha ishlarida muharrir, koordinator va terminolog rolini o‘ynaydilar. Tarjima muammolarini hal qilishda hamkorlik va muloqotni rag‘batlantirish maqsadida talabalarning o‘z guruhdoshi tarjimasiga tanqidiy munosabati asosida ularni muhokama qilish va baholash harakatlari amalga oshiriladi [2, 1].

Ta’kidlash joizki, chet tili darslarida talabalar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar muayyan mezonlarga ko‘ra baholanib borishi zarur. Adekvat tanqid va baholash natijasida talabalarda tarjima qilish ko‘nikmasining rivojlanishi muqarrar.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

M.Melis Tarjimani baholash tarjimaning uchta yo‘nalishida: nashr etilgan tarjimalarni baholash, professional tarjimonlar ishini baholash va tarjimani o‘qitishda baholash dolzarb [5, 273]ligini ko‘rstadi. Talabalarni baholash tarjima mahsuloti va amalga oshirilgan individual jarayon (tegishli tamoyillarga rioya qilish) bilan bog‘liq. Tarjima mahsulot sifatini, shuningdek miqdorini (ishini) baholash mumkin. Ushbu sohada baholashning uchta funktsiyasi (diagnostik, summativ va shakllantiruvchi) ishlaydi. Baholash uchun tarjimalar, baholash mezonlari, baholash va tuzatish shkalalari, anketalar, mashqlar va boshqalar talab qilinadi [5, 279].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, chet tilini o‘rgatishda talabalarning til bilishini baholash mezoniga tarjima qilish ko‘nikmasini ham alohida kiritish zarur. Chet tili mutaxassislarini yetishtirishda kommunikativ muloqot qilish ko‘nikmasini yaxshilashda ijobiy ta’sirga ega tarjima faoliyatini o‘rgatish metodikasi, metodologiyasi, mustaqil ta’lim shakllari va baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarlik kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pym A. Where Translation Studies lost the plot: Relations with language teaching. Translation and Translanguaging in Multilingual Contexts, 4 (2), 203–222. – 2018.
2. Shen M. Teaching translation: programs, courses, pedagogies. Perspectives. 2017.
3. Colina S. Second Language Acquisition, Language Teaching and Translation Studies. The Translator, 8:1, 1-24, 2002.
4. Yusupov O. Хорижий тилларни ўқитишда таржиманинг аҳамияти //Chet tillarni o‘qitishda dolzarb muammolar, innovatsiyalar, an'analar, yechimlar va badiiy adabiyotlar tahlili. – 2022. – Т. 1. – №. 01.
5. Melis N.M., Albir A.H. Assessment In Translation Studies: Research Needs. META Journal des traducteurs/Translators' Journal. Volume 46, Number 2, 2001.
6. Khudoyorovich, K. K., Rasuljanovna, I. N., Khalmuratovna, R. Z., & Eshkobilovna, K. D. (2020). The Issues of Word Choice in Fiction Translation. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(04).
7. Ismatullayeva, N. R. (2020). Probability Prediction Strategy In Simultaneous Interpretation. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *1*(01), 1-6.
8. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# TURKCHA MAROSIM NOMLARI VA ULARNING TARJIMASIGA DOIR

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-230-237

DSc. **Xayrulla HAMIDOV**
TDSHU dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 90 960 06 23;
E-mail: hamidovx@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada turk jamiyatining mustahkam ma’naviy ustunlaridan biri bo‘lgan marosimlar, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning tarjimasi xususida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *marosimlar, etnografiya, tilshunoslik, “Devonu lug‘ot-it turk”, turkiy qavmlar.*

**Аннотация**. *В данной статье речь идет о ритуалах, обрядах, которые являются сильными духовными столпами турецкого общества, их роли и значении в жизни общества, а также об их переводе.*

**Ключевые слова**: *обряды, этнография, языкознание, «Девону Лугот-ит Тюрк», тюркские народы.*

**Abstract**. *This article deals with rituals, rituals, which are strong spiritual pillars of Turkish society, their role and significance in the life of society, as well as their translation.*

**Key words**: *rituals, ethnography, linguistics, "Devonu Lugot-it Türk", Turkich peoples.*

Har Turkcha marosim (tören[83]) nomlari turk xalqining tarixi qadar qadimiydir. Zero, marosimlar har qanday jamiyatning mustahkam ma’naviy ustunlaridan biri bo‘lib, ularni ilmiy o‘rganish nafaqat jamiyatshunoslik yoki etnografiya sohalari, balki tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham vazifasi hisoblanadi va ular jiddiy tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin.

Marosimlar (törenler) bir tomondan jamiyatning mavqei, xalqning dini, tarixi va madaniyati, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy ahvolini o‘zida namoyon qiladi. Marosimlar turli millatlar va inson jamiyatlarining diniy e’tiqodlari, madaniy saviyalari, urf-odatlariga ko‘ra farqliliklar namoyon

[83] Tören – marosim, tadbir, tantana.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

etadi. Bu yerda jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarning ta'siri haqida ham so'z yuritish kerak bo'ladi.

Ushbu maqolada turkcha marosim nomlaridan bir nechtasi *(janoza (cenaze, yog), mavlud (mevlit), osh (aş, yemek), to'y (düğün)*ning etimologiyasi, ma'no xususiyatlari va ularning tarjimasi masalalariga e'tibor qaratilib, muxtasar xulosalar beriladi. Maqola uchun manba sifatida o'zbek [1] va turk [2] tillarining izohli lug'atlari, shuningdek taniqli o'zbek adibi Odil Yoqubovning "Adolat manzili" romani [3] va uning turkcha tarjimasi [4] olindi.

Islomdan oldingi davrlarda *janoza* marosimi turklarda *yog (yog)* yoki *yug (yug)* deb nomlangan. Bu so'z Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot-it turk" asarida "o'lik ko'milgandan keyin uch yoki yetti kun ichida beriladigan taom", *yoglamak (yoglamak)* esa «vafot etgan kishini yodlab, aholiga taom tarqatish» ma'nolarini bersa-da, so'zlarning tagida "taom tanovul qilish" an'anasi bo'lgan janoza ma'rakalarining umumiy nomi sifatida qo'llanilganligi ma'lum. Bu marosimning markaziy nuqtasi bo'lgan "taom tanovul qilish" an'anasi esa islomiyatdan ilgarigi amallarning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Turk tilida janoza marosimlarining nomlanishi barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi umumiydir. Arab tilidan turkiy tillarga o'zlashgan janoza ***cenaze*** so'zining ma'nosi hozirgi zamon turk tilidagi lug'atlarda quyidagicha berilgan: 1. kafanlanib, tobutga qo'yilgan, ko'mish uchun tayyorlangan inson jasadi. 2. janoza marosimi.

Islom dini qabul qilingandan keyin esa undan oldingi davr an'ana va e'tiqodlarining asosiy qismi islomiy xarakter kasb etib davom etgan [5,465]. *Yug (yug)* marosimlarining asosiy maqsadi marhum xotirasini yod qilib, *osh* berish edi. Shu bilan birga bunday marosimlar marhum xotirasi uchun qilingan tomosha (namoyish)larni ham o'z ichiga olgan. Qolaversa, yig'i, yuzni yulish, sochni qirqish, ot choptirish kabi qator urf-odatlar ham *yug (yug)* marosimlarining tarkibiy qismi hisoblangan.

Janoza so'zi asosida turk tilida bir necha so'z birikmasi yasalgan. *Cenaze alayı* – mayitni ko'tarish marosimi, janozani tamosha kiluvchi olomon: *"Onu bu kadar candan alkışlayan Istanbul, iki gün sonra çok derin bir üzüntüyle cenaze alayını izledi"- Uni bunchalik chin yurakdan olqishlagan Istanbul ikki kundan keyin musibat ichida janoza olomonini*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*tomosha qilib turar edi. Cenaze merasimi (janoza marosimi)* va uning sinonimi bo‘lgan *cenaze töreni (janoza marosimi)* birikmalarining ma’nosi: “janoza namozidan keyin qabristongacha bo‘ladigan diniy marosim”. *Bir cenaze töreni için şehitliğe ilk defa gidiyordu – Janoza marosimi uchun shahidlar qabristoniga ilk bor ketayotgan edi*. *Cenaze namazı – janoza namozi*: mayit dafn qilinishidan oldin musalla toshi ustiga qo‘yilgan tobut qarshisida o‘qiladigan namoz.

Umuman, turkiy xalqlarda belgilangan kunlarda aholiga *osh berish (taom tortish)* an’anasining islomdan oldingi davrga tegishli marosim bo‘lganligini ta’kidlash joiz. Ta’kidlash joizki, “osh” (turkcha – aş) asl forscha so‘zdir. Turk, o‘zbek va boshqa bir qator tillarda “osh” so‘zi issiq ovqat, taom ma’nosida qo‘llaniladi. 1. Issiq ovqat. *ugra osh, xo‘rda osh.* Sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuq-suyuq oshlar bilan jo‘natib, kelishilgan holda javob beradi (7). 2. Barcha turdagi ovqatlar. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich! Maqol. Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni. maqol. Jon bo‘lsa, jahon topilar, osh bo‘lsa, uchinchi topilar (Maqol). 3. Palov. to‘y va boshqa tadbirlarda katta qozonda pishiriladigan go‘sht, sabzavot, guruchli taom. 4 etn. Marosim, ziyofat nomi o‘zbekcha: qora osh, qiz oshi, xotin oshi, arvoh oshi, maslahat oshi. Yoshini yashab, oshini oshagan. Yerga oshatsang – osh bitar, oshatmasang – tosh bitar. maqol. Tabarruk qo‘lingiz bilan [oshdan] bitta oshatingiz! [7]. Turkcha misollar: *Erken kalktım işime - şeker kattım aşıma; Buğday mısıra: “Aş ol, keş ol, hamur işine karışma” demiş; Avrat vardır, arpadan aş eder; avrat vardır, bulguru keş eder* va b.

Osh (yog) berish marosimi hozirgi paytda qozoq, qirg‘iz, qrim tatarlari, qumiq, avar, no‘g‘ay va ozarbayjonlarda ham bo‘lgan an’analardan hisoblanadi. Osh berishdan maqsad, turlari deyarli bir-biriga o‘xshash taomlar, beriladigan kunlar, asosan, janozadan keyin uchinchi kun, yettinchi, yigirmanchi, qirqinchi, ellik ikkinchi kun, yil oshi ham bir-biriga juda o‘xshab ketadiki, bu ham turkiy xalqlar orasida islomdan oldingi davrlarda e’tiqod mushtarakligi va ularning hozirgacha davom etib kelayotganligidan dalolat beradi. “Turkiy qavmlardan bo‘lgan qumuqlarda motam uyi egasi “o‘lik oshi” beradi. Cherkeslarda marhum dafn qilingunga qadar uy egalari taom tanovul qilishmaydi, faqat janozadan keyin to‘rt kun un va yog‘dan luqum pishirishadi. No‘g‘aylarda yettinchi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

kun yog‘ qizdirilib, is chiqariladi va taom pishiriladi. Qirq va ellik ikkinchi kunlar marosim o‘tkaziladi. Bundan tashqari, payshanba va juma oqshomlari beriladigan taomlarning hidi marhum ruhi uchun zarur ekanligiga e’tiqod qilinadi” [6,148]. Ko‘rinib turibdiki, turkiy qavmlarning bu mavzuda o‘xshash jihatlari talaygina. Masalan, o‘zbek xalqining bu borada boshqa turkiy xalqlardan ko‘proq qadriyatlari bor.

Yuqorida bildirilgan fikrimizni badiiy asardan olingan parcha vositasida asoslashga harakat qilamiz. O‘zbek adibi Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida shunday bir jumla kechadi. Asar qahramoni Suyun burgutning dafn marosimi tasvirlangan jumlada o‘zbek xalqining urf-odatlari, dafn marosimi bilan bog‘liq an’analari aniq aks etgan: *“Suyun burgutni yerga berib bo‘lgach... dafn marosimining uchinchi kuni elga qora osh berildi”* [3,170]. Turkcha tarjimasi: *«Defin merasiminin üçüncü günü halka yemek verildi»* [4,209]. Parcha va uning turcha tarjimasida bizning diqqatimizni tortgan jihat ‘dafn marosimining uchinchi kuni elga berilgan ‘*qora osh’*dir. Tarjimon ushbu birikmaga unchalik e’tibor bermagan va uni qisqagina qilib *‘yemek verildi’,* ya’ni *‘taom tortildi’* deb berib qo‘ya qolgan. Holbuki, adib o‘z asarida o‘tgan asrning 80-yillarida chet qishloqlarda marhum dafn etilgandan so‘ng marosimning uchinchi kuni elga berilgan ‘*qora osh’*ni ta’kidlagan. Bu gapda “qora osh” deganda oshning rangi emas, o‘sha “qora kun”da berilgani uchun aytilishi tushunilmog‘i kerak.

“Adolat manzili” romanida ba’zi frazeologik o‘xshatishlar qo‘llanganki, ulardan ham o‘zbek xalqida o‘lim bilan bog‘liq ba’zi urflarni anglab olish qiyin emas. Masalan, romandagi *‘To‘rt xonali katta uy, uy emas, qasr, go‘yo suv quyganday, go‘yo o‘lik chiqqan xonadonday jimjit”* [3,6] gapidagi *‘go‘yo o‘lik chiqqan xonadonday jimjit’* metaforik birikmasi orqali o‘zbek xalqida oila boshiga tushgan musibat, uni insonlarning qanday qabul qilishlari obrazi tarzda berilgan. Mazkur o‘xshatishli ibora turk tiliga *‘cenaze çıkmış gibi sessiz’* deb muvaffaqiyatli o‘girilgan: *‘Dört odalı koca ev, ev değil bir saray yavrusuydu, ama sanki su basmış, cenaze çıkmış gibi sessizdi”* [4,7]. Xuddi shu romanda motam kuni, o‘zbek urf-odatlari aks etgan yana bir jumlaga duch kelamiz: *‘Yo‘q, bu odatda uloqdan jo‘r qiyqiriq bilan qaytadigan uloqchilar to‘dasi emas, motam sukunatiga cho‘mgan ulkan olomon edi’* [3,8]. Unda qo‘llanilgan *‘motam*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*sukunatiga cho'mgan ulkan olomon'* metaforik birikmasi 'sassiz-sadosiz, jimjit ketayotgan yuzlab otliq kishi' demakdir. Ushbu birikmani tarjimon turkchaga '*matem sessizliğine bűrűnműş koca bir kalabalık*' deb o'girib, asliyatga yaqin ish tutgan. Gapning tarjimasi esa quyidagicha: *'Hayır, bu genelde olduğu gibi uzaktan naralar atarak gelen műsabakacıların çıkardığı bir toz bulutu değil, matem sessizliğine bűrűnműş koca bir kalabalıktı'*[4,9]. Ta'kidlash kerakki, gapning birinchi qismida tarjimon bir oz erkin harakat qilgan. *'uloqdan jo'r qiyqiriq bilan qaytadigan uloqchilar to'dasi'* birikmasi '*uzaktan naralar atarak gelen műsabakacıların çıkardığı bir toz bulutu'* (o'zbekchaga so'zma-so'z tarjimasi *'uzoqdan na'ralar tortib kelayotgan musobaqachilar chiqargan chang buluti')* deb tarjima qilinib, unda asl matndagi mazmun xiralashgan.

Asl nusxadan yana bir misol: *'Bibisora egniga ko'k kiyib bir yil aza tutdi, keyin bir yildayoq qarib, munkayib qolgan qaynona, qaynotasi bilan rozi-rizolashib, xo'jalik markaziga ko'chib o'tdi'* [3,9]. Jumla turkcha tarjimada *'Daha sonra Bibisara matem elbiselerine bűrűnűp yas tutmuş, bir yıl kadar sonra yaşlı kaynana ve kaynatasıyla helalleşip kolhoz merkezine göçűp gitmişti'* [4,10] deb berilgan. Asliyatdagi '*ko'k kiymoq*' metaforik birikmasining ma'nosi 'aza tutmoq'dir. Bu birikma tarjimada '*matem elbiselerine bűrűnűp yas tutmak*' deya ancha kengaytirib berilgan va buni ijobiy baholash mumkin.

Turkcha marosim nomlaridan yana biri ***mavlud (mevlid)*** hisoblanadi. Ushbu so'z dunyoning ko'p tillari, jumladan turk tiliga arab tilidan o'zlashgan va u *1. Inson tug'ilgan joy; 2. Tug'ilish, dunyoga kelmoq; 3. Tug'ilish vaqti* ma'nolarini bildiradi Bundan tashqari, keyinchalik «Hazrati Muhammadning tug'ilishini haqida hikoya qiluvchi nazmiy asar» ma'nosini ham ifodalagan [9]. Qolaversa, bu asarlar o'qilgan marosimlar ham vaqt o'tishi bilan *mavlud (mevlid)* deb nomlangan. Asosan, diniy-didatik mohiyatga ega bo'lgan mavludlar masnaviy shaklida yozilgan va mavzularning mushtarak bo'lganligi ma'lum: *Sesi de çok güzelmiş, haftada bir defa köyün kadınlarına mevlit okurdu* (M.Ş.Esendal) [2,1555]. Tarjimasi: *Ovozi ham juda shirali ekan, haftasiga bir marta qishloq ayollariga mavlud o'qir edi.*

Mavlud o'zbeklarda ham, turklarda ham bir xil bo'lgan. Inson vafot etgandan keyin uning yaqinlari ma'lum kunlar yoki oylarda mavlud

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘qishgan. Ayniqsa, turklarda janoza marosimlari doirasida mavlud o‘qish an’anasi keng tarqalgan. Turklarda mavlud va uning tarixi borasida Turkiyaning G‘oziantep universiteti prof. Fuzuliy Bayot tadqiqot olib borgan [10]. Uning ta’kidlashicha, turklarning islomdan ilgarigi davrlarda hayot kechirish tarzlari, urf-odatlari ana’anaviy tus olib, islom dini qabul qilinganidan keyin ham saqlab qolingan. Bunday urf-odatlardan islomiy qonun-qoidalarga mos kelmaganlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borgan bo‘lsa, ba’zilari islomiy mazmun-mohiyat kasb etgan holda davom etgan, ba’zilari esa tamoman yo‘qolib ketgan. Bunday taraqqiyot o‘zgarishlari turklar islom dinini qabul qilganlaridan keyin yoyilgan keng hududlar va bu hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar ta’siri ostida turkiy qavmlar orasida farqli shakllarda amalga oshib borgan.

*Ölümün yedinci akşamında ölenin yakınları komşulara, dost ve akrabalara akşam yemeği verirler. Evde, sevabı ölenin ruhuna bağışlanmak üzere Kur’an ve mevlit okunur. Mevlit, Şair Süleyman Çelebi’nin yazdığı dini bir manzumedir. Allah’a dua ile başlar. Peygamberin doğumu ve hayatındaki mucizelerle devam eder. Mirac (göğe yükseliş) mucizesiyle bitirilir. Eserin aslı daha uzundur.*

*Ölümün elli ikinci akşamı ölenin yakınları komşulara, dost ve akrabalara daha fazla kişinin katıldığı akşam yemeği verirler.*

So‘z borayotgan madaniy o‘zgarishlar ko‘proq turklar turmushida, ayniqsa, ma’rakalar (janoza va undan keyingi marosimlarining o‘tkazilishi)da kuzatiladi. Islomdan ilgarigi davrdagi janoza marosimlari islom dini qabul qilinganidan keyin turli turk qavmlari orasida farqli shakllar olib o‘zgarib borgan. Bunday farqli o‘zgarishlardan biri Onado‘lida janoza marosimlarida islomdan ilgarigi urflarning islom diniga moslashgan shakl va mazmun kasb etganligini birgina Mavlud o‘qish marosimi misolida ham ko‘rish mumkin. Mavlud o‘qish marosimidagi ba’zi an’analar va ularning o‘tkazilishi sanasi, kunlariga islom dini qabul qilinishidan oldingi an’analar ta’sir etganligi ma’lum. Ana shu nuqtai nazardan janoza mavludlari Onado‘li hududlarida islomdan ilgarigi davrdagi janoza marosimlarining islom dini qoidalariga moslashganligini ko‘rish mumkin.

Turk tilidagi ***düğün*** so‘zi quyidagi ma’nolarni anglatadi. 1. Uylanish munosabati bilan o‘tkaziladigan marosim, tantana, o‘yin-kulgi. *Bir gün,*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*araba ile Merdivenköyü'nde bir köy düğününe gidilecekti [8, 52]. Üstelik teyzem de köşkte düğün hazırlıklarına başlamış [8, 60]*. 2. Cunnat to'yi (sünnet düğünü). ***Düğün*** so'zi ishtirok etgan, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq so'z va birikmalar ham bor. Ular sirasiga ***düğünsü*** *(1. to'y egasi, 2. to'yga aytuvchi odam; 3. to'y marosimi qatnashchilari)*, ***düğünsübaşı*** *(to'y boshlovchisi, rais)*, ***düğün alayı*** *(to'yga ishtirok etayotganlarning musiqa asboblari jo'rligida va olomon bo'lib yurishi)*, ***düğün çorbası*** *(to'y sho'rvasi, ya'ni go'sht, un, qatiq qo'shilib, ustiga qizitilgan yog' quyilib to'yda tortiladigan sho'rva turi)*, ***düğün dernek*** *(uylanish munosabati bilan o'tkaziladigan tantana, o'yin-kulgu)*, ***düğün evi*** *(to'yxona, baxt uyi)*, ***düğün hamamı*** *("to'y hammomi", ya'ni to'ydan bir kun oldin kelin va yaqinlarining yegulik, musiqa, o'yin va tomoshalar bilan ko'ngilxushlik qilib yuvinib, tozalanish)*, ***düğün pilavı*** *(to'y palovi; to'y oshi)*, ***düğün salonu*** *(to'yxona)*, ***düğün yahnisi*** *(past olovda serpiyoz qilib pishirilgan sersuyak qo'y go'shtidan kam suvli taom)* kabi so'z va birikmalar kiradi.

Turk tilida ***düğün*** so'zi ishtirok etgan maqol, matal va iboralar ham talaygina: *düğün bayram etmek* (juda xursand bo'lmoq, bayram qilmoq), *düğün değil, bayram değil eniştem beni niye öptü* (ko'rsatilgan iltifotning sirli bir sababi bor demak), *düğün dernek hep bir örnek* (biror hodisa yoki ishning bir-biriga o'xshashligi), *(birinin) düğününde kalburla (elekle) su taşımak* (bir yordam evaziga bo'ydoq bir kishiga katta yordam berish va'dasi sifatida qo'llanadi), *Kambersiz düğün olmaz* (bir jamiyatda yoki bir ishga aralashishga juda qiziquvchi kishilarga yarim kesatiq, yarim hazil sifatida aytiladi); *düğün pilaviyle dost ağırlamak* ("to'y oshi bilan mehmon kutmoq", ya'ni birovning hisobidan birovni mehmon qilmoq).

Turklarda bir necha yuz yillik tarixga ega bo'lgan yana bir urf-odat, an'ana bor: nikoh to'yidan bir kun oldin ayollar bo'lg'usi kelinning qo'llariga, barmoqlariga xina qo'yishadi ***(kına yakmak – xina yoqmoq*** degani, qo'lga, barmoqlarga xina qo'ymoq degani bo'ladi). Ushbu an'ana **kına gecesi** (xina kechasi) deb nom olgan.. O'sha kecha kelin uyida o'tkaziladigan *qiz bazmi* ***kına gecesi*** (so'zma-so'z: xina kechasi) deb nomlangan. O'tgan asrning 60-70 yillarida O'zbekistonning ba'zi janubiy tumanlarida ham xina kechasi bazmi o'tkazilib, kelinning o'rtoqlari, yosh juvonlar kelinning qo'llariga xina qo'yishib, o'yin kulgi, xushchaqchaqlik qilishgan. Bunday kechalar *xinovandon* deb nomlangan.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning mustahkam ma'naviy ustunlaridan biri va xalqining tarixi qadar qadimiy sanalgan turkcha marosim nomlari semantikasini o'rganish nafaqat turkiyshunoslikning tarkibiy qismi, balki tarjimashunoslik uchun ham boy material bera oladi. Bundan tashqari, turkcha marosim nomlari kelajakda yoziladigan dissertatsiyalar uchun qiziqarli mavzu, manba va ob'ekti bo'ladi, deb o'ylaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

[1] – O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-2- jildlar, M., «Russkiy yazыk», 1981.
[2] – Türkçe Sözlük, TDK, 9. Baskı, 1.-2. Ciltler, Ankara, 1998.
[3] – Yoqubov Odil, Tanglangan asarlar. To'rt jildlik, 1-jild. Adolat manzili, roman. – Toshkent: Sharq, 2005. – 178 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[4] – Yakuboğlu Adil, Adalet Menzili (çeviren: D.Ahsen Batur). – İstanbul, Selenge Yayınları, 2005. – 213 s.
[5] – İnan Abdülkadir, Makaleler ve İncelemeler. – Ankara, 1987.
[6] – Bayat Fuzuli, Türklerde Cenaze Törenleri Bağlamında Mevlit Okuma Geleneği, Sosyal Bilimler dergisi, Sayı: 19, 2008, S.147-150.
[7] – Qodiriy A. O'tgan kunlar, S.Azimov tahriri ostida (So'zboshi I.Sultonniki) – Toshkent: O'zdavnashr, 1958. – 378 b.
[8] – Güntekin R.N. Çalıkuşu. İnkilap Kitabevi, 38. Baskı. –İstanbul, 1995.
[9] – Devellioğlu, Ferit, Osmanlıca-Türkçe Ansiklopedik Lugat, Ankara, 1993.
[10] – Bayat Fuzuli, Türklerde Cenaze Törenleri Bağlamında Mevlit Okuma Geleneği, Sosyal Bilimler dergisi, Sayı: 19, 2008, S.147-155.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# MADANIY DIPLOMATYADA TILNING QUDRATLI IMKONIYATLARI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-238-244

PhD. **Dildora XODJAYEVA,**
Jawaharlal Nehru Universiteti.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
O'zbek-Hind turizm uyushmasi raisi
dil.khodjaeva@gmail.com

**Annotatsiya.** *Xalqaro munosabatlar jarayonida avvaladan foydalanib kelingan, ammo nisbatan yangi tushuncha bo'lgan madaniy diplomatiyada tilning muhim o'rni maqolada e'tirof etiladi. Moziydan millatlar va hukumatlararo aloqalarni o'rnatish maqsadida, ko'pgina buyuk davlatlar aksariyat hollarda madaniy diplomatiya vasiylari sifatida kuzatiladi. Shu o'rinda maqola G'arb va Sharq dunyosiga tegishli bir qancha qudratli tillarning millat nufuziga qo'shgan hissasi va madaniy jarayonlardagi ta'sirini yoritadi.*

**Kalit so'zlar:** *madaniyat, diplomatiya, yumshoq kuch, lingua franca, tarix.*

**Аннотация.** *В статье признается важная роль языка в культурной дипломатии, которая давно используется в международных отношениях, но является относительно новым феноменом. Многие великие державы часто рассматриваются как сторонниками культурной дипломатии с целью установления межнациональных и межправительственных связей. А также статья подчеркивает культурные процессы на нескольких примерах влияние некоторых могущественных языков, принадлежащих западному и восточному мирам.*

***Ключевые слова***: *культура, дипломатия, мягкая сила, лингва франка, история.*

**Abstract.** *The current article is modest attempt to acknowledge the significant role of language in the cultural diplomacy, which is a comparatively new concept but an old phenomenon in the international relations. Historically, powerful countries often saw themselves as the guardians of cultural diplomacy for establishment of relations between states and nations. Considering Lingua Franca's rise and fall in the human communication history across the boundaries, the paper emphasizes the influential languages of Western and Eastern worlds as well.*

**Key words**: *culture, diplomacy, soft power, lingua franca, history.*

## Kirish

Madaniy uyg'unlik mujassamasi zaminida dunyo kun sayin bir yagona maskanga aylanib bormoqda. E'tiborlisi, har bir mamlakat o'z madaniyati,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

milliy tili, g'oyasi va ta'sir kuchini butun dunyo bo'ylab axborot texnologiyalari orqali kengaytirishni xohlaydi. Bu jarayonda qudratli mamlakatlarga tegishli yumshoq kuchning muhim omillardan biri - til beihtiyor muloqot vositasiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, muayyan mamlakatga tegishli tilning nufuzi madaniy diplomatiyaga xos muhim strategiya omillaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ommalishib borayotgan madaniy diplomatiya ko'lami, 21-asrning dolzarb muammolariga yechim sifatida, keng targ'ib etilishi kuzatilmoqda.

**Asosiy qism.**

Dastavval madaniy diplomatiya tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z: "Madaniyat" va "Diplomatiya", birikmalaridan yuzaga kelgan. Ikki so'z ham muloqot shakillarini anglatadi, biroq, vazifalari farqlidir. Aniqroq yondashsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortidagi muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat esa mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir. Madaniy diplomatiya – bu ikki tomonlama munosabatlarni rag'batlantirish maqsadida madaniyatga oid g'oyalar, ma'lumotlar, qadriyatlar, tizimlar, an'analar, e'tiqodlar kabi bir qator omillar almashinuvida amalga oshiriladi.

Madaniy diplomatiya tushunchasi nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, aslida xalqaro munosabatlar sohasida chuqur ildizga egadir. Tarixan qudratli davlatlar odatda muayyan mamlakat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'zlarini madaniy diplomatiyaning vasiylari sifatida namoyon qilganlar. Ayniqsa, qudratli davlatlar tomonidan ma'lum bir xalqni o'ziga jalb etish, yo'naltirish, yoki ta'sir o‘tkazish jarayonlarida til omillari muhim kuch sifatida aloqa manbaiga aylantirilgan.

Zamonlar osha nazar tashlashak, har bir darvda ma'lum bir til muayyan bir mintaqa yoki o'lkada ‘Lingua Franca’ ya'ni qudratli til maqomiga ega bo'lgan. Aniqroq aytganda, bu ko'prik tili, asosiy aloqa yoki hukumat tili vazifasini o'tagan.

G'arbiy Ovropani olayik, tarixda nasroniylikning asosiy markazi bo'lgan Rim imperiyasi davrida lotin tili eng qudratli tillardan biri hisoblangan. Garchi lotin tili muloqotda o'ta faol qo'llanilmagan bo'lsa-da, ammo ko'plab qimmatli adabiyotlar lotin tilida tuzilganligi bois, ilm-fan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

rivojiga buyuk hissa qo'shgan. Keyinchalik lotin tili fransuz, ispan, portugal, italyan va rumin tillarini o'z ichiga olgan ‘roman tillari’ oilasini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 900 millionga yaqin aholi roman tillarida so'zlashadi va 140dan ortiq davlatda lotin alifbosidan foydalaniladi.

XV asrga kelib bosmaxonaning rivojlanishi bilan lotin tilining qudrati adabiyotda ko'rinadi, kitoblar nashr etilishi esa jamiyatdagi savodxonlik darajasini ko'taradi. Natijada, adabiyot va nashr boshqa xalqalarning madaniyati, hayot tarzini o'rganish uchun eshiklar ochadi. Madaniyat rivojiga hamda xalqaro munosabatni rivolantirishida elchilar, sayyohlar, savdogarlar tomonidan lotin tili qo'llaniladi. Tarixiy va ijtimoiy ahamiyati bois Rim ko'pincha ‘*Kaput Mundi*’ - dunyo poytaxti deb ham atalgan. Rimning o'sha davrdagi dunyo markaziga aylangani bois, madaniyat o'chog'i sifatida ham ko'rilgan.

Ingliz tilida ko'p qollaniladigan, *when in Rome, do as the Romans do’*, ya'ni ‘Rimda bo'lganingda, o'zingni rimliklar kabi tut’ iborasi ham bizgacha adabiyotlar orqali yetib kelgan. Bu ibora muallifi asli Afrikalik, lekin keyinchalik Rim Imperiyasi vatandoshiga aylangan avliyo Augustinga tegishli edi. U o'z tajribasiga asoslanib, Rim hududiga tashrif buyurgan jamiyki insonlarga nisbatan ishlatgan bo'lsa ham, hozirda uning fikri madaniy qadriyatlar va yashayotagan muhitga moslashish uchun barchaga maslahat sifatida ko'riladi.

Nasroniy Ovropadan e'tiborni Islom olamiga qaratsak. Nega aynan dinlarga urg'u berilishiga sabab, qadimdan din madaniyatga o'zinig muhim ta'sirini o'tkazgan. Arablar tomonidan Islom dini tarqalishining eng mahsuldor va ko'zga ko'ringan davri bu Abbosiylar hukumronlik qilgan davr bilan bo'g’liq. Ular Yaqin Sharq, Eron, Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlariga islom dinini ta'sis etishga muvaffaq bo'lishdi. Pirovardida, arab tili ‘Lingua Franca’ maqomiga ega bo'ldi va arab yozuvlari xattotlik san'ati uchun keng qo'llanildi. Arab tilining ommalashishiga eng asosiy sabab bu Quron karim tili bo'lganligi va so'ngra tijorat, adabiyot hamda diplomatik yo'nalisharda ham keng foydalanganligi bois edi. VIII asrda qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi Xitoydan Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Samarqand orqali musulmon davlatlariga olib kelinganida, til qudrati yanada kuchayadi. Ichlab

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

chiqaruvchi uskunalar va korxonalrni tashkil etilishi bilan arab dunyosida pergament va papirus o'rnini qog'oz egalladi.

Abbosiy xalifaligi tomonidan tashkil etilgan Bog'doddagi islom dunyosining dastlabki akademiyasi ‘Bayt al-Hikma’ (Hukmatlar uyi) butun dunyo olimlari uchun o'z darvozalarni ochadi. Ilm-fan, falsafa, tibbiyot, tilshunoslik va bacha boshqa sohalarni rag'batlantirgan Abbosiy xalifalar ko'pgina taniqli olimlarni o'z homiyligiga olishadi. Shu zailda Islom tamaddunining eng rivojlangan lahzalari dunyoning yorqin fikirli va o'tkir zehn sohiblarini bir tom ostida birlashtiradi.

Akademiya kutubxonasida Aflotun, Arastu, Ptolomey, Hippokrat, Sushruta, Charaka, Aryabhata, Braxmagupata va shu kabi bir qator yunon, fors, hind va boshqa olimlarining qimmatbaho kitoblari va qo'lyozmalari mavjud bo'lgan. Arab dunyosidagi bunday jo'shqin tarjima harakati davrida nasroniy, musulmon va yahudiy dinlariga mansub bir guruh iqtidorli, mohir tilshunoslar hamjihatlkda muvaffaqiyatli tarjima jarayonini alamga oshirishadi.

‘Bayt al-Hikma’ akademiyasining asosiy rasmiy, ishchi va tarjima tili arab, hamda ba'zan pahlaviy (forsiy) tillari bo'lgan. Shu sabali ba'zi allomalarning kelib chiqishi va ularga taaluq bo'lgan zamin ham chalkashliklar tug'diradi. Misol tariqasida, Markaziy Osiyo zaminidan chiqqan olimlar o'z asarlarini arab yoki fors tillarida taqdim etganlar. Ular haqidagi ma'lumotlar ba'zi manbalarda arab yoki fors allomalari deb keltiriladi.

Misolga yanada aniqroq yondashsak, Markaziy Osiyolik olim, ‘Algebra otasi’ nomi bilan mashhur Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) asli Xorazmdan bo'lib, u zamonaviy O'zbekiston hududiga tegishlidir. Hindistonlik olim Aryabhataning raqamlarga oid asari asnosida Al-Xoarazmiy o'zining taniqli ‘Zij’ astronomik kitobini yozadi, keyinchalik u arabchadan lotin tiliga tarjima qilinadi.

Yana bir etnik jihatidan turkiy qavmlarga mansub taniqli shaxs, Sharq olamida falsafaning asoschisi sifatida tanilgan Abu Nasr Muhammad al-Forobiy (870-950) edi. Alloma bugungi kunda Qozog'iston hududiga tegishli bo'lgan Farab / O'trar vohasidan bo'lgan. Arab tili va ilm-fan o'rta asrda etnik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi olimlarni birlashtirdi. Abu Ali ibn Sino (980-1037) yoki G'arb dunyosida ‘tabiblar shahzodasi’ nomi bilan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tanilgan Avitsenna ham mazkur Akademiyaning eng taniqli va nufuzli olimi bo'lgan. Asli Buxoro zaminidan chiqqan Ibn Sinoning tibbiyot sohasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Allomalarimiz haqida so'z borganida, Xorazm (hozirgi O'zbekiston) vohasinning g'ururi, qomusiy olim, iqtidorli tilshunos alloma Abu Rayhon al-Beruniyning (973-1050) ilm dunyosiga qo'shgan hissasini ta'kidlash joizdir. Beruniyning Janubiy va Markaziy Osiyoning ilmiy va madaniy aloqalarini rivojlantirish bobida qo'shgan buyuk mehnatlari mahsuli bugungi kunda ham beqiyosdir. Beruniy o'zining ona tilidan tashqari fors, arab, yunon, ibroniy, lotin va oromiy tillarini yaxshi bilgan. O'tkir zehnli olim Hindistonda bo'lgan chog'larida Sankrit tilini tez orada mahalliy aholidan o'rganib oladi va bu hind asarlarini qunt bilan o'rganishga, tarjimalar va yangi ilmlarni taqdim etishga olib keladi. Shuningdek, hindshunoslik borasida yangi ufqlarlar ochadi.

Markaziy Osiyo nafaqat buyuk allomalari va iqtidori kishilari bilan mashhur, shuningdek zaminimiz millatlarining bir qancha tillarga oid tajribasi ham mavjudir. Buyuk oyin, ‘*Great Game’* atamasi bilan tanilgan zamonlarni esga olasak, ikki qudratli davlat ‘buyuk oyinn’ing asosiy oyinchilari: Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyasi Osiyo mintaqasida o'zining g'oya va madaniyatlarini singdirishga muvaffaq bo'lishgan davlarlardir.

Bu ikki buyuk kuchlarning asosiy targ'iboti til, adabiyot, nashrlar va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirildi. Keyinchalik, yumshoq kuch omillari Janubiy Osiyo uchun Britanyadan ingliz tili bilan birgalikda ta'lim tizimi va Markaziy Osiyo uchun esa Soviet ittifoqidan - rus tili va madaniyati meros bo'lib qoldi.

Aytish joizki, ingliz tili tufayli Hindistonliklar butun dunyoda o'zlarining yuksak ishonchlaridan foydalanmoqdalar va xorijda muvaffaqiyatli diasporalardan biriga aylandilar. Dunyodagi taniqli davlat arboblari obro'li lavozimlarda boshqarib kelayotgan Hindistonliklar, millat nufuzini yuksaltirmoqda. Eng qizig'i, sobiq mustamlakachi davlat Britaniya hukumatini endilikda, nasabi hind Rishi Sunak boshqarayotgani esa alohida ahamiyatga molikdir.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ayni paytda, Markaziy Osiyo rus tilini sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun ko'prik sifatida qadrlaydi, ushbu tildan foydalanishni davom ettirmoqda.

Kuchli tillarning yuksalishi va qulashi odatda kuchlar muvozanatining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi ham ingliz tili nufuzini yuksaltirishga turkti bo'ldi. Sababi, ikki tilda - ingliz va frantsuz tillarida tuzilgan ‘*Versal* shartnomasi’ ingliz tilining diplomatik maqomini oshirdi. Keyinchalik ingliz tilining hukmron bo'lishi uni xalqaro diplomatiyaning ‘Lingua Franca’siga aylantirdi. Shubhasiz, manfaatdor kuchlar ingliz tili va madaniyatining boshqa jamiyatlarga ta'sirini kuchaytirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Britaniyaliklar tomonidan olib borilayotgan madaniy diplomatiyaning yuksak namunasi natijalaridan biri bu ingliz tilini xorijda ommalashtirish bo'yicha madaniy vositachi - Britaniya Kengashi (British Council) ning tashkil etilishi bo'ldi.

**Xulosa.**

So'ng so'z o'rnida aytish mumkinki, asrlar davomida birin ketin grek so'gra lotin, arab, fors, turk, ispan, keyinchalik fransuz, rus va endilikda ingliz tillari qit'alar bo'ylab ‘Lingua Franca’ maqomiga ega bo'lib keyapti.

Muayyan davlat uchun o'z milliy tilining keng ko'lamda muomilada bo'lishi va o'rnatilishi o'sha jamiyat o'rtasida umumiy madaniy o'ziga xoslikni yaratish imkoniyatlarini beradi. Ushbu jarayon milliy tilning qudrati, millat g'ururi va obro'si bilan bog'liqligini namoyon etadi. Tarixdan hukumronlik vositasi sifatida madaniy diplomatiyada mohirlik bilan qo'llanib kelinayotgan, yumshoq kuch omillaridan til va madaniyat targ'iboti, ma'lum bir davlatga ta'sir o'tkazishlikning muhum strategiyalaridan bo'lib qoladi.

Mamlakatning yumshoq (maftunkor) kuchini mahorat ila ishga solgan holda, dunyo bo'ylab o'zining nufuzini targ'ib etib kelayotgan, bir qancha Ovropa va Osiyo mamlakatlari mavjud. Fransiya ittifoqi (Fransiya), Britaniya kengashi (Buyuk Britaniya), Gyote instituti (Germaniya), Servantes (Ispaniya) Konfutsiy (Xitoy) va Hindiston madaniy aloqalar kengashi kabi madaniy institutlar, o'ziga taaluqli milliy til va madaniyatni muntazam targ'ib etib kelmoqdalar. Yumshoq kuchga oid til targ'iboti madaniy diplomatiyada katta salohiyat va imkoniyatlar eshigini ochadi va

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

davlatning milliy manfaatlarini ta'minlash yo'lida muhim vositasi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.
2. Akhmedova, D. R., Ishchenko, I. V., Tillashaykhova, M. K., Navruzova, R. S., & Yuldashev, A. O. (2021). FEATURES OF FOOD, CONTENT OF MICROELEMENTS IN FOOD AND ENVIRONMENT IN FAMILIES LIVING IN UZBEKISTAN. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 13120-13123.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ПЕРЕВОД В КОНТЕКСТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ДИАЛОГА

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-245-255

**Татьяна ХРАМЧЕНКО**,
Белорусский государственный университет
г. Минск, Беларусь
Тел: +375 29 2506062;
hramchenkot@mail.ru

**Аннотация**. *О взаимосвязи языка, мышления и культуры говорят многочисленные исследования филологов, культурологов, психологов, социологов и философов. Посредством языка культура воздействует на мировосприятие человека. Диалог культур подразумевает знакомство, адаптацию и принятие другой культуры. Знание языка является ключом к пониманию другой культуры, таким образом перевод содействует обмену культурными ценностями.*

**Ключевые слова**: *языковая картина мира, перевод, межкультурная коммуникация.*

**Annotatsiya**. *Mazkur maqolada muallif tomonidan til, fikrlash va madaniyatning o'zaro bog'liqligi filologlar, madaniyatshunoslar, psixologlar, sotsiologlar va faylasuflarning ko'plab tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi degan fikr xulosa qilingan. Til orqali madaniyat insonning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Madaniyatlar muloqoti boshqa madaniyatni tanishtirish, moslashtirish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Tilni bilish boshqa madaniyatni tushunishning kalitidir, shuning uchun tarjima madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar**: *dunyoning lingvistik tasviri, tarjimasi, madaniyatlararo aloqa.*

**Abstract:** *There are many studies by philologists, cultural studies, psychologists, sociologists, and philosophers about the relationship between language, mentality, and culture. Through language, culture influences a human's perception of the world. The dialogue of cultures implies acquaintance, adaptation and acceptance of another culture. Knowledge of language is a key for understanding another culture, thus interpretation promotes the exchange of cultural values.*

***Key words:*** *language picture of the world, translation, intercultural communication.*

С незапамятных времен перевод является одним из самых древних видов речевой коммуникации, средством межъязыкового общения людей – как между разными государствами, так и среди многонациональных народов одной страны. И хотя в теории перевода

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

существует немало разных дефиниций, едва ли возможно дать переводу точное и универсальное определение. На протяжении веков это понятие постоянно изменялось и прирастало смыслами, и сегодня перевод предстает как многостороннее явление, которое является объектом изучения разных научных дисциплин и исследователей в каждой области: лингвистики (Я. И. Рецкер; Л. С. Бархударов, В. С. Виноградов, А. В. Федоров, А. Д. Швейцер, В. Н. Комиссаров, Ж. Мунэн, Р. Якобсон и др.), литературоведения (И. А. Кашкин, Н. К. Гарбовский, Р. К. Миньяр-Белоручев, М. Л. Гаспаров, Е. Г. Эткинд и др.), культурологии, социологии, философии, психолингвистики и этнопсихологии (В. И. Хайруллин, Б. В. Беляев, Е. М. Верещагин, А. Ф. Ширяев, И. А. Зимняя, И. В. Карпов, А. А. Леонтьев, Л. Виссон и др.).

В процессе перевода взаимодействуют не только языки, но и культуры, которые могут отличаться национальной спецификой. Как метко заметил один американский бизнесмен, «иностранным языком можно овладеть. Спотыкаешься всегда о культуру» [1, с. 2]. Упоминая об общении между представителями различных культур, мы подразумеваем межкультурную коммуникацию, или говорим о диалоге культур. Межкультурный диалог, по мнению В. В. Миронова, «это познание иной культуры через свою, а своей через другую путем культурной интерпретации и адаптации этих культур друг к другу в условиях смыслового несовпадения большей части обеих. Главным средством этого выступает язык, знание которого является важнейшей предпосылкой понимания другой культуры» [2, с. 150].

Таким образом, перевод не просто облегчает взаимодействие людей друг с другом, но и содействует обмену культурными ценностями, которые включают в себя, среди прочего, языки и диалекты, национальные обычаи и традиции, нормы и образцы поведения.

Важным звеном в цепи межкультурной коммуникации является переводчик, цель которого максимально точно передать людям другой языковой культуры все своеобразие оригинала. Перед переводчиком стоит сложная задача. С одной стороны, «переводчику важно владеть в совершенстве своим языком, – пожалуй, важнее, чем

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

языком, с которого он переводит. Ибо сказанное на чужом языке надо понять и почувствовать, а на своем – еще и выразить, творчески воплотить, что подчас несравнимо труднее» [3, с. 227]. С другой стороны, без фоновых знаний другой культуры (историко-культурного, социокультурного, этнокультурного, семиотического фона) только лишь владения иностранным языком будет недостаточно.

Перефразируя Н. К. Гарбовского, можно отметить, что переводчик должен быть мастером слова, всесторонне образованным интеллектуалом, лингвистом и этнографом, философом и психологом, историком, писателем и оратором; при этом скромным тружеником и вдумчивым чутким иноязычным соавтором [4, с. 18]. Последнее качество особенно важно для переводчиков, занимающихся переводом художественных произведений, ибо когда знаменитый грузинский поэт Симон Чиковани увидел свое стихотворение в переводе на русский язык, он обратился к переводчикам с просьбой: «Прошу, чтобы меня не переводили совсем». Поэтому согласимся, вслед за Н. Л. Трауберг, что «главное в переводе – сделать так, чтобы воздействие твоего текста было равно воздействию оригинала» [5].

Итак, как уже было отмечено выше, в процессе перевода происходит познание культуры, менталитета, национального характера и образа жизни другого народа через его язык. Далее проиллюстрируем этот вывод на примерах.

По мнению лингвистов, в каждом языке отражается определенная система взглядов на мир, причем все носители данного языка разделяют эти взгляды и соответствующим образом воспринимают окружающую действительность. Такая система складывается в своеобразную картину мира, которая описывает его устройство, время, пространство, место человека в этом мире и взаимодействие между собой.

Интересный пример взаимодействия людей в рамках одной культуры приводит Максим Кронгауз [6, с. 242-244]. В московском магазине покупатель вступает в коммуникацию с продавцом. Без лишних слов он называет необходимый товар, в лучшем случае

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

добавляя вежливое «пожалуйста», и оба реализуют свою функцию, минуя взаимное приветствие. Представить подобную ситуацию в европейском магазине навряд ли невозможно, но для русского этикета лет 40 назад это считалось нормой. Более того, знакомая автора, вернувшись в то время в Москву из-за границы, попыталась научить своих соотечественников вежливости: начала здороваться в магазинах. Однако ее старания воспринимались либо как странность, либо как издевательство над остальными – попытка не удалась. В такого рода примерах трудно не согласиться с С. Г. Тер-Минасовой, что диалог культур – это по сути политкорректное название для конфликта культур [9, с. 15].

Другая ситуация, когда несовпадение этикетных формул не привело к конфликту, однако вызвало неловкость одной из сторон коммуникации, произошла в белорусской организации несколько лет назад. На предприятии были организованы корпоративные занятия с носителем английского языка. Желая отблагодарить редкого преподавателя за старания, работники устроили чаепитие и пригласили англичанина к столу. «*Eat it, please…*» – вежливо произнес один из обучаемых и очень смутился, когда молодой человек из Англии неожиданно рассмеялся. «У нас так только собак подзывают», – объяснил он, и предложил в следующий раз обратиться со словами *Help yourself*.

Конечно, за последние годы произошел значительный сдвиг речевого этикета нашей культуры в сторону европейского, и эти изменения распространяются не только на корпоративный этикет, но и на обычные встречи незнакомые людей (у подъезда, в лифте и т.п.). Но и сейчас на собственном опыте мы можем наблюдать, что открытость (отсюда и вежливость) жителей белорусской столицы намного превосходит желание вступить в минимальную коммуникацию (даже с формальной вежливостью) жителей глубинки.

Проследим на примере приветствий, как складывалась языковая картина мира в разных культурах. Согласно исследованиям И. И. Богатыревой [7], в славянской картине мира самым важным считалось здоровье (*Было бы здоровье, остальное приложится*), в сознании англичан одно из центральных мест занимала работа, а у

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

евреев и арабов самым главным представлялся мир. Иллюстрируют это следующие примеры. В некоторых славянских языках приветствие связано с пожеланием здоровья: *Здравствуйте*! (рус.); *Здорові були*! (укр.); *Здравейте*! (болг.); *Здраво*! (макед., серб.). В английском языке приветствие *How do you do?* буквально означает *Как ты делаешь?* В итальянском выражение *Come sta?* дословно переводится *Как стоишь?* У французов за словами приветствия *Comment ça va?* скрыто значение *Как это идёт?* Евреи приветствуют друг друга словом *Shalom* – буквально это означает пожелание мира. Аналогично желают всем мира и представители многих мусульманских народов, говоря друг другу *Salaam alei-kun!* (арабск.) или *Salaam aleihum* (азерб.) и др. А древние греки в приветствии *Haire* желали друг другу радости.

Кстати, говоря о чувствах, хочется затронуть еще одну характеристику – эмоциональные концепты, которые в разных картинах мира воспринимаются неодинаково. Возьмем простое предложение на английском: *I'm happy you came home early today*. На итальянском можно услышать такой перевод: *Sono felice che tu sia tornato a casa presto oggi*, на французском – *Je suis heureux que tu sois rentré tôt aujourd'hui*, на испанском – *Estoy feliz de que hayas llegado a casa temprano hoy*. Однако на русском, если контекст не предоставляет нам повода ощутить невероятные переживания, эта фраза будет звучать следующим образом: *Я рад, что сегодня ты рано пришел домой*.

А. Вежбицкая проводила сравнение прилагательного *happy*, одного из самых употребительных слов американского стандарта, с польским буквальным переводом *szczęśliwy*, и обобщая вывод для других славянских языков, предположила, что эти слова не являются точными эквивалентами. То есть расхождения между русскими словами *счастлив, счастье* и, например, английскими *happy, happiness* столь велики, что их эквивалентность вообще вызывает сомнение. По мнению сторонников теории «базовых эмоций», слова *happy, happiness* являются «повседневными словами» в английском языке, чего о русских словах *счастлив, счастье* ни в коей мере не скажешь. Из этого можно сделать вывод, что в языках и культурах

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

настолько прочно укоренилась семантическая несовместимость, что иногда делает общение невозможным [8, с. 340].

К препятствиям в общении можно также отнести такую проблему, как нераспознанные «ложные друзья» переводчика – слова, которые могут как частично совпадать по семантике (англ. *film* – это не только *фильм*, но и *пленка*), так и иметь совершенно противоположное значение слова (польск. *uroda* – *красота*, а созвучное ему русское *уродливый* означает *очень некрасивый*). Согласно Л. И. Сапоговой, около 30% интернационализмов (включая 8% буквального перевода, искажающего смысл, и 22% перевода с подбором русских параллелей, нарушающих стилистические требования) формируют корпус ложных друзей переводчика [10, с. 48]. Поскольку ассоциативная связь при переводе интернациональных слов возникает сразу, переводчику надо быть начеку, чтобы не среагировать на ассоциацию и не исказить смысл речи представителя другой культуры.

Нельзя не отметить и социальную функцию перевода, которая также требует от переводчика знакомства с иной культурой. Для наглядности приведем пример [12, с. 24], раскрывающий проблему адаптации американского сериала «Закон и порядок» (1990 г.) для русского зрителя. В одной из серий главные герои неожиданно узнают, что ребенок был усыновлен с нарушениями. Несмотря на срок давности нарушения (ребенку уже 12 лет, и он даже не подозревает о своем происхождении), следователи забирают его в детский дом, говоря: «Закон есть закон». Отношение к такому поступку американского и русского зрителя кардинально отличается, и положительными героями в нашей культуре такие следователи не стали бы.

Еще несколько примеров [13, с. 144] перевода кинотекста в свете концепции культурного переноса можно привести на основе фрагментов фильма «Мой лучший друг» (2007 г.).

Французская пословица, прозвучавшая в речи собеседника «*La bonne humeur c'est le début du bonheur*» (досл. *Хорошее настроение – начало успеха*), передана на русский язык хорошо известной цитатой из «Бременских музыкантов»: «*Смех и радость мы приносим людям*».

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

В русской культуре данный сюжет содержит культурнозначимую информацию, и поэтому такой перевод в контексте диалога между друзьями вполне может быть оправдан.

Другой пример из этого же источника. Один из героев рассказывает: «*Et il suivait les jeux à la radio et à la télé. Y'en a, leurs idoles, c'est les chanteurs, lui, c'était Max Favalelli, Maitre Capello*». Маловероятно, чтобы имена французских чемпионов интеллектуальных игр были известны обычному русскому зрителю. Поэтому при переводе был использован прием генерализации, обобщающий имена собственные в одну группу *знатоки*: «*Он следил за всеми теле- и радиовикторинами. Обычно (дети) без ума от певцов. А его кумирами были знаменитые знатоки*».

И еще один пример, в котором переводчик заменяет в диалоге героев название недорогого мебельного магазина "*M. Meuble*" на популярную среди русского населения марку *"Икея"*. Замена проведена с целью разъяснения ситуации общения русскому зрителю. В разговоре один из героев извиняется за причиненный ущерб товару этой марки, но его собеседник реагирует на французском фразой «*Elle ne vaut pas un pet de lapin*» (что означает: *это ничего не стоит, это барахло*). И снова в переводе вводится культурно-значимый элемент через русскоязычный аналог *гроша ломаного не стоит*.

Совершенно очевидно, что каждый язык обладает национально специфическими признаками, которые определяют систему ценностей, нормы поведения, отношение к людям, в частности, и к миру в целом. По мнению Макса Блэка, фактором, определяющим универсальность и специфику конкретной национальной языковой картины мира, является мир, запечатленный в метафорах и символах: «скрытое сравнение, заложенное в метафоре, подмечает специфические черты национального быта, духа, условий жизни, трудовых навыков того или иного народа» [11, с. 157]. Мы также отнесли бы к числу таких факторов фразеологизмы, пословицы и поговорки, поскольку они не в меньше степени наглядно иллюстрируют образ жизни, историю и традиции культуры, отражают национальный характер и менталитет нации.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Небольшое лингвистическое исследование было проведено в группе китайских студентов. Проанализировав десятки фразеологических единиц в русском и китайском языках, мы обратили внимание на то, что в ряде случаев фразеологизмы совпадали по смыслу и имели буквальный перевод: *водить за нос* (牵着鼻子走) – про человека обманывающего, не выполняющего обещания, с одной стороны, и про того, кто слепо ему доверяет, с другой стороны; *ящик Пандоры* (潘多拉ш魔盒) – то, что по неосторожности может послужить источником бедствий. В отдельную группу вошли фразеологизмы, у которых одно и то же значение выражалось разными лексическими единицами: *делать из мухи слона* (小题大做 – описывать небольшие темы большими статьями), *зарубить себе на носу* (刻骨铭心 – выгравировать на костях и глубоко в сердце), *волосы дыбом* (毛骨悚然 – озноб по спине*), игра не стоит свеч* (明珠弹雀 – бить воробьев жемчугом), *метать бисер перед свиньями* (对牛弹琴 – играть музыку перед коровой).

Аналогичные сравнения можно привести и в европейских языках. Например, в итальянском языке поговорка *Prendere due piccioni con una fava* (Убить двух голубей одним бобом), в английском *To kill two birds with one stone* (Убить двух птиц одним камнем) или во французском *Abattre deux mouches d'un coup de savate* (Убить двух мух одним взмахом) – все эти выражения имеют один и тот же смысл и переводятся одинаково: *Убить двух зайцев одним выстрелом*. Любопытно, что в некоторых случаях можно проследить даже особенности природного ландшафта, характерный для культуры растительный или животный мир. К примеру, русскому изречению *Когда рак на горе свистнет* соответствует английское *Когда свиньи полетят*, а в киргизском языке аналогом будет – *Когда хвост ишака коснется земли*.

Помимо различий социокультурной среды и национально-специфических признаков языка в культуре, необходимо также

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

отметить своеобразие восприятия некоторых универсалий. Например, концепты различных цветов, которые в физике имеют строго определенную длину волны, не совсем эквивалентны в разных языках. По мнению А. Вежбицкой, при изучении языков мира нельзя оперировать понятием «цветовых универсалий», так как категория «цвет» сама по себе не универсальна. Можно говорить лишь об «универсалиях зрительного восприятия» [14, с. 232]. Универсальным или близким к этому является представление о времени, когда человек видит (днем) и не видит (ночью), иными словами, что человек видит при солнечном свете или в темноте.

Действительно, семицветный спектр радуги, определенный Исааком Ньютоном, в английском и русском языке распределяется по-разному. Знакомое русскоязычному носителю выражение «Каждый Охотник Желает Знать, Где Сидят Фазаны» позволяет запомнить базовые оттенки спектра в таком виде: К – красный, О – оранжевый, Ж – желтый, З – зеленый, Г – голубой, С – синий, Ф – фиолетовый. В англоязычной культуре цвета различаются в аналогичной фразе «Richard Of York Gave Battle In Vain» («Ричард Йоркский сражался напрасно») несколько иным образом: Red – красный, Orange – оранжевый, Yellow – желтый, Green – зеленый, Blue - голубой, Indigo – индиго, Violet – фиолетовый. В этом примере цвет blue условно назван голубым, хотя, как известно, на русский язык оно может переводиться и синим, в зависимости от ситуации. Подобные примеры можно привести и с другими языками: в венгерском языке различают разные оттенки красного voros и piros, в польском существуют оттенки синего niebieski и granatowy, отличающиеся от русских, японское слово aoi имеет гораздо больший диапазон, чем английское blue [14, с. 236].

Пожалуй, нельзя назвать универсальным и представление о времени. Если в русском языке время можно тратить, беречь и экономить, то у некоторых народов ко времени относятся иначе. В. А. Плунгян отмечает, что время у них не течет, а двигается по кругу, подобно смене разных пор года, а если даже и течет, то вовсе не спереди назад, а сзади наперед, так что будущее в таких языках находится «сзади нас» [15, с. 197]. Мы говорим *Все будет хорошо, у*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*тебя все впереди*, или *Не переживай, все испытания уже позади*, а в китайском понимании, например, эта фраза не будет иметь смысла.

В заключение можно отметить, что в рамках одной культуры все носители языка разделяют определенную систему взглядов на мир и одинаково воспринимают окружающую действительность. Процесс перевода, подчеркивает Н. С. Автономова, включает «преодоление языковых, культурных, социальных границ путем «передачи содержаний и смыслов, созданных в одном языке и культуре, средствами другого языка и культуры» [16, с. 15]. Чтобы состоялась успешная коммуникация, переводчику недостаточно умелого владения родным и иностранным языком. Знание этикета, правил поведения, ценностей, быта и праздников, менталитета и национального характера имеет не меньшую важность для перевода в контексте межкультурного диалога.

Преодолевая интерференцию различных языков и культур, переводчик содействует установлению успешного диалога между людьми разных взглядов на мир, перекидывает мостик взаимопонимания между народами и государствами.

**Список использованной литературы**

1. Carol E. Fixman. The Foreign Language Needs of US-based Corporations. Occasional Papers (NFLC at Johns Hopkins University, Washington, 1989).
2. Миронов В. В. Философия и метаморфозы культуры. – М.: Современные тетради, 2005. – 424 с.
3. Галь Н. Слово живое и мертвое. – М.: Время, 2016. – 592 с.
4. Гарбовский Н. К. Теория перевода: Учебник. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2007. – 544 с.
5. Трауберг Н. Л. Времена и нравы / Неприкосновенный запас. – М.: НЛО, №4, 1999. – 161 с.
6. Кронгауз М. А. Русский язык на грани нервного срыва – М.: АСТ: CORPUS, 2019. – 512 с.
7. Богатырева И. И. Языковая картина мира / Русская словесность. – М.: Шк. пресса, №2, 2010. – С. 71-74.
8. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.
9. Тер-Минасова С. Г. Война и мир языков и культур. – М.: Слово, 2008. – 344 с.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

10. Сапогова Л. И. Переводческое преобразование текста: учеб. пособие – М.: Флинта: Наука, 2009. – 320 с.
11. Блэк М. Метафора // Теория метафоры. – М., 1990. – С. 153-172.
12. Рыбин П. В. Теория перевода. Курс лекций для студентов IV курса. – М.: 2007. – 263 с.
13. Федорова И. К. Перевод кинотекста в свете концепции культурного переноса: проблема переводческой адаптации. – Челябинск: Вестник ЧелГУ, №43, 2009. – С. 142-149.
14. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М.: Языки русской культуры, 1999. – I-XII, – 780 с.
15. Плунгян В. А. Почему языки такие разные. – М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2015. – 272 с.
16. Автономова Н. С. Познание и перевод. Опыты философии языка. – М.: Российская политическая энциклопедия, 2008. – 704 с.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# LIMITATIONS IN TRANSLATING OF KOREAN WORDS ‘정[jeong]’ and ‘한[han]’ INTO UZBEK LANGUAGE

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-256-263

**Jo Min Young**,
Independent researcher
Tashkent State University of Oriental Studies,
Tashkent, Uzbekistan.
Tel: +99890 321-02-53;
lovelyjo0112hh@gmail.com

**Annotatsiya.** *Tarjima muammolari o‘zbek va koreys tillari o‘rtasida ham ko‘p paydo bo‘ladi. Buning sababi shundaki, bu ikki mamlakatlarning rili va madaniyatida farqlar aniq mavjud. Shuning uchun ikki davlat tillarini tarjima qiluvchi tarjimonlar har bir tilga xos ijtimoiy-madaniy farqlarni hisobga olgan holda tarjima qilishlari kerak. Tarjimonning eng muhim vazifasi, o‘zining ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni chuqur o‘rganishdir. Bu maqolada koreys tilidagi “정-Jeong” va “한-Xan” so‘zlaridan tashkil topgan koreyscha o‘ziga xos iboralarning ma’nosi va bu iboralar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda qanday cheklovlar borligi ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit So‘zlar**: *tarjima, muammolar, chegaralanish, madaniyat, tarjimon, adabiy asarlar, ijtimoiy-madaniy farqlar.*

**Аннотация:** *Проблемы перевода часто могут возникать между двумя разными языковыми группами, узбекской и корейской. Это потому, что эти две группы имеют разные языки и культуры. В данной статье будет разъяснено значение корейских выражений, состоящих из слов «정[чжон]» и «한[хан]» и ограничения их перевода на узбекский язык.*

**Ключевые слова:** *перевод, проблемы, ограниченность, культура, переводчик, художественные произведения, социокультурные различия.*

**Abstract:** *Translation problems can often arise between two different language groups, Uzbek and Korean. This is because these two groups have different languages and cultures. Therefore, translators who translate the two languages must take into account the sociocultural differences inherent in each of these languages. In this paper, I would like to examine the meaning of Korean expressions made up of the words ‘정[jeong]’ and ‘한[han]’ and the limitations of translating them into Uzbek language.*

**Key words:** *translation, problems, limitation, culture, translator, literary works, sociocultural differences.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

1.정이 들다[jeong-i dilda]

One of the longest-explained expressions for many foreigners learning Korean is the word '정[jeong]'. A letter consists of one syllable, but since this word is unique, long-term practice and continuous contact with Koreans are required for foreign learners learning the Korean language to accurately recognize and use the word '정[jeong]' fluently. Koreans use the word '정[jeong] to express the formation of friendly and intimate relationships. Getting closer and closer in the word '정[jeong]' comes as a result of being affectionate. In other words, the more affection accumulates, the closer we become, and the process of deepening the bond is expressed in the words '정이 쌓이다[jeong-i saida]'.

There is a Korean belief that '정[jeong]' deepens and gets better in proportion to the continuation of a friendly relationship and frequent meeting and getting used to each other. At this time, the relationship between the two people is expressed as '정이 든 관계[ jung-i din guange]' and 'a relationship with affection'. Here, the word '든다[dinda]' means '정이 생겼다[jung-i sengyotta]'. And the people who have formed a relationship with that kind of '정[jung]' are often called '친구[chingu]-do'st', '연인[yonin]-juft', and '부부[bubu]-er-hotin' or broadly call it '우리[uri]-biz'.

Currently, '정[jeong]' used in Korea is classified into two types.[84]

The first is '관계로서의 정-relational affection'. This is a bond that arises 'about someone' or 'about something'. The second is '정[jeong]' as 'character, personality'.

Some examples sentence of '정[jeong]' used as the first meaning(relation affection) are as follows.

동생은 정든 친구들과 헤어지기가 싫은 지 전학 가기 싫다고 떼를 썼다. (고려대 한국어대사전).[donseng-in jeongdin chingudilgua heojigiga sirinji jonhak gagi siltago teril sotta].

*Ukam **aziz do'stlari** bilan xayrlashishni hoxlamagani uchun boshqa maktabga ko'chish haqida shikoyat qildi.*

[84] 최상진,김기범. 문화 심리학. 지식 산업사. 2016. -116-130p.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

In this example, '정든 친구[jeongdin chingu]-affectionate friend' is simply translated as 'aziz do'stlar', but the word '정[jeong]' has a special meaning beyond 'aziz' to be simply expressed as 'aziz do'st'. In this sentence, to explain '정든 친구-affectionate friend/aziz do'stlar' in more detail, it indicates that they have been together for a 'long time', so they have adapted to each other and have 'many memories' in the time they spent together.

오래 정들어 살던 부부간의 이별이야 오죽하였으랴.(이문열, 황제를 위하여).

[ore jeongdiro saldon bubugane ibyoriya ojukayosirya].

***Uzoq vaqt davomida bir-biriga yaqin bo'lib yashagan*** *er-xotinning ajralishi qanchalik achinarli edi?*

In this example, '정들어 살던 부부-a couple who lived in love for a long time' was translated as 'Uzoq vaqt davomida bir-biriga yaqin bo'lib yashagan er-xotin'.

Since '정[jeong]' is a word that cannot be defined with just one word, a situation arises in which the length of the sentence itself is inevitably shortened when translated into Uzbek.

며칠 같이 지내는 동안 그 아이와 많이 **정들었다.** [표준국어대사전].

[myochil gachi jinenin dong-an gi aiwa mani jeondirotta].

*U bilan o'tkazgan bir necha kun davomida men unga* ***qattiq bog'lanib*** *qoldim.*

In this example, the expression '정들다[jeongdilda]' is translated as 'qattiq bog'lanib qolmoq'. This also clearly proves that there is a limit to the word '정[jeong]' being expressed in one word, so when translated into Uzbek, it can only be explained by unraveling.

As confirmed through the examples above, '정들다[jeongdilda]'to be translated as 'o'rganib qolgani uchun yaqin munosabatda bo'lmoq' or 'uzoq vaqt davomida birga yashagani uchun o'z o'zlariga mehrbon bo'lmoq', 'sevib qolmoq' in Uzbek.

Through this, it can be seen that '정[jeong]' is difficult to express in the form of a single word or short verb. In addition, it can be seen that in

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

the Uzbek translation, different words are expressed according to the context of the conversation.

Examples of '정[jeong]' used as the second meaning are as follows. Usually, when expressing 'personality, character, and behavior', it is expressed in the form of '(다)정스럽다[(da)jeongsiropta]'.

새엄마는 나를 친딸처럼 **다정스럽게** 대해 주셨다. [고려대 한국어대사전]

[seommanin naril chintalchorom dajeongsiropke dehe jusyotta].

*O'gay onam menga haqiqiy qizdek mehrbon munosabatda bo'ldi.*

In this example, the expression '다정스럽다[dajeonsiropta]' is used to indicate that the stepmother treats her daughter, who is not her own, lovingly and warmly.

This expression has been translated into Uzbek as 'mehrbon munosabatda bo'lmoq'.

다감하고 **정이 많은** 사람. [표준국어대사전].

[dagamhago jeong-i manin saram]

*Nozik va ko'p mehrga ega bo'lgan odam.*

In this example, '다정한 사람[dajeonghan saram]' is translated as 'nozik va mehr ko'p'.

Through the above examples, it can be confirmed that the Korean adjective '정[jeong]' is difficult to describe in a single word or short expression when translated into Uzbek. This is because the words '정[jeong]', '정들다[jeongdilda]' and '다정하다[dajeonghada]' are expressions unique to the Korean language.

2. Korean national sentiment '한[han]'

In Korean, han (恨) is not a momentary emotion, but an old emotion such as anger, regret, pity, or all of them mixed together. Sadness after a breakup cannot be '한[han]', but when you look back 20 years later, breaking up with the person of that fate can be '한[han]'.

It is also sometimes replaced by the expression '응어리[ing-ori]-core'.

Han is the most Korean emotion of sadness.[85]

[85] 한국민족문화대백과사전-한(恨). 한국학 중앙 연구원. 2005.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Even in the West, the same concept as a basic characteristic of emotion cannot be seen. There are words such as 'regret', 'resentment', and 'rancour' in English that are close to '한[han]', but they are far from '한[han]' in terms of meaning. 'resentment' is rather closer to resentment than '한[han]', and 'resentful' is also closer to resentment than '한[han]'.

But why do Koreans have so many '한[han]'? What is the cause of the Korean '한[han]'? First, it can be said that it is because of the history of anxiety and withdrawal. Korea's history is made up of civil wars and foreign invasions.[86] Such endless civil wars and foreign invasions made Korean people never have a day to feel comfortable, and gave birth to regressive psychological phenomena. As a result, Koreans became more depressed than people in any other country. Second, it can be attributed to the class consciousness created by Confucianism-centered ideology. Under the Confucian order, the lower class or slaves were not allowed any freedom as human beings. They have always kept a deep-rooted resentment and resentment.[87] Third, it may be because of the tyranny of men against women that originated from the idea of '남존여비[namjonyobi]-male superiority over women' and the female resentment that arises from being forced to respect the virtues of their race. Fourth, it can be said that it is because of the sadistic nobility of nobles and the resentment of the masochistic people. The gap between the rich and the poor deepened due to the exploitation of the people by the government officials and the gentry, and the poor naturally regarded the aristocrats as objects of resentment. In addition, when Taejo Wang Geon of Goryeo established a new dynasty, the people of Baekje, who were most resistant to him, were later discriminated against by the people of Goryeo. It was a big reason that why Koreans have '한[han]'. In addition, many resentments and limits between individuals arose from stepmothers and stepchildren, stepbrothers, and conflicts of interest with neighbors. The Korean people tried to solve this '한[han]' through folk beliefs, through folk songs and pansori, through religion, and through volitional actions. The Korean people tried to solve this '한[han]' through folk beliefs,

[86] 이지은. 남북한 역사 교과서 서술 비교 연구: 근대사 서술을 중심으로. 서강대학교. 2006. -43p.
[87] 조법종. 한국고대노비의 발생 및 존재양태에 대한 고찰. 백제문화 학술지 22. 우석대학교. 1992. -36p.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

through folk songs and pansori, through religion, and through volitional actions. In other words, Koreans have found a new way to prevent '한[han]' from falling into the powerlessness that ends in resignation, from falling into the depression of anxiety caused by suppression, and also to prevent '한[han]' from being expressed in violence.

Through the following examples, it can be more accurately understanded how '한[han]' is used in Korean culture.

아버지는 살림살이가 빈천하여 많이 배우지 못한 것이 한이다. [고려대 한국어대사전]. [abojinin salimsriga binchonhayo mani beuji motan gosi hanida].

*Otam turmush sharoiti yomon bo'lgani uchun ko'p narsani o'rganmaganidan afsuslanadi.*

*Kambag'al hayot tufayli ko'p narsani o'rgana olmagani otasining qalbida katta qayg'u bo'lib qoladi.*

In order to more accurately express the word '한[han]' in the Korean example above, it has been translated twice into Uzbek. This is because there is no Uzbek word that 100% fits the Korean word for '한[han]'. As you can see from the translation, '한[han]' is expressed as 'afsus' or 'qayg'u' in Uzbek.

남편은 불구가 된 오른손 때문에 한이 맺혀 있었다. [윤흥길, 완장]

[nampyonin bulguga duen orinson temune hani metyo itssotta].

*O'zining o'ng qo'li cho'loq bo'lgani uchun er qayg'urdi.*

*O'ng qo'li cho'loq bo'lib qolganidan erning yuragi ezilib ketdi.*

Even in this example, '한[han]' could not be adequately explained in one word, so two translations were carried out. In this example, '한[han]' is translated as 'qayg'urmoq' and 'yurak ezilib ketmoq' in Uzbek.

설움이 첩첩이 쌓여 가슴에 한이 되어 맺혔다. [고려대 한국어대사전].

[sorumi chopchobi sayo gasima hani doeo mechyotta].

*Qayg'u qatlam-qatlam yig'ilib, yuragimda achchiq tuyg'u hosil qildi.*

*G'am to'planib, qalbimda unutilmas g'am bo'lib qoldi.*

In the above example, '한[han]' was translated as 'unutilmas g'am' and 'achchiq tuyg'u'. As can be seen through the translated Uzbek

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

example sentence, Korean '한[han]' is a sad and painful feeling that has remained in the heart for a long time, and it can be confirmed that it cannot be simply expressed as 'sad' or 'regret'.

3. Conclusion

Culture cannot develop without language, and there is no language in the world that does not reflect culture. In other words, culture and language are inextricably linked as two sides of a coin. Therefore, even if a language composed of letters is translated, if the culture and national consciousness system embedded in the language are translated only as a dictionary definition without being separately confirmed, the reader who reads the translated text will not be able to fully sympathize with the content. will be. In this thesis, the meaning and usage of '정[jeong]' and '한[han]' which are unique words of the Korean people, and the limitations of expression when translated into Uzbek are described.

In Korea, '정[jeong]' and '한[han]' can be seen as unique words representing the national sentiment created based on the unique psychological system and history of Koreans. Therefore, it can be confirmed through this thesis that for Uzbeks who do not have the same culture and history as Korea, these words can only be translated at length with words such as 'qattiq bog'lanib qolish', 'uzoq vaqt davomida bir-biriga yaqin bo'lib yashash', 'aziz', 'mehrbon munosabatda bo'lish', 'qayg'urish' and 'achchiq tuyg'u'.

**REFERENCES**

1. 이지은. 남북한 역사 교과서 서술 비교 연구: 근대사 서술을 중심으로. 서강대학교. 2006. -43p.
2. 조법종. 한국고대노비의 발생 및 존재양태에 대한 고찰. 백제문화 학술지. 우석대학교. 1992. -36p.
3. 최상진,김기범. 문화 심리학. 지식 산업사. 2016. -116-130p.
4. 한국민족문화대백과사전-한(恨). 한국학 중앙 연구원. 2005.
5. 고려대한국어사전
6. 표준국어대사전
7. 김수용. 한국문학의 외국어번역[과거, 현재, 미래]-유럽문화정보센터 연세대학교 출판부. 2005.
8. King Ross. Can Korean-to English Literary Translation be taught? Some

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Recommendations for Korean Funding Agencies. 2002. -p 18-30.
9. Usmanova, S. (2020). The Specialties of Uzbek Collectivism Culture. *Journal of Multiculture and Education*, *5*(1), 71-86.
10. Bakhromkhodjaevna, S. B. (2021). The concept of "Transfer" and its role in translation studies. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(3), 302-305.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# БАДИИЙ АСАРДАГИ “天” СЎЗИНИНГ ТАРЖИМА МАТНИГА ТРАНСФЕР БЎЛИШИ НАТИЖАСИДА ПАЙДО БЎЛГАН АССОЦИАЦИЯ МАСАЛАСИ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-264-270

PhD **Барнохон ШАМСИЕВА**
Тошкент давлат шарқшунослик университети
barnokhon_hi@yahoo.com

**Аннотация.** *Дунё тилшунослигида тилдаги муайян миллий-маданий белгилар орқали инсонда ижтимоий, маданий, диний омиллар таъсирида шаклланган тушунчалар, тасаввур ва эътиқодлар ўртасидаги тафовутларни ўрганиш лингвомаданий аспектдаги тадқиқотларнинг марказий муаммоларидан бири саналади. Ушбу мақолада Нацумэ Сосэкининг “Қалб” асарида келган “天” сўзининг трансфер ҳамда унинг натижасида таржима ўқувчисидаги ассоциация масаласи ўрганилди.*

**Калит сўзлар:** *маданият, трансфер, ассоциация, реалия, бадиий асар таржимаси.*

**Аннотация.** *В мировой лингвистике изучение различий между понятиями, представлениями и убеждениями, сформировавшимися у человека под влиянием социальных, культурных и религиозных факторов, через специфические национально-культурные признаки в языке считается одной из центральных проблем исследований в лингвокультурологический аспект. В данной статье изучался перенос слова «天» из «Сердца» Нацумэ Сосэки и его ассоциация у читателя перевода.*

**Ключевые слова**: *культура, передача, ассоциация, действительность, перевод художественного произведения.*

**Abstract.** *In world linguistics, the study of the differences between the concepts, ideas and beliefs formed in a person under the influence of social, cultural, and religious factors through specific national-cultural signs in the language is considered one of the central problems of research in the linguistic and cultural aspect. In this article, the transfer of the word "天" from Natsume Soseki's "Heart" and its association in the reader of the translation were studied.*

**Key words**: *culture, transfer, association, reality, translation.*

Бошқа динга мансуб халқлар адабиёти таржимасида соҳа мутахассислари учун ҳамиша турли муаммо ва ўзига хос мураккабликлар туғдириб келган. Бунда таржимон меҳнати икки

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

баробар кўпаяди: бир вақтнинг ўзида таржимада аслият мазмунини тўлақонли акс эттириши ҳамда ўқувчига матнни тушунарли қилиш масаласини ҳал қилиш керак бўлади. Чунки, бошқа динга хос – истилоҳ тушунчалар таржимаси ўқувчи учун мушкуллик туғдирмаслиги баробарида, у эътиқод қилувчи диний таълимотга зид ҳам келмаслиги лозим. [5, 8]

Диний реалиялар таржимаси билан боғлиқ мақола ва диссертациялар билан танишиш натижасида, таржималарда диний атамалар, эътиқодий тушунчалар, пайғамбар ва авлиёлар номи, улар билан боғлиқ мўъжиза ва воқеаларга ишоралар таржимасида кўплаб хато-камчиликларга йўл қўйилиши маълум бўлди. Ф.Сапаеванинг “Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили” номли филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) унвонини олиш учун ёзилган диссертациясида диний-маърифий мазмундаги шеърлари таржималарида таржимонлар томонидан қуйидаги айрим камчиликларга йўл қўйилгани кузатилганлигини таъкидлайди: “мафкура таъсирида диний мазмундаги банду байтларни қисқартириб кетиш; ҳукмрон мафкура туфайли матнларни ўзгартириш; диний атама-тушунчаларни тушунмай нотўғри талқин этиш; илоҳий китоб, фаришта, пайғамбарлар, авлиёлар ва диний шахслар номини таржимада хато бериш; шеърлардаги айрим нотўғри таржима қилинган сўзларга ҳаволада ҳам хато изоҳлар бериш ва бошқалар. Бундай нуқсонларни, биринчидан, мафкуравий тазйиқлар кучайган шўро замонидаги адабий сиёсат билан, иккинчидан эса, таржимонларнинг ислом динига доир таълимотни пухта эгаллаш учун имкониятлари бўлмагани билан ҳам изоҳлаш ўринли бўлади.”[4, 19-20]

Р.Ҳ.Ширинова эса ўз диссертациясида диний реалиялар таржимасидаги хато-нуқсонларнинг келиб чиқиш сабаблари асосан 4 хил деб хулоса қилади:

1. бошқа халқларнинг диний эътиқоди ва урф одатларини етарли даражада билмаслик, мазҳабий тафовутларни фарқламаслик;
2. таржима ўқувчиси савиясини назарда тутиб, аслият матнини атайлаб соддалаштиришга уриниш;

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

3. ҳар қандай динга хос истилоҳ-тушунчаларни барча динлар учун умумий бўлган атамалар билан ифодалаш ёки бундай ўринларни таржима жараёнида қисқартириб кетиш;

4. таржима асарини ўзбек ҳаётига мослаштириш, миллийлаштириш натижаси ўлароқ бошқа динга мансуб истилоҳ-тушунчаларни ҳам исломий атамалар билан алмаштириш [5, 122].

Дарҳақиқат, диний тушунча ва реалияларни таржимада бериш таржимондан катта маҳоратни талаб қилади. Айниқса диний реалияларни тўғри ифода қилишда лисоний бирликнинг услубий вазифасини аниқлаш керак бўлади. Бироқ, аслият ва таржима тили, миллати, дини умуман бир-биридан фарқли бўладиган бўлса, адаптацияни четлаб ўтишнинг имкони йўқ. Ҳаттоки, таржиманинг адаптация услуби бундай ҳолатларда, бадиий асарнинг умумий ғоясига таъсир ўтказмаса, таржима асарида коммуникатив эффектни сақлаб қолишга ёрдам беради ҳам. Тадқиқотда, диний реалиялар таржимасидаги хато-нуқсонларнинг келиб чиқиши ёки таҳлили эмас, балки таржима қилинган тайёр матнда амалга ошган маданият трансферига қаратилди. Албатта таржимашунослик мутахассиси сифатида таржима сифатига ҳам ўз фикримизни билдириб ўтамиз.

Маълумки, асар қаҳрамонлари яшаган Японияда синтоизм ва буддавийлик таълимоти кенг тарқалган. Айниқса, синтоизм улар учун ҳам тарих, ҳам анъана, ҳам бутун ҳаёт тарзи демакдир. Буддавийлик таълимотида “ягона яратувчи олий илоҳ”нинг борлигига шубҳа ва ишончсизлик билдирилади [2, 60]. Синтоизм динида ҳам шу ақида илгари сурилиб, у аждодлар руҳига ва табиатга сиғинишга ўргатади [2, 83]. Таҳлил қилинаётган “Қалб” асарида ҳам юқоридаги фикрларга далил бўладиган бир қанча мисоллар учради.

Қуйидаги мисолда маънонинг силжиганини кузатиш мумкин:

「天罰だからさ」と伝えて高く笑った。[8,24]

[`Tenbatsudakara sa' to tsutaete takaku waratta.]

*“Худонинг жазоси! – жавоб берди устозим ва қаҳ-қаҳ уриб кулиб юборди.”* [3, 15]

Япон тилига даоцизм, конфуцийлик ва буддизм ғоялари асосида кириб келган хитой тилидаги 「天」 тушунчаси "осмон устидаги олам", "қўриқчи худо" ва шу каби бошқа маъноларни ўзига ичига

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

олган [9, 975]. Ушбу ғоялар (даоцизм, конфуцийлик, буддизм) ва Японияда ги қадимги 日神 – “қуёш худоси” эътиқоди натижасида кўпхудолик мавжуд бўлиб [9, 976], япон тилида「天」[ten] деганда “осмон”, “осмон устидаги олам” ва у билан боғлиқ худолар назарда тутилади. Япон тили матнидаги 天罰だからさ [tenbatsu dakara sa] жумласи “самодан юбориладиган жазо” сифатида тушунилиб, 天罰 [tenbatsu] сўзи илоҳий кучнинг жазосини назарда тутади. Ва яна буддизмда “бошқа динлардан фарқли равишда ҳеч бир ўзгармас нарса йўқ, ҳатто худо ҳам ўзгарувчан, деб уқтирилади [6, 233]. Ўзбек миллатида илоҳий куч фақатгина Яратган билан боғлиқ деган маънода, таржима матнида “худонинг жазоси” деб берилган. Яъни икки тилдаги “худо” тушунчасининг турличалиги юзасидан китобхоннинг асарни ўқиш жараёнида жазонинг ким ёки нима томонидан берилиши ҳақидаги ассоциацияси турличадир. Бу таржимада маънонинг тасаввур томонга силжигани натижасида конкретизация амалга ошганини кўрсатади.

Маданият трансфери китоб ўқиш жараёнида ҳам содир бўлади деган ғояга мана шу юқоридаги намунани ҳам мисол қилиб келтириш мумкин. Яъни, китобхон ўзининг дунё ҳақидаги тасаввури орқали асарни англайди, тушунади. Н.К.Гарбовскийнинг баён қилишича, инсонларга она сути билан кирган тил ва шу тилга сингган маданият ҳукмронлик қилади. Ва мана шу ҳукмрон тил ва маданият призмаси орқали бошқа тилдаги маънолар тушунилади, ўзга маданият фактлари идрок қилинади [1, 11]. Аслида бу мавзу ҳам алоҳида маданият трансферининг тадқиқ қилинишга муҳтож доираси ҳисобланади. Бироқ, мақола мавзусидан четга чиқмаган ҳолда ушбу мавзуни кейинги ишларда тадқиқ қилинади.

かえってそれを今まで通り積み重ねて行かせようとしたのです。　それが道に達しようか、天に届こうか、私は構いません。[8, 41]

[Kaette sore o imamadedōri tsumikasanete ikaseyou to shita nodesu. Sore ga michi ni tasshi-yō ga, ten ni todokouga, watashi wa kamaimasen.]

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*“Аксинча уни ўзи тўғри деб билган йўлга қайтаришга ҳаракат қилдим. Бунда у Олий мақсадга эришадими ёки самога етиб борадими – менга бунинг аҳамияти йўқ эди”* [3, 109]

Аслиятдаги 今まで通り積み重ねて[imamade dōri tsumikasanete] жумласи ўзбек тилига сўзма-сўз “уни аввалгидек тўплаб” деб таржима қилиниб, таржима матнида “уни ўзи тўғри деб билган йўлга” деб берилган. Бу ерда “йўл”нинг ўзбек тилидаги кўчма маъноси муқобил сифатида ишлатилган. Мисолнинг кейинги жумласида буддизмга оид 道[michi] (йўл) сўзи келиб, ўзбек тилига аввалгидек “Олий мақсад” сифатида таржима қилинган ва шу орқали сўзнинг диний ахборотини сақлашга ҳаракат қилган.

Таҳлилга тортилган юқоридаги мисолнинг иккинчи қисмида 天に届こうか [tenni todokouka] бирикмаси ўзбек тилига “самога етиб борадими” деб таржима қилинган. 「天」[ten] сўзи аввалги таҳлил қилинган мисолда контекстдан келиб чиққан ҳолда “худо” деб таржима қилинган ва ушбу мисолда “само” деб берилган. Чунки, 「天」[ten] сўзи япон тилида, хусусан буддизмда кенг маънода ишлатилиб, ўзбек тилида аниқ эквиваленти мавжуд эмас. 「天」[ten] сўзи асосан буддизм таълимотига оид Рокудога оид биринчи даражали олам ҳисобланади. Япон тили катта изоҳли луғатида, 1) Ер устини қуршаган мовий фазо. Кенг, қат-қат баланд осмон. Само. 2) Еру-осмон ҳукмдори. Яратувчи. 3) Табиий белгиланган тақдир. Туғилиш ва қайтиш. 4) Буддизмга оид. а) Ўлимдан кейинги энг яхши натижаларга эришганлар яшайдиган олам, Рокудо оламларидан бири. Шунингдек, жаннат, осмон устидаги дунё. б) Қуёш худоси, ой худоси каби оламни ҳимоя қилувчи осмон худоси маъноларини ўзида жамлайди. Таҳлил қилинаётган жумладаги 「天に届こうか」[tenni todokouka] бирикмаси буддизм динига эътиқод қилувчи дўстига нисбатан айтилган бўлиб, изоҳли луғатдаги буддизмга оид қисмидаги а) бандига маъносига тўғри келади. Ушбу бирикма таржима матнида “*самога етиб борадими”* деб таржима қилинган. Ўзбек тили изоҳли луғатида “само” сўзи бир маънода “осмон, фалак” [7, 435] деб изоҳланган. Араб тилидан ўзлашган “само” сўзи ўзбек тилида илоҳий маънони англатмаса-да, матн контекстидан келиб чиққан ҳолда унинг

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

нимага ишора қилаётганини тушуниш мумкин. Бироқ, япон тилида, хусусан буддизмда чуқур маънога эга 「天」[ten] сўзи кенг маъноли коннотацияга эга бўлса-да, таржима матнида ўз диний ахборотини йўқотиб оддий сўзга трансфер бўлиши натижасида ассоциация доираси торайганини кузатамиз.

Бир сўзни контекстдан келиб чиқиб икки хил таржима қилингани таржима китобхонида бошқа-бошқа тасаввурларни уйғотади. Таржимада диний сўзларнинг маъноси торайиб оддий сўзларга трансфер бўлиши сўзларни сўзма-сўз таржима қилинганида, диний реалияларнинг маъноси изоҳини баён қилинганда, адаптациянинг тушириб қолдириш усулидан фойдаланиб таржима амалга оширилганда кузатилди. Бунда сўзларнинг диний коннотацияси камайиб, жумлада оддий фалсафий маъноларни ифода қилиши кузатилди.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Гарбовский Н.К. Теория перевода, – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2007. – С. 11.
2. Диншунослик. – Тошкент: Меҳнат, 2004. – Б. 60.
3. Нацумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 7(194), 2013. – Б. 94-122.
4. Сапаева Ф.Д. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили. автореф.дис. ...фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD): 10.00.06 / Сапаева Феруза Давлатовна. – Тошкент, 2018. – Б. 19-20.
5. Ширинова Р.Ҳ. Диний реалияларни бадиий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари (Француз адабиётининг ўзбек тилидаги таржималари мисолида). дис. ... фил.фан.номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2002. – Б. 122.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 233.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 435.
8. 夏目漱石.「こころ」. Printed in Japan, Shinchousha,1952. – P. 260.
9. 日本大百科全書(ニッポニカ) Shogakukan, 1994. – P. 975.
10. Shamsieva, B. (2022). THE TERM OF TRANSFER IN THE FIELD TRANSLATION STUDIES. In РАЗВИТИЕ НАУКИ, ТЕХНОЛОГИЙ, ОБРАЗОВАНИЯ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 99-102).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

11. Fatxutdinova, I. A. (2021). TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING MULOQOT MAQSADINI IFODALASH VOSITALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.
12. qizi Umarova, M. A. (2021). UZBEK KINSHIP WORDS AND THEIR TRANSLATION INTO URDU LANGUAGE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, *2*(05), 113-116.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# BEBAHO XAZINA
## (“Turkiy adabiyot durdonalari” tilimizda)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-271-277

Filol.f.d. **Abdurahim MANNONOV**
TDSHU professori, Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998 98 1252265;
mannonova@gmail.com
Filol.f.d. **Xayrulla HAMIDOV**
TDSHU dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 2022 йил 10-11 ноябрь кунлари Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган Туркий давлатлар ташкилотининг I Саммити арафасида нашр этилган, ушбу ташкилотга аъзо ва кузатувчи мамлакатлар адабиётининг сара намуналаридан иборат юз жилдли “Туркий адабиёт дурдоналари” тўплами хусусида сўз боради.*

**Kalit so‘zlar**: *Turkiy davlatlar tashkiloti, turk adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, adabiy aloqalar, badiiy tarjima.*

**Аннотация**: *В данной статье речь идет о стотомном сборнике «Шедевры тюркской литературы», который был издан в преддверии 1-го Саммита Организации тюркских государств, который прошел в Самарканде 10-11 ноября 2022 года.*

**Ключевые слова**: *ОТГ, Турецкая литература, узбекская литература, литературные связи, художественный перевод.*

**Abstract**: *The This article is about the creation of a hundred-volume collection "Masterpieces of Turkic Literature", which was published on the eve of the 1st Summit of the Organization of Turkic States, which was held in Samarkand on November 10-11, 2022.*

**Key words**: *Organization of Turkich states, Turkich literature, Uzbek literature, literary connections, literary translation.*

.

Til – inson tafakkurining shaffof ko‘zgusidir. Bunday bebaho xazinani nafaqat asrab-avaylash, balki to‘xtovsiz takomillashtirib borish davlat, undan ham ziyoda jamiyatning sharafli, ham mas’uliyatli vazifasidir. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 oktyabrda o‘zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilingan kun munosabati bilan matbuotda e’lon qilingan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigida inson uchun ona Vatan, ota-ona qanchalik aziz bo‘lsa, uning ma’naviy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik mo‘tabar ekanligi alohida ta’kidlangan. Ushbu tabrikda o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining sara namunalari xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellik kitobxonlarning ham e’tiborini qozonayotgani, xususan iste’dodli olim va ijodkorlarimiz qalamiga mansub ilmiy va badiiy asarlar nufuzli xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘layotgani, qolaversa ona tilimizda “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik muhtasham to‘plam nashrdan chiqayotganiga alohida urg‘u berilgan edi. Oradan bir necha kun o‘tib, aniqrog‘i 2022 yilning 10-11 noyabr kunlari Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan I sammiti arafasida ana shu “yuz jildlik” kitoblar turkumi nashrdan chiqdi.

Shu o‘rinda Davlatimiz rahbarining 2019 yil 15 oktyabr kuni Ozarbayjonning Boku shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining navbatdagi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan tashkil topgan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik to‘plamni har bir mamlakatning ona tilida nashr etish tashabbusini ilgari surganini eslash joiz. Ana o‘sha tashabbus asosida ilk bor O‘zbekistonda “Yuz jiltlik” tayyorlanib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida, ona tilimizda chop etildi. Jamlanmaga umumturkiy adabiyotning eng sara namunalari, o‘zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman va venger adabiyotining XI-XXI asrlarga mansub 629 nafar atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritilgan.

Majmuaning 17 jildi turk adabiyoti, 16 jildi ozarbayjon, 10 jildi qozoq, 9 jilddan qirg‘iz va turkman adabiyoti, 5 jildi qoraqalpoq va 1 jildi venger adabiyoti vakillarining turli yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridan iborat.

Ushbu bebaho xazina nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan yirik adabiy loyihaning natijasi, shu bilan birga ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan muhim e’tibor, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga bo‘lgan yuksak ehtiromi ramzidir,

Ushbu turkumni tayyorlash uchun 200dan ortiq tarjimon, 100 dan ziyod adabiyotshunos olim, adib va muharrirlar jalb etilgan bo‘lib, “O‘zbekiston” nashriyotida chop etildi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Qadim turkiy tilimizni ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy va Nosiriddin Rabg‘uziy asarlarini o‘z ichiga olgan besh jildlik “Umumturkiy adabiyot namunalari” bilan boshlangan majmuaning 6-33 jildlar “O‘zbek adabiyoti namunalari”dan iborat bo‘lib, undan Alisher Navoiydan boshlab to bugungi kunga qadar qalam tebratib kelayotgan o‘zbek adabiyoti namoyandalarining durdona asarlarini o‘z ichiga olgan. Qolgan jildlarni esa qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz va turkman tillaridan ona tilimizga o‘girib turli yillarda nashr etilgan va endi ilk bor chop etilayotgan durdona asarlar tashkil etadi.

“Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik to‘plamning yaralishida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilari, magistrant va talabalarining ham salmoqli hissalari bor. Jumladan, universitetimiz professorlaridan Boqijon To‘xliyev ushbu “yuz jildlik”ning 3-jildi (Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”), Abdurahim Mannonov 45-jildi (Turkiy adabiyot durdonalari. Yashar Kamol. 45-jild. Adabiy-badiiy nashr. − Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. − 320 b.)ga so‘z boshi yozgan, Adhambek Alimbekov 44-jildi (Umar Sayfiddin, Sabohiddin Ali. Hikoyalar) va 52-jildi (Tariq Bug‘ro. “Usmon G‘ozi”. Roman) uchun mas’ul bo‘lgan va bir necha jildga so‘zboshi yozgan. Universitet dotsentlaridan Xayrulla Hamidov 45-jild (Turkiy adabiyot durdonalari. Yashar Kamol. 45-jild. Adabiy-badiiy nashr. − Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. − 320 b.) va 51-jild (Turkiy adabiyot durdonalari. Xolida Adib Adivar. Chorasoz (qissa va hikoya). Said Foiq Abasiyoniq. Eftalikus qahvaxonasi (hikoyalar). 51-jild. Adabiy-badiiy nashr. − Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. − 344 b.) larini nashrga tayyorlagan hamda bir necha asarni ona tilimizga tarjima qilgan, Ergash Ochilov 32-jild (O‘zbek mumtoz adabiyoti antologiyasi. Saylanma) va 59-jild (Fuzuliy. “Devon”dan she’rlar (tabdil)lar uchun mas’ul, so‘zboshi muallifi), Olimjon Davlatov 6-jild (Alisher Navoiy. Saylanma g‘azallar) uchun mas’ul, o‘qituvchi Shermurod Subhonov 42-jild («Mavlono» romani, «Manas» asari, «Sharqning eng buyuk hukmdori Temur» romani) va 53-jild (Turk shoirlari she’riy to‘plamlari tarjimasi: 1.“She’rlar, Dostonlar”; 2. “She’rlar”)ga so‘zboshi yozgan.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Atoqli turk adibi Yashar Kamol asari jamlangan alohida jildga adibning “Og‘ritog‘i nolasi” romani (Tarjimon: Xayrulla Hamidov), “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi (Tarjimon: Lola Aminova), “Tunuka” qissasi (Tarjimon: Xayrulla Hamidov) va “Manzara” nomli ilmiy risola kiritilgan (Lola Aminova).

Turkiyalik mashhur adiba Xolida Adib Adivarning “Chorasoz” qissasi (Tarjimon: Xayrulla Hamidov) va “Cho‘qqiga quvilgan qashqir” hikoyasi (Tarjimon: Kamola Rasulova) hamda hikoyanavis adib Said Foiq Abasiyoniqning 50 dan ziyod hikoyalari (Tarjimonlar: Miad Hakimov, Rustam Komilov, Mirvali A’zam, Xayrulla Hamidov, Poshshajon Kenjayeva, Kamola Rasulova, Sayyoraxon Hamidova, Dilfuza Shodmonova, Malohat Yoqubjonova, Sevara Bahodirova, Shahrullo Qurbonmurodov, Shohista Yazdanova, Nargiza Sultanova, Nozimaxon Valiyeva va b.) jamlangan 51-jild yaqin kunlarda o‘zbek kitobxonlariga tuhfa qilinadi.

E’tiborli jihati shundaki, Said Foiqning 50dan ziyod hikoyalaridan 2 tasi bundan 65 yil ilgari (Miad Hakimov va Rustam Komilovlar tomonidan), 25 tasi 42 yil ilgari (Mirvali A’zam tomonidan) amalga oshirilgan bo‘lsa, 24 ta hikoya so‘ngi 3-4 yil ichida TDSHUning Tarjimashunoslik kafedrasida X.Hamidov va talabalari tomonidan tarjima qilindi.

Yurtimizda til va adabiyot masalasida olib borilayotgan davlat siyosati, xususan “Turkiy adabiyot durdonalari”ni xalqimiz orasida keng targ‘ib etish ishida universitetimiz professor-o‘qituvchilarining beg‘araz hissalari bizni benihoya quvontiradi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning tili, madaniyati va qadriyatlari asrab-avaylab hamda rivojlantirib kelinayotgan bir davrda ushbu yo‘nalishda olib borayotgan ishlarda universitetimiz mutaxassislarining ham hissalari borligidan faxr va iftixor tuyamiz.

Yana bir narsaga e’tibor qaratmog‘imiz kerak: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2022 yil 10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining I Sammitida so‘zlagan nutqida “Biz yaqinda tashkilotimizga a’zo va kuzatuvchi mamlakatlar adabiyotining sara namunalaridan iborat yuz jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plamini o‘zbek tilida nashr qildik. Ushbu

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bebaho ma'naviy xazinani barcha a'zo va kuzatuvchi davlatlar tillarida ham chop etsak, qardosh ellarimizni, avvalo yosh avlodlarni o'zaro yaqinlashtirish uchun mustahkam zamin yaratgan bo'lar edik" – deya alohida ta'kidladi. Darhaqiqat, "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiorining o'zi barcha a'zo davlatlarning aholisiga, ayniqsa, yoshlariga yangi izlanishlar, imkoniyatlar, ilmiy tadqiqotlar ko'prigini ochib beradi. Demak, universitetimizning turkshunos tarjimonlari oldiga yana bir sharafli vazifa qo'yilmoqda: bu o'zbek adabiyoti durdonalarini istiqbolda turk tiliga tarjima qilib Turkiyada Respublikasida nashr etish vazifasidir. Biz bunday sharafli vazifani bajarishga tayyor turmog'imiz kerak.

Xalqlarimiz tarixi, o'tmishi va buyuk kelajagini ma'naviy rishtalar sifatida bog'lab turadigan, turkiy dunyo xalqlari – ulug' ajdodlar qoldirgan buyuk meros vorislari, kelajak davomchilari sifatida Yangi O'zbekistonning ma'rifatli jamiyat sari jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishishiga yo'l ochib beradigan "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" mavzusidagi sammiti barchaning e'tiborida bo'ldi. "Zero, tilimiz, madaniyatimiz, hatto buyuk merosimiz ham yaqindir. Ushbu sammit ma'naviy va ma'rifiy ishlarimizning yuksalishida yangi qadam sifatida barchamizga ruhiy tetiklik, bir olam quvonch baxsh etgani bilan tarixga muhrlanadi. Zero, bu kabi muhim tadbirlar nafaqat xalqlarimizning ulug' ijodkorlari qoldirgan boy ma'naviy merosni keng targ'ib etadi, balki ularni asrab-avaylashga, chuqur o'rganishga ham da'vat etadi." – deb yozadi TDYuU professori F.Muhitdinova o'zining "Turkiy xalqlar xazinasi" nomli maqolasida [3].

Darhaqiqat, nashr etilgan mashhur "yuz jiltlik"ning milliy adabiyotimizda tutgan o'rni va tarixiy ahamiyati haqida avvalo shuni aytish kerakki, O'zbekistonimiz Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan mamlakat va u har sohada markaziy mavqeni egallashi tabiiy. Shu nuqtai nazardan "yuz jildlik"ning ilk o'laroq O'zbekistonda nashr etilgani yarashiqli bo'ldi va turkiy davlatlar o'rtasidagi mavjud adabiy aloqalarimizni yanada mustahkamladi, deb o'ylaymiz.

Ta'bir joiz bo'lsa, "yuz jildlik" "Turkiy dunyo nigohi – 2040" konsepsiyasi hamda bugungi kunda qabul qilinayotgan Turkiy davlatlar

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tashkilotining besh yillik strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ilk qadam, 170 milliondan ortiq aholi yashaydigan ulkan mintaqani o‘z ichiga olgan Tashkilot nufuzini yanada mustahkamlash, qardosh xalqlarimiz va davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yuksak pog‘onaga olib chiqish niyatimizning ilk ro‘yobidir. Zero adabiyotshunos olimlarimiz orasida “Shaxslar do‘st bo‘lmaganuncha adabiyotlar do‘st bo‘lmaydi, adabiyotlar do‘st bo‘lmaguncha davlatlar do‘st bo‘la olmaydi” degan bir hikmatli gap yuradi. Darhaqiqat, ilgari o‘zbek yozuvchilari bilan xorijlik yozuvchilar, xususan sobiq ittifoqda ijod qilgan shoir va yozuvchilar orasida do‘stlik aloqalari, mustahkam ijodiy munosabatlar bo‘lgan. Masalan, Abdulla Qahhorning Konstantin Simonov bilan, Odil Yoqubov, Abdulla Oripovlarning Chingiz Aytmatov bilan, Omon Matjonning Ye.Evtushenko bilan, shoirlarimizning Rasul Hamzatov kabi mashhur shoir va yozuvchilar bilan do‘stona, ijodiy aloqalari xalqlarimiz o‘rtasidagi adabiy aloqalarga o‘zining jiddiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Yana bir masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Nazarimizda, bugungi kunda turkiy xalqlar adabiyotlarining har biri o‘z qobig‘iga berkinib olgan holda rivojlanayotganga o‘xshaydi. Yozuvchilar, tarjimonlar orasida hamkorlik munosabatlari uncha sezilmaydi. Ba’zan yosh tarjimonlar bir asarni tarjima qilmoqchi bo‘ladilar, lekin ertaga “muallif huquqi”ni poymol qilib qo‘ymasmikanman, degan hadik ularni “niyatidan qaytaradi”. Nashr etilgan “100 jildlik” adabiyotlarimiz, ijodkorlarimiz o‘rtasida adabiy aloqalarimizni yanada mustahkamlash bilan bir qatorda yuqoridagi anglashilmovchiliklarning ham barham topishiga ko‘mak beradi, deb o‘ylaymiz.

Shu bilan birga, fursatdan foydalanib quyidagilar taklif etmoqchimiz:

– nashr etilgan “100 jildlik” adabiyot durdonalarini keng targ‘ib etish maqsadida ushbu asarlarni oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘tgan o‘quv yilidan boshlab o‘tilayotgan “O‘zbek adabiyoti” darslari o‘quv dasturlariga kiritish;

– ushbu yo‘nalishda to‘plangan tajribalar asosida yaqin kelajakda O‘zbekistonda “Turkiy xalqlar folklori” deb nomlangan yangi “100 jiltlik”ni nashrga tayyorlash ishlarini boshlab yuborish;

– kelajakda boshqa turkiy davlatlarda bunga o‘xshash “yuz jildlik” to‘plamlar nashr etiladigan bo‘lsa, o‘sha turkiy davlat tiliga o‘zbek tilidan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘giriladigan asarlarni tanlash, ularni tarjima qilish ishiga alohida e’tibor qaratish, bunga davlat boshqaruv idora vakillari, arboblaridan ko‘proq soha mutaxassislari, iqtidorli tarjimonlarni jalb etish;

– o‘zaro yaqin, qardosh tillardan badiiy va ilmiy tarjimalar ustida tadqiqotlarni kuchaytirish, ularda milliylik va badiiylikni aks ettirish usul va vositalari, ekvivalentlik va lisoniy adekvatlik, mualliflar qo‘llagan badiiy san’atlarning tarjimada berilishi barobarida bugungi kun tarjimashunosligida ko‘p duch kelinayotgan tarjimaning lingvomadaniy aspektlari, muqobilsiz leksika, badiiy tarjimaning psixolingvistik xususiyatlari va kognitiv asoslarini ham ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan dissertatsiyalarni kun tartibiga qo‘yish va b.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

[1] – Turkiy adabiyot durdonalari. Yashar Kamol. 45-jild. Adabiy-badiiy nashr (to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). − Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. − 320 b.
[2] – Turkiy adabiyot durdonalari. Xolida Adib Adivar. Chorasoz (qissa va hikoya). Said Foiq Abasiyoniq. Eftalikus qahvaxonasi (hikoyalar). 51-jild. Adabiy-badiiy nashr (to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Xayrulla Hamidov). − Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. − 344 b.
[3] – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2022-yil 16-noyabr / № 43 (4702) “Turkiy xalqlar xazinasi” nomli maqola, 4-bet.
[4] – https://uza.uz/uz/posts/turkiy-adabiyot-durdonalari-ona-tilimizda_418782
[5] – https://zarnews.uz/d71

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI TARJIMASI MUAMMOLARI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-278-285

**F.f.n., dots. Ergash OCHILOV,**
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi
Tel: +998946204764;
E-mail: e-ochilov@mail.ru.

**Annotatsiya.** *Maqola qardosh xalqlar mumtoz adabiyoti namunalari tarjimasidagi muhim muammolardan biri – arabcha-forscha so‘z va iboralar tarjimasi bilan bog‘liq xato-kamchiliklar tahliliga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *mumtoz adabiyot, tarjimon, tarjima, so‘z, ibora, tusmol ekvivalent.*

**Аннотация.** *Статья посвящена анализу одной из важных проблем перевода образцов классической литературы братских народов – анализу ошибок и недостатков которые связанных с переводом арабо-персидских слов и словосочетаний.*

**Ключевые слова:** *классическая литература, переводчик, перевод, слово, фразеологизм, приблизительный эквивалент.*

**Abstract.** *The article devoted to the analysis of one of the important issue such as common mistakes in the translation of Arabic-Persian words and phrases which were used in the cognate nations classic literature*

**Key words:** *classical literature, translator, translation, word, phrase, idiom equivalent.*

Mumtoz asarlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar ko‘p bo‘lib, ularning aksariyati hali tadqiqot mavzusiga aylanmay, ochiq qo‘riq bo‘lib yotibdi. Mazkur maqolada biz ulardan bittasi – qardosh xalqlar mumtoz adabiyoti namunalari tarjimasidagi arab va fors tillaridan kirgan so‘z va iboralar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar xususida fikr yuritmoqchimiz.

Ma’lumki, turkiy xalqlar adabiyoti asrlar davomida arab va fors tillari hamda adabiyotining kuchli ta’siri ostida rivojlangan. Binobarin, xuddi Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy asarlari kabi ularning tilida ham arabcha va forscha so‘z va iboralar ko‘p uchraydi. Aksar tarjimonlarimiz esa turk, ozar, turkman, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, qoraqalpoq tillarini bir qadar bilganlari holda, mazkur asarlarda qo‘llangan arabcha va forscha

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

so‘zlarni tushunmaydilar. Natijada aksar taxmin asosida ish ko‘radilar. Bu tarjimalarda xato talqinlarning ko‘pligi shundan. Bunday qusurlarni yaqin tillardan tarjima qiladigan deyarli barcha tarjimonlarimiz faoliyatida kuzatamiz. Jumladan, atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli, mashhur ozar so‘z san’atkorlari Nasimiy va Voqif, qoraqalpoq yozma adabiyoti asoschisi Berdaq asarlarining barcha tarjimalarida shunday xato-kamchiliklarni ko‘ramiz. Xuddi shu narsa bizni ayni muammoni ko‘tarishga undadi.

Mumtoz va zamonaviy adabiyot tarjimasining o‘ziga xos tafovutlari bor. Mumtoz so‘z san’ati namunalari tarjimasiga qo‘l uradigan tarjimon asliyat tilidan tashqari, yana arab va fors tillari, din va tasavvufdan ham muayyan darajada xabardor bo‘lishi taqozo qilinadi. Chunki mumtoz adabiyot namunalarida arabcha va forscha so‘zlar ko‘p qo‘llanibgina qolmay, ular diniy va tasavvufiy istiloh va tushunchalardan ham xoli emas.

Yaqin tillardan tarjimada arabiy va forsiy so‘zlar tarjimasida to‘rt holatni kuzatamiz: birinchisi – o‘zi tushunmagan so‘zni bilib-bilmay noto‘g‘ri talqin qilish, ikkinchisi – o‘quvchiga tushunarli-tushunarsizligidan qat’i nazar so‘zlarni hech qanday sharhu izohsiz aynan qoldirish, uchinchisi – tarjimonning o‘zi tushunmagan so‘zlarni saqlab qolib, ularga izoh berishi, to‘rtinchisi – asrlar davomida ma’no doirasini toraytirgan yo kengaytirgan, ba’zida hatto o‘zgartirgan so‘zlarni o‘zicha qoldirish orqali o‘quvchini chalg‘itishdir.

O‘tgan asr o‘rtalaridayoq Maxtumquli asarlarini birinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilgan yirik tarjimashunos Jumaniyoz Sharipov uning “Yaman ishdir bug‘z bolmak er erden”, ya’ni “Mardning mardga kek saqlashi yaxshi emas” ma’nosidagi misrasi tarjimasida kek, gina, adovat, dushmanchilik ma’nosidagi arabcha “bug‘z” so‘zini “bo‘g‘oz” deb tushunib, “Yomon ishdir bo‘g‘oz bo‘lmoq er erdan” tarzida mantiqsiz va bema’ni tarjima qilgan edi. M.Ahmad esa ipak, shohi, nafis mato ma’nosidagi arabcha “qumosh” so‘zini “qamish” deb talqin qiladi: “Duzak turar al kumashың, sim zerің” – “Aldash-chun olib chiq qamish, sim-zaring”. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda qamishning siymu zar (kumush va oltin) bilan sira ham aloqasi yo‘q. Aslida bu misra quyidagicha tarjima qilinishi kerak: “Tuzoq qurar mol-mato, siymu zaring”.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Muzaffar Ahmad turkman tilini boshqa tarjimonlarga qaraganda birmuncha yaxshi bilsa-da, fors-tojik tili va islomiy istilohlardan yetarli darajada xabardor emasligi uning tarjimalarida ham qator xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Chunki Maxtumquli she’rlarida forsiy-arabiy so‘z va iboralar ham, diniy atama va tushunchalar ham nihoyatda ko‘p ishlatilgan. “Xaydari safdar Alы − shiri Xudanы gөrdүm-ә” misrasi tarjimasida esa “sher” so‘zi tushib qolishi natijasida Haydar Ali Xudoga aylanib qolgan: “Haydari safdori Ali Xudoni ko‘rdim”. Bu yerda “safdar” so‘zi ham “safdor” tarzida noto‘g‘ri qo‘llangan bo‘lib, u dushman safini tor-mor qiluvchi, majozan esa pahlavon, jangovar ma’nosini bildiradi va misraning mazmuni “Dushmanning dodini beruvchi Haydarni – Xudoning sherini ko‘rdim” tarzidadir. Haydar – Hazrat Alining laqabi bo‘lib, “sher” ma’nosini bildiradi. Bundan tashqari, M.Ahmad “hazoron” (minglarcha) so‘zini – “hozirun”, “marg‘zor” (ko‘kalamzor)ni – “murg‘zor” (qushzor), “kishti kor” (ekinzor)ni – “kasbu kor”, “taht us-saro” (er osti)ni – “taxti saro”, “besh” (ortiq, ziyoda)ni – “pesh”, “muqaddar” (taqdir qilingan, belgilangan)ni – “miqdor”, “mekem” (maqom)ni – “mahkam” deb noto‘g‘ri talqin qiladi va hokazo.

Maxtumqulining “ko‘ngul” radifli g‘azali tarjimasida M.Kenjabek “baxtim qorasidir” mazmunidagi “bagtыm siyasidir” jumlasini “boqtim: siyosiydir” deb o‘zbekchalashtiradi:

*Necha məxrem binovalar tapdылar andan nova,*
*Manыg eden andan meni bagtыm sыyasыdir, kөnul.*

*Necha mahram benavolar topdilar andin navo,*
*Man’ edan andan meni boqdim siyosiydir, ko‘ngul.*

Holbuki, bunda forscha “siyoh” – “qora” so‘ziga “i” egalik qo‘shimchasi qo‘shilib, “siyosi” – “qorasi” ko‘rinishini olgan. Tarjimon esa uni “siyosiy” deb tushungan. Baxtning siyosiy yoki ijtimoiysi ham bo‘ladimi?

Bu yerda “mahram” so‘zi ham noto‘g‘ri qo‘llangan − mantiqan u “mahrum” bo‘lishi kerak. O‘shanda baytning o‘zbekchasi quyidagicha jaranglaydi:

*Necha mahrum benavolar topdilar undan navo,*
*Menga man’ etgan uni baxtim qarosidir, ko‘ngil.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Tarjimonlar o‘zlari tushunmaganlari tufayli o‘xshashiga nisbat berib, mana bu ma’noni anglatsa kerak deb taxmin bilan tarjima qiladigan so‘zlarni Z.Isomiddinov “tusmol ekvivalentlar” deb ataydi [3,161–163].

“Xayyat” – “bichiqchi” degani. Barcha tarjimonlar uni “hayot” deb noto‘g‘ri talqin qiladilar. Bu holni Abdumo‘min Jumaev va Jumanazar Zulpiev tarjimalarida ham ko‘ramiz: “Ma’ni bozorinda hayotga (?) do‘ndim, Shirin g‘azal to‘nin bichdim, yoronlar”. Bu tarjimonlar tarjimasida ko‘plab arabcha va forscha so‘zlar yo tarjimasiz qoldirilgan, yo buzib tarjima qilingan. Misol uchun, “so‘nggi, oxirgi” ma’nosida kelgan “xotam” (xatam) so‘zini Hotam deb kishi nomiga aylantirib yuboradilar. Hotam – saxiyligi bilan dong taratgan arab qabila boshliqlaridan biri. She’rda esa Muhammad alayhissalom xususida so‘z borib, uning payg‘ambarlarning so‘nggisi ekanligi aytilmoqda. Yoki arab tilidagi “saqar” (uchinchi do‘zaxning nomi) so‘zini “sahar”, “madd” (arab yozuvidagi harflarning ustiga qo‘yiladigan cho‘ziqlik belgisi)ni – “matn” deb tarjima qilishadi. “Qolu maqol” (“galmagal”) – “gap-so‘z, bahs, tortishuv, janjal” ma’nosini bildirib, uni bir marta ham to‘g‘ri tarjima qilishmagan: “toshqin sel”, “ozurda hol”, “bemahal” deb har gal noto‘g‘ri talqin etishgan. Forscha “zer” (ost, tag, tub)ni – “zirh”, “”marg‘zor” (murgzor) – “maysazor, ko‘kalamzor” ma’nosidagi so‘zni “murg‘zor” – “qushzor (tovuqzor)” deb berishadi. “Kohi” (“gexi”) – “somoni” so‘zini “gohi” deb o‘girishadi va hokazo.

A.Boyqo‘ziev Voqifning quyidagi baytida “ro‘y” – “yuz” so‘zini “ruh” deb o‘qigan:

*Hasratinda za’farona do‘nsa ro‘yim, yo‘x ajab,*
*Qo‘ymush hijronda mani, bir gul’uzorim galmamish.*
*Hasratida za’farona do‘nsa ruhim, ne ajab,*
*Kuydirib hijron o‘tida guluzorim kelmamish.*

Baytda hijronda qolgan oshiqning diydor hasratida yuzi za’faronga aylanishi, ya’ni sarg‘ayib, so‘lg‘in bir holga kelishi tasvirlangan. Tarjimada esa “yuz” o‘rnini “ruh” egallaydi. Ruh esa moddiy narsa bo‘lmay, uning sarg‘ayishi mumkin emas.

Quyidagi misrada yashnab turgan, tarovatli gul ma’nosidagi “guli serob” birikmasini tushunmay “guli sir ob” tarzida qo‘llaydiki, undan bir

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

narsani tushunib bo‘lmaydi: “Orazing istar, guli serobi go‘rmaz go‘zlari” – Orazing istar, guli sir obni ko‘rmas ko‘zlari”.

Tarjimada talqin va so‘zning o‘rni beqiyos: o‘zing ma’nosini to‘g‘ri anglab ololmagan matnni o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazib berolmaysan. Birgina topib qo‘llanilgan so‘z uzukka mos ko‘zday matnning husnini ochib borishi, noto‘g‘ri ishlatilgan so‘z esa mazmunni xiralashtirishi, hatto butunlay buzib yuborishi mumkin. Mumtoz shoir sifatida Maxtumquli o‘z asarlarida ko‘plab arabiy, forsiy so‘zlarni qo‘llaganki, ularni tarjimasiz aynan qoldirish o‘zini oqlamaydi:

*Magtымgulы aydar Xaka setayыsh,*
*Xer mүshgil ishime sen-sen kүshayыsh,*
*Gijeyu-gүndizge berip nemayыsh,*
*Xurshыt ile maxы-taban yaratdы.*

**Mirzo Kenjabek tarjimasi:**

*Maxtumquli aytar Haqqa sitoyish,*
*Har mushkul ishimga sensan kushoyish,*
*Kechayu kunduzga berib namoyish,*
*Xurshid bilan mohitobon yaratdi.*

Bu yerda qofiya bo‘lib kelgan “sitoyish”, “kushoyish” va “mohitobon” so‘zlarining birortasi hozirgi o‘quvchiga tushunarli emas, yana hech bir zaruratsiz “xurshid” so‘zini ham aynan qoldirgan – qofiya bo‘lib kelmagani uchun uni bemalol “oftob” yoki “quyosh” so‘zlaridan biri bilan almashtirish mumkin edi. Bundan tashqari, bu yerda “namoyish” so‘zi ham biz tushungandan boshqacha ma’noda kelayapti: kechayu kunduzni shu holda yaratdi, bir-biriga bog‘liq qilib qo‘ydi va hokazo. Bunday hollarda qofiyalarni almashtirish, ya’ni ularni o‘zbekchalashtirish taqozo qilinadiki, bu butun bandning tuzilishini o‘zgartirish, boshqacha aytganda, she’rni chinakamiga tarjima qilish degani bo‘ladi. Bu esa, tabiiyki, ter to‘kish, zahmat chekish, ijodiy izlanishni talab etadi [11,74]. Qardosh tillardan tarjimada tarjimonlarimiz ko‘pincha ana shu oddiy haqiqatni tushunib yetmaydilar yoki istamaydilar, balki buni ortiqcha, keraksiz ish deb hisoblaydilar. Holbuki, mana bunday “tarjima” qilib, har bir tushunarsiz so‘zga matn ostiga izoh bergandan ko‘ra, asliyatning o‘zini zarur sharhu izohlar bilan nashr etgan yaxshi emasmi?

*Bir tөrt atlы geldi, barы sebzebaz,*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Asalarы yashыl, atы teblebaz...*

**Mirzo Kenjabek tarjimasi:**

*To‘rtta otliq keldi, bari sabzaboz,*
*Asolari yashil, oti tablaboz...*

Ko‘rinib turganidek, bu yerda bor-yo‘g‘i ikkitagina so‘z o‘zbek o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lib, tarjimon esa o‘shalarni ham tarjima qilish o‘rniga aynan qoldirib, matn ostida izoh bergan: sabzaboz – yashil kiyimli, tablaboz – o‘ynoqi.

“Agar yaqin tillardan tarjima – matnda mavjud barcha **tanish** so‘zlarni o‘z tilimizga o‘tkazib, **notanish** so‘zlarni satr ostida “izohlash”dan iborat bo‘lsa, o‘z-o‘zidan, tarjimaning bu turi nuqul nusxa ko‘chirishdan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqadi. Basharti, chindan ham shunday bo‘lsa, yaqin tillardan tarjima qilib o‘tirishga hech qanday zarurat qolmaydi, desa ham bo‘ladi. Aslida esa, bunday emas. Qardosh tillar bilan ish ko‘rganda ham, qardosh bo‘lmagan tillarga murojaat etganda ham tarjimaning qoidasi bitta: asl nusxani boshqa tilga o‘tkazib – qayta yaratish” [11,73].

Afsuski, M. Kenjabek tarjimasi uchun bu xos xususiyat: u ko‘plab fors-tojikcha, arabcha va qadim turkiy so‘zlarni aynan qoldirib, matn ostida ularga izoh berib ketaveradi.

Nasimiyning birgina “sig‘mazam” radifli mashhur g‘azali tarjimasida esa lomakon, kavnu makon, farsh, kofu nun, absam, bidoyat, zann, asanji, hashr, qumosh, raxt, bahr, muhiti a’zam, kun-fakon, Tur, dahr, anjum, chor, panj, shash, shams, qamar, barot, ruhi ravon, tir, pir, javon, jovidon kabi 33 ta tushunarsiz so‘z o‘zbekchaga o‘girilmay aynan qoldirilgan. Chunonchi, quyidagi baytu misralarni tarjima deb bo‘larmikan:

*Arsh ila **farshu kofu nun**, manda bilindi jumla chun,*
*Kes so‘zingni va **absam** o‘l, sharhu bayona sig‘mazam.*
*Ham sadafam, ham injuyam, **hashru sirot asanjiyam**,*
*Buncha **qumoshu raxt** ila man bu do‘kona sig‘mazam.*
*Zarra o‘zim, quyosh o‘zim, **chor** ila **panju shash** o‘zim...*
***Tir** o‘zim, kamon o‘zim, **pir** o‘zim, **javon** o‘zim...*

Voqifning “Qurboniman men” nomli mashhur she’ri tarjimasida ham “”siyah mo‘yli”. “oftob ro‘yli”, “jannat ko‘yli”. “yuzi sharli”, “gulzor barli”, “kun tal’atli” iboralari na o‘zbekcha, na o‘quvchiga tushunarli. Bu tarjima emas, transliteratsiya bo‘lgan, ya’ni bir yozuv harfidan boshqasiga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘tkazib qo‘yilgan. Holbuki, bu she’r hofizlar soziga tushib, ularning repertuaridan mustahkam o‘rin egallagan. O‘ynoqiligi va jarangdorligi uchun xalq ham bu qo‘shiqni sevib tinglaydi.

Bu boradagi muammolardan yana biri shundaki, bir qator so‘zlar mumtoz adabiyotda boshqa, hozirgi tilimizda boshqa ma’nolarda keladi. Tarjimada bu omilni hisobga olish kerak bo‘ladi. Masalan, “mehnat” so‘zini biz hozir asosan ish ma’nosida qo‘llaymiz, holbuki, o‘tmishda u aynan shu ma’nosida deyarli ishlatilmagan, balki mashaqqat, qiyinchilik; dard, g‘am; tashvish, balo ma’nolarida istifoda etilgan. Xuddi shunday “hunar” so‘zi ham hozirgiday faqat “kasb” emas, balki fazilat, xislat ma’nolarini ham bildirgan. “Yaqin” so‘zi esa haqiqat, to‘g‘ri, ishonchli degani, ya’ni biz hozir tushunadigandek, uzoqning ziddi emas. “G‘ayrat” so‘zi rashk, hasad ma’nolarini bildiradi. “G‘ash” so‘zi gard, g‘ubor; bulg‘anch, iflos ma’nolarida qo‘llanadiki, biz uning faqat ko‘ngildagi noxushlik, dardu iztirob ma’nolarini bilamiz. Tarjimonlarimiz esa masalaning shu tomoni bilan ko‘pda hisoblashmay, o‘z tarjimalarida ularni tarjima qilmay, o‘ziday qo‘llab ketaveradilar. Jumladan, Maxtumquli she’rlari tarjimasida J.Jabborovning har gal “mehnat” so‘zini aynan qoldirishi shoir fikrining noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘lgan. Masalan: “Birovga beribdir qayg‘u-g‘am, mehnat...” – “Qayg‘u, mehnat bilan chiqadi joni...” Ko‘rinib turibdiki, har ikki o‘rinda ham g‘am va qayg‘uga ma’nodosh so‘z qo‘llanishi kerak. M.Ahmad tarjimalarida ham bu holni ko‘ramiz (“Pes xotin boshga mehnatdir”). Yoki “e’tibor” so‘zi hozir obro‘, qadr-qimmat ma’nosida tushuniladi. Holbuki, mumtoz she’riyatda u ko‘pincha ishonch, e’timod ma’nosida keladi. Shunday ekan, Maxtumqulining “Өmre ыgtыbar yok, nege yatыp sen?” misrasini “Umrga e’tibor yo‘q, nega yotibsan?” (M.Ahmad) tarzida emas, balki “Umrga e’timod yo‘q, nega yotibsan?” deb tarjima qilgan maqsadga muvofiq. Yoki “haromi” so‘zi o‘tmish adabiyotida “g‘oratgar, yo‘lto‘sar, hiylagar” ma’nosida qo‘llanib, hozirgi o‘quvchi uni deyarli “zino mahsuli bo‘lgan bola” ma’nosida tushunadi va haqorat so‘z deb biladi. Shunday ekan, tarjimada bu so‘zni aynan qoldirish o‘zini oqlamaydi:

Yej *badi-səba, məndən ilət jarə səlami,*
*Shol gəmzələriəerbədəчu, yejni hərami.*

E*y bodi sabo, mandan elit yora salomi,*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*Ul g‘amzalari shu’badachi, ko‘zi haromi.*

Tahlillar mumtoz adabiyot namunalari tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni sinchiklab o‘rganish va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatish muhimligini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Ma’lumki, qardosh xalqlar so‘z san’atidan faqat zamonaviy adabiyot namunalari emas, balki mumtoz adabiyot namunalari ham tarjima qilinadi. Mumtoz adabiyotga oid asarlar tarjimasiga qo‘l uradigan tarjimon esa asliyat tilidan tashqari arab va fors tillarini ham bir qadar bilishi, mumtoz poetika asoslari, xususan, aruz vazni va badiiy san’atlardan ham u yoki bu darajada xabardor bo‘lishi, islom ta’limoti va tasavvuf falsafasidan ham ozmi-ko‘pmi tasavvur hosil qilishi, bugina emas, o‘zbek mumtoz adabiyotini ham yaxshi bilishi va yana hammasidan muhimi, uning o‘zida mumtoz adabiyot ruhi bo‘lishi taqozo etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Воқиф. Танланган асарлар (Миртемир, Шуҳрат, Ж.Жабборов таржималари). – Тошкент, 1969.
2. Имадәддин Нәсими. Сечилмиш әсәрләри. – Баки, 1973.
3. Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс \\ Таржима санъати ( Мақолалар тўплами ). 5-китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
4. Махтумқули. Танланган асарлар (Ж.Шарипов таржимаси). – Тошкент: “Фан”, 1958.
5. Махтумқули. Сайланма ( М.Кенжабек таржималари). – Тошкент, 2004.
6. Махтумқули. Дунё ўтиб борадир (Ж.Шарипов, Ж.Жабборов, М.Кенжабек, М.Аҳмад, Э.Очилов таржималари). – Тошкент: “Шарқ”, 2007.
7. Махтумқули. Сайланма (А.Жумаев, Ж.Зулпиев таржималари). – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008.
8. Магтымгулы. Шыгырлар. Үч томлүк – Ашгабат, 1992–1994.
9. Мулла Паноҳ Воқиф. Сечилмиш эсерлари (араб ёзувида). – Баку, 1968.
10. Насимий. Асарлар (Миртемир, Х.Расул ва А.Қосимовлар таржималари). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
11. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978.
12. www-kh-davron.uz
13. Khudoyorovich, K. K., Rasuljanovna, I. N., Khalmuratovna, R. Z., & Eshkobilovna, K. D. (2020). The Issues of Word Choice in Fiction Translation. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(04).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# “BOBURNOMA” DA EKVIVALENT SO‘ZLAR MASALASI VA INGLIZCHA TARJIMALARI XUSUSIDA

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-286-292

filol.f.d. **Ziyodaxon TESHABOYEVA**
Alisher Navoi nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel:+998903459746;
teshaboyevaz@mail.ru.
Gulsanam **ABDAZOVA**
II-bosqich magistranti
abdazovag@mail.ru.

**Annotatsiya.** *Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zidagi nodir ma’lumotlar bilan butun dunyoga ma’lum va mashhurdir. Mumtoz asarning o‘ttizdan ortiq dunyo tillariga tarjima qilinishi mamlakatning badiy aloqalarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada asarda qo‘llangan leksik va frazeologik birliklarning ko‘lami va ekvivalentligi, inglizcha tarjimalari tahlilga tortilgan. “Boburnoma”da o‘lmoq, o‘ldirmoq leksik semantic maydonidagi muallif tomonidan qo‘llangan frazeologik birliklarning tarjimalari ochib beriladi. Mumtoz asar tarjimasida tarjimaning muhim ahamiyati va tarjima metodlari ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *leksik semantic maydon, asliyat, tarjima, frazeologik birlik, so‘z birikmasi, metod.*

**Аннотация.** *Произведение “Бабурнаме” известно на весь мир своими редкими сведениями. Перевод классического произведения более чем на тридцать языков мира играет значительную роль в художественных отношениях страны. В статье анализируется объем и эквивалентность лексических и фразеологических единиц и их перевод на английский язык. Выявлены лексико-семантические переводы фразеологизмов “умереть” и “убивать” использованных автором. Выявлена важность перевода и их методы в переводах классических произведений.*

**Ключевые слова**: *лексико-семантическое поле, подлинность, перевод, фразеологические единицы, словосочетание, метод.*

**Abstract.** *Zahiriddin Muhammad Babur’s work “Baburname” is well-known throughout the world for its rare information. The classical work translated into more than thirty languages of the world and plays a significant role in the artistic relations of the country. The article analyzes the words and equivalence of lexical and phraseological units and their translation into English. Lexical and semantic translations of phraseological units “to die” and “to kill” used by the author are*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*revealed. The importance of translation and their methods in translations of classical work are discovered.*

**Key words:** *lexical and semantic field, authenticity, translation, phraseological units, phrase, method.*

Tarjimalar tarixini boshidan kechirgan asar “Boburnoma” xorijiy va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Mumtoz asar tarjimasi ustida bir necha olimlar ilmiy taqqiqot olib borganlar, ayniqsa chet el tarjimonlari ushbu asar tarjimasiga kirishishdan avval yillab psixologik tayyorgarlik ko‘rgan. Xususan, hozirgi kunda yashab ijod qilayotgan tarjimon Vilyer Tekston “Boburnoma”ning ham forsiy, ham turkiy variantlarini puxta o‘rganib chiqqan va o‘qigan tarjimonlardan biridir.

“Boburnoma” o‘zida juda ko‘p fan uchun ma’lumotlarni jamlaganki, undan har bir sohadan misol keltirish mumkin. Shunday ekan, filologik, tarjimashunoslik nuqtai nazardan yondashgan holda undagi “so‘z” ummonidan bir nechasinigina tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Gap tarjima ustida borar ekan, biroz fikrni jamlagan holda ekvivalent so‘zlar “Boburnoma” asarida qanday qo‘llangan va ular tarjimada qay tarzda aks etgan, degan masalaga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Asarda *o‘lmoq* va *o‘ldirmoq* leksik semantik maydoniga kirgan so‘z birikmasi va frazeologik birliklar ham mavjudki, ularni birma bir misol tariqasida keltirish lozim bo‘ladi:

1. shunqor bo‘lmoq [4, 37] – gave up a ghost [10, 8];
2. Tengri rahmatig’a boribtur [4, 38] – had gone to God’s mercy [8, 12];
3. shahid bo‘lmoq [4, 40] – killed [10, 16];
4. o‘z amaliga giriftor bo‘lmoq [4, 47] – he fell prey to his own action [10, 30];
5. bu olamdin o‘tmoq [4, 38] – passed away [10, 11];
6. dunyoyi foniyni vido qilmoq [4, 39] – bade farewell to this mortal world [8, 14];
7. olami foniyni vido qildi [4, 43] – he bade farewell to the mortal world [10, 22];
8. olamdin bordi [4, 46] – departed this world [10, 27];
9. olamdin kechti [4, 47] – passed from this world [10, 30];
10. olamdin naql qildi [4,113]. – (he) left this world [10,218];
11. juvonmarg bo‘ldilar [4, 48] – died young of shamed immoderation and debauchery [10, 31];

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

12. (Samarqand shahrida) boʻynigʼa urdurdi [4, 50] – had him beheaded (in Samarkand) [10, 35];
13. siyosatqa yetkurdi [4, 54] – he was sentenced to death [10, 45];
14. Koʻksaroyga chiqardilar [4, 54] – "They have taken the prince to the Kok Saray," meant that they had killed him [10, 45];
15. yomon ot bila bordi [4, 78] – departed with a bad name [10, 95];
16. zoye boʻldi [4, 57] – loosing many of his men [10, 51];
17. vafot qilgʼon ekandur [4, 86] – passed away [10, 112];
18. (ushbu baliya bila-oʻq) olamdin naql qildi [4, 135] – he passed from this world with this affliction [10, 209];
19. qatlgʼa boribtur [4, 162] – were put to death [10, 265];
20. Marakai juvonmardi zohir gardonidand – oʻlim sharobini totdi. [4, 228] – to taste the poison of death [4, 178, 391];
21. naql qildi – died [10, 201];
22. rixlat qildi – he bade farewell to the world[ 8, 264];
23. Tengri hukmini butkarmish –she had fulfilled Godʼs will [1, 268, 269].
24. qasosgʼa yetkurmoq [4, 182]. – he was put to death in retaliation [8,284].
25. qatlgʼa borur [4, 246].– were put to death [10, 429].
26. qilichqa borib edi [4, 141]. – were slain by the sword [8, 200].
27. suvgʼa gʼarq boʼlur [4, 257]. – were drowned, [8, 417].
28. tirt-pirt qildilar [4, 96]. – dragged away [115].
29. shahid qilgʼon ekandurlar [4, 220]. – put them to death [10, 378].
30. zoyeʼ boʼldi [4, 57].– perished there [1, 70].

Yuqorida keltirilgan misollardan koʻrinadiki, *oʻlmoq* va *oʻldirmoq* semantik maydonidagi leksik va frzazeologik birliklar ingliz tiliga nisbatan oʻzbek tilida koproq. Agar eʼtibor qaratilsa oʻzbek tilidagi misollar rang barang boʻlishi bilan birga ingliz tiliga tarjimaning kalka, yani soʻzma soʻz tarjima metodi orqali aks ettiriladi. Xosh, ularning qaysi biri ekvivalent boʻla oladi? Frazeologik va leksik birliklar oʻzbekchasida 30ta topilgan boʻlsa inglizchasida ham shuncha, lekin bir birini mazmunan qoplay olmaydi, chunki har biri butunlay boshqa boshqa hodisalarni tasvirlab keladi: suvga choʻkib oʻlmoq, qilich yeb yoki qilich ostida qolib oʻlmoq, jang maydonida behuda oʻlib ketmoq, pinhona oʻldirilmoq, jazosiga yetkazmoq kabi. Deman asarning ruhiyatini tarjimada saqlash uchun tashviriy vositalar orqali ham aks ettirish maqsadga muvofiq boʻlar ekan.

"Boburnoma"dan bir misol keltiraylik:

*Darvesh Muhammad tarxon Buxorodin kelib, Sulton Ali mirzoni Qarshidin kelturub, podshoh koʻtarib, Bogʼi navgʼa keldilar. Boysunqur*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*mirzoni tutqun yo'sunluq qilib navkar, savdvridin ayirib arkka kelturdilar. Ikkala mirzoni bir yerda o'lturg'uzdilar. Kech namozi digar Boysunqur mirzoni* ***Ko'ksaraoyg'a chiqorur xayoli qildilar*** [4, 54].

Ushbu misolda etnografik joy nomi *Ko'ksaraoyg'a chiqorur* frazeologik iboradir bo'lib, o'ldirur degan ma'noni anglatadi va uch turdagi inglizcha J.Leyden-V.Erskin (1926), A.S.Beverij (1921), V.Tekstonda (1996) tarjimalarda quyidagicha aks etadi.

Yuqoridagi asliyat misolinging J.Leyden-V.Erskin (1926) tarjimasida: ... so that in the end Dervish Muhammed Terkhan leaving Bokhara, brought Sultan Ali Mirza from Karshi, proclaimed him king; and advanced along with him to Samarkand to the New Garden, where Baiesanghar Mirza then resided. Having seized that prince by stratagem, they separated him from his servants and retainers, conducted him to the citadel, and put the two Mirzas in one place. About afternoon prayers, they had a consultation, and came to the severe resolution of **sending the Mirza to Gokserai** [8; 39]. – … oxir-oqibat Darvesh Muhammad Tarxon Buxorodan chiqib, Sulton Ali Mirzoni Qarshidan olib kelib, podshoh deb e'lon qiladi; shoh; va u bilan birga Samarqandga, o'sha paytda Baysang'ar mirzo istiqomat qiladigan yangi boqqa yo'l oladi. O'sha shahzodani hiyla-nayrang bilan qo'lga olib, uni xizmatkorlari va qo'riqchilaridan ajratib, qal'aga olib borib, ikki mirzoni bir joyga qo'yadilar. Peshin namozi haqida maslahatlashib, **Mirzoni Go'ksaroyga jo'natish to'g'risida** qat'iy qarorga kelishadi.

Ushbu tarjimadagi ***came to the severe resolution of sending the Mirza to Gokserai*** *–Mirzoni Go'ksaroyga jo'natish to'g'risida qat'iy qarorga kelishadi*, tarzida tarjima qiladi. Asliyat matni A.S.Beverij (1921)da quyidagicha berilgan:

Darwesh Muhammad Tarkhan went from Bukhara to Qarshi, brought SI. 'Ali Mirza to Samarkand and raised him to be supreme. People then went to the New Garden where Baisun-ghar Mirza was, treated him like a prisoner, parted him from his following and took him to the citadel. There they seated both mirzas in one place, **thinking to send Bai-sunghar Mirza to the Guk Sarai** close to the Other Prayer [1; 62]. – Darvesh Muhammad Tarxon Buxorodan Qarshiga ketdi, SI (ya'ni Sulton Ali) Ali mirzoni Samarqandga olib kelib, uni oliy darajaga ko'tardi. So'ngra

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

odamlar Boysung‘ar mirzo bo‘lgan Yangi boqqa borib, unga mahbusdek munosabatda bo‘lishdi, uni ergashuvchilardan ajratib, qo‘rg‘onga olib kelishdi. U yerda ikkala mirzoni bir joyga o‘tirg’isdilar va Bay-sung‘or Mirzoni boshqa ibodat qiladigan yaqin joy **Guk saroyga jo‘natmoqchi bo‘ldilar**. Ushbu Susanna Beverij tarjimasida nafaqat ajratib ko‘rsatilgan birikmalar va boshqa so‘zlarning tarjimasi ham biror o‘zgarib borgan. Asliyatdagi ***Ko’ksaraoyg’a chiqorur xayoli qildilar*** – thinking to send Bai-sunghar Mirza to the Guk Sarai – Guk saroyga jo‘natmoqchi bo‘ldilar, deya aks ettirgan. Bu joyda *thinking to send – jo‘natmoqchi* kabi maqsadni aks ettiruvchi gerundiy orqali tarjima qilinadi.

Asliyat matni V.Tekstonda (1996) quyidagicha tarjima qilinadi: The Tarkhan begs and some of the Samarkand begs were offended by this, and Darwesh Muhammad Tarkhan came from Bukhara, had Sultan-Ali Mirza brought from Karshi, made him padishah, and went with him to the Bagh-i-Naw, where Baysunghur Mirza was. Making Baysunghur Mirza a sort of captive, they separated him from his liege men and servants and took him to the citadel. There both mirzas were made to stay in one place. They **thought of taking** Baysunghur Mirza **to the Kok Saray** late that afternoon [10; 44]. – Tarxon beglari va ba’zi Samarqand beglari bundan ranjidilar va Darvesh Muhammad Tarxon Buxorodan kelib, Sulton Ali mirzoni Qarshidan olib kelib, uni padishoh qilib, u bilan Bog‘-i-Navga, Boysung‘ur Mirzoga boradi. Boysung‘ur Mirzoni o‘ziga xos asirga aylantirib, uni o‘z qo‘shinlari va xizmatkorlaridan ajratib, qo‘rg‘onga olib kelishdi. U yerda ikkala mirzo ham bir joyda turishga majbur qilingan. O‘sha kunning ikkinchi yarmida Boysung‘ur mirzoni **Ko‘k saroyga olib ketish haqida o‘ylashdi.**

They thought of taking Baysunghur Mirza to the Kok Saray – Boysung‘ur mirzoni Ko‘k saroyga olib ketish haqida o‘ylashdi. V.Tekston ham tarjima meyorlarini buzmagan holda yarim kalka, yani **thought of taking … to the Kok Saray – Kok Saroyga olib borish (haqida) o’lashdi,** tarzida aks ettirgan.

Yana shunday iboralar mavjudki asliyatda *Marakai juvonmardi zohir gardonidand* ya’ni bu o‘zbek tilida o‘lim sharobini totdilar [43, 228] deb beriladi. Uni ingliz tilida tasted the poison of death – o‘lim zahrini totdilar,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

deb o‘giriladi, chunki contrast ma’no sharob ichmoq yoki o‘lim sharobi o‘zbek tili leksikasida mavjud bo‘lib tasavvuf ilmida kop bora qo‘llangan.

“Boburnoma”da mavzuga aloqador 40 va 50dan ortiq leksik va frzazeologik birliklarni topish mumkin, bu esa yanada chuqur va jiddiy, alohida tadqiqot mavzusidir. Xulosa sifatida aytish mumkinki, agar ekvivalent so‘z *o‘lmoq*qa mos kelishini nazarda tutsak u neytral holatdagi so‘z *to die* va frazeologik birlik *to pass away* 30ta keltirgan misolga teng keladi deyish mumkin. Bundan anglashiladiki asliyat mazmunan boy tarjima esa tasviriy bo‘lib qolishi mumkin. Lekin shunday bo‘lsa-da, bosqichma-bosqich olib borilgan tarjimalardan ham juda kop narsani o‘rganish mumkin.

Bobur leksikasining o‘ziga xosligi aynan bir marta qo‘llangan frazeologik birliklar qayta ifodalanmay, kelgusi matnda uning bir necha muqobillari ifoda etiladi va bu ko’rinish inglizcha tarjimalarda ham o‘z aksini topgan. *O‘lmoq* leksik maydoniga kiruvchi *Tengri rahmatiga bormoq* frazeologik birliklarning yigirmadan ortiq muqobillari mavjudliga amin bo‘lamiz.

Har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o’zida mujassam etadi. Ular semantik va pragmatik munosabatlar bo‘lib, birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog’lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o‘rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir. Til belgisi semantik (denotativ), sintaktik va pragmatik ma’nolari bilan ajralib turadi. Pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to’la-to’kis mosligini vujudga keltiradi. Tillararo kommunikatsiyani amalga oshirish munosabati bilan pragmatika muammolari yuzaga kelar ekan, tarjimonning vazifasi tarjima jarayonining maqsadini to‘g’ri anglagan holda, uni tarjima tili talabi, me’yori asosida qayta yaratishdan iboratdir.

Asardagi frazeologik birliklarning inglizcha uch xil ko‘rinishdagi tarjimalarini tadqiq etish orqali asliyatdagi frazeologik birliklar mazmuni va o‘rni yo‘qolmay, balki uning ekvivalentlarida yuzaga chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda uning asar tarjimalaridagi uslub,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yondashuv va o‘ziga xoslikni ham o‘rganish mumkin. frazeologik birliklar tarjimasining bir emas bir necha muqobillari mavjudligini ham guvohi bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Annamaria Shimmel. “The empire of the great mughals”. – London, 2004. 351p.
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.
3. Zahiriddin Muhammad Bobir. Bobirnoma. Shamsiev P, Mirzaev S. – T.: O‘z SSR Fan nashriyoti., 1960. – 514 b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – 335 b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T.: O‘qituvchi, 2008. –287 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi – T.: Sharq, 2017. – 688 b.
7. Eugene A. Nida. Toward a science of translating. Leiden. E. J. Brill. – 1964. 170 pp.
8. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 p.
9. Nida E. “Towards a Science of Translating” 1964, P.170.
10. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 p.
11. qizi Umarova, M. A. (2021). UZBEK KINSHIP WORDS AND THEIR TRANSLATION INTO URDU LANGUAGE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, *2*(05), 113-116.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ПОЭЗИЯ МАРИНЫ ЦВЕТАЕВОЙ В ПЕРЕВОДЕ ВАРЬЯМА СИНГХА НА ХИНДИ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-293-298

К.ф.н. **Гюзэль СТРЕЛКОВА**,
Старший научный сотрудник отдела
Литератур Южной Азии Института Востоковедения
Российской Академии Наук.
Тел: + 7 919 993 36 35, Email: gstr@mail.ru

**Аннотация**. *В статье рассматриваются особенности перевода поэзии Марины Цветаевой на язык хинди, выполненные индийским литературоведом и специалистом – русистом Варьямом Сингхом. Эти переводы опубликованы как в печатном, так и электронном виде.*

**Ключевые слова**: *поэзия Марины Цветаевой, перевод на хинди.*

**Abstract.** *The article discusses the features of the translation of Marina Tsvetaeva's poetry into Hindi, performed by the Indian literary critic and specialist in Russian, Varyam Singh. These translations are published both in printed and electronic form.*

**Keywords**: *Marina Tsvetaeva's poetry, Hindi translation.*

**Annotatsiya**. *Maqolada Marina Svetyaeva she'riyatini hind adabiy tanqidchisi va rus mutaxassisi Varyam Singx tomonidan hind tiliga tarjima qilish xususiyatlari muhokama qilinadi. Ushbu tarjimalar bosma va elektron shaklda nashr etilgan.*

**Kalit so'zlar**: *Marina Svetayeva she'riyati, hind tiliga tarjima.*

Поэзия выдающейся русской поэтессы Марины Цветаевой давно покинула пределы России, её знают и ценят читатели во всём мире. В переводе индийского специалиста по русскому языку, поэта и переводчика Варьяма Сингха стихи её стали известны и читателям хинди. Знаток русского языка и литературы, сам поэт, уроженец долины Кулу, Варьям Синх, профессор Университета им. Дж.Неру (в отставке), член Литературной Академии Индии, перевёл и продолжает переводить стихи многих русских поэтов, но творчество Марины Цветаевой ему особенно дорого. Еще в 1987 году он выпустил сборник её стихов «Ayegaa din kavitaaon ke» (Придёт день стихов), в известном, престижном издательстве Раджкамал пракашан. Очевидно, в качестве заглавного произведения этого сборника было выбрано стихотворение «Моим стихам, как драгоценным винам,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

настанет свой черёд». Эти стихи относятся к ранним, крымским стихам Марины Цветаевой. Кроме этого, в 1992 году проф. Варьям Сингх стал редактором-составителем и переводчиком сборника “Kuchh chiTThiyan, kuchh kavitaayen”, в который вошли переводы писем, адресованных Василию Розанову, Максу Волошину, Петру Эфрону, Борису Пастернаку, Анне Ахматовой и некоторым другим адресатам. В сборнике представлены также отрывки из избранных статей Марины Цветаевой, а также 29 стихотворений, дающих представление о её эволюции как поэта – с 1909 («Мольба/Молитва» Praarthnaa) до 1941 (Duhraatii hoon pehlee panktee –«Повторяю первую строку»).

Стихи эти представлены и в печатном, и электронном виде. Это стало возможным потому, что существует очень богатый электронный сайт www.kavitakosh.org «Кавита кош» (Сокровищница поэзии/стихов), который поддерживает Анил Джайн Виджай, постоянно пополняя его поэтическими текстами. Один из разделов сайта – «Переводы поэзии на хинди с мировых языков». Рассматриваемые в данной статье стихи выложены на этом электронном сайте.

Эти изданные на языке хинди переводы стихов Марины Цветаевой, на мой взгляд, наглядно демонстрируют диапазон её творчества и таланта. Благодаря таким переводам можно проследить творческую эволюцию великой русской поэтессы. Очевидно, в какой-то мере отбор стихов определялся и индивидуальными вкусами переводчика, и его стремлением наиболее полно отразить разные черты её творчества, разнообразие тем и стилистические особенности ее поэзии, а также дать представление о мотивах, сюжетах и своеобразии этой поэзии. В этот сборник переведённых на хинди стихов Марины Цветаевой входит 96 произведений. В данной статье рассматриваются особенности перевода Варьяма Синха, а также предпринимается попытка определить степень точности передачи (и смысловой, и художественной) оригинала, а также определить утраты и приобретения, возникающие во время перевода высокой поэзии на иностранный язык.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Марина Цветаева не только писала великолепные стихи, но еще и сама была прекрасной переводчицей, и имела свою концепцию перевода: «…перевожу по слуху, по духу вещи…» (Саакянц, Жизнь Цветаевой, с. 788). И она переводила не просто «слово», но именно дух поэзии, полагая, что оригинал и перевод - это «две вариации на одну тему, два видения одной вещи». *(М.В. Цветаева. Собрание сочинений. Т.5, стр. 433).* То есть поэт, становясь переводчиком, воспринимает процесс перевода как акт творения, при котором переводчик обладает правом на свободу выражения, передачу собственного видения прочитанного, воспринятого и отобранного для переложения на другой язык того, что было создано другим поэтом. Она, как великий поэт, могла позволить себе смелость настаивать на том, что «…я, прежде всего, выправляю смысл, то есть довожу вещь до поэзии, перевожу её из царства случайности в царство необходимости». *(Цветаева. Неизданное. Семья. История в письмах. С. 428).*

Стихи Марины Цветаевой были переведены на многие европейские языки – французский, английский, немецкий, шведский, итальянский, чешский, польский и другие. Постоянно организуются конференции, посвященные ей и её творчеству, конкурсы переводов её поэзии, создаются художественные отклики – послания в ответ на цветаевские стихи. Эти переводы становятся объектом исследования, что отражается не только в предисловиях к сборникам переводовеё стихов, но и целых исследованиях, таких, как коллективная книга статей зарубежных русистов, изданная в Голландии, *A Companion to Marina Cvetaeva: Approaches to Major Russian Poet. Sibelian Forrester. BRILL, 2016.*

Насколько мне известно, о переводах поэзии М. Цветаевой на хинди практически не писали, поэтому хотелось бы поделиться своими наблюдениями, касающимися переводов поэзии Марины Цветаевой на хинди – один из самых распространённых языков мира. На этом языке и его диалектах говорит более 600 миллионов человек, поэтому если даже небольшое число образованных индийцев прочтёт эти переводы, то эффект будет очень большим, и можно предположить, что круг читателей и слушателей русской поэзии в

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Индии, вероятно, куда больше, чем у нас в отечестве. Поэзию и Марины Цветаевой, как и других русских поэтов, действительно, читают, более того, по собственному опыту общения с образованными индийцами знаю, что эти стихи любят в Индии – во всяком случае, в среде индийской интеллигенции с европейским образованием. Подтверждением этому – высказывания выдающихся литераторов хинди старшего поколения – например, прозаика и драматурга Кришны Балдева Вайда и поэта Кунвара Нараяна, Прамода Парикха и многих университетских преподавателей и молодых людей, которые проявляют интерес к России и культуре нашей страны. Возможности для знакомства с русской поэзией у индийцев есть, так как уже в течении многих лет она издаётся в переводах на хинди. Один из ведущих переводчиков, проф. Варьям Сингх, который был и одним из первых выпускников Центра русских исследований Университета им. Дж. Неру, опубликовал несколько книг переводов русской поэзии, среди них и антология русской поэзии, в которую вошли многие произведения, начиная от «Слова о полку Игореве», стихов М.В. Ломоносова и А.С. Пушкина до современных поэтов. Варьям Сингх также опубликовал два сборника переводов стихов Марины Цветаевой. Один из них, как упоминалось, назван по первым строкам её раннего стихотворения «Моим стихам, написанным так рано…» Второй сборник назван в переводе на хинди «Придут/настанут дни тех стихов…». Он предваряется кратким вступлением «От редакции» выдающегося литературоведа, литературного критика хинди, профессора Намвара Сингха, а также включает в себя небольшую статью (с краткой биографией Марины Цветаевой), написанную переводчиком, Варьямом Синггхом, – о её творчестве. Сам сборник включает в себя 101 стихотворение, начиная с заглавного “Ayenge din kavitaaon kee”, и завершается стихами «वे जो गा नहीं सकते» (Те, кто не могут петь) и राष्ट्र )'मार्च' कविता-क्रम से) – «Государство (Из цикла «Март»). Добавим, что есть еще несколько стихов Марины Цветаевой в переводе Рамеша Каушика, который переводил с английского языка. Действительно, первоначально творчество русских поэтов Серебряного века становилось известно индийским читателям в английских переводах, но, на наш взгляд,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

более аутентичными являются переводы, выполненные непосредственно с языка оригинала. Поэтому предлагаю вашему вниманию перевод Варьяма Сингха на хинди нескольких стихов Марины Цветаевой, их последовательный обратный перевод и краткий анализ самого перевода.

**आएंगे दिन उन कविताओं के**

आएंगे दिन उन कविताओं के *Придут/настанут дни тех стихов*
जिन्हें लिखा मैंने छोटी उम्र में *Которые написала я в малом возрасте*
मैं कवि हूँ- *Я поэт*
जब स्वयं को भी नहीं था मालूम यह ।*Когда и мне самой не известно было это*
आएंगे दिन राकेट के अंगारों *Придут дни в искрах ракет*
और फव्वारों से छूटते छींटों-सी कविताओं के । *И из фонтанов бьющих маленьких стихов…*

Приведем эту строфу в оригинале: «Моим стихам, написанным так рано,/ Что и не знала я, что я — поэт, / Сорвавшимся, как брызги из фонтана, / Как искры из ракет…» При внимательном чтении и сопоставлении оригинала и перевода, находим следующее: сразу же становится ясно, что ритм и рифма изменены или же сохранены лишь частично. Добавляется дополнительная строка मैं कवि हूँ- *Я поэт.* Меняется грамматическая конструкция: сравнение – «как» (как брызги из фонтана) меняется на определение *И из фонтанов бьющих маленьких стихов.* Ритм и рифма отчасти – своеобразно – сохраняются, но также изменяются: конечная рифма сочетается с рифмой начала первой и третьей строки कविताओं के, обрамляющая - начальная आएंगे दिन. Происходит смысловая трансформация, иногда частичная (1.Настанет свой черёд – *Придут /настанут дни. 2.* Рано - *в малом возрасте* . 3. …не знала я, что я - поэт/ *Когда и мне самой не известно было это*) или же радикальная, искажающая смысл оригинала, например, «В храм пробравшимся малышам–посланцам богов подобным…» вместо «Ворвавшимся, как маленькие черти, В святилище, где сон и фимиам)» धूप और आलस के नशे में झूमते В жаре и лени дремлющие मंदिर में घुस आए शिशु-देवदूतों-सी В храм пробравшимся малышам – посланцам богов подобным यौवन और मृत्यु की *Юности и смерти*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

जो पढ़ी नहीं गईं *Что еще не прочитаны были* आएंगे दिन उन कविताओं के। *Придут дни тех стихов/*Ворвавшимся, как маленькие черти,/В святилище, где сон и фимиам,/ Моим стихам о юности и смерти,/— Нечитанным стихам! — दूकानों की धूल में बिखरी हुई *В пыли магазинов разбросанные/рассыпанные* ख़रीदारों की उपेक्षा की शिकार *Покупателей презренья жертвы/добыча* महंगी शराब की तरह *Дорогому вину подобно* मेरी कविताओं के भी दिन आएंगे। *И моим стихам дни придут/настанут.* В оригинале эти стихи звучат так: «…Разбросанным в пыли по магазинам/ (Где их никто не брал и не берет!),/ Моим стихам, как драгоценным винам,/ Настанет свой черед». Таким образом, есть определённые разночтения между оригиналом стихотворения и его переводом на хинди, это объяснимо прежде всего тем, что переводчик вкладывает своё понимание текста в перевод, стараясь донести его до читателя.

Примечательно, что многие поэты Серебряного века увлекались Индией, посвящали ей стихи, так или иначе отражали свой интерес к ней, например, Николай Гумилёв в стихотворении «Прапамять» (1917/Сб. «Костёр») и развивал эту тему позже, в стихотворении «Память», опубликованном в 1919 году. В одном из последних и, по мнению многих, «самых загадочных стихотворений» Николая Гумилёва «Заблудившийся трамвай» говорится о билете «в Индию духа», то есть отношение поэта к Индии всегда было окрашено налётом мистицизма, предчувствия тайны, возможности постичь истину. В стихах Марины Цветаевой Индия упомянута лишь однажды, как далёкая страна, лежащая за «синеющим водным путём», она манит любимого, а саму героиню лишает возлюбленного. И попросить его можно лишь об одном: «Из Индии пришлите камни», - очевидно, без надежды на встречу: «Когда увидимся? - Во сне». А у индийцев - любителей поэзии и тех, кто интересуется русской поэзией благодаря переводчику Варьяму Сингху есть возможность познакомиться с ней познакомиться.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# HALDUN TANERNING "MOTORLI KEMACHADAGI SARGUZASHT" HIKOYASI TARJIMASIGA DOIR

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-299-304

Filol.f.n. **Lolaxon AMINOVA**,
TDSHU dotsenti. Toshkent, O'zbekiston
Tel: 97 761 65 56; E-mail: lolahonim@mail.ru

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Turk yozuvchisi Haldun Tanerning "Motorli kemachadagi sarguzasht" hikoyasining tarjimasiga bag'ishlangan. Tarjima maqola avtori tomonidan amalga oshirilgan. Maqolada tarjimonning mahorati, tarjima qilinayotgan til, ya'ni turk tilidagi ba'zi bir sohalarga oid so'zlarning o'zbek tilida muqobilini berilishi haqida alohida to'xtalingan. Qolaversa, badiiy asar tarjimasining o'ziga xos murakkab jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *geografik xususiyatlar, kema, paluba, atama, uslub, sheva, milliy adabiy meros.*

**Аннотация.** *Эта статя посвящается переводу истории турецкого писателя Халдуна Танера «Приключение в моторной лодке» . Перевод был произведен автором стати. В стате акцентируется внимание на умениях переводчика, на переводимом языке, то ест на предоставлении узбекских алтернатив словам, относящимся к некоторым областям турецкого языка. Кроме того, были обсуждены уникалные сложные аспекты перевода художественного произведения.*

**Ключевые слова** : *географические особенности, корабл, палуба, термин, стил, диалект, natsioналное литературное наследие.*

**Abstract.** *This article is devoted to the translation of the story of the Turkish writer Haldun Taner "adventure on a motor ship". The translation was carried out by the article author. The article separately discusses the skill of the translator, the language being translated, that is, the provision of an alternative in the Uzbek language of words related to certain areas of the Turkish language. In addition, there is an opinion about the specific complex aspects of the translation work.*

**Keywords:** *geographical features, ship, deck, term, style, dialect, national literary heritage.*

"Badiiy asarlar tarjimasi xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi" – deydi G'. Salomov [1,11].

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ma'lumki, tarjima asarlari millatlarni, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Biror bir tildan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarni o'qir ekanmiz, o'sha xalqning tarixi, urf-odatlari, geografik xususiyatlari, qo'llayotgan iborayu maqollari haqida ko'plab ma'lumotga ega bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda o'sha asarni qadrlab o'z milliy adabiy xazinamizga qo'shib ham qo'yamiz. Demak asarlar qaysi tilda yozilmasin, tarjima qilingandan so'ng boshqa xalqning adabiy merosiga aylanadi. Lekin bu jarayonda tarjimonning xizmati beqiyosdir, albatta. Faqat mohir tarjimongina asarning qiymatini oshiradi. Bu borada G'. Salomov ham quyidagicha fikrlarni bayon etgan. "Tarjimon ikki milliy adabiyot o'rtasidagi aloqachi. Voqealar oqimini asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga avtor singari kirib borishi lozim" [2,142].

Asar qanchalik yaxshi yozilmasin, tarjimon uni maromiga yetkazib o'gira olmasa, asar yaxshi baholanmaydi. Shuning uchun ko'pgina magistrlik, nomzodlik dissertatsiyalarida ham bir tildan boshqa tilga tarjima qilingan asarlarni tadqiq qilish masalalari dolzarb mavzulardan biri deb qaralmoqda.

Azaldan o'zbek kitobxoni turk yozuvchilarining asarlarni o'zbek tilida zavq bilan o'qib kelishgan. Va ko'pgina turk adiblarining roman va qissalari o'zbek xalqi tomonidan juda sevib qabul qilingan. Hozirgi kunda esa, o'zimizning eng sara asarlar ham turk va boshqa tillarga muvafaqqiyatli o'girilib, juda ko'p yozuvchilarimiz chet davlatlarda tanilib ham ulgurdi. Shu o'rinda aytish joizki, tarjima masalalariga davlatimiz tomonidan ham juda katta e'tibor qaratilmoqda, yaxshi sharoitlar yaratilib, qo'llab quvvatlanmoqda. Garchi shunday ekan, chet tili mutaxassislari shunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda tarjima ishlarini samarali yo'lga qo'yishlari lozim.

Tarjima jarayonida, hoh u badiiy asar tarjimasi bo'lsin, hoh publisistik yoki she'riy matn tarjimasi bo'lsin, tarjimonning til bilish mahorati oshadi, qalami o'tkirlashib so'zlari sayqallashadi. Chunki inson yashar ekan, har kuni yangi narsa o'rganadi, kechagi kunga nazar solib o'zining kamchiliklarini payqaydi. Garchi shunday ekan, amalga oshirgan tarjimalarimiz natijasida o'sha chet tilini yanada mukammalroq o'rganar ekanmiz. Azaldan ustozlarimiz bekorga aytishmagan "ko'p kitob o'qisang, so'z boyliging oshadi" deb.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ushbu kichik tadqiqot ishimizda turk yozuvchisi Haldun Tanerning "Motorli kemachadagi sarguzasht" (Bir motörde dört kişi) nomli hikoyasining tarjimasi va tarjima jarayonida duch kelgan muammoli jihatlarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Avvalo aytish kerakki, ushbu hikoyaning hajmi kichik bo'lsada, asar barcha badiiy vositalar, syujet, kulminatsiya va yechim kabilarni o'z ichiga olgan. Asarda voqealar bayoni juda chiroyli boshlanib, hikoya o'z mazmun mohiyatini ochib bergan holda hotima topadi.

Ma'lumki, Turkiya uch tomonlama dengiz bilan o'ralgan, geografik nuqtai nazardan o'ziga xos davlat hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu geografik xususiyatlar istar-istamas tilda ham o'z aksini topadi, albatta. Misol uchun, dengiz bilan bog'liq so'zlarda turk tilining lug'aviy boyligining ko'pligini alohida e'tirof etmasak bo'lmaydi. Lekin O'zbekistonda dengiz bo'lmaganligi sababli shu sohaga oid so'zlarning qo'llanish doirasi juda ozdir. Masalan, o'zbek tilidagi "kema" so'zining turk tilida bir qancha sinonimlari qo'llaniladi. Ular nafaqat sinonim, balki bajarayotgan vazifasiga ko'ra ham farqlanadi. "Kema" so'zining turk tilidagi muqobili "gemi" so'zi bo'lib, ushbu so'z barcha dengiz transportlarining umumiy nomi bo'lishi bilan bir qatorda, eng katta kema uchun ham qo'llaniladi. Masalan, "titanic" kemasini turk tilida "gemi" deb atash mumkin. "Gemi" ning vazifasi ham insonlarni hamda katta yuklarni tashish hisoblanadi. Endi "vapur" so'ziga to'xtalsak, ushbu so'z ham o'zbek tiliga "kema" deb o'giriladi. Lekin "vapur" ning "gemi" dan farqi uning biroz kichikroqligida va faqat yo'lovchi tashish uchun xizmat qilishidadir. Bundan tashqari, turk tilida "tekne", "motor", "yat" kabi so'zlar mavjud bo'lib, bularning hammasini ham "kema" deb tarjima qilishga majbur bo'lamiz. Bu kabi so'zlar sinonimining yetishmasligi matn tarjimasida tarjimonni biroz chegaralab qo'yadi. Ushbu jarayonni hikoya misolida tahlil qilamiz.

"Dördü de son vapuru kaçırmış, bu uykulu kaptanın istediği beşer lirayı hemen verip motöre atlamışlardı". [3. Haldun Taner. Bütün hikayeleri.- Ankara. Bilgi yayınevi. Üçüncü baskı. 1983. – 140s.]

"To'rttalovi ham oxirgi yo'lovchi kemaga ulgurolmay, uyqusirab yotgan kema kapitaniga besh liradan berib, uni motorli kemachada yo'lga tushishga ko'ndirishgan edi".

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ushbu parchadagi “vapur” so‘zini “yo‘lovchi kema”, “motor” so‘zini esa “motorli kemacha” deya o‘girildi. Vaholangki, ushbu ikki so‘zning vazifalari farqlidir. “Vapur” dengizda avtobus vazifasini bajarib, yo‘lovchilarni manziliga elitsa, “motor” dan esa ko‘pincha baliqchilar foydalanishadi. Hikoyadagi qahramonlar yo‘lovchi kemaga ulgurolmaganliklari uchun motorli kemachaga o‘tirishga majbur bo‘lishgan. O‘zbek tilida ushbu ikki so‘z uchun alohida so‘z bo‘lmaganidan, ularni faqat sifatlariga ko‘ra, ya’ni “yo‘lovchi kema” va “motorli kemacha” deya aniqlashtirib o‘girishga to‘g’ri keldi.

Yana bir parchaga e’tibor qaratamiz: “Güverteyi aydınlatan hüzünlü ampülün ışığında dört kişiydiler” [3,140]. “Kema palubasini yoritib turgan nursiz shamchiroq yorug’ligida to‘rt kishi ketardilar”.

Yuqoridagi “güverte” so‘zi kemaning ochiq qismi, ya’ni ayvonchasini bildirib, rus tilidagi “paluba” so‘ziga to‘g’ri keladi. “Paluba” so‘zi o‘zbek tilida qo‘llansada, uning sof o‘zbekcha muqobilining yo‘qligi tarjimonni biroz qiynaydi. Chunki badiiy asarni o‘zbek tiliga o‘girar ekanmiz, uning har bir parchasini sof o‘zbekcha bo‘lishini hohlaydi kishi. Avvaliga ushbu so‘z “kema ayvonchasi” deya o‘girildi. Lekin bu so‘z birikmasi orqali o‘quvchi darrov palubani tushunishi mushkulroq bo‘lgani sababli, hamda ma’nodan yiroqlashmaslik maqsadida “güverte” so‘zini ruscha atama bilan, yani kema palubasi deya tarjima qilishga qaror qildik. Xuddi shunga o‘xshash bir vaziyat: “Bordoya vuran küçük dalgaların serpintisi ara sıra muşamba şilteleri ıslatıyordu” [3,140].

“Kema bortiga urilayotgan kichik to‘lqinlar yerga to‘shalgan sholchalarni ham ho‘llayotgan edi”.

Yuqoridagi “bordo” so‘zi kemaning bort qismini bildirmoqda. Kemaning bu qismining ham o‘zbekcha nomi yoq afsuski. Parchadagi “muşamba” so‘zi rus tilidagi “linolium” so‘ziga to‘g’ri keladi. Lekin tarjimada ushbu so‘zni o‘zbek tiliga “linolium” deya o‘girmay, “yerga to‘shalgan”, yani kemaning “yer” qismi deya tarjima qilishni afzal deb topdik. Chunki hikoyadagi birgina gapning o‘zidayoq ham “bort”, ham “linolium” kabi ruscha atamalarning qo‘llanilishi, o‘zbek tilini buzib gapirganday fikr tug’dirib, tarjimaning qiymatini tushuradi chamamizda.

Ma’lumki badiiy asar uslubi boshqa uslublardan ancha farq qiladi. Asarlarda qo‘llaniladigan so‘zlar, atama va iboralar kundalik hayotda ko‘p

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ham ishlatilavermaydi. Yozuvchilar har bir so‘zni tarozuda tortib, chertib-chertib ishlatadilar. Bundan tashqari ba’zi sohaga oid so‘zlarning ko‘pini yaxshi bilmaymiz ham. Masalan, chorvadorlikka oid so‘zlarning ko‘pini kundalik hayotda ko‘p ham qo‘llayvermaymiz. Faqat o‘sha soha vakillarigina har bir so‘zning ma’nosini aniq bilishadi. Shu o‘rinda hikoyadagi quyidagi parchaga e’tibor qaratmoqchimiz: “Kasaba gelince o hem fıstık yiyor, hem toptancının yolladığı son faturayı düşünüyordu. “Hadi karamana yüz elli yazdığı neyse ne, fakat dağlıcı ne demeye yüz seksenden hesap ediyor herifçioğlu” [3,140]. “Qassobga kelsak, u yong’oq yeb, ulgurji savdogarning yuborgan fakturasini tahlil qilardi. “Hop mayli, katta yog’li qo‘y uchun bir yuz elli lira yozibdi, lekin duragay qo‘yni qanaqasiga bir yuz saksondan hisoblayapti, u muttaham!”.

Yuqoridagi parchada “karaman” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘zning turk tili izohli lug’atida quyidagicha ochiqlamasi berilgan. “Karaman – O‘rta Onado‘lida yetishtiriladigan, dumi katta bo‘lgan yog’li bir qo‘y turidir”. O‘zbek tilida aynan shu sifatlarga to‘g’ri keladigan qo‘y nomini topa olmadik. Balki soha vakillarining bilishi ehtimoldan holi emasdir, lekin oddiy xalq so‘zlashuv tilida ushbu qo‘y turining nomlanishini bilmaydi. Shuning uchun tarjimada “karaman” so‘zining muqobili sifatida “katta yog’li qo‘y” birikmasini berishga to‘g’ri keldi. Vaholangki, o‘zbek tilida “hisori qo‘y” atamasi ham mavjud. Lekin bu safar ushbu atamaning o‘zbek izohli lug’atida ochiqlamasini topa olmadik. Shu sababli yuqoridagi sifatga to‘g’ri kelish yoki kelmasligi xavotiri bilan, qolaversa, oddiy o‘quvchining osonroq tushunishi niyatida “katta yog’li qo‘y” deya o‘girdik. Yana aynan shu parchada “dağlıç” so‘zi ham keltirilgan bo‘lib, buning turk tili izohli lug’atidagi ma’nosi quyidagicha: “Dağlıç” – jingalak junli qo‘y bilan katta yog’li qo‘yning chatishmasidan tug’ilgan qo‘ydir. O‘zbek tilida ham aynan shu sifatga to‘g’ri keladigan “duragay qo‘y” atamasi mavjud. O‘zbek tilining izohli lug’atida: “Duragay – irsiy belgilari jihatidan o‘zaro farqlanuvchi ikki yoki undan ortiq organizmni chatishtirish, duragaylash yo‘li bilan olingan nasl, chatishma, gibrid”, - deya izohi keltirilgan. Ushbu izohga tayangan holda “dağlıç” so‘zining tarjimasini “duragay qo‘y” deb berdik.

“Milliylik – adabiyotshunoslik muammosi. Biroq bir milliy adabiyotga mansub san’at asarini boshqa tilga tarjima qilganda bu muammo tamomila

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yangilik, “originallik” kasb etadi. Adabiy til, uslub, she’riyat va boshqa juda ko‘p masalalar xususida ham shuni aytish kerak” [4,33]. E.Ochilovning ushbu fikrining davomi sifatida aytish mumkinki, ba’zi asarlarda faqat o‘sha millatgagina xos bo‘lgan so‘zlar, atamalar, taom yoki kiyim kechak nomlari keltiriladi. Bunday so‘zlarni tarjimada berish juda qiyin. Bu kabi so‘zlarni tarjima qilmay “original”ida berib, havolada ochiqlamasi keltirilgan ko‘pgina asarlarga duch kelganmiz. Ushbu tahlil qilayotgan hikoyamizda ham shunga o‘xshash vaziyat mavjud. Hikoya turk adabiy tilida yozilgan bo‘lsada, bir o‘rinda kema kapitanining “qora dengizlilar” shevasida gapirgan nutqi bor. Kapitanning so‘zlarini yozuvchi ataylab, adabiy tilda emas, balki o‘z shevasida beradi. Bu esa hikoyaga o‘zgacha fayz bergan. Chunki qora dengiz hududida yashovchi turklarning shevasi o‘zgacha shiralidir. Lekin bu hududning o‘ziga xos bo‘lgan tilini tarjimada berish imkonsiz, afsuski.

“ – Teprenmeyun be! Ne oliysiniz? Motörü paturacaksınız” “ - To‘pillamang, ey baraka topkurlar, kemani cho‘ktirib yuborasizlar!”.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjima – bu zargarlik ishi kabidir. Tarjimonning mashaqqatli mehnati natijasida zargarlik mahsuloti kabi bebaho asarlar dunyoga keladi. Zero, bu dunyoda har bir narsani ko‘pchilik bilan baham ko‘rishlik eng afzal ishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Саломов G‘ . Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1980.
2. Саломов G‘. Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Haldun Taner. Bütün hikayeleri. – Ankara. Bilgi yayınevi. Üçüncü baskı. 1983.
4. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014.
5. Kayumova, M. (2022). Methodological Commonality in Uzbek and Turkish Drama. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, *9*(3), 230-238.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI TARJIMALARIDA MATAL VA MAQOLLARNING BERILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-305-311

Filol.f.n. **Rustam SHARIPOV**
TDSHU dotsenti, Toshkent. O'zbekiston.
Tel: +998 99 819 51 04;
e-mail: rustamsh@gmail.com
**Kamola RASULOVA,**
TDSHU 2-kurs magistranti,
Tel: +998 93 386 63 05;
E-mail: rasulovakamola0120@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada atoqli o'zbek adibi Oybekning "Navoiy" romani tarjimalarida matal va maqollarning berilishi masalasi, romanning iste'dodli turk tarjimonlari Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida ko'rib chiqiladi.*

**Tayanch so'zlar**: *roman, badiiy tarjima, frazeologizm, maqol, obrazli ko'chma ma'no.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается вопрос придание слов и пословиц в романе выдающегося узбекского писателя Айбека "Наваи" в турецком языке, которая была переведён талантливыми переводчиками Ахсан Ботур и Шуайип Каракаш.*

**Ключевые слова**: *роман, художественный перевод, фразеологизм, пословица, метафорическое значение.*

**Abstract.** *The present article, the issue of giving words and proverbs in the translations of the famous Uzbek writer by Aybek novel "Navoi" in Turkish translations made by talented translators Akhsan Botur and Shuayip Karakash.*

**Key words:** *story, literary translation, phraseological unit, proverb, metaphorical meaning.*

Madaniyatning ajralmas qismi, tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, asrlar osha hayotda sinalib, sayqallanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, xalqning muayyan voqea-hodisa haqida xulosasi, adolatli hukmi mujassam bo'lgan maqollar bebaho ma'naviy boylik sifatida insoniyat tarixining barcha davrlari uchun mutlaq haqiqat, donolikning eng oliy nuqtasi hisoblanadi [1,9].

Bizning xalqimizda qadimdan paydo bo'lgan va u shaklan qisqa, lekin m'anoli otalar so'zi [5,569] sifatida qo'llanilib kelinadi. Tadqiqotimizning

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

asosiy manbaasi hisoblangan ushbu romanda ham bir qancha maqollarni uchratdik. Ulardan ayrimlari gap bilan tarjima qilingan bo‘lsa, ba’zilari asliyatda maqol bo‘lmasada, mutarjim tomonidan maqol bilan o‘girilganligini guvohi bo‘ldik.

Maqol xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri bo‘lgan maqollar ham lingvopoetik vosita sanaladi. Maqol – (arabcha “*qavlun*” (so‘z) fikr aniq, lo‘nda, tugal, mantiqiy izchil, xulosa tarzida bayon qilingan janr. Maqolning turkiy sinonimi “otaso‘z”(ataso‘z)dir. Dastlabki 300 ga yaqin turkiy maqollar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan. Gulxaniyning “Zarbulmasal” kitobida 400 dan ortiq maqol keltirilgan.1980-yillarda O‘R FA Til va adabiyot inistitutida 13000 ga yaqin maqol to‘plab nashr etildi.Alisher Navoiy maqol atamasini “masal” tarzida ishlatgan. Ana shu atama XX asrning birinchi yarmigacha qo‘llangan. O‘zbek tilida bir qancha maqollar to‘plamlari nashr etilgan: “O‘zbekcha otalar so‘zi”(1924), “Maqollar va hikmatli so‘zlar”(1939), “Otalar so‘zi–aqlning ko‘zi”(1947), “O‘zbek xalq maqollari”(1978), “O‘zbek xalq maqollari”(ikki jildlik, 1987-1988). Xalq maqollarini tadqiq etgan va nashrga tayyorlagan olimlardan Hodi Zaripov, G‘ozi Olim, G‘ulom Zafariy, Zubayda Husayinova, Bahodir Sarimsoqov, Asqar Musaqulov va boshqalar. Maqollar va matallar xalqning tarixiy, og‘zaki va yozma ijodi mahsuli hisoblanib, xalqning ko‘p asrlik tajribalari, turmushidagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir.

Madaniyatning ajralmas qismi, tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, asrlar osha hayotda sinalib, sayqallanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan, xalqning muayyan voqea-hodisa haqida xulosasi, adolatli hukmi mujassam bo‘lgan maqollar bebaho ma’naviy boylik sifatida insoniyat tarixining barcha davrlari uchun mutlaq haqiqat, donolikning eng oliy nuqtasi hisoblanadi [1,9].

Misol tariqasida romanda jumla ichida keltirilgan muallif tomonidan juda o‘rinli qo‘llanilgan maqol tarjimasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak:

**Asliyat**: - *Anov uloqchi? – To‘g‘onbek uzoqda o‘t chimtib yurgan oriq echkini ko‘rsatdi.*

- *Bolam u qo‘shniniki…* - *Ishontirishga kirishdi kampir.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

- *Na zarari bor? Tuya ko'rdingmi – yo'q! – Zaharxanda qildi To'g'onbek* [2, 62].

**Ahsan Botur tarjimasi:** - *Ya şu oğlak ne? - Doğanbey uzakta otlamakta olan keçiyi gösterdi.*

-*Balam o komşununki.. - İhtiyar onu inandırmaya çalıştı.*

-*Ne farkeder? Komşu malı ortaklık! - Diye çıkıştı Doğanbey* [3, 54].

**Shuayip Qoraqosh tarjimasi:** *"Peki, ya şu oğlak?" Toganbek uzakta otlayan zayıf bir keçiyi işaret etti. "Balam, o komşunun..." İnandırmaya çalıştı yaşlı kadın.*

*"Ne zararı var? Deve gördün mü, yok!" baktı Toğanbek* [4, 74].

Yuqoridagi "Tuya ko'rdingmi – yo'q" maqolining mazmuni "Hech narsani ko'rmaganlik, bexabarlik" bo'lib, birinchi tarjimonimiz Ahsan Botur mazkur maqolning aynan muqobili bo'lmagani uchun uni quyudagicha: "*Komşu malı ortaklık!*" yani "Qo'shni moli o'rtada"deb tarjima qilgan. Bu tarjima asliyatdagi maqolning o'rnini bosa olmagan va tarjima muallifning fikrini ochib bera olmagan. Ikkinchi tarjimon Shuayip Qoraqosh esa turk mentalitetida bu kabi maqolning o'zi mavjud bo'lmasa-da, so'zma-so'z tarjima qilingan. Bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqol turk kitobxoni uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Bir tilga xos maqol, matal, idiomalarning boshqa tildagi muqobili bilan o'girish yoki so'zma-so'z tarjima qilish ma'qul emasligini uqtirgan G'. Salomov, bunday birliklarni ularning formal tomondangina muvofiq keladigan shakldosh varianti bilan yoki u qanday bo'lsa aynan shunday tarjima qilinsa, xato kelib chiqishi mumkinligini aytadi.

Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib qolganidek, uni badiiy matnda, yani qalam yordamida yoritilayotgan asarda qo'llash masalalari paydo bo'ldi. Chunki asarda berilayotgan timsol yoki voqea-hodisani to'laroq bayon etish uchun albatta maqol va matallarga murojaat qilinadi.

"Agar mendan: "Tilda ham mo'jizalar bo'ladimi?" – deb so'rasalar, men: "Agar bo'lsa, tilning "mo'jizasi" – undagi maqol, matal va idiomalardir", - deb javob qilgan bo'lar edim", - deydi taniqli tarjimashunos olim G'aybulloh as-Salom. Chindan ham, gapning qaymog'i, shirasi, olam-olam ma'no beradigani va, shu bilan birga, lo'ndasi – maqol va matallardir.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Maqol so‘zining ko‘rki, nutqning o‘tkir quroli, xalqning donishmandligidadir. Har bir xalqning tarixi, tafakkuri va ruhiy holatlari maqol, matallarda o‘z ifodasini topadi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy madaniy merosi namoyon bo‘ladi.

Endi e’tiborimizni quyidagi yana bir maqolga qaratmoqchiman:

**Asliyat:** *“Ilm igna bilan quduq qazish” degan qadimgi fikrga hujralarning andozasi yorqin misol bo‘lsin, deb bir zamonlar me’moriy san’atida tolibi ilmlar uchun shu andozani qabul qilgan bo‘lsalar ehtimol…*[2, 7].

**Ahsan Botur tarjimasi:** *Kimbilir , “ilim , iğneyle kuzu kazmaktır” şeklindeki kadim görüşe hücrelerin endâzesine tipik bir örnek olsun diye mimarlar tâlib-i ilimlere ancak bu tip odaları münâsip görmüşlerdi ..* [3, 6].

**Shuayip Qoraqosh tarjimasi:** *“İlim, iğne ile kuyu kazmaktır” şeklindeki eski fikre hücrelerin ölçüsü parlak bir misal olsun, diyerek bir zamanlar mimarlık sanatında talebeler için bu ölçüyü kabul etmiş olmalıdırlar.* [4, 32].

Mazkur maqol turkchaga ikki tarjimon tarafidan ham so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Yuqoridagi milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan maqolning aynan ekvivalenti turkchada mavjud ekanligi tarjimaning yutug‘idir. Maqollar aslida maqol bilan tarjima qilinsa, badiiy matn bo‘yoqdorligini oshiradi. Chunki, maqol uchun asos bo‘lgan so‘z tarjima qilingan chog‘da ham fikr umumiyligida chalg‘ishlar yuzaga keladi.

Maqol, matallarda Vatanni sevish, mehnat qilib yashash g‘oyalari maqol mohiyatida salmoqli hissalar qo‘shib keladi.

Badiiy matn matallarda esa maqollar va matallarda o‘girish jarayoni alohida o’rin egallaydi. Bu yerdan tarjimondan o‘tkir ziyraklik va katta matonat talab qilinadi. Chunki aynan maqol va matallarning tarjimasini to‘liq yoritib berolmaslik badiiy asar mazmuniga putur etkazishi mumkin. To‘g‘ri, har bir maqol va matal ham ma’no, ham shakl, ham xususiyatga ega. Lekin bularga umumiylik masalasi ham ahamiyatlidir. Shuni aytib o‘tish kerakki, ko‘plab maqollarning har xil tillardagi shaklllarida ham shaklan, ham mano jihatidan yoki umumiy bajarayotgan funktsiyalaridan o‘hshashlik topsa bo‘ladi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

"Navoiy" romanida shunday chuqur ma'noga ega maqollar borki, ular xatto xozirgi kunda nutqda ham kam uchraydi. Ulardan biri:

**Asliyat:** - *So'fi so'g'on*[88] *yer, topilsa yo'g'on yer, deganday, endi podshohdan bir nima yulmoqchimisizlar!* [2, 15].

**Ahsan Botur tarjimasi:** - *Súfi soğan yer, bulursa yağlı da yer dedikleri gibi, şimdi siz bu pâdişâhtan bir şeyler koparmak niyetindesiniz!* [3, 12].

**Shuayip Qoraqosh tarjimasi:** *Sofu soğan yemez; bulursa kabuğu nu bile yer, dedikleri gibi şimdi Padişah'tan bir şey mi koparmak istiyorsunuz* [4, 37].

Mazkur maqol xozirda xalq orasida keng qo'llanilmasa-da, lekin o'zining ma'no mazmuniga ega. Romandagi mazkur jumla ham maqol ham o'xshatishga misol bo'ladi. Maqol asliyatda "So'fi piyoz yeydi, topilsa (bo'lsa), bo'kkuncha yeydi" ma'nosida ishlatilgan. Maqolning turkchaga tarjima qilgan Ahsan Botur….. Shuayip Qoraqosh tomonidan o'girilgan mazkur maqol teskari o'girilsa, quyidagi shaklni oladi: So'fi so'g'on yemas, topsa hatto (piyozning) po'stini ham yer, deganday endi podshohdan bir nima yulmoqchimisizlar!

Yuqoridagi ikki mutarjimning tarjimalariga qaraydigan bo'lsak, ikki tarjimon ham maqolning asl ma'nosini tushunmasdan noto'g'ri tarjima qilganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Maqol obektini hamisha saqlash ko'p hollarda go'zalliklarga olib kelsa-da, uni milliy an'anviy birikmalar bilan alishtirishda ham asardagi ma'lum komponentlarni buzib yuborish ehtimoliga olib keladi. To'g'ri, milliy sayqal berish ba'zida samara beradi, asar jozibasini oshirishga imkon yaratadi, bo'yoqdorligini kengaytiradi. Lekin milliy sayqallikni oshirib yuborilishi ba'zi xollarda tarjimani bachkanalashishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, badiiy matn tarjimasida sayqal va bo'yoqdorlik shart va zaruriydir.

Maqollarni tarjimada qo'llash, ular orqali matn badiiy saviyasini oshirish ijodkorga ham, o'quvchiga ham zavq baxsh etadi. Maqollarning asarlarda ishlatilishi asarning qadr qimmatini yanada oshirib beradi.

[88] Сўғон - шв, пиёз (Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикма 260 си. Ж. III. Н-Тартибли/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.-688)

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Tarjimon esa o‘z mehnati natijasini tarjima qilishdan asarning sof va mazmunan boyligida ko‘radi.

Tarjima nazariyasining bir qancha matal, idiomalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish muammosi ham g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologiya masalalari va turli tillarda so‘zlarning har xil birikishiga oid problema, tarjima praktikasi bilan birga, tarjima nazariyasi uchun ham g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Chunki turli tillarda moddiy manosi bir xil bo‘lgan so‘zlarning mano va uslub funktsiyalari bir-biridan tafovut qilishi turli tillarda bunday so‘z birikmalarining farq qilganligi uchun, tarjima praktikasida katta mushkullik tug‘dirib, nazariy jihatdan ham juda katta qiziqish uyg‘otadi.

Maqol, matal va idiomatik iboralar badiiy asarda avtor tilida hamda unda tasvirlangan personajlar nutqida ko‘p uchrashi sababli ular badiiy adabiyot uchun juda harakterlidir. Biroq A.V.Fyodorovning fikricha, nutq vositalarining bu kategoriyasi faqatgina badiiy adabiyotning xususiy mulki bo‘la olmaydi. Chunki frazeologik iboralar publistikada va qisman ilmiy adabiyotlarda ham ishlatiladi. Shuning uchun ularga faqat badiiy adabiyotga taalluqli masala deb emas, balki juda muhim til masalasi deb qaramoq kerak. Tarjimada muallif uslubi va milliy kaloritni aks ettirish, aniq va erkin tarjima tushunchasi, obraz va personajlarning til xususiyatlarini tarjimada berish adekvat badiiy tarjima yaratish va boshqa o‘nlab jumboqlar maqol, matal va idiomatik iboralarni tarjima qilish masalalari bilan chambarchas bog‘liqlir. Ko‘pgina yozuvchi, shoir va olimlarning asarlarida maqol, matal va idiomalarni bir tildan boshqa tarjima qilish muhim va murakkab ish ekanligi alohida takidlab o‘tiladi.

Badiiy asar tilida ifodalangan milliy ruhni aks ettirishda maqollarning roli katta.Maqol, matal va idiomalarni buzib tarjima qilish asar tilini nursizlantiradi. Va uning badiiy qimmatiga putur etkazadi.

**Asliyat:** - *Arzi dodimni kimga aytayin, quloq sol bolam! – muloyimlanib gapirdi kampir.*

-*Ko‘p so‘z eshakka yuk...* [2, 62].

**Ahsan Botur tarjimasi:** - *Derdime kulak sal oğlum, kime anlatayım derdimi sen dinlemezsen! – Diye karşılık verdi ihtiyar yalvarmaklı bir eda ile.* - *Fazla söz eşeğe yük…* [3, 54].

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

**Shuayip Qoraqosh tarjimasi:** *"Ben derdimi kime söyleyeyim, kulak ver, balam!" mülayim bir sesle cevap verdi yaşlı kadın. "Çok söz eşeğe yük...* [4, 74].

Bu o‘zbek xalqi maqoli turk tilida mavjud bo‘lmagani uchun ikki tarjimon ham so‘zma - so‘z tarjima qilgan. Ammo shunday bo‘lsa ham tarjimalar o‘rinli va chiroyli o‘girilgan. Bizda bir qancha maqol, matal va idiomalar turli asarlarda turlicha tarjima qilishda ro‘y berayotgan chalkashliklar tanqid qilinar ekan. Bundan ayni bir frazeologik iborani hamma tarjimonlar muqarrar ravishda uning bir xil shtamp ekvialenti yoki muqobil tarjima qilishlari shart degan xulosa kelib chiqmaydi. Ko‘p tarjimonlar frazeologik birikmalarni aniq ekvialentini topolmay har xillikka yo‘l qo‘ygan chog‘larida ham bari-bir asarni keyingi nashrlarda yoki boshqa asarni tarjima qilganlarida o‘zbek tilidan o‘sha birikmalarni mag‘zini ochadigan muqobil birikmalar topib ishlatishga harakat qilganlar. Bu esa ularning adekvat tarjima yaratish yo‘lida sidqidil mehnat qilganliklarni ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, biz yuqoridagi misollarni yana bir qanchasini keltirishimiz, ikki tarjimaning ijobiy va salbiy tomonlarini ochiqlashimiz mumkin. Bularning barchasi oxir-oqibatda tarjimalarning yutuq va kamchiliklardan xoli emasligini ko‘rsatadi. Ikki mutarjimning goh asliyatga yaqinlashib, goh asliyatdan uzoqlashib qilgan tarjimalari Oybekning “Navoiy” romanini qayta yaratishga harakat qilganliklarini ko‘rsatib turibdi. Tarjimonlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tarjimalarning qimmatini aslo kamaytirmaydi, aksincha bo‘lg‘usi yangidan-yangi tarjimalar uchun faqatgina o‘rnak bo‘ladi xolos.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – T., 2017. – 128 b.
2. Oybek, Navoiy, roman, / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: «Sharq», 2004, – 496 b.
3. Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995. – 447 s.
4. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. – İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. –Т., 2006-2008. –569 b.
6. Shamsieva, B. (2022). The term of transfer in the field translation studies. In развитие науки, технологий, образования в xxi веке: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 99-102).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# YUMORISTIK JANRLAR TARJIMASIDA MENTALLIK

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-312-318

PhD. **Maxfuza ARTIKOVA**
TDSHU katta o‘qituvchisi,
Toshkent,O‘zbekiston
Tel: +99893 5136468;
martikova@gmail.com

**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek hamda ispan mediamakonidagi anekdotlar tarjimasida mentallik masalalari, jumladan urf-odat, an’ana, kundalik turmush tarzining ta’siri, zamonaviy xalqaro jurnalistika sohasida tarjima jarayonining o‘ziga xosligi, tarjimonning jurnalist vazifasini bajarishi, lingvomadaniy muammolari tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *mentallik, jurnalistik matn, lisoniy va madaniy norma, yumoristik janr, OAV tili.*

**Аннотация.** *В статье анализируются вопросы менталитета при переводе анекдотов в узбекских и испанских СМИ, в том числе влияние обычаев, традиций, повседневной жизни, своеобразие переводческого процесса в сфере современной международной журналистики, лингвокультурологические проблемы, и роль переводчика как журналиста.*

**Ключевые слова:** *ментальность, журналистский текст, лингвокультурная норма, юмористический жанр, язык СМИ.*

**Abstract.** *The article analyzes the issues of mentality in the translation of jokes in the Uzbek and Spanish media, including the influence of customs, traditions, life, the originality of the translation process in the field of modern international journalism, linguistic and cultural problems, and the role of the translator as a journalist.*

**Keywords**: *mentality, journalistic text, linguocultural norm, humorous genre, media language.*

Garchi tarjimashunoslikka oid bilimlar doirasida ommaviy axborot vositalari (OAV) tarjimasiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan bo‘lsa-da, jurnalistik tarjima tarjimondan har tomonlama professionallikni talab etishi tayin. Zero, OAV tarjimasi nafaqat tarjimonlik mahoratini, balki jurnalistik ko‘nikmalarni egallashni ham talab etadi.

Ernandes Gerreroning qayd etishicha [1, 159], jurnalistik matn tarjimoni voqea-hodisani jurnalist sifatida anglay olishi bilan bir qatorda

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tarjimonlik ishini ham puxta bajarishi, tarjima qilayotgan matnini siyosiy, ijtimoiy va mentallik xususiyatlarini to‘liq anglab yetishi lozim.

Jurnalistik matnlar muallifning dunyoqarashi, mentaliteti, kommunikativ jarayondagi lisoniy va madaniy normalarini tashish xarakteriga ega. Shu sababdan ham OAV tarjimoni bir vaqtning o‘zida jurnalist ham sanaladi. Xorijiy tildan ona tiliga yoki aksincha tarjima qilish mobaynida tarjimon matn asliyati muallifi, u mansub bo‘lgan millatning o‘y-fikri, tafakkuri, kundalik tashvishlari, milliy o‘ziga xosligini tushunishi zarur bo‘ladi. Yuqoridagi sifatlarni esa yumoristik janrdagi matnlar aks ettiradi.

O‘zbek va ispan mediamakonida umummilliy tarzda qo‘llanadigan hazil-mutoyiba janrlari, jumladan, anekdotlar, parodiyalar, yumoristik tele- hamda radiodasturlar keng auditoriyaga egaligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, biror milliy bayram, sayil hamda yig‘inlar hazil-mutoyibasiz o‘tmaydi. Shunday davralarda aynan qanday latifalardan foydalanilishi, ularning qahramonlari va voqealar rivoji o‘sha millatning milliy o‘ziga xosligi, an’analari, turmush tarzini namoyon etadi. Kulguga boy matnlar ko‘pchilik tomonidan qabul qilinish uchun mo‘ljallangan. Yumorga murojaat qilinganda, albatta, biror mashhur inson yoki voqeaga to‘xtalinadi. Bu kishilarni parodiya qilinganda ham yuz beradi. Kishilarni kuldirish uchun esa hammaga birdek tushunarli voqea yoki obrazlarga ishora qilish kerak bo‘ladi.

Shu ma’noda, G.G. Slыshkin umummilliy ahamiyat kasb etgan hazil-mutoyibalarga, xususan, anekdotlar pretsedentlik xususiyatiga egaligini ta’kidlaydi [3, 56]. Darhaqiqat, aynan yumoristik janr, unda ko‘tarilayotgan muammo, kishilarga bo‘lgan munosabat, hazil ostiga olinayotgan insonning holati, xatti-harakatlari muayyan millatning madaniyati, tarixi, bugungi turmush tarzi va qiziqishlarini aks ettiradi.

Lingvomadaniy axborotni o‘zida jamlagan anekdotlar yirik kognitiv qimmatga ega. Zero, anekdot auditoriya tomonidan yaxshi qabul qilinishi uchun avvalambor unda ilgari surilgan g‘oya, undan anglashiladigan mazmun, anekdotdagi voqea kishilarga yaxshi tanish bo‘lishi darkor.

Fikrimizcha, anekdotlar kishilar kayfiyatini ko‘tarish, ularga xush kayfiyat ulashish maqsadidagina yaratiladi va ijro etiladi, deyilsa, xato bo‘ladi. Zero, mazkur janrga mansub aksariyat asarlarda kulgu ortiga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yashiringan muammo mavjud. Bugungi kunda millionlab latifalar kishilar orasida tarqalib ulgurgan. Ammo ularning hammasidan ham OAVda, keng davralarda foydalanib bo‘lmaydi, oila a’zolariga so‘zlab berilmaydi. Demak, oilaviy davralarda, turli tadbirlarda, do‘stlar davrasida aynan qaysi latifaning aytilishi, ularning qahramonlari kimlar bo‘lishi hamda voqea qay tarzda rivoj topishi va yakunlanishi o‘sha millat vakillarining mentaliteti, dunyoqarashi, an’analari, turmush tarzi, qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shu o‘rinda o‘zbek hamda ispan xalqining latifaga bo‘lgan munosabatiga to‘xtalib o‘tish lozim. Bizningcha, o‘zbek hamda ispan latifalarini solishtirishda latifalar qahramonlari xarakterini qiyoslash bilan ham millat xarakterining ba’zi bir o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish mumkin, chunki aynan latifa qahramonlari xarakterida milliy hamda madaniy o‘ziga xoslik namoyon bo‘ladi. Masalan, latifa qahramonlari Afandi (o‘zbeklarda) hamda Manolo (ispanlarda)ning xarakteri, ular bilan ro‘y beradigan hodisalar, har ikki millatning o‘ziga xos dunyoqarashidan dalolat beradi. Ma’lumki, o‘zbek latifalari qahramoni Nasriddin Afandi (Xo‘ja Nasriddin) – o‘ta zukko, hozirjavob, aqlli, ishbilarmon kishi. Uni aldamoqchi bo‘lganlarni, birovning haqiga xiyonat qilganlarni, xalqqa azob berganlarni boplab adabini beradigan, haqiqatni yoqlaydigan Afandi latifalardagi voqealar davomida o‘zgalarni aldab ketishi va boshqalarni tanqid qilishi, ustidan kulishiga guvohi bo‘lamiz. Masalan, *Afandi Buxoroi sharifga borib o‘qidi. O‘qishni tugatib uyga qaytgach, otasi uning arabchadan olgan bilimini sinab ko‘rish niyatida so‘radi: — Xo‘sh, arablar sovigan oshni nima deb atasharkan? — Arablar sovigan oshni ko‘rishsa, indamay yeyaverishadi. Shuning uchun ham unga nom qo‘yib o‘tirishmagan.*

Ispanlarning Manolosi esa tamomila Afandiga qarama-qarshi xarakterdagi personaj bo‘lib, sodda va go‘lligi sabab aksariyat hollarda noqulay ahvolga tushib qoladi. Manolo o‘zgalarning ustidan kulmaydi, vaziyatdan ustalik bilan chiqib keta olmaydi, aksincha, o‘zi tang ahvolga tushib, kulguga qoladi. Atrofdagilar Manoloni masxaralab keladi. U ham o‘zgalarga qo‘shilib, o‘z ahvolidan zavqlanib kuladi: *Manolo se casó con Pilar. Él no lo sabía, pero Pilar había pasado de mano en mano antes de conocerlo. La noche de bodas estuvieron en el hotel del pueblo. Como los*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*lugareños eran muy chismosos se amontonaron junto a la puerta de la habitación de Manolo y Pilar para oír que pasaba. Lo primero que escucharon fue que Manolo decía: - Ahora voy a besarte como nadie lo ha hecho, Pilar. Afuera se corrió el rumor: - ¡La va a besar! ¡La va a besar! - Ahora voy a abrazarte como nadie lo ha hecho, Pilar. - ¡La va a abrazar! ¡La va a abrazar! - Y ahora voy a hacerte lo que nadie le ha hecho antes, Pilar. - ¡La va a matar! ¡La va a matar!*

Yuqoridagi matnlardan ko‘rinib turibdiki, har ikki mamlakat yumoristik qahramonlari timsolida kishilarning milliy xarakteri, o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘lgan. Shu o‘rinda misol tariqasida televizion tok-shoularni keltirishimiz mumkin. O‘zbek tok-shoularida muammo o‘rtaga tashlanadi va u yuzasidan turli kasb egalari, xolis ekspertlar o‘z tanqidiy fikrlarini bildirishadi. Hazil aralash tanqid qilinadi, ammo hech kim o‘z-o‘zini tanqid qilmaydi, balki o‘zgalarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari kulgu ostiga olinadi.

O‘zbekistonda tok-shouga qahramon sifatida tanlab olingan inson noqulay vaziyatlardan ham ustalik, hozirjavoblik bilan chiqib ketishga harakat qiladi. Biroq Ispaniyadagi tok-shoularda buning aksi. Ispan shoumenlari quyidagi mezonlar asosida tok-shoulari uchun qahramon tanlaydi: qahramonning kuchli bilimga egaligi, shiddatkorligi va eng asosiysi, o‘z-o‘zini tanqid qila olishi, o‘z ustidan kula olishi.

Demakki, Manolo obrazi bu ispan xarakteridan kelib chiqqan hamda ularning tarixiy rivojlanib kelayotgan milliy xarakterining namunasi, desak xato bo‘lmaydi. Shuningdek, latifalarni xalq yaratadi va ularning muallifi anonim. Shu bois ham anekdotlarda ko‘tarilgan muammo, ulardagi fikrlar rivoji, qarashlar xolis bo‘ladi.

Bugungi kunga kelib, o‘zbek mediamatnlarida turli mavzudagi latifalar uchraydi. Ularning aksariyatini oilaviy (er-xotin, qaynona va kelin munosabatlari) mavzular tashkil etadi.

O‘zbek va ispan mediamatnlarini kuzatish natijasida har ikki mamlakat mediamakonida keltiriladigan latifalar mavzularida o‘xshashlik va farqlar kuzatildi. Jumladan, har ikki mamlakat gazetalarida ham ayollarni kulguga olish: “*Ayollar fevralda kam gapirishadi. Chunki fevral eng kalta oy. Erkaklar esa mart oyining boshida ayollarga fevralda kam gapriganliklari uchun sovg‘alar berishadi” (“*Darakchi*”)*; *“..¿En qué se*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*parece una mujer a un perro? – En que a veces parece que te entienden...”* (“AVS”); erkaklarning e’tiborsizligini ko‘rsatuvchi: “*– Xotin, senmisan?! Ha, yaxshi yuribman. Mashina joyidami? Yangilik deysanmi? Mashinaga ikkita fara oldim, motor oldim. – Mashinangiz qursin, bolalarni so‘ramaysiz ham. – Darvoqe, bolalarni mashinaga yaqinlashtirma, bo‘yog‘ini ko‘chirib, chizib tashlashmasin”* (“Darakchi”); *“¿Cómo le ayuda el hombre a la mujer en la cocina? – Levantando a pies que barra”* (“AVS”); er va xotin o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarga doir: “*Er o‘lim to‘shagida yotibdi. Xotin esa uning tepasida turib, ko‘z yosh to‘kmoqda: – Nega meni yolg‘iz tashlab ketyapsiz? Sizsiz qanday yashayman?! Yo‘q, agar ketsangiz, ortingizdan tezda yetib boraman! – Shoshilma, – deya xirilladi er. – Men u yerda biroz nafasimni rostlab olay!”* (“Darakchi”); “*¿En qué parece un hombre a un microondas?.. En que al principio pensas que sirve para todo y al final sólo para calentar”* (“AVS”) kabi mavzulardagi anekdotlar beriladi.

Har ikki mamlakat gazetalaridan o‘rin olgan yumoristik matnlarda har ikki xalqning urf-odatlari, dunyoqarashi va milliy-madaniy o‘ziga xosligi sabab farqli jihatlar ham kuzatildi. Masalan, ispan yumorida uchramaydigan mavzular qatorida qaynona va kelin munosabatlariga doir: “*Qaynotalar nega kelinlariga mehribon bo‘lishlarini bilasizmi? Chunki ikkovlari ham bir odamdan qo‘rqishadi”* (“Mushtum”); xalq orasida tarqalgan irimlarga doir: “*Bugun ishdan qaytayotganimda qora mushuk yo‘limni kesib o‘tdi, keyin birdan qaytib oldingi tomonga o‘tdi. U qarorini o‘zgartirdimikan yoki ta’sirini ikki barobar oshirmoqchi bo‘ldimi?”* (“O‘zAS”); milliy urf-odatni eslatadigan: “*O‘zbek xonadoniga xorijdan mehmon kelibdi. Birpasda palov pishibdi, choy qaynabdi. Dasturxon yozilibdi. Mezbon choy damlab, qaytara boshlabdi: bir, ikki, uch... Keyin choy qaytargan piyolasiga choy quyib o‘zining oldiga qo‘yibdi. Yangi piyolaga choy quyib, og‘aynisiga uzatibdi. Mehmonning afti norozi bujmayibdi. Mezbon so‘rabdi: Og‘ayni, seni xafa qildimmi? -Ha. - Nima qilib? - Axir o‘zingning piyolangni uch marta chayib tashlagan choydan menga quyding–ku!..”* (“Darakchi”).

Ispan gazetalaridagi milliy o‘ziga xos yumoristik matnlar qatoriga millat vakillarining turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqarli voqealarni gavdalantiruvchi: ...“*Está la fiesta a su máximo, y en eso llega Jaimito, se*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*acerca a una chica y le pregunta:- ¿Vas a bailar?- ¡Sí! - le responde la chica con gran entusiasmo.- Buenísimo! Me llevo tu silla entonces"* ("AVS"); Ispaniyaning turli millatga xos bo'lgan xalqlarining kulguga olinishi orqali milliy xarakter kasb etgan: "*¿Por qué en Galicio no hacen cubitos de hielo? – Porque se murió la vieja que sabía la receta"* ("AVS"); "*Estaba un catalán en su casa y le da un ataque cardíaco, avisan a la ambulancia, lo montan en la camilla, lo suben en la ambulancia y de camino el médico le dice a su ayudante: -¡Rápido, póngale la mascarilla! Y el catalán: -¡No, por favor, póngame la más baratilla!" ("*ABC"); "*Un vasco aparece en el Guiness como la persona que ha comido mayor cantidad de huevos seguidos, un periodista le pregunta: -Y como consiguió comer usted tantos huevos seguidos? -Ya ve, a fuerza de pan"* ("AVS").

Har ikki tildagi mediamatnlardagi latifalar tahlili mazkur turdagi matnlarning zamon muammolari, kundalik tashvishlari, qiziqishlarini aks ettirishini ko'rsatdi.

Ta'kidlash kerakki, ba'zi o'zbek gazetalari chop etayotgan latifalar xorijiy ommaviy axborot vositalari (asosan, rus manbalari)dan tarjima qilib beriladi. Shu sababdan ham bu turdagi hajviy matnlar millat turmush tarziga "begonaligi" bilan ajralib qoladi: "*Kuyov shifoxonada o'lim bilan olishib yotgan qaynonasini ko'rib kelibdi va xotiniga o'shqira ketibdi: – Oying otdek sog'lom, erta-indin kasalxonadan chiqadi va biznikida turadi! – Yo'g'-e, do'xtir axir menga "Oyingiz o'ladi", degandi –ku?! – Senga nima deginini bilmadimu, menga "Eng yomon holatga tayyor bo'lib turing", dedi"* ("Darakchi").

O'zbek xalqida azaldan qaynona-kelin munosabatlari hazilga olingan. Bunga sabab esa o'g'il farzandlarning o'z ota va onasi bilan yashashidir. Bunda tabiiyki, kelin va qaynona munosabati yuqori planga chiqadi. Qaynona hamda kuyov munosabatlaridagi ziddiyatlar o'zbek millatiga xos emas.

Ma'lumki, kishilar boshqa bir lingvomadaniyatga mansub odamlar bilan o'zaro nutqiy munosabatga kirishganda o'z madaniyatini tahlil qila boshlaydi. Aynan mana shu paytda turli tushunmovchiliklar, inkor etish hisi paydo bo'ladi [2, 6]. Demak, bu kabi ziddiyatli vaziyatlar ham anekdotlar uchun yaxshi mavzu hisoblanadi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Bu kabi ziddiyatli vaziyatga o‘zbek milliy udumlaridan hisoblangan “choy quyish” haqidagi yoki Ispaniyadagi turli etnik qatlamlarning kulgu ostiga olinishi bilan bog‘liq yuqorida keltirilgan anekdotlar ham misol bo‘la oladi.

Xullas, latifalar zamirida jiddiy lingvomadaniy muammolar yashiringan bo‘lib, ularda hayotiy voqealardan andaza olinadi. O‘zbek va ispan gazetalaridan o‘rin olgan yumoristik janrlar tarjimasida har ikki millat mentaliteti, dunyoqarashi, xarakteri namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek gazetalaridagi hajviy janrdagi matnlarda mutoyibaga tortiluvchining zukko, topqir ekaniga ishora qilinsa, ispan gazetalarida mazkur shaxsning sodda, go‘l, noqulay vaziyatlardan uddaburrolik bilan chiqib ketish xarakteriga ega bo‘lmasligining guvohi bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hernández Guerrero, M. J. La traducción periodística. Cuenca: Ediciones de la Universidad de Castilla-La Mancha, 2005. 159
2. Завьялова К.В. Функционирование прецедентного текста и прецедентного имени: сказка “Золушка” в русской, американской, испанской и венгерской лингвокультурах: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2007.
3. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Академия, 2000.
4. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, “Ҳордиқ”, “Даракчи”, Сўғдиёна”, “ABC”, “El mundo” газеталари.
5. “Муштум” журнали.
6. Artikova, M. (2015). Los problemas culturales de aprender: La lengua española por los estudiantes uzbekos. In La enseñanza del español en el contexto de las artes y la cultura: actas del XLIX Congreso Internacional de la Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE), celebrado en Ávila (España), del 21 al 25 de julio de 2014 (pp. 127-132). Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# UMAR SAYFIDDIN HIKOYALARI TARJIMALARIGA DOIR

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-319-327

**Filol.f.d. Xayrulla HAMIDOV**
TDSHU dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 960-0623;
E-mail: hamidovx@gmail.com
**Afro‘za TOJIYEVA**,
TDSHU magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 946674556;
E-mail: tojiyevaa07029@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada atoqli turk adibi Umar Sayfiddinning turk hikoyachiligida tutgan o‘rni va ahamiyati, xususan adib hikoyalarining o‘zbek tiliga tarjimalari, bunda tarjimonlar erishgan yutuq va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, tarjimalarning badiiy saviyasi xususida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *turk hikoyachiligi, frazeologik birliklar, milliy adabiyot, grammatik shakl, ekvivalent, “Til va tarjima”*

**Аннотация**. *В данной статье речь идет о роли и месте известного турецкого писателя Умара Сайфиддина в турецкой новеллистике, особенно о переводах рассказов писателя на узбекский язык, достижениях узбекских переводов его рассказов и недостатках переводчиков в процессе художественного перевода.*

**Ключевые слова**: *турецкая новеллистика, фразеологические единицы, национальная литература, грамматическая форма, эквивалент, «Язык и перевод».*

**Abstract**. *This article deals with the role and place of the famous Turkish writer Umar Sayfiddin in Turkish short stories, especially the translations of the writer's stories into Uzbek, the achievements of Uzbek translations of his stories and the shortcomings of translators in the process of literary translation.*

**Key words**: *Turkish novelistics, phraseological units, national literature, grammatical form, equivalent, "Language and Translation"*

Har bir xalq, har bir millatning o’ziga xos madaniyati, urf-odatlari, tarixi va shu bilan birga o‘zining milliy adabiyoti bo‘ladi. Adabiyot millat ruhi, uning dardlarini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. Xuddi shunday turk adabiyoti jahonda o‘z o‘rniga ega adabiyotlar sirasiga kiradi. Millatning adabiyotini jahon adabiyoti darajasigacha chiqaradigan narsa yozuvchi va shoirlardir.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Turk adabiyotining zabardast, atoqli, juda oz vaqt ijod qilgan bo‘lsa-da, turk adabiyoti ixlosmandlarining qalbida chuqur joy egallagan yozuvchilardan biri Umar Sayfiddindir. XX asr boshlarida Usmoniylar imperiyasining inqirozga yuz tutib, xalq boshiga behisob kulfatlarning yog‘ilishi yosh yozuvchining ichki dunyosiga qattiq ta’sir ko‘rsatadi va bularni u o‘zining hikoyalarida ham aks ettiradi. Yozuvchi hikoyalarini yozishda ko‘pincha xalq tarixi, milliy madaniyati va Onadolu afsonalaridan keng foydalangan.

Usmoniylar imperiyasidagi ijtimoiy hayot muammolarini dadillik bilan o‘rtaga tashlagan, asarlari jamiyatda turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan buyuk iste’dod sohibi – Umar Sayfiddinning ayrim hikoyalari O‘zbekistonda o‘tgan asrning 70-yillarida jurnallarda e’lon qilingan. Biroq yozuvchi ijodiga bo‘lgan qiziqish 90-yillar oxiri, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi yillarida yanada ortdi. So‘nggi 10-15 yil ichida adibning o‘nlab hikoyalari taniqli tarjimonlar va havaskor ijodkorlar tomonidan ona tilimizga o‘girilib, respublika jurnal va gazetalari, tarjima to‘plamlarida nashr etilib, turk adabiyoti ixlosmandlariga armug‘on etildi. Chunonchi, 2012 yilda adib hikoyalari taniqli tarjimon Boboxon Muhammad Sharif tomonidan o‘zbekchaga ag‘darilib, “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etildi [1]. Ushbu to‘plamga adibning “Tutqun”, “Ont”, “Kamalak”, “Vasiyatnoma”, “Valine’mat”, “Pushti dur to‘n”, “Ajinali ko‘shk”, “Oq yuz”, “Jasorat”, “Chanoqqal’adan so‘ng”, “Xari”, “Do‘stu nodo‘stlarimiz”, “Afro‘z bey”, “Farmon” va boshqa hikoyalari kiritilgan.

Bugungi kunga kelib U.Sayfiddin hikoyalarining salmoqli qismi o‘zbekchaga tarjima qilib bo‘lindi, desa bo‘ladi. Bunda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ijod qilayotgan mutaxassislar va havaskor tarjimonlarning ham hissalari bor [2]. Adib asarlariga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinib institutda tuzilgan yangi to‘plamga uning Turkiyada mashhur bo‘lgan yigirmadan ortiq hikoyasi tarjimasi kiritildi. Hikoyalarning asosiy qismi institutda 2014-2017-yillarda nashr etilgan kam adadli “Bu qadimiy san’at” tarjima maktabi talabalari almanaxi”ning 1-4-sonlarida berib borilgan.

So‘z borayotgan to‘plamdan joy olgan tarjimalarning ayrimlari 2014-2017-yillarda M.Yusuf ijtimoiy fondi qoshidagi “Oltin qalam” gazetasi sahifalarida chop etilib, jahon adabiyoti ixlosmandlari, tarjimashunos

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tadqiqotchilar, tanqidchilar e'tiboriga havola qilindi. Adib hikoyalarining ayrimlari "O'zbekiston" radiokanali to'lqinlari orqali ("Jahon adabiyoti" rukni ostida) 2016-2017-yilda tinglovchilar e'tiboriga ham havola qilindi. Tarjimalarning qayta nashr etilayotgani havaskor ijodkorlar va talabalar ijodi namunalarining respublikamiz miqyosida keng tarqalayotganligidan dalolat beradi.

Millatlar orasida madaniy va ma'naviy aloqa quroli bo'lgan badiiy tarjima vositasida dunyo xalqlarining ma'naviy boyliklari, insonlarning ko'p asrlik orzu-armonlari, g'oya va qarashlari mujassam bo'lgan asarlar o'zga til sohibi bo'lgan xalqlarga etkaziladi, kitobxonlar jahon adabiyotining sara namunalari vositasida dunyo xalqlarining boy madaniyati, milliy an'analari bilan yaqindan tanishadilar.

O'tgan asrning 90-yillari oxiri va 2000-yillardan boshlab adib asarlariga bo'lgan qiziqish shunchalik kuchaydiki, ulardan ayrimlari qayta tarjima qilindi. Masalan, tarixiy, qahramonlik mavzusiga bag'ish-langan, o'ziga xos uslubi, frazeologiyasi bilan ajralib turuvchi *"Pembe incili kaftan" ("Pushti marjonli chakmon")* hikoyasi qisqa davr ichida ketma-ket ikki marta tarjima qilindi. Ushbu asar tarjimon Boboxon Sharif tomonidan *"Pushti dur to'n"* deb, Davronbek Tojialiyev tomonidan *"Qizil durli ko'ylak"* deb o'girildi.

Hikoyaning ilk jumlasi: *"Büyük kubbeli serin Dîvan, bugün daha sakin, daha gölgeliydi"*. Jumla Boboxon Sharif tarjimasida *"Baland qubbali salqin devon bugun yanada sokin, yanada sersoya edi"* deb o'girilgan bo'lsa, D.Tojialiyev uni *"Katta gumbazli devonxona binosi har kungidan sokin, har kungidan salqin edi"* shaklida tarjima qilgan. Birinchi tarjimada *kubbe* so'zi "qubba", dîvan so'zi "devon" deb, D.Tojialiyev tarjimasida – "gumbaz", "devonxona binosi" shaklida sal o'zgartirib berilgan.

Yoki, *"Sadrazamın sağındaki, deminden beri, bir mezar taşı gibi hareketsiz duran, kırmızı tuğlu kavuk yerinden oynadı. Yavaş yavaş sola döndü"* jumlasi birinchi tarjimada *"Sadra'zamning o'ng tomonida halidan beri qabr toshi singari jim-jit, beharakat o'tirgan qirmizi ukparli salla o'rnidan turdi. Astagina chapga yuzlandi"* deb, ikkinchi tarjimada esa *"Vaziri a'zamning o'ng tomonidagi vazirlardan biri bosh kiyimining yunglarini silar ekan, chapga o'girilib..."* shaklida berilgan. Birinchi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tarjimada *sadrazam* (sadri a'zam, ya'ni "bosh vazir") so'zi *"sadra'zam"*, ikkinchisida esa *"vaziri a'zam"* deb o'girilgan. *"Bir mezar taşı gibi hareketsiz duran"* ("bir qabr toshi kabi harakatsiz turgan") birikmasi birinchi tarjimada "*qabr toshi singari jim-jit, beharakat o'tirgan*" shaklida berilgan bo'lsa ("jim-jit" so'zi ortiqchaga o'xshaydi), ikkinchi tarjimada ushbu birikma tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, jumlaning ikkinchi tarjimasi tushunarsiz bo'lib qolgan.

Turk va o'zbek tillarida iboralar asosan bir-biriga o'xshash, ko'pchiligi o'z ekvivalentiga ega. Ammo ayrim iboralarni tarjimada berishda tarjimonlar ibora obrazli asosini o'zgartirishni ma'qul ko'radilar. U.Sayfiddinning "Afro'z bey" asaridan olingan quyidagi parchaga e'tibor beramiz: *Babası nesi var nesi yok, bu kadına bırakmıştı. Lisanı gibi tabiatını da değiştirmeyen bu köylü Çerkez, sineği sıkıp yağını çıkaracak derecede muktesitti* [35-b]. Parchada ikkita ibora qo'llanilgan. Birinchisi, "bor budi", "butun mulki" ma'nosidagi *"nesi var nesi yok"* (so'zma-so'z: *nimasi bor, nimasi yo'q*) iborasi va "o'ta tejamkor", "haddan tashqari hisob-kitobli" ma'nosidagi "*sineği sıkıp yağını çıkaracak*" (so'zma-so'z: "chivinni siqib yog'ini chiqaradigan") iborasidir. Ushbu parchani B.Sharif quyidagicha o'girgan: *Otasi bor-yo'g'ini xotiniga tashlab ketgandi. Tili singari fe'l-atvori ham o'zgarmagan bu qishloqi cherkes ayol oshqovoqni siqib yo'g'ini oladigan darajada ziqna edi* [187]. M.Sharif tarjimasida turkcha iboralar muvaffaqiyatli berilgan. Ayniqsa, ikkinchi ibora o'rniga tushgan. Tilimizda "chivinni siqib yog'ini chiqaradigan" iborasi bo'lmagani uchun tarjimon uning muqobilini topa olgan. Turk tilida "chivindan yog' chiqarib bo'lmagani" singari, o'zbek tilida oshqovoqdan yog' chiqarish qiyinligiga urg'u berilib, kishining o'ta tejamkor, haddan tashqari hisob-kitobli ekani, hatto ziqna, xasisligi obrazli ifodalangan.

"Afro'z bey" asaridan olingan yana bir misolga e'tibor qaratamiz: *Çekirdekten yetişme tam bir Babıali mahsulü olan köse mümeyyiz, sanki hiç bilmiyormuş gibi sordu.* Ma'lumki, har qanday daraxt, nihol yoki qalamchadan o'sib unadi. Ayrim daraxtlar esa urug'dan undiriladi. Urug'dan undirilgan niholning mustahkam, sog'lom daraxtga aylanishi ko'p vaqt, mehnat talab qiladi. Yuqoridagi jumlada qo'llanilgan *çekirdekten yetişme* (urug'dan unib chiqqan) sifat birikmasi insonga nisbatan qo'llanilganda frazeologik ma'no kasb etib uning "sog'lom,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

zuvalasi pishiq” ekanligini, asliyat jumlasidagi *çekirdekten yetişme tam bir Babıali mahsulü* birikmasining ma’nosi “tug‘ma davlat xizmatchisi”, “byurokratlik suyak-suyagiga singib ketgan devonxona xodimi”, “davlat amaldori”, ya’ni “o‘z kasbida uzoq yillar ishlab, tajribasi, mahorati oshib ketgan”, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan ma’mur demakdir. Ana shu asliyat jumlasini tarjimon o‘zbekchaga *Tuxumdan chiqqanidan boshlab hukumat idorasida yetishgan Ko‘sa musahhih, go‘yo hech narsa bilmaydigandek, so‘radi* shaklida o‘girgan. Holbuki, qap borayotgan kishi “*tuxumdan chiqqanidan boshlab hukumat idorasida yetishgan”* emas. Bu yerda muallif kuchli o‘xshatish, mubolag‘a usulini qo‘llagan. Bundan tashqari, *mümeyyiz* degani ham “musahhih” emas, “davlat xizmatchisi”, “devonxona xodimi”, “amaldor” demakdir.

U.Sayfiddinning ko‘pchilik hikoyalari tarixiy, qahramonlik mavzu-lariga bag‘ishlanganining sababi shu ediki, u o‘z asarlarida turk davlatining kuch-qudratini ko‘rsatish, tarixiy shaxslar, qahramonlarni tanitish, ularning yuksak ma’naviy fazilatlarini madh etishni maqsad qilib qo‘ygan edi (“Farmon”, “Afsungar”, “Qizil olma qaerda”, “Badal” hikoyalari). Ularda milliy shuurga quvvat berish, mamlakatning tik-lanishini tezlashtirish orzusi sezilib turadi.

Bundan tashqari voqelikni yanada yorqinroq ko‘rsatish, tashqi dunyo va qahramonlar ruhiyatini uyg‘unlikda tasvirlash bobida yangilik olib kirgan adib o‘z davri dolzarb masalalarini qalamga olgan va jamiyat hayotiga xos ziddiyatlar, murakkabliklarni mahorat bilan ochib bergan. Shu bois uning asarlariga nafaqat Turkiyada, balki dunyoning ko‘p mamlakatlarida ham qiziqish katta va ular xorijiy tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib nashr etilgan.

U.Sayfiddin uslubi turk tadqiqotchilari tomonidan salkam yuz yildan buyon tortishilib kelinadi. Kimdir tanqid qilsa, kimdir uni davrning novator yozuvchisi sifatida yoqlaydi. Bu borada adibning o‘zi shunday degan edi: “Hamma mening uslubimni “ochiq-sochiq” deb tanqid qiladi. Chunki men tabiiy tilni o‘rnak olaman. Tabiiy til deganda nutqda faol qo‘llaniladigan til tushuniladi. Eski nasrga arabcha, forscha va boshqa ajnabiy tarkiblardan o‘zlashib qolgan qovushqoqlik tabiiy tilga yot narsadir. Chunki sof turkchada jumlalar, asosan, qisqa, lo‘nda, salmoqli bo‘ladi. Turklar so‘zlashuvda qisqa jumlalar qo‘llaydilar. Men ana

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

shunday lison qo‘llaganim uchun hammani hayron qoldirdim. Ko‘pchilik mualliflarning asarlarini eski tarkibli, og‘ir uslubda yozilganligi uchun yoqtirishadi. Men esa buni bir kamchilik, nuqson deb bilaman. Bu fikrim bilan haqlimanmi, yo‘qmi, kelajak ko‘rsatadi” [3,11]. Bu so‘zlar adibning o‘zi boshlagan ulkan, mashaqqatli ishning berajagi natijadan qanchalik ishonchi komilligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda adibning “Ko‘richak” nomli hikoyasining boshlanish qismidan olingan bir parchaga e’tibor qaratamiz: *“Kechki ovqatda olxo‘ri kampoti bor edi. Kompot ichida suzib yurgan kichik va sarg‘ish olxo‘rilar shunchalar mazali ediki, shoshib-pishib yer, lekin har birining danagini chiqarishni unutmasdim. Nihoyat kosaning tagida qolgan to‘rt dona olxo‘rini qoshig‘imga solib, og‘zimga olib bordim. Birpasda og‘zimda erib, nordon danaklari tilimning ustida qoldi. Sekingina chiqarib oldimda turgan likopchaga uchtasini tashladim. Holbuki, og‘zimga solgan olxo‘rilar soni to‘rtta edi. Tavba, bilmasdan bir donasini yutib yubordimmi, deb o‘yladim. Yo‘q, yutganimda sezgan bo‘lardim. Yo bo‘lmasa, olxo‘rining bittasi danaksizmidi? Qahvadan ho‘plar ekan o‘ylanib qoldim. Olxo‘ri bo‘ladi-yu, danagi bo‘lmaydimi? Kechasi uxlay olmadim... Hammasi tushunarli, bitta danakni yutib yuborganman...”[4]* Ushbu parchani o‘qigan o‘zbek kitobxoni asarni o‘zbek tilida yozilgan deb o‘ylashi tayin. Asliyatni o‘qigan kishi esa U.Sayfiddinning sodda uslubi, so‘z tanlash mahorati va adibning haqiqatdan ham “yangi lison” vakili ekaniga tan beradi: *“Akşam yemeğinde erik hoşafı vardı. Küçük ve sarı taneler o kadar leziz idi ki… Acele acele yiyor, fakat çekirdeklerini muntazaman çıkarıyordum. En nihayet kâsenin dibinde kalan dört taneye kaşığa doldurdum. Ağzıma birden götürdüm. Hepsi bir lokmada eridi. Kendilerinden daha ekşi ve daha serin olan çekirdekleri dilimin üzerinde kaldı. Yavaşça önümdeki tabağa bıraktım. Bunlar üç çekirdek idi… Hâlbuki ağzıma dört erik tanesi koymuştum. Kendi kendime: “Acaba bir tanesini haberim olmadan yuttum mu?” dedim. Hayır… Bunu mutlaka hissedecektim. O hâlde eriğin birisi çekirdeksizdi! Kahvemi içerken düşündüm, hiç çekirdeksiz erik olur mu? Gece yatakta uyuyamadım ve karar verdim ki, ağzımdan eksik çıkan bu hain çekirdeği ben yutmuşum”[3,124].*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Yangi bir milliy tilni shakllantirmoq lozimligini ta'kidlagan U.Sayfiddin eski tilning xasta, uni tuzatish uchun bir qator choralar ko'rmoq lozimligi, xalq bilmaydigan, ishlatmaydigan arabcha va forscha grammatik qoidalarga, so'zlarga, imkon boricha, o'rin bermaslik zarurligi, adabiy tilda faqat milliy grammatik qoidalar qo'llanilmog'i kerakligini aytadi va bunga o'z ijodida imkon qadar amal qiladi.

U.Sayfiddin hikoyalarining bir qismi bolalik, yoshlik xotiralari, adibning yoshligida eshitganlari asosida yozilgan ("Ont", "Qashlag'ich" va b.). Bu mavzudagi hikoyalarda bolalar hayoti, ular orasidagi do'stlik, sadoqat mavzulari ko'tarib chiqilgan. Tadqiqotda adibning "Ont" nomli hikoyasidan ayrim parchalar tahlilga tortildi. Hikoyaning o'zbek tiliga uch marta, ilk B.Sharif, keyinchalik Z.Hamidova va yaqinda talaba A.Olimjonova tomonidan amalga oshirilgan tarjimalaridan olingan misollarga e'tibor qaratamiz. Misollardan tarjimalarning saviyasini belgilash qiyin emas: *"...ona birçok: «Hayırdır inşallah» dedirtirdim. Ve tabir ederken benim büyük bir adam, büyük bir bey, büyük bir paşa olacağımı, bana kimsenin fenalık yapamayacağını temin ettikçe yalan söylediğimi unutur, ne kadar sevinirdim".* Ushbu jumla birinchi tarjimada *"...unga bir necha bor "inshoolloh, xayrli bo'lsin" deb ayttirardim. Onam aytgan tushimni ta'birlarkan, mening katta odam, ulug' bir general bo'lishimni, hech kim menga yomonlik qilolmasligini aytar, buni eshitib, boshim osmonga yetar, yolg'on so'zlaganimni unutardim"* deb, ikkinchi tarjimada *"Yahshilikka bo'lsin insholloh" degizardim. Onam tushimning ta'birini aytar ekan, mening kelajakda ulug' kishi, buyuk bek, mashhur olim bo'lishimni, menga hech kimning yomonlik qila olmasligini aytib tasalli bergani zamon yolg'on to'qiganimni unutar, qanchalar sevinardim!"* deb, uchinchi tarjimada esa *"U bir necha marotaba "Yaxshilikka bo'lsin, inshoolloh!" deb tushimni yaxshilikka yo'yib, mening kelajakda buyuk odam, buyuk bey, buyuk lashkarboshi bo'lishim, hech kim yomonlik qila olmasligiga meni ishontirishga harakat qilardi. Men ham yolg'on gapirganimni unutar, rosa sevinar edim"* deb berilgan.

Jumlalarni tahlil qilishdan oldin shuni ta'kidlash joizki, o'tmish va o'zi yashagan davr orasidagi farqni yaxshi bilgan zamonaviy yozuvchi o'tmishni jonlantirish yoki uni mavjud davr bilan qiyoslashga urinmaydi, boshqa yozuvchilarga o'xshab o'tmishni sog'inib tushkunlikka berilmaydi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Tarixiy shaxslarni namunali inson modellari sifatida o‘z asarlarida aks ettiradi. Ana shunday ruhda yozilgan kichik bir hikoya o‘zbek tiliga uch marotaba o‘girilgan. Bunga sabab, tarjimonlarning o‘zlaridan oldingi tarjimalardan bexabarliklari bo‘lsa kerak. Jumla tarjimalari tahliliga qaytadigan bo‘lsak, hikoyaning uchala tarjimasi ham talabga javob beradi. Faqat uchinchi tarjimada (A.Olimjonova) bironta so‘z e’tibordan chetda qoldirilmagani, muallif uslubi to‘la saqlanganini ko‘ramiz. Birinchi va ikkinchi tarjimada ayrim grammatik shakllarning *(degizardim)* til me’yorlariga amal qilmasdan qo‘llanilgani, so‘zlarning aniq tarjimasi berilmagani (qarang: *paşa – general, bey – bek, paşa – olim, temin – tasalli*) ko‘zga tashlanadi. Chunki, ***paşa*** degani harbiy boshliq, lashkarboshi, ***bey*** – bey, *temin* – kafolat demakdir.

“...Tarjimon xalqining didi, saviyasi, xarakteri va talabini qat’iy suratda hisobga olgan holda tarjima qilishi lozim” – deb yozgan edi G‘.Salomov o‘zining “Til va tarjima” [5] nomli kitobida. Darhaqiqat, tarjimani o‘qiyotgan kitobxon asarning tarjima ekanligini xayoliga ham keltirmasligi kerak. Buning uchun tarjimon ijodiy mehnat jarayonida asl nusxa nafosatini ifodalovchi so‘zlar, frazeologik birliklar zamirida yashiringan ma’no nozikliklarini mohirona ilg‘ay olishi, ularni ilmiy asosda tahlil qilib, asarning butun murakkabligi bilan o‘z tiliga o‘girishi kerak. Shundagina tarjima milliy adabiyot mulkiga aylana oladi.

Xulosa shuki, XX asr boshi turk adabiyotining yirik vakili, yuzdan ziyod hikoyalari bilan turk tilining soddalashuvi va milliy tilga aylanishida jonbozlik ko‘rsatgan atoqli adib – Umar Sayfiddin qisqa umri davomida o‘zi orzu qilgan durdona asarlarning barchasini yozib tugatishga ulgurmagan bo‘lsa-da, yozgan asarlari bilan vafotidan keyin, mana salkam yuz yildan buyon dunyo klassik adiblari orasida sanalib, nafaqat Turkiyada, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ma’lum va mashhur bo‘lib kelmoqda. Adib asarlarini tarjima qilar ekan, turk va o‘zbek xalqlari turmush tarzlarining qanchalik o‘xshashligi, buning natijasida ko‘pgina mushtarak so‘z va frazeolofik birliklarning yuzaga kelganligi ma’lum bo‘ladi. Asarlar frazeologiyasining o‘zbek tiliga tarjimalarda qayta ifodalanishi, mushtarak, ya’ni bir-biriga to‘la ekvivalent bo‘lgan matal va iboralar asarlarning o‘zbek kitobxoni ongiga asliyatdagi kabi muhrlanishini ta’minlaydi. Bu bilan bog‘liq masalalarning hal etilishi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

o‘zbek tarjimashunosligi oldida turgan vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, turk va o‘zbek xalqlari badiiy tafakkuri, hayot tajribasining asosan o‘xshashligi, shunga qaramay ular orasida ayrim farqli jihatlarning ham borligi aksariyat hollarda millatning ruhi, mentaliteti, turmush-tarzini namoyon qiluvchi frazeologik birliklarni talqin qilishda muammo keltirib chiqarishi tabiiydir. Shunga ko‘ra, asl nusxa va tarjima tilidagi birliklarning o’ziga xosliklarini qiyosiy o‘rganish, ular orasidagi maz-muniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo‘llari va imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Умар Сайфиддин, Бадал. Ҳикоялар. Жаҳон адабиёти хазинасидан. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. – 248 б.
2. Turk adabiyotining sara asarlari. 1-qism. Umar Sayfiddin (hikoyalar). − T., 2017. − 132 б.
3. Seyfettin, Ömer, Bütün Eserleri, Hikâyeler 1. Dergâh Yayınları, İstanbul, Ocak 1999.
4. Sayfiddin Umar, “Ko‘richak”, hikoya, turkchadan H.Asatova tarjimasi, “Bu qadimiy san’at” tarjima maktabi talabalari almanaxi, Toshkent, ToshDShI, 2015, 47-49-b.
5. Саломов Ғ., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.
6. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, *4*(4), 100-112.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ҲАЛДУН ТАНЕР ҲИКОЯЛАРИНИНГ ТАРЖИМАДАГИ ТАЛҚИНИ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-328-335

PhD. **Мехринисо КАЮМОВА**
ТДШУ катта ўқитувчиси,
Тошкент, Ўзбекистон,
Тел: +99899 885 44 18;
kayumovamehriniso@gmail.com

**Аннотация.** *Ҳалдун Танер XX аср турк адабиётининг таниқли намояндаларидан бири бўлиб, у замонавий турк драматургиясининг ривожига улкан ҳисса қўшган ва дунёга танитган ёрқин сиймолардан бири ҳисобланади. Ёзувчининг асарлари ўзбек, рус, инглиз, немис, чех, югослав, қозоқ, озарбайжон ва грузин тилларига таржима қилинган. Мақолада драматургнинг "Изниклик лайлак" номли ҳикоянинг рус ва ўзбек тилидаги таржимаси оригинал матн билан тадқиқ этилиб, бадиий таржимадаги руҳий яқинлик ва услубий муштаракликка алоҳида эътибор қаратилган. Шунингдек, асарларидаги фразеологизмларнинг рус ва ўзбек тилига қилинган таржимаси мисоллар асосида таҳлил қилинган.*

**Калит сўзлар:** *Турк адабиёти, Ҳалдун Танер, бадиий таржима, услубий муштараклик, руҳий яқинлик, фразеологизм, оригинал матн.*

**Аннотация.** *Халдун Танер – один из самых известных деятелей турецкой литературы XX века. Он внес большой вклад в развитие современной турецкой драматургии и представил ее миру. Произведения автора переведены на узбекский, русский, английский, немецкий, чешский, югославский, казахский, азербайджанский и грузинский языки. Рассматриваются русский и узбекский переводы рассказа «Изникский аист» и сопоставляются с оригинальным текстом, подчеркивается их духовная близость и стилистическая общность, в художественном переводе. Также на примерах анализируются русские и узбекские переводы фразеологизмов в произведениях Танера.*

**Ключевые слова:** *турецкая литература, Халдун Танер, художественный перевод, стилистическая общность, духовная близость, фразеология, оригинальный текст.*

**Abstract.** *Khaldun Taner is one of the most famous figures in Turkish literature of the 20th century. He made a great contribution to the development of modern Turkish drama and introduced it to the world. The author's works have been translated into Uzbek, Russian, English, German, Czech, Yugoslav, Kazakh, Azerbaijani and Georgian. Russian and Uzbek translations of the storie "The Stork from Iznik" is considered and compared with the original text, their spiritual*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*closeness and stylistic commonality are emphasized in literary translation. Also, Russian and Uzbek translations of phraseological units in Taner's works are analyzed using examples.*

**Keywords:** *Turkish literature, Khaldun Taner, literary translation, stylistic commonality, spiritual closeness, phraseology, original text.*

Ҳалдун Танер, XX аср турк адабиётининг таниқли намояндаларидан бири бўлиб, у турк драматургиясининг ривожига улкан ҳисса қўшган ва дунёга танитган ёрқин сиймолардан бири ҳисобланади. Мақолада драматургнинг асарлари таржимасининг умумий таҳлили ўрин олган.

Ҳалдун Танер турк адабиётида машҳур ёзувчи ва драматург сифатида тан олинган ижодкорлардан бири ҳисобланади. Хусусан, Ҳалдун Танер драматик асарларида турк инсонининг ички оламинитурли аспектларда ёритишга ҳаракат қилади, инсон ва инсониятга бўлган чуқур севгисини ифодалайди. Шунингдек, жамият, табиат ва ўз ички оламида ўралашиб қолган инсон фожеасини ҳам кўрсатиб беради. Тез ўзгарувчан ва шахс сифатида шаклланаётган характерлар, кекса инсонлар, аёллар, алданган эркаклар, кичик инсонлар, турли касб вакиллари... асарларнинг типик характерларидир.

Ҳалдун Танер асарларида ижтимоий ўзгаришларга ҳам катта аҳамият қаратган. Ижодкор ижтимоий, сиёсий, иқтисодий қонунларга параллел тарзда ўзгарган турк жамиятининг ҳолатини акс эттиради. Ёзувчи бу ўзгаришнинг турк жамиятида юзага келтирган турли салбий ҳолатлари ҳақида маълумот беради. Ғарб маданияти ва санъатининг бундай ўзгариши қандай кечган деган саволга жавоб қидиради ва бу ўзгариш асносида оқсаган жиҳатларни ҳажвий йўл билан танқид қилади. Драмаларида ижтимоий ўзгаришнинг маънавий томонини оғриқли нуқта сифатида акс эттиради. Ҳалдун Танернинг асарларида танқидий қараш муҳим аҳамият касб этади.

1950 йиллар Туркияда сиёсий ва ижтимоий ўзгаришлар оғир кечгани, бунга параллел равишда адабиётда ҳам ўтмиш билан ҳисоблашиш, Ғарб таъсири остида янгиланиш жараёни кузатилади. Ҳалдун Танер асарларида ижтимоий ўзгаришларга ҳам катта аҳамият қаратган. Ижодкор ижтимоий, сиёсий, иқтисодий қонунларга

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

параллел тарзда ўзгарган турк жамиятининг ҳолатини акс эттиради. Ёзувчи бу ўзгаришнинг турк жамиятида юзага келтирган турли салбий ҳолатлари ҳақида маълумот беради. Ғарб маданияти ва санъатининг бундай ўзгариши қандай кечган деган саволга жавоб қидиради ва бу ўзгариш асносида оқсаган жиҳатларни ҳажвий йўл билан танқид қилади. Драмаларида ижтимоий ўзгаришнинг маънавий томонини оғриқли нуқта сифатида акс эттиради.

Ҳалдун Танернинг асарларида танқидий қараш муҳим аҳамият касб этади.

Шунга қарамай, унинг асарларида пессимистик руҳ сезилмайди. Ёзувчи фақатгина тасвирлайди ва аччиқ ҳақиқатни юмор билан юмшатади. “Ҳалдун Танер Туркияда эпик драмаларнинг асосчиси деб баҳоланади”,-деб таъкидлайди М.Карабулут [2; 56].

Танернинг табиат ва табиийлик ҳақида тўхталишининг боиси ҳам севгини табиийлик ва тўғриликдан топганлигидадир. Ёзувчи кичик инсонлар ва кичик ҳаётни танлаши асосида фақат севги ётади. Ўтмишга назар солишида ҳам севги муҳим аҳамиятга эга. Чунки гўзалликларни ва севгини ҳамиша ўтмишдан олади.

Ёзувчининг асарларида макон сифатида, асосан, Истанбул ва Олмония тилга олинади. Шунингдек, Истанбул эски ва янги қиёфаси билан тасвирланиб унга таърифлар келтирилади. Олмония эса бошқача маданият тарзини кўрсатиш учун қаламга олинади. Ёзувчи инсонга ва жамиятга маданий назар орқали ёндашади. Бу учун ёзувчи жуда яхши билган иккита маданиятни қиёслайди. Олмонлар ва турклар ўртасидаги ижод, адабиёт, қийматлар, бегона ишчи, бегоналашиш муаммоларини ҳамиша маконлар воситасида тасвирлайди.

Ҳалдун Танер яшаган даврдаги ижод оқими ва фикрлари доираси чегарасидан ўтиб маҳаллий ёзувчи бўлишга ҳаракат қилади. Глобаллашишга ҳам шу йўл орқали эришиш мумкинлигини билади. Ўзидан олдинги ифодага урғу берган ва халқ оғзаки ижодидан таъсирланган ёзувчилардан ўрнак олади. Аҳмад Митҳат афанди, Эмин Ниҳат анъаналарига боғлиқдек кўринса-да, ҳикояларида сўзлашув ва аския анъаналаридан таъсирланиш жиҳатидан улардан ҳам юқори даражага эришганлиги сезилади. Аҳмад Расим ва Ҳусайн

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Раҳми Гурпинар каби ёзувчиларнинг Истанбул шевасини ҳикояга киритиш амалиётига у яна ҳам маҳорат билан ёндашишга ҳаракат қилади. Иборалардан кенг кўламда фойдаланади, хусусан, монолог ва диалог воситасида ёзган ҳикояларида муваффақиятга эришади.

Ёзувчининг “Яшасин демократия” (1949), “Туш” (1951), “Шишхонага ёмғир ёғарди” (1953), “Ой нуридаги шовқин” (1954), “Ўн иккига бир дақиқа қолди” (1954), “Кўнчиналар” (1967), “Санчонинг тонгги сайрлари” (1969), “Қизил сочли амазонка” (1970), “Соҳилда тонг” (1983) сингари ҳикоя тўпламлари бор. Бу тўпламларнинг барчаси таржима қилинган. Ҳалдун Танер асарлари рус, инглиз, немис, чех, югослав, қозоқ, озарбайжон ва грузин тилларига таржима қилинган. Адибнинг қатор ҳикоялари П.Кенжаева томонидан ўзбек тилига ўгирилган.

Ҳалдун Танер ҳикоялари рус тилига энг кўп уни яқиндан таниган рус адиби Л.Н.Старостов томонидан таржима қилинган бўлиб, улар якка кўринишда илмий журналларда ҳамда алоҳида тўпламлар сифатида эълон қилинган: Танер Халдун “По вечерам в аптеке” (1963) [7;90], “Меч и перо”(1964) [7;25], “Без одной минуты двенадцать”(1965) , “Made in USA”-Любовные письма. Турецкая сатира и юмор(1966), “Дождь на улице Шишхане” (1969) [7;54], “Недотепа” (1969) [7;97], “Рассказы” (1971), “Санчо на утренней прогулке” (1976) [7;185], “Избранное. Новеллы” (1984).

Танер асарлари рус тилига қуйидаги муаллифлар томонидан ҳам таржима қилинган:

Л.Алькаева томонидан “Allegro ma non troppo” [7;38] (асар айни сарлавҳа билан таржима қилинган), “С восьми до девяти” [7;46]; А.Баскаков томонидан “Статуя” [7;31], “Без одной минуты двенадцать” [7;113]; “Аукцион” [7;147], “Нога” [7;123], “Асес” [7;221]; Н.Голубева томонидан “Четверо на катере” [7;35]; Л.Н.Старостов таҳрири остида Н.Пирвердян томонидан “Изникский аист” [7;142] таржима қилинган.

Ҳалдун Танернинг ўнлаб очерклари рус тилига Л.Старостов томонидан таржима қилинган. Лекин адибнинг драмалари рус тилига таржима қилинмаган.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Энг кўп тилга таржима қилинган саҳна асари “Кешанлик Али достони” ҳисобланади. У инглиз,немис, чех, югослав, қозоқ, озарбайжон ва грузин тилларига таржима қилинган. Ҳалдун Танернинг улкан муваффақият қозонган бу саҳна асари йигирмага яқин давлатларда саҳна юзини кўриб, Туркиянинг ўзида 1425 марта ижро этилган. Бу пьеса замонавий эпик театр ва халқ театри ўзаро уйғунлашган янги услубдаги драматик асардир. Ҳалдун Танернинг асарлари “Кешанлик Али достони”дан бошлаб ташвиқот мазмунини касб эта бошлади [1;177].

Асар ўзбек тилига 2021 йилда М.Каюмова томонидан таржима қилинган.

Ҳалдун Танернинг машҳур “İznikli Leylek” (“Изниклик лайлак”) асари ўзбек тилига адабиётшунос олим П.Кенжаева томонидан таржима қилинган бўлиб, мақоламизда уни Н.Пирвердяннинг рус тилига таржимаси билан қиёслаб таҳлил қилишни ўз олдимизга вазифа қилиб қўйдик.

“Изниклик лайлак” асари сюжетига кўра, янги тухумдан ёриб чиққан лайлак боласи ўз онаси томонидан қасддан (учта полапони бўлгани учун отиқча сифатида) инидан тушириб юборилгач, бахтли тасодиф туфайли симга илиниб тирик қолади. Афсуски, лайлак боласи қаноти лат егани туфайли учолмайди. У Изникда одамлар орасида яшаб ўрганиб қолади, лекин ҳар сафар бошқа лайлаклар ёнига учиб келиб, уни чорлаганларида парвоз қилишга қанча уринмасин, уча олмай қолиб кетаверади. Буни кузатаётган Изникка турист сифатида келган одамлар унга ачиниш ва турли мулоҳазалар билан қарайдилар.

Асарда келтирилган фразеологизмларнинг рус ва ўзбек тилига қилинган таржимасини кўриб чиқамиз. Аслиятда шундай берилган:

***Dili biraz kesilip törpülenecek*** *olsa,* ***saksağanın papağandan çok daha güzel konuşacağı*** *rivayet olunu [3;47].*

Русча таржимада юқоридаги гап мазмунига мос равишда қуйидаги иборадан фойдаланилган:

*Говорят, если сороке* ***немного подрезать язык****, то в искусстве красноречия* ***она заткнет за пояс и попугая*** *[7;142].*

Ўзбек тилига қилинган таржима эса қуйидагича:

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

***Тили жиндеккина кесилиб равонлашган*** *бўлса,* ***заҳизғон тўтидан ҳам бийрон гапирадиган бўлади*** *деган гаплар юрарди [4;254].*

Лайлакнинг ташқи кўринишини таърифлар экан, Танер шундай ибораларни қўллайди:

*Zaten hali, tavrı, yürüyüşü, iki üç adımda bir durup düşünüşü, dini bütün bir Müslümandan çok, şüpheci ve kötümser bir filozofu andırıyordu. Bu leyleğin ermişlerle değil, herhalde* ***Voltaire'ler, Schopenhaure'lerle bir akrabalığı olacaktı*** *[3;48].*

Н.Пирвердян бу таърифни рус тилига қуйидагича ўгирган:

*Его вид, манера ходить и, размышляя, останавливаться через два-три шага скорее напоминали во всем сомневающегося философа-пессимиста, нежели мусульманина. Этот* ***аист был похож*** *не на святого, а, пожалуй* ***на последователей Вольтера или Шопенгуэра.*** *[7;143]*

П.Кенжаева ушбу таърифни қуйидаги шаклда таржима қилган:

*Унинг ҳолати, хатти-ҳаракати, юриши, ҳар икки-уч қадамда бир тўхтаб ўйланиб қолиши мукаммал мусулмондан кўра кўпроқ шубҳачи ва бадбин файласуфни эслатади. Бу лайлакнинг авлиёлар билан эмас, нари борса* Волтерлар[89], ***Шопенгауэрлар***[90] ***билан қариндошлиги бўлган*** *бўлса, ажаб эмас [4;255].*

Таржимон Н.Пирвердян лайлакнинг ўзини тутиши, юриш-туришини "Вольтер ёки Шопенгуэр издошларига ўхшайди" деб таржима қилган бўлса, П.Кенжаева уни аслига мувофиқ равишда "*Волтерлар*, Шопенгауэрлар билан қариндошлиги бўлган" дея таржима қилади.

*(Şoför:) "Kanadı kırık da ondan uçamaz* ***fakir****. Yavru iken anası yuvadan atmış* ***buncağızı.****"[3;49]* Жумласининг русча таржимасида лайлакка ачиниш ҳиссини янада кучайтириш учун берилган *"buncağız"*сўзининг таржимаси келтирилмаган:

*"Крыло сломано, вот* ***бедняга*** *и не может подняться в воздух. Давненько, когда птенцом еще был, мать выбросила его из гнезда." [7;145]*

[1] Француз маьрифатпарварларининг энг йирик намояндаси.
[2] Буюк немис файласуфи.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ўзбек тилида ҳам бу сўз жумлада такрорланиш бўлмаслиги учун тушириб қолдирилган. Сабаби, бундан олдинги жумладаги "*fakir*" сўзи ҳам *"buncağız"*сўзига маънодош ҳисобланади:

*"Қаноти синган, шу сабабдан* ***бечора*** *учолмаяпти. Полапонлигида уни онаси уясидан пастга иргитиб юборган." [4;257]*

Яъни аслиятда келтирилган икки сўз ўрнига таржимонлар бир сўзни беришни афзал кўрдилар.

Бадиий таржиманинг қоидаси битта – таржима қилинаётган асарнинг руҳини бериш. Асар шундай таржима қилиниши керакки, ўқувчи уни аслият муаллифи қандай ёзган бўлса, таржимаси ҳам худди шундай ўқилиши керак. Ҳар бир таржима ўз ўқувчисига аслиятни ўқиган китобхонда қолдирганчалик таассурот қолдириши керак. Ҳалдун Танернинг "Изниклик лайлак" асари ўзбек ва рус тилига юқори савияда таржима қилинган бўлиб, таржимонлар аслият руҳини тўлиқ бера олган.

Бадиий таржима ўз мураккаблиги ва мушкуллигига кўра бадиий ижод билан қарийб бир мавқеда туради. Сабаби, муаллиф истеъдоди ва маҳорати маҳсули бўлган бадиий асарни мутаржим бошқа тил воситалари билан аслига мувофиқ қайта яратиши талаб қилинади. Бунинг учун бадиий санъатлар, тасвир воситалари, муаллиф услуби, миллий колорит, персонажлар нутқи, асарнинг грамматик-услубий қурилиши, фразеологизм, шакл ва мазмун бирлиги каби кўпдан-кўп муаммоларни ҳал қилишга тўғри келади.

Маълумки, ҳар қандай таржима муайян даражада ижодий иш ҳисобланади. Бадиий асарлар таржимаси эса алоҳида ёндашувни талаб этиши, маҳорат ва санъаткорликни тақозо қилиши жиҳатидан санъат иқлимидир. Бу масалани ўзбек таржимашунослик фанининг дарғаси Ғайбулла Саломов шундай асослайди:

"Таржима жараёнининг моҳияти асл нусхада акс этган шакл билан мазмуннинг бирлигини, яхлитлигини сақлаш учун бўлак тилдан муқобил воситалар қидириб топишдан иборат. Бундан ташқари, асл нусха мазмунини бошқа тилда беришнинг мавжуд бир нечта имкониятлари орасида энг муқобил ва мувофиқ вариантини танлаш ҳам адекват таржиманинг асосий талабларидан бири ҳисобланади. Ана шу муқобил тил воситаларини қидириб топиш ва

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

мувофиқ вариант танлаш ижодий характерга эга бўлиб, таржима қилувчи киши, яъни таржимондан онгли меҳнатни талаб этади. Бундай таржима санъат жумласига киради” [5;149].

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Ҳалдун Танернинг “Изниклик лайлак” асари ўзбек тилига П.Кенжаева ва рус тилига Н.Пирвердян томонидан улкан маҳорат билан таржима қилинган бўлиб, таржималарда Танерга хос бадиий жозиба, таъсиранлик каби хусусиятлар тўла сақланган ҳолда ўзбек ва рус китобхонига етказиб берилган. Таржимонлар аслиятдаги сифатлаш, ўхшатиш, тасвирий ифода ҳамда ибораларни ўз ўрнига қўя олган; сўзларнинг бадиий, услубий, миллий ва эстетик вазифасини ҳисобга олганлар.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ibrohimova Sh. Turk dramaturgiyasi. TDSHI, 2016.
2. Karabulut M. Edebiyatın Sosyolojik İmkanı Açısından Keşanlı Ali Destanı’nın İncelenmesi, Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2012, Ocak, Sayı 8.
3. Taner, Haldun, On İkiye Bir Var.Ankara: Bilgi Yayınevi, 3.basım, 1988.
4. Елўқ С., Кенжаева П. Кутилмаган меҳмон. Akademnashr, 2011.
5. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. − Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978.
6. Танер Халдун. Рассказы.М.,1971.
7. Халдун Танер. Избранное. Новеллы и публицистика. Пер. с тур. Л.Н.Старостова .М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1984.
8. Kayumova, M. (2022). Methodological Commonality in Uzbek and Turkish Drama. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, *9*(3), 230-238.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAN TARJIMA QILISH VOSITALARINI AVTOMATLASHTIRISH: MUAMMOMI YOKI QULAYLIK?

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-336-346

Filol.f.d. **Zilola Xudaybergenova**,
Bartin universiteti professori, Bartin, Turkiya
Tel: +998 90 174 16 99; e-mail: aloliz74@mail.ru

**Annotatsiya.** *Fan va texnologiyaning jadal rivoji til, adabiyot va tarjimashunoslik sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tarjimashunoslikda ham mashina tarjimasi tushunchasi bilan bir qatorda bu yangi yo‘nalish bilan bog‘liq yutuqlar va muammolar yuzaga keldi. Ushbu maqolada elektron lug‘at va tarjimaning avtomatlashtirilgan ilovalarining foydalari va zararlari o‘zbek va turk tillari misolida bahsga tortiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjima, mashina tarjimasi, elektron lug‘atlar, avtomatlashtirilgan tarjima ilovalari.*

**Аннотация.** *Стремительное развитие науки и техники оказывает непосредственное влияние на область языковедения, литературоведения и переводоведения. В переводоведении, наряду с концепцией машинного перевода, были достижения и проблемы, связанные с этим новым направлением. В данной статье рассматриваются польза и вред электронных словарей и приложений для автоматизированного перевода на примере узбекского и турецкого языков.*

**Ключевые слова:** *перевод, машинный перевод, электронные словари, приложения для автоматического перевода.*

**Abstract.** *The rapid development of science and technology has a direct impact on the field of linguistics, literary criticism and translation studies. In translation studies, along with the concept of machine translation, there were achievements and problems associated with this new direction. This situation creates certain problems, as well as facilitates the work of the person associated with the translation. The article discusses the benefits and harms of electronic dictionaries and applications for automated translation on the example of the Uzbek and Turkish languages.*

**Key words:** *translation, machine translation, electronic dictionaries, applications for automatic translation.*

O‘zbek va turk tillarini biladiganlar yoki o'rganadiganlar ish jarayonida yoki o‘qish paytida ma'lum darajada tarjima qilishlariga to‘g‘ri keladi. Yangi axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida turli xil elektron dasturlar hamda ilovalar

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yaratilmoqda va takomillashtirilmoqda. Bu dasturlar va ilovalarning maqsadi nafaqat professional tarjimonga, balki oddiy foydalanuvchiga ham amaliy yordam berishdan iborat. Kitob shaklidagi lug'atlar o‘rnini elektron lug'atlarga bo‘shatib bermoqda, zamonaviy kompyuter dasturlari xorijiy matn bilan ishlash yoki kerakli ma'lumotlarni chet tiliga tarjima qilish imkonini yaratib bermoqda.

Xo‘sh, elektron lug'at nima? Bu shunchaki nashr etilgan lug'atning zamonaviy qulay qobig'imi yoki leksikografiya rivojlanishining yangi bosqichimi? Kompyuter tarjimasiga ishonish mumkinmi? Elektron tarjimon chet el matnining barcha nozikliklarini qanchalik to'g'ri yetkazishi mumkin? Kompyuter dasturi yordamida istalgan matnni darhol to‘g‘ri va ishonchli tarjima qilish mumkinmi? Xususan, elektron lug‘atlar va elektron tarjima dasturlari yordamida g‘arb va sharq tillaridan tarjima qilishda foydalanish nechog‘liq o‘zini oqlaydi? Bu kabi savollarga javob izlashga harakat qilamiz.

Ma’lumki, tarjima eng muhim ijtimoiy funksiyalardan birini bajaradi va insonlarning tillararo va madaniyatlararo muloqot qilishiga imkon yaratadi. Ya’ni tarjima – bu, chet tilida kommunikativ ekvivalent matn yaratish orqali asl nusxadagi matni mazmunini boshqa tilga o'tkazadigan lingvistik vositachilik turi.

Mashina (kompyuter) tarjimasi tarjimashunoslik sohasida alohida o'rinni egallaydigan, ham tarjimashunoslik, ham kompyuter lingvistikasi sohasi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va ayni paytda texnologik fan. Amaliy tilshunoslikning boshqa ko‘plab tarmoqlari singari tarjimashunoslik fani ham fanlararo fan bo‘lib, ko‘pincha nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, kognitiv fanlar, madaniy antropologiya va mamlakatshunoslik fanlari bilan ham aloqada bo‘ladi[10 : 34].

Kompyuterning paydo bo'lishi tarjimashunoslik faoliyati uchun ham eng foydali yutuq bo'ldi. Matn muharriri, elektron lug‘at, barcha kerakli hujjatlarni kompyuter xotirasida saqlash imkoniyati tarjima jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish va uning sifatini oshirishga yordam berdi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan leksikografiyada yangi tarmoq - kompyuter leksikografiyasi paydo bo'ldi. Kompyuter leksikografiyasini "har xil turdagi va janrdagi kompyuter lug'atlarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari, shuningdek, bu masalalar bilan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bog‘liq muammolarning barchasiga aloqador nazariy va amaliy masalalarni tadqiq etuvchi leksikografiya sohasi"[9 : 42] deb ta'riflash mumkin. Kompyuter lug'ati - bu an'anaviy "kitob" lug'atga mos keladigan elektron ma'lumot manbai [11: 44].

Tarjima qilinadigan matn miqdoriga ko'ra, kompyuterlarning tarjimon dasturlarini ikki turga bo'lish mumkin[12 : 4]:

- elektron lug'atlar
- alohida gaplardan boshlab ma’lum bir hajmdagi ega o‘zaro bog‘langan matnni tarjima qiluvchi elektron tarjima dasturlari.

Quyida biz ushbu turdagi dasturlarni ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda eng mashhur va ehtiyoj seziladigan elektron ilovalardan biri elektron lug'atlardir va kelajakda ham shunday bo'lib qolishi aniq. Zamonaviy hayotning jadal rivojlanishi tilda bevosita aks etmoqda: yangi so'zlar, atamalar va iboralar paydo bo'lmoqda, eski so'zlarning ma'nosi o'zgarmoqda. An'anaviy "kitob" lug'atlar bu o'zgarishlarga “etisha olmayapti”. "Qog'ozdagi" leksikografiyaning asosiy qarama-qarshiliklari quyidagilardan iborat:

1. Lug‘atning hajmi qanchalik katta bo‘lsa, lug‘aviy ma’nolarning tavsifi shunchalik to‘liq bo‘ladi, undan foydalanish shunchalik qiyin bo‘ladi.

2. Lug‘atlarda leksik ma’nolar qanchalik to‘liq va chuqurroq tavsiflansa, bunday lug‘atlar hozirgi lingvistik va madaniy vaziyatga shunchalik kam mos keladi.

Boshqacha qilib aytganda, fundamental “kitob” lug'atlarni yaratishning uzoq sikli lug'at mazmunining dolzarbligini yo'qotishiga olib keladi. O'tgan asrning o'rtalarida lingvistik muhitda shakllangan ko'plab lug'atlar eskirganligini qabul qiish zarur. Ular so'zlarning yangi zamonaviy ma'nolarini ko'rsatmaydi va ko'plab neologizmlar yo'q. Bu baho, ayniqsa, so'zlashuv lug'ati uchun to'g'ri keladi

Ushbu ziddiyatlarni elektron lug'atlar orqali hal qilish mumkin.

Elektron lug'atning yangicha xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Lug‘at maqolasi mazmunini kengaytirilgan holda ko‘rsatish imkoni, shuningdek, turli mezonlar bo‘yicha an’anaviy lug‘atlarda qo‘llanilmaydigan turli xil grafik vositalar yordamida qisman ko‘rsatish imkoniyati.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

2. Turli lingvistik texnologiyalardan foydalanish, masalan, morfologik va sintaktik tahlil qilish, to'liq matnni qidirish, tovushni aniqlash va sintez qilish va boshqalar[11: 48]

Elektron lug'atlar kabi ommaviy dasturiy mahsulotlar versiyalarning tez-tez o'zgarishi va minglab foydalanuvchilarning fikr-mulohazalariga qarab, doimiy yangilanib turishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun kompyuter leksikografiyasi muqarrar ravishda dolzarb leksikografiya hisoblanadi. Elektron lug'atlarni yaratishda nafaqat dasturchilar, balki til mutaxassislari - tilshunoslar va leksikograflar ham ishtirok etadilar. Shu tufayli elektron lug'atda keng qo'llanilgan har bir yangi so'z, ibora yoki frazeologik iboralar, shuningdek, tanish so'z va tushunchalarning yangi ma'nolari kiritiladi.

Matnlarni avtomatik tarjima qilish vazifasi odamlar tomonidan hisoblash qurilmalariga yuklashga harakat qilingan ilk vazifalardan biri bo'lgan[4]. 19-asrning 40-yillari boshlarida, taniqli britaniyalik matematik Charlz Bebbij Britaniya hukumatidan so'zlashuv nutqini avtomatik ravishda tarjima qila oladigan hisoblash mashinasi yaratish bo'yicha tadqiqotini qo'llab-quvvatlashni so'ragan. Biroq, Bebbijning loyihasi prototip bosqichida to'xtab qoldi va uning g'oyalari yuz yil davomida qog‘ozda qoldi.

Boshqa ixtirochilar ham kompyuter asrining boshlanishidan oldin mexanik tarjima qurilmalarini yaratishga harakat qilishgan. Masalan, 1933 yilda rus olimi P.P. Smirnov-Troyanskiy "bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda so'zlarni tanlash va chop etish mashinasi" uchun patent oldi. Bu olimning katta xizmati shundaki, u avtomatik ikki tilli lug'at va tillararo grammatik ekvivalentlar uchun kodlash sxemasini taklif qilgan, ammo bu taklif faqat "sintetik" esperanto tili uchun edi.

Biroq, zamonaviy mashina tarjimasining asosiy tamoyillari faqat 1947 yilda Rokfeller jamg'armasining Tabiiy fanlar bo'limi direktori Uorren Uiver tomonidan yaratilganligi e’tirof etiladi. Matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishni shifrlash texnikasining bir sohasi sifatida ko'rgan Uorren Uiver shunday deb yozgan edi: "Mening ko'zim oldida rus tilida yozilgan matn bor, lekin men uni aslida juda g'alati belgilar bilan kodlangan ingliz tilida yozilgan matn deb tasavvur qilaman. Menga kerak

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bo'lgan narsa – faqatgina matndagi ma'lumotlarni olish uchun kodni buzish."[11 : 38].

1950-yillarning boshlariga kelib, AQSh va Evropada ko'plab tadqiqot guruhlari mashina tarjimasi sohasida ishlay boshlashdi. 1954 yilda IBM tomonidan Jorjtaun universiteti bilan birgalikda ishlab chiqilgan birinchi to'liq dasturiy ta'minotli mashina tarjimasi tizimi - IBM-701 taqdim etildi. Bu voqea tarixga Jorjtaun eksperimenti nomi bilan kirdi [3 : 52].

Bu borada rus tilshunos olimlari I.A.Melchuk va Yu.D.Apresyan (Moskva)ning ETAP lingvistik protsessorini yaratish borasidagi ishlarini alohida ta’kidlash lozim. 1960 yilda Leningraddagi Matematika va mexanika ilmiy-tadqiqot instituti tarkibida mashina tarjimasi uchun eksperimental laboratoriya tashkil etildi, keyinchalik u Leningrad davlat universitetining matematik tilshunoslik laboratoriyasiga aylantirildi[8 : 94].

Yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimlarini yaratish uzoq emasdek tuyuldi. Ushbu tadqiqotlarga katta mablag 'sarflandi, ammo natijalar tez orada investorlarni hafsalasi pir qildi. Texnik cheklovlar olib tashlanganligi sababli, matnni bir tabiiy tildan boshqa tilga tarjima qilish tubdan qayta kodlashga mostirilmagani ma'lum bo'ldi. Aksariyat so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'lganligi sababli, tarjima qilishdagi asosiy qiyinchilik to'g'ri ma'noni tanlashda kuzatildi. Buning uchun odam kontekstdan, hayotiy tajribasidan va atrofidagi dunyo haqidagi bilimlaridan foydalanadi, ularni rasmiylashtirish va kompyuterga yuklab olish deyarli imkonsiz. Natijada, dastlabki mashinali tarjima tizimlari matnlarni sintaktik va semantik yaxlitliksiz so‘zma-so‘z tarjima qilishga moslashtirildi.

1966 yilda AQSh Milliy Fanlar Akademiyasining Tillarni avtomatik qayta ishlash bo'yicha maslahat qo'mitasi mashina tarjimasi istiqbollari haqida juda pessimistik hisobot taqdim etdi. Natijada, bu sohadagi deyarli barcha ishlar 70-yillarning oxirigacha nafaqat AQShda, balki SSSRda va Evropaning aksariyat mamlakatlarida to'xtatildi.

Многие военные термины языка хинди, соответствуют определенным русским терминам. Тем не менее, нельзя не учитывать роль контекста, которая помогает определить, в каком из своих значений употреблен многозначный термин в каждом конкретном случае. К примеру термин सेना – основное значение *армия*, *войска*: थल सेना *сухопутные войска;* कवचित सेना *бронетанковые войска*. Зачастую термин सेना означает *сухопутные войска, армия* как один из видов вооруженных сил или оперативное объединение сухопутных войск, состоящее из нескольких корпусов и дивизий, — *армия*. В этом случае для обозначения оперативного объединения, используют, как правило, термин नियमित सेना *регулярная армия*. Термин может также переводиться как *силы,* например, सशस्त्र सेनाएँ *вооруженные силы;* नौ सेना *военно-морские силы* वायु सेना *военно-воздушные силы,* В качестве препозитивного определения термин означает принадлежность либо к сухопутным войскам सेना मुख्यालय *штаб сухопутных войск,* либо в широком значении *военный*: सेना विभाग *военное управление,* सेना चिकित्सक *военный врач.*

Или же при переводе заимствованного из английского языка термина ‘कोर’ в различных сочетаниях следует обратить внимание на следующее: а) при обозначении войсковых единиц он передается в своем основном значении *корпус*: आर्मी कोर *армейский корпус;* б) при переводе наименований родов войск и служб, как правило, принимаются во внимание традиционные аналогичные названия в русском языке с терминами *войска* или *служба*: अभियंत्रण कोर *инженерные войска,* सिग्नल कोर *войска связи,* सेना आयुध कोर *артиллерийско-техническая*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

*служба,* सेना सेवा कोर *служба тылового обеспечения СВ,* सेना डाक सेवा военно-почтовая служба СВ; в) при отсутствии в русском языке эквивалентных реалий используется термин корпус: सेना चिकित्सा कोर *корпус медицинского обслуживания,* सैन्य पुलिस कोर *корпус военной полиции,* хотя слово *корпус* в последнем случае может опускаться, и переводиться соответственно, как *военная полиция.*

Сокращения имеют большое распространение в военно-технических материалах на языке хинди. Они пишутся двумя способами: отдельно, при помощи точек, и слитно — без точек: एम.बी.टी или же एमबीटी मुख्य यद्धक टैंक основной боевой танк.

Сокращения делятся на две основные группы: а) сокращения, созданные на основе военно-терминологических словосочетаний собственно хинди; б) сокращения, заимствованные из других языков (как правило, английского).

Примерами первой группы служат такие сокращения, как लो.स.से लोक सहायक सेना *Народно-вспомогательная армия,* भा.नौ.पो भारतीय नौ (सैनिक) पोत *боевой корабль Индии.*

Что касается второй группы, в основном они заимствованы из английского языка и широко употребляются начальными буквами или начальными слогами полных наименований. При этом английские буквы воспроизводятся в произношении алфавита английского языка. Зачастую для контекстуального уточнения значения подобного рода сокращений нередко приводится в скобках либо их расшифровка на английском языке, либо (реже) дублетный термин языка хинди: आरटी रेडियो परिक्षण (RT — Radio Tests) *испытание на излучение радиоволн,* आईएनएसएएस भारतीय राष्ट्रीय लघु शस्त्र प्रणाली (INSAS — Indian National Small Arm System) *Индийская национальная система стрелкового оружия.*

Система написания десятичных дробей применяется при обозначении калибров оружия. В хинди и русском написаниях десятичных дробей и целых чисел имеется существенное различие. Десятичные дроби хинди на письме передаются цифрами, расположенными в ряд. Обязательным словом в словосочетании

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

выражающем десятичные *дроби*, является слово दशमलव (*в разговорной речи может заменяться словом* बिन्दु), непосредственно следующее за количественным числительным, обозначающим целое число, например: शून्य दशमलव सात (०.७) — *ноль целых семь десятых* (0,7); तीन दशमलव चार तीन (३.४३) — *три целых сорок три сотых* (3,43).

При обозначении калибров оружия в случае отсутствия целых чисел, ноль перед десятичными знаками может не ставиться, т. е. калибр оружия .30 означает 0,30 дюйма, или в переводе на метрические 7,62 мм. Наряду со словом इंच *дюйма* в языке хинди в качестве знака дюймов используется двойной штрих ″ (кавычки): .४५ इंच или .४५″, иногда используется английская система обозначения калибров орудий по весу снаряда, т.е. не в дюймах или миллиметрах, а в фунтах — पौंड, например, २५ पौंड = 94 мм.

Перевод безэквивалентной лексики, не имеющий эквивалентных соответствий в языке перевода, происходит либо путем калькирования, либо с помощью транслитерации, либо описательным путем. Примерами могут служит следующие термины, такие как: नायक, हवलदार, सूबेदार, ब्रिगेडियर при переводе которых используется метод транслитерации: *наик, хавалдар, субедар, бригадир.* Термин वॉरंट अफ़सर *уорент-офицер* переводится методом транскрибированием, सेकन्ड लेफ़्टिनेन्ट *второй лейтенант* методом дословного перевода.

Перевод слов с помощью калькирования, т.е. образование новых терминов и терминологических словосочетаний путем заимствования лексико-семантических и лексико-синтаксических моделей другого языка и заполнения их морфемами данного языка, например: बहुखंडीय राकेट *многоступенчатая ракета* (बहु- 'много' + खंडीय 'ступенчатый' + रॉकेट ракета – англ. 'multistage rocket'), или а) калькирование английских слов: Militarization – सैनिकीकरण *военизация, милитаризация*, б) устойчивых словосочетаний: आपात स्थिति *чрезвычайное положение*; शीत युद्ध *холодная война*; शांति शक्तियाँ *миротворческие силы*; в) технических, военно-технических словосочетаний: अंतर महाद्वीपीय प्रक्षेपास्त्र *межконтинентальная ракета*, सुदूर नियंत्रण *дистанционное управление*.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Лексическая сочетаемость очень важна при переводе, так как нормы сочетаемости слов отличаются в разных языках. Используемые при переводе с языка хинди на русский и наоборот лексические единицы должны соответствовать нормам сочетаемости, принятым в переводном языке: русский глагол «вводить» в зависимости от сопровождающих его существительных передается в хинди по-разному: *вводить военное положение* – मार्शल लॉ लगाना, *вводить комендантский час* – कर्फ़्यू लगाना.

Следует отметить, что значение «вводить» для многозначного глагола लगाना в хинди-русском словаре не зафиксировано.

В последнее время в военных текстах хинди широкое распространение получил глагол जताना, который употребляется вместо глагола करना: विरोध जताना *протестовать*, दबाव जताना *оказывать давление*: विद्रोहियों पर दबाव जताने के लिए *для оказания давления на повстанцев*. Вместо глагола करना, зачастую используется глагол बनाना, например: किसी को बंधक बनाना *брать кого-либо в заложники*.

В ряде случаев некоторые глаголы необходимо употреблять с существительными, семантика которых в какой-то мере ограничена. Глагол बरतना (употреблять, применять, пускать в дело) – сопровождается строго определенными существительными абстрактной семантики: सख़्ती बरतना проявлять *строгость*, सावधानी बरतना *проявлять осторожность*. Глагол मचाना: तहलका (भगदड) मचाना *поднимать панику*, धूम मचाना *поднимать шум, устраивать беспорядки*, तबाही मचाना *разрушать, производить разрушение*.

При переводе аутентичных текстов необходимо обращаться не только к хинди-русскому словарю, но и к толковым – русско-русскому и словарю хинди-хинди, что дает возможность понять и отразить в переводе различные значения и оттенки значения слова и его употребления. Это особенно важно при выявлении контекстуального значения слова, когда бывает необходимо выявить синонимический ряд лексических единиц, например: परिशुद्धता हथियार, परिशुद्धता निर्देशित हथियार, सटीक हथियार высокоточное оружие.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Таким образом проведенный анализ показал, что военным материалам присущи такие отличительные особенности, как: широкое использование условных обозначений, сокращений, специальной терминологии, которая относится как к военному делу, так и к различным областям техники, используемой в армии; а также четкая манера изложения материала при отсутствии эмоционально окрашенных элементов. Поэтому при переводе аутентичных материалов следует учитывать основные реалии вооруженных сил Индии, национальные особенности, отраженные в соответствующей военной терминологии, характеризующие военный подъязык в целом. Следовательно, военному переводчику предъявляются высокие требования, включающие не только свободное владение родным и иностранным языками и умение точно передать материал перевода, но и безукоризненное знание военной лексики, военного дела и организации армии соответствующих стран.

**Список использованной литературы:**

1. Нелюбин Л.Л. Учебник военного перевода / Л.Л. Нелюбин, А.А. Дормидонтов, А.А. Васильченко. – М.: Воениздат, 1981. С.444.
2. Носонович Е.В. Методическая аутентичность в обучении иностранным языкам // Иностранные языки в школе. 1999. № 1.С. 11–16.
3. Шевченко М.А. Роль профессионального подъязыка в обучении военному переводу/ М.А. Шевченко. А.А. Игнатов, С.К. Гураль//Язык и культура. – М: 2015. – № 4 (32). – С.164-172.
4. MacDonald, M. N. & Badger, R. Dasli, M. (2006). Authenticity, culture and language learning. Language and Intercultural Communication Vol. 6, No. 3&4. Pp 250-26.
5. Morrow K. Authentic Texts in ESP / K. Morrow, S. Holden (Ed.) // English for specific purposes. London: Modern English Publications. 1977. PP. 13–16.
6. सच्चिदानन्द शर्मा और सत्येदेव नारायण शर्मा ‘आधुनीक सैन्य-विज्ञान'। नई दिल्ली, भारत, १९७८।

‘इंडियन मिलटरी रिव्यू’। गुडगाँव, भारत, दिसंबर, २०१९-२०२०।

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# SO‘Z, FIKR, AXBOROT ERKINLIGIGA OID XALQARO-HUQUQIY HUJJATLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMALARI: TARIXI VA TAHLILI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-367-377

**G‘ulom MIRZAEV,**
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi tadqiqotchisi
+998 99 485 55 48 (mobil)
info@nhrc.uz nhrc-matbuot@umail.uz

**Annotatsiya:** *Mustaqillik yillarida O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalar va konvensiyalarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi tarixi haqida muxtasar so‘z yuritilgan. Ushbu xalqaro shartnomalardagi* so‘z, *fikr va axborot erkinligiga doir qoidalarning mazmuni, ahamiyati tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *xalqaro huquq, xalqaro konvensiyalar, tarjima, xalqaro gumanitar huquq, bolalar huquqlari, fikr va axborot erkinligi.*

**Аннотация**. *Кратко рассмотрена история перевода и издания на узбекский язык международных договоров и конвенций, подписанных Узбекистаном в годы независимости. Анализируются содержание положений о свободе слова, мнений и информации в этих договорах.*

**Ключевые слова**: *международное право, международные конвенции, перевод, права детей, свобода мнений и информации.*

**Abstract.** *The history of the translation and publication into Uzbek of international treaties and conventions signed by Uzbekistan during the years of independence is briefly considered. The content of the provisions on freedom of speech, opinion and information in these agreements is analyzed.*

**Keywords**: *international law, international conventions, translation, children's rights, freedom of opinion and information.*

Istiqlol yillarida mamlakatimiz ko‘plab muhim xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga qo‘shildi. Xalqaro huquq va umumbashariy qadriyatlar yurtimizda qonuniy asosda ustuvor maqomga ega bo‘ldi. Shu taxlit mustaqillikning ilk davridanoq adolatli fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini yaratishga jadallik bilan kirishdik. Natijada bugungi kunda inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish masalalari, asosan, BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro paktlar kabi qariyb 80 ta hujjatda o‘z aksini topgan

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bo‘lsa, O‘zbekiston inson huquqlari sohasiga doir 70 dan ziyod ko‘ptomonlama xalqaro shartnomaga qo‘shilgan. O‘zbekiston ana shu xalqaro-huquqiy hujjatlardan aksariyatining rus tilidagi matnini ratifikatsiya qilgan.

Agar rus tili BMTning oltita ishchi tilidan biri ekani inobatga olinsa, o‘z-o‘zidan, bu tabiiydir. Ayni chog‘da, keng qamrovli islohotlar talabi, shuningdek, o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi va shu bois mazkur Konvensiyalar va ularga qo‘shimcha Protokollar ijrosiga aloqador milliy tashkilotlarda o‘zbek tilida ish yuritilayotgani tufayli yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlar tarjimasiga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi natijasi o‘laroq, ana shu hujjatlarning davlat tilidagi matnini yaratish dolzarb hayotiy zaruratga aylandi.

Mamlakatimiz qo‘shilgan xalqaro-huquqiy hujjatlardagi ayrim murakkab norma va atamalarning davlat tilida emasligi joylarda ushbu hujjatlar ijrosida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Yana bir muammo – turli soha mutaxassislari o‘z ma’ruza va maqolalarida ana shu xalqaro-huquqiy hujjatlarga havola qilish asnosida, tegishli normalarni har kim o‘z bilganicha erkin tarjima qilishi oqibatida o‘sha qoidalarga doir turlicha talqinlar ko‘payib bordi.

Shu nuqtai nazardan, akademik Akmal Saidov O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish tashabbusi bilan chiqdi. Tarjima qilganda ham – ruscha matnni shunchaki o‘zbekchalashtirish emas, balki O‘zbekiston qo‘shilgan tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlarning davlat tilidagi asliyatga to‘laqonli mos bo‘lgan rasmiy matnlarini yaratish talabi ilgari surildi.

Tarjimonu muharrir maqomida bu ulkan vazifaning dastlabki ijrochisi bo‘lishdek sharafli va mas’uliyat kaminaning ham zimmasiga yuklandi. Avvalambor, mamlakatimiz ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalar orasida mazmun va hajm jihatdan anchayin keng, tili esa nihoyatda murakkab bo‘lgan Jeneva konvensiyalari va ularga qo‘shimcha Protokollarni o‘zbekchalashtirishga kirishildi.

Bu o‘rinda1949 yil 12 avgustda qabul qilingan to‘rtta:

1) Harakatdagi qurolli kuchlardagi yaradorlar va bemorlarning qismatlarini yengillashtirish to‘g‘risidagi;

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

2) Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidan bo‘lmish yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning qismatlarini yengillashtirish to‘g‘risidagi;

3) Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to‘g‘risidagi;

4) Urush vaqtida fuqaro aholini himoya qilish to‘g‘risidagi Jeneva konvensiyalari;

shuningdek, 1977 yilda imzolangan ikkita qo‘shimcha bayonnoma – Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli I Protokol va Xalqaro bo‘lmagan tusdagi qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli II Protokol haqida gap bormoqda.

Shu tariqa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitalari hamda Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining 2002 yil 3 apreldagi qo‘shma majlisi tavsiyasi asosida **“Xalqaro gumanitar huquq: Jeneva konvensiyalari to‘plami”** o‘zbek tilida nashrdan chiqdi[1].

Akademik A.Saidovning ushbu xalqaro hujjatlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish g‘oyasi yana bir jihatdan asosli bo‘lib chiqdi. Gap shundaki, Jeneva konvensiyalari to‘plamining o‘zbekcha va ruscha matni Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ingliz tilidagi rasmiy matnga solishtirib chiqilganda, hujjatlarning ruscha variantida muayyan noaniqliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi. Birinchi guruh noaniqliklar hujjatlar nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi guruh noaniqliklar hujjatlarda uchraydigan so‘z va iboralar, ayrim atamalarning noto‘g‘ri berilishiga taalluqli. O‘zbek tilidagi tarjima matniga, shuningdek, inglizcha asl matn asosida o‘zbekcha tarjima uchun asos qilib olingan ruscha matnda mavjud bo‘lmagan bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Tabiiyki, buning hisobiga mazkur hujjatlarning davlat tilidagi matnini asliyatga yanada muvofiqlashtirishga erishildi.

O‘z navbatida, 2002 yilda **“O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar”** to‘plami uch qismdan iborat etib tuzildi[2]. Birinchi qismga – BMTning inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalari (10 ta shartnoma); ikkinchi qismga – XMT qabul qilganva insonning mehnat qilish huquqlarini ro‘yobgachiqarishdamuhim

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ahamiyat kasb etadigan xalqaro konvensiyalar (16 ta konvensiya); uchinchi qismga – YuNESKO qabul qilgan 2 ta xalqaro hujjat jamlandi.

To‘plamning o‘zbekcha tarjima matni, albatta, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar ekspertlarining sinchkov nazaridan o‘tkazib olindi. Barcha taklif va tavsiyalar asosida maromiga yetkazilgan to‘plam matni tahrir hay’ati a’zolari tomonidan nashr etish uchun ma’qullandi. Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitalari hamda Normativ-huquqiy atamalar komissiyasining 2002 yil 28 avgustdagi qo‘shma majlisi tavsiyasi asosida nashr etildi.

O‘tgan bir necha oylik nihoyatda qisqa davrda turli sohalarga doir xalqaro-huquqiy hujjatlarni alohida to‘plam holida jamlash, tarjima qilish va nashr etish borasida muayyan tajriba shakllandi. Bu, o‘z navbatida, bevosita bolalar huquq va manfaatlari himoyasini ko‘zda tutuvchi xalqaro-huquqiy hujjatlardan iborat navbatdagi nashr – **“Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar”** to‘plamini tayyorlash imkonini berdi[3].

Ushbu to‘plamdan 5 ta xalqaro-huquqiy hujjat joy olgan. Ya’ni:

1) BMTning 1989 yilgi Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiyasi;

2) BMTning Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (BMTning 1984 yilgi “Pekin qoidalari”);

3) BMTning Balog‘atga yetmagan bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari (BMTning 1988 yilgi “Ar-Riyod dasturiy prinsiplari”);

4) BMTning 1990 yilgi Ozodlikdan mahrum etilgan balog‘atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari;

5) BMTning Qamoqda saqlash bilan bog‘liq bshlmagan choralarga doir minimal standart qoidalari (BMTning 1990 yilgi “Tokio qoidalari”) kabi muhim hujjatlarning davlat tilidagi tarjimalari ilk bor yaxlit kitob holida chop etilgan.

Shu o‘rinda balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid ushbu hujjatlarning ahamiyatini ularda so‘z va fikr erkinligi, ommaviy axborot

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

vositalari va jurnalist faoliyatiga doir tegishli qoidalar mavjudligi nuqtai nazaridan tahlil etib ko‘raylik.

Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiyaning 13-moddasi birinchi bandida qayd etilishicha, “Bola o‘zining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat’i nazar, og‘zaki, yozma yoki bosma shaklda, san’at asari ko‘rinishida yoki bolaning tanloviga ko‘ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o‘z ichiga oladi”[3].

Mazkur moddaning ikkinchi bandida bunday huquqning amalga oshirilishi ba’zi bir cheklashlarga duch kelishi mumkinligi ko‘zda tutilgan. Ayni chog‘da ular faqat qonunda ko‘zda tutilgan cheklashlardan iborat bo‘ladi. Bunday cheklashlar: a) boshqa shaxslarning huquqlari va sha’nini hurmat qilish uchun hamda b) davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini, aholining sog‘lig‘i yoki ma’naviyatini muhofaza qilish uchun zarur.

BMTning Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalarida (ushbu hujjat “Pekin qoidalari” deb ham yuritiladi) balog‘atga yetmagan bolaning maxfiylikka taalluqli huquqini ta’minlash, xususan, bola haqida axborot tarqatish bilan bog‘liq holatlarga va ifoda usullariga jiddiy e’tibor asosida yondashish nechog‘li muhim ekani ta’kidlangan qoidalar mavjud. Zero, yoshlar o‘z obro‘siga yetkazilgan ziyondan ayniqsa qattiq ranjiydi. Obro‘ga ziyon yetkazish masalasi yuzasidan o‘tkazilgan kriminologiya tadqiqotlari natijalari dalolat berishicha, o‘smirlarga nisbatan munosabatda “huquqbuzar” yoki “jinoyatchi” kabi ta’riflarning muntazam ravishda ishlatilishi turli xil salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin ekan.

Shu ma’noda, “Pekin qoidalari”ning 8-qoidasi “Maxfiylikning ta’minlanishi” deb nomlangan. Unda, jumladan, balog‘atga yetmagan bolalarni o‘z ishi haqidagi ma’lumotlarning (masalan, gumondor yoki sudlangan balog‘atga yetmagan huquqbuzar bolalar ismlarining) ommaviy axborot vositalarida chop etilishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlardan himoya qilish muhim ekani ta’kidlandi.

Ushbu qoidaning birinchi bandida: “yosh o‘g‘il yoki qiz bolaga keraksiz oshkoralik tufayli ziyon yetishidan yoxud ular obro‘siga putur yetkazishdan saqlanish uchun balog‘atga yetmagan bolalarning maxfiylikka taalluqli huquqi barcha bosqichlarda hurmat qilinishi zarur”,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

deb uqtiriladi. Mazkur qoidaning ikkinchi bandi yanada qat'iy va aniq ifoda etilgan bo'lib, "Prinsipga ko'ra balog'atga yetmagan huquqbuzar bolaning shaxsini ko'rsatishga sabab bo'ladigan biror-bir axborot chop etilmasligi kerak".

"Pekin qoidalari" talabiga ko'ra shaxs manfaatlari imkon qadar himoya qilinishi va kafolatlanishi lozim. Shu jihatdan 8-qoidada bayon etilgan umumiy me'yorlar 21-qoidada yanada aniqlashtirilgani e'tiborga loyiqdir. "Protokollar" deb ataluvchi ushbu qoidada ish protokollari yoki materiallari bilan bog'liq nizoli manfaatlar, aynan: politsiya, prokuratura organlari va boshqa organlar manfaatlari o'rtasida nazorat qilish funksiyasini va balog'atga yetmagan huquqbuzar bola manfaatlari ijrosini yanada takomillashtirish maqsadidan kelib chiqib, muvozanat o'rnatishga harakat qilinadi.

Masalan, 21-moddaning birinchi bandida: "Balog'atga yetmagan huquqbuzar bolalar ishi materiallari qat'iy ravishda maxfiy saqlanishi zarur va uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas. Bunday materiallarni foydalanish uchun ruxsat etilgan shaxslar doirasi mazkur ishni bevosita o'rganayotgan shaxslar yoki tegishli vakolatga ega boshqa shaxslar bilan cheklangan bo'lishi shart" deb ta'kidlangan.

Albatta, bu yerda qo'llanilgan "Tegishli vakolatga ega boshqa shaxslar" iborasi odatda boshqa shaxslar qatorida tadqiqotchilarni ham anglatishini eslatish joiz. Shu bilan bir qatorda, balog'atga yetmagan huquqbuzar bolalar ishi materiallari katta yoshdagi huquqbuzarlar ishini o'rganish paytida xuddi o'sha huquqbuzar bilan bog'liq bo'lgan keyingi hollarda foydalanilmasligi kerak.

Boshqa bir hujjat – BMTning Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplarida ("Ar-Riyod dasturiy prinsiplari") "Ommaviy axborot vositalari" degan alohida bo'lim ko'zda tutilgan. Bu bo'lim beshta (39,40,41,42 va 43-) prinsipni o'zida qamraydi.

Xususan, 39-prinsipga muvofiq, ommaviy axborot vositalarining o'smirlarni axborotlar va turli milliy va xalqaro manbalar materiallari bilan ta'minlanishi rag'batlantirilishi lozim. 40-prinsipda ommaviy axborot vositalarining yoshlarning jamiyatda tutgan ijobiy rolini yoritishi rag'batlantirilishi lozimligiga ham urg'u beriladi. Ommaviy axborot

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

vositalari orqali jamiyatda yoshlar uchun tegishli xizmatlar va imkoniyatlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarning keng yoyilishi rag'batlantirilishi kerakligi esa 42-prinsipda aks etgan.

"Ar-Riyod dasturiy prinsiplari"da ommaviy axborot vositalarini to'laligicha hamda qisman televidenie va kinematografiyani pornografiya, giyohvandlik va zo'ravonlik bilan bog'liq materiallarni ko'rsatishni kamaytirishi, zo'ravonlik va ekspluatatsiyani salbiy tasvirlashi, shuningdek, bolalar, ayollar va shaxsiy munosabatlarni qadr-qimmatni haqoratlaydigan shaklda ko'rsatishdan ayniqsa ehtiyot bo'lishi va teng huquqlilik prinsiplarini targ'ib etishi uchun rag'batlantirish lozim ekaniga ham e'tibor qaratiladi (42-prinsip).

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 43-prinsipiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari o'zining ulkan ijtimoiy roli va javobgarligini, shuningdek, ko'pincha yoshlarning giyohvand moddalar va spirtli ichimliklar bilan bog'liq suiiste'molliklari haqidagi axborotlarni tarqatish yo'li bilan ko'rsatadigan tegishlicha ta'sir etish imkoniyatini his etish zarur. Ular muvozanatli yondashuvga asoslangan tegishli axborotlarni uzatish yo'li bilan giyohvandlikning oldini olishda o'zining ana shu imkoniyatlarini ishga solish darkor. Barcha bosqichlarda giyohvand moddalarning zarari haqida axborot tarqatish bo'yicha samarali kampaniyalar o'tkazishga ko'maklashish lozim.

BMTning qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga doir minimal standart qoidalarida ("Tokio qoidalari"da) ham – mazkur hujjat maqsad-muddaolaridan kelib chiqqan holda – biz ko'rib chiqayotgan mavzuga aloqador qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, 22-qoidaning birinchi bandida belgilanishicha: "qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarni qo'llash topshirilgan xizmatlar, jinoiy odil sudlov tizimining boshqa organlari, ham hukumatga qarashli, ham nohukumat ijtimoiy taraqqiyot va ta'minot muassasalari o'rtasida sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi, ta'lim va bandlik, shuningdek, ommaviy axborot vositalari sohalarida o'zaro aloqa o'rnatishga ko'maklashish uchun turli darajalarda tegishli mexanizmlar yaratilishi kerak".

Ko'rinib turibdiki, balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlardagi – tavsiflab o'tilgan – qoida va prinsiplardan xabardor bo'lish ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar uchun bir qator

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qulayliklar tug‘diradi. Ya’ni, bola huquqlariga oid xalqaro andazalardan xabardorlik avvalo ushbu me’yorlarga amal qilish, ularni buzmaslik sharti ijobatini ta’minlaydi. O‘z galida, bu boradagi huquqiy xabardorlik bola huquq va manfaatlari himoyasidek o‘ta nozik, ayni chog‘da, muhim mavzuni samarali va oqilona yoritish imkoniyatlarini izchil kengaytiradi.

Bundan tashqari, 2005 yili **“Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo‘yicha hujjatlari”** to‘plami o‘zbek tilida nashr etildi[4]. Ushbu nashr Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va YeXHTning Toshkentdagi Markazi sa’y-harakatlarining natijasidir.

Akademik A.Saidov YeXHTning inson huquqlariga qaratilgan hujjatlarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida duch kelingan qiyinchiliklarga to‘xtalar ekan, xalqaro hujjatlar tilining murakkabligi, o‘zbek tili tabiatiga zid o‘laroq ularda qisqartma so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi, xalqaro atamalarni qo‘llash masalasi, hamma so‘zlar hamma vaqtda ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmasligi kabi o‘ziga xos jihatlarni misollar yordamida ilmiy izohlaydi. Xususan, rus tilidagi “chelovecheskoe izmerenie” so‘z birikmasini tarjima qilishda bir necha variantlar mavjud edi: “insoniy mezon”, “insoniy o‘lchovlar”, “insoniylik mezoni”, “insoniylik mezonlari”. Lekin oxirida mantiqan to‘g‘ri hisoblangan “insoniylik mezonlari” so‘z birikmasida to‘xtaldik, deydi olim.

Darhaqiqat, tilimizda har bir so‘z, so‘z birikmasi, ibora va atamalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Ayonki, birgina “insoniylik mezonlari” so‘z birikmasi zamirida inson huquqlari va asosiy erkinliklarining hurmat qilinishini to‘la ta’minlash, YeXHT ishtirokchi davlatlari kabi qonun ustuvorligi, demokratiya prinsiplarini ta’min etish va shu munosabat bilan bag‘rikenglik muhitini qaror toptirish yuzasidan mamlakatimiz o‘z zimmasiga olgan keng qamrovli majburiyatlar demokratik institutlarni mustahkamlash va himoyalash, shuningdek, YeXHT mintaqasida mujassam topgan.

Bu o‘rinda so‘zlarning har qanday muvaffaqiyatsiz yoxud noto‘g‘ri qo‘llanilishi avvalo ana shunday zalvorli vazifalar miqyosini anglab olishga, teran his etishga xalal bergan, so‘z shakliga singdirilgan mazmun mohiyatiga ziyon yetkazgan bo‘lur edi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Kitob sahifalaridan 1975 yilda Xelsinkida qabul qilingan Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi yakunlovchi hujjati, YeXHK ishtirokchi davlatlari vakillarining 1983 yilgi Madrid uchrashuvi va 1989 yilgi Vena uchrashuvi yakuniy hujjatlari, 1990 yilgi YeXHKning insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiya Kopengagen Kengashi hujjati, Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi kabi o‘ndan ortiq xalqaro hujjat matni joy olgan. To‘plamga Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1996 yilgi Lissabon uchrashuvi hujjati hamda Istanbul uchrashuvi deklaratsiyasi ham kiritilgan.

Bularning barchasi istiqlol yillarida mamlakatimizda inson huquqlari va erkinlari sohasida keng axborot-ma’rifiy faoliyat amalga oshirilayotganidan dalolatdir. O‘tgan davrda inson huquqlari bo‘yicha 130 tadan ziyod asosiy xalqaro-huquqiy xujjat o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Bu jarayon izchil davom etmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xalqaro huquqqa ko‘ra, so‘z erkinligi fundamental huquqlar sirasiga kiradi. Shunga qaramay, so‘z erkinligi mutlaq, absolyut huquq emas. Inson huquqlari sohasida qabul qilingan BMTning – 70 ga yaqin, YuNESKOning – 60 dan ortiq, Yevropa Kengashining – 160 dan ziyod, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining – 30 dan ortiq xalqaro konvensiya, deklaratsiya hamda paktlarida so‘z va fikr erkinligi sohalari ham xalqaro-huquqiy tartibga solingan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani juda muhim. Yanada muhimi, har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylanish uchun astoydil intilmoqda.

2020 yil 22 iyunda **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi**ning qabul qilinishi xalqimiz uchun ulkan ahamiyatga ega tarixiy voqea bo‘ldi. Ushbu strategik hujjatni qabul qilishdan ko‘zlangan bosh maqsad – O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha izchil olib borilayotgan davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab olish.

Milliy strategiyada nazarda tutilgan 14 ta asosiy vazifadan ikkitasi ayni shu mavzudadir. Ya’ni, sakkizinchi va o‘n ikkinchi vazifa “so‘z va

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

fikr erkinligi, ma'lumot olish... sohalarida huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish" hamda "inson huquqlari sohasida axborot-ma'rifiy faoliyatning sifati hamda manzilliligini yaxshilash"dan iborat[5].

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi mazkur vazifalar ijrosi doirasida **"Inson huquqlari kutubxonasi"** turkumida huquqiy adabiyotlar nashr etmoqda. Ushbu nashrlar aholining barcha qatlamlarini qamrab olib, yurtimizning eng chekka hududlarigacha yetib boradi va aholining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

2021 yilda chop etilgan **"So'z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro-huquqiy asoslar"** to'plami ushbu yo'nalishdagi nashrlardan biridir[6]. Mazkur to'plamda bir qator xalqaro va mintqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan 48 ta xalqaro-huquqiy hujjatning so'z, fikr va axborot erkinligiga doir qoidalari jamlangan.

Kitob ommaviy axborot vositalari xodimlari, xalqaro mavzuni yoritadigan jurnalistlar va ushbu soha faoliyati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun foydalidir. To'plamning o'ziga xos xususiyatlariga muxtasar to'xtalamiz.

**Birinchidan,** to'plamning birinchi bobida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO va Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalaridagi so'z, fikr va axborot erkinligiga doir normalardan namunalar keltirilgan.

Uchta muhim xalqaro-huquqiy hujjat – Raqamli texnologiyalar davrida fikrni ifoda etish va saylovlar erkinligi to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, Xalqaro raddiya huquqi to'g'risidagi konvensiya hamda Mustaqil va plyuralistik Afrika matbuotini qo'llab-quvvatlash to'g'risida Vindxuk deklaratsiyasi esa to'liq holda va ilk bor o'zbek tilida chop etilmoqda.

**Ikkinchidan,** to'plamning ikkinchi bobida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Kengashi, Amerika davlatlari tashkiloti, Afrika davlatlari tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mintaqaviy hujjatlarining so'z, fikr va axborot erkinligi bilan bog'liq normalari taqdim etilgan.

Bunda Yevropa Kengashining Fikrni ifodalash va axborot erkinligi to'g'risidagi deklaratsiyasi, Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi, Inson va xalqlar huquqlari to'g'risidagi Afrika xartiyasi,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

shuningdek MDHning Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi konvensiyasidagi so‘z, fikr va axborot erkinligiga doir normalar kitobxon e’tiboriga havola qilingan.

**Uchinchidan,** to‘plamning uchinchi bobida nohukumat yo‘nalishdagi xalqaro anjumanlar va nodavlat tashkilotlar qabul qilgan so‘z, fikr va axborot erkinligiga taalluqli xalqaro-huquqiy hujjatlar jamlangan.

Ayniqsa, Iogannersburg prinsiplari, Sofiya Deklaratsiyasi, Talluar Deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar, bir tomondan, fikrni ifodalash va axborot erkinligi borasidagi muhim qoidalari bilan mashhur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ushbu hujjatlarning matni birinchi marta o‘zbek kitobxoniga davlat tilida taqdim etilayotgani ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xalqaro gumanitar huquq: Jeneva konvensiyalari to‘plami / Kirish so‘zi muallifi va mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: “Adolat”, 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalar / Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: “Adolat”, 2002.
3. Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar / Kirish so‘zi muallifi va mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2002.
4. Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: “Adolat”, 2002.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // https://lex.uz/docs/4872355/
6. So‘z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro-huquqiy asoslar. Huquqshunos-jurnalistlar uchun qo‘llanma//Tuzuvchi G‘.Mirzo; so‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021.
7. Sharipov, R., & Hasanova, S. (2021). The ideological basis of the jadidist movement. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(1), 265-270.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# JURNALISTIK MATN TAHRIRI: TIL VA MAHORAT

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-378-384

Filol.f.d. **Dilfuza TESHABAEVA**,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998 (90) 907 72 74);
(dilfuza_bonu@mail.ru
Filol.f.n. **Mukaddas ISRAIL**,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
Toshkent, O‘zbekiston.
+998 (90) 905 20 84);
(israil19mukaddas@gmail.com

**Annotatsiya.** *Jurnalistik matnning kommunikativ funksiyasi muharrirdan adresat bilan aloqa o‘rnatuvchi usullar hamda filologik bilim asosida muharrirning ijtimoiy muloqot tizimidagi rolini anglash imkonini beradi. OAVdagi muharrirning ijodiy mehnatning jamoaviyligi, har bir jurnalist uchun zarur kasbiy malakalar hamda lingvistik bilimlar borasidagi mahorati uning o‘z tahriri borasidagi shahsiy fazilatlarni talab qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *media tili, tahrir mahorati, jurnalistika, mediamatn, publitsistik uslub.*

**Аннотация.** *Коммуникативная функция журналистского текста даёт возможность редактору осознать его роль в системе социальной коммуникatsiи на основе способов установления коммуникatsiи с адресатом, также филологических знаний. Коллективность творческого труда редактора в СМИ, профессиональные навыки, необходимые для каждого журналиста, мастерство использования лингвистических знаний требует личностных качеств в области редактирования.*

**Ключевые слова:** *язык медиа, мастерство редактирования, журналистика, медиатекст, публицистический стиль.*

**Abstract.** *The communicative function of a journalistic text enables the editor to realize his role in the system of social communication based on the ways of establishing communication with the addressee and philological knowledge. The collectivity of the creative work of the editor in the media, the professional skills necessary for each journalist, as well as the mastery of the use of linguistic knowledge requires personal qualities in the field of editing.*

**Keywords**: *media language, editing skills, journalism, media text, journalistic style.*

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Ommaviy axborot va targ‘ibot vositalari ijtimoiy ongni shakllantirish va aks ettirishning muhim quroli hisoblanadi. Mamlakatda bir iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardan boshqasiga o‘tish, jamiyatimiz barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirish, kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati tomon borish inson huquqlari to‘liq kafolatlangan demokratik tuzumni barpo etish borasidagi davlat siyosatini keng targ‘ib qilishda ularning xizmati beqiyosdir. Ular hokimiyat idoralarining keng xalq ommasi bilan bog‘lovchi vazifasini o‘taydi, adabiy tilning rivojiga ulkan hissa qo‘shadi, mazmuni, bayoni bilan publitsistik uslubni uning rang-barang leksik, frazeologik, grammatik va uslubiy qirralarini yaqqol namoyon etuvchi soha hisoblanadi.

Adabiy tahrir – maqsadi va tabiatiga ko‘ra boshqa amaliy filologik bilimlar sohasi qatoridan o‘rin olgan yosh amaliy fanlardan biri hisoblanadi. U ham mazkur sohaga oid boshqa fanlar kabi an’anaviy tarzda, ya’ni matn bilan xususiy usullar orqali muayyan vaziyat va amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq tarzda ishlash, mazkur ishlash usullarini tizimlashtirish va ilmiy anglash asosida shakllanib kelgan. Jurnalist yozish san’atini, mazkur san’at namunalarini, nazariyasini sinchiklab o‘rganib, o‘z fikr va niyatlarini chiqishlari matnlariga tatbiq etib, butun hayoti davomida o‘rganib boradi. Shu bilan birga, har bir jurnalistning faoliyatida boshqa mualiflar tomonidan bitilgan turli materiallar bilan ishlash, ya’ni muharrirlik ishi ham asosiy o‘rin egallaydi.

Nashr sohasidagi «tahrir» tushunchasining turlicha talqini mavjud. Tahrir ishi deganda, avvalo, ijtimoiy-adabiy va mafkuraviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat nashriyot, matbuot, radioeshittirish va teleko‘rsatuv organlari bilan bog‘liqdir.

Tahrir arabcha - xarrara: qutqarmoq, ozod qilmoq ma’no ifodasini beradi. Nashr sohasidagi «tahrir» tushunchasining turlicha talqini mavjud. Tahrir ishi deganda, avvalo, ijtimoiy-adabiy va mafkuraviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat nashriyot, matbuot, radioeshittirish va teleko‘rsatuv organlari bilan bog‘liqdir.

Adabiy tahrirni qisqacha g‘oyalar, tushunchalar, muallif fikrlarini asoslovchi ishonarli dalillarni yanada aniqroq so‘zlar, ifodalar orqali yetkazish uchun olib boriladigan izlanishlar jarayoni, deb atash mumkin.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Muharrir kasbi azaldan o‘z an’analariga ega bo‘lgan, zero dastlab tahrirlash, muharrirlik matnni adabiy qayta ishlash zaylida olib borilgan.

Adabiy muharrir nashrga tayyorlangan materialning mazmuni va adabiy tuzilishiga javob beradi. Bu muallif bilan ishlashda muharrir, birinchi navbatda, publikatsiya mavzusining tanlanishiga e’tiborni qaratishi kerak. Bunda muharrir tomonidan materialning baholanishida uning mavzusining dolzarbligi, ishonchliligi va aniqligi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Til va uslub tahlili, umuman aytganda, adabiy tahrir amaliy uslubiyat bilan bog‘liq. Bunday tahlil ega va kesimning to‘g‘ri joylashtirilishi, ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘rni va hokazolarnigina nazarda tutmaydi, balki, agar maxsus qo‘llash taqozo etilmasa, bir xil so‘zlardan yoki o‘zakdosh so‘zlardan takror foydalanish maqbul emasligini, tildagi tasviriy vositalar, garchi ular nutqning jozibadorligini oshirsa-da, ko‘plab ishlatishlik salbiy natija berishini va bermasligini o‘rgatadi. Muharrir adabiy tahrir va amaliy uslubiyat tufayli ega - kesim mosligi, qanday hollarda bir so‘zni takror qo‘llash mumkin yoki o‘rinli ekanligini, jumla tuzish qoidalari hamda me’yorlarini bilib oladi.

Adabiy tahrir til me’rlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tahrir jarayonida nutqiy xatoliklar tipologiyasi mavjud. Xatoliklar tipologiyasi adabiy til me’yorlarini (fonetik, leksik, orfografik, stilistik va h.k.) o‘z ichiga oladi. Nutqning to‘g‘riligi bu – jurnalist va o‘quvchining o‘zaro anglashuvini ta’minlovchi asosiy kommunikativ xususiyatdir. Zero, to‘g‘ri nutq bu nutqning kommunikativ sifatlariga to‘la amal qilishdir.

Jurnalist nutq faoliyati davomida ko‘zlangan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun nutqning kommunikativ sifatlariga amal qilishi, o‘z nutqini aniq, to‘g‘ri, mantiqiy, o‘rinli qura olishi va uning sofligini ta’minlashi lozim. Tahrir ijodiy jarayon bo‘lib, muxarrirdan nutqiy mahorat va adabiy til me’yorlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab qiladi.

Xatolar va ularning turlariga oid tadqiqotlarda ularning turlicha tasniflash hollari kuzatildi. Nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish, ya’ni so‘z yasash, so‘z o‘zgartirish, so‘z birikmalari va gaplardagi to‘g‘ri grammatik bog‘lanishlarning buzilishi grammatik xatolar sifatida tan olinadi. Nutqiy xatolar, grammatik xatolardan farqli o‘laroq, til

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

birliklarining tarkibi yoki tuzilishida emas, balki ularni qo‘llashda, aniqroq aytganda, ko‘proq to‘g‘ri tuzilgan so‘z va so‘z birikmalarini noto‘g‘ri, noo‘rin, nojo‘ya qo‘llashda kuzatiladi.

Endi tahririyat faoliyati tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz. Tahririyat faoliyati – bu nashrlar matnlarining majmuaviy tekshiruvlarini qamrab oladi, ya’ni: matnning tushunarliligi, mantiqiyligi, dolzarbligi, samaradorligi, aniqligi va tekshirilish nuqtai nazaridan nashr yoki OAV konsepsiyasiga uslubiy va mafkuraviy muvofiqligi nuqtai nazaridan nashr etish uchun tayyorlanadigan harakatlar majmuasidir. Amalda har bir muharrir nashr qilish, dastur uslubi, tahrir qilish usuli hamda o‘z g‘oyalariga tayanib ish ko‘radi. Ta’kidlash joizki, sotsiologlarning fikricha, tahririyat va jurnalistlar o‘rtasida ko‘pincha paradoks holat yuzaga keladi: jurnalist va tahririyatning g‘oyaviy qarashlari bir-biridan keskin farq qiladi [1, 165]. Bu ko‘proq xodimlarning tahririyat ish faoliyati bilan aniq tanishmaganliklaridan kelib chiqadi. Bunda jurnalistlar asosan gazeta va jurnal sonlarini tanlov asosida o‘qib, e’lon qilingan maqolalarning natijalari bilan yaxshi tanishmaydi. Shuning uchun tahrirlash usulida eng asosiy e’tibor davriy tuzatishni talab qiladi.

OAVda nashr etish uchun mo‘ljallangan matnlarni tahrir qilish eng avval janr nuqtai nazaridan tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Matbuot janrlarning tipologiyasiga ko‘ra u an’anaviy uch yo‘nalishni qamrab oladi: axborot, tahliliy, badiiy-publitsistik. So‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra an’anaviy gazeta janrlari klassifikatsiyasi tubdan o‘zgardi [2,49]. Biroq, jurnalistik matnlarni tahrir qilishda ko‘proq standart yondashuv, an’anaviy janrlarga mos keladi. Har qanday matnning tipologik xususiyati bu matnning kategoriya toifasidan kelib chiqib, o‘zida mantiqiy bog‘liqlikni aks ettiradi [3, 17]. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, matn quyida berilgan toifalarga bo‘linadi:

1. Matn ketma-ketligi tamoyiliga ko‘ra til birliklari, unsurlardan tashkil topgan chiziqli kategoriya.
2. Umumiy semantika va matn funksiyalariga bilan birlashtirilgan turli xil lisoniy til birliklari bilan boyitilgan, shuningdek til tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi matn maydoni kategoriyasi.
3. Hajm kategoriyasi – matnning butun mohiyati muallif xohish-istaklarini to‘liq aks ettiradi. Matnni tahlil qilishdagi bunday yondashuv

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tabiatan lingvistikadan sintaktik-kompozitsiyaviy darajagacha bo‘lgan barcha darajalarni qamrab oladi [4, 81]. Ammo fikrimizcha, jurnalistik materialni tahlil qilishda, uning funksional yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratib, matnning kommunikativ maqsadini aniqlashtirish kerak. Matn tarkibidagi til birliklarining funksiyalari va yo‘naltirilgan maqsadi kommunikativ birlik sifatida matnning keyingi vazifalariga erishishdagi ikkinchi yo‘nalishdir. Bunda uning janrga mos kelishini hisobga olish zarur.

Til vositalarini tanlashda shaklning murakkabligi bilan baholanib, bu janrlar o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishiga olib keladi. Fikrimizcha, ushbu holatdagi janrga bo‘lgan qarash matn tahlilini o‘zgartirmaydi. Matn tahriri ustida ishlashga tayyorlanish algoritmi quyidagicha ifodalanishi mumkin: ma’lumotlar sababi →janr tanlash →funksiyani aniqlash →maqsadni aniqlash →ma’lumotni qidirish va tekshirish →matn ustida ishlash.

Muallifning pozitsiyasi minimal shakldan matnning asosiga qadar o‘zgarishi mumkin. Muallifning jurnalistikadagi roli xilma-xil: korrespondent va muxbirdan to feletondagi niqobli komik shaxsgacha. Reportajdan tashqari barcha axboriy janrda muallif pozitsiyasining aks etishi voqelikdagi haqiqat omilini tanlash va unga voqea maqomini berish bilan cheklanadi.

Odatda, matnda muallifning fikri va bahosi mavjud bo‘lmaydi, chunki jurnalistning asosiy maqsadi tinglovchilarga tezkor, aniq va ob’ektiv ma’lumotlarni berish va xabardor qilishdir. Tahliliy matnlarda jurnalistning nuqtai nazari nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri muallifning o‘zinikigina emas, balki manfaatdor tomonlarning dalillarini tanlashda ham namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, barcha tahliliy janrlar ichida tahliliy yozishmalar janrdagi matn eng ob’ektiv shakl bo‘lib, bu muallifning mavqeiga bog‘liq bo‘lmaydi, chunki muallif emas, balki voqea yoki hodisaning mantig‘i talab etiladi. Bu, ehtimol, muammo emas, balki hodisaga asoslangan yagona tahliliy janrdir [7, 467]. Albatta u ijtimoiy hodisa yoki mavjud muammolar haqida xabar beradigan va boshqa bir-biriga bog‘liq o‘zaro mutanosib hodisalarni ko‘rib chiqadi. Qolaversa, tahliliy janrdagi matnlarni tayyorlashda maqolaga qaraganda ancha kam vaqt sarflanadi. Axborot bazasi ham qat’iy tartibga solinadi: agar axborotni

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yozishda axborot agentligining nomi kifoya qilsa, tahliliy korrespondensiyada uning manzili, ma'lumotlarning aniq manbalari topilishi lozim. Axborotni yig'ish usullari janr nuqtai nazaridan qat'iy farq qiladi.

Muharrir matnda ma'lumot to'plash usullarining to'g'ri bajarilishini kuzatishi kerak. Masalan, hujjatlardagi vakolatli shaxslarning unsurlari tahlil qilishning ma'lum bir atributlari bilan aks ettiriladi: "*mutaxassislar fikriga ko'ra...*"; "*so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra*" va boshqalar. Jurnalist kuzatuvlari natijalari turli xil va darajadagi matnlarning ifodalanish usuli: kirish, kiritilgan sintaktik tuzilmalar, baholovchi leksika, frazeologik ifoda usullari va h.k.da ifodalanadi.

Shubhasiz, har qanday matndagi ma'lumotlar bazasi har tomonlama tugal bo'lishi kerak. Mantiqiy g'aliz matnlarga kelsak, ular shartli ravishda kontekstual va assotsiativ bog'langanligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, jurnalist nutq faoliyati davomida ko'zlangan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun nutqning kommunikativ sifatlariga amal qilishi, o'z nutqini aniq, to'g'ri, mantiqiy, o'rinli qura olishi va uning sofligini ta'minlashi lozim. Tahrir ijodiy jarayon bo'lib, muharrirdan nutqiy mahorat va adabiy til me'yorlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Социология журналистики. // Под ред. С.Г. Корконосенко. – СПб.: Аспект-Пресс, 2004.
2. Коньков В.И. Речевая структура газетных жанров : учебное пособие. – СПб. :Роза мира, 2004.
3. Ванников Ю.В. К обоснованию общей типологии текстов, функционирующих в сфере научно-технического перевода. // Текст как объект лингвистического анализа и перевода. – М., 1984.
4. Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий. – Свердловск, 1990.
5. Накорякова К.М. Литературное редактирование материалов массовой информации. – М.: МГУ, 1994.
6. Тертычный А.А. Аналитическая журналистика: познавательно-психологический подход. – М.: Аспект Пресс, 2005.
7. Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И., Тошмухамедова Л.И., Нуритдинова М.Ч. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва таҳрир. – Т.: O'zbekiston, 2019.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

8. Artikova, M. (2015). Los problemas culturales de aprender: La lengua española por los estudiantes uzbekos. In *La enseñanza del español en el contexto de las artes y la cultura: actas del XLIX Congreso Internacional de la Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE), celebrado en Ávila (España), del 21 al 25 de julio de 2014* (pp. 127-132). Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE).

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# MILLIY DAVLATCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYANING AHAMIYATI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-385-392

Filol.f.n. **Muhabbat SALIYEVA**
TDSHU dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel. +998 97 714 24 90. muhabbat2962@mail.ru.

**Annotatsiya.** *Maqolada Davlat boshqaruvida zamonaviy bosqichdagi ommaviy kommunikatsiya tizimi rivojlanib borayotgan bir davrda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy jihatlarni keng targ‘ib etish, shu qadar jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlashuv darajasi, nihoyatda murakkab va serqirra jarayonga daxldor muammolarni o‘rganish tadqiq qilish va tegishli xulosalar chiqarishga bag‘ishlanadi.*

**Kalit so‘zlar.** *Davlat, siyosat, kommunikatsiya, administratsiya, huquq, jamiyat, qadriyatlar, kafolat, huquq, tafakkur, tamoyil.*

**Аннотация.** *Статья посвящена исследованию проблем, связанных с развитием системы массовых коммуникаций современного этапа государственного управления, широкой пропагандой общественно-политических, экономических и духовных аспектов, уровнем серьезное значение, чрезвычайно сложный и сложный процесс, и сделать соответствующие выводы.*

**Ключевые слова.** *Государство, политика, общение, управление, право, общество, ценности, гарантия, право, мышление, принцип.*

**Abstract.** *The article is devoted to the study of problems associated with the development of the mass communication system of the modern stage of public administration, the widespread promotion of socio-political, economic and spiritual aspects, the level of serious importance, an extremely complex and complex process, and draw the appropriate conclusions.*

**Keywords**. *State, politics, communication, management, law, society, values, guarantee, right, thinking, principle.*

Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish tamoyillari, jamiyat boshqaruvida, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish masalalari huquqiy, ommaviy kommunikatsiyaning bir shakli sifatida rivojlanib boryapti. Bugungi davr talabiga xos davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy vazifalari xalq forovonligi yo‘lida, davlatning tinchligi, osoyishtaligi hamda obodligi, kishilarning yangi hayotga bo‘lgan qiziqishlarining ortib borishining asosiy omili bo‘lmoqda. Shu o‘rinda davlat va jamiyat in‘ikosi bo‘lgan inson huquq va erkinliklarining oliy darajada qadrlanayotganligi,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

qonunlarning yanada takomillashtirila-yotganligi zamirida inson kamoloti ulug‘lanayotganligi aks etishini alohida ta‘kidlash lozim. Binobarin, Prezident Sh.Mirziyoyev e‘tirof etganidek: “Ayni paytda biz asosiy Qonunimiz talablarini to‘liq amalga oshirish borasida hali oldimizda ulkan vazifalar turganini yaxshi bilamiz, Ya’ni xalqimiz hayot darajasi va sifatini yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini amalda ta’minlash bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Eng avvalo, odamlarimiz islohotlar samarasini kelajakda emas, balki bugun o‘z hayotida his etishlari zarur” [1. 7.]. O‘zbekistonda demokratik davlat qurishning muhim shartlari shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat. Inson huquqlarining kafolatlari tizimini yaratishda fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlari yo‘lidagi siyosiy kuchlarning konsentratsiyalashuvining demokratiya sub’ektlari faoliyati, kelishuvi, sivilizatsiyasida plyuralizmni ta’minlashdan iboratdir. Insonning huquqiy maqomini hal qilish, jamiyatni rag‘batlantirish – davlat qarorlarini ishlab chiqish zarur. Qarorlarni qabul qilishda, xalqni maqbul xizmat bilan ta’minlash, hamda jamoatchilik fikri va fuqarolar faoliyatining (qarorlar, buyruqlar, xatlar, bayonnomalar va boshqalar orqali), yozma kommunikatsiya shakllari davlat bilan xalq o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligini kengroq ta’minlash imkoniyatlari yaratilganligi bu fikrimizning isbotidir.

Masalan, keyingi yillarda “Davlat boshqaruvi tizimida yangi zamonaviy g‘oyalarni tatbiq etish maqsadida Prezident devoni, hukumat ijro etuvchi tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi. 18 ta vazirlik, idoralarning vazifa va funksiyalari takomillashtirildi, hamda 24 ta davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi” [2.15]. Bugungi yangilanishlar davrida, davlat boshqaruvi tizimining tez fursatda rivojlanib borishi o‘ziga xos xarakterga ega. Jamiyatni yangilash, demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayonida qonun xujjatlarining ijrosi va mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishda huquqiy kommunikatsiya muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamiyat boshqaruvida, davlat va xalq muloqotlari masalasida huquqiy kommunikatsiya o‘ziga xos xarakterga egadir. Ayniqsa, islohotlarning huquqiy asoslarini nafaqat tushunish, balki ularni xalq amaliyotiga tatbiq etishda ahamiyatlidir. Davr talabi bo‘lgan rivojlanish, yuksalish, hamda dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari qatoridan joy olish darajasiga erishish

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yo‘lida O‘zbekiston bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy jabhalarda shahdam qadamlar bilan oldinga intilmoqda. “Bugungi kungacha davlat xizmatlari ko‘rsatilishini maqbullashtirish borasida elektron davlat xizmatlarining soni 33 taga yetkazildi, ulardan 75 ming fuqaro foydalanmoqda. Tadbirkorlar uchun 40 ta faoliyat turi bo‘yicha 61 xil litsenziyalar olish uchun onlayn ariza yuborish imkoniyatlari yaratildi” [3.15] “Davlat tizimi faoliyati o‘zining ochiqligi, xalq bilan doimo hamnafas tarzda siyosat yuritayotganligi, inson huquq va erkinliklari yuzasidan yangi qonunlarning paydo bo‘lishi, tadbirkorlik uchun imtiyozlar yaratilganligi bilan xalqning ishonchiga sazovor bo‘lmoqda.

Mamlakatda davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini izchillik bilan takomillashtirilib, modernizatsiya qilinmoqda. Shu orqali aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkoni oshirilmoqda” [4.15-16]. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarda o‘zaro uyg‘un aloqadorlik, jamiyat hayotini oliy darajadagi ijtimoiy tizim sari yetaklaydi. Qonun ustuvorligi, huquqiy me’yorlar, siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida fuqarolik jamiyati barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolar huquqiy madaniyatini shakllantirish darajasi aynan qonunlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va davlat idoralari tomonidan fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishiga uzviy bog‘liqdir. Fuqarolarning o‘z huquqlarini erkin amalga oshirishlari va burchlarini bajarishlari, eng avvalo, aholining ma’naviy-axloqiy kamoloti namoyon bo‘lgan kuchli fuqarolik jamiyatidagi huquqiy kommunikatsiya tizimi sharoitidagina real voqelikka aylanadi. Bugungi davr talabi, davlat xizmatlarini taqdim etishning milliy shakli bo‘lgan yangi tizimga o‘tishga asoslangan holda ba’zi muammolarni bartaraf etish maqsadida 2017 yil 12 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori [5. 16] qabul qilindi.

Ma’lumki, qabul qilinayotgan yangi qonunlar aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Bunda ommaviy-huquqiy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

kommunikatsiyaning samarali faoliyati, yangi qonunlarning mohiyatini anglash, inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalardandir. Demokratiya – ommaviy-huquqiy kommunikatsiyaning siyosiy tizimdagi shakli bo'lib, u davlatchilik, siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy-siyosiy hayot va jamiyatning barcha tarmog'ini qamrab oladi. U aholining savodxonligini oshirishga bo'lgan say-harakatlar, inson shaxsining huquqiy jihatdan kafolatlanganligi, siyosiy jamiyat, ya'ni huquqiy davlatning mavjudligini anglatadi. Keyingi ikki-uch yillik qisqa davr ichida zamonaviy yangilanishlarni o'zida mujassam etgan, demokratik jarayonlar, huquqiy kommunikatsiya tizimining yangi bir shakli sifatida – fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida samaradorlikni oshirish, hamda mahalla institutini aholiga yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirishda katta rivojlanish davri bo'ldi.

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda uni qo'riqlashdir. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Ayni paytda, asosiy Qonunimizning X bobi inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlariga bag'ishlangan. Bosh Qomusimizning 43-moddasida: "Davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" [6.16], deyilgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan moddalar aniq va ravshan ishlab chiqilgan va birmuncha kengaytirilganligini ko'rish mumkin.

"O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim" (30-modda) kabi muhim huquqlar mustahkamlab qo'yilgani yaxshi. Konstitutsiyamizning 32-moddasiga muvofiq fuqarolarimiz jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita, hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadir. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasida qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘inlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega (Konstitutsiya 33-modda). Bundan tashqari, fuqarolarimiz kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar (34-modda). Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimida boshqaruv huquqini yanada yuksaltirish, siyosiy tizimni takomillashtirish, xalqning ma’naviyati va huquqiy bilimlarini oshirish, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlarga fikr-mulohazalarini erkin bildirish kabi ta’limiy manbalar borki, xalq buni ongli ravishda anglay bilishi, tushunishi dolzarb masaladir. Ayni shu o‘rinda OAVning ahamiyati katta. Jamiyatdagi har bir kishi huquqiy jarayonlarni tushunmas ekan, uning ongida insoniylikka zid bo‘lgan g‘oyalarga ergashish moyilligi kuchayadi. Oqibatda bu turli xil tutruqsiz safsatalarga ishonish ishtiyoqining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuni nazarda tutgan holda, xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishi uchun “O‘zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir” [7]. Insonning aksariyat huquq va erkinliklari aynan fuqarolik jamiyati doirasida mujassamlanganligi, demokratik taraqqiy etgan mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo‘llab-quvvatlanishi huquqiy kommunikatsiya tizimi tarmoqlarining uzviy ravishda davlat va xalq o‘rtasidagi zanjirlarni mustahkamlashiga xizmat qilishi bu fikrimizning puxta asosi hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvida qadim zamonlardan to bugungi kungacha insonlar o‘rtasidagi ilk muloqotlardan biri hisoblangan ramzlar ommaviy kommunikatsiyaning asosiy shakllaridan biridir. Qadimda insonlar bir-birlarining kimligini ulardagi ramzlar orqali tanishganligi tarixiy asarlardagi manbalarda keltirilgan. Bugungi kunda bu ramzlar yangi shakl, tushunchalarda huquqiy davlatning ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, akademik Akmal Saidov qayd etganidek: “Davlatning asosiy qonuni va qonunlar to‘plami – Oliy iroda sub’ekti maqomini ustuvor me’yorlar sifatida ifodalaydigan oliy

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

yuridik hujjatlar instituti shaklidagi davlat ramzi" [8. 42]. Bugungi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning samaradorligi huquqiy kommunikatsiya tizimining yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan o'lchanadi. Demokratiya, huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati parallel holda taraqqiy topadigan hamda bir-birini taqozo qilgan jarayondir. Insonning aksariyat huquq va erkinliklari, aynan, fuqarolik jamiyati doirasida mujassamlangan. Shuning uchun ham demokratik taraqqiyotdagi mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo'llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi. Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi muhim vazifa – bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish parlamentning roli va ta'sirini kuchaytirib borishdan iborat deb hisoblanadi. Qonunlarga rioya qilish, ularni ijro etish va qonun normalari bilan tartibga solishga ehtiyoj tug'ilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, amaldagi qonun xujjatlarini hayot talablari bilan muntazam uyg'unlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun dasturulamalga, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur [9. 30]. Huquqiy kommunikatsiya deganda, xalqning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi tomonidan belganlangan huquqlariga asosan, so'z erkinligi, fikri, ovoz berish erkinligi, tanlov erkinligi, fuqarolarning o'zini himoya qilish maqsadida davlat qonunlari moddalarida belgilangan o'z huquqlaridan foydalanish erkinligi kabi tamoyillar borki, bular yozma va og'zaki kommunikatsiya (muloqot) shakllari sifatida ta'riflanadi. Kommunikatsiyaning yozma turlariga kitob va risolalar (**tarixiy** asl qo'lyozmalar, sharhlar va tarjimalar)ni ma'muriy xujjatlarni, hamda xatlarni misol keltirish mumkin. Og'zaki kommunikatsiya esa kengash, suhbat, maslahat, shakllarida amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvining har xil usullari va ular haqidagi ma'lumotlarni ommaga yetkazish zarurligi yuzasidan aytilgan fikrlar asarda bayon etilgan manbalarga hamohang tarzda rivojlanib boradi: masalan u shunday bayon etiladi, "Fozillar shaharining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchchasi sog'-so'lim bo'lib, o'ziga yuklangan fazilatlarni bajarishida biror a'zosidan nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. Ikkinchidan, hokim tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unitmasligi zarur. To‘rtinchidan, u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchidan, o‘z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur.

Oltinchidan, u (ustozlardan) ta’lim olishga, bilim ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur. Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda, ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini idora qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur. Sakkizinchidan, u haq-haqiqatni, odil, xaqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur. (U o‘z qadrini biluvchi va nomus - oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma oliyhimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur. O‘ninchidan, bu dunyo mollariga dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur. O‘n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, birinchi bo‘lib adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni boshqalarga ham ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur. Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amrimahol, zero bunday tug‘ma fazilatlar sohibi bo‘lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi, yoki beshtasi kamol topganida xam, u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi” [13.41] – deyiladi asarda. Muallif sohibi qonunning xislatlarini sanar ekan, o‘n ikkita xislatga ega bo‘lishi zarurligini aytadi, yana o‘zi bunga fikr

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

bildiradiki, talab qilinayotgan o‘n ikkita fazilatning bir kishida jamlanishi amri mahol ekan. Haqiqatdan ham bu fikrlar bugungi kun uchun ham juda dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, hamda yangilanishlarning tub mohiyatini anglab yetish, ularni yanada chuqurroq o‘rganish, sohalarni mutaxassislar boshchiligida amaliyotda joriy etish masalalari qo‘yilmoqda. Shuningdek, mamlakatni rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritilganligini, hamda shu bilan birgalikda harakatlar strategiyasini rivojlantirish maqsadida joriylanayotgan islohotlarning samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal sur’atlarda rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar yaratish masalalari, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirziyoyev Sh. Harakatlar strategiyasi. 2017-2021 yil sarhisobi. – T.: Adolat, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Saidov A. X. Konstitutsiya va davlat ramzlari. – T.: Cho‘lpon, NMIU, 2017. – 42 b.
5. Aflotun. Qonunlar. Tarjimon Urfon Otajon. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – 161 b.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti, 2004. 2012. – 41 b.
7. Салиева, М. К. (2021). РОЛЬ МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ГОСУДАРСТВА. Вестник науки и образования, (5-1 (108)), 37-48.
8. Салиева, М. К. (2020). ПРИНЦИПЫ ИНФОРМАЦИОННО-ПРАВОВОЙ СВЯЗИ И ШКОЛЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ. European Journal of Humanities and Social Sciences, (4), 10-18.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# ARAB MEDIA MATNLARI TARJIMASI MUAMMOSI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-393-396

**Dilshoda MUBARAKOVA**,
TDSHU o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998 99 407 29 35;
Email: drmubarakova@mail.ru

**Annotatsiya**. *Ushbu maqolada hozirgi vaqtdagi arab media matnlarining o‘ziga xos jihatlari, arab media matinlari tarjimasi usullari va tarjima muammolari tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *arab, o‘zbek, media, matn, tarjima*

**Аннотация**. *В данной статье анализируются особенности современных арабских медиатекстов, методы перевода арабских медиатекстов и проблемы перевода.*

**Ключевые слова**: *арабский, узбекский, СМИ, текст, перевод*

**Abstract**. *This article analyzes the features of modern Arabic media texts, methods of translation of Arabic media texts and translation problems.*

**Keywords**. *arabic, uzbek, media, text, translation*

## Kirish

Fan va texnologiyaning rivojlanishi, ommaviy axborot vositalarining keng qo‘llanilishi, xalqaro turizmning ahamiyati, madaniy va savdo aloqalarining oshishi dunyo xalqlari o'rtasida aloqani ta'minlashda mamlakatlar tillaridan foydalanish zarurati, ikkinchi yoki hatto uchinchi tilni o'rganish zarurati tug’ildi. Bugungi kunda arab tili jahon tillari orasida o‘z ahamiyati va ta’sirchanligini oshirib borayotgan tildir. Mamlakatimizning keyingi yillarda tobora arab davlatlari bilan savdo, siyosiy va iqtisodiy aloqalari kuchayib bormoqda. Arab tili yigirma ikki arab davlatida ona tili va aksariyat musulmon mamlakatlarida ikkinchi til hisoblanadi. Arab tili ‘ngliz, xitoy va ispan tillaridan keyin eng ko'p gapiriladigan til sifatida to‘rtinchi o‘rinda turadi.

Ommaviy axborot vositalari shunchalik kengki, ular yozishdan tortib to bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarigacha. Matn esa tuzuvchi muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish, ularni tasvirlash yoki ular haqida muhokama yuritish kabi maqsadlarni ko’zda tutadi. O’zaro va tarkiban bog’langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og’zaki shakldagi yaxlit birlik matn sanaladi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Media matni va tili leksikasi eng tez o‘zgaruvchi va jamiyat tomonidan eng samarali qabul qilinuvchi sath hisoblanadi. Bu ustunlik (yoki imtiyoz) nashrlarning davriy ekanligi tufaylidir. Keling, arabcha gazeta materialini o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqaylik, lekin birinchi navbatda qadimgi Sharq haqiqatini eslaymiz: arabcha harfni o'qish uchun siz unda nima yozilganligini bilishingiz kerak. Ishni boshlashda tarjimon tarjima qilingan matn muallifining muhiti va hayoti haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishi kerak. Gazeta tilining o‘ziga xosligi o‘quvchiga yangi, dolzarb ma’lumotlarni qisqa, to‘g‘ri va aniq etkazishdir. Media - bu dolzarb voqealar haqida materiallarni berib boradi.

Arab tili o‘zbek tilidan butkul farq qiladi. Bu farq sintaksisda aniq ifodalangan: arabcha gapdagi so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshidir: - unlilar ko‘rsatilmaydi

- nuqtalar faqat ohang orqali ham beriladi
- bosh harflar yo‘q

Agar tarjimon arab grammatikasini yaxshi bilmasa, tarjima g‘aliz chiqadi. Muayyan arabcha matnning talqini ustida ishlayotgan kishi avvalo quyidagilarni tayyorlashi kerak:

=mavzu yoki tasvirlangan hodisani chuqurroq bilish.

=butun matnni ko'rib chiqing va materialning tabiati haqida umumiy tasavvurga ega bo'ling.

=uni paragraflarga, jumlalarga va hatto ritmik guruhlarga, sintagmalarga bo'lish kerak.

=Har bir jumlada asosiy a'zolarni topishingiz kerak: ega va kesim.

=gapning ikkinchi darajali bo‘laklari ustida ishlashda ularning gapdagi o'rni muhim rol o'ynaydi;

=kirish so‘zlarning roli va o‘rnini aniqlang.

=siz ohangni his qilishingiz kerak.

=modallik darajasini belgilashga ishonch hosil qiling,

=shuningdek, fe’llarning zamon va maylini aniqlang.

Har qanday tildan tarjima qilishning muhim xususiyati - bu gapdagi barcha so‘zlarning ma'nosini tushunish. Agar ba’zi so‘zlar va iboralar aniq bo‘lmasa, ularning ma'nosi lug'atlar bilan aniqlanadi.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Gazeta maqolalarida jumla boshida ko'rsatilgan harakat vaqti (kecha, bugun, keyingi yil) va voqea sanasi ko‘rsatiladi.

في ديسمبر/كانون الاول عام 2000، قامت الامم المتحدة بمراجعة نسبة التقييم للميزانية المنتظمة وحفظ السلام

2000 yil dekabr oyida BMT kelasi yil byudjetini tasdiqladi va tinchlikparvar kuchlarga qo'shimcha mablag' ajratdi.

Ijtimoiy-siyosiy matnlar xabar va espressiv funksiyalariga ega. Epitet, metafora va turg'un iboralar yordamida matnning obrazlilik va hissiy boyoqdorligiga erishish mumkin. Agar media matnini tarjima qilish ketma-ketligi haqida gapiradigan bo‘lsak, biz bir necha bosqichlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin [3,20].

• Sarlavha.
• Terminlarga aniqlik kiritish.
• Termin tarjimasida konkretlik.
• Frazeologik birikmalar, majoziy ifodalar yoki emotsional boyoqdor leksikani aniqlash.
• Sintaktik tuzilmalar.

Maqolaning sarlavhasidan boshlaylik. Sarlavhalar ikki tomonlama funktsiyaga ega: ular ham ma’lumot, ham reklamadir.

Arabcha sarlavha eganing mavzuning inversiyasi bilan tavsiflanadi. Agar ruscha sarlavhada nominal jumlalar ko‘proq bo‘lsa, arab tilida – og‘zaki. Shuningdek, arabcha unvonlar vaziyatga qarab o‘ziga jalb qiladi. Umuman olganda, sarlavhalar o‘z rolini bajaradi - maqolaning mazmuni haqida umumiy fikr berish. Terminlar tarjimaning aniqligi va to‘g‘riligini talab qiladi. [4,12 ]

Ammo agar tarjima tilida ushbu so‘zga yoki asl nusxaning ruhiga zid bo‘lmagan aniqroq mos keladigan so‘zlar birikmasi bo‘lsa, undan foydalanish mumkin. Arab tilidan tarjima qilishda asosan jumla oxiridan boshlab tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

2758 الذي ينص على استبدال حكومة جمهورية الصين بحكومة جمهورية الصين الشعبية كالحاكم القانوني والممثل الشرعي للصين في الامم المتحدة وكأحد الأعضاء الخمسة الدائمين في مجلس الامن.

25 oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Xitoy bo'yicha 2758-sonli qarorni qabul qildi. Endi Birlashgan Millatlar Tashkilotida Xitoy Respublikasi hukumati emas, balki Xitoy Xalq

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Respublikasi hukumati Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a’zosidan biri sifatida qatnashadi.

Uzun va murakkab arabcha jumlalarni tarjima qilish uchun bo‘linish texnikasidan foydalanish tavsiya etiladi, ya’ni axborot oqimining dinamikligini va uni idrok etish qulayligini saqlash uchun bitta katta jumlani bir nechta oddiy jumlalarga taqsimlash.

بلغت نفقات الامم المتحدة على حفظ السلام ذروتها بين عامي 1994 و1995. في نهاية عام 1995 كانت التكلفة الكلية أكثر من 3.5 مليار دولار. بينما بلغت هذه النفقات عام 2000 قرابة 2.2 مليار دولار، من ضمن ذلك العمليات التي مولت من ميزانية نظام الأمم المتحدة، بالإضافة إلى ميزانية حفظ السلام. عام 1988 استلمت قوات حفظ السلام التابعة للأمم المتحدة جائزة نوبل للسلام.

Ikki yil ichida (1994 va 1995) BMT tinchlikni saqlashga 3,5 mlrd. Va 2000 yilda u tinchlikparvar harakatlar uchun qo'shimcha ravishda byudjetdan2,2 milliard dollar ajratdi. 1988 yilda BMT Qurolli Kuchlari tinchlik bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Tarjimon nashr ma’nosiga ko‘nikishga, asl so‘zning ifoda kuchini saqlab qolishga harakat qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda keltirilgan ma’lumotlar asl nusxaning ma’nosini to‘liq tushunish va to‘g‘ri etkazish asl matndan og‘ishmasdan, narsa va hodisalarni benuqson belgilash orqali to‘g‘ri va sifatli tarjima qilish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Arab World English Journal, Special Issue on Translation No.3, 2014. — 266p.
2. Juliane House-Translation as Communication across Languages and Cultures-Routledge (2015) (1) https://www. academia.edu/38151758/.pdf
3. Reisigl, M. Rhetoric of Political Speeches. In R.Wodak and V. Koller (Eds), Handbook of Communication in Public
4. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 534-543.
5. Mubarakova, D. A., & Yunusova, N. K. (2021). A study of translation science initiating gender bias index and gender quotas. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(5), 797-806.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUV TIZIMIDA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA IJTIMOIY MEZON SIFATIDA

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-397-404

Filol.f.n. **Muhabbat SALIYEVA**,
TDSHU dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel. +998 97 714 24 90. muhabbat2962@mail.ru

**Annotatsiya.** *Zamonaviy taraqqiyot yo‘lida borayotgan O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvidagi demokratik islohotlar, innovatsion texnologiyalar davrining boshlanishi, jamiyatdagi axborot va huquqiy aloqalarning o‘rni muhim. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko‘proq e‘tibor qaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish rejalashtirilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *huquq, aloqa, innovatsiya, demokratiya, yuridik xizmat, jamiyat, davlat, qaror, buyruq, protokol.*

**Аннотация.** *Демократические реформы в государственном управлении республики, начало эры инновационных технологий, роль информационно-правовых отношений в жизни общества. Планируется болше внимания уделять опыту Узбекистана и зарубежных стран, развивать правовую культуру в обществе.*

**Ключевые слова**: *право, коммуникация, инновация, демократия, юридическая служба, общество, государство, решение, приказ, протокол.*

**Abstract.** *Democratic reforms in the public administration of the republic, the beginning of the era of innovative technologies, the role of information and legal relations in the life of society. It is planned to pay more attention to the experience of Uzbekistan and foreign countries, to develop a legal culture in society.*

**Key words**: *law, information and legal, communication, innovation, democracy, legal service, society, state, decision, order, protocol, interest.*

Adolatli davlat boshqaruvini joriy qilish va tushuntirish, huquqiy targ‘ibot tartibi bilan shug‘ullanadigan shaxslarga baho berish hamda qonunlarning mazmuni va ahamiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaga yetkazish muhim masala hisoblanadi. Qonun eng avvalo ma’naviy, tarbiyaviy, axloqiy kuchga ega bo‘lgandagina xalq uni qabul qiladi. Binobarin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev e’tirof etganidek, “Jahon miqiyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi keskin bir davr, barchamizdan yangicha ishlash va fikrlashni, yuqori darajada safarbarlikni talab etmoqda. Oldimizda turgan ana shu ulkan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ko‘tarish maqsadida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, xavsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, haqida chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni izchil davom ettirish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilab olindi. Harakatlar strategiyasida “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” [1.3], degan davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani albatta bejiz emas”[2.161]. Davlat rahbari tomonidan ko‘rsatilgan konsesiya tamoyillari fuqarolarning har tomonlama himoya qilinishini ta’minlashga asoslanadi. Huquqiy davlatda fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti qonunlarning adolatli tarzda bajarilishidir.

Qonunga rioya qilish, eng avvalo uning borligi va undan ko‘pchilik xabardor bo‘lishiga bog‘liq, bu esa targ‘ibot-tashviqotga, ya’ni huquqiy kommunikatsiyaga asoslanadi. “Qachonki qonunlar yaratilsa, ularga rioya qilish ta’minlansa, keng omma o‘rtasida huquqiy madaniyat shakllanadi” [3. 161]. Bugungi zamonaviy yashash tarzining dolzarbligi shundaki, hayotga oqilona yondashuvni davrning o‘zi taqozo etmoqda, bunday keskin talablardan aslo voz kechish mumkin emas. Shunday ekan odamlarning ongida mustaqil fikr uyg‘otish zaruriyati tug‘iladi. “Qonunchilik tizimining asosiy vazifasi – huquqiy me’yorlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishda huquqiy kommunikatsiya alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda” [5.5]. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, siyosiy tizimni takomillashtirish, xalqning ma’naviyatini huquqiy bilimlar bilan oshirish, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlarga o‘z fikr mulohazalarini bildirish kabi tarbiyaviy manbalar borki, xalq buni ongli ravishda anglay bilishi, tushunishi dolzarb masaladir.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Konstitutsiya asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o‘sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh Qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir [6.6]. Davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini yaratish masalalari bugungi kunning yuqori darajali dolzorb vazifalaridan bo‘lgan jiddiy masala hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari o‘zining birinchi ish kunidan yangi qonunlar, farmonlar ijrosini juda qisqa muddatda boshlab yuborganligi, davlat boshqaruvining barcha jabhalarida uzluksiz muloqotlar, aholi bilan uchrashuvlar, yozma va og‘zaki muloqot turlari, vizual shakllaridagi aniq va ravshan ko‘rsatmalari asosida ish olib borilayotganligi va bajarilayotgan vazifalar to‘g‘risida xalq oldida hisobot berib borilayotganligi buning isbotidir. Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, davlat boshqaruvining mutlaqo yangi samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi [7. 6]. Davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy hayot va komil inson masalasi, inson shaxsining qadrlanishi, uning jamiyatdagi o‘rni, madaniy va ma’naviy dunyoqarashining shakllanishida, zamonaviy hamda texnikaviy ilmlarni qunt bilan o‘rganishi, o‘z fikrlarini, o‘z qarashlarini erkin ifodalashi, saylov huquqiga egaligi, jamiyatda inson huquqlari kafolatlari konstitutsiyaviy qonunlari bilan belgilangani e’tiborlidir.

Davlat taraqqiyotining yangi davri va bosqichi, eng avvalo, davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Eng avvalo davlat va jamiyat qurlishini tubdan isloh qilishga qaratildi. Shuning uchun ham ushbu vazifa birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi va “Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi qoidalarini to‘liq o‘zida aks ettiradi [8.14]. Inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson huquqlari roliga yetarli baho bermaslik mumkin emas. Inson huquqlari – har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezondir.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda talablarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Demak, bu kabi izchil demokratik xarakterga qonun ustuvorligi, demokratiya va inson huquqlari prinsiplariga sodiqlik O‘zbekistonning konstitutsiyaviy demokratik davlat sifatida rivojlanishini ta‘minlaydi. Konstitutsiya “O‘zbek modeli” ning huquqiy asosidir [9.10]. Respublikaning konstitutsiyaviy rivojlanishida ikki mustaqil bosqichni ajratish mumkin, ularning har biri mamlakatning huquqiy tarixida alohida o‘rin egallaydi. Konstitutsiya huquqiy, mamlakatning asosiy va oliy qonuni sifatida uning roli asosiy va samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu rolni saqlab qolish uchun Konstitutsiyaning dinamikligi, ayniqsa, muhimdir. Yarim asrdan ko‘proq vaqtni nishonlagan Yevropaning urushdan keyingi konstitutsiyalari misolida ularning dinamikligi ushbu davlatlarning huquqiy rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Demokratiyaning asosi sifatida inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishdagi normaga aylanishi uchun fuqarolar:

-birinchidan, o‘zlarining huquq, erkinliklaridan xabardor bo‘lishi;

-ikkinchidan, bu sohada ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi;

-uchinchidan, boshqalarning huquq,qadr-qimmatini hurmat qilishi;

-to‘rtinchidan, ularni himoya qilish sohasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim

Bularning barchasi inson huquqlari madaniyatining muhim elementlari va inson huquqlari madaniyatining yuqori darajasi, o‘z navbatida, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash kafolatidir. Jamiyatning ma’naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri huquqiy madaniyatdir. Inson huquqlari madaniyati konstitutsiyaviy demokratiya, inson huquqlari va erkinliklari qiymatlaridan shakllantirilmaydi [10.51]. Inson huquqlari kafolatlari sohasidagi yangilanishlar davrida bosh mezon davlat bilan inson o‘rtasidagi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni o‘rganishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ichki va tashqi siyosatida BMTning ikkinchi Umumjahon konferensiyasida 1993 yilda tasdiqlangan. “Inson huquq va erkinliklarining universalligi” talablariga qat’iy rioya etib,

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

davlat qonunchilik tizimida uni muhofaza qilish va ta‘minlashga oid normativ-huquqiy bazani shakllantirildi [11. 51]. Davlat ichki va tashqi munosabatlarda inson huquqlariga oid xalqaro xujjatlarga qo‘shilishi hamda huquqni huquqni himoyalovchi maxsus mexanizmlarni yaratish yo‘llari bilan inson huquq va erkinliklarining kafolatlarini ta’minlaydi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qonun va qonunosti xujjatlarida “Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun” degan eng muhim tamoyilni amalga oshirish asosiy maqsad qilib olinganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Davlatni samarali boshqarish uchun to‘g‘ri va aniq axborotdan foydalanish talab qilinadi. Ayni bugungi demokratik davlat qurilishi rivojlanayotgan bir davrda, qonunchilik tizimining yetakchi vazifasi –huquqiy me’yorlarni xalqqa tushuntirishdan iborat. “Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida “Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasining amalda joriy etilishi, “Kuch - adolatda” tamoyilini amalga oshirish orqali, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligining kafolatidir. Aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta’minlashning eng muhim omilidir” [12. 91].

Davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy kommunikatsiya tizimining qonuniy tamoyillar asosida rivojlanib borishini tahlil qilar ekanmiz, inson manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan bugungi yangilanishlar eng avvalo odamlar bilan muloqot qilishga tayanishni ta’kidlash lozim. Xalqning dardu-tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish va hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va xalq qabulxonalari tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida Virtual va Xalq qabulxonalariga jismoniy va yuridik shaxslardan 2 milliondan ziyod murojaat tushgan. Har bir ariza va shikoyatning qonun doirasida ko‘rib chiqilishi nazoratga olingan, murojaatlar mazmunan hal etilib, xalqning ehtiyojlari qanoatlantirilgan.

Mamlakatning demokratik davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga huquqiy kommunikatsiya tizimining alohida katta ahamiyatli jihati shundagi bugunshi soat sayin rivojlanib borayotgan O‘zbekistonning qaysi bir jabhasini kuzatmang barcha sohalarda eng yangi va zamonaviy talablarga javob beradigan yangilanishlar mavjud bo‘lib O‘zbekiston

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Respublikasining huquqiy tizimiga kiritilgan. “Jamiyatda mustaqil fikrlovchi, hurfikr, talabchan, didli, ma’naviyati yuksak odamlar qancha ko‘p bo‘lsa, ommaviy madaniyatning bozori shuncha kasod bo‘ladi. Aqlli, talabchan, faxm-farosatli odamlar o‘zlari iste’mol qiladigan, kiyadigan, eshitadigan, ko‘radigan, o‘qiydigan narsalarga yuksak talab qo‘yadilar” [14. 14]. Mukammal ishlab chiqilgan qonunlarni adolatli targ‘ibot qilinsa, faqat o‘shandagina davlat va jamiyat hayotini yaxshi tashkil etishning imkoniyatlari rivojlanib boradi. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoyillari davlat, mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka da’vat qiladigan ma’naviy ehtiyoj, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql- zakovati hamda salohiyatini o‘zida ifodalaydi [15.14]. Bugungi ishlab chiqilayotgan qonunlarni joriy etishning o‘zi kifoya qilmaydi balki uning mazmuni va uning ahamiyatini tushunish, ushbu ma’lumotlarni xalqqa to‘lig‘icha yetkazin zarur bo‘lib, bunda asosan huquqiy yo‘nalishdagi ommaviy aloqalar yordamida amalga oshiriladi. Mamlakatim siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlatt va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish. Bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta’minlash, gumanizm va insoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish [16. 14].

Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarning asosiy maqsadi bo‘lgan demokratik davlat, huquqiy jamiyat qonunning ustuvorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra xalqimiz va mamlakatimizning bugungi va kelgusi taraqqiyotini ta’minlashda mustaqillik yillarida shakllanib, rivojlanayotgan milliy g‘oya muhim o‘rin tutadi. Milliy g‘oya tamoyillari demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan uyg‘unlikda mamlakatning ichki hayotini boshqarishning asosiy mezonlaridan biri bo‘lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko‘rsatadigan, uning jahon hamjamiyati va xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini namoyon qiladigan ma’naviy qadriyat me’zonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari, umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

aylanayotganligini bildiradigan omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin [17.14]. Demokratik jamiyatning shakllanishi mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning barqarorligi va ular rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bu jarayonning izchil, tizimli va ob’ektiv amalga oshirilishida davlat hamda jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, harakatlarning pirovard maqsadlarini ifodalaydigan mafkuraviy jarayonlar ham muayyan o‘rin egallaydi [18.14].

Davlat boshqaruvi tizimida yangi zamonaviy g‘oyalar tadbiq etish maqsadida aksariyat vazirlik va idoralarning vazifa va funksiyalari qayta ko‘rib chiqildi, ayrimlari qayta tashkil etildi. Tegishli sohalarda to‘planib qolgan muammolarni samarali hal etish maqsadida bir qator yangi vazirlik va idoralar tuzildi [19. 479].

Huquqiy kommunikatsiyaning vazifasi, aholining talab istaklarini, ehtiyojlarini aniqlash, davlat idoralari va xalq o‘rtasidagi muhim vositachisi sifatida demokratiya ko‘zgusiga aylanishdan iborat. Shunday ekan huquqiy kommunikatsiya jamiyat va davlatning huquqiy tamoyillarinini strategik maqsadini kishilarga, ommaga yetkazishga qaratilgan ma’rifiy, ma’rifiy va huquqiy usullarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Bugungi O‘zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar ma’naviy yuksalishning hayotiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligining yorqin ifodasidir. Bugungi O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat sifatida rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tmoqda. Mamlakatning turli nuqtalarida ochilgan Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bir qatorda davlat boshqaruvi organlari, idora va tashkilotlar faoliyatida ham ochiqlik, shaffoflik sezilayapti. OAV, NNT, ijtimoiy faol aholi muammolar yechimini topishda ishtirok etmoqda. Rahbarlar xalqqa yaqinlashayapti. Bu o‘zgarishlar esa xalqning ishonchi, e’tiborini kuchaytirib, umidini oshirmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M.. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi boqichga ko‘taramiz. t1. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 500 b.
2. Harakatlar strategiyasi 2017-2021. 2017 yil-shiddatli islohotlar yili. –T.: “Adolat”, 2018. – 14 b.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 6 b.
4. Saidov A.X. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan. Provavaya osnova nezavisimogo razvitiya. –T.: “O‘zbekiston”. 2012. – 51 b.
5. Turayev T. Xusainov U. Ilhomjonov B. Bobojonov O. Nodirov A. Huquqiy yetuklik-barkamolikka eltadi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2011. – 91 b.
6. Aflotun. Qonunlar. –T.: Yangi asr avlodi. 2008. – 161 b.
7. Sharipov, R., & Hasanova, S. (2021). The ideological basis of the jadidist movement. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(1), 265-270.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# “青凤” “ЧИНФЕН” НОВЕЛЛАСИНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-405-420

**Сабохат ХАШИМОВА**
Филология фанлари доктори DSc, доцент
Тошкент давлат шарқшунослик университети
e-mail: sabohat15@mail.ru
Tel: +998977105033

**Abstract:** *This article is devoted to the peculiarities of the translation of the novel “青凤”. Acquaintance of the student of our country with the creative heritage of Pu Sungling begins with V.M. Alekseev's translations, which are still considered the best among Chinese scholars. P.M.Ustin, who started translating these novellas and new ones, took the baton. But the translation is now a new work, and something is lost in it. In the original, the novella sounds like a rhythmic and short prose, but after being translated into a foreign language, in terms of artistic and stylistic aspects, it now reflects a work in a certain foreign language, "because ... each language has its own laws." Things that are inevitable according to the laws of a foreign language, which sound light and natural in this language, often become superfluous in a foreign language.*

Юртимиз ўқувчисининг Пу Сунглинг ижодий мероси билан танишуви В.М.Алексеевнинг [91] таржималаридан бошланиб, улар ҳозирги кунгача хитойшунослар орасида энг яхшиси деб ҳисобланади. Эстафетани шу новеллаларнинг ўзи ва янгиларини таржима қила бошлаган П.М.Устин олди. Бироқ таржима бу энди янги асар бўлиб, унда нималардир йўқолган бўлади. Оригиналда новелла ритмик ва қисқа проза бўлиб янграса, чет тилига таржима қилингач, бадиий-стилистик борада у энди маълум бир чет тилидаги асарни акс эттиради, “чунки...ҳар бир тилнинг ўз қонунлари бор. Бегона тил қонунлари бўйича бўлиши муқаррар бўлган, шу тилда енгил ва табиий янграйдиган нарсалар, чет тилида кўпинча ортиқча нарса бўлиб қолади. Бизнинг сўзларимиз одатда узунроқ – демак сўзма-сўз

[91] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 72–79.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

таржима қилинса, бутун ибора анча узун ва мужмал бўлиб қолади. Ўқувчи таржимани оригинал ўз юртида қабул қилинганидек қабул қилиши учун ниманидир ташлаб юбориш, ниманидир қайта тузиш, ниманидир соддалаштириш керак бўлади”[92].

Синологлар В.М.Алексеев таржималарининг мукаммаллигига эътиборни қаратишган. «Василий Михайлович Алексеев ва унинг Ляо Жай» мақоласида машҳур хитой тили ва адабиётининг билимдони Л.З.Эйдлин академик В.М.Алексеевнинг нафақат хитойча менталликни, балки матннинг иероглифлик “намойишкорлиги”ни ҳам яхши билишига ишонарли далил келтиради: “…Ляо Жай ҳикояларида эгнига “э гуань” кийиб олган одамлар пайдо бўлади, бу «баланд қалпоқлар”ни англатади. Аммо “э” иероглифининг маъноли қисмини ўқувчига муайян образни тасвирловчи тоғ ифодалайди, таржимон шундай деб ёзади: “бир зумда баланд, тоғдек чўққайиб турган қалпоқ кийган тўрт ёки беш киши пайдо бўлди …”[93].

Хитой ёзма нутқига нисбатан бундай ажойиб зийраклик, нафақат мазмунининг нозик томонларини, балки иероглифли ёзувнинг эмоционал таъсири хусусиятларини ҳам сақлаб қолишга бўлган интилиш, В.М.Алексеевнинг барча таржималарига хос. Олим бегона тилда ёзилган асарни абсолют равишда таржима қилиб бўлмаслигини яхши тушунган. У, “таржимон – бу фақат таржимон, у иборалар, сўзлар, баъзан образлар билан ишлайди, лекин Пушкиннинг таржимони Пушкин эмас, Ляо Жайнинг таржимони эса Ляо Жай эмас”[94], деб ёзган. Мазкур ишда биз Пу Сунглинг новелласи “青凤” ва унинг В.М.Алексеев таржимасидаги варианти “Гўзал Чинфэн” материалида таржиманинг айрим аспектларини кўриб чиқмоқчимиз. Бу Пу Сунглинг ёзувининг бадиий услуби хусусиятларини тўлароқ ва чуқурроқ очиш имконини беради. Таржимани ажратиб турувчи биринчи нарса - бу номи бўлиб, унда В. М.Алексеев қаҳрамон

[92] Галь Н. Слово живое и мертвое. – М.: Издательский дом «София», 2003. – С. 222.

[93] Эйдлин Л.З. Василий Михайлович Алексеев и его Ляо Чжай // Пу Сунлин Рассказы Ляо Чжая о чудесах. – М.: Худож. лит, 1973 – С. 8.

[94] Алексеев В.М. Предисловие переводчика // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном. – М.: Худож. Лит., 1983. – С. 26.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Цинфэн 青凤 нинг исмига “гўзал” сўзини қўшади. Бундай услуб унинг кўпттаржималарида кузатилади. Сабаби оддий – Пу Сунглинг новеллалари кўпинча бош қаҳрамон номлари билан аталади, чет элликлар учун “Чинфэн” сўзи хеч қандай маъно англатмайди, “гўзал” атамасининг қўшилиши эса ўқувчига маъно беради: ҳикояда талабанинг ҳаётида қиз пайдо бўлади.

“门户素所习识，竟拨蒿蓬，曲折而入” ибораси “У дарвоза ва эшикларнинг жойлашшишини жуда яхши биларди ва ёввойи бурган оралаб йўлкадан гоҳ у ёққа, гоҳ бу ёққа шаҳдам юра бошлади. Ниҳоят у катта уйга кирди”[95] деб таржима қилинган. Бу ерда битта боғланган қўшма гапнинг иккита содда гапга грамматик трансформацияланишини кузатиш мумкин, лекин қизиғи шундаки, 蒿蓬 (“қуюқ бурган ўтлари”) “ёввойи бурган” деб таржима қилинган, яъни таржимон бу ҳолда маънонинг генерализацияланиш усулини қўллаган. Сабаби бу ерда “бурган” ёки “ёввойи бурган” – унча аҳамияти йўқ, ёки сюжетнинг ривожланишида бу образ иштирок этмайди ва рамзий вазифани ўтамайди.

Пу Сунглингда қуйидагини ўқиймиз: “东向一少年，可二十许；右一女郎，裁及笄耳”. Таржимаси қуйидагича: “Чапга қараганда ёши йигирмалардан сал ошган йигит, ўнгга қараганда эндигина сочини турмаклай бошлаган қиз”[96]. Оригиналда йигит (少年) юзини шарққа буриб ўтиради (东向).

Анъанавий хитойликлар йўналишни дунё томонларига боғлаб кўрсатадилар. Аксарият чет эллик ўқувчи учун бундай кўрсатиш шарт эмас. Қаҳрамон қизнинг ёшлигини кўрсатувчи “裁及笄耳” “эндигина сочини турмаклай бошлаган” ибора эса – матнга мумкин ва зарур бўлган киритма бўлиб ҳисобланади. Бу энди - оёқни бинт билан ўраш каби миллий хусусият, шунинг учун чет тили матнига ҳам ўгирилади. Бу ибора қиз эндигина 15 ёшга кирганини англатади.

[95] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 61.

[96] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 73.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Пу Сунглинг новеллаларига берган изоҳларида В.М.Алексеев мазкур ҳодиса талқинини келтиради. Чинфэннинг оёқларига бинт ўрашгани, биз уни учратганимизда унинг оёқлари “тўғри” ой каби ўроқсимон шаклга киргани ҳам новеллада зикр этилади: “生隐蹑莲钩,...” бунга таржимада: “Талаба, аста, сездирмасдан, зимдан унинг лотос илгагига босди,...” ибора мос келади, – бу ерда 莲钩 айнан “лотос илгаги” нинг ўзи бўлиб ҳисобланади. Шуниси диққатга сазоворки, таржимада оригинал метафораси сақлаб қолинган.

Ўз новелласида Пу Сунглинг шундай ёзади: “谁何入入闺闼？” Ушбу иборани В.М.Алексеев бундай таржима қилади: “... Бировнинг уйига келган ким”, бунда талаба “бировнинг” уйига кириб келганлигига шаъма қилинади. Ёзувчида эса асарнинг диққат марказда – оила аъзоси бўлмаган эркакларга кириш ман этилган “уйнинг аёллар қисми” 闺 семаси туради. Шундай қилиб талаба Чюйбин 去病 нафақат бировнинг уйига, балки бегона эракак 外人 сифатида унинг кириши ман этилган уйининг аёллар қисмига кириб боради.

Оригиналда шундай ўқиймиз: “乃揖生入，便呼家人易馔”. Таржимада: “Айтди, талабага бош эгди ва хизматкорларга бошқатдан дастурхон ёзишни буюриб, талабани хонага бошлаб кирди”. Бу ерда кўзга биринчи навбатда ташланадиган (ёки қулоққа чалинадиган) нарса – таржима қилишда оригинал ритмика йўқолиши. Шуни таъкидлаш керакки, бундай ҳол бутун Пу Сунглинг таржималарига хос. Юқорида келтирилган ибора – фақат хусусий ҳол, яққол мисол бўлиб, унда феълни ишлатиш билан ритмикани сақлаб қолишга уриниш қилинган.

Пу Сунглинг Чинфэнни анъанавий поэтик пассажлар билан таърифлайди: “弱态生娇，秋波流慧”, уларни В.М.Алексеев, рус тилида келтирилган фразеологизм учун худди шундай қисқа ва маъноли бирлик бўлмаганлиги сабабли, қуйидагича таржима қилишга мажбур: “...жозибани туғдирувчи нафис шакллар, кузги тўлқинлар мисоли мусаффо кўзлар ва барқ уриб турган ақл”[97]. 秋波 – сўзма-сўз

[97] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 74.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

“кузги тўлқинлар” – қизнинг чиройли кўзларини таърифловчи анъанавий хитойча поэтик образ. Ляо Жайда “秋波流慧” метафорасининг сўзма-сўз таржимаси “кузги тўлқинлар ақлни балқитади”, В.М.Алексеевда – эксплицит солиштирма – “кўзлари мусаффо, бамисоли кузги сувлар ва ақли балқиб туради”. Бунда лексик-грамматик трансформацияни кузатамиз: бунда таржимага “мусаффо” сўзи қўшилган ва сўзма-сўз “ақлни балқитади” ўрнига 流慧 “ақлни балқитаётган” иборани ўқиймиз. Тўртта иероглиф “秋波流慧” билан яратиладиган образ хитойча менталлик учун тугатилган ҳисобланади.

“青凤” новелласидан олинган қуйидаги ибора ҳам шу тартибда: “叟致敬曰：“久仰山斗！”, – унинг маъносини таржимада қуйидагича ўгириш мумкин: “Қария талабага эҳтиром билан салом бериб деди: Мен анчадан буён бу ҳурматли жанобга таъзимимни қалбимда олиб юрибман! Алексеевда мазкур ибора қуйидагича таржима қилинган: «Шунда қария, унга эҳтиром билан салом бериб, деди: Сизни анчадан бери танийман. Одамлар Чўмич юлдузларига ёки Тай тоғига қарагандек, Сизга завқ-шавқ, ҳурмат билан қарайман”[98].

Оригиналнинг қисқалиги ва маънодорлиги, шунингдек ритмикаси йўқолганлиги ойдек равшан – икки тилнинг хусусиятлари туфайли таржимада йўқотишлар муқаррар. Бунда таржимада образлилик йўқолдими? Келинг шуни кўриб чиқамиз.

Биринчидан, В.М.Алексеев келтирилган гапнинг юқоридаги диалог билан мантиқий боғланишини кўрсатиш учун оригиналда бўлмаган “шунда” боғловчи сўзни қўллайди. Вэньянь учун бу шарт эмас.

Иккинчидан, 致敬 феъли “эҳтиром билан салом берди” деб таржима қилинади, бу 致敬 сўзининг иккита ташкил этувчисини адекват таржима қилиш бўлиб ҳисобланади: а) одамларга салом бериш; б) одамларга ўз эҳтиромини билдириш[99]. Хитойлик ўқувчи

[98] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 73.

[99]现代汉语词典 (第五版). – 北京: 商务印书馆, 2006年. – 1759页.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

учун бу иккала маъно ҳам 致敬 феълининг семантик қисмига имманент тарзда хос бўлиб, у умумий ҳолда лексик бирлик сифатида айнан шу икки маънони ифодалайди. Рус тилида эса бундай лексема йўқ, шу боис 致敬 сўз англатадиган маъно икки сўз билан ифодаланиб, улар фақат бирга 致敬 лексемага мос келади.

Учинчидан, “久仰山斗！” саломлашиш иборасида унда имплицит равишда мавжуд бўлган коннотатив-ассоциатив маънолар чет тилида эксплицит иборага айланади, бунга сабаб қуйидагилар. Хитой ўқувчиси ўз тараққиёти жараёнида зарур бўлган билимларга (маданий, ижтимоий, тарихий ва ҳ.к.ларга) эга бўлади, улар туфайли тилининг у ёки бу иборалари у учун маънога тўлади. Масалан, қандайдир бир киши борасидаги айтилган фикрни солиштиринг: “Вой, Геракл, Гераклнинг ўзи-я!” – агар биз Геракл тўғрисидаги афсоналарнинг ҳеч бўлмаганда бир қисмини билсак, сўзлаётган одам адресатнинг жисмонан бақувватлиги ҳақида гапираётганлигини тушунамиз. Хитой тили борасида юқоридаги ибора айниқса ченъюйлар ёки фразеологик бирликларга 成语 хослигини таъкидлаш керак. Алексеев мўлжаллаган ўқувчи эса, масалан, мана бу иборани тушуниш учун Хитой маданиятига тегишли асосий билимларнинг шундай заҳирасига эга эмас: “О Тайшань тоғи, о Катта айиқ юлдузи, Сизга анчадан бери таъзим қилиб келаман!” Ҳа, ўқувчи мурожаат услубининг қандайдир кўтаринкилигини хис этади, аммо муҳтарам ҳамсуҳбатни қандайдир тоғ ва ҳатто Катта Айиқ юлдузи ўхшатиш ортида нима туради, деган савол қолади. Бошқа томондан, “久仰山斗！”иборани (қария Ху талабага ўз эҳтиромини билдиришини кўрсатиш учун) функционал тарзда шундай таржима қилиш мумкин: “Сизнинг сиймонгизда доим донишмандлик манбаидан баҳраманд бўлишни орзу қилар эдим”, бу маданий-тил анъанасига яқинроқдир. Аммо образлилик йўқолади! Алексеев имкон қадар етказишга ҳаракат қилган хитойча специфика йўқолади[100]. Келинг, “久仰山斗！” ибораси нимани англатишини тушуниб оламиз. «久仰» –

[100]Эйдлин Л.З. Василий Михайлович Алексеев и его Ляо Чжай // Пу Сунлин Рассказы Ляо Чжая о чудесах. – М.: Худож. лит, 1973 – С. 8.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

мурожаат қилишда ҳушмуомалалик шакли “Сизнинг олдингизда анчадан бери таъзим қиламан” маъносини ифодалайди, одатда суҳбатдошлар биринчи марта учрашганда айтилади. 山斗 – морфемали конракция йўли билан ҳосил қилинган мураккаб қисқартирилган сўз бўлиб, унда 1-чи ва 3-чи компонентлар тушириб қолдирилган[101]. “泰山北斗” иборасидан ҳосил бўлган мазкур сўз эса юқори аҳлоқли ва кенг машҳур ёки буюк ютуқларга эга бўлган барчанинг ҳурматига сазовор бўлган кишини ифодалаш метафораси бўлиб ҳисобланади. Бундай метафоранинг пайдо бўлишига хитойликлар тоғ ва юлдузлар туркумига берадиган ўша муҳимлик ва муқаддас характер сабаб бўлади.

“Қиз бола уйининг муқаддас қоидалари” [102] ибораси ўзига эътиборни қаратади. Оригиналда: “叔闺训严”, бу ерда 严 – “қатъий”, 训 – “кўрсатма / ўгит / насиҳат”, 闺 – бизга таниш бўлган “уйнинг аёллар қисми”, 叔 эса – “амаки” маъносига эга. Кейинчалик, Чинфэн талабага Ху Ичюнь унинг ўз отаси эмаслигини айтади, уни айнан 叔 деб атайди. Унда Ляо Жай иборасининг маъноси рус тилига қуйидагича ўгирилиши мумкин: “Амакимнинг уйнинг аёллар қисми ва асосан турмушга чиқмаган қиз сифатида менинг аҳлоқим борасидаги ўгитлари қатъий ва қаттиқ”. Яъни Чинфэн нотаниш эркаклар билан учрашмаслиги, улар билан тунда ёлғиз суҳбатлашмаслиги керак ва ҳ.к.. Аммо В.М.Алексеев бундай катта ва поэтик бўлмаган иборани бадиий асар матнида қолдира олмасди. У сўзма-сўз таржимани эмас, балки новелланинг маъноси ва кайфиятини етказишга ҳаракат қилди. Шунинг учун ҳам таржимон бирмунча ўзгачароқ “Қиз бола уйининг муқаддас қоидалари” иборасини яратади.

Биз учун, шунингдек, қуйидаги иборанинг таржимаси ҳам қизиқарли: “生曰：“楼下之羞，耿耿在念，他事不敢预闻。必欲仆效绵薄，非青凤来不可！” В.М.Алексеев қуйидаги вариантни таклиф

[101] Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – С.88.

[102] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 75.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

этади: “Биласизми, – деб жавоб берарди бунга талаба, – мен ўшанда бошимдан кечирган шармандагарчилик ва ҳақорат қалбимни оловдек ёндиряпти. Бошқа нарсалар тўғрисида гапиришга йўл қўймайман, лекин сиз буни истасангиз, сизга бундай ҳимматни кўрсатар эдим, фақат бу ерда менинг ёнимда Чинфэн бўлади”[103]. Хитойча матннинг ихчамлигини яна бир бор таъкидлаб ўтиб, муносиб-ибораларнинг структур-мазмунли хусусиятларининг таҳлилига ўтамиз. Бошқа шунга ўхшаш кўпгина ҳоллардаги каби 生曰 (сўзма-сўз “талаба деди” деб таржима қилинади) нейтрал иборага В.М.Алексеев контекстга мос келадиган вариантни танлайди, яъни – “…бунга жавоб берарди талаба…”. Вэньяньдан фарқли равишда рус тилида боғланган матнда кўчирма гапни таржима қилиш учун муаллиф нимани, қандай аташининг турли-туман шаклларининг мавжудлиги норма бўлиб ҳисобланади. Бундан ташқари бу ерда Алексеев “бунга” сўзи билан ўқувчига олдинги гап билан мантиқий боғланишга ёрдам беради. Вэньяньда бу боғланиш имплицитдир, у минимум лексик ва расмий-грамматик кўрсаткичларига эга.

“S 曰”тур гаплардаги, бу ерда S – “曰” (“сўзламоқ/ айтмоқ”) ҳаракат субъекти, 曰 сўзларни таржима қилиш масаласини кўтариб, кўриб чиқилаётган матнлардан олинган тилларо мувофиқликларни танлашни ўтказиш лозим деб ҳисоблаймиз.

| 清凤 | Гўзал Чинфэн |
|---|---|
| 1. 生曰 | 1. жавоб берди талаба |
| 2. 生曰 | 2. деди Гэн |
| 3. 叟曰 | 3. деди қария |
| 4. 叟曰 | 4. дер эди қария |
| 5. 叟曰 | 5. қария деди |
| 6. 女曰 | 6. у (қиз) дер эди унга (йигитга) |
| 7. 女曰 | 7. Чинфэн ҳикоя қиларди |

[103] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 77.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

| | |
|---|---|
| 8. 女曰 | 8. дер эди қиз |
| 9. 孝儿曰 | 9. < - > (фақат Сяоэрнинг кўчирма гапи бор) |
| 10. 生曰 | 10. бунга жавоб берарди талаба |
| 11. 生曰 | 11. рози бўларди талаба |

Жадвалдан кўриниб турганидек, В.М.Алексеев, ҳам контекстни, ҳам рус тили анъаналарини инобатга олган ҳолда, таржимага ижодий ёндашган. 女 (“аёл”) сўзини таржима қилиш учун “у”, “Чинфэн”, “қиз”, сўзларини танлаб, улар мазкур матнда эквивалент бўлди. (生) Талаба “жавоб берарди”, “сўзларди”, “рози бўларди” ва “айтди” мисолларни кўришимиз мумкин.

Қаралаётган иборага қайтиб, солиштириб чиқамиз. “楼下之羞”ни Алексеев шундай таржима қилган: “мен ўша вақтда бошимдан кечирган ўша шармандагарчилик ва ҳақорат”, талабанинг кўчирма гапи бошидаги “биласизми” сўзни ҳам Алекссев мантиқий боғланишни таъминлаш учун киргазган. Шу билан бирга “楼下之羞” сўзма-сўз “биринчи/ пастки қаватнинг шармандагарчилиги” деб таржима қилинади. Пу Сунглинг новелласидаги бу шармандагарчилик нима экан? Матннинг юқорироғига назар ташласак , қуйидаги иборани кўришимиз мумкин: “妻不从，生乃自往，读于楼下. 夜方凭几，...”[104]. Талаба шу ерда – “биринчи қаватда” ўтказган тунда нима содир бўлди? Маълумки Ху Ичюнь талаба ва Чинфэннинг суҳбатлашиб ўтирганини кўриб қолади, ғазабга миниб қизни олиб чиқиб кетади, Гэнни яна учрашиш умидидан маҳрум қилиб, ёлғиз қолдиради. Талаба “楼下之羞” деганида айнан шу вазиятни назарда тутади. Бу иборани Алексеев тили қоидалари ва новелланинг контекстига мувофиқ таржима қилади.

羞 (“шармандагарчилик, уят”) икки маънода берилган: «шарманадагрчилик ва ҳақорат», бу билан “мен ўшанда бошимдан кечирган уят” дейишга нисбатан кўпроқ ифодалилик ва сюжетга кўпроқ мувофиқликка эришилган, чунки бу уят кимнингдир ножўя

[104] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 75.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

ҳатти-ҳаракати, ёки талабанинг ўзининг ножўя аҳлоқидан келиб чиққан бўлиши мумкин. “Бошимдан кечирдим” сўзи билан Алексеев вэньяньнинг олий тил услубини етказишга ҳаракат қилади.

Хитойча вариантда “楼下之羞” гап бошига олиб чиқилган ва вергуль билан ажратилган. Бу ерда мазкур гап 念 феълига воситасиз тўлдирувчи вазифасида келади. У кўрсатилган тарзда ажратилган бўлиб, мантиқий урғу вазифасини ўтайди. Таржимада ушбу ҳолат инобатга олинади: “ўша” кўрсатиш олмоши ва тегишли синтаксик конструкция қўлланган: “ўша шармандагарчилик ва ҳақорат, қайсики…”. “Шундай ёнадики” сўзлари тилга олинган воқеалар бундан уч йил муқаддам содир бўлган бўлса ҳам, талаба уларни кечагидек эслашини, бундан ташқари қалбидаги шармандагарчилик ва алам ҳисси уч йилдан бери яшаб келиши ва ҳозир ҳам камаймаганлигини англатади. Ушбу сўзларни киритиш билан Алексеев ниманингдир ҳозирги вақтда мавжудлигини англатиб, бу хитойча матнда «在» равиши орқали ифодаланган. Боз устига бу ерда ҳозирги замон ўтган замон ҳолати билан боғлиқлиги на лексик, на грамматик акс этмаган бўлса ҳам, назарда тутилган. Синтаксик структурага келсак, таржима қилинганда у трансформацияланади. “楼下之羞，耿耿在念” – эгаси аниқ гапларга тегишли бўлган қўшма гап бўлаги бўлиб, мустақил икки бўлакли гапга модификацияланган: “Биласизми, мен ўшанда бошимдан кечирган шармандагарчилик ва ҳақорат, қалбимда шундай ёнадики”. Агар биз хитойча гапни, сўзларни уларнинг бевосита келиш тартибида жойлаштириш учун трансформациялайдиган бўлсак, у ҳолда қуйидагича гап ҳосил бўлади: “耿耿在念楼下之羞”, бу ерда 耿耿 – ҳолат равиши («ёрқин/ равшан/ жонли»), 在 – вақт равиши, 念 – феъл-предикат (ўйламоқ бирор кимса, бирор нарса тўғрисида), 楼下 – 羞 воситасиз тўлдирувчига аниқловчи, 之 – атрибутив муносабатлар кўрсаткичи. Яъни, сўзма-сўз қуйидаги таржима ҳосил бўлади: “Ҳозир равшан ўйламоқдаман (тасаввур қилмоқдаман) бино пастидаги шармандагарчилик тўғрисида”, – бу албатта сўзма-сўз таржима, бадиий таржима эмас. Алексеев эса тил қоидаларидан ташқари, матннинг иероглифлик “кўриниши” ҳам инобатга олинган, чунки 念

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

сўзи маъноли қисми сифатида 心 “юрак”, графемасига эга, юрак бу қалб тўри деганидир[105].

Ундан кейин кўриб чиқилаётган ибора (талабанинг сўзлари) Алексеев таржимасида лексик-грамматик трансформацияланган. Гап шундаки, “楼下之羞，耿耿在念，他事不敢预闻” – ибораси расмий-грамматик кўрсаткичлари бўйича боғловчисиз, муносабатларни ифодалаш характери бўйича сабаб-оқибатлидир. У қуйидагига трансформацияланиши мумкин: “因为我耿耿在念楼下之羞，所以他事不敢预…” – унинг маъноси қуйидагича: “чунки қалбимда ўша пастки этаждаги, шармандагарчилик яшамоқда, шунинг учун бошқа масалани ҳал қилишга журъат этолмасдим”. Кейинги гапни: “必欲仆效绵薄，非青凤来不可！” – қуйидагича таржима қиламиз: “албатта шу майда ва осон ишда ёрдам бермоқчиман, аммо албатта Чинфэн келиши керак”. Яъни жумлани ўзгартириб қуйидагини ҳосил қиламиз: “Фақат бу ерда Чинфэн бўлсагина, менда сизга бу арзимас хизматни кўрсатиш истаги пайдо бўлади”. Кўриб труганимиздек, В.М.Алексеев “他事不敢预闻” ва “必欲仆效绵薄，非青凤来不可！” қисмларни битта эргашган қўшма гапга бирлаштиради, бу маъно жиҳатидан ўзини оқлайди.

敢 феълининг тавсифига мурожаат қиламиз. Пу Сунглингда типик хушмуомалалик иборасини кўрамиз: “бирор-бир бошқа масаланинг муҳокамасида иштирок этишга журъат этолмасдим (“他事不敢预闻”), аммо бунисида майли, ёрдам берганим бўлсин, фақат бир шарт билан – ҳозир кўз олдимда Чинфэн пайдо бўлади”. Алексеев маъноси «敢» га яқин бўлган , аммо бошқачароқ феълни – “рухсат этаман” феълини танлади. Кўриб чиқилаётган контекстда уни икки хил маънода тушуниш мумкин: 1) бошқа одамларга рухсат этмайман ва 2) ўзимга йўл қўймайман, – бунда биз иккинчи талқинни танлаймиз. Турли сабабларга кўра ўзига йўл қўймаслик мумкин, жумладан журъат этмаган ҳолда ҳам . Шундай қилиб, Алексеев бу ерда ҳам таржимага тўғри вариантни топган.

[105] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 76.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Қуйида Алексеев оригинал ритмикасини қандай етказишга ҳаракт қилганлигига алоҳида эътиборни қаратмоқчимиз. Юқорида айтиб ўтганимиздек, вэньянь – юқори даражада иероглифли, қисқача тил. Унда барча ортиқча нарсалар ташлаб юборилади. Лўнда, сермазмун иборалар қолиб, улар бирга, арзимас деталларга эътибор бермаган ҳолда аниқ ривожланаётган воқеалар таассуротини қолдирувчи ритмик матнни ташкил қилади. Ҳикоя жонли бўлиб, доим олдинга интилади[106].

Буни яхши тушунган Алексеев, рус тилида ифода этишнинг тегишли шаклини – феълли шаклини топади. Унинг таржималари (хусусан “Гўзал Чинфэн” новелласи ҳам) феълларнинг тез-тез ва мунтазам қўлланиши билан ажралиб туради. Гарчи таржимада сифатдош ва равишдошли бирикмалар ҳам мавжуд бўлсада, улар ҳикояни секинлаштириши мумкинлиги туфайли, таржимон феълнинг инфинитив ва шахсли шаклларини афзал кўриб, уларни имкон қадар камроқ ишлатишга ҳаракат қилади. “Чинфэн” новелласида феъл билан ифодаланган предикатга эга бўлмаган гаплар деярли йўқ. Масалан, қуйидаги гапни олайлик: “Деди, талабага таъзим қилди ва уни хонага бошлаб кирди”, буни қуйидагича ҳам таржима қилиш мумкин: “деди ва талабага таъзим қилганча уни хонага олиб кирди.” Шу билан бирга В.М. Алексеев сифатдошли ва равишдошли оборотларини қўллашдан воз кечмайди, чунки бу ҳолда, масалан, мана бу гаплардаги асосий ҳаракат билан кечадиган ҳаракатни (равишдошли оборотни) қандай ифодалаш мумкин : “Ўша қиз, ўзида бу нигоҳни хис этиб, бошини эгди.”– “女觉之，辄俯其首”; “Уйга келгач, Чинфэнни ҳеч бўлмаганда яна бир бор кўриш умидида, у ўз хотинига бутун мол-мулкини олиб ўша ерга бориб яшашни таклиф қила бошлади, аммо хотини кўнмади” – “归与妻谋，欲携家而居之，冀得一遇。妻不从”; “Кутилмаганда талабани кўриб қолиб, қиз қўрқиб кетди ва кетидан иккала эшикни тез ёпиб, орқага қараб кетди” – “骤见生，骇而却退，遽阖双扉。”[107]

[106] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 77.

[107] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 75.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Охирги мисолда Чинфэннинг ички дунёсини характерлайдиган ҳаракатларнинг тезлиги ҳам синтаксик, ҳам лексик (“кутилмаганда”, “шу заҳоти”) конструкциялар ёрдамида ифодаланади. Ушбу матнни унинг хитойча варианти билан солиштириш натижалари эътиборга лойиқ бўлиб, уларда ҳам ҳаракатнинг тезлиги, бир зумлигини ифодалашнинг лексик воситалари мавжуд (骤 – “бирдан, тўсатдан”, 遽 – “зудлик билан; шошилинч”), синтаксик борада эса гап вэньянь услубига хос бўлган намунани акс эттиради. Биринчидан, ҳаракат субъекти (Чинфэн)ни ўқувчининг ўзи мустақил равишда қўйиши керак. Бу борада В.М.Алексcев хитойча матнни анча аниқ таржима қилишга муваффақ бўлган. Солиштириб кўринг:

| 青凤 | Гўзал Чинфэн |
|---|---|
| 视之，则青凤也。骤见生，骇而却退，遽阖双扉。 | Қараса – бу Чинфэн келаётибди. Талабани кутилмаганда кўриб қолиб, қўрқиб кетди ва шу заҳоти ортидан иккала эшикни ёпиб, орқага кетди. |

Иккинчидан, вэньяньга хос бўлган лексемалар ва шу ёки бошқа лексемалар тўплами билан ифодаланувчи тушунчалар мавжуд, яъни сўзлар ва гап бўлаклари орасидаги муносабатларнинг расмий-грамматик кўрсаткичлари йўқ. Лексема ва тушунчаларни бир бутун тасвирга бирлаштириб, ўқувчи вазият тўғрисида муайян образни ҳосил қилади.

| | |
|---|---|
| 骤见生 | кутилмаганда талабани кўриб қолди |
| 骇而却退 | қўрқиб кетди ва ортга тисарилди |
| 遽阖双扉 | шошилганча икки тавақа ортига |

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

Кўриб турибмизки, “遽阖双扉” ибораси равиш ҳоли сифатида 却退 феълини аниқлаб келади, байхуадан фарқли равишда у грамматик жиҳатдан расмийлаштирилмаган. Яна шуни таъкидлаш керакки, В.М.Алексеев равишдошли бирикмани қўшиб, гапни уюшиқ кесимлардан иборат бўлган содда гап сифатида сақлаб қолган. В.М.Алексеев оригиналнинг ритмикаси ва қисқалигини етказиш учун шунингдек эллиптик (“Менга ҳам шундай хотин бўлганда эди!”, тўлиқсиз (“Бўлмаса-чи, … !” ёки қўшма эргаш гаплар ўрнига боғловчисиз (“Юраги эса шундай айландики, шундай айландики – у Чинфэнга бўлган ўз ҳиссиётларини унута олмади”, “Қараса – бу Чинфэн келаётибди” ) гапларни ишлатган. Чинфэн сўзларини эса В.М.Алексеев мана бундай таржима қилган: “今已卜居他所，一家皆移什物赴新居” – “Энди бошқа жойга кўчиб ўтишга қарор қилдик, бутун оила лаш-луши билан ўша ерга кўчиб ўтди”. Аслида эса, “今已卜居他所” – шунчаки, “энди бошқа ерга кўчиб ўтишга қарор қилдик” эмас, балки “энди эса фол (卜居) ёрдамида яшаш учун бошқа жойни танладик” деб таржима қилиниши керак[108]. Ўша даврларда Хитойда йўлга чиқишда, бирор нарса қуриш, ёки бирор кимсани дафн этишда – олий кучлар тўғри жой ва вақтни кўрсатиши учун доим фол очиш маросими ўтказиларди. Бу хитой ҳақиқатининг реалияси. Чинфэн бу ҳақда оддий ҳол сифатида сўз юритади. Сюжетнинг ривожланишига бу детальнинг йўқлиги таъсир этмайди, бироқ бизнинг назаримизда таржимада фақат шу мамлакатга хос бўлган реалиялардан бири сифатида, масалан, оёққа бинт ўраш маросими каби, сақланиб қолиши мумкин эди.

Шундай қилиб, Пу Сунглинг новеллаларини таржима қилишнинг айрим аспектларининг таҳлили шуни кўрсатадики, яхши таржимон нафақат икки тилни, балки икки халқнинг тарихи ва маданиятини ҳам яхши билиш керак. Таржимаси кимларга мўлжалланганлигини тасаввур қилиб, у қаерда зарур бўлган хитойча реалияни қолдириш, қаерда оригинал тасвир берилиши кераклигини, ўша ёки ўхшаш ассоциацияларни келтириб чиқарадиган, қаерда тилдаги

[108] Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983. – С. 77.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

эквивалентини киритиш кераклигини белгилай олиши керак. Лекин шу ерда ҳеч қандай таржима оригиналнинг бутун жозибасини тўлиқ ҳис этиш имконини бермаслигини эслатиб ўтамиз[109].

Таҳлил жараёнида таржимон ўзи истаган натижага эришиш учун қуйидаги усул ва услубларни қўллагани аниқланди: ўқувчига гап ким ҳақида боришини маълум қилиш мақсадида, асар номидаги қаҳрамон исмига қўшимча қилиниши; хитой тилининг идеографик “кўринишини” етказиш учун таърифловчи конструкцияларнинг қўлланиши; оригиналнинг эмоционал таъсир хусусиятларини сақлаб қолиш учун китоб услубидаги лексиканинг қўлланиши; оригиналнинг сиқиқлиги ва ритмикасини етказиш мақсадида инфинитивлар, боғловчисиз, тўлиқсиз ва эллиптик гапларнинг қўлланиши; хитойча спецификани етказиш мақсадида хитойча фразеологизмлар ва турғун сўз бирикмалари образлилигининг сақланиши; вэньяньда кўчма гапни ифодалаш учун муаллиф томонидан сўзларида мунтазам қўлланадиган 曰 (“сўзламоқ”) феълининг тилда турли эквивалентларга алмаштирилиши аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алексеев В.М. Предисловие переводчика // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном. – М.: Худож. Лит., 1983.
2. Алексеев В.М. Из жизни старого русского китаиста // Алексеев В.М. Наука о Востоке. – М.: Наука, 1982.
3. Галь Н. Слово живое и мертвое. – М.: Издательский дом «София», 2003.
4. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. Пу Сунлин. Красавица Цинфэн // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. с кит. акад. В.М. Алексеева – М.: Худож. лит., 1983.
5. Чжай // Пу Сунлин Рассказы Ляо Чжая о чудесах. – М.: Худож. лит, 1973.
6. Эйдлин Л.З. Василий Михайлович Алексеев и его Ляо Чжай // Пу Сунлин Рассказы Ляо Чжая о чудесах. – М.: Худож. лит, 1973.
7. Hashimova Sabohat Abdullaevna. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Peculiarities of Making Nouns Using Suffixes in Chinese (On the Example of Suffixes 家 “Jia” and 者 “Zhe”).

[109] Алексеев В.М. Из жизни старого русского китаиста // Алексеев В.М. Наука о Востоке. – М.: Наука, 1982. – С. 304.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

8. Хашимова С.А. Sharq ma'shali ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ОБРАЗОВАНИЯ МЕСТОИМЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ
9. 现代汉语词典 (第五版). – 北京: 商务印书馆, 2006年.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-421-423

**Индира Рустам кизи НАРКУЛОВА,**
*доктор философии по педагогическим наукам (PhD),*
*старший преподаватель кафедры «Изучение языков»*
*Университета общественной безопасности Республики Узбекистан*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрена роль глаголов активного восприятия при изучении русского языка курсантами Университета общественной безопасности Республики Узбекистан. Так как глаголы этого класса неоднородны по своему характеру и могут возникнуть трудности при изучении русского языка. Одни из них выражают зрительное восприятие (включающее в себя совокупность процессов построения зрительного образа окружающего мира), слуховое восприятие (**способность получать и интерпретировать информацию, которая достигает наших ушей** через волны звуковых частот, передаваемые по воздуху или иным образом), а также тактильное восприятие (ощущение давления, тепла, холода, возникающее при прикосновении кожи к чему-нибудь) и обоняние (способность к восприятию и различению запахов).*

***Ключевые слова:*** *глаголы активного восприятия, русский язык как иностранный, актантная структура.*

Глаголы восприятия – это глаголы, описывающие способы восприятия человеком окружающей действительности. Общее перцептивное значение данных глаголов ‘воспринимать кого-либо, что-либо’. Кроме того, семантические структуры глаголов восприятия включают и несколько дифференциальных сем: ‘способность перцептивного восприятия’, ‘постоянное функционирование способности’, ‘обладание перцептивной способностью’, ‘каузирование этой способности’ [Белова 2012]. Глаголы восприятия обозначают пять подсистем человеческого восприятия (зрение, слух, обоняние, вкус, осязание), каждая из которых включает определенное количество глаголов, обозначающих все виды восприятия.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

В современном русском языке глаголы восприятия делятся на две группы: слова со значением пассивного и активного восприятия. Активным называется восприятие, при котором субъект восприятия специально нечто делает для того, чтобы воспринимать объект. [Предикаты со значением пассивного восприятия в современном русском языке // https://studbooks.net/2094305/literatura/predikaty_znacheniem_passivnogo_vospriyatiya_sovremennom_russkom_yazyke]. К глаголам, обозначающим активное восприятие относят **пробовать (на вкус), щупать, нюхать, слушать, смотреть** и их производные**.** Для каждого вида активного восприятия существует парный глагол, обозначающий пассивное действие: *смотреть - видеть, слушать - слышать, нюхать - обонять, щупать - осязать*.

Рассмотрим глаголы, обозначающие активное восприятие:

**Пробовать что-то на вкус** - «есть или пить для определения вкуса, готовности чего-либо; делать так, чтобы небольшое количество вещества (пищи, жидкости) и язык касались друг друга, для того чтобы воспринимать вкус» [Современный толковый словарь русского языка 2000]. Например: Повар **<u>пробует</u>** суп.

**Щупать** - «прикасаться к кому-нибудь или чему-нибудь рукой, пальцами для того, чтобы ощущать, распознавать, исследовать». Например: **Врач <u>щупает</u> утопленнику пульс, начинает делать ему искусственное дыхание.**

**Нюхать** - «вдыхать через нос с целью ощутить, распознать запах; обонять для распознавания запаха». Например: **Но когда мать увидела, как сынок <u>нюхает</u> и слизывает кровь со своей разбитой коленки, то забрала его из секции и отвела к психиатру.**

Глаголы **нюхать, пробовать и щупать** описывают конкретные физические действия. А глагол **слушать** не указывает ни на какие подобные физические действия. Смысловые компоненты, входящие в значение глагола **слушать**:

1. ‘направлять слух’
2. ‘направлять слух в звуковое пространство’
3. ‘направлять слух на объект в звуковом пространстве’

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

4. ‘направлять слух на формальный или пропозитивный объект в звуковом пространстве’

Например: **Бутонов зашел к нему и поговорил с ним о Маше. Григорий слушал его внимательно**.

Ю.Д. Апресян толкует глагол **смотреть** через компонент ‘направлять взгляд, чтобы увидеть’. Например: **Георгий с удовольствием смотрел вверх.**

Все перечисленные глаголы активного восприятия сочетаются с наречиями цели (нарочно, специально, назло, умышленно, неумышленно и т.д.), что говорит об актуализации в семантической структуре данных глаголов семы ‘контролируемость’ (**Я специально не смотрел на нее. Я нарочно не слушал его. Я назло попробовал суп, который она приготовила).**

**Литература:**

1. Ёкубова Индира Рустам Кизи, Халилов Назарбек Олимжон Угли Особенности изучения актантных структур глаголов восприятия в современном русском языке // Вестник науки и образования. 2019. №20-1 (74). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-izucheniya-aktantnyh-struktur-glagolov-vospriyatiya-v-sovremennom-russkom-yazyke (дата обращения: 08.12.2022).
2. Маматкулов Хуршид Абдурашидович, Ёкубова Индира Рустам Кизи Развитие самостоятельной педагогической компетенции по английскому языку с помощью компьютерных технологий // Наука и образование сегодня. 2019. №11 (46). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/developing-self-study-competence-of-pedagogies-in-english-languages-by-computer-technologies (дата обращения: 08.12.2022).
3. Ёкубова И. Р. Роль синтаксической сочетаемости глаголов восприятия при изучении русского языка в высших военных учебных учреждениях // International scientific review. 2019. №LXIV. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/rol-sintaksicheskoy-sochetaemosti-glagolov-vospriyatiya-pri-izuchenii-russkogo-yazyka-v-vysshih-voennyh-uchebnyh-uchrezhdeniyah (дата обращения: 08.12.2022).
4. Ёкубова И. Р. СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ОБЪЕКТА В ВЫСКАЗЫВАНИЯХ С ГЛАГОЛАМИ ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //LBC 72 Modern science International scientific journal, № 04, Vol. I, 2019. – 2019. – С. 307.

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

# “КРАСОТА” КАК КОННОТАТИВНОЕ ПОНЯТИЕ КОНЦЕПТА “СЧАСТЬЯ” В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-424-428

**Валиева Ноиба Аббасхоновна**
*докторант ТГУВ,*
naying1564@mail.ru

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola doirasida xitoy xalqining zamonlar osha an’anasi, qadriyatlari va urf-odatlarida o‘z aksini topgan “baxt” konseptining freymilaridan biri go‘zallik haqida yoritilgan. Quyida keltirilgan frazeologik birliklardan go‘zallik ham baxtning bir bo‘lagi va u ham ruhan, ham jismonan yetuklikka erishish kerakligini ifodalaydi.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается понятие «счастье», которое с течением времени отражается в традициях, ценностях и обычаях китайского народа. В данной статье речь идет о красоте, одной из фреймов концепта «счастье», которая находит свое отражение в древних традициях, ценностях и обычаях китайского народа. Из приведенных ниже фразеологизмов красота является и частью счастья, и средством достижения как духовной, так и физической зрелости, усовершенствования.*

***Annotation.*** *This article discusses the concept of "happiness", which over time is reflected in the traditions, values and customs of the Chinese people. This article is about beauty, one of the frames of the concept of "happiness", which is reflected in the ancient traditions, values and customs of the Chinese people. Of the following phraseological units, beauty is both a part of happiness and a means of achieving both spiritual and physical maturity, improvement.*

***Kalit so‘zlar.*** *Kognitiv tilshunoslik, konsept, freym, felisitiologiya, go‘zallik.*

***Ключевые слова***. *Когнитивная лингвистика, концепт, фрейм, фелицитология, красота.*

***Keywords.*** *Cognitive linguistics, concept, frame, felicitology, beauty.*

Вопрос понятия «счастья» издавна интересовал человечество. Древнегреческие мыслители искали ответы на такие вопросы - что такое счастье, как его можно почувствовать и как люди становятся счастливыми.

Изучение понятия «счастья» получило широкое распространение в США с 1960-х годов. В США и Европе проводили

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

опросы о «счастье» и удовлетворенности людей, М. Аргайл, Х. Кантрил, Н. Брэдберн, А. Кэмпбелл, П. Конверс, В. Роджерс и др. в “Social Indicators Research” ,“Personality and Individual Differences” и в других журналах регулярно публикуют статьи по изучению «счастья» [7, 6с]. Развитие исследований «счастья» в Китае началось в 1980-х годах [2, 5с]. Как отмечал В. В. Татаркевич, один из авторов нескольких монографических исследований феномена счастья, «исследований о счастье за две тысячи лет очень много, но до сих пор не создана книга, полностью освещающая проблему изучения счастья, всеобъемлющей работы, которая обобщала бы все ее аспекты и предлагала решение. Этот факт необходимо учитывать» [6, 53с]. Это определение предполагает, что исследования концепции «счастья» все еще продолжаются и единого мнения нет.

Сложность изучения «счастья» состоит в том, что очень трудно определить специфику предмета, потому что слово «счастье» употребляется в разных смыслах. По Татаркевичу, слово «счастье» можно разделить на два основных значения: 1) объективное и 2) субъективное. В первом смысле «счастье» относится к радостным событиям, происходящим с конкретным человеком, а во втором — к субъективному, то есть к состоянию сильной радости, счастья или наслаждения, которое испытывает каждый человек. В первом случае человек говорит непосредственно о чувствах окружающих, во втором случае человек говорит о том, что пережил лично, и многие связывают субъективное счастье с объективным. В результате у всех одинаковый стержень, но разные компоненты понятия «счастья». Изучение феномена счастья привело к возникновению нового направления «фелицитология» (лат. Felicitas — счастье) — учение о счастье, выдвинутое в середине XX века неопозитивистом О. Нейратом [10, 1с]. Однако, «несмотря на свою культурно-психологическую значимость, концепт «счастье» до конца не изучен в области языкознания» [3, 35с].

Именно понятие счастья является одним из понятий, выражающих мировоззрение нации. Всем известно, что когнитивная лингвистика изучает ЯКМ (языковая картина мира) того или иного народа, а фразеологизмы как одно из средств выражения ЯКМ. В

VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28
ISSN 2181-1784
SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

